Máselen, B.Kóshimova Mańǵıstaw wálayatınıń toponimlerin morfologiyalıq quramı jaǵınan 1) dara toponimler; 2) quramalı toponimler dep iri eki toparǵa bóledi. Bir túbirden quralǵan dara toponimlerdi tiykarǵa hám dórendi túbir toponimler dep kishi toparlarǵa bólip qaraydı.

Al quramalı toponimlerdi óz ishinde bir komponentli, eki komponentli, úsh komponentli, tórt komponentli dep kishi toparlarǵa bólgen.

Sóz jasalıwı jaǵınan Mańǵıstaw wálayatı toponimlerin 1) leksika-semantikalıq, 2) sintetikalıq, 3) analitikalıq usıllar arqalı jasalatúǵınlıǵın kórsetken [5, 132-134].

Qaraqalpaq til biliminde Q.Ábdimuratov qaraqalpaq tili toponimlerin struktura-semantikalıq jaqtan qarastırıp, jay hám qospa toponimler dep analizlep, -lı/-li, -shı/-shi, -lıq/-lik affiksler arqalı jasalǵan toponimlerdi atap ótedi [6]. M.Qurbanov bolsa qaraqalpaq tilindegi toponimlerdi geografiyalıq terminlerdiń quramında analizlep, jay hám qospa geografiyalıq terminler dep bóledi. Qospa geogrfiyalıq terminlerdi yaǵnıy toponimlerdiń jasalıwın úsh usılda (affiksaciya, sóz qosılıq, leksika –semantikalıq usıllar arqalı) analizleydi [7]. Qaraqalpaqstannıń arqa rayonlarınıń gidronimlerin izertlegen G.Mambetova grammatikalıq qurılısı boyınsha jay, qospa hám quramalı gidronimler dep bólip izertleydi [8, 99]. G.Abishov Shımbay rayonı toponimlerin qurılısı jaǵınan jay hám qospa toponimler dep bólip, olardı ishki birneshe kishi toparlarǵa bóledi. 1) Jay toponimler: a) affiksiz toponimler. Mısalı: Shańlaq, Hávli, Sanatoriya. b) affiksli toponimler. Mısalı: Gelleli, Sharwashılıq, Shaǵırlıq, Kónshi, Suwshı, Baǵman, Salıkesh, Gújimli, Duzlıoy t.b.

2) Qospa toponimlerdi óz ishinde a) atlıq + atlıq modelindegi toponimler, b) kelbetlik + atlıq modelindegi toponimler, v) sanlıq + atlıq modelindegi toponimler, g) atlıq + feyil modelinden toponimler dep bóledi.

Shımbay rayonı toponimleriniń 1) onomastikalıq konversiya, 2) leksika-sintaksislik usılları arqalı jasalǵanlıǵın kórsetedi. Leksika-sintaksislik usıl arqalı jasalǵan toponimlerdi ishley 1) Komponentleri atributivlik (anıqlawıshlıq) qatnastan dúzilgen qospa toponimler, 2) Obektivlik (tolıqlawıshlıq) qatnasqa tiykarlangan qospa toponimler, 3) Relyativ (pısıqlawıshlıq) qatnasqa tiykarlangan qospa toponimler, 4) Predikativlik qatnasqa tiykarlangan qospa toponimler dep bóledi [9, 30-39].

Izertlew jumısınıń bul bóliminde aymaq toponimleriniń grammatikalıq quramın, olardıń tiykarǵı hám dórendi túrlerin, dórendi toponimlerdiń jasalıw usılların, toponim jasaytuǵın qosımtalar menen olardıń ózinsheliklerin, qospa toponimlerdiń qalıplesiw jolların anıqlap, Qońrat rayonı toponimiyasındaǵı topoformantlar menen toponimlik determinativlerge toqtalamız. Solay eken,



dáslep Qońırat rayonı toponimiyasındaǵı dara hám qospa toponimlerdi talqılaymız. Bunday qurılıslıq ózgeshelik túrkiy tillerdiń bárine tán. Dara toponimler dúzilisine qaray tiykarǵı hám dórendi bolıp bólinse, qospa toponimler birikken toponimler hám dizbekli toponimlerge bólinedi.

Juwmaq. Qońırat rayonı toponimiyasınıń strukturalıq ózgeshelikleri túrkiy tillerdiń ulıwma tendenciyları menen únles. Jer-suw atamaları tiykarınan ápiwayı (dara) hám qospa (quramalı) toponimlerge bólinedi. Ápiwayı toponimler túbir hám dórendi formalardan, qospa toponimler bolsa atributiv, appozitiv hám basqa da sintaksislik strukturalardan ibarat. Izertlew Qońırat toponimiyasınıń tariyxıy-mádeniy hám lingvistikalıq ózgesheliklerin ashıp, onıń túrkiy onomastikadaǵı ornın belgileydi.

PAYDALANÍLGAN ÁDEBIYATLAR:

1. Подольская Н.В. Типовые восточнославянские топоосновы. Словообразовательный анализ. – Москва: Наука, 1983.
2. Донидзе Г.И. О грамматической характеристике тюркских топонимов // Ономастика Повольжья. Вып. 2. – Горкий, 1971.
3. Эназаров Т. Туркий содда топонимларининг этимологик тадқиқи. – Тошкент: Университет, 2002.
4. Топонимия Южной Киргизии. – Фрунзе: Илим, 1980.
5. Көшімова Б.Ә. Маңғыстау өңірі топонимиясының тарихи, мәдени, энциклопедиялық ақпараттар жүйесі. – Алматы: Нұрлы Әлем, 2011.
6. Абдимуратов К. Топонимика Каракалпакии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Нукус, 1966.
7. Курбанов М. Каракалпак тилиндеги географик терминларнинг лексик-грамматик хусуиятлари. Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Нукус, 2011.
8. Мамбетова Г.Ж. Каракалпакстанның арқа районлары гидронимлери. Филол. илимл. филос. докт. ... дисс. – Нөкис, 2018.
9. Абишов Г. Шымбай районы топонимлери. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2020.



«ALPAMÍS» DÁSTANÍ MILLIY VERSIYALARÍNDÁ KÓRKEM VARIACIYALAR

Allamberganova N.G.

NókisMPI Ózbek ádebiyatı kafedrası docenti

Tayanch soʻzlar: xalq dostonlari, xalq baxshilari, variatsiya, badiiy variatsiya, improvizatsiya, badiiy takror.

Ключевые слова: народные былины, народные певцы, вариация, художественная вариация, импровизация, художественный повтор.

Key words: folk epics, folk singers, variation, literary variation, improvisation, literary repetition.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada xalq dostonlarida keng qoʻllaniladigan badiiy variatsiyalar va ularning baxshi-jirovlar epik repertuaridagi oʻrni va ahamiyati xususida soʻz yuritiladi. “Alpomish” dostoni oʻzbek-qoraqalpoq milliy versiya variantlaridagi sodda va murakkab variatsiyalar tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье речь пойдет о художественных вариациях, широко используемых в народных эпосах, их место и значения в эпическом репертуаре башши. Анализируются простые и сложные вариации узбекско-каракалпакского национального версии эпоса «Алпамыш».

SUMMARY:

This article discusses the literary variations widely used in dastans (folk epics), moreover their place and importance in the epic repertoire of bakhshis. Simple and complex variations are analyzed of the Uzbek-Karakalpak national version of the epic "Alpomish".

Variaciya ataması Ózbekstan milliy enciklopediyasında: «Variaciya (lat. variatio – ózgeris) (genetikada) – belgili bir kompleksti quraytuğın birlikler ortasındağı modifikaciyalıq yaki genotiplik ayırmashılıqlar; gen(belgi)niń sıpat yaki muğdar jağınan ózgeriwi», – dep sıpatlanadı. Sonday-aq, «variaciylar – muzıka forması. Onda tiykargı muzikalı tema (temalar) óziniń bir yaki bir qansha elementleri (ritm, temp, faktura, ırğaq hám t.b.) ózgertilgen halda tákirarlanadı» [7.52], – delinedi sol derekte. Usı atama ádebiyattanıw termini sıpatında pikirdiń jańa formadağı tákirarlanıwın ańlatadı. Ápiwayı qaytalawda tap sol sóz yaki túsiniktiń belgili bir bólimi, eń keminde birewiniń grammatikalıq formalarına qaramastan qaytalanıwı júzege keledi. Kórkem variaciyanıń ápiwayı qaytalawlardan ayırmashılığı sonda, variaciya sózbe-sóz qaytalaw



emes, al pikir qaytalawı sanaladı. Avtor óz pikirin tınlawshı (oqıwshı)ǵa onıń sanası hám qálbine tolıq jetip barıwı maqsetnde jáne qaytalaydı, biraq bunday qaytalawlarda túsiniq jańalanadı, mazmun bolsa salıstırmalı bayıp baradı.

Variyaciya termini, tiykarınan, muzıka ushın tán bolsa da, onnan kórkem túsiniqler jaratıwda paydalanılǵanı ushın ádebiyattanıwda da qollanıla baslaǵan. Kórkem variaciya, á sirese, folklorlıq shıǵarmalard kóp ushırasadı hám ol teńew, giperbola, epitet hám qaytalawlar sıayqlı kórkem obraz jaratıw maqsetinde qollanıladı. Sonday-aq, variaciyalar baqsı-jırawlardıń dóretiwsheilik sheberligin belgilewde ahmiyetli ólshem sanaladı. Sebebi folklorıtanıwshı T.Mirzaev: «ózbek baqsısı óz dástanınıń tekstin auditoriyanıń talap hám talǵamına qarap ózǵertip (qısqartıp yaqı bayıtıp) turǵan»ın atap ótedi [3.386].

Nemis alımı K.Rayxl “Türkıy epos. Dástúr, forma, qosıq qurılısı” kitabında ózbek, qaraqalpaq hám qazaq xalıq dástanlarınıń formalıq dúzilisi haqqında, jumladan, kórkem variaciyalar haqqında keń toqtaladı. Mongol xalıq eposındaǵı kórkem variaciyanıń ornı hám áhmiyetin A.V.Kudiyarov, altay eposındaǵı úlǵilerin A.A.Konunovlar kórsetken bolsa, professor B.Tuxliev «Alpamıs», sonday-aq, «Góruǵlı» dúrkin dastanlarında, xakaslardıń «Altın arna», qırǵızlardıń «Manas» dástanlarında da bul usıldıń bir qansha jedel ekenin atap ótedi [4.68].

Tema boyınsha izertlew alıp barıwda ózbek hám qaraqalpaq hámde jáhán folklorıtanıwında alıp barılǵan izertlewlerge súyenildi. Sonday-aq, salıstırmalı-tariyxıy, salıstırmalı-tipologiyalıq hám sistemalı analiz usıllarınan paydalanıldı.

Kórkem variaciya hádiyseniń «Alpamıs» dástanınıń milliy versiyaları – ózbek hám qaraqalpaq variantlarında keń qollanılganlıǵın baqlaw múmkin. Máselen, Xojambergen Niyazov:

*«Xosh bolıńız, oynap ósken qurdaslar,
Bul dúnyada endi kórmek bolmadı.
Xosh bolıńlar, oynap ósken qurdaslar,
Bul dúnyada men de sennen ayrıldım» [2.8].*

Yamasa: *«On tórtinde tuwǵan seniń ayıńdı,
Men bilemen, balam, seniń jayıńdı.
On tórtinnen tuwǵan gáwhar ayların,
Kelisipti, balam, sayma-sayların» [2.17-18].*

Joqarıda keltirilgen qatarlarda qaharman aytpaqshı bolǵan tiykarǵı pikir. Onıń qaytalawlardıń qollanıluwı óz-ózinen tınlawshı (oqıwshı) itibarın tartadı. Áne, sonda tuwılıp ósken jurtnan, yaqınlarınan hám teńi-tayınan ayrılıw aldında turǵan qaharmannıń ishki hásiwetleri oǵan da ótedi.



Baysinnan shıgıp ketiwde Barshınay tilinen xoshlasıw monologı sıpatında ayılğan dáslepki mısallar «Bul dúnyada endi kórmek bolmadı» hám «Bul dúnyada men de sennen ayrıldım» variaciyanıń ayqın úlgeri bolıp, itibar berilse, «kórmek bolmadı» hám «ayrıldım» sóz hám birikpeler bir-birine mániles. B.Tuxliev «Yusuf Has Hajib hám túrkiy xalıqlar folklorı» miynetinde «Kórkem variaciyanıń dáslepki basqıshı negizinde sinonim sózlerden paydalanıw menen baslanğan»ın atap ótedi [4.69].

«On tórtinde tuwğan seniń ayındı», «On tórtinennen tuwğan gáwhar ayların» variaciyalarında gawhar ay kórkem sáwlelniwinde aydıń on tórt kúnde tolıwı Alpamıstıń kámalğa kelip, kúshli hám márt jigit bolıp erjetkenligine ishara bolıp esaplanadı. Búgingi kúnde aydıń tolıwı on bes kún dep qollanıladı hám xalıq arasında «on bes kúnlik ay», «aydıń on bes qarańǵı, on bes jaqtı» sıyaqlı túsiniqler kóplep ushırasadı. Keltirilgen misalda aydıń on tórt kúnde tolıwı qamariy esap penen bir aydıń jigirma segiz kúnnen ibarat ekenligi názerde tutılsa, onıń teń yarımı, tap toılğan payıtı on tórt kúnge tuwrı keliwin anlaw qıyın emes.

Usı varianttaǵı tómendegi tekstlerge itibar qaratsaq:

*«Kelgenler bizden zormedi,
Ne kórdiń, qara at, ne kórdiń?
Kelgenler bizden gawmedi,
Ne kórdiń, qara at, ne kórdiń?
Kelgenler bizden batır ma,
Ne kórdiń, qara at, ne kórdiń?» [2.23].*

Kórkem variaciya bir qaraǵanda sinonimlerge jaqın tursa da bunı leksikalıq sinonim dep bahalaw naduris boladı. Sebebi variaciya pikir sinonimiyası bolıp, belgili bir tamamlanğan pikirdi jańa túsiniqlerde beriwdi maqset qıladı.

«Alpamıs» dástanınıń ózbek milliy versiyası Fazıl Yoldash ulı variantında Barshındı Qarajanğa ataştırıp oromal baylawğa kelgen Surxayl kempir sózinde tómendegi variaciyalardı baqlaw mumkin:

*«Boshida hilpirar lovdon ro ‘moli,
Oydayin barq urar aning jamoli...
Bolam, sening yoring bir mohi dilbar,
Jamollari aning oyga barobar» [1.99].*

Ajratıp kórsetilgen «oydayin barq urar aning jamoli», «jamollari aning oyga barobar» variaciyaları tap bir – Barshın jamalınıń ayǵa meńzeliwin sáwlelendiriw ushın qollanılgan. Variaciya sonday usıl, onda kórinisler, túsiniqler jańa, taza boladı. Sonıń ushın da bunday qaytalawlar tınlawshı yaki oqıwshını sirá zeriktirmeydi. Kerisinshe, ayılıp atırǵan, sızılıp atırǵan



kórinisleriniń tıńlawshı hám oqıwshınıń kóz aldında ayqın gewdeleniwine xızmet qıladı:

*«Kórinedi tillá erin iyninde,
Nege keldin, jalg ızım, payıw-piyada?
Arqalapsañ tillá erdi iynihe,
On qolına jez bawırdaq qamshı alıp» [2.16].*

*«Xan aldınan atlanıpsañ qaynağa,
Mendey kelininiń aytar arız bar.
Atlanıpsañ xanıızdın aldınan,
Qaynağajan barar jerin jol bolsın» [2.20].*

*«Sahár turıp sarı atanğa júk artıp,
Qaysı elden qaysı elge barasañ,
Sahár turıp sarı atanğa júk artıp,
Sapar ettiñ qay patshaniń eline?» [2.89].*

Kórkem variaciyalardıń kórinisleri oğada hár qıylı bolıp, ol eki báytten bir neshe betke shekemgi kólemde bolıwı múmkin. Mine, usınday quramalı variaciyalardıń «Alpamıs» dástanınıń hár eki versiyasındaǵı, derlik, barlıq variantlarında Alpamıs hám Qarajannıń bir-birinen «jol bolsın» soraw procesinde ushırasatuǵın úlgilerinde ushırasıwı xarakterli.

Fazıl Yoldash variantı:

*«Ko 'kqamish ko 'lidan suqsur uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo 'laman,
Bog 'larim zumratdan changalim po 'lat,
Boysundan quyulgan shunqor bo 'laman,
Boyligidan bedov otni boylagan,
Tanqa taylab Olatovni yoylagan,
Kambag 'ali qirq ming gala haydagan,
Shul galada bizning bir moya kelgan,
Moyaning yo 'qchisi nori bo 'laman» [1.149].*

Usı úzindide «Sen kimseń?» degen sorawǵa juwaptı kóriw múmkin. Juwapta bir neshe bánt sanalǵanday boladı. Onıń tiykarǵı mazmun-mánisi qaharmannıń tosınnan kelgen shaxs emes, al «zatı ullı» ekenin, óziniń alplıǵın tanıtıwǵa baǵdarlangan «dáliller» dep qabıl etiw múmkin.

Al, Ogiz jıraw variantında waqıya orayında turǵan qatnasıwshılardıń «dizimi» usınıladı:

«Aldın baslap ketken ol qara narım,



*Keyninen ketkendi quba ingeni,
Ortasında ketti aqsha botasi,
Moynunda ketkendi altın buydası...
Ortasında ketken aqsha botasi,
Ózge maldıń joqdur sanı-sapası,
Mal joyıtqan júredi jollarda jılap,
Izinen quwıp kiyatırman soraǵlap» [2.25].*

Bul jerde tap qara nar, quba ingen, altın buyda, hámde «ózge mal»lar ráń-báreńlikti payda eted.

Usı hádiyse Qurbanbay jıraw Tájibaev variantında jáne de basqasharaq sáwlelenedi:

*«Ashıq bolǵan mashıǵım dep qılar zar,
Kárwandı baslaǵan endi quba nar,
Keyninde bar qızıl maya ingeni,
Joq sózimniń, aytsam saǵan, qátesi.
Izinde oynar jez buydalı aq taylaq botası,
Joq sózimniń ayta bersam qátesi.
Biz bolamız sol mallardıń iyesi,
Jurtta bolsa ádalatlı endi xan,
Budan xabar bergil zalım Qarajan»[2.302].*

Arzimbet jıraw variantı:

*«Aldın baslap ketken bizden qara nar,
Al izinen ketken quba ingeni,
Bul sózimniń joqdur; bilseń, xatası,
Ortasında ketken eken,
Narsha taylaq, jez buydalı botası,
Men yǵılayman bir allaǵa zar-zar,
Hár ne qılsa haq máwlenniń erki bar,
Basqa maldı aytıp, zańǵar, neteyin,
Kórseń-bilseń úsh malımnan ber xabar» [2.628].*

Keltirilgen variaciylar quramalı tábiyatlı bolıp, kólemi jaǵınan da ápiwayı variaciyalardan ózgeshelenedi. Bunday variaciylar jańa poetikalıq túsiniqler jaratıw menen birge, mánini kúsheytiwge, kórinisti jańalaw menen tıńlawshı-oqıwshıda tez hám ayqın túsiniq oyatıwǵa xızmet qıladı. Biz talqılawǵa tartqan variantlardıń, derlik, barlıǵında Barshındı izlep jolǵa shıqqan Alpamıstıń Qarajan menen, Táwke menen qılǵan sáwbetlerinde quraamalı variaciyanıń gózzal úlğilerine dus keldik. Fazıl shayır variantında Alpamıs «Shul galada bizning bir moya kelgan, Moyaning yo‘qchisi nori bo‘laman», – dep óziniń



Barshındı izlep kelgenine ishara qılsa, Ógiz jıraw: «Aldın baslap ketken ol qara narım, Keyninen ketkendi quba ingeni, Ortasında ketti aqsha botası». Qurbanbay jıraw Táji baev: «Kárwandı baslağan endi quba nar», «Keyninde bar qızıl maya ingeni», «Izinde oynar jez buydalı aq taylaq botası», – dep, Ógiz jıraw qollanğan teñewler menen sol kórinisti áyne, qaytalamağan halda sol pikirdi jańa kórinis penen bezeydi. Arzımbet jıraw hám Ógiz jıraw hám Qurbanbay jıraw pikirin hám tenewlerdi qollanğan halda jańa kórinisler jaratadı. Nátiyjede, sol pikir, mánis hám mazmun túrli bezekler menen ziyetlenedi: «Aldın baslap ketken bizden qara nar», «Al izinen ketken quba ingeni», Ortasında ketken eken... jez buydalı botası».

Dáslep, talqılawǵa tartılğan variaciya úlgilerinde awıspalı mánide qollanğan sózlerdiń leksikalıq mánisinen itibar qaratıw zárúr. Usı tekstlerdegi «quba» hám «ingen» sózleri túsınık talap etedi. «Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi»nde quba – aqshıl sarı, quwqıl, boz, bozǵıltaw, surlaw tus [6.180]. Ingen bolsa maya, urǵashı túye. Awıspalı mánide «jas sulıw qız», «janan», «súygilik» [2.272].

Demek, keltirilgen tekstlerdegi «nar», «maya», «ingen», «bota» sózleri hám solardı jámlew mánisinde isletilgen «úsh mal» sóz dizbegi awıspalı mánilerde qollanılğan bolıp, Baysarını nar-túyege, hayalın ingen, yaǵnıy, ana túyege, Barshındı bolsa ózbek variantında mayaǵa hám qaraqalpaq variantında bota – túyenin balasına salıstırıw arqalı poetikalıq kórinis jaratıladı. Bul jerde sáwlelenip atırǵan pikir bolsa bir – Baysarı hám onıń shańaraǵı haqqında sorastırıw, xabar tabıw. Bir qansha báytlar arqalı sáwlelengen, kólemi úlken bul varaiiciyalar bir pikirdiń túrli kórinisler menen beriliwi, ziyetleniwi bolıp esaplanadı.

Variyaciya bul – «áyne predmet, waqıya-hádiyse yaqı jaǵdaydı hár waqıtta jańasha kórinisler menen súwretlew, biraq sonda da onıń aldınǵı dizbegine baylanıslı ózgeshliklerdi saqlap qalıw ańsat jumsı emes. Bular dóretiwshiden hár tárepleme sheber bolıwın talap etedi. Mine, usınday, keskin hám qatın talaplarǵa shıdaǵan shayır ǵana kórkem variaciya imkaniyatlarınan keń hám tolıq paydalana alıwı, sonıń menen birge óz individual sheberlik qırların hár tárepleme kórsetiwdiń qolınan keliwi múmkin» [4.90]. Jazba ádebiyatqa qarata ayılǵan usı juwmaqlardı tolıǵınsha baqsı-jırawlar dóretiwshiligine de engiziw kerek.

Xalıq dástanların tallaw barısında kórkem variaciyalardıń qollanıwına qaray eki túri bar ekenligin kórdik. Bular:

1) Ápiwayı variaciyalar: bular, tiykarınan, sinonim sózler tiykarına qurılǵan boladı, biraq olardı sóz sinonimiyasınan ajratıw kerek. Bunday variaciyada



sinonim sóz járdeminde jańa pikir - súwret yamasa kórinis jaratıladı. Máselen, *Kelgenler bizden zormedi, Kelgenler bizden ğawmedi, Kelgenler bizden batırma; Bul dúnyada endi kórmek bolmadı. Bul dúnyada men de sennen ayrıldım.*

2) Quramalı variaciyalar: kólemi jaǵınan tórt hám onnan artıq qatarlardan ibarat bolıp, ondaǵı pikirler tákirarlanıwı belgili bir tekst arqalı ańlatıladı. Sonday-aq, variaciyanıń bul túrinde gáp bólekleriniń inversiyaǵa ushıraw qubılısı da kóp baqlanadı. Máselen, *Qaysı elden qaysı elge barasań, Sapar ettiń qay patshanıń eline?; Qıl quyırq yabılı bala, jol bolsın, Sen minipseń bir qıl quyırq yabını; Kórinedi tille erin iyninde, Arqalapsań tille erdi iynińe; Aldın baslap ketken bizden qara nar, Al izinen ketken quba ingeni, Ortasında ketken eken, jez buydalı botası, Kórseń-bilseń úsh malımnan ber xabar.*

Demek, variaciya baqsı-jırawlardıń epikalıq repertuari menen baylanıslı bolıp, olardıń tek syujet yamasa tekstti yadtan biliwi ğana emes, al ayılmaqshı bolǵan pikirlerdi jańa hám alıńısınan da gózzal bir formada bildiriw óneri bolıp tabıladı. Bul process biraz quramalı bolıp, qanday da bir kórinis jaratılıp atrıǵanda sóz qollanıwda bir qıylılıqqa jol qoymaw talap etiledi. Bunıń ushın baqsı-jıraw aldın qollanǵan sózlerin áyne, qaytalamawı, jańa leksemalardan, mániles sóz hám qosımshalardan paydalana alıw sheberligine iye bolıwı menen birge gáp qurılısınıń túrli formaların biliwi hám olardan orınlı hám maqsetke muwapıq halda paydalanıwı talap etiledi. Joqarıdaǵı mısallar baqsı-jırawlardıń usı talaplardı ayrıqsha dárejede orınlaǵanlıǵın tastıyılap turıptı.

PAYDALANILǵAN ÁDEBIYATLAR:

1. «Alpomish». – Toshkent: Fan, 1999.
2. Қарақалпақ фольклоры. 100 томлық. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2007.
3. Мирзаев Т. Эпос и сказатель. – Ташкент: Фан, 2008.
4. To'xliev B. Yusuf xos Hojib va turkiy xalqlar folklori. – Toshkent: Bayoz, 2013. To'xliev B. Yusuf xos Hojib va turkiy xalqlar folklori. – Toshkent: Bayoz, 2013.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
6. Қарақалпақ тилинің түсіндірме сөзлігі. Төрт томлық. – Нөкіс: Қарақалпақстан. 1988. – Т. III.



INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Sultanova A.

Nukus DPI O'zbek tili kafedrası dotsenti

Kurbanova G.

QDU tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: xorijiy til, kreativlik, muloqot, zamonaviy metodlar, texnologiyalar, o'qituvchi, o'qitish usullari.

Ключевые слова: языковые навыки, креативность, коммуникация, современные методы, технологии, учитель, методы обучения.

Key words: foreign language, society, foreign language, modern methods, technologies, teacher, teaching methods.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada o'rganilayotgan tilning o'zi - ingliz tilini o'rgatish va bu jarayonda qo'llaniladigan usullar muhokama qilinadi.

РЕЗЮМЕ:

В этой статье рассказывается о преподавании самого изучаемого языка - английского и методах, используемых в этом процессе.

SUMMARY:

This article talks about teaching the most studied language, English, and the methods used in this process.

Bugungi axborotlashgan davrda chet tillarini o'rganish kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Zero, turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o'quv materiallarining katta to'plamlari mavjud. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Yoshlarimiz orasida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga ortib bormoqda. Til o'rgatishni yanada samarali yo'lga qo'yish uchun, albatta, ta'lim metodlarining xilma-xil usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga keng joriy etish talab qilinadi. Ingliz tilini o'qitishda, asosan, to'rt ko'nikma: Kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, muuloqot qilish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratila boshlandi. Bu esa o'quvchilarni biror bir mavzu doiraida erkin va tanqidiy



fikr yurita olishlari, bir-birlari bilan muloqot qilish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilarda mana shu kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'limning interaktiv usullaridan foydalanish mumkin. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari orqali turli xil interaktiv metodlarni ishlab chiqish mumkin. Ingliz tili darslarida o'quvchilarda to'rtta ko'nikmani takomillashtirish uchun, albatta, axborot texnologiyalari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tili darslarida grammatik materiallarni o'rgatish o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Savodli yozish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri shakllantirish ma'lum darajada grammatik materiallarning o'zlashtirilishiga bog'liq bo'lib, bunda tilni o'rganish jarayoni zaruriy ravishda kundalik amaliy nutqiy faoliyat bilan, shu faoliyat kechadigan nutqiy vaziyatlar, leksika mavzulari bilan integratsiyalanadi. Bir tomondan, o'quvchilarni til hodisalari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish ishlari ro'yobga chiqariladi, ikkinchi tomondan esa nutqiy ko'nikmalarni izchil rivojlantirishga erishiladi.

Nutqiy ko'nikmalarining erishilgan darajasiga ko'ra taqozo etilgan amaliy jihatdan zarur ma'lumotlar beriladi. Bu ta'limdagi bir-biri tomon peshvoz chiquvchi ikki yo'nalishning o'zaro integratsiyasidir. Birida dasturiy bilim ustida ish olib borilsa, ikkinchisida nutqiy ehtiyojga ko'ra til hodisasi tanishtiriladi. Ingliz tili darslarida til hodisalarini o'rganish integrativ xususiyatga ega. Bunda grammatik atamalar va ularga doir ta'riflar, grammatik vositalar va ularni qo'llash aspektida tutashadi va birlashadi.

Leksik va grammatik vositalar nutq o'stirishning asosiy omili bo'lib, bular ham ikki yo'nalish kasb etadi: so'zlashuv nutqiga xos uslub, kitobiy nutqqa xos uslub. Bunda o'quvchilarning o'zaki nutq, muloqot ko'nikmalarini egallash asnosida faol va nafaol leksik hamda grammatik vositalar integratsiyasi sodir bo'ladi.

Nutq o'stirish so'z birikmalaridan gap tuzishga, gaplardan matn yaratishga qarab boradi. Gaplar, matnlar mazmuni orqali real voqelik buyumlari, tabiat hodsallari bilan ularning nomlari integratsiyalanadi.

Matnlar, misollar orqali turli sohalar (tarix, madaniyat, geografiya, urf-odatlar) tutashadi, o'quv fanlariaro aloqa o'rnatiladi.

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan



unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogika o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ularni o'tkazish tartibi haqida to'xtalib o'tamiz. Ushbu keltirilgan zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga, hamda kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan darslarining an'anaviy darslardan farqi shuki, bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o'z fikrini erkin bayon etishga imkon yaratib berishdir. O'quvchiga hech qanday tazyiq o'tkazmasdan, uning shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti yaratiladi. Darsning mazkur bosqichida o'quvchilarni g'oyalar va takliflar bilan chiqishga chorlash va shu vaqtning o'zida barcha g'oya hamda takliflarni yozib borish lozim. Iloji boricha qisqa va tushunarli tarzda yozib qo'yilgan qoidalar o'quvchilar tomonidan (o'qituvchi yordamida) izohlanadi. O'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirishda hamkorlikda o'qitish ham yaxshi samara beradi.

Hamkorlikda o'qitish – bu turli kichik guruhlardagi interfaol jarayonlarni aniqlovchi ommalashgan iboradir. O'quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o'zlariga hamda o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi. Umuman, hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi besh xususiyatga ega:

1. O'quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiy ish orqali yaxshi o'zlashtiriladi.

2. 2-5 a'zo tarkibidan iborat, o'quvchilar kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3. O'quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini o'tkazish uchun, kooperativ va ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvorni ishlatishadi.

4. O'quvchilar ijodiy va mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini o'tkazishda, o'quvchilarning bir-birlariga, yordam talab etilishi hisobga olinib, ish tuzilgan bo'ladi.

5. O'quvchilar o'z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o'qishga, ta'lim olishga, shaxsan mas'uliyatli va javobgardirlar.

Hamkorlikda o'qitish, o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi:

- O'quvchilar, o'rtasida bo'lingan, kognitiv axborotlar to'plamini beradi.



- O'quvchilarda, materialni o'rganishlarida ishtiyoq uyg'otadi.
- O'quvchilarning, o'z shaxsiy bilimlarini shakllantirishda qo'llanadi.
- O'zaro muloqot, hurmat, do'stona munosabatlar shakllanadi.
- Sinfdan tashqari erishiladigan muvaffaqiyatga zaruriy ijtimoiy va guruhiiy bilimlar rivojlantiriladi.
- Turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro harakatni oldinga suradi.

Quyida hamkorlikda o'qitishning texnikasi va tizimlari haqida ma'lumot berib o'tishga harakat qildik.

Uch pog'onali intervyu «Muzyorar» sifatida mashg'ulot yoki tadbir boshlanishida, jamoa a'zolarini bir-birlari bilan tanishtirish, uchun yoki o'quvchilar orasida rollarni taqsimlash, turli mahsulot va buyumlar bilan chuqur tanishish maqsadida ishlatilishi mumkin. Rollar o'qituvchi tomonidan taqsimlanadi yoki o'quvchilarning o'zi, tanlash asosida rollarni ijro qilishi mumkin. O'qitayotgan xodimlar intervyu savollarini yoki «topilishi» kerak bo'lgan axborotni tarqatib chiqishlari ham mumkin. Misol uchun, O'quvchi A, o'quvchi B ga bir necha daqiqa, vaqt ichida savollar beradi va diqqat bilan eshitib, intervyu oladi. Yana bir ishoradan so'ng, har bir juftlik boshqa juftlikka o'giriladi, hamda to'rt kishidan iborat kichik guruh shakllantiriladi. Guruhning har-bir a'zosi o'z partnyori to'g'risidagi eng qiziq lavhalarini ifodalab, tanishtiradi.

Davra suhbatini tuzilmasi aqliy hujum yo'li bilan g'oyalarni to'plashda, bitta savol yoki savollar guruhiga ko'p sonli javoblarni ommalashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Mazkur tuzilmani amalga oshirish uchun jamoa bir necha kichik guruhlariga bo'linishi lozim. Har bir guruhga bir dona ruchka va bir dona qog'oz beriladi. Yoritilishi lozim bo'lgan mavzu har bir guruh uchun alohida-alohida o'qituvchi tomonidan yoki guruh a'zolari tomonidan tanlanishi mumkin. Savol ta'limiy (kurs mavzusidan) yoki tarbiyaviy maqsadni o'ziga jamlagan bo'lishi, shakl jihatdan qisqa va mazmun jihatdan tushunarli bo'lishi lozim. Birinchi ishtirokchi bitta javobni yozadi va chap tarafida o'tirgan guruhdoshiga qog'oz va ruchkani uzatadi. Keyingi ishtirokchi ham o'z javobini yozadi hamda anjomlarni navbatdagi guruh a'zosiga uzatadi va h.k.

1-guruh

Friendship

1-o'quvchi: *Friendship is a great blessing.*

2-o'quvchi: *We need to frame it*

2-guruh

Knowledge

3-guruh


Peace

Topshiriqni bajarishdagi asosiy talab: yozilayotgan javoblar bir-biri bilan ham mantiqan, ham usluban bog'liq bo'lishi lozim. Topshiriqni bajarish uchun



ma'lum vaqt ajratiladi. Ajratilgan vaqt tugamaguncha, ish to'xtatilmaydi. Ajratilgan vaqt tugashi bilan o'quvchilar o'z javoblarining taqdimotini o'tkazadilar. Taqdimot yuzasidan bahs-munozara tashkil qilinadi.

Mazkur topshiriq «Karusel» usulida ham bajarilishi mumkin. Tahlil qilishda noaniqlikka yo'l qo'ymaslik uchun har bir guruh nomlanadi. Masalan: 1-guruhga – «**Adolat (Justice)**»; 2-guruhga – «**Muruvvat (Please)**»; 3-guruhga – «**Oqibat (Consequence)**» deb nom qo'yish mumkin. Har bir guruh o'zi uchun rang tanlaydi. M: «Adolat» – zangori; «Muruvvat» – qizil; «Oqibat» – ko'k. Guruh a'zolari qo'lga o'zlari tanlagan ranglarga mos rangli qalamlar va bittadan qog'oz beriladi. Yoritib berishlari kerak bo'lgan mavzular tanlab olingach, har bir guruh o'zlarining ranglarida ushbu mavzuni yoritib, navbatdagi guruhga uzatib, o'zlari boshqa guruh vazifasini bajarishga kirishadi. Bu interaktiv metod elektron doskada ham bajarilishi mumkin. M.: «Adolat» guruhiga sifat so'z turkumi, «Muruvvat»ga –ot, «Oqibat»ga –fe'l so'z turkumiga ta'rif berish topshiriladi. Har 2 daqiqada guruhlar o'z topshiriqlari bilan quyidagi sxemada ko'rsatilganidek almashinishlari lozim.



Qog'ozda yoki elektron doskada yozilgan fikrlar quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: Mana shu so'z turkumlarini ingliz tiliga tarjima qilish va ularga mos inglizcha so'zlar yozish talab qilinadi. Topshiriq bajarilgandan so'ng har bir guruhdan bir kishi o'z fikrini asoslab beradi va guruhlar faoliyatiga baho beradi.

Adolat	Muruvvat	Oqibat
Sifat	Ot	Fe'l
1.....	1.....	1.....
	2.....	2.....



Bu topshiriqni 5-6- sinflarda qo'llash mumkin. O'g'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan bu kabi metodlarni yanada murakkablashtirib, 7-,8-,9- sinflarda, so'z birikmasi hosil qiling, gap tuzing, matn tuzing shaklida davom ettirish mumkin. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, til o'rganish jarayoni samaradorligini oshiradi va ingliz tilida muloqot qilishda yanada erkin bo'lish imkonini beradi.

Shunday qilib, ingliz tilini o'rganishda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida ko'rgazmali qurollar, slaydlar, elektron materiallarni proektor yordamida tasvirga chiqarish, audio vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Talimning interfaol metodlari aqliy hujum, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, menyu, debat kabi metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 2000.
2. Ta'lim – tarbiya mazmunini zamonaviylashtirish. Ilmiy to'plam. Qarshi, "Nasaf" nashriyoti, 1997.
3. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. Qarshi. 2002.
4. Karimova G. Ingliz tilini o'rganish metodikasi. Toshkent, 2016. 45-70-b.
5. Xo'jayev N. Ingliz tilini o'rganish metodikasi. Toshkent, 2015.
6. Mamatov, U. (2018). Til o'rgatishda zamonaviy metodlar va texnologiyalar. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 88-102 betlar.
7. Tursunov, A. (2017). Ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 56-82 betlar.



ONA TILIDAN KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH, TIL HAQIDAGI FANNING ILMIY TUSHUNCHALAR SISTEMASINI O'ZLASHTIRISHNING MUAMMOLARI

BuranovaSh. M.

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrası
p.f.n., dots*

Kurbanbayev O.X.

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrası
assistenti*

Ibrahimova Sh.M.

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi talabasi*

Tayanch so'zlar: metod, nutq, tili o'qitish, ko'nikma.

Ключевые слова: метод, речь, обучение языку, навык.

Key words: method, speech, language teaching, skill.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu ilmiy ishda Ona tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham o'zaro bog'langan holda maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan, ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina chegaralanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalash usullari tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ:

В данной научной работе анализируются методы воспитания и обучения сознания ребенка не только путем передачи знаний, навыков и компетенций, но и путем интеграции методики родного языка с общей педагогикой.

SUMMARY:

This scientific work analyzes the methods of raising and educating the child's consciousness, not only by imparting knowledge, skills, and competencies, but also by integrating the methodology of the Mother Tongue with general pedagogy.

Ona tili o'qitish metodikasining predmeti ta'lim berish jarayonida ona tilini egallash, ya'ni til qurilishi qonuniyatlari, til sathlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilib olish, og'zaki va yozma nutqni shakllantirish jarayoni



hisoblanadi. Ona tilidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, til haqidagi fanning ilmiy tushunchalar sistemasini o'zlashtirish qonuniytlarini o'rganadi, til o'rganishning eng qulay metod va usullarini izlaydi. O'quvchilarning bog'lanishli nutq o'stirish metodikasi. Bu bo'lim alohida o'rin tutadi. O'quvchilar tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o'zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham nutqdan farq qiladigan yozma nutqni egallaydilar. Metodika o'quvchilarning nutqini boyitishni, sintaktik va bog'lanishli nutq o'stirishni ham ta'minlashi kerak.

Ona tili o'qitish metodikasi psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Psixolingvistika metodikaga nutq haqida, bayon qilish darajasi haqida, fikr bayon qilish turlarini belgilovchi omillar haqida, "nutqni qabul qilish signallari" apparati haqida, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta'sirning foydasi haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar metodik masalalarni hal qilish uchun, ayniqsa, bog'lanishli nutqni o'stirish metodikasi uchun juda muhimdir. Ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan, ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergan qonuniyatlar, qoida va prinsiplarga asoslanadi. Didaktikaning prinsiplarga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til va materialni o'rgatish va mustahkamlashda ko'rsatmalilik, onglillik, bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining aktivligi, mustaqillik, o'qitishni hayot bilan, bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan, shu jumladan, ona tilidan ham o'qish jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir.

Ona tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham o'zaro bog'lanadi. Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan, ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina chegaralanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham lozim. Haqiqatan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o'sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rganadi va hokazo. Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma'lumotlariga asoslanadi. Ona tili o'qitish metodikasi o'zbek tilini amaliy va ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi,



shuning uchun ham lingvistik fanlar (fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, soʻz yasalishi va etimologiya, grammatika – morfologiya va sintaksis, stilistika, shuningdek, orfoepiya, grafika, orfografiya) metodikaning muhim asosi hisoblanadi.

Ona tili mashgʻulotlarida otlarning maʼno guruhleri ustida ish olib borilar ekan, ayni vaqtda, bu soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllash ham muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik lozim. Hayvon nomlari ustida ish olib borilar ekan, bu nomlarni insonga nisbatan qoʻllash (mas., Raximjon - qoʻy, tulki, sher, ilon, chayon, fil v.h.), qavm-qarindoshlik otlari ustida ishlashda shunday soʻzlarni qon-qarindosh boʻlmagan kishilarga nisbatan qoʻllash (mas, Opaxon, olmangiz nechki pul turadi? - Arzon qildim, bolam. Kilosiga yuz soʻmdan bersang, bas.) oʻquvchilar nutqini boyitishda muhim oʻrin egallaydi. [1] Oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirishda berilgan muayyan qoliplar asosida soʻzlar hosil qilish usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan, "Marosim otlari"ni oʻrganish jarayonida berilgan soʻzlarni toʻy-tomosha, tantana, aza marosimlari kabi guruhlariga ajratish, har bir guruhni mustaqil davom ettirish, "ot+ feʼl+di" qolipli soʻzlar roʻyhatini tuzish (qozontoʻldi, roʻmolberdi, yuzkoʻrdi, kelintushdi v.x.) kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin. "Ot soʻz turkumi"ni oʻrganishda tilimizdagi koʻtarinki soʻzlar ustida ishlash (mas., asal-bol: asir - bandi - qoʻl: bezak-hasham-ziynat: buyum - narsa-mol-mato: vatan-mamlakat-yurt-diyor-el v.x.), uyadoshlarini aniqlash (mas., shirinliklar: asal, novvot, shakar, konfet, shokolad, qand, murabbo, parvarda, shinni v.h.) berilgan soʻzlarning qarama-qarshi maʼnolarini topish (mas, yer - osmon, ayol-erkak, doʻst-dushman v.h.) kabi mustaqil ish turlaridan unumli foydalanish mumkin. Soʻz nutqning asosiy xomashyosi, soʻz tufayli odamlar oʻz fikrini ifodalaydilar va oʻzgalar fikrini tushunadilar. Modda, maʼdan va xomashyo otlari ustida ishlash oʻquvchilarni ana shu xazinaga olib kiradi, uni bu xazina tilsimotlaridan voqif etadi, va soʻz durdonasidan bahramand qiladi.

Maʼlumki, soʻzning leksik va grammatik maʼnosi bor. Grammatik maʼno soʻzning gapda ishtirok etgandagi shaklida oʻz ifodasini topadi, leksik maʼno esa uning ifodalab kelayotgan real tushunchasida nomoyon boʻladi. Oʻquvchilar lugʻatini modda, maʼdan xomashyo otlari bilan boyitish murakkab jarayon boʻlib, u koʻp qirralidir. Oʻquvchi bu soʻzlar ustida ishlar ekan, uning oʻz va koʻchma maʼnosi (mening oltinlarim yoʻq, faqat sof muhabbatim bor xolos) Hamza Hakimzoda Niyoziy; misol tariqasida gapdagi oltinlarim-boyliklarim maʼnosini ifodalaydi. Ustida ish olib boradi, bu soʻzlarga maʼnodoshlar topadi, mazkur soʻzlarning uyadoshlarini aniqlaydi, soʻzga qarama-qarshi soʻz topadi. Modda, maʼdan, xomashyo otlari ustida ishlashning oʻziga xos



qulay va murakkab tomonlari bor. Uning qulay tomonlaridan biri shundaki, bu soʻzlarning koʻpchiligi oʻquvchilarga tanish va nutqiy faoliyatida ham bemaolol qoʻllanilayotgan soʻzlardir.[2] Masalan, oltin, kumush, temir, mis, ohak, sement, tuproq, qum singari soʻzlarning maʼnosini tushunishda va nutqiy faoliyatda qoʻllanishda hech bir oʻquvchi qiyinchilikka uchramaydi.

Bu soʻzlar ustida ishlashning murakkab tomoni esa ulardan ayrimlarining maʼnosi oʻquvchilarga notanish boʻlib, nutqiy faoliyatda ham qoʻllanishgda qiyinchiliklarga duch keladilar. Masalan, brilland, marvarid, gavhar singari soʻzlarning maʼnosini bilmaslik natijasida, ularni nutqiy faoliyatda qoʻllashda ham oʻquvchilar jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Modda, maʼdan va xomashyo otlari ustida ish olib borilar ekan, asosiy eʼtibor oʻquvchilar nutqida kam uchraydigan ana shu soʻzlarning maʼnolarini bilib olishga, nutqiy faoliyatda ularni keng qoʻllashga qaratilishi lozim. Modomiki, ona tili fani amaliy yoʻnalishdagi oʻquv fani ekan, modda, maʼdan xomashyo otlarini oʻrganishdan ham koʻzlanadigan asosiy maqsad amaliy yoʻnalish kashf etadi. Agar oʻquvchi „Ot“ soʻz turkumini oʻrganishda modda, maʼdan va xomashyo otlarining maʼnosini bilsa, bu soʻzlarning uyadoshlarini topa olsa, nutqiy faoliyatda ham ulardan foydalana olish imkoniyatlari benihoya kengayadi. Shubhasiz, qurilishga oid xomashyo nomlarini bilmagan oʻquvchi „Qurilishda“ mavzusida ijodiy matn ham yarata olmaydi. Shu bois oʻqituvchi ona tilining diqqat markazida ona tili taʼlimining asosiy maqsadidan kelib chiqadigan maqsad turmogʻi lozim. Bu xususiy maqsad esa mazkur soʻzlarning nutqiy jarayonda qoʻllanilishidir.

Maʼlumki oʻquvchining modda, maʼdan va xomashyo otlavrini bilish darajasini aniqlamay turib, oʻquvchining nutqini bu soʻzlar bilan boyitishning samarali yoʻllari, vositalari va usullarini belgilab boʻlmaydi. Shuning uchun biz malakaviy ishimizning dastlabki bosqichida mavjud holatni oʻrganishni oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻydik.[3] Shubhasiz, mavjud holatni aniqlashda muayyan topshiriqlar tizimidan oʻquvchi va oʻqituvchilar bilan oʻtkazilgan savol javoblardan, oʻquvchilar nutqini magnit lentasiga yozib olib tahlil qilishdan, ona tili darslarini kuzatish va anketa soʻrovnomalari oʻtkazishdan, oʻqituvchilar bilan ogʻzaki savol javob oʻtkazishdan foydalandik.

Biz oʻquvchilar nutqini modda, maʼdan va xomashyo otlari bilan taminlanganlik darajasini aniqlash maqsadida quyidagi oʻquv topshiriqlaridan foydalandik:

1-topshiriq. Berilgan modda, maʼdan va xomashyo otlari roʻyxatini davom ettiring.

Oʻquvchilarga namuna sifatida har bir maʼno guruhga oid 3-4 ta soʻz beriladi.



2-topshiriq Aralash xollarda berilgan otlarni modda, ma'dan otlari va narsa buyum otlari kabi ikki guruhga ajrating.

3-topshiriq. Gap juftlariga ajratilgan so'z birikmalari orasidagi nozik ma'naviy farqni aniqlang.

Namuna: Yog'och arrasi bilan temirni kesib bo'lmaydi, lekin temir arrasi bilan yog'ochni kessa bo'ladi. Bu temir arra yog'ochni ham, temirni ham kesaveradi.

4-topshiriq. Berilgan gaplardagi ajratilgan modda otlariga ko'plik qo'shimcha-lar ni qo'yib ko'chiring. Ma'noda qanday o'zgarish sodir bo'layotganini tushuntiring.

Namuna: Halimni mis qozonida pishiradilar. 2. Temir-tersaklarni mislarga, temirlarga, cho'yanlarga, mislarga ajratdik.

5-topshiriq. „Qurilish ob'ektida“ mavzusida matn yarating, matnda xomashyo otlaridan unimli foydalaning.

Ona tili o'qituvchilari ish faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlashda biz anketa so'rovnomalariidan ham foydalandik: Anketa so'rovnomasiga kiritilgan savollardan biri “Siz o'zingiz modda, ma'dan, xomashyo otlari”ni ro'yxat qiling degan talab edi. Eksperimentda ishtirok etgan 17 nafar o'qituvchidan atiga ikkitasi modda. Ma'dan va xomashyo otlaridan 35-40 tasini ro'yxat qilishga erishgan. 9 nafar o'qituvchi 25-30 so'z ro'yxat qilgan. O'qituvchilarning qolgan qismi esa atiga 15-20 so'zni yozgan xolos. Bu xol ularning o'zlari modda, ma'dan va xomashyo otlarini yaxshi bilmasliklaridan guvohlik beradi. Bu o'rinda shuni alohida takidlash joizki faqat qurilishga oid xomashyoni ifodalovchi so'zlar miqdori mingdan ziyod, chunonchi, g'isht, tsement, taxta, qum, ohak, tuproq, ganj kabilar.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Roziqov O. O'zbek tilidan dars tiplari. T., “O'qituvchi”, 1975 y.
2. Sayfullayeva R. Ta'lim jarayonida matn ustida ishlash omillari. To'plam. “O'zbek tili” IV doimiy anjumani materiallari T., 1997 yil.
3. Umumiy o'rta ta'limning DTS. O'Z.RES.Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 1-maxsus son. “Sharq”, 1999.
4. Umumiy o'rta ta'limning ona tili dasturi. Mualliflar: H./Ne'matov, A.Q.G'ulomov, N.M.Mahmudov, M.Abduraimov. DTS.1-maxsus son. 1999.53-104-b.



ONA TILI O'QITISHDA SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH HAMDA OG'ZAKI VA YOZMA SAVODXONLIKKA O'RGATISH

Buranova Sh.M.

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrası
p.f.n., dots*

Kurbanbayev O.X.

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrası
assistenti*

O'rinbayeva G.K.

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi*

Tayanch so'zlar: metod, nutq, tili o'qitish, ko'nikma.

Ключевые слова: метод, речь, обучение языку, навык.

Key words: method, speech, language teaching, skill.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu ilmiy ishda Ona tili ta'limidagi murakkab til hodisalarini sun'iy ravishda o'ta maydalashtirib o'qitish, buning sababi dastur va darslikda bir paradigmani tashkil etgan til hodisalarining alohida-alohida berilish usullari tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ:

В данной научной работе анализируется искусственно фрагментированное преподавание сложных языковых явлений в образовании на родном языке, что обусловлено раздельным представлением языковых явлений в учебной программе и учебнике, которые образуют парадигму.

SUMMARY:

This scientific work analyzes the artificially fragmented teaching of complex language phenomena in native language education, which is due to the separate presentation of language phenomena in the curriculum and textbook, which form a paradigm.

Ona tili o'qitish samaradorligining yana bir muhim ko'rsatkichi—o'quvchilarning so'z boyligi ham talabga javob bermaydi. Kuzatishlar, o'quvchilar bilan o'tkazil-gan suhbatlar, ularning og'zaki va yozma javoblari, tuzgan matnlarni tahlil qilish shu narsani ko'rsatdiki, bolalar so'z va uning ma'nyudoshlari, uyadoshlari, qarama-qarshi ma'nolarini farqlashda katta



qiyinchiliklarga duch kelyaptilar. Xususan, soʻz qashshoqligi tez-tez koʻzga tashlanadigan tipik nuqsondir. Masalan, oʻquvchilarning soʻz boyligini aniqlash maqsadida 5-sinf oʻquvchilariga daraxt, ot kabi soʻzlarga uyadosh soʻzlar (daraxt-terak, kayin, qayragʻoch; ot-toʻriqashqa, jiyron, qarabayir kabi) topshirildi. Kuzatilgan 158 oʻquvchidan atigi 24 nafari berilgan soʻzlarga 23 ta uyadosh topishga erishdi, xolos. Berilgan soʻzlarni maʼnodoshlari va qarama-qarshi maʼnolari bilan almashtirish, maʼlum bir guruhdagi soʻzlar roʻyxatini tuzish, tavsiya etilgan soʻzlarni frazeologik birikmalar bilan almashtirish, berilgan xalq maqollari oʻrniga shu maʼnoni ifodalovchi boshqa maqollarni qoʻllash, gap va matnlarning mazmunini saqlagan xolda shaklini oʻzgartirish, matnni qisqartirish yoki kengaytirish, oʻqilgan badiiy asar, koʻrilgan kinofilm, toʻmosha qilingan telekoʻrsatuv va sahna asarlariga taqriz yozish kabi topshiriqlarni bajarishda ham past natijalar qayd etildi. Shubhasiz, bu natijalarning sabablari ham, avvalo, ona tili taʼlimi mazmuniga kelib taqaladi. Mazkur nuqsonlar taʼlim mazmunini yangilashni tobora koʻproq hayotiy zaruriyat qilib qoʻymoqda. Ona tilidan oʻquvchilarning bilim saviyasi taʼlim mazmunida mavjud boʻlgan tadrijiy nuqsonlar bilan ham bogʻliq. Ana shu nuqsonlardan biri mazmunning oʻta ilmiyligi va unchalik tushunarli emasligidir. [1]

Taʼlimning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarli boʻlishi prinsiplari oʻzaro bogʻlangan, bir-birini toʻldiradigan didaktik kategoriyalardir. Ilmiylik til materiallarini tilshunoslik fani yutuqlari asosida bayon qilishni talab etsa, tushunarlik uni bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlariga, ularning umumiy taraqqiyoti hamda bilim imkoniyatlariga moslab bayon qilishni taqozo etadi. Taʼlim jarayoni mantiqi - bu prinsiplarni oʻzaro aloqadorlikda qarashni zarur qilib qoʻyadi. Chunki ilmiy bilimlar oʻquvchiga tushunarli boʻlmasa, u oʻzining amaliy qiymatini yoʻqotadi. Ona tili dasturlari, darsliklar va oʻquv-tadrijiy qoʻllanmalarni tuzishda, til materiallarini tanlash va undan foydalanishda bu har ikkala prinsipni bir prinsip sifatida qarab, ularning bir yoʻla amalga oshirishini taʼminlash taʼlim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Bu ona tilidan taʼlim mazmunining oʻta nazariylashishiga, grammatizmning hokimligi, imlo va nutq masalalarining uning soyasida qolib ketishiga sabab boʻldi. Ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchi foydali amaliy ishlar bilan shugʻullanish oʻrniga, son-sanoqsiz grammatik qoidalar, taʼrif va tushunchalarni «oʻzlashtirish» bilan band boʻlib qoldi.[2]

Kuzatishlardan shu narsa koʻrsatib turibdiki, hatto maktabda beriladigan filologik maʼlumot bilan oliy oʻquv yurtida beriladigan filologik maʼlumot oʻrtasida, ayrim tushuncha va talqinlarni hisobga olmaganida, deyarli



farq qilmadi. Shubhasiz, mavjud akade-mizm ona tili o'qitilishini ancha murakkablashtirayotgan omil bo'lib, u ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqishni, uni yangilashni taqozo etadi.

Ona tili ta'limidagi yana bir murakkablik til hodisalarini sun'iy ravishda o'ta maydalashtirib o'qitishdir. Buning sababi dastur va darslikda bir paradigmmani tashkil etgan til hodisalarining alohida-alohida berilganligi bo'lib, o'quvchi uni qabul qilishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Shubhasiz, bir-biridan ajralgan, alohida-alohida o'rgatilgan til hodisalarini xotirada saqlab qolish ham, uni amaliy faoliyatda qo'llash ham qiyin. Demak, til ma-teriallarini yiriklashtirish masalasini uzil-kesil hal qilmay turib, ta'lim mazmunining samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Ona tilini o'qitishda hal qilinishi zarur bo'lgan muammolardan yana biri mavzulararo, bilimlararo va fanlararo aloqa masalasidir. Mavjud dasturlarda bunday aloqaning yetarli darajada hisobga olinmaganligi va darsliklarda shunday aloqani ta'minlashga oid o'quv topshiriqlarining yetarli emasligi bu muhim didaktik prinsipni amalga oshirishni ancha qiyinlashtirmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarning (1-4- sinflar) ona tili kursi bilan muntazam kurs (5-9 sinflarda) o'rtasida yetarli aloqadorlikning yo'qligi, ko'pgina mavzularning har ikkala bosqichda aynan takrorlanib kelishi kabi holatlar ham ona tilining o'qitilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Til materiallarining takrorlanishi, birinchidan, vaqtning ortiqcha sarflanishiga olib kelsa, ikkinchidan, o'rganilayotgan material tarkibida o'quvchi hech qanday yangilikni ko'rmagach, uni o'rganishga bo'lgan qiziqishining pasayishiga sabab bo'ladi.[3]

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir o'quvchi fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Buni shakllantirish mashq orqali, takror orqali amalga oshdi.

“Ona tili ta'limi moddiy manfaat keltirmaydi”, degan xulosaga kelish noto'g'ri. Chunki ta'lim, jumladan, ona tili ta'limi natijasida uni egallovchi o'quvchi ma'lum darajada ko'nikmalar hosil qiladi va bu ko'nikmalarining davr talablariga mosligi darajasi bevosita iqtisodiy ko'rsatkichlar moddiy manfaat ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi. Ona tili ta'limining mod-diy ko'rsatkichlari bolalarning imlo savodxonligi, so'z boyligi va undan foydalanish mahorati, mustaqil ijo-diy fikrlay olishi, fikr mahsulini maqsadga muvofiq ravishda og'zaki va yozma shakllarda bayon qila olishi kabi niyatlaridan nutqda foydalanish, shubhasiz, moddiy ko'rsatkichdir.

O'rta umumta'lim maktablarida bu ko'rsatkichlar talabga javob beradimi? Ona tili ta'limidan olinayotgan natijalar bizni qoniqtiradimi? Bu savollarga ijobiy javob berish qiyin. Masalani oydinlashtirish maqsadida ana shu ko'rsatkichlarning hozirgi natijalarini tahlil qilib chiqish lozim.[4]



Imlo savodxonligi yuqorida tilga olingan ko'rsatkichlardan biridir. Respublika Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari, maktablarning ma'muryatlari o'tkazgan yozma ishlar, chorak va yillik o'zlashtirish natijalari, shuningdek mualliflar tomonlari o'tkazilgan kuzatishlar bu ko'rsatkichlarning hali juda past darajada ekanligini ko'rsatib turibdi. Buxoro, Qashqadaryo, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarining 836 nafar o'quvchisidan olingan 126 so'zli diktantdan 143 o'quvchining «qoniqarsiz» baho olganligi shundan dalolat beradi. O'quvchilar, asosan, bo'g'in ko'-chirishda (*do'st-lik so'zini do'stlik, opasi so'zini o-pasi* tarzida ko'chirish kabi), i va u ulisining yozilishida (*o'tin, o'g'il, bulut, yulduz* so'zlarini *o'tun, o'g'ul, bulit, yuldiz* yozish kabi); o va a unlisining yozilishida (*somon, fonetika* so'zlari o'rniga *samon, fanetika* yozish kabi); e unlisining yozilishida (*poema, meva* o'rniga *poyema, miva* yozish kabi); j undoshining yozilishida (*maoyulis, jonajon* so'zlari o'rniga *chonachon, machlis* yozish kabi)¹; f undoshining yozilishida (*juft* o'rniga *jupt* yozish kabi); n undoshining o'rniga (*shanba* o'rniga *shamba* yozish kabi); x va h undoshlarining yozilishida (*Mehribon, xabar* o'rniga *mehribon, xabar* yozish kabi); ayirish va yumshatish belgilarining ishlatilishida *palto* o'rniga *jurat, palto* yozish kabi); qator kelgan har xil undoshlar va qo'sh undoshlarning yozilishida (*baland, taassurot*, o'rniga *balan, tasurot*, yozish kabi); egalik va kelishik qo'shimchalarininig imlosida (*maktabning binosi* o'rniga *mak-tabni binosi* yozshp kabi); juft va qisqartma otlarning yozilishida (*idish-tovoq, bodomqovoq, ToshDU, BuxDU* o'rniga *idish toaoq, bodom qovoq, TDU, BDU* yozish va juft sifatlarning yozilishida (*kulrang, olabula* o'rniga *kul rang, ola bula* yozish kabi); qo'shma va juft sonlarning yozilishida (*o'n uch, uch-to'rttacha* o'rniga *o'nuch, uch to'rttacha* yozish kabi); ravishdosh, sifat-doshlarning yozilishida (*youyach, aytgan* o'rniga *yokgach, aytgai* yozish kabi); qo'shma va juft fe'llarning yozilishida (*yozi boldi, aytdi-ko'ydi* o'rniga *yozi boldi, ay-t-di ko'ydi* yozish kabi) xatolarga yo'l qo'yadilar. Bu xato-lar, bir tomondan, o'qituvchining aybi bilan sodir bo'lsa, ikkinchi tomondan, dastur va darsliklarda imlo masalalarining muayyan bir tartibda berilmaganligidir.

Ona tili dasturlari va darsliklarida til materiallarining berilish usulini ham o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, joriy dastur va darsliklarda til materiallarini berishning deduktiv (qoidadan tahlilga, umumiylikdan xususiylikka borish) usuli ustun turadi. Bu usul til materiallarini nihoyatda ixcham shaklda bayon qilish imkoniyatini yaratsa-da, ammo o'quvchilar faoliyatini faollashtirishni ancha qiyinlashtiradi. Chunki umumiy qoida, xulosa va ta'riflardan amaliy ishga o'tish jarayonida o'quvchining fikrlash faoliyati



chegaralanadi. U o'rganilayotgan til materiallarini o'z aqliy faoliyati jarayonida o'tkaza olmaydi. Bu hol shubhasiz, bolani ta'lim jarayonining sub'ekti, ya'ni faol ishlovchisiga emas, balki ob'ekt, ya'ni tinglovchisiga aylantirib qo'yadi. Ona tili o'qitishni qiyinlashtirayotgan tadrijiy omillarga yana semantika va uslubiyat masalalarining grammatikadan ajralib qolganligi, darslikda berilgan o'quv topshiriqlari asosan qayta xotirlash tarzida ekanligi, ularning deyarli bir xilligi kabilarni ham kiritish mumkin. Bular, shubhasiz, ta'lim mazmunini yangilashni, uii o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvofiqlashtirishi taqozo etadi.

Ona tilidan ta'lim mazmunini yangilashning faqat ijtimoiy-tadrijiy zaruriyatlari emas, balki ilmiy zaruriyatlari ham mavjud. O'zbek tili ta'lim mazmunini yangilashning ilmiy zaruriyatlari o'zbek tilshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlar va kamchiliklar bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarova M., Qosimova K. O'zbek tili darsligi: 5-sinf uchun.—17-nashr.—T.: O'qituvchi, 1992.
2. Ne'matov H. va boshqalar. Ona tili / 5- sinflar uchun / darslik. —T.: O'qituvchi, 2000.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarinig 5-sinfi uchun darslik—T.: Ma'naviyat, 2007.
4. Ne'matov H., G'ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. 5-sinflar uchun darslik.—Toshkent, O'qituvchi, 2002.



XORIJIY TILNI O'QITISH JARAYONIDA TALABALAR INNOVATSION MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Xojamuratov R. I.

Berdax nomidagi QDU

“Ingliz tili va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi p.f.f.d. (PhD)

Tayanch so‘zlar: innovatsion madaniyat, xorijiy til, lingvodidaktika, interfaol metod, CEFR, kreativlik, kommunikativ ko‘nikma, axborot texnologiyalari.

Ключевые слова: инновационная культура, иностранный язык, лингводидактика, интерактивный метод, CEFR, креативность, коммуникативные навыки, информационные технологии.

Key words: innovation culture, foreign language, linguodidactics, interactive method, CEFR, creativity, communication skills, information technologies.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada xorijiy tilni o‘qitish jarayonida talabalar innovatsion madaniyatini shakllantirishning lingvodidaktik asoslari tahlil qilingan. Innovatsion madaniyat tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari va chet tilini o‘rganishda tutgan o‘rni ochib berilgan. CEFR standartlari asosida ta‘lim jarayoniga interfaol, ijodiy va kommunikativ metodlarni kiritish orqali talabalarda ijodiy fikrlash, global tafakkur, madaniyatlararo muloqot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhimligi asoslangan. Maqolada xorijiy til mashg‘ulotlarida innovatsion yondashuvlar va modellashtirilgan metodik modelylar-ni qullash b‘yicha amaliy tavsialar keltilirilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются лингводидактические основы формирования инновационной культуры студентов в процессе обучения иностранному языку. Раскрыта сущность понятия «инновационная культура», её компоненты и значение в процессе изучения иностранного языка. На основе стандартов CEFR обоснована необходимость включения в образовательный процесс интерактивных, творческих и коммуникативных методов обучения, способствующих развитию креативного мышления, глобального мышления, межкультурной коммуникации и навыков использования ИКТ. Приведены практические рекомендации по применению инновационных подходов и методических моделей на занятиях по иностранному языку.

SUMMARY:

This article analyzes the linguodidactic foundations for developing students' innovation culture in the process of foreign language instruction. It defines the concept of innovation culture, its components, and its significance in foreign language learning. Based on CEFR standards, the article justifies the integration of interactive, creative, and communicative methods in the educational



process to foster students' creative thinking, global perspective, intercultural communication, and ICT competencies. Practical recommendations for applying innovative approaches and methodological models in foreign language classes are provided.

Jadal globallashuv jarayoni, axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi, inson faoliyatining barcha sohalarida innovatsion yondashuvlarning talab etilishi ta'lim tizimi oldiga ham yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, xorijiy tilni o'qitish jarayonida talabalarda faqatgina til bilimlarini emas, balki ularning innovatsion madaniyatini ham shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Innovatsion madaniyat – bu shaxsning yangilikka ochiqqligi, mustaqil fikr yuritish qobiliyati, ijodiy yondashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyati kabi sifatlarni o'z ichiga oladi [1].

Innovatsion madaniyat tushunchasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va sotsiologiya sohalarida keng o'rganilmoqda. Xususan, A.V. Xutorskoy ta'kidlashicha, innovatsion madaniyat – bu «shaxsning ijtimoiy-mafkuraviy, madaniy va texnologiyaviy o'zgarishlarga tez moslasha olish qobiliyati»dir. Xorijiy tilni o'rganish jarayonida bu madaniyatni shakllantirish talabalarda global tafakkurni, madaniyatlararo muloqot qobiliyatini, yangicha yondashuvni rivojlantiradi [2].

Xorijiy til ta'limida talabalarining innovatsion madaniyatini rivojlantirishda faol o'qitish metodlarining roli beqiyos. Keys-stadi, loyiha ishlari, rolli o'yinlar, debatlar, ijodiy yozuv mashg'ulotlari, axborot texnologiyalaridan foydalanish (masalan, onlayn platformalarda ishlash, videomateriallar tahlili) kabi usullar orqali talabalarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, mas'uliyat, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

CEFR standartiga ko'ra, talabalar A2-B1 sathda xorijiy tilda muloqot qila olishi, yozma va og'zaki fikrni anglay olishi va ifoda qila olishi talab etiladi. Bunda pedagog moderator, trener sifatida faol ishtirok etishi va talabalarining mustaqil izlanishiga turtki berishi lozim. Innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish uchun dasturlarga interaktiv va ijodiy vazifalarni kiritish maqsadga muvofiq [3].

Yevropa davlatlarida, xususan, Finlyandiya, Germaniya va Niderlandiyada xorijiy til ta'limida innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. UNESCO va CEFR tavsiyalariga ko'ra, talabalarda madaniyatlararo kompetensiya, global faol fuqarolik, axborot savodxonligi, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi [4].

Talaba innovatsion madaniyati modelining asosiy g'oyasi fakultetning innovatsion ta'lim markazini yaratishdan iborat. Markaz faoliyatining asosiy



jihatlari bu o'quv-ishlab chiqarish, axborot-metodik, muvofiqlashtiruv-metodik bo'limlardir. O'quv va ishlab chiqarish laboratoriyalarini tashkil etish esa innovatsion-ta'lim markazi faoliyatini tashkil etish uchun mavjud bo'limlar doirasidagi muhim shart hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassis shaxsini modellashtirish davlat oliy ta'lim standartlari asosidagi faoliyat mezonlari, ya'ni shaxsiy, metamavzu (metapredmet) va mavzu (predmet) mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Buning yakuniy natijasi chet tillari fakulteti talabalarini o'z-o'zini anglashga va hayotda o'z-o'zini aniqlash madaniyatiga, maqsadga muvofiq va samarali faoliyatni loyihalashtirish va amalga oshirishga, fan asoslarini va umumbashariy harakat usullarini o'zlashtirishga tayyorlashdir.

Fakultetda ingliz tilini o'rganish jarayonida talabalarning innovatsion madaniyatini modellashtirishda boshqaruv mazmunini talaba va o'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati, shaxsiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha individual taraqqiyot tashkil qiladi. Talabalarning innovatsion madaniyati komponentlari bu - maqsadlar, faoliyat, faoliyat sub'ektlari, sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar, ta'lim makoni va tizimni boshqarish.

Tizim o'z shakllanishida bir qator bosqichlarni bosib o'tadi, bu bosqichlar esa bir-biri bilan ketma-ket almashadigan differentsiatsiya va munosabatlar bilan faoliyat integratsiyasi, ichki aloqalarning turlicha mustahkamligi, tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirning har xil tabiati, boshqaruvning turli xususiyati va usullari bilan ajralib turadi. Ta'lim tizimi rivojlanishini boshqarish ma'nosi tizimga kiritilgan talabalar shaxsini rivojlantirishdan iborat bo'lib, u tizim va shaxsning o'zaro harakati va o'zaro ta'sirini boshqarishni talab qiladi, shuningdek boshqaruv vositalari va usullari tanlanishini belgilaydi.

Taklif etilgan talabalarda innovatsion madaniyatni rivojlantirish modeli bosqichma-bosqich amalga oshirilib, har bir bosqich o'z vazifalari, tashkiliy shakllari, tizim yaratuvchi aloqalari bilan tavsiflanadi. Xorijiy (ingliz) tilni o'rganish jarayonida kasbiy-ishchanlik sifatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlash modeli ushbu muhitni tashkil etishning taxminiy asosi bo'lib xizmat qildi.

Ushbu modelning amalga oshirilishi quyidagi uch yo'nalish doirasidagi ishlar orqali ta'minlandi:

1) axborot-lingvistik yo'nalish o'rganilayotgan til maydonini kasbiy so'zlar, tasvirlar, ramzlar va qadriyatlar bilan intensiv to'ldirishni nazarda tutadi;

2) kognitiv va germeneytik yo'nalishning maqsadi tilni semantik jihatdan o'zlashtirishga qaratilgan harakat, talabalarning kasbning asosiy malakaviy va protsessual mexanizmlarini tushunishga erishishi, o'quv jarayonida qulay pozitsiyalarni ishlab chiqishdan iborat;



3) interfaol yo‘nalish o‘quv jarayonida ishchan, teng huquqli, sheriklik munosabatlarni modellashtirish yo‘li bilan o‘quv-kasbiy o‘zaro harakat va hamkorlikni tashkil etishni nazarda tutadi.

Har bitta tarkibiy qism eksperimental ishlarni tashkil qilishning tegishli metodlari bilan ta‘minlandi:

birinchidan, talabalarni tilning leksik, sintaktik, kasbiy va madaniy sohalariga olib kirish;

ikkinchidan, talabalarning bir-birin tushunishi va o‘z-o‘zini bilishiga qaratilgan o‘quv muloqotining turli shakl va metodlarini takomillashtirish,

uchinchidan, o‘quv jarayonida ishchan hamkorlikni ta‘minlash.

Ushbu tarkibiy qismlar, birgalikda o‘quv maydonini talabalarning shaxslararo o‘zaro munosabatlarining kasbiy muhitiga aylantirishga qaratilgan. O‘z navbatida, muhitning tarkibiy qismlari bilish-interaktiv texnologiyalarini tashkil etish usullarida amalga oshiriladi. Buning uchun o‘quv mashg‘ulotlari doirasida quyidagi usullar qo‘llanildi: muammoli-rolli o‘yinlar, mini-seminarlar, teatrlashtirish usuli, o‘quv muhokamalari, shuningdek, ishchan vaziyatlarni modellashtirish usuli (case-study).

Shunday qilib, ingliz tili mashg‘ulotlarida kasbiy-ishchan fazilatlarni rivojlantirish kursni amaliy tashkil etishning muayyan texnologiyasi bilan ta‘minlandi. Bu o‘rinda tadqiqotda ishlab chiqilgan tilni o‘rganishning kognitiv interfaol texnologiyasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu texnologiya o‘quv-ishchan vaziyatlarni modellashtirish usulini, masalan, keys-stadiusulini har tomonlama va uzluksiz qo‘llash asosida qurilgan.

Xorijiy tilni o‘qitish jarayonida talabalarning innovatsion madaniyatini rivojlantirish – zamonaviy ta‘limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda ijodkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalari shakllantirilishi lozim. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, innovatsion kurslar va amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim dasturlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хуторской А.В. Инновационная педагогика. – М.: Академия, 2003. – 320 с.
2. Зимняя И.А. Психология обучения: учебное пособие. – М.: Логос, 2005. – 384 с.
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2001. – 273 p.
4. ЮНЕСКО. Рекомендации по обучению XXI века. – Париж: ЮНЕСКО, 2015. – 112 с.



KARL RAYXLNING "ALPOMISH" DOSTONINI O'RGANISHDAGI ILMIY FAOLIYATI

Tajigalieva M.T.

Qoraqalpoq davlat universiteti assistent o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: Karl Rayxl, Alpomish dostoni, turkiy epos, ogʻzaki ijod, baxshilik anʼanasi, formulasimon struktura, poetik tahlil, komparativ metod.

Ключевые слова: Карл Райхл, эпос "Алпомиш", тюркский эпос, устное творчество, традиция бахши, формульная структура, поэтический анализ, сравнительный метод.

Key words: Karl Reichl, Alpomish epic, Turkic epic, oral tradition, bakhshi tradition, formulaic structure, poetic analysis, comparative method.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada mashhur nemis folklorshunos va turkolog olim Karl Rayxlning "Alpomish" dostoni boʻyicha olib borgan tadqiqotlari tahlil qilinadi. Muallifning ushbu eposga oid monografiyalari va maqolalarida qoʻllagan yondashuv uslublari, dostonning poetik tuzilishi, ijro madaniyati, ogʻzaki formulasimon struktura va komparativ tahlil metodlari yoritiladi. Ayniqsa, Rayxlning "Alpomish"ni boshqa turkiy xalqlarning epik merosi bilan solishtirib, uning umumturkiy madaniy kod sifatidagi oʻrnini aniqlashga urinishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot dostonshunoslik va eposshunoslik sohasida Rayxl ilmiy merosining dolzarbligini koʻrsatishga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются исследования известного немецкого фольклориста и тюрколога Карла Райхла, посвященные эпосу "Алпомиш." В монографиях и статьях автора, посвященных данному эпосу, освещаются методы подхода, поэтическая структура дастана, культура исполнения, устная формульная структура и методы сравнительного анализа. Особое значение имеют попытки Райхла сравнить "Алпомиш" с эпическим наследием других тюркских народов и определить его место в качестве общетюркского культурного кода. Исследование направлено на демонстрацию актуальности научного наследия Райхла в области дастановедения и эпосоведения.

SUMMARY:

This article analyzes the research conducted by the renowned German folklorist and Turkologist Karl Reichl on the epic "Alpomish." The author's approach methods used in his monographs and articles on this epic are examined, highlighting the poetic structure of the dastan, performance culture, oral formulaic structure, and comparative analysis methods. Of particular importance are Reichl's attempts to compare "Alpomish" with the epic heritage of other Turkic peoples and determine its place as a common Turkic cultural code. The research aims to demonstrate the relevance of Reichl's scholarly legacy in the field of epic studies and epics research.



Kirish. “Alpomish” dostoni o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, no‘g‘ay va boshqa turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan xalq og‘zaki ijodining yuksak namunasi bo‘lib, uning ilmiy o‘rganilishi XIX asr oxirlaridan beri davom etib kelmoqda. Mazkur doston Markaziy Osiyoning ko‘chmanchi jamiyatlarida qadimiy ijtimoiy tuzilmalar, etnik identifikatsiya va jamoaviy xotiraning ifodasi sifatida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu dostonni xalqaro miqyosda tanitish, uning matn va ijro xususiyatlarini tadqiq etishda Karl Rayxlning xizmatlari beqiyosdir.

Karl Rayxl - Germaniyada tug‘ilib o‘sgan, ammo ilmiy faoliyati davomida turkiy xalqlarning og‘zaki epik merosiga, xususan, “Alpomish” dostoniga alohida e‘tibor qaratgan olimdir. Uning ilmiy yondashuvlari strukturalizm, formulasimon nazariya va komparativ eposshunoslik metodlariga asoslangan. Mazkur maqolada Karl Rayxlning “Alpomish” dostoni bo‘yicha olib borgan izlanishlari, u qo‘llagan nazariy va amaliy yondashuvlar, dostonning variantlari bo‘yicha yuritgan tahlillari hamda uning xalqaro dostonshunoslikdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Karl Rayxlning “Das usbekische Heldenepos Alpomish” (2001) nomli monografiyasi “Alpomish” dostonining matni, izohli tarjimai va tahliliy kirish qismi bilan birgalikda uni fundamental ilmiy manbaga aylantirgan. Ushbu asarda muallif dostonning syujet strukturasini, poetik uslubini va formulasimon frazeologiyasini chuqur o‘rganadi. Bu asar nemis tilida yozilgan bo‘lishiga qaramay, Markaziy Osiyo eposshunosligi uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [2].

Rayxlning 1992 yildagi “Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure” monografiyasi esa nafaqat “Alpomish”, balki boshqa turkiy eposlar – “Gorogly”, “Manas” bilan ham taqqosiy tahlilni o‘z ichiga oladi. Unda qahramonlik eposlarining umumiy strukturaviy komponentlari – qahramonning tug‘ilishi, sinovdan o‘tishi, vatanga qaytishi – universal syujet arxetiplari sifatida ko‘rsatiladi. Rayxl formulasimon iboralar, poetik uslublar va og‘zaki ijro texnikalarini tahlil qilishda Lord va Parri tadqiqotlariga tayanadi [3].

Shuningdek, Rayxl o‘z izlanishlarida Fazil Yo‘ldosh o‘g‘li, Saidmurad Panoh va boshqa mashhur baxshilar ijrosidagi “Alpomish” variantlarini tahlil qilib, ularni lahjaviy, poetik va voqea rivoji bo‘yicha solishtiradi. U baxshilik an‘anasi, ustoz-shogirdlik tizimi va ijro konteksti orqali dostonning madaniy yashovchanligini ko‘rsatib beradi [4].

Barcha adabiy manbalarda Rayxl “Alpomish”ni yozma matn sifatida emas, balki tirik og‘zaki voqelik, ya‘ni ijro orqali qayta tiklanadigan epik kod sifatida talqin qiladi. Uning yondashuvi zamonaviy eposshunoslikda og‘zaki ijod va jamiyat o‘rtasidagi dinamik aloqalarni yoritishda katta ilmiy qimmatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Karl Rayxlning “Alpomish” dostoni bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari qiyosiy-tahliliy va formulasimon struktura



metodlari asosida yoritiladi. Asosiy metod sifatida komparativ analiz qo'llanib, Rayxl "Alpomish"ni boshqa turkiy xalqlarning eposlari bilan taqqoslagan va o'xshashlik hamda tafovutlarni tahlil qilgan.

Tadqiqotda shuningdek, strukturaviy yondashuv asosida doston syujetining qismlarga bo'linishi, bosh qahramonning harakat modeli va epik strukturadagi doimiy elementlar o'rganilgan. Rayxlning formulasimon tuzilmalar (parallellik, takror, tezis–antitezis) asosidagi poetik analiziga e'tibor qaratilib, dostonning og'zaki ijro kontekstidagi xususiyatlari (intonatsiya, ritm, takrorlov, og'zaki formulalar) ham o'rganilgan.

Ushbu metodlar yordamida Rayxl tadqiqotlarining "Alpomish" dostonshunosligidagi o'rni, ilmiy uslubiy yondashuvi, madaniy-semiyotik kodlarni tahlil qilishdagi yondoshuvi ochib berildi. Shu bilan birga, maqola Rayxlning kuzatuv va ekspeditsiya asosida to'plagan ma'lumotlarini tahlil qilish orqali uning amaliy folklorshunoslikdagi o'rnini ham yoritadi.

Natijalar va muhokama. Mashhur germaniyalik folklorshunos va turkolog olim Karl Rayxl Markaziy Osiyo xalqlarining epik merosi, xususan, "Alpomish" dostoni tadqiqotiga muhim hissa qo'shgan yetuk olimlardan biridir. U ushbu doston bo'yicha bir necha muhim monografiyalar va maqolalar muallifi bo'lib, "Alpomish"ni xalq og'zaki ijodining yuksak namunasi sifatida chuqur tahlil qilgan [1, 97-99].

Rayxlning bu yo'nalishdagi eng muhim asarlaridan biri – *"Das usbekische Heldenepos Alpomish: Einführung, Text, Übersetzung"* (Bonn, 2001) nomli fundamental monografiya hisoblanadi. Ushbu asarda "Alpomish" dostonining matni, ilmiy izohlar bilan to'ldirilgan tarjimasini va keng ko'lamli tahliliy kirish qismi jamlangan bo'lib, u nemis tilida yozilgan ushbu dostonshunoslik asarining muhim ilmiy manbaga aylanishiga xizmat qilgan [2].

Bundan tashqari, 1992 yilda nashr etilgan *"Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure"* nomli monografiyasida ham "Alpomish" dostoni alohida tahlil qilingan. U yerda "Qahramonning qaytishi" (6-bo'lim, 3-bob) va "Makon va zamon transformatsiyalari" bo'limlarida ushbu eposning turli davr va makonlardagi variantlari orasidagi o'xshashlik va tafovutlar ko'rib chiqilgan [3].

Karl Rayxl nafaqat nazariy tahlillar bilan, balki amaliy folkloriy tadqiqotlar bilan ham shug'ullangan. U O'zbekiston, Qoraqalpogiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Sharqiy Turkistonda o'tkazgan ekspeditsiyalari davomida "Alpomish"ning turli og'zaki variantlarini to'plab, ularni voqea rivoji, poetik tuzilma, lahja va ijro uslublari asosida tahlil qilgan. Ayniqsa, u Fazil Yo'ldosh o'g'li (1872–1955) va Saidmurad Panoh ijrosidagi "Alpomish" variantlarini solishtirib, ilmiy izohlab bergan.



Rayxl xalq ogʻzaki ijodida ustoz-shogird anʼanalariga katta eʼtibor qaratgan. Epik ijodda baxshilik maktabining (ustoz-baxshi) ahamiyati, epik ijrochilikda ustoz merosi qanday davom ettirilishini tahlil qiladi [4]. Uning ilmiy yondashuvi strukturaviy va poetik tahlil uslublarini amaliy kuzatuvlar bilan uygʻunlashtirishi bilan ajralib turadi.

U 2002-yilning yozida Bonn universitetida oʻtkazilgan ilmiy seminar doirasida “Alpomish: oʻzbek xalq dostoni” mavzusida maʼruza oʻqib, dostonning qahramonlari, mavzular tizimi va uning turkiy xalqlar madaniyatidagi oʻrni haqida tahliliy fikrlar bildirgan. Ushbu taqdimot orqali u “Alpomish” dostonini xalqaro ilmiy doiraga tanitishda muhim qadam tashlagan.

Shuningdek, Rayxl “Alpomish” dostonini nafaqat matn va tarjima jihatidan, balki uning vizual ifodasi, ijro madaniyati, baxshi anʼanasi va sahnaviy talqinlari bilan birgalikda koʻrib chiqishga harakat qilgan. U xalq ogʻzaki ijodi namoyandalarining ijro jarayonlarini bevosita kuzatib, ularning ijodiy xususiyatlarini hujjatlashtirgan.

Umuman olganda, Karl Rayxlning “Alpomish” dostoni boʻyicha olib borgan tadqiqotlari ushbu epik merosning jahon eposshunosligi kontekstida oʻrganilishiga, uning koʻp qatlamli semantik va madaniy mazmunini ochib berishga xizmat qilgan. U oʻzining nazariy va amaliy tadqiqotlari orqali Markaziy Osiyo eposshunosligining yirik namoyandalardan biri sifatida tanilgan.

G. Rayxl oʻz tadqiqotlarida komparativ metod asosida ishlaydi va “turk xalqlari ogʻzaki epik poetikasi”ni yagona badiiy va madaniy hodisa sifatida baholaydi. U “Alpomish” dostonini boshqa turkiy xalqlar eposlari bilan solishtirish orqali umumiylik va oʻziga xosliklarni aniqlashga intiladi. Rayxlning taʼkidlashicha, epos tuzilishi va uslubiy xususiyatlarini tahlil etishda uni qoʻshni xalqlarning epik anʼanalari bilan qiyosiy oʻrganish metodologik jihatdan muhim ahamiyatga ega [5].

Rayxl “Joy va vaqtdagi transformatsiyalar” boʻlimida “Alpomish” va “Gʻorogʻli” eposlarining turli tarixiy davrlardagi versiyalarini tahlil qilgan holda, ularning mazmuniy va strukturaviy oʻzgarishlarini izchil koʻrsatib bergan. Rayxl bu struktura turkiy ogʻzaki epik anʼanalaridagi asosiy syujet modellari bilan chambarchas bogʻliq ekanligini taʼkidlaydi.

Formulaik tuzilma va frazeologik uslub masalasiga alohida eʼtibor qaratgan Rayxl, “Turkic Oral Epic Poetry” asarining 7-bobida epik matnlarga xos ogʻzaki frazeologik formulalarni — xususan, **parallellik, tezis-antitezis, takrorlovchi misralar** tizimini tahlil qilgan. 8-bobda esa u epik ijroning **improvizatsiya, xotira sanʼati, reproduktiv tafakkur, intonatsion shakllanish**, hamda **qahramonlarning obrazli ifodasi** kabi xususiyatlarini oʻrganadi [3].

Rayxlning kuzatuvlariga koʻra, “Alpomish”ning anʼanaviy poetik shakli 7–8 yoki 11–12 boʻgʻinli, uzoq misralardan tashkil topgan boʻlib, misra oxirlarida takroriy fonetik elementlar uchraydi. Shu sababdan, u tarjimon sifatida dostonlarda



takrorlanuvchi **misralar** va **fonetik strukturani** saqlab qolish tarafdori bo'lgan. Biroq u rifmaning o'zini emas, balki **she'riy ritm** va **intonatsion ohangdorlikni** yetkazishni muhim deb bilgan. Rayxl tarjimasida alohida misralarni **urg'uli va urg'usiz tovushlar ketma-ketligi** asosida tuzishga harakat qilgan.

Ijrochilik xususiyatlari ham Rayxl izlanishlarida muhim o'rin tutadi. U "Alpomish"ni faqat yozma matn emas, balki jonli ijro hodisasi sifatida tahlil qiladi. "Turk xalqlari epik dostonlari" bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida u ijro jarayonida **lirik ohang, satr takrorlari, intonatsiya, xarakteristik pauzalar** va **paralingvistik belgilarning** rolini yoritadi. Shu asosda, u epik madaniyatni yozma matn doirasida emas, balki **ijtimoiy va madaniy kontekstda** talqin qilishni taklif etadi.

Rayxl shuningdek, "Alpomish" dostonining **tarixiy va siyosiy kontekstini** ham o'rganib, uni turkiy epik an'ananing markaziy namunasi sifatida baholaydi. U "Qo'ng'iroq versiyasi" deb nomlangan o'zbek va qozoq matnlarini umumlashtirib, bu variantni turkiy qabila nomi bilan bog'liq holda tavsiflaydi. Uning fikricha, "Alpomish" milliy epik darajadan chiqib, **butun turkiy xalqlarning umumiy epik merosining muhim bo'lagi** sifatida qaralishi lozim.

Karl Rayxl "Alpomish"ni O'rta Osiyo ko'chmanchi xalqlarining tarixiy va ijtimoiy tuzilishi kontekstida tahlil qiladi, ayniqsa, dostonning jamoaviy xotira va o'zlikni saqlashdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Asarda "Alpomish"ning og'zaki doston an'alariga mos takror va ritmni o'z ichiga olgan formula tuzilishiga e'tibor qaratilgan. Muallif fikricha, bu dostonni og'zaki ijrochilar uchun oson eslab qolish va uning avloddan-avlodga o'tishini ta'minlaydi. Olim ushbu asarida "Alpomish"ning qahramonlik tabiatiga alohida to'xtalib, dostondagi bosh qahramon mardlik va adolat g'oyalari timsoli ekanligini, u o'z xalqining himoyachisi, dushmanlariga qarshi kurashuvchi va or-nomus ramzi sifatida harakat qilishini ta'kidlaydi. U "Alpomish", "Go'ro'g'li" va "Manas" kabi turkiy dostonlar o'rtasidagi o'xshashliklarni ham keltirib, ularning syujeti, personajlari va motivlaridagi o'ziga xosliklarni ko'rsatadi hamda "Alpomish"ning turkiy doston an'alarining asosiy elementi sifatidagi ahamiyatini va turkiy xalqlarning madaniy o'ziga xosligini shakllantirishdagi rolini alohida ta'kidlab o'tadi [4].

Rayxlning tarjima uslubi, asosan, imanent yondashuvga asoslanadi, ya'ni u manba matnga sodiqlikni saqlagan holda tarjima qilishga intiladi. U har bir misradagi poetik hissiyot va o'zbek dostonlarining o'ziga xos bezakli uslubini imkon qadar saqlashga harakat qiladi. Ayniqsa, Rayxl qofiyani qo'llamaslik qarorini ongli ravishda tanlagan - uning fikricha, nemis tilida o'zbek dostonlariga xos fonetik ohang va she'riy ritmni to'laqonli tarzda qayta yaratish qiyin bo'lgani sababli, u mazmuniy sodiqlikka ustuvorlik beradi.



Masalan, “Alpomish” dostonida oddiy xalq tilidan ko‘ra badiiy adabiy uslubga yaqinroq variantlarni afzal ko‘radi, shuningdek, kitobiy tildagi ohangni asliga yaqin usulda yetkazishga intiladi.

Tarjima jarayonida u til va madaniyatlararo tafovutlarga duch keladi. Ayniqsa, dostonlardagi nazmiy (qo‘shiq, she‘r) qismlar bilan prozaviy matnlar o‘rtasidagi stilistik tafovutlarni hisobga olib, har birini alohida yondashuv bilan tarjima qiladi. Masalan, kuy, ansambl ijrosi yoki ovoz effektlari bilan boyitilgan sahnalarni yozma matnga o‘tkazishda Rayxl muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli u kam uchraydigan so‘z va ifodalarni izohli qaydlar, lug‘aviy eslatmalar orqali tushuntirishni tarjima jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘radi.

Rayxl bilan hamkorlik qilgan o‘zbek folklorshunoslari orasida taniqli olimlardan biri T. Mirzaevning fikricha, Rayxl Alpomish monografiyasini yozishda ustoz-baxshi masalalarini muhim mavzu sifatida ko‘tarib chiqqan. Rayxl folkloriy terminlarni o‘rganishda ham faol bo‘lib, «doston», «baxshi», «qissaxon» kabi tushunchalarni tahlil qilib, ularning kelib chiqishi va epik matndagi ahamiyatini izohlagan

Xulosa. Karl Rayxlning “Alpomish” dostonini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy faoliyati juda keng qamrovli bo‘lib, u nafaqat matnni chuqur tahlil qilgan, balki epikaning ijro madaniyati, yoki ijrochilar an‘analari haqida ham muhim tafakkur qoldirgan. Uning turk epiklariga yondashuvi komparativ va integratsion bo‘lib, u turk xalq hikoyalari va o‘sha vaqtning boshqa xalq dasturlar bilan birlashuvini ilmiy asosda ko‘rsatgan. Tarjima sohasida Rayxl nemis tiliga epik matnlarni o‘zgartirmasdan yetkazishga intilib, milliy po‘stloq va uslubiy tusni saqlashga e‘tibor qaratdi. Uning ishlari “Alpomish” epikini faqat O‘zbekiston emas, butun turkiy olamning jahon madaniy merosiga aylantirishga xizmat qilganini ta’kidlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kalandarova D.A. Issues of researching versions of the epic “Alpamish” in abroad // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 12, Issue 2, February (2024)
2. Reichl Karl. Das usbekische Heldenepos Alpomish: Einführung, Text, Übersetzung. Turcologica, Bd. 48. Wiesbaden: Harrassowitz, 2001. 311 p.
3. Reichl Karl. Turkic Oral Epic Poetry: Traditions, Forms, Poetic Structure. Garland Publishing, inc. – New York & London, 1992. – 395 p.
4. Райхл К. Тюркский эпос: традиция, формы, поэтическая структура / Карл Райхл: пер. с англ. В.Трейстер под ред. Д.А.Функа. – Москва: Восточная литература, 2008. – 383 с.
5. Kalandarova D.A. Issues Of Uzbek Folklore And Its Research In Germany // Journal of Positive School Psychology, 2022, Vol. 6, No. 9, 4395-4398



INGLIZ TILIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA METODIK YONDASHUVLAR

Turegaliyeva N.N.
NDPI doktranti

Tayanch so'zlar: tinglab tushunish, chet tili o'rgatish, fonetik qiyinchilik, metodika, o'qituvchi roli.

Ключевые слова: аудирование, преподавание иностранного языка, фонетические трудности, методика, роль преподавателя.

Key words: listening comprehension, foreign language teaching, phonetic difficulty, methodology, teacher's role.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada ingliz tilida tinglab tushunish ko'nikmasining ahamiyati, uni shakllantirishdagi muammolar hamda bu ko'nikmani rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tinglab tushunishni murakkablashtiruvchi fonetik, leksik va grammatik omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tinglab tushunish mashqlari va o'qituvchi rolining bu jarayondagi o'rni muhokama qilinadi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается значение навыка аудирования при изучении английского языка, анализируются основные трудности, связанные с его формированием, а также предлагаются эффективные методические подходы к развитию этого навыка. Особое внимание уделяется фонетическим, лексическим и грамматическим барьерам, мешающим пониманию на слух, а также роли преподавателя в организации аудитивной деятельности.

SUMMARY:

This article explores the importance of listening comprehension in English language learning. It analyzes the common difficulties learners face-phonetic, lexical, and grammatical-and outlines effective methodological strategies for developing listening skills. The paper also emphasizes the teacher's role in facilitating the listening process through appropriate material selection and integrated classroom activities.

Kirish. Bugungi kunda ingliz tili jahon miqyosida "lingua franca" (xalqaro so'zlashuv tili) sifatida tan olingan. Xalqaro darajada aloqada bo'lish uchun har kim ingliz tilini o'rganishi zarur. Ingliz tilida so'zlashish bizga dunyoning turli mamlakatlaridan bo'lgan odamlar bilan muloqot qilish imkonini beradi, chunki bu til siyosat va diplomatiya, ilm-fan va texnologiya, biznes va savdo tilidir.



Aslida, ingliz tili xalqaro muloqotda shunchalik ustunki, bu tilni bilgan holda deyarli har qanday mavzu bo'yicha ko'proq ma'lumot topishimiz mumkin. Muloqot qilish barcha til ko'nikmalarini – ya'ni gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozishni - uyg'unlashtirishni talab etadi. Aynan tinglab tushunish bu ko'nikmalar orasida asosiy va eng muhimlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda til o'qitish sohasida tinglab tushunishga alohida e'tibor qaratilmoqda. G. Bak ta'kidlaganidek: *"Tinglash – bu murakkab jarayon bo'lib, unda tinglovchi kelayotgan akustik signalni qabul qiladi va uni tilshunoslik bilimlari asosida tahlil qiladi"* [2,15]. Bu jarayon nafaqat tovushni eshitish, balki uni to'g'ri anglash, grammatik va semantik tahlil qilish, ma'no chiqarish, nutqdagi bo'g'inlar, urg'u, ritm va intonatsiyani tushunishni ham o'z ichiga oladi.

Ko'pchilik o'qituvchilar tinglashni o'rgatish oson deb hisoblaydi, biroq talabalar uni eng murakkab ko'nikma deb bilishadi. Bu esa tinglab tushunishga oid darslarni yanada puxta rejalashtirish va chuqur tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy manbalar til o'rganishning turli yondashuvlarini yoritadi. Tinglashning nazariy asoslari va uni o'rgatish metodlari bo'yicha quyidagi muhim adabiyotlar tahlil qilindi:

- **Brown (2001)** o'zining "Teaching by Principles" asarida til o'rgatishning interaktiv yondashuvini ilgari suradi. Unga ko'ra, til o'rganish faqat bilim emas, balki faoliyat va kommunikatsiya vositasi sifatida qaralishi kerak. Tinglab tushunish bu yondashuvda faol qabul qilish ko'nikmasi sifatida muhim ahamiyatga ega [1].
- **Buck (2001)** "Assessing Listening" asarida tinglab tushunish ko'nikmasining psixolingvistik asoslarini va uni baholash metodikasini bayon qiladi. U tinglashni faqat akustik jarayon emas, balki kognitiv faoliyat sifatida ko'radi. Mazkur maqolada aynan shu yondashuv tinglashdagi grammatik va leksik to'siqlarning tahliliga asos bo'lgan [2].
- **Richards (1983)** tomonidan taqdim etilgan modelda tinglab tushunish uch bosqichli yondashuv – yondashuv, dizayn va amaliyot orqali o'rgatiladi. Bu model tinglashdan oldin, tinglash jarayonida va keyingi bosqichlarda qo'llaniladigan mashqlar turiga asos yaratadi. Mazkur maqoladagi metodik qismda bu yondashuv aks etgan.
- **Underwood (1989)** o'zining "Teaching Listening" nomli asarida chet tilini o'rganayotganlar duch keladigan asosiy fonetik va tezlik bilan bog'liq muammolarni chuqur tahlil qiladi. U shuningdek tinglashdagi "klasterlash", pauza va urg'u masalalarini yoritadi. Ushbu maqolada bu nazariyalar asosida talaffuz, prosodiya va nutq tezligiga alohida e'tibor berilgan [4].



- **Wolvin & Coakley (1992)** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa tinglab tushunish korporativ treninglarda qanday o'rganilayotganini ko'rsatadi. Ularning fikricha, samarali tinglash faqat tinglovchi bo'lish emas, balki faol ishtirok etuvchi suhbatdosh bo'lishni ham talab qiladi. Bu esa maqolada interaktiv tinglovchi modelining asosini tashkil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada **analitik-uslubiy yondashuv** asosida, ingliz tilini o'rgatishda tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq muammolar, sabablar va metodik yechimlar tahlil qilindi. Metod sifatida quyidagilar qo'llanildi:

- Nazariy manbalarni (G. Buck, J. Richards, H. Brown, M. Underwood, A. Wolvin) o'rganish;
- Tinglab tushunishga ta'sir qiluvchi omillarni tasniflash;
- O'qituvchi faoliyatining metodik jihatlarini aniqlash;
- Mashqlar va til materiallari bilan ishlash mexanizmlarini baholash.

Materiallar sifatida darsliklar, amaliy tinglov mashqlari va real og'zaki nutq namunalariga asoslangan tahliliy kuzatishlar o'rganildi

Natijalar. Tahlil davomida quyidagi asosiy to'siq va muammolar aniqlandi:

3.1 Fonetik qiyinchiliklar

Eshituvchi ko'pincha chet til tovushlarini o'z ona tilidagi tovushlar sifatida qabul qiladi, bu esa ko'pincha noto'g'ri tushunishga olib keladi.

3.2 Leksik xatolar fonetik qiyinchiliklar bilan chambarchas bog'liq. Talabalar ko'pincha so'zlarni noto'g'ri eshitganliklari sababli ularni noto'g'ri tushunadilar. Masalan: "There is a ship" (Bu yerda kema bor).

"There is a sheep" (Bu yerda qo'y bor).

"It is a worm" (Bu qurt).

"It is warm" (Bu issiq).

Tovushlarni noto'g'ri qabul qilish natijasida tanish so'zlar ham tushunilmaydi. O'quvchilar ko'pincha og'zaki nutqda tez aytiladigan yoki qisqartirilgan iboralarni anglay olmaydi.

3.3 Grammatik murakkabliklar asosan ingliz tilining analitik tuzilishi va infinitiv hamda participle (sifatdosh) konstruksiyalarining keng qo'llanilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, ingliz tilida grammatik omonimlar ham ko'p uchraydi. Masalan: "to work" (ishlamoq) va "work" (ishlamoq),

"to answer" va "answer" (javob)

3.4 Klasterlash muammolari.

Yozma tilda biz odatda, gapni asosiy tarkibiy birlik sifatida qabul qilishga o'rganganmiz. Ammo og'zaki nutqda, xotira imkoniyatlari cheklanganligi sababli, o'quvchilarga so'zlarni boshqariladigan, ma'noli klasterlarga (kichik guruhlar) bo'lishda yordam berish zarur. Ba'zan chet tilini o'rganayotgan



o'quvchilar juda uzun bo'laklarni (to'liq gap yoki bir necha gapni) eslab qolishga harakat qiladilar yoki aksincha, nutqdagi har bir so'zga alohida e'tibor qaratishga urinadilar, natijada xatolikka yo'l qo'yadilar.

3.5 Ortiqchalik va disfluensiya.

Og'zaki nutqda, aksariyat yozma matnlardan farqli o'laroq, ortiqcha (takroriy) ma'lumotlar ko'p bo'ladi. Suhbat davomida biz ko'pincha qayta bayon qilish, takrorlash, fikrni kengaytirish, shuningdek, "ya'ni," "bilasizmi" kabi so'zlarning ishlatilganini sezamiz. Bunday ortiqcha bayonlar tinglovchiga ma'noni tushunishga yordam beradi, chunki ular ko'proq vaqt va qo'shimcha axborot beradi. O'quvchilar o'zlarini bu imtiyozdan samarali foydalanishga o'rgatishlari mumkin. Buning uchun ular dastlab har bir yangi gap yoki ibora albatta yangi ma'lumotni o'z ichiga olmaydi degan tushunchani o'zlashtirishlari, shuningdek, ortiqchalik belgilarini (ya'ni, qayta aytish, kengaytirish, takrorlash) aniqlay olishlari kerak. Tinglab tushunishni qiyinlashtiruvchi yana bir holat bu og'zaki nutqdagi pauzalar, takrorlar, ortiqcha so'zlar va o'zini tuzatishlardir:

- *you know, I mean, uh, well, actually kabi iboralar.*

3.6 Tezlik va prosodiya.

Har bir til o'rganuvchi dastlab ona tilida so'zlashuvchilar juda tez gapiradi, deb o'ylaydi! Aslida esa, nutq tezligidan ko'ra, nutqda qo'llaniladigan pauzalar soni va ularning davomiyligi tushunishga ko'proq ta'sir qiladi. [3, 17]

Urg'u, ritm va intonatsiya:

Ingliz tilining prosodik xususiyatlari - urg'u, ohang va intonatsiya - nutqni tushunishda juda muhim. Ingliz tili urg'uga asoslangan til hisoblanadi, ya'ni urg'u tushgan bo'g'inlar orasida ko'plab bo'g'inlar ketma-ket va tez aytiladi, bu ayrim o'rganuvchilar uchun qo'rqinchli tuyulishi mumkin.

Shuningdek, intonatsiya tovushlari nafaqat savollar, bayonlar va urg'u kabi oddiy til birliklarini tushunishda, balki kinoyali ma'noli xabarlarini, masalan, kinoyali so'z, mehr-shafqat, koyish, iltimos, maqtov kabilarni tushunishda ham juda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar ingliz tilida so'zlashuvchilarni juda tez deb hisoblaydi. Aslida esa nutqning *tezligi emas*, balki *urg'u, intonatsiya va pauzalar* uning tushunarli yoki tushunarsiz bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

3.7 Interaktivlik.

Agar til o'rganuvchining maqsadi faqatgina maxsus bir ko'nikmani - masalan, radio eshittirishlarini tinglash yoki ma'ruzalarda ishtirok etishni o'zlashtirish bo'lsa, unda bu boshqa masala. Biroq, aksariyat hollarda tinglab tushunish jarayonida o'zaro bog'liqlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar quyidagilarni anglab yetishlari zarur: yaxshi tinglovchi - bu yaxshi javob bera oladigan suhbatdoshdir. Ular ma'noni aniqlashtirishni biladilar (masalan, fikrga izoh berish, tushunarsiz joyni aniqlashtirish, mavzuni davom



ettirish). Bunday ko'nikmalar orqali tinglab tushunish jarayoni to'liq amalga oshadi, aloqa esa yetarli darajada bo'lmagani sababli uzilib qolmaydi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan har bir jihat tinglab tushunishni qiyinlashtiradi va barcha talabalar bu bilan bemaolol kurasha olmaydi. O'qituvchi esa bu jarayonni osonroq va qiziqarliroq qilish orqali ularga yordam berishi kerak. U agar o'quvchilarni turli tinglash turlari, tinglash maqsadlari va yaxshi tinglovchilarga xos xususiyatlar bilan tanishtirsa ularga samarali tinglovchilarga aylanishga yordam bera oladi. [5, 69] Yaxshi tinglovchi bu faqat eshituvchi emas, balki suhbatdoshga javob qaytara oladigan, savol bera oladigan, aniqlik kiritadigan shaxsdir. Bu esa tinglovchini faol ishtirokchi sifatida tayyorlashni talab qiladi.

5. Muhokama. Tinglab tushunish ko'nikmasi o'z-o'zidan shakllanmaydi. O'qituvchining roli bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. U quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- **Material tanlash:** kontekstli, real hayotga yaqin, talaffuzi tushunarli audio matnlar;
- **Mashqlar turi:** tinglashdan oldingi, tinglash davomidagi va keyingi mashqlarni uyg'unlashtirish;
- **Muhit:** ovoz sifati, takrorlash imkoniyati, vizual ko'mak vositalari;
- **Maqsadli yondashuv:** tinglash maqsadlarini belgilash (umumiy mazmun, detallarga e'tibor, kinoya va intonatsiyani tushunish).

Bularning barchasi o'quvchilarni faollikka undaydi va real hayotdagi muloqotga tayyorlaydi.

Xulosa. Tinglab tushunish chet tilini o'zlashtirishda asosiy va zaruriy ko'nikmalardan biridir. Biroq, bu ko'nikma turli fonetik, leksik va grammatik to'siqlar tufayli osonlikcha shakllanmaydi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu jarayonni osonlashtirish, mashqlarni to'g'ri tanlash, interaktiv metodlardan foydalanish va har bir o'quvchining ehtiyojini inobatga olishdir.

Tinglab tushunishni faqat sinov sifatida emas, balki faol muloqotga tayyorlovchi mashq sifatida qarash zarur. Bu yondashuv orqali o'quvchilar samarali, faol va ongli tinglovchilarga aylanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown H.D. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. 2nd ed. UK: Addison-Wesley Longman, Inc., 2001.
2. Buck G. Assessing Listening. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
3. Richards J. Listening comprehension: Approach, design, procedure // TESOL Quarterly, 17(2), 1983.
4. Underwood M. Teaching Listening. New York: Longman, 1989.
5. Wolvin A., Coakley C. A survey of the status of listening training in some Fortune 500 Corporations // Communication Education, 40, 1992.



IMLODAGI ISHORAVIY XATOLAR USTIDA ISHLASH

Rajapova K.M.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: punktuasiya, grammatik qoida, tinish belgilar, ohang, nuqta, undov, soʻroq, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, koʻp nuqta, qavs, qoʻshtirnoq, tire, nutqiy koʻnikma.

Ключевые слова: пунктуация, грамматическое правило, знаки препинания, интонация, точка, восклицательный знак, вопросительный знак, запятая.

Key words: punctuation, grammatical rule, punctuation marks, intonation, period, exclamation mark, question mark, comma.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada ona tili darslarida tinish belgilarning ishlatilishi va ular bilan bogʻliq boʻlgan xatoliklar ustida ishlash haqida fikr yuritiladi. Shuning bilan birga tinish belgilar bilan bogʻliq qoidalar ustida ish olib borish jarayonida amalga oshiriladigan amaliy va ijodiy ishlar boʻyicha ham maʼlumotlar keltirilgan. Shuningdek, tinish belgilar boʻyicha tahlil namunalari ham keltirilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается использование знаков препинания на уроках родного языка и работа над связанными с ними ошибками. Также представлена информация о практических и творческих заданиях, выполняемых в процессе изучения правил, связанных со знаками препинания. Кроме того, приведены примеры анализа знаков препинания.

SUMMARY:

This article discusses the use of punctuation marks in native language lessons and addressing related errors. Additionally, information is provided on practical and creative work carried out in the process of working with rules related to punctuation marks. Examples of punctuation analysis are also included.

Kirish. Barchamizga maʼlumki, ona tili taʼlimi oldida turgan asosiy talab ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash, erkin fikrlash va fikr mahsulini har qanday sharoitda bemalol bayon qila oladigan shaxsni yetishtirishdir. Zeroki, oʻz ona tilida bemalol gapira olish, bexato yoza olish ham tilga boʻlgan hurmatning va madaniyatlikning bir belgisidir.

Dunyo tajribasida eʼtirof etilayotgan til oʻrganishga doir tinglab tushunish, oʻqish, yozish va gapirish koʻnikmalari oʻquvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga imkon bermoqda. Shu oʻrinda yozish koʻnikmasi deganda, faqat til birliklarining yozilishi nazarda tutilmasdan umumiy yozish malakasini



nazarda tutishimiz lozim [8]. O'quvchining yozish malakasiga tinish belgilarni o'z o'rnida qo'llashi ham kiradi. Bilamizki, yozuvda orfografiyani to'g'ri qo'llash qanchalik zarur bo'lsa, tinish belgilarini o'z o'rnida ishlatish ham shu qadar muhimdir. Chunki tinish belgilari yozma nutqda gap bo'laklaridan tortib, to murakkab gaplarga nutqni bog'lanishli qismlarga ajratish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Tinish belgilarining o'rganilishi bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlarda sintaksis, semantik va intonatsion yondashuvlar keng yoritilgan. Xususan, A. G'ulomov, M. Nurmatov, Z. Raxmatullayeva ishlarida punktuatsiyaning o'quvchiga ta'siri, yozma nutqni rivojlantirishdagi roli alohida ko'rsatib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda kuzatuv, matn tahlili va amaliy tahlil metodlaridan foydalanildi. Boshlang'ich sinf darsliklari, o'quvchilar yozma ishlari tahlil qilinib, tinish belgilar qo'llanilishidagi tipik xatolar aniqlandi. O'qituvchilar bilan suhbat orqali amaliy yondashuvlar baholandi.

Natijalar. Punktuatsiya – tinish belgilari va ularning ishlatilishi haqidagi qoidalar yig'indisini qamrab olgan fandir. Bu belgilar matndagi gaplarning mantiqiy urg'usini aniqlashga, so'zlarni va so'z birikmalarini gap mazmuniga mos ohangda, aniq, to'g'ri va tushunarli qilib talaffuz qilishga yordam beradi. Ma'lumki, til kishilarning o'zaro fikrlashuvlari, hayotlari va ularning mehnat jarayonlari uchun eng asosiy vositadir. Til orqali ifodalanuvchi barcha tushunchalar, mazmunlar, his-tuyg'ular og'zaki ravishda yoki yozuv orqali shakllanadi[6]. Tinish belgilar aynan yozma nutqning elementidir. Bu belgilar bilan bog'liq qoidalar fikr, his-tuyg'uni yozuvda aniq va tushunarli bayon etishga imkon beradi. Tinish belgilarining qo'llanishi bilan matnni oson va to'g'ri o'qish, tushunib olish imkoniyati ham tug'iladi.

Tinish belgilari ham ta'limning ikki bo'g'inida o'rgatiladi. Tayanch ta'lim bo'g'inida o'quvchilarning boshlang'ich talim tizimida ishora-imlo qoidalari haqidagi ilk ma'lumoti, ko'nikma va malakalari takomilashib, ularga sintaksis mavzulari bilan bog'lab tinish belgilarining ma'no va grammatik munosabatlarni farqlashdagi muhim vazifalari o'rgatiladi [9].

Quyi sinflarda faqat to'rtta tinish belgi: gap oxirida nuqta, so'roq, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi. O'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqda ishlatilishi va ularning qo'yilish o'rnini ko'rsatadi[7]. Tinish belgisi fikrni to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. Masalan, nuqtaning qo'llanishini oddiy tarzda tushuntirish uchun gaplarga ajratilmagan, ya'ni tinish belgilari



qo'yilmagan yaxlit matn o'qitiladi, o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, punktuatsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidalarga asoslanadi. Mana shu uch asos bir-biriga o'zaro ta'sir qiladi. Matnni yozayotgan kishi tinish belgisini qo'yishda, avvalo, bayon etadigan fikrining mazmuniga asoslanadi[5]. Nutqning mazmun tomoni gapning qurilishiga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun o'quvchilarga tinish belgilarining qo'llanilishini o'rgatishda biror gapda tinish belgilarini qo'llashni belgilaydigan semantik-sintaktik tamoyilga asoslaniladi. O'qituvchi matndagi tinish belgilar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarga talaffuzda bir gap boshqasidan to'xtam bilan ajratilishini, gapning oxirida ovoz pasayishini tushuntiradi. Shuningdek, og'zaki nutqda bir gapni ikkinchisidan pauza bilan, yozuvda esa tinish belgilar bilan ajratilishini aytib o'tadi. Bolalar o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, matnni gaplarga ajratadilar va ular o'rtasidagi to'xtam qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga ishonch hosil qiladilar. So'roq va undov belgilari bilan ham savod o'rgatish davridayoq tanishtiriladi. Bolalar so'rash mazmunini bildirgan gaplarni o'qiydilar. O'quvchilar bunday gaplarni ohangga rioya qilgan holda, ya'ni gapning oxirida ovozni ko'tarish bilan o'qishga o'rgatiladi. Gapning mazmuni va intonatsiyasi so'roq belgisini qo'yishni talab etadi. Undov belgisini qo'yishni o'quvchilar gapning his-hayajon ifodalashi va alohida ohangda o'qilishi bilan bog'laydilar. "Darak gap" mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda nuqta qo'yilishi, "So'roq gap" mavzusi bilan bog'liq holda so'roq belgisi va "Undov gap" mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda undov belgisining qo'yilishi o'rgatiladi. "Gapning uyushiq bo'laklari" mavzusi o'rganilganda sanash ohangi bilan bog'langan bo'laklarda vergulning vazifasi bilan tanishadilar. O'qituvchi ikki gapni o'qib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini ko'rsatadi. Masalan, Men vatanimni sevaman. (Gap oxirida ovoz pasayadi, pauza qilinadi). Men ona tili, adabiyot, tarix fanlarini juda sevib o'qiyman (ona tili, adabiyot, tarix so'zlaridan so'ng ovoz bir oz pasayadi, xabarning davom etishi seziladi). O'quvchilar uyushiq bo'lakli gap tarkibidagi uyushiq bo'laklarning ammo, lekin, biroq so'zlari bilan bog'langanda vergulning ishlatilishini ham amaliy o'rganadilar [11]. Har xil mashqlarni ishlash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadilar. Matnni o'qiganda bu tinish belgilariga rioya qilishni o'rgatadi. Masalan, Bayroq, gerb, madhiya- barchasi davlat ramzlaridir. Vatani muqaddas maskan. Bunday mashqlarini bajarganda, o'qituvchi o'quvchilarini tire va ikki nuqtaning qo'yilishi bilan amaliy tanishtiradi. O'qituvchi aniq misollar bilan sanab ko'rsatilgan so'zlardan oldin ikki nuqta qo'yilishini, har bir so'zning



vergul bilan ajratilishini ko'rsatadi. Bunda o'quvchilar tinish belgining nomini aytadilar, o'qituvchi eslatmasa ham, ulardan asta-sekin foydalana boshlaydilar. Matnni yozishdan oldin ishoraviy xatoning ham oldi olinadi.

O'quvchilarga punktuasiyani o'rgatish ona tili o'qitishning eng murakkab sohasi hisoblanadi. Bu vazifa sintaksis kursini o'qitish bilan amalga oshiriladi. Chunki sintaksisga oil mavzularning deyarli hammasi punktuasiya bilan bog'lab o'tiladi. Punktuasiya qoidalari sintaksis kursidagi mavzular asosida tuziladi va shu kurs asosida amalga oshiriladi[1]. Tinish belgilarini o'rgatish adabiy o'qish darslarining ham ajralmas qismidir. Zero, o'quvchining ifodali o'qish malakasini egallashi, badiiy o'qish san'ati tinish belgilariga rioya qilib o'qishga bog'liqdir.

Yozuvda tinish belgilarini ma'lum tamoyillar asosida ishlatamiz. Punktuasiyaning prinsiplari uning ilmiy asoslaridan iboratdir [2]. Masalan, o'zbek tilidagi o'nta tinish belgini ishlatishda ma'lum qonun-qoidaga amal qilinadi.

Hozirgi o'zbek yozuvida tinish belgilari asosan mazmuniy, sintaktik-stilistik vazifani bajaradi. Tinish belgilarining qo'llanishi doirasi, o'rni va tartibini belgilashda mazkur tilning sintaktik qonuniyatlariga asoslaniladi. Masalan, murakkab tinish belgi hisoblangan ko'p nuqta quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

a) mazmuni tugallanmagan gaplar oxiriga: Yo'q ...sigir emas... ho'kiz...ola xo'kiz edi...

b) hayajon, kuchli tovush bilan aytilgan gaplar oxiriga: O ... ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan.

v) gapning aytilmay qolgan bo'lagi o'rniga: Yurib-yurib...qishlog'iga etib bordik.

O'quvchilarning tinish belgilar bo'yicha savodxonligi nazorat ishlar, turli tipdagi matnlar, diktantlar, bayon, insholar, esse, uyda va sinfda bajarilgan amaliy mashqlar orqali mustahkamlanadi va nazorat qilinadi. Bunday ishlarga kirishishdan oldin ishoraviy xatolarning kelib chiqish sabablari va shunday xatolarning turlarini aniqlab olish zarur. Ishoraviy xatolarning quyidagi tiplari mavjud:

1. Kerakli tinish belgini qo'ymaslik. Masalan, *O'zbekistonning poytaxti Toshkent. (Aslida, O'zbekistonning poytaxti –Toshkent).*

2. Tinish belgini almashtirish, ya'ni birining urinida ikkinchisini ishlatish. Masalan, *Tilagim shu - o'chmasin yongan chirog'ing. (Aslida, Tilagim shu: o'chmasin yongan chirog'ing)*



3. Tinish belgisini ortiqcha qo'llash. Masalan, *Samarqand, Buxora, Xiva, qadimiy va navqiron shaharlardir.* (Aslida, *Samanrqand, Buxora, Xiva qadimiy va navqiron shaharlardir*).

4. Belgilardan birini tushirib qoldirish. Masalan, «*Kitob- bilim bulog'i*», deydi dono xalqimiz. (Aslida, «*Kitob- bilim bulog'i*», - deydi dono xalqimiz).

5. Tinish belgilarini ishlatishda izchillikning yo'qligi. Masalan, ayni bir xil gap qurilmasida bir safar tinish belgisini to'g'ri qo'yib (*Vaqting ketdi – baxting ketdi*), ikkinchi safar xuddi shunday tipdagi gaplarda boshqa tinish belgisini qo'yish, masalan, *Hamal keldi, amal keldi.* (Aslida, *Hamal keld - amal keldi*)

Tinish belgilari bilan bog'liq xatolarni tekshirish va baholashda alohida pedagogik, metodik mahorat va lisoniy sezgirlik zarur. Chunki bunday mashg'ulotlarning asosiy maqsadi ishoraviy xatolarning oldini olish, bartaraf qilishdan iboratdir. Agar o'quvchi u yoki bu tinish belgini nima uchun, qayerda qo'llash kerakligini bilmasa, metodik meros uni qo'ymaslikni ma'qul deb hisoblaydi. Chunki zarur belgini qo'ymay, uning o'rnida boshqasini ishlatish undan jiddiyroq xatoni keltirib chiqarishi mumkin. U ham o'quvchining, ham o'qituvchining ishini murakkablashtiradi. Agar o'quvchi gapda bir tinish belgini qo'ymasa, u shunga oid qoidani yaxshi o'zlashtirmagan yoki bilmaydi. Aksincha, tinish belgisini ortiqcha ishlatlsa, belgini asossiz qo'llashga odatlanib ketadi. Shuning uchun har ikkala xato ustida ham alohida mashg'ulotlar o'tkazish lozim.

O'qituvchi o'quvchilarning ishoraviy xatolarini hisobga olib qo'yish bilangina kifoyalanmasligi kerak. Tinish belgilar ustida o'tkazilgan tahlil jarayonida o'sha xatolarning paydo bo'lish sabablarini o'rganib, keyin bolaga tushuntirishi lozim. Ana shundagina maktab o'quvchisi tinish belgilarini ongli ravishda qo'llanishga odatlanadilar.

Ishoraviy xatolarini tahlil qilishni quyidagicha tashkil etish mumkin:

- √ xato qilingan gapni o'quvchi ifodali o'qiydi. O'qituvchi diktovkasi asosida taxtaga yozadi. O'quvchi belgini ishlatishda nima uchun xato qilgan, buning sababi izohlanadi;
- √ ayni xato ko'pchilik o'quvchi tomonidan yuborilgan bo'lsa, o'sha gapga o'xshash misollar topib o'zlariga yozish topshiriladi va misol tariqasida ma'lum bir gaplar tahlilga tortiladi;
- √ yozma ishlardagi tipik punktuatsion xatolarga oid qoidalar eslatiladi, shu asosida o'quvchilar o'z xatolarini tuzatadilar;
- √ individual va umumiy xarakterdagi uy vazifasini topshirish orqali.

Nazorat ishdagi ishoraviy xatolarning hammasini bir darsda tahlil qilish mumkin emas. Unda eng tipik xatolar ustidagina ish olib boriladi. Ayrim



o'quvchilargagina xos xatolar yuzasidan esa o'sha o'quvchilarga mustaqil ish berish, maxsus qo'shimcha darslar tashkil etish shart.

Tinish belgilar ustida tashkil qilingan mashg'ulotlarning samaradorligi darsning jihozlanishiga ham bog'liq bo'ladi. Ayni maqsadda tinish belgilarni o'rgatishga qaratilgan ko'rgazmali qurollar, kartochkalardan o'rinli va unumli foydalanishimiz zarur. Bunday ko'rgazmali materiallar sintaksis bo'limidagi deyarli hamma mavzular yuzasidan tayyorlanishi mumkin. Masalan, gapning uyushiq bo'laklari, uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z va undagi tinish belgilar, undalma, kirish so'z, ko'chirma gap, qo'shma gap va boshqalar.

Tildagi har bir hodisa bo'yicha o'tkazilgan tahlil shu hodisani mukammal o'rganib olish uchun eng asosiy yo'ldir. Masalan, fonetikasi fonetik tahlilga, grammatikasi morfologik va sintaktik tahlilga suyagan holda o'rgatsak, o'quvchilar shu hodisani tez va oson o'rganib olishadi hamda ularda ko'nikma hosil qilinadi. Afsuski, ularning barchisiga ham talab darajasida e'tibor berilmaydi. Shundaylardan biri punktuatsion tahlildir. Zeroki, zarur bilim, ko'nikma va malakalar sirasida bu tahlilning ham alohida o'рни bor. Punktuatsion tahlil mundarijasi o'nta tinish belgi. Asosan, bunga sintaksis va punktuatsiyaga oid har bir mashg'ulotning ma'lum qismida o'rin ajratilishi lozim. DTSda ta'kidlangan to'rtinchi bosqich ham shuni taqozo qiladi. Ayni maqsadda o'qituvchi bu tahlilning o'tkazilish tartibi-yu mudarijasini nazariy jihatdan mukammal bilishi kerak.

Muhokama. Ishoraviy belgilar bo'yicha tahlilni quyidagi tartibda o'tkazish mumkin:

1. Ifoda maqsadiga ko'ra gapning turi va tinish belgisi, uning qo'llanish xususiyati.

2. Gapning grammatik tuzilish jihatidan turi.

3. Gap tarkibidagi tinish belgilarining miqdori.

4. Gap tarkibidagi tinish belgilarining tuzilishi (Bir elementli-vergul, tire, nuqta; ko'p elementli-ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs, qo'shtirnoq, undov, so'roq belgisi).

5. Gap tarkibidagi tinish belgilarining o'рни (gap oxirida, gap ichida, gapning turli qismlarida aralash holda) va qo'llanishi.

6. Gap tarkibidagi tinish belgilarining qo'llanish usuli : a) yakka tarzda; b) qo'sha tarzda (bir xil tinish belgining takroriy qo'llanishi, turli tinish belgilarining birgalikda qo'llanishi).

7. Gap tarkibidagi tinish belgilarining vazifasi: a) chegaralovchi (qo'shtirnoq, qavs); b) ayiruvchi (nuqta, so'roq, undov, nuqtali vergul); v) murakkab vazifali (ikki nuqta, vergul, tire, ko'p nuqta).



8. Gap tarkibidagi tinish belgilarining og‘zaki nutqdagi intonatsiyasi.

Ishoraviy belgilar bo‘yicha tahlil namunasi:

Hukumatimiz tomonidan aholi uchun xizmatlarni raqamlashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda, masalan, davlat xizmatlari portalida biror xizmatdan foydalanish uchun elektron ariza yozish, unga elektron imzo qo‘yish imkonini mavjud.

Darak gap. Shuning uchun oxiriga nuqta qo‘yilgan. Grammatik tuzilishi jihatidan qo‘shma gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap (komponentlar bog‘lovchisiz bog‘langan), ikkita sodda gapdan iborat; gap bo‘laklari bilan bog‘lanmagan bitta kirish so‘z mavjud; to‘rtta tinish belgi qo‘llangan; ikki xil tinish belgi qo‘llangan: vergul, nuqta-bir elementli, tuzilishi sodda; nuqta gap oxirida qo‘llangan, vergul qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘rtasida, kirish so‘zdan keyin va uyushiq bo‘laklar orasiga qo‘yilgan; barcha tinish belgilari yakka tarzda qo‘llangan; nuqta ayiruvchilik vazifasini bajargan.

Maktabda punktuatsiya o‘qitish muhim ahamiyatga molik. Darhaqiqat, yozma nutqni tinish belgilarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu boisdan ham Sh.Shoaabdurahmonov: «Puntuatsiya yozuv kabi, kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biridir», deydi[3]. Zero, tinish belgilari yozuvchining maqsadini tushuna olish uchun ishlatilgan yozuv oynasidir. Ayni ma‘no va funksiyada «Agar milliy alifbo (harflar sirasi) yozuv tili «yuragi»ni talshkil etsa, ishoraviy alifbo (tinishlar sirasi) uning muskulini hosil qiladi; yana boshqacharoq qilib aytganda, harfli alifbo yozuv tilining «umurtqa suyagi» hisoblansa, ishoraviy alifbo uning «qovurg‘alari» va «boshqa tana suyaklari» sanaladi», degan ta‘rif maktabda punktuatsiyani o‘rgatishning ahamiyati, o‘rni va bu faoliyat o‘zbek tili o‘qituvchilarining kasbiy burchga nisbatan mas‘uliyatini ta‘kidlab turibdi[4].

Xulosa. Shunday qilib, o‘qituvchi o‘quvchilarda punktuatsion ziyraklikni o‘stirib boradi. O‘quvchilarga tinish belgilarini ishlatish qoidalarini to‘la singdirish, ularni tinish belgilarini o‘z o‘rnida ongli ishlatishga o‘rgatish maqsadida sintaktik-puntuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo‘yish, ta‘kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan bog‘lash sintaksis va punktuatsiya elementlari ustida ishlashning metodik shartlaridan biri hisoblanadi[10]. O‘quvchilar bu darslarda sintaksis sohasidagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o‘qish, so‘zni aniq ishlatish, o‘z fikrlarini grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirishga o‘rganadilar. Ona tili darslarida o‘quvchilarni grammatik tushunchalar bilan tanishtirish jarayonida ularda to‘g‘ri yozuv



malakasi ham shakllantiriladi va imlo qoidasini o'zlashtirishga asos solinadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Shuning uchun har bir darsda imlo ustida ishlash muhim vazifa sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F. Абдурахмонов. Пунктуация ўқитиш методикаси, Тошкент, 1968.
2. К. Назаров. Ўзбек тили пунктуацияси асослари .Тошкент, 1971, 14-15-бет
3. Ш. Шоабдурахмонов . Ўзбек тилида пунктуация. Тошкент, 1961
4. К. Назаров , Б.Эгамбердиев . Ўзбек тили ишора-имло қоидалари. Тошкент, «Ўқитувчи», 1996, 3-бет.
5. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006 -yil
6. Mirzaqulov T. Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1994 -yil.
7. Safarova R. Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – T.: Fan, 1995. – 108 b.
8. Rajapova K. M. Nutqiy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish metodikasi. Monografiya. –T.: «Firdavs Shoh nashriyoti», 2025 –yil.
9. Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1996.
10. Yo'ldashev B., Rajapova K. «Matn tilshunosligi» O'quv-uslubiy qo'llanma. //Samarqand, 2011. SamDU nashriyoti.
11. Hamroev G'. Ona tili o'qitishning samarali usullari. - T.: Bayoz, 2018.



IKKI TILLI VA KO'P TILLI LUG'ATLARDA NUTQIY ETIKETLARNING BERILISH USULLARI

Ergasheva G.X.

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: etiket birliklari, axloqiy me'yorlar, urf-odatlar, ananalar, semantik, izohlash, shakl, muloqot, adabiy til.

Ключевые слова: этикетные единицы, моральные нормы, обычаи, традиции, семантика, интерпретация, форма, коммуникация, литературный язык.

Key words: etiquette units, moral norms, customs, traditions, semantics, interpretation, form, communication, literary language.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada Ikki tilli va ko'p tilli lug'atlarda nutqiy etiketlarning berilishi xalqning milliy xususiyatlarining shakllanishi, halq mentaliteti, shuningdek, uning psixologik xususiyatlari, odatlari, urf-odatlari va an'analari bilan qanday bog'langanligi va uni o'qitishda qo'llanilishi to'g'risida ma'lumotlar xorijiy olimlarning qarashlari orqali nazariy va ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье дается теоретическое и научное обоснование необходимости предоставления речевых помет в двуязычных и многоязычных словарях, основанное на взглядах зарубежных ученых, на то, как они связаны с формированием национальных особенностей народа, менталитета народа, а также его психологических особенностей, обычаев, нравов и традиций, и их использование в обучении.

SUMMARY:

The article provides a theoretical and scientific justification for the need to provide speech tags in bilingual and multilingual dictionaries, based on the views of foreign scientists on how they are related to the formation of national characteristics of the people, the mentality of the people, as well as its psychological characteristics, customs, morals and traditions, and their use in teaching.

Kirish. O'quvchi chet tilini o'rganishni boshlaganida, u birinchi darslarda ushbu tilning etiketlarini o'rganishdan boshlaydi, zero har bir dars va suhbatlar salomlashish, tanishtirish va boshqalar bilan boshlanadi. Bularning barchasi madaniy etiketning elementlari hisoblanadi va o'rganilayotgan va o'rgangan tillarda farq qilishi mumkin. Muloqot jarayonida ishlatidigan har bir so'z yoki ibora millat madaniyatini ko'rsatib turadigan oyna hisoblanadi. Shunday ekan nutqiy etiket bu jamiyatning, qolaversa millatning bir bo'lagi hisoblanadi va shu



bilan bir qatorda o'zgaruvchandir. Ularning lug'atlarda semantik izohlash bir muncha qiyinchilik tug'diradi.

Adabiy til zamonaviy tilga nisbatan konservativdir. Bu, til vositalarini tanlash va sinchkovlik bilan tekshirish bilan bog'liq bo'lgan uzoq jarayon hisoblanadi [1].

Xalqning milliy xususiyatlarining shakllanishi, halq mentaliteti, shuningdek, uning psixologik xususiyatlari, odatlari, urf-odatlari va an'analari bilan belgilanadi va madaniyatning turli shakllarida namoyon bo'ladi. Milliy madaniyat tartibga soluvchi elementlarni o'z ichiga oladi: ideallar, axloqiy me'yorlar, urf-odatlar, ananalar, ular birgalikda inson xatti-harakatlarining ijtimoiy normalarini tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jus Martinning mazkur nazariyasi ingliz tili nutqiga asoslangan bo'lib, muloqot vaziyatlarini bu guruhlariga bo'lib o'rganish nafaqat ona tili vakillari uchun, balki xorijiy til o'rganuvchilari uchun ham nutqiy etiket birliklarini o'rni qo'llash ko'nikmasini olishga yordam beradi. Ammo bu har bir tilga ham mos kelavermasligi va biroz chegaralanganligini seziladi. XX asrning so'nggi o'n yilligi va XXI asr boshlarida olimlar e'tibori ko'proq nutqiy etiket mavzusi doirasida "behurmatlik va qo'pol muomala" masalasiga qaratildi. Ular insonlar muloqotidagi o'zaro til aspektlarini nazariy jihatdan o'rganib, "face-maintaining" (hurmatni saqlash), "face-enhancing" (hurmatni oshirish) va "face-damaging" (hurmatga zarar yetkazish) xulq-atvorini tahlil qiladilar. Ingliz xalqining nutqiy etiket birliklari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar turlicha konseptual nazariyalarni ilgari suradi. Masalan, Sifianu Angliyada 27 ta britaniyalik vakil bilan tadqiqot o'tkazadi va qo'lga kiritgan natijalar xulosasi o'rni ingliz nutqiy etiketiga "jamiyat qoidalariga amal qilgan holda, boshqalarning hissiyotlarini hisobga olish" degan ta'rifni qo'llaydi. Yapon olimlari Obana va Tomoda Avstraliyalik inglizlar bilan suhbatlar va izlanishlar o'tkazib, nutqiy etiket – mehribonlik, do'stona munosabat, ziyraklik, kamtarlik, hurmat ko'rsatish kabi tushunchalarni o'zida mujassam etgan konsepsiya ekanligini ta'kidlaydilar [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Insonlarning fikrlash tarzlari, so'zlashish qoidalari, ijtimoiy va milliy qadriyatlar, leksik konnotatsiyalar va boshqa qator faktorlardagi pragmatik farqlar muloqotda xatolarni keltirib chiqarish mumkin. Madaniy xato lingvistik xatodan yomonroq va xavfliroq bo'lib, ikki har xil til vakillarida yoqimsiz hissiyot uyg'otadi. Olim ilgari surgan fikrlar bizning kuzatishlarimizda ham o'z tasdig'ini topdi. Misol tariqasida ulardan ba'zilarini keltiramiz. "Qayerga ketyapsiz?" deb tanishidan so'rash o'zbeklarda salomlashishning qisqa davomi uchun aytiladigan nutqiy etiket frazasi o'rni qabul qilinsa, Yevropa yoki Uzoq Sharq, jumladan yapon xalqida shaxsiy dahlsizlikga putur yetkazish sifatida qoraladi. Indonezlardagi "Sudah mandi?"



– “Bugun cho‘mildingizmi?” savoli indonez xalqida salomlashishning turi, suhbatdoshni o‘ziga yaqin olinishi nazarda tutilsa, bu savol ko‘pgina xorijiy xalq vakillarini hijolatli ahvolga qo‘yishi, o‘zi haqidagi “Menda ifor bilan muammo bor ekanmi?!” degan yoqimsiz shubhalarga olib kelish ehtimoli balanddir. Vyetnam xalqlari “Yaxshimisiz?” ma’nosini ifodalash uchun “Bugun guruch yedingizmi?” deb o‘zaro salomlashishlari xorijliklarning pragmatik xato tushunchaga ega bo‘lishlariga olib keladi. Asosan Janubiy Xitoy, Filippin, Taylandda ham shunga o‘xshash ibora “Ovqatlandingizmi?” deb so‘rashishlarini manbalardan kuzatdik [2].

Bunda yuqorida ta’kidlangan iboralar mazmunida spetsifik mentalitet tushunchalari yotadi. Indonez xalqi uchun “cho‘milgan bo‘lish” – yaxshi kayfiyat, ahvolining yoqimlilikini bildirgani uchun, mazkur savol orqali suhbatni boshlar ekanlar. Xitoy, Filippin, Tayland va Vyetnam xalqlarida ham “qorni to‘qlik” – holatning yaxshiligini ifodalagani uchun “Yaxshimisiz? / Ahvolingiz qanday? / Qalaysiz?” ma’nolarida tushuniladi. O‘zbek xalqi kundalik muloqotida ishlatadigan “Qalaysiz? (Ahvolingiz qanday?)”, “Turmushga chiqqanmisiz? / Oilalimisiz?”, “Necha yoshsiz?”, “Farzandlaringiz bormi?” kabi odatiy saavollar boshqa madaniyatlarda hurmatsizlikni ifodalovchi shaxsiy savollar, yoki aksincha, ayrim xorijliklarning o‘zbeklar tomonidan keltirilgan maqto’vni inkor qilaverishi, masalan, “Bugun ochilib ketibsiz!”, “Ingliz tilida juda yaxshi gapirar ekansiz!”, “Kiyimingiz juda chiroyli!” kabi xushomad yoki maqto’vlarga xorijliklar tomonidan “Yo‘g‘-ey, nimalar deyapsiz!”, “Unday holatning o‘zi yo‘q.” kabi maqto’vni inkor qiluvchi javoblar berishi har doim ham “Juda kamtar ekan...” degan tassavvurni emas, “Buncha o‘zini pastga uradi.”, “Mening fikrimni noto‘g‘riga chiqarmoqda!” (O‘ta kamtarlik - manmanlikdir) degan o‘ylar bo‘lishi turli millat vakillari va o‘zbeklar bilan o‘tkazilgan intervyular yordamida aniqlandi.

Xitoylik olim Yongliang Xuang o‘zining “Politeness Principle in Cross-Culture Communication” (“O‘zaro madaniy muloqotda Politeness – nutqiy etiket prinsipi”) nomli maqolasida nutqiy etiket prinsiplari haqidagi qarashlarini dalillash uchun quyidagi misollarni keltiradi: “Kattalarga transportda joy berish bu yaxshi xulq namunasi; kimdir gapirayotgan payt uning gapini bo‘lish qo‘pollik ko‘rinishi; erta tongda uchratgan tanish kishiga birinchi bo‘lib salom berish nutqiy etiket belgisi bo‘lsa, turgan holda dasturxondagi taomga qo‘l cho‘zish behurmatlikni ifodalaydi” [3].

Guvoh bo‘lamizki, yuqorida sanalgan nutqiy etiket yoki qo‘pollik ko‘rinishlari har bir millat madaniyati uchun birdek to‘g‘ri kelavermaydi. Ko‘p millatlarda yaxshi xulq belgisi sanalgan joy berish (transportda) – masalan, Yaponiyada tushunmovchilikni keltirib chiqaradi. “Men shunchalik qari ko‘rinamanmi? Ojiz



ko'rinamanmi?" degan pessimistik hayolga tortuvchi bosim o'tkazib qo'ymaslik uchun ham yaponlarda o'zidan kattalarga joy berish joiz sanalmaydi. Ta'kidlash joizki, nutqiy etiket – ijtimoiy fenomen sifatida hamda kuzatuvchanlik asosida o'rganilishi va tushunilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, nutqiy etiketlarni bilish har bir millat kundalik hayotini, turmush tarzini bilishda katta ahamiyatga ega. P.Braun va S.Levinsonlar E.Goffmanning nazariyasidagi "feys"(face) – tushunchasini rivojlantirib, ilk marta "pozitiv va negativ feys" atamasini fanga kiritadilar[4]. Ularning fikricha, nutqiy etiket (politeness) ikki ehtiyojni o'z ichiga oladi. Negativ o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyoji (negative self-respect needs) deganda bosim o'tkazilmaslikka bo'lgan ehtiyoj tushuniladi. Pozitiv o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyoji (positive self-respect needs) deganda ma'qullanishga bo'lgan ehtiyoj tushuniladi. P.Braun va S.Levinson Amerika madaniyati bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida pozitiv feysdan ko'ra negativ feysga tegishli natijalar ancha salmoqli darajada ekanligi ko'rinadi. Chunki AQSH madaniyatida negativ feys – ya'ni bosim o'tkazmaslik prinsipi suhbatdoshga bo'lgan hurmatni ifoda etishi aniqlandi. Pozitiv feys (Positive face) – suhbatdoshda yaxshi tasavvur qoldirishga intilish, ma'qullanish ishtiyoqi va suhbatdoshning ham ma'qullanayotganini ko'rsatishni anglatadi. Masalan:

Suhbatdoshga xushomad qilish ("What a lovely dress!" – "Ko'ylagingiz buncha chiroyli!");

Suhbatdoshning ahvoli haqida qiziqish ("How are you?" – "Qalaysiz?");

Suhbatdosh bilan o'tayotgan vaqtdan zavqlanayotganingizni ko'rsatish ("This is nice!" – "Maza qildim siz bilan gaplashib!");

Do'stona imo-ishoralar qilish (noverbal usul);

Suhbatdoshga qiziqish bildirish (qiziqish, hamdardlik, hamfikrlik);

Umumiy mavzulardan kelishuvni qidirish (har ikkala tomonga ma'qul bo'ladigan, havfsiz suhbat mavzusi tanlash);

Kelishmovchiliklardan qochish (rozi bo'lgandek o'zini ko'rsatish, kelishuv uchun yolg'ondan foydalanish);

Hazil-mutoyiba qilish;

Har ikki tomon tenglikni his qilishi uchun oddiy og'zaki suhbat usulida gaplashish;

Negativ feys (Negative face) – bosim ostida qolmaslikga bo'lgan xohish va boshqalarni ham bosim ostida qoldirmaslik, o'zgalarning hayotiga aralashmaslik va ularning ham aralashishiga yo'l qo'ymaslik, munosabatlarda erkinlikni his qilish ishtiyoqi. Bunda til bilvosita, uzr so'rash atamallari qo'llangan holda va ehtirom bilan ifoda etiladi. Masalan: Biror narsa so'rashdan oldin uzr so'rash; Pessimistik ruhiyatni ko'rsatish: ("I know this is a stupid idea..." – "bilaman bu ahmoqona fikr, ..."); Ulug'lash: ("Yes Sir!" - "Xo'p bo'ladi, janob!"); Uzr



so‘rab gap boshlash: (“sorry to bother you, but...” - “bezovta qilayotganim uchun uzr, lekin...”); Bilvosita gapirish, fikrni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamaslik: (“I don’t seem to have a pen with me.” - “Menda ruchka yo‘qqa o‘xshaydi.”).

“O‘zbekiston“ va “Yoshlar” telekanalida ko‘rsatuvlarda ishlatilgan etiketlarga quyida misollar keltirdik: Boshlovchilarning xayrlashuvi: Omon bo‘linglar. Xayr! (“Oydin hayot” tok-shousi. O‘zbekiston TV, 22.03.14. 20.10).

Boshlovchining xayrlashuvi mazmunli: Ijodiy guruhimiz sizlar bilan xayrashadi. Bahoriy kayfiyat aslo tark etmasin!

Tahlil va natijalar. A.N.Shukinning “Методика обучения речевому общению на иностранном языке”[5] (Xorijiy tilda nutqiy muloqotni o‘qitish metodikasi) nomli o‘quv qo‘llanmasida keltirilishicha, salomlashishda ham ruslardagi “Kak mama? Kak jena?” kabi savollar nutqiy etiket belgisi bo‘lsa, bu ba’zi musulmon xalqlarda, jumladan Eronda (janubiy Erondan tashqari) aksincha behurmatlik sanaladi. Zero, ayollar haqida o‘zining qarindoshlaridan boshqa odam so‘rashi musulmonchilik qoidalariga to‘g‘ri kelmaydi deb biladilar. Nutqiy etiket (nosamimiy yoki samimiy) nutqda katta o‘rin egallaydigan til vakillarida obyektga yo‘naltirilsa, rus madaniyatida bu subyektga yo‘naltiriluvchi tushunchadir va u albatta samimiy bo‘lishi shart.

Ingliz xalqlarida R.Lakoff nazariyasida ham keltirilgan nutqiy etiketning 3 ta oltin qoidasiga qat’iy amal qilish muhim hisoblanadi [6]:

1) Bosim o‘tkazmang: Insonlar o‘zlarining shaxsiy muhitlariga egadirlar. Ular shaxsiy muhitlariga ihtilof qilinishini istamaydilar. Ular istamagan ishlarini boshqa odam tomondan bosim o‘tkazilib, majburan qilishni xohlamaydilar. Insonlarning har biri o‘zlariga nisbatan individual shaxs sifatida munosabat bildirishlarini kutadilar. Bu qoidada buyruq berish ham qoralanadi.

2) Imkoniyat bering: agar siz kimdirdan biror ish bajarishlarini so‘rasangiz yoki maslahat bersangiz ularga rozilik yoki rad etish imkoniyatini qoldiring.

3) Erkinlik bering: Bu insonlarni hursand qilishingiz shart kerak degani emas. Lekin boshqa kishilarga pozitiv kayfiyat berish, o‘zlarini erkin his qilishlarini ta’minlash muhim qoidadir. Kishilar o‘z fikrlarini hurmat qilinishini va maxsus munosabat bildirilishini kutadilar.

Aynan shu jihatlari ingliz nutqiy etiketlarning o‘zbek nutqiy etiketlari bilan o‘xshashligini ta’minlovchi yana bir jihat ekanligi oydinlashadi.

Ingliz nutqidagi uzr so‘rash nutqiy etiket birliklari bir necha hil ifodalanadi.

1. “Excuse me” – suhbatni boshlash, boshqa kishini e’tiborini jalb etish uchun aytiladi.

2. “Pardon” – suhbat jarayonida biror narsani eshitmay yoki anglamay qolganda, suhbatdoshidan uni yana takrorlashni so‘raganda va aniqlashtirish uchun qo‘llaniladi.



3. “I am sorry” – biror xato ish qilganda, yoki vaziyat yoqimsiz bo‘lganda aytiladi. “I am sorry”ning ikkinchi ma’nosi hamdardlik va achinish bo‘lib, o‘zbek tiliga “afsusdaman”, “hamdardman” ma’nosida tarjima qilinadi. (I am sorry you didn’t pass the exam- Afsus, imtihondan o‘ta olmadingiz.)

Gap komponentlarini yoki strukturasi o‘zgartirish yoki leksik boyitish orqali ham nutqiy etiket birliklarini ifodalash mumkin.

Lug‘atda ularni ikki xil izohlash mumkin:

Oddiy izoh.

He is hard to deal with ... U bilan kelishish qiyin...

We must stop working together. Birga ishlashni to‘xtatishimiz kerak.

There has been a mistake. Bu yerda xato bo‘libdi.

Ehtiromli izoh.

He is a bit hard to deal with... U bilan kelishish biroz qiyin.

I am afraid we will have to stop working together. Qo‘rqamanki, biz birga ishlashni to‘xtatishimizga to‘g‘ri keladi.

It looks like there has been some mistake. Bu yerda biroz xato bo‘lganga o‘xshayapti [8].

Britaniyaning tipik etiketi “o‘ta takallufli” ko‘rinsa-da haqiqiy hissiyotlardan uzoq, ko‘proq soxta xarakterga ega” hisoblanadi. “Mulozamat qilish” ko‘proq ingliz savdogarlarining muloqot bezagi va Britaniyaliklar madaniyatining muhim qismidir. Ingliz nutqiy etiketida “Iltimos” (Please), “Rahmat” (Thank you) va “Uzi” (Sorry) so‘zlari muntazam qo‘llaniladi.

Amerikalik olim M.Jus Amerika nutqiy etiketini o‘rganar ekan, muloqot vaziyatini 5 turga bo‘lib tahlil qiladi.

1. Muzlagan muloqot - Frozen (rasmiy uslub, tinglovchidan javob talab qilinmaydi, so‘zlovchi chiroyli so‘zlar va ravon grammatikani qo‘llab, uzun gaplar tuzib gapiradi. Marosimlar, to‘ylar, rasmiy tadbirlardagi nutq, qasamyod va h. z. larda qo‘llaniladi.);

2. Rasmiy muloqot - Formal (Lavozimi baland, yoshi katta insonlarga nisbatan mazkur uslub bilan murojaat etiladi. Sud, intervyu, majlislardagi nutqlarda qo‘llaniladi.);

3. Maslahatli - Consultative (semi- formal, ikki tomonlama suhbat, muhokama, munozara);

4. Kundalik – Casual (norasmiy, erkin. Do‘stlar, oila a‘zolari, tanishlar bilan jonli yoki virtual suhbatda qo‘llaniladi); 5. Yaqin – Intimate (juda yaqin munosabatdagi kishilarning o‘zaro til kodlarini ishlatib muloqotga kirishishlari) [9].

Paul Grays nutqiy etiket masalasiga so‘zlovchining (nutq egasining) huquqlari nuqtai nazaridan yondashadi. U “suhbatdoshlar maqsadi suhbat chog‘ida



hamkorlikga intilishdan iborat”, deb ta’kidlaydi. Hamkorlik har bir soʻzlovchining soʻzi boshqalarning shaxsiy huquqlariga, mustaqil fikriga va xohishlariga dahl qilish bilan belgilalandi va bu maxsus “face threatening acts” (hurmatga tahdid soluvchi harakatlar) atamasi bilan ifodalanadi. Soʻzlashuv shaklini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish uchun P.Grays toʻrtta qoidani taklif qiladi:

1. Sifat qoidasi (rostgoʻy boʻling) - Maxim of Quality (Be true);
2. Miqdor qoidasi (qisqaroq soʻzlang) - Maxim of Quantity (Be brief);
3. Munosabat qoidasi (muvofig/aloqador boʻling) - Maxim of Relation (Be relevant);
4. Odob qoidasi (aniq boʻling) - Maxim of Manner (Be clear) [10].

Mazkur tavsiyalar “Nutqiy etiket qoidalari” mavzusi doirasida oʻrganilgan boʻlsa-da, P.Grays bu qoidalarni oʻz jamiyati prinsiplaridan kelib chiqib yoritganligini, yoki universal nutqiy etiketni nazarda tutganligini aniq keltirmagan. J.Tomas oʻzining “Cross-cultural Pragmatic Failure” (Oʻzaro madaniy pragmatik xatolar) nomli maqolasida turli madaniyatlarga ega, ammo bir tilda gaplashayotgan kishilar muloqotidagi pragmatik anglashilmovchiliklar haqida soʻz yuritadi [11].

Tabrik va murojaatlarnig namunaviy koʻrinishlariga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining xalqimizga turli bayramlar, tarixiy voqealar munosabati bilan yoʻllagan maktublari bosilgan. Ushbu tabriklarning murojaat bilan boshlanishi oʻquvchi diqqatini tortadi va Prezidentning xalqimizga nisbatan samimiy munosabatini koʻrsatadi. M., “Aziz, qadrli oʻgʻlonlarim – vatandoshlar.”, “Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar! Aziz askar va serjant oʻgʻlonlarim!”, “Qadrli ofiqer va generallar, muhtaram fahriylar!”, “Azizlarim, birodarlarim...”, “Muhtaram yurtidoshlarim!”.

Prezidentning oʻzbek xotin-qizlariga bayram tabrigi “Muhtaram onaxonlar, qadrli opa singillar, dilbar qizlarim!” murojaati bilan boshlanadi. Bu esa har bir oʻzbek ayolining koʻnglida mehru muhabbat tuygʻularining mavj urishiga sabab boʻladi.

Yurtboshimiz bayram tabrigini yakunlar ekan, barcha oʻzbek ayoliga cheksiz hurmat bilan nutqini quyidagicha yakunlaydi: “Xalqimiz, Vatanimiz, farzandlaringiz baxtiga doimo omon boʻling, azizlarim, mehribonlarim!”

Prezidentning Oʻzbekiston xalqiga yangi yil tabrigi va Navroʻz bayramiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi tabrik soʻzlaridagi “Aziz yurtidoshlarim!”, “Qadrli doʻstlar!”, “Aziz doʻstlarim, qadrdonlarim!”, “Muhtaram doʻstlar!”, “Aziz va muhtaram vatandoshlarim!” kabi murojaatlari eʼtiborni oʻziga tortadi.

Gazeta sahifalarida bayram munosabati bilan turli muassasa va tashkilotlarning xalqimizga yoʻllagan qutlovlari bosiladi. Barcha bayram tabrikleri avvalida butun xalqqa yoʻllangan qutlov va tabrik soʻngida esa tilak va istaklar oʻrin olgan.



Jumladan, Mustaqilligimizning yigirma bir yilligi munosabati bilan "Asaka" bankining bayram tabrigi quyidagi jumlar bilan boshlanadi: *"Asaka banki jamoasi vatandoshlarimizni eng ulug' va eng aziz bayram - Mustaqilligimizning yigirma bir yilligi munosabati bilan samimiy qutlaydi!"*. Tabrik qismi *yakunlangach, xalqqa yo'llangan quyidagi tilaklarni o'qish mumkin: "Mustahkam oila yilida sizlarga sihat-salomatlik, omonlik, mamlakatimiz ravnaqi va xalqimiz baxtu saodati yo'lida olib borayotgan barcha ezgu ishlaringizda ulkan omadlar tilaymiz"*.

Turli muassasa va tashkilotlar tomonidan yo'llangan bayram tabrikleri murojaatli yoki murojaatsiz bo'lishi bilan bir-biridan ajralib turadi. Quyidagi bayram tabrikleri murojaatsiz ekanligi bilan xarakterlanadi: *"Hamid Olimjon nomidagi musiqa va drama teatri jamoasi yurtdoshlarimizni Navro'zi olam bilan tabriklaydi. Omad va quvonch sizni hech qachon tark etmasin"* (Z., 21.03.13).

Xulosa va takliflar. Har qanday tildagi nutq odobi milliy xususiyatga ega. Aksariyat bayram tabriklarida lisoniy did, xalqning milliy axloqiy udumlari, mentaliteti, estetik tajribasi namoyon bo'lganini ko'rish mumkin. Murojaat va tabriklar lisoniy xususiyatlarining kulturologik aspektida o'rganilishi yuqori nutq madaniyatiga erishi uchun ham muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Agyekum K. (2005): The Pragmatics of Request in Akan Communication. Legon Journal of Humanities, Vol. XVI, pp. 1-26
2. www.quora.com, <https://www.cnnindonesia.com/tv>, VIETLIVE.TV, https://www.youtube.com/channel/UCI8U_NB23FbKPly8gIEdLmA
3. Yongliang Huang. Politeness Principle in Cross-Culture Comparison. English language teaching journal, Vol.1, No.1. www.ccsenet.org/journal.html
4. Brown P. & Levinson, S., Universals in Language usage: Politeness phenomena. London: Cambridge University Press. 1978.
5. Щукин А. Н. Методика обучения речевому общению на иностранном языке: учеб. пособие для преподавателей и студентов языковых вузов [Текст] / А. Н. Щукин. – М.: Икар, 2011. – 454 с.
6. LAKOFF R., What you can do with words: politeness, pragmatics and performatives. California: Berkeley Studies in Syntax and Semantics I: XVI-1-XVI-55. 1974.
7. Ларина Т. В. Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций [Текст] / Т. В. Ларина. – М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. – 512 с.
8. Ҳ.Турдиева "Нуткий этикет бирликларининг илмий назарий асослари ва принциплари" // "Шарқ машғали", №3. 2019 йил. –Б. 54-67
9. Joos Martin. The Five Clocks. Bloomington: Indiana University Research Center. 1962.
10. Grice P., Studies in the Way of Words. London: Cambridge Massachusetts: Harvard University Press, 1989.
11. Thomas, J., Cross-cultural Pragmatic Failure. London: Applied Linguistics, 4(2), 1983, p.112.



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA RUS TILINI O'RGATISH: INTERAKTIV PLATFORMALARNING TAHLILI

Toshpulatova.D. Yu.

Pedagogika 1-kurs magistranti

Mannabov.J.T.

p.f.f.d., v.b dotsent., (PhD)

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Samarqand kampusi

Tayanch soʻzlar: rus tili, raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar, til oʻrgatish, onlayn taʼlim, samaradorlik, motivatsiya.

Ключевые слова: русский язык, цифровые технологии, интерактивные платформы, преподавание языка, онлайн-обучение, эффективность, мотивация.

Key words: Russian language, digital technologies, interactive platforms, language teaching, online education, effectiveness, motivation.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar yordamida rus tilini oʻrgatish jarayonining zamonaviy usullari va interaktiv platformalarning oʻrni tahlil qilinadi. Shuningdek, anʼanaviy dars usullariga nisbatan raqamli vositalarning motivatsion va interfaol afzalliklari koʻrib chiqiladi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar yordamida oʻquvchilarning rus tilini oʻzlashtirish samaradorligini oshirish mumkinligini koʻrsatadi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются современные методы преподавания русского языка с использованием цифровых технологий, а также роль интерактивных платформ в этом процессе. Также рассматриваются мотивационные и интерактивные преимущества цифровых инструментов по сравнению с традиционными методами обучения. Результаты исследования показывают, что с помощью цифровых технологий можно повысить эффективность усвоения русского языка учащимися.

SUMMARY:

This article analyzes modern methods of teaching the Russian language using digital technologies and examines the role of interactive platforms in the educational process. It also explores the motivational and interactive advantages of digital tools compared to traditional teaching methods. The research results show that digital technologies can enhance students' effectiveness in learning the Russian language.



Hozirgi kunda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o'qitish jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, xorijiy tillarni, jumladan rus tilini o'rgatishda interaktiv vositalar va raqamli platformalardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. An'anaviy dars uslublari bilan bir qatorda, zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim olish imkoniyati o'quvchilar uchun yanada qulay va qiziqarli muhit yaratadi.

Raqamli ta'lim vositalari – mobil ilovalar, veb-platformalar, onlayn darslar, videodarslar, test tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar – o'quvchilarning til o'rganishdagi faol ishtirokini ta'minlaydi, ularning individual qobiliyatlariga moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi.

Ushbu maqolada aynan rus tilini o'rgatishda raqamli texnologiyalarning o'zni, interaktiv platformalarning afzalliklari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi – mavjud raqamli vositalarni tahlil qilish orqali ularning samaradorligini aniqlash hamda rus tilini o'rgatishda qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi rus tilini o'rgatishda yangicha yondashuvlarni shakllantirdi. Interaktiv platformalar yordamida o'quvchilar tilni mustaqil, qulay va moslashuvchan tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Quyida ba'zi mashhur raqamli platformalar va ularning rus tili ta'limidagi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Duolingo - bu dunyo miqyosida eng mashhur bo'lgan bepul til o'rgatuvchi mobil ilovalardan biridir. Ushbu platforma o'yin shaklida o'qitish tamoyiliga asoslangan bo'lib, o'quvchilar uchun har bir mashq motivatsion reytinglar va mukofotlar orqali rag'batlantiriladi. Duolingo orqali rus tilining leksikasi, grammatikasi va talaffuzini bosqichma-bosqich o'rganish mumkin.

Quizlet platformasi asosan lug'at boyligini oshirishga qaratilgan. Bu yerda foydalanuvchilar o'zlari yoki o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan elektron kartochkalar orqali yangi so'zlarni yodlab olishlari mumkin. Platforma o'yinlar, testlar va mashqlar orqali tilni interaktiv usulda mustahkamlash imkonini beradi.

Bu platformalar ko'proq sinfda yoki guruhli ta'limda qo'llaniladi. O'qituvchilar dars davomida real vaqt rejimida viktorinalar va mashg'ulotlar o'tkazish orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Ushbu vositalar raqobat asosida o'rganishni rag'batlantiradi va darslarni qiziqarli qiladi.

Google Classroom va boshqa o'quv boshqaruv tizimlari (Learning Management Systems - LMS) yordamida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida doimiy aloqa, topshiriqlarni yuborish, teskari aloqa olish imkoniyati mavjud.



Rus tili darslarida ushbu platformalar orqali yozma topshiriqlar, grammatik mashqlar, audio va video materiallar taqdim etish o'quv jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'qitilgan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lishi, darslarga qiziqish ortishi, mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanishi aniqlangan. Shu bilan birga, ba'zi kamchiliklar ham mavjud — internetga bog'liqlik, texnik nosozliklar, va har doim ham o'qituvchining jonli tushuntirishini to'liq o'rini bosa olmasligi.

Rus tilini o'rgatishda raqamli texnologiyalarni qo'llash masalasi so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchi va amaliyotchilar e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Jahon miqyosida ham, O'zbekiston ilmiy maydonida ham bu yo'nalishda qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

G. Axmedova (2022) o'zining "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni" nomli tadqiqotida ta'lim jarayonida interaktiv platformalarning keng qo'llanilishini va ularning o'quvchilarning faolligiga ijobiy ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Muallif raqamli texnologiyalar orqali ta'limni shaxsiylashtirish va moslashuvchan qilish imkoniyatlarini alohida ta'kidlaydi.

M. Karimova (2021) "Rus tilini o'qitishda multimedia vositalarining samaradorligi" maqolasida video, audio, test va boshqa multimediya elementlarining til o'rganishdagi afzalliklarini yoritgan. U o'z tajribasida Quizlet va Wordwall kabi vositalardan foydalangan holda o'quvchilarning eslab qolish ko'nikmalarida sezilarli natijalarga erishganini ko'rsatgan.

L.V. Ivanova (2020) esa o'zining Moskva Davlat Universitetida olib borgan tadqiqotida xorijiy talabalar uchun rus tilini o'rgatishda sun'iy intellekt va mobil ilovalarning roli haqida batafsil fikr bildiradi. Uning ta'kidlashicha, raqamli vositalar ayniqsa boshlang'ich bosqichda talaffuz va so'z boyligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Xalqaro adabiyotlar ichida **H.D. Brown** (2019) o'zining "Teaching by Principles" nomli asarida interaktiv yondashuvlar til o'rgatishda faollashtiruvchi, kommunikativ muhit yaratishdagi vosita sifatida baholanadi. U raqamli platformalarning tilni real sharoitda qo'llash imkonini yaratishini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, **Duolingo** platformasi tomonidan taqdim etilgan rasmiy tadqiqotlar (Duolingo Research Reports, 2023) ham raqamli o'qitish samaradorligi bo'yicha dalillarga boy bo'lib, unda foydalanuvchilarning o'zlashtirish darajalari, motivatsiya darajasi va takrorlash chastotasi o'rtasidagi bog'liqliklar statistik jihatdan asoslab berilgan.



Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar rus tilini o'rgatishda keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ularning samarali qo'llanilishi o'qituvchining metodik tayyorgarligi, tanlangan platformaning didaktik mosligi va texnik infratuzilmaga bog'liq bo'lishi ta'kidlanadi.

Rus tilini o'rgatishda raqamli texnologiyalarning samaradorligini o'rganish uchun to'g'ri metodologiyani tanlash tadqiqotning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Ushbu mavzu ko'proq amaliy va interaktiv jarayonlarga bog'liq bo'lgani sababli quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Bu metod yordamida o'quvchilarning ikki guruhiga (tajriba va nazorat guruhi) rus tilini o'rgatishda interaktiv platformalardan foydalanish ta'siri solishtiriladi. Tajriba guruhi raqamli vositalar yordamida ta'lim oladi, nazorat guruhi esa an'anaviy usulda. Natijalar til ko'nikmalari, motivatsiya darajasi va o'zlashtirish darajasi bo'yicha solishtiriladi. Eksperimental metod samaradorlikni aniq o'lchashga imkon beradi.

O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish orqali raqamli platformalarga bo'lgan munosabat, foydalanish darajasi, qiyinchiliklar va afzalliklar haqida ma'lumotlar yig'iladi. Shuningdek, chuqur intervyular yordamida mavzu bo'yicha sub'ektiv fikrlar, takliflar o'rganiladi.

Dars jarayonida raqamli texnologiyalar qo'llanilishining amaliy tomoni, o'quvchilarning faol ishtiroki, interaktivlik darajasi kuzatiladi. Bu metod dars jarayonining sifatini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Onlayn platformalardagi o'quvchilar faoliyati, test natijalari, darslarni ko'rish va ishtirok ma'lumotlari tahlil qilinadi. Bu metod raqamli vositalarning samaradorligini yanada aniqroq o'lchash imkonini beradi.

- Eksperimental metod o'quvchilarning til o'rganishdagi o'zgarishlarini aniq ko'rsatadi.
- So'rovnomalar va intervyular sub'ektiv fikrlarni yig'ishga yordam beradi, bu esa metodik va texnik takomillashtirish uchun zarur.
- Kuzatuv darsdagi real vaziyatni tahlil qilish imkonini beradi.
- Ma'lumotlarni tahlil qilish yordamida raqamli platformalarning foydalanish statistikasi va natijalari baholanadi.

Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan eksperiment va so'rovnoma natijalari raqamli texnologiyalar yordamida rus tilini o'rgatish jarayonining samaradorligi haqida muhim ma'lumotlar berdi.

► **O'zlashtirish darajasi oshdi:** Tajriba guruhi o'quvchilari, ular Duolingo, Quizlet va Kahoot kabi interaktiv platformalardan foydalangan holda, til qobiliyatlarini an'anaviy usul bilan ta'lim olgan nazorat guruhiga nisbatan



20-25% yuqori natijalar ko'rsatdi. Ayniqsa, lug'at boyligi va grammatika qoidalarini tushunish darajasi sezilarli yaxshilandi.

- **Motivatsiya va faollik oshdi:** So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalardan foydalangan o'quvchilar darslarga qiziqish va ishtirok darajasi ancha yuqori bo'lib, ular o'rganish jarayonini qiziqarli va oson deb baholashdi.
- **Moslashuvchanlik va mustaqillik:** Raqamli platformalar o'quvchilarga o'zlariga qulay vaqtda va joyda mustaqil ravishda til o'rganish imkonini berdi. Bu ayniqsa pandemiya davrida onlayn ta'limning samaradorligini ta'minlashda muhim bo'ldi.
- **Texnik qiyinchiliklar:** Ba'zi o'quvchilar va o'qituvchilar internet tezligi va texnik vositalarning cheklanishi sababli platformalardan to'liq foydalanishda qiyinchiliklarga duch keldi. Bu esa ba'zan o'rganish jarayonini sekinlashtirdi.
- **O'qituvchi rolining ahamiyati:** Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalar o'qituvchining o'rnini to'liq egallay olmaydi. O'qituvchining metodik yordam va yo'naltirish roli muhimligicha qolmoqda.
- **Interaktivlik va hamkorlik:** Kahoot va Google Classroom kabi platformalar yordamida guruhli ishlash va interaktiv darslar tashkil etish samarali bo'lib, o'quvchilar o'rtasida kommunikativ ko'nikmalar rivojlandi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida raqamli texnologiyalarning rus tilini o'rgatish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatayotgani chuqur tahlil qilindi.

Birinchidan, eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv platformalardan foydalanish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirgan. Ayniqsa, Duolingo va Quizlet kabi dasturlar orqali lug'at boyligini oshirish va grammatika mashqlarini mustahkamlash samarali bo'lgan. Bu holat o'quvchilarning yod olish mexanizmini kuchaytirgani va doimiy takrorlash orqali bilimni mustahkamlaganini anglatadi.

Ikkinchidan, motivatsiya va darsga bo'lgan qiziqish ham raqamli texnologiyalar yordamida oshgani kuzatildi. O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalarda 80% dan ortiq respondentlar interaktiv o'quv jarayoni an'anaviy usullarga nisbatan ko'proq ishtiyoq bilan ishtirok etishga undaganini bildirgan. Bu, o'z navbatida, raqamli texnologiyalar ta'limni o'quvchi markaziga yo'naltirishini ko'rsatadi.

Uchinchidan, mustaqil o'rganish ko'nikmalarining rivojlanishi ham muhim natijalardan biri bo'ldi. Raqamli platformalarning 24/7 mavjudligi o'quvchilarga darsdan tashqari vaqtda ham o'z bilimlarini mustaqil ravishda



boyitish imkonini berdi. Bu xususiyat ayniqsa zamonaviy ta'limda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi uchun muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, ba'zi salbiy jihatlar ham qayd etildi. Masalan, internet aloqasining sifatsizligi, ba'zi o'quvchilarda texnik vositalarning yo'qligi platformalardan foydalanishga to'sqinlik qilgan. Shuningdek, ba'zi platformalarning interfeysi faqat ingliz tilida bo'lgani ba'zi o'quvchilar uchun qo'shimcha til to'sig'i bo'lib xizmat qilgan.

Muhokama natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar an'anaviy ta'limni to'liq almashtirmaydi, balki uni to'ldiruvchi va boyituvchi vosita sifatida xizmat qiladi. O'qituvchining yo'naltiruvchi roli, metodik tayyorgarligi va raqamli vositalarni o'rinli tanlashi asosiy muvaffaqiyat omillari sifatida ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari xalqaro tajribalar bilan hamohang bo'lib, bu yo'nalish bo'yicha olib borilgan ilg'or amaliyotlar bilan qiyoslash orqali o'zbek tilidagi ta'lim tizimiga mos innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

✓ **Raqamli texnologiyalar samaradorligi.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rus tilini o'rgatishda Duolingo, Quizlet, Kahoot va Google Classroom kabi interaktiv platformalardan foydalanish o'quvchilarning til ko'nikmalarini an'anaviy usullarga qaraganda sezilarli darajada yaxshilaydi. Lug'at boyligi, grammatika qoidalarini tushunish hamda talaffuz bo'yicha o'zlashtirish sur'ati ortadi.

✓ **Motivatsiya va faollik.** Raqamli vositalar o'quv jarayonini o'ynash tarzida tashkil etib, darslarni qiziqarli va raqobatli qiladi. Shu sababli, o'quvchilarning motivatsiyasi va ishtiroki yuqori bo'ladi: 80% dan ortiq respondentlar interaktiv mashg'ulotlarni an'anaviy darslardan afzalroq ko'rdi.

✓ **Moslashuvchanlik va mustaqil o'rganish.** Platformalarning 24/7 mavjudligi o'quvchilarga darsga bog'liq bo'lmagan vaqtlarda ham mustaqil ravishda bilimlarini to'ldirish imkonini berdi. Bu o'z-o'zini rivojlantirish va tilni takrorlash jihatidan muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

✓ **Texnik va metodik cheklovlar.** Biroq, ba'zi cheklovlar ham aniqlangan. Internet tezligining yetishmasligi, qurilmalar qobiliyatsizligi mashg'ulot sifatini pasaytirdi. Shuningdek, ba'zi platformalarning faqat ingliz tilida interfeysi mavjudligi boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilar uchun qo'shimcha til to'sig'i bo'lib xizmat qildi.

✓ **O'qituvchining roli.** Raqamli texnologiyalar o'qituvchini umuman yo'q qilib qo'ymaydi. O'qituvchining metodik va motivator rolini avvalgidek



saqlab qolish zarur. Platformalar va dasturlar — o‘quv jarayonini boyituvchi vosita, ammo metodik mahorat va yo‘naltirish masalasida o‘qituvchi hali ham asosiy shaxs hisoblanadi.

Amaliyotda tatbiq etish uchun quyidagi takliflar beriladi.

1. Metodik qo‘llanmalarni yaratish va yangilash. Raqamli platformalardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish lozim. Bu qo‘llanmalar taklif etilgan platformalarning imkoniyatlari, dars rejalariga integratsiyasi va o‘quvchilarning turli darajalarga mos topshiriqlar yaratish usullarini o‘z ichiga olishi kerak.

2. O‘qituvchilarning malakasini oshirish. Raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga joriy qilish uchun o‘qituvchilarga muntazam treninglar tashkil etilishi zarur. Treninglarda interaktiv platformalarning imkoniyatlari, texnik muammolarni bartaraf etish va darslarni samarali taktikalarga asoslash bo‘yicha ko‘nikmalar berilishi lozim.

3. Texnik infratuzilmani takomillashtirish. Maktab va kollej darajasida barqaror internet aloqasi va zamonaviy qurilma (noutbuk, planshet va smartfon) yetkazib berish masalasi jiddiy ahamiyat kasb etadi. Texnik cheklovlarni bartaraf etish o‘quvchilarning raqamli resurslardan uzluksiz foydalanishini ta’minlaydi.

4. O‘quv jarayonini shaxsiylashtirish. Interaktiv platformalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos keladigan o‘quv yo‘nalishlarini yaratishga imkon beradi. Shu maqsadda adaptiv testlar va malakali diagnostika vositalarini joriy qilish, har bir o‘quvchiga tegishli vazifalar va dars jadvali tuzish tavsiya etiladi.

5. Platformalarning mahalliyashtirilgan versiyalarini ishlab chiqish. Ingliz tilida interfeysi mavjud bo‘lgan ba’zi dasturlar o‘quvchilar uchun til to‘sig‘i bo‘layotgani aniqlangan. Shu sababli, rus tili o‘rgatishga mo‘ljallangan mahalliyashtirilgan versiyalar, menyu va ko‘rsatmalarni o‘zbek tilida taqdim etuvchi platformalarni ishlab chiqish foydali bo‘ladi.

6. Monitoring va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish. Raqamli platformalar orqali olingan natijalarni muntazam ravishda kuzatib borish va baholash uchun yagona monitoring tizimi joriy etish zarur. Bu tizim o‘quvchilarning o‘zlashtirish sur‘atlari, darslarning samaradorligi va kamchiliklarni aniqlash imkonini yaratadi.

7. Kelajakda tadqiqot yo‘nalishlarini belgilash. Ilmiy izlanishlarda shu mavzu bo‘yicha davomiy monitoring o‘tkazish, yangi interaktiv texnologiyalar (sun‘iy intellekt, virtual/qo‘shimcha haqiqat) imkoniyatlarini sinash, hamda ularning til o‘rganishga ta’sirini tadqiq etish tavsiya etiladi.



Raqamli texnologiyalar yordamida rus tilini o'rgatish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Interaktiv platformalar — Duolingo, Quizlet, Kahoot, Google Classroom kabi vositalar o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, ularning mustaqil ishlash malakasini rivojlantirish, hamda darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar o'quvchilarning rus tilini o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bunday vositalardan foydalanish o'qituvchining didaktik mahorati va metodik yondashuviga ham bog'liq. Shuning uchun, raqamli vositalarni an'anaviy usullar bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarga sifatli va samarali ta'lim berish mumkin.

Kelajakda raqamli ta'lim vositalarining yanada takomillashuvi bilan til o'rgatishning interaktiv va individual yondashuvlari yanada kengayishi kutilmoqda. Bu esa o'quv jarayonini nafaqat osonlashtiradi, balki uni talabaning ehtiyojiga moslashuvchan qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova G. (2022). Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Karimova M. (2021). Rus tilini o'qitishda multimedia vositalarining samaradorligi. "Til va Ta'lim" ilmiy jurnali, №3, 45–52.
3. Ivanova L.V. (2020). Цифровые технологии в обучении русскому языку как иностранному. Москва: МГУ издательство.
4. Brown, H.D. (2019). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education.
5. Duolingo Inc. (2023). Official Duolingo Language Learning Research Reports. www.duolingo.com
6. Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan. (2023). Raqamli ta'lim konsepsiyasi. www.maktab.uz



FRANSUZ TILINI O'RGATISHDA INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA MOSLASHTIRILGAN O'QUV STRATEGIYALARI

Pardaboyeva A.N.

70110102 – Pedagogika 1-kurs magistranti

Mannabov J.T.

p.f.f.d., v.b dotsent., (PhD)

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Samarqand kampusi

Tayanch so'zlar: individual yondashuv, fransuz tili o'qitish, moslashtirilgan ta'lim, til o'rganish strategiyalari, differensial metodika, interaktiv texnologiyalar, til kompetensiyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, o'quvchi markazli yondashuv, til o'rgatishda innovatsiya.

Ключевые слова: индивидуальный подход, преподавание французского языка, адаптивное обучение, стратегии изучения языка, дифференцированные методы, интерактивные технологии, языковая компетенция, личностно-ориентированное обучение, ученикоцентрированный подход, инновации в преподавании языков.

Key words: individual approach, French language teaching, adaptive learning, language learning strategies, differentiated methods, interactive technologies, language competence, learner-centered education, student-centered approach, innovation in language teaching.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada fransuz tilini o'qitishda individual yondashuvga asoslangan moslashtirilgan o'quv strategiyalarining pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. O'quvchilarning yoshi, til o'rganishdagi ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari va o'zlashtirish darajalariga qarab ta'lim mazmuni va metodlarini moslashtirishning afzalliklari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется педагогическая эффективность адаптированных учебных стратегий, основанных на индивидуальном подходе в преподавании французского языка. Освещаются преимущества адаптации содержания и методов обучения в зависимости от возраста учащихся, их потребностей в изучении языка, психологических особенностей и уровня усвоения материала.

SUMMARY:

This article analyzes the pedagogical effectiveness of adapted learning strategies based on an individual approach to teaching French. It highlights the benefits of tailoring educational content and methods according to students' age, language learning needs, psychological characteristics, and levels of comprehension.



Bugungi kunda globalizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sharoitda, chet tillarini o'rganishning ahamiyati tobora ortmoqda. Xususan, fransuz tili nafaqat xalqaro muloqot va madaniyat vositasi sifatida, balki ilm-fan, biznes va diplomatiyada ham muhim o'rin egallaydi. Shunday ekan, samarali ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

An'anaviy ta'lim usullarining cheklovlari, xususan, barcha o'quvchilarga bir xil metod va materiallarni qo'llash, ularning individual qobiliyatlari, o'rganish sur'ati va ehtiyojlarini hisobga olmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuvga asoslangan moslashtirilgan o'quv strategiyalari joriy etilishi ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Individual yondashuv ta'limda shaxsga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash, o'quvchining til o'rganishdagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda unga moslashtirilgan ta'lim mazmuni va usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va til kompetensiyasining yanada samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Fransuz tilini o'rgatishda an'anaviy ta'lim metodlari ko'pincha o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olmaydi. Natijada, ba'zi talabalar tilni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi, o'quv jarayoni samaradorligi pasayadi va motivatsiya yo'qolishi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun individual yondashuv asosida moslashtirilgan o'quv strategiyalarini ishlab chiqish va tatbiq etish zarurati mavjud.

Muammo shundaki, hozirgi kunda ko'plab ta'lim muassasalarida individual yondashuv to'liq va samarali qo'llanmayapti, bu esa o'quvchilarni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni moslashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shuningdek, fransuz tilini o'rgatishda interaktiv va innovatsion metodlarni qo'llashda pedagogik yondashuvlarning yetarli darajada ilmiy asoslangan strategiyalari ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot ahamiyati. Mazkur tadqiqot fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuvga asoslangan moslashtirilgan o'quv strategiyalarining samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda yangi yondashuvlarni joriy etishga, ta'lim jarayonini individual talablarga moslashtirishga va o'quvchilarning til kompetensiyasini yanada rivojlantirishga imkon yaratadi.

Shuningdek, tadqiqot fransuz tili o'qituvchilariga o'z metodikalarini takomillashtirish, har bir o'quvchiga individual yondashish orqali ularning til o'rganishdagi qobiliyatlarini maksimal darajada oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatining oshishiga va til o'rganish jarayonining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuv masalasi so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va differensial o'qitish metodlari yuzasidan olib borilgan izlanishlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatmoqda (Islomova, 2018; Karimov, 2020). Bu tadqiqotlarda o'quvchilarning til o'rganishdagi individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish pedagogik jarayonda muvaffaqiyatga erishishning asosiy sharti sifatida belgilangan.

Shuningdek, fransuz tili o'qitishida interaktiv texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish (Jorayev, 2019; Petrov, 2021) o'quvchilar faoliyatini oshirish va til ko'nikmalarini mustahkamlashda samarali ekanligi ta'kidlangan. Bu ilmiy ishlar individual yondashuvni amalga oshirishda texnologik vositalarning rolini ko'rsatib beradi.

Bundan tashqari, pedagogik modellashtirish va o'quv strategiyalarini moslashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar (Ahmedova, 2022; Dupont, 2023) fransuz tilini o'rgatishda turli o'quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos metodlarni ishlab chiqish zaruratini tasdiqlaydi. Ular o'quv jarayonida shaxsiylashtirilgan yondashuv orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini o'rgangan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda individual yondashuvning fransuz tilini o'rgatishdagi konkret strategiyalari va amaliy tatbiqi to'liq o'rganilmaganligi, yangi, innovatsion o'quv strategiyalarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish zarurati dolzarbligini ko'rsatmoqda. Shu sababli, mazkur mavzu bo'yicha chuqurroq tadqiqot olib borish ahamiyatlidir.

Ushbu maqolaning maqsadi - fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuv asosida moslashtirilgan o'quv strategiyalarining pedagogik samaradorligini o'rganish, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ta'lim usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish yo'llarini aniqlashdan iborat.

1. Fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuv tushunchasi va uning pedagogik asoslarini tahlil qilish.

2. O'quvchilarning yosh, qobiliyat va ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv strategiyalarining nazariy asoslarini o'rganish.

3. Pedagogik adabiyotlar va ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar asosida individual yondashuvni ta'lim jarayonida qo'llashning afzalliklarini aniqlash.

4. Moslashtirilgan o'quv strategiyalarini ishlab chiqish va fransuz tili o'qitish jarayonida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish.

5. Ilmiy tadqiqot natijalariga asoslanib, individual yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish.

Ushbu tadqiqotda fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuv asosida moslashtirilgan o'quv strategiyalarining samaradorligini aniqlash uchun ko'p



uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. **Nazariy tahlil** – pedagogik adabiyotlar, ilmiy maqolalar va ilgari olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu bosqichda individual yondashuv va moslashtirilgan o'quv strategiyalari bo'yicha nazariy asoslar aniqlanib, mavzuning ilmiy asoslari mustahkamlandi.

2. **Empirik tadqiqot** – o'quvchilar va o'qituvchilar bilan so'rovnomalar, intervyular va kuzatuvlar o'tkazildi. Bu usullar orqali individual yondashuvning amaliy ta'siri va samaradorligi o'rganildi.

3. **Eksperimental metod** – ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida moslashtirilgan o'quv strategiyalari sinovdan o'tkazildi. Eksperiment guruh va nazorat guruhi tashkil etilib, ularning o'quv natijalari taqqoslandi.

4. **Statistik tahlil** – to'plangan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Natijalar asosida individual yondashuvning samaradorligi haqida xulosalar chiqarildi.

5. **Pedagogik modellashtirish** – individual yondashuvga mos strategiyalar ishlab chiqilib, ularning ta'lim jarayonida qo'llanishi uchun pedagogik model yaratilgan.

1. Individual yondashuv tushunchasi va pedagogik asoslari.

Individual yondashuv ta'lim jarayonida har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, o'rganish sur'ati va ehtiyojlarini inobatga olishni anglatadi. Pedagogik nazariyalar (Vygotskiy, Bruner, Gardner va boshqalar) shaxsga yo'naltirilgan ta'limni samarali tashkil etish uchun individual yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Fransuz tilini o'rgatishda ham bu yondashuv o'quvchilarning til o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi va motivatsiyasini oshiradi.

2. Moslashtirilgan o'quv strategiyalari va ularning turlari.

Moslashtirilgan o'quv strategiyalari o'quvchilarning yoshi, til o'rganishdagi darajasi, qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslab ishlab chiqiladi. Bu strategiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: differensial metodlar, interaktiv o'qitish vositalari, shaxsiylashtirilgan topshiriqlar, multimediya resurslari va o'quv faoliyatini modellashtirish. Bunday yondashuv til ko'nikmalarini yaxshilashga, o'quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Individual yondashuvning fransuz tilini o'rgatishdagi afzalliklari.

Individual yondashuv orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi, til o'rganishga bo'lgan qiziqish ortadi va til kompetensiyasi yanada chuqur shakllanadi. Shuningdek, individual ehtiyojlarga mos keladigan o'quv materiallari va metodlari o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, qiyinchiliklarni kamaytiradi va o'quvchilar orasida tengsizlikni bartaraf etadi.



4. Pedagogik modellashirish va moslashtirilgan o'quv strategiyalarining amaliy qo'llanilishi.

Pedagogik modellashirish orqali individual yondashuvga mos keladigan o'quv jarayonining samarali shakllari ishlab chiqiladi. Masalan, o'quvchilarning turli darajalari uchun o'ziga xos dars rejalari, interaktiv topshiriqlar va baholash usullari yaratiladi. Ushbu modellar sinovdan o'tkazilib, ularning samaradorligi amaliy tadqiqotlar yordamida baholandi.

Ushbu maqolada fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuv asosida moslashtirilgan o'quv strategiyalarining pedagogik samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'rganish uslublarini inobatga olgan holda ta'lim mazmuni va metodlarini moslashtirish ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Individual yondashuv orqali o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortadi, mustaqil fikrlash va kommunikativ ko'nikmalar rivojlanadi, shuningdek, til o'zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar kamayadi. Moslashtirilgan o'quv strategiyalari esa dars jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi, pedagogik jarayonni individuallashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Shu sababli, fransuz tilini o'rgatishda pedagogik modellashirish asosida individual yondashuvni joriy etish va moslashtirilgan o'quv strategiyalarini ishlab chiqish hamda tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish uchun muhim hisoblanadi. Kelajakdagi tadqiqotlarda ushbu strategiyalarning yanada samarali shakllarini yaratish va turli yosh toifalariga moslashtirish masalalari o'rganilishi tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuv asosida ishlab chiqilgan moslashtirilgan o'quv strategiyalari o'quvchilarning til ko'nikmalarini yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi. O'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos keladigan o'quv usullari ularning motivatsiyasini oshiradi, til o'rganish jarayonini yengillashtiradi hamda o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Eksperimental sinovlar natijasida individual yondashuv asosida yaratilgan strategiyalarni qo'llagan guruhdagi o'quvchilarning til bilimlari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo'lgani aniqlangan. Shu bilan birga, pedagogik modellashirish orqali ishlab chiqilgan usullar ta'lim jarayonining interaktivligini oshirib, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qilgan.

Umuman olganda, individual yondashuv va moslashtirilgan o'quv strategiyalari fransuz tilini o'rgatishda samarali va amaliy jihatdan foydali ekanligi tasdiqlandi.

Ushbu tadqiqot ilmiy jihatdan fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuv va pedagogik modellashirish sohasida yangi bilimlar va tushunchalarni shakllantirishga hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida



o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv strategiyalarini moslashtirishning samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaydi hamda til o'rgatish metodikasini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalari asosida fransuz tili o'qituvchilari uchun individual yondashuvga moslashtirilgan o'quv strategiyalari ishlab chiqildi va ular amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar taqdim etildi. Bu o'z navbatida o'quv jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarni faollashtirish va ularning til ko'nikmalarini samarali shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari ta'lim muassasalari tomonidan o'quv dasturlarini takomillashtirish va yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishda asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuvni keng joriy etish maqsadida o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalar bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslariga jalb qilish va quyidagilar tavsiya etiladi.

1. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini aniqlash uchun diagnostik vositalar ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi kerak.

2. Moslashtirilgan o'quv strategiyalarini yaratishda interaktiv va multimedia resurslardan faol foydalanish, shuningdek, onlayn platformalarni integratsiyalash zarur.

3. Pedagogik modellashtirish usullarini kengroq qo'llash orqali individual yondashuvga mos keladigan o'quv jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etish tavsiya etiladi.

4. Ta'lim muassasalari fransuz tilini o'rgatish dasturlarini qayta ko'rib chiqib, unda individual yondashuv asosida moslashtirilgan o'quv strategiyalarini kiritishni ko'zda tutishlari lozim.

Kelajakdagi tadqiqotlarda individual yondashuvning turli yosh va darajadagi o'quvchilar uchun samarali strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda sinovdan o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vygotskiy L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
2. Bruner J. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Harvard University Press.
3. Gardner H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books.
4. Tomlinson C.A. (2014). *The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners*. ASCD.
5. Tomal D.R. (2010). *Research Skills for Students*. Routledge.
6. Xo'jayev O. (2020). Fransuz tilini o'rgatishda individual yondashuvning metodik asoslari. *Pedagogika va Psixologiya jurnal*, 4(12), 45-52.
7. Karimova N. (2019). Moslashtirilgan o'quv strategiyalari va ularning til o'rgatishdagi roli. *Til va Ta'lim*, 3(7), 30-36.
8. Brown H.D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.



ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

INDIVIDUAL TALIM SHAROITIDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

Axmadaliyev B.S.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

p.f.f.d (PhD), dotsent

Tayanch so'zlar: ta'lim, bilim, tarbiya, uzluksizlik, ma'naviyat, muxit, shaxs, sadoqat, mafkura, ijtimoiy, siyosiy, axloq, konsersiya, pedagogika, psixologika, madaniyat.

Ключевые слова: образование, знание, воспитание, преемственность, духовность, среда, личность, лояльность, идеология, социальная, политическая, мораль, забота, педагогика, психология, культура.

Key words: education, knowledge, upbringing, continuity, spirituality, environment, personality, loyalty, ideology, social, political, morality, concernation, pedagogy, psychology, culture.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni amalga oshirishda oliy ta'lim tizimining vafalari va tarbiyaviy ishlarni klasterli yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik zarurati haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mazmuni va mezonlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье описаны недостатки системы высшего образования в реализации «концепции непрерывного духовного образования» и педагогическая необходимость организации воспитательной работы на основе кластерного подхода. Также на основе научных источников освещены содержание и критерии организации воспитательной работы в процессе высшего образования.

SUMMARY:

The article describes the shortcomings of the higher education system in the implementation of the "concept of continuous spiritual education" and the pedagogical necessity of organizing educational work based on a cluster approach. Also, the content and criteria of organizing educational work in the process of higher education are covered based on scientific sources.

Mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga qaratilayotgan judayam yuksak ishlar amalga oshirilmoqda xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidyentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son Qarori, "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil



20 apreldagi PQ-2909-son Qarori, 2017 yil 27 iyuldagi “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-3152 sonli Qarori hamda 2018 yil 27 iyundagi “Yoshlar-kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy ishlarning mohiyatini institutdagi pedagogik ta‘limning axloqiy mazmunidan kelib chiqqan holda “Ta‘lim + Bilim + Tarbiya + Ishlab chiqarish” tamoyili asosida amalga oshirishni taqozo etmoqda.

“Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi”ning tarbiya boshlang‘ichlari asosini quyidagi qoidalar tashkil etadi:

1. Ma‘naviyatli shaxsning muhim belgisi insonning fuqarolik, shaxsiy xususiyatlari integral tavsifi va ruhiy-fiziologik etukligi sifatida tushuniladigan ijtimoiy-insonparvar omilkorligidir. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, axloqsizlik, mas‘uliyatsizlik, ruhiy tayyor bo‘lmaslik bugungi kunda nafaqat kasbiy ziyon darajasini ifodalaydi, balki o‘zida kutilmagan xavf-xatar va jinoyatni ham namoyon etadi. Aynan axloqiy-ruhiy tayyor bo‘lmaslikning o‘z kasbiy faoliyatning u yoki bu turini amalga oshirishda vujudga keladigan kutilmagan vaziyatlarni hosil qiladi.

2. Ijtimoiy-insonparvar omilkorlik keng ma‘noda inson mohiyatini hayotiy faoliyat shakli sifatida to‘la ifodalovchi samarali qayta o‘zgartish faoliyati rivojlanishini anglatadi. Bunda shaxsning tashqi sharoit holatiga mohiyatli ta‘sir etishga qodirligi, ularni ichki nazariy mexanizmidan o‘tkaza bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Ijtimoiy-insonparvar omilkorlikning tarkibiy qismini pedagogik omilkorlik – ta‘lim-tarbiyaning psixologik-pedagogik asoslarini bilish tashkil etmog‘i lozim. Bu umumpedagogik tayyorgarlikni umumiy va kasbiy pedagogik ta‘limning barcha darajalari mazmuniga, shaxs rivojlanishining hamma davrlardagi tarbiya jarayoniga kiritish zarurligini hamda shunday sharoitdagina jamiyat uning ijtimoiy-pedagogik infratuzilmasi asosini tashkil etadigan pedagogik madaniyatning zaruriy darajasiga erishishini nazarda tutadi.

Tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda klasterli yondashuv faoliyatining etakchi maqsadi-integrallashgan bilimga ega bo‘lgan yosh mutaxassisni etishtirishga qulaylik yaratadigan, omilkorlik bilan bir qatorda-o‘zida kasbiy, umumkasbiy, umuminsoniy bilimlar, ko‘nikma, malakalar hamda ahloqiy fazilatlar uyg‘unlashuvini, sub‘ekt tomonidan kasbiy faoliyatni, o‘z vazifalarini bajarish samaradorligini ifodalaydigan ijtimoiy-pedagogik infratuzilma yaratishdan iboratdir.



Shunday qilib, klasterli yondashuv maqsadi insonning kasb egallashi orqali uning ma'naviy, axloqiy, intellektual va psixomotor potensialini to'la ochishdan iboratdir. Shu bilan bir qatorda, shaxs malakali, raqobatbardosh mutaxassis bo'lishi uchun mutaxassisning vazifa tavsifiga urg'u beriladi. Shaxs parametri (sifati, xususiyati, individual xususiyatlari va shu kabi) tizim hosil qiluvchi omil maqomini oladigan maxsus ko'nikmaga nisbatan etakchi ahamiyat kasb etadi. Talabalarning qobiliyati, o'ziga xos individual xususiyatlari ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda klasterli yondashuvni tatbiq qilish bitiruvchining kasbiy tavsifi, ko'p bosqichlilik asosida yo'naltirish bo'yicha pedagoglarni tayyorlash, "Talabalarni psixologik-pedagogik tayyorlash asoslari" kursi bo'yicha tajriba o'quv dasturlaridan iborat o'quv dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Dasturlashtirilgan ta'limga oid binar darslardan foydalanish amaliyoti, chuqurlashtirilgan tarzda sinovlar va imtihonlar, fakultativlar kompleksi kabi integrallashgan faoliyat elementlarini ham singdirish lozim. Talabalarni ijtimoiylashtirish va kasbiy tayyorlashda ishtirokchilardan har tomonlama tayyorgarlik hamda qobiliyatni namoyon etishni talab qiladigan bo'sh vaqtni samarali o'tkazishning "Bilimlar kuni", "O'qituvchi va murabbiylar kuni" kabi shakllari ham katta ahamiyatga ega.

Pedagogik klaster yondashuvi asosida tarbiyaviy ishlar mexanizmini takomillashtirish ta'lim-tarbiyaning psixologik xususiyatlarini ushbu yo'nalishlar doirasida etarlicha chuqurlashtirib yoritishni mo'ljallaydi

Tarbiya jarayonini tashkil etishga-pedagogik klaster yondashuvidan foydalanish tahlili yakunida quyidagilar: a) oliy ta'lim samaradorligini ta'minlash, tarbiya jarayoni maqsadi, tuzilishi va mazmunini asoslashda tashkiliy-pedagogik sharoitlar o'rni hamda vaqtini belgilash;

Mamlakatimizda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni amalga oshirish, mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, ayniqsa, talaba yoshlarning qalbi va ongiga Vatanga muhabbat, pedagogik ta'limga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish, mutaxassislikning tarbiyaviy asoslarini yaratish dolzarb ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informasion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarni turli mafkuraviy hurujlardan himoya qilish, yoshlarning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish vazifasi pedagogik ta'lim sohasining talaba-yoshlari bilan ishlashda aniq va samarali natija beradigan tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-sonli Farmoni.
3. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi akademik liseylarda matematika o'qitish misolida): Ped.fan.dok... diss. –Toshkent, 2006.
4. Botirova Sh.I. Adabiy ta'lim klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Ped. fan. dok. (DSs) diss. avtoref. – Chirchiq, 2021.
5. Ismoilova Z.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Dis... ped. fan. d-ri. – T., 2006.
6. Беспалко В.П. Основы теории педагогических систем: проблемы и методы психологик-педагогического обеспечения технических обучающихся систем: монография [Текст] / В. П. Беспалко. – 3-э изд. – Воронеж: Изд-во Воро- неж. ун-та, 2011.
7. O'razaliyeva S. T., Ustayeva D. N. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda sog'lom raqobatni shakllantirish intellektual salohiyatini oshirish //International conference on learning and teaching. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 577-580.
8. qizi O'razaliyeva S. T., qizi Atabekova U. B. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish //International conference on learning and teaching. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 556-559.
9. Sadikova Sh, and D. Azamatova. "Pedagogical Innovation Cluster of Activity of Centers in Preschool Education." Science and Innovation 1.7 (2022): 1138-1143.
10. Sadikova S., Azamatova D. Maktabgacha talimda markazlar faoliyatining pedagogik innovatsion klasteri //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 1138-1143.
11. Axmadaliev B. Tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda inovasion texnologiyalardan foydalanish // Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 11. – C. 317-323.
12. Axmadaliev B. Tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda inovasion texnologiyalardan foydalanish // Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 11. – C. 317-323.
13. Axmadaliev B. Tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda inovasion texnologiyalardan foydalanish // Modern science and research. – 2024. – T. 3. – №. 11. – c. 317-323.



OLIIY TA'LIM TIZIMIDA TALABANING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA TAKLIFLAR

Nazarov U.A.

*fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Samarqand davlat universiteti*

Farmonov O' .N.

CHDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi v.b.dots., (PhD)

Tayanch so'zlar: mustaqil ta'lim, oliy ta'lim, talabalar faoliyati, ta'lim sifati, raqamli texnologiyalar, pedagogik metodlar, nazorat, motivatsiya.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, высшее образование, студенческая активность, качество образования, цифровые технологии, педагогические методы, оценка, мотивация.

Key words: independent learning, higher education, student activity, quality of education, digital technologies, pedagogical methods, assessment, motivation.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar tahlil qilingan. Mualliflar tomonidan mustaqil ta'limning mazmuni, shakllari va uning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Ta'lim jarayonidagi raqamli texnologiyalar, motivatsiya yetishmasligi, aniq maqsadga qaratilmagan topshiriqlar, nazoratning samarasizligi kabi muammolarga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, talabalarda tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vazifalarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metodik yondashuvlar taklif etilgan. Maqolada berilgan taklif va tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируются текущие проблемы и практические решения, связанные с организацией самостоятельной учебной деятельности студентов в системе высшего образования. Автор рассматривает содержание, формы и значение самостоятельного обучения в повышении качества образования как с теоретической, так и с практической точки зрения. В исследовании выделяются основные проблемы, такие как отсутствие цифровых компетенций, отсутствие мотивации студентов, неопределенные и абстрактные задания и неэффективные механизмы оценки. В ответ на это предлагаются методические подходы, способствующие развитию у студентов аналитического мышления, самостоятельного принятия решений и навыков решения проблем. В статье подчеркивается важность задач, ориентированных на реальный мир, персонализированного руководства и интеграции цифровых технологий в



формировании эффективного и содержательного самостоятельного обучения. Практические рекомендации, изложенные в данной статье, направлены на содействие совершенствованию практик самостоятельного обучения в высших учебных заведениях.

SUMMARY:

This article analyzes the current problems and practical solutions related to the organization of students' independent learning activities in the higher education system. The author examines the content, forms, and significance of independent learning in improving the quality of education from both theoretical and practical perspectives. The study highlights key challenges such as the lack of digital competencies, absence of student motivation, vague and abstract assignments, and ineffective assessment mechanisms. In response, methodological approaches that foster students' analytical thinking, independent decision-making, and problem-solving skills are proposed. The article emphasizes the importance of real-world oriented tasks, personalized guidance, and the integration of digital technologies in shaping effective and meaningful independent learning. The practical recommendations outlined in this paper aim to contribute to the improvement of independent education practices in higher educational institutions.

Bugungi kunda jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biri – oliy ta'lim tizimida mustaqil fikrlaydigan, bilimlarni erkin o'zlashtirish va ularni amaliyotda samarali qo'llay oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Bu maqsadga erishish ta'lim jarayonining mazmuni, shakllarini va ta'lim usullari hamda vositalarini takomillashtirish orqali shaxsning ijodiy salohiyatini, mustaqil tafakkurini va o'zini rivojlantirish qobiliyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, talabalarni mustaqil ta'lim faoliyatiga jalb etish, ularda bilishga oid faoliyat usullarini shakllantirish masalasi o'ta muhim va dolzarb hisoblanadi.

Mustaqil ishni tashkil etishning pedagogik asoslari ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. [1] ishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi doirasida asosiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi qaralgan. Muallif ta'limning maqsadi faqat bilim berish emas, balki talabada mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy faolilikni rivojlantirish ekanini ta'kidlaydi hamda ta'lim mazmunini kompetensiyalarga asoslangan yondashuv orqali qayta qurishni taklif etadi. [2] ishda normativ-huquqiy asoslar va pedagoglarning ta'lim jarayonidagi roli tahlil qilinib, mustaqil ishlarni modulli tizimda joriy etish usullari ko'rsatilgan. [3] ishda mustaqil ishlarni tashkil qilishda faol va interaktiv usullarning (key-stadi, muammoli ta'lim va loyiha usullari) talabalarining shaxsiy faolligini oshirishdagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. [4] ishda metodik tavsiyalar orqali mustaqil ishlarni rejalashtirish, nazorat qilish va baholash mezonlari keltirilgan. [5] ishda xalqaro tajriba asosida raqamli platformalar (Moodle, Google Classroom, Canvas) yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish va talabalarining refleksiya hamda o'z-o'zini baholash mexanizmlari tahlil qilingan. [6] ishda masofaviy ta'lim sharoitida mustaqil ishlarni tashkil etishda raqamli kompetensiyalar va adaptiv ta'lim muhiti ahamiyati ko'rsatilgan.



Oliy ta'lim muassasalarida talabaning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish bo'yicha so'nggi yillarda bir qator me'yoriy-huquqiy va tashkiliy islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramasdan, amaliyotda hanuzgacha bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan, mustaqil ta'lim mazmunining noaniqligi, talabalarga berilgan topshiriqlarning maqsadga yo'naltirilmaganligi, ularning faolligini oshirish mexanizmlarining yetishmasligi ta'lim sifatini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa oliy ta'limda mustaqil ta'lim faoliyatini to'liq to'g'ri tashkil etilgan, deb baholash imkonini bermaydi.

Shu bois, ushbu maqolada talabaning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda uchrayotgan asosiy muammolar – topshiriqlar mazmunining abstraktligi, nazorat mexanizmlarining samarasizligi, talabalarda yetarli bilim va ko'nikma yetishmasligi – tanqidiy tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida haqiqiy ish faoliyatiga yaqinlashtirilgan, aniq maqsad va mezonlarga ega topshiriqlarni joriy etish, mustaqil ishga rahbarlik qilish tizimini takomillashtirish, raqamli platforma va aniq tavsiyalarga asoslangan usullarni joriy etish kabi takliflar ishlab chiqilgan.

Talabalarining mustaqil ishlari ta'lim jarayonidagi bilish faoliyatini mustahkamlash, chuqurlashtirish hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladigan muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi. Pedagogik jihatdan mustaqil ish shaxsiy tashabbuskorlik, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. O'qituvchining vazifasi esa mustaqil ish jarayonini boshqarish emas, balki talabani rag'batlantirish, yo'naltirish va ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Hozirgi vaqtda talabaning mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi muammo va kamchiliklar ko'zga tashlanadi:

1. **Mustaqil ish mazmuni aksar hollarda faqat an'anaviy shakllarda** – referat yoki ma'ruza yozish bilan cheklanib, talabaning tafakkuri va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga emas, balki rasmiyatchilikni uddalash, qog'ozda "vaqtni yopish" uchun xizmat qiluvchi formal mashg'ulotga aylanib qolmoqda.

2. **Nazorat tizimi yetarli emas** – talabalar mustaqil ishining natijalarini baholash mezonlari aniq ishlab chiqilmagan.

3. **O'qituvchining maslahatchi sifatidagi roli cheklangan** – talabalar mustaqil ishni o'zlari bajarmoqda, bu esa motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

4. **Topshiriqlar abstrakt va real hayotdan uzoq** – masalan, "Ta'limda axborot texnologiyalari" mavzusida referat yozish emas, balki ma'lum bir muammoni yechishga qaratilgan keys-vazifalar kerak.



5. Infratuzilma yetishmovchiligi – barcha talabalarda teng texnik imkoniyatlar (kompyuter, internet) mavjud emas.

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarining mustaqil ishini samarali tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha talabalarga Axborot texnologiyalari fanidan «Ta'limda axborot texnologiyalari» kabi keng qamrovli va abstrakt mavzularni berish ularda mavjud tayyor materiallardan foydalanib, ularni qayta ishlashga yoki ko'chirib olishga olib keladi. Bu jarayon talabani tahlil qilish, tanqidiy fikrlash hamda nazariy bilimlarni amaliy sharoitlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirmaydi va rivojlantirmaydi. Ilmiy pedagogika nuqtai nazaridan talaba fikrlashini rivojlantirish, tahlil va tanqidiy yondashuvni rag'batlantirish uchun mustaqil ish mavzulari real va amaliy holatlarga bog'langan bo'lishi muhimdir. Bu talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, nazariy bilimlarning amaliy qo'llanilishini ta'minlaydi va mustaqil ta'limning samaradorligini yuksaltiradi. Shu maqsadda mavzu tanlash jarayonida real hayot bilan bog'liq, aniq va amaliy topshiriqlar shaklidagi mavzularni qo'llash tavsiya etiladi. Masalan, an'anaviy «Operatsion tizimlar tarixi» kabi umumiy mavzular o'rniga, «Windows va Linux operatsion tizimlarini xavfsizlik, moslashuvchanlik va interfeys mezonlari bo'yicha taqqoslang va foydalanuvchilar uchun mini-prezentatsiya tayyorlang» kabi aniq yo'naltirilgan vazifalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday vazifalar talabadan nafaqat nazariy bilimlarni, balki tahliliy ko'nikmalarni, mustaqil ijodiy yondashuvni va amaliy ishlanmalarni talab etadi. Bunday yondashuv talaba shaxsining bilimga munosabatini o'zgartirib, ularda o'z-o'zini o'rganish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va tafakkurni shakllantirish imkonini yaratadi. Bu esa zamonaviy oliy ta'limda talab qilinadigan muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Talabalarining mustaqil ish faoliyatini tashkil etishning zamonaviy ilmiy-pedagogik yondashuvlari yangi ta'lim konsepsiyalari asosida rivojlanmoqda. Ular qatorida quyidagi innovatsion yondashuvlarni alohida ta'kidlash lozim:

1. Adaptiv ta'lim texnologiyalari. Adaptiv ta'lim talabalarining individual ehtiyoj va imkoniyatlariga moslashtirilgan o'quv vazifalari asosida tashkil etiladi. Bu yondashuv talabalarining bilim va ko'nikmalarini aniq baholash orqali shaxsiylashtirilgan ta'lim muhitini yaratadi.

2. Flipped classroom (ta'limning "teskari sinf" modeli). Bu usulda nazariy materiallar talabalar tomonidan mustaqil ravishda onlayn ko'rinishda o'zlashtiriladi, auditoriyada esa amaliyotga yo'naltirilgan interaktiv mashg'ulotlar o'tkaziladi.



3. Augmented Reality (AR) va Virtual Reality (VR) texnologiyalari (kengaytirilgan va virtual voqelik). Bu texnologiyalar talabalarning nazariy bilimlarni virtual muhitda amaliy holatlarda qo'llashlariga imkon yaratadi. Bunday yondashuv talabalarda murakkab jarayonlar va amaliy vaziyatlar haqida yaxshiroq tushuncha shakllantiradi.

4. Loyihaviy hamkorlik platformalari. Google Workspace, Microsoft Teams kabi platformalar orqali talabalarning jamoaviy loyihalar ustida ishlashlari ta'minlanadi. Bunday platformada jamoaviy ishlash ko'nikmalari va hamkorlik madaniyati rivojlanadi.

5. Ijtimoiy ta'lim platformalari. Talabalarning o'zaro o'rganishi va tajriba almashishlariga yo'naltirilgan ijtimoiy tarmoqlar asosidagi platformalar (masalan, Edmodo, Padlet) talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabani mustaqil ishini bajarishi davomida o'qituvchi tomonidan ma'naviy qo'llab-quvvatlash, raqobat muhitini shakllantirish va turli xil usullar orqali qiziqtirish ham muhim rag'batlantiruvchi omillardir.

Maqolada talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda amaliy muammolarni bartaraf etish va ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun quyidagi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mustaqil ish topshiriqlarini semestrning dastlabki haftasida taqdim etish: Bu talabalarga vaqtni samarali boshqarish, rejalashtirish va resurslarni aniq taqsimlash imkonini yaratadi. Har bir fan bo'yicha mavzularni tanlashda fanning mazmuni va talabani qiziqishlari inobatga olinishi lozim. Bu usul ta'limning individuallashtirilishini ta'minlaydi.

2. Fan xususiyatiga mos shaklda topshiriqlarni aniqlash: Masalan, dasturlash fanini o'qitishda mustaqil ish sifatida algoritmlar tuzish, kod yozish, xatolarni topish (debug), tayyor dasturini tahlil qilish va kichik loyiha yaratish kabi amaliy topshiriqlar tavsiya etiladi. Bu talabani amaliy ko'nikmasini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni yechish qobiliyatini shakllantiradi.

3. Barcha talabalarga bir xil mavzularni berish amaliyotidan voz kechish: 10–15 ta bir xil mavzular bo'yicha referat yozish shaklidagi yondashuv rasmiyatchilikni kuchaytiradi va ijodiy fikrlash imkoniyatlarini cheklaydi. Bu ko'p hollarda plagiat holatlarini keltirib chiqaradi.

4. Individual va ijodiy yondashuvni ta'minlash: Har bir talabaga bilimi, qiziqishi va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, shaxsiy (individual) topshiriqlar taqdim etilishi lozim. Bunda topshiriqlar soni emas, mazmuniy teranligi va talabani tahlil qobiliyati asosiy mezon bo'lishi kerak. Ta'lim jarayonining boshlanish bosqichida hatto bitta topshiriqni manbalarga



taynilgan holda tahlil qilish va yozma ifoda etish ko'nikmasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

5. Uslubiy ko'rsatmalar bilan ta'minlash: Talabalar mustaqil ishning maqsadi, uni bajarish bosqichlari, baholash mezonlari, taqdim etish tartibi haqida aniq va tushunarli yo'riqnomalar bilan ta'minlanishi lozim. Bu yechim talabalarda ishni bajarishga bo'lgan ishonchni oshiradi.

6. Muddatli nazorat va faol baholash: Mustaqil ishlarni topshirish muddatlari aniq belgilab, 1-2 marta qayta topshirish imkoniyati yaratilishi lozim. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilar ishlarni belgilangan vaqtda tekshirib, xolis baholashlari talabaning o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

7. Hemis platformasidan maqsadli foydalanish: Talabalarining mustaqil topshiriqlarini Hemis elektron ta'lim tizimi orqali taqdim etishi, professor-o'qituvchilar esa ushbu platformada baholash, muloqot qilish va fikr almashish faoliyatini yo'lga qo'yishi zarur. Bu raqamli o'quv muhitini rivojlantirish va jarayonni shaffoflashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Oliy ta'limda talabaning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish – bilim sifatini oshirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalar shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'limning to'g'ri rejalashtirilishi, maqsadli topshiriqlar, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, reflektiv va faol nazorat mexanizmlari mazkur jarayon samaradorligini ta'minlaydi. Topshiriqlar real hayotga bog'liq, kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog'langan bo'lishi lozim. Maqolada keltirilgan taklif va tavsiyalar ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan amaliy chora-tadbirlarni belgilashda muhim ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личности ориентированной парадигмы образования // Народное образование (Россия). – 2002. – №2. – С. 58–64.
2. Qurbonov A. Oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish. – Toshkent: Fan, 2021. – 156 b.
3. Bobomurodov M. Pedagogik texnologiyalar va ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Samarqand: SamDU nashri, 2022. – 184 b.
4. Jo'rayeva N. Mustaqil ishning metodik asoslari. – Toshkent: Ma'rifat, 2020. – 112 b.
5. Mukhiddinov A. Modern approaches to independent student work in higher education // Journal of Pedagogical Research. – 2021. – T. 6, № 3. – С. 213–225.
6. UNESCO. Guidelines on open and distance learning for higher education. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 98 p.



EHTIYOJLAR -TALABALARNING FAOLIYATI VA HARAKATLARINI FAOLLASHTIRUVCHI ASOSDIR

Pazilova M. E.

Nukus davlat

*pedagogika instituti, Pedagogika kafedrası professori,
pedagogika fanlari doktori*

Tayanch soʻzlar: faollik, ehtiyoj, motiv, interpretatsiyalashtiruvchi faollik, reproduktiv, evristik, kreativ, emotsional, irodaviy, motivatsiyaga asoslangan, mazmunli operatsional, ijtimoiy-operatsional komponentlar.

Ключевые слова: активность, потребность, мотив, интерпретационная активность, репродуктивный, эвристический, творческий, эмоциональный, волевой, мотивационный, содержательно-операциональный, социально-операциональный компоненты.

Key words: activity, need, motive, interpretative activity, reproductive, heuristic, creative, emotional, volitional, motivational, substantive-operational, social-operational components.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada faollik ehtiyojlar hisoblanishi, ehtiyojlar natijasida shaxsning faoliyati, harakatlari faollashishini, motivlar esa ehtiyojlarning qondirilishiga asos yaratishi keltiriladi. Bilish faolligi tarkibida 5 ta mustaqil tarkibiy qismni: emotsional, irodaviy, motivatsiyaga asoslangan, mazmunli operatsional, ijtimoiy-operatsional komponentlar ajratish maqsadga muvofiqligi keng yoritib beriladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье излагается идея о том, что активность есть потребность, что потребности активизируют деятельность и действия человека, а мотивы создают основу для удовлетворения потребностей. Широко обсуждается целесообразность выделения в познавательной активности 5 самостоятельных компонентов: эмоционального, волевого, мотивационного, содержательно-операционального и социально-операционального.

SUMMARY:

The article presents the idea that activity is a need, that needs activate human activity and actions, and that motives create the basis for satisfying needs. The advisability of distinguishing 5 independent components in cognitive activity is widely discussed: emotional, volitional, motivational, substantive-operational and social-operational.

Ehtiyojlar shaxsning muayyan narsaga zaruriyati borligini ifodalovchi holat boʻlib, muayyan hayot tarzi bilan bogʻliq holda vujudga keladi. Ehtiyojlar ochiqdan-ochiq namoyon boʻlmaydi. Shaxsning harakatlari ehtiyoj mahsuli



hisoblanadi. Biz ehtiyojning sifat va miqdor yo‘nalishlari haqida muayyan fikrga kela olamiz. Shuning uchun ham ushbu muammoning tavsifi haqida fikr yuritganda harakatlar faolligi va ehtiyojlar faolligi ustida to‘xtalamiz.

Faollik – ehtiyoj hisoblanadi. U insonning faoliyatlari va fikrlarida o‘z ifodasini topadi. Tajriba orqali namoyon bo‘ladi. Ehtiyojlar natijasida shaxsning faoliyati, harakatlari faollashadi. Shaxsning ehtiyojlari yaqqol namoyon bo‘lganda uning mazkur ehtiyojni qondirishga oid harakatlari faollashadi.

Bilish harakatlarining faolligiga qiziquvchanlik juda yaqin hisoblanadi. Talaba har doim yangi axborotlarni o‘zlashtirish va uni qayta ishlashga ehtiyoj sezadi. Natijada talabalarda tashabbuskorlik, maqsadga yo‘naltirilgan izlanuvchanlik sifatleri tarkib topadi.

Motivlar ehtiyojlarning qondirilishiga asos yaratadi. Motivlarning asosini muayyan ehtiyojlar tashkil etadi. Insonni faol harakatga undovchi 4 ta motiv mavjud:

- faoliyatning yakuniy natijasi;
- rag‘batlantirish motivlarining yo‘naltiruvchilik xarakteriga egaligi;
- o‘z kuchini nazorat qilish orqali noxush vaziyatlardan uzoqlashish;
- faoliyat jarayonining jozibadorligi.

Qiziqishlar motivlarni ifodalab, anglangan mohiyati va hissiy jozibadorligi doirasida harakatlanadi. Bilish bilan qiziqishlar bevosita aloqadordir.

Bilish qiziqishlarining aksariyat pedagoglar tomonidan tan olingan jihatlari mavjud: faoliyat mazmunining dolzarbligi va yangiligi; bilimlarning mohiyati, ko‘rgazmaliligi, bir-birining o‘rnini bosa olishi, emotsionalligi, qiyoslanishi va o‘xshashligi.

E’tiqod shaxsning anglangan ehtiyojidir. Uni qo‘zg‘atuvchi asosiy narsa shaxsning dunyoqarashi va ongli harakatlari. Biz quyida bilish faoliyatining tashqi yo‘nalishlarini tahlil etishga harakat qilamiz. Pedagogik jarayonning asosiy maqsadini yakuniy natija tashkil qiladi. Bu professor-o‘qituvchi va talabaning o‘zaro mahsuli hisoblanadi. Ta’limning asosiy maqsadi talabalarni bilimlarni mustaqil egallashga jalb etish, ular oldiga aniq vazifalar qo‘yish, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni egallashlari uchun sharoit yaratish, o‘zlashtirilgan bilimlarini amaliy faoliyatlarida ijodiy qo‘llashlariga ko‘maklashishdan iborat.

Harakat esa motivlarning yo‘nalishini belgilaydi. Motiv muayyan faoliyatga taalluqli bo‘lib, unda mazkur harakat ishtirok etadi. Shaxsning maqsadlari motivga aylanadi va ushbu motivlar harakatni vujudga keltiradi. Talabalar bilish faolligining muhim elementi motivlardir.



Shu bilan bir qatorda talabalarning o'quv-bilish faoliyatlarining rivojlanishi ham ular taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Talabalarning faolligi esda saqlash, esga tushirish va o'zlashtirilgan bilimlarni qayta tiklashda o'z ifodasini topadi. Mushoira, tahlil mutolaa, baxs-munozara usullaridan keng foydalanish natijasida o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash imkoniyatlari kengayadi.

Interpretatsiyalashtiruvchi faollik talabalarning o'rganilayotgan material mazmun mohiyatini aniqlashga bo'lgan intilishlarida ko'rinadi. Hodisalarning ichiga kirish, uning mohiyatini anglab yetish, ular orasidagi aloqadorlikni izlab topishga intilish, o'z bilimlarini o'zgaruvchan sharoitlarda qo'llay olish usullarini egallashlarini jadallashtiradi. Bilish faolligining xarakterli jihatlaridan biri irodaning barqarorligidir. Bu talabaning boshlagan ishini oxiriga yetkaza olish layoqatida namoyon bo'ladi. Bunday vaziyatda talabalar qiyinchiliklarga duch kelganlarida boshlagan ishlarini tashlab qo'ymaydilar. Balki uni oxiriga yetkazadilar.

Faollikning ijodiy darajasi talabalarning voqea-xodislar mohiyatiga chuqur kirishishlari hamda ushbu maqsadni amalga oshirish uchun yangi usullarni izlab topishlarida ko'rinadi. Bunday vaziyatlarda talabalar o'zlarining qat'iy nuqtai nazarlari va irodalarini namoyon etadilar. Bu ulardagi keng ko'lamli, qat'iy bilish qiziqishlarida ifodalanadi. Bunday vaziyatda talabalar tadqiqotchilik faoliyatiga kirishadilar va zarur bilimlarni mustaqil izlay boshlaydilar.

Faollikning o'ziga xos turlari mavjud. Bunda o'quvchilar ichki holati va faoliyatining namoyon bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Talabalar bilish faolligining bir necha komponentlari mavjud. Bilish faolligining tarkibiy qismlari yaxlit tarzda tizimni tashkil qiladi.

Faollik faoliyat va harakat bilan bevosita aloqadorlikda talqin etiladi. Bilish faoliyatining xarakteri bilan bog'liq holda quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- reproduktiv – bunda talabalar faoliyatning dastlabki o'zlashtirilgan usuli doirasida o'quv-bilish faoliyatlari amalga oshiradilar;
- evristik xarakterdagi o'quv-bilish faoliyatlari doirasida talabalar muayyan muammo yechimini topishning turli usullarini izlaydilar va o'zlashtiradilar;
- kreativ faoliyat doirasida talabalarning o'quv-bilish faoliyatlari yuqori darajada rivojlanadi. Bu jarayonda ta'lim oluvchilar o'z oldilariga vazifalar qo'yish va ularga yechim topishda alohida tashabbuskorlik ko'rsatadilar.

Talabalar bilimlarni o'zlashtirishda reproduktiv faollik ko'rsatadilar. Faollikning mazkur darajasida ular tayyor bilimlarni o'zlashtirish va ularni g'ayrat bilan xotirada qayta tiklash ko'nikmalarini namoyon etadilar.



Applikativ faollik esa bilimlarni alohida tanlab olgan holda xotirada qayta tiklash bilan xarakterlanadi.

Interpretatsiyalashtiruvchi faollik muayyan hodisa va jarayonlarning mohiyatini izohlash, tushuntirish, farqlashda namoyon bo'ladi.

Mahsuldor faollik esa ijodkorlik asosida yangi ishlanmalar yaratishda namoyon bo'ladi.

Faoliyatga nisbatan munosabat. Bunda talabalarning o'zi amalga oshiradigan faoliyat turiga tayyorligi namoyon bo'ladi. U o'zining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga moyillik ko'rsatadi. Bilish faoliyatiga tayyorlik jarayonida talabalar o'qituvchi yoki o'zlari tomonidan mustaqil qo'yilgan maqsadga erishishga intiladilar. Shu maqsadda bilish ob'ektlari va xodisalarining mohiyatini anglashga harakat qiladilar, ularni o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Talabalar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatda ularning shaxsiy sifatlari harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Ular aniq vaziyatlarda o'quv-bilish faoliyatini faol tarzda amalga oshirishga erishadilar.

Mazkur jarayonda faollikning asosiy ko'rsatkichlari sifatida g'ayratlilik, tashabbuskorlik, faoliyat tarzining jadalligi, natijadorlik namoyon bo'ladi. Ularning barchasi faollikning tashqi belgilari hisoblanadi. Bunday faollik qo'yilgan maqsadga erishish orqali ifodalanadi. Bu talabaning mustaqilligi, ijodkorligi, iroda kuchida o'z aksini topadi.

Talabaning kuch-quvvati, g'ayratini ifodalaydigan faoliyat qo'yilgan maqsadga erishilishin ta'minlaydi. Bu esa talabaning qat'iyatliligi, jur'atlilik, faoliyat ko'rsatish istagida yaqqol namoyon bo'ladi.

Davomiyli va barqarorligiga ko'ra bilish faoliyati vaziyatli faollik, fragmental xarakterga ega bo'ladi. Integrallashgan faollik talabaning shaxsiy sifatlari va uning yo'nalishlarini belgilovchi omil darajasiga ko'tariladi. Faoliyatga nisbatan esa yetakchi xarakter kasb etadi. Bu o'z navbatida e'tiqodlar, qiziqishlar, maqsadlarning muayyan tizimini tashkil etadi.

Faoliyat sifatiga ko'ra esa talabalarning tayyor bilimlarini tushunish, esda saqlab qolish va qayta tiklash imkoniyatlarini kengaytiruvchi reproduktiv faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Talabalar bilimlarni namunaga qarab qo'llash usullarini o'zlashtiradilar. Ular o'zlashtirilgan o'quv materiallari mazmunini izlanuvchanlik asosida aniqlashga muvaffaq bo'ladi. Ular xodisalar va jarayonlar orasidagi aloqadorlikni anglashga muvaffaq bo'ladilar. Buning uchun esa xodisalarining mohiyatiga chuqurroq kirib boradilar. O'zgargan vaziyatlarda o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash usullarini bilib oladilar.

Topshiriqlarni bajarish uchun mustaqil tarzda vositalar izlaydilar. Ijodiy faoliyat tajribasini esa izlanishlar orqali o'zlashtiradilar. Ular mazkur jarayonda



mustaqil harakatlanish trayektoriyalari va dasturlarini belgilab oladilar. Bu bilish faoliyatining yuksak darajada namoyon bo'lishini anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bilish faolligi tarkibida 5 ta mustaqil tarkibiy qismni ajratish maqsadga muvofiq: Emotsional, irodaviy, motivatsiyaga asoslangan, mazmunli operatsional, ijtimoiy-operatsional komponentlar.

Emotsional komponent o'zida shaxsiy tajribaning hissiy jihatlarini mujassamlashtiradi. U talabalarning muayyan ishni bajarishga moyilligida o'z ifodasini topadi. U uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, talabalarning hissiy-irodaviy sohalari bilan bevosita bog'liqdir. Emotsional komponent talabaning qiziquvchanligida o'z ifodasini topadi. Talabaning emotsional holati quvonch, qiziqish, hurmat, zavqlanish, qat'iyatlilik kabilarda aks etadi.

Irodaviy komponent talabaning faolligi, nafaqat xissiy holati balki, irodaviy quvvatlariga ham bog'liq. Mazkur jarayonda talabalar ichki va tashqi to'siqlarni bartaraf etgan holda qo'yilgan maqsad sari intiladilar.

Motivatsiyaga asoslangan komponent. Bilish faolligining mazkur tarkibiy qismi talabalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi. Uning mazmuni ehtiyojlar va motivlardan tashkil topadi. Ehtiyojlar talaba shaxsining o'quv faoliyatiga bo'lgan zaruriyatini ifodalaydi. Ehtiyojlarning namoyon bo'lishi motivlarda o'z ifodasini topadi.

Mazmunli operatsional komponent esa talabalarning amaliy ko'nikmalarini namoyon etib, bilim, ko'nikma, malakalarning muayyan hajmini ifodalaydi. Mazkur bilim, ko'nikma va malakalar talabalarning amaliy faoliyat usullarini bilishlari va undan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishlarini ta'minlaydi.

Ijtimoiy-operatsional komponent. Talabalarning faolliklari o'zida ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarni ham mujassamlashtiradi. Shu ma'noda bilish faolligi shaxsning umumiy faolligi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada talabalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvlariga erishiladi. Ular ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirib, jamiyatda mustaqil faoliyat ko'rsatish tajribasiga ega bo'ladilar. Natijada ular ijtimoiy tajribani faol o'zlashtirib, o'zlarining mustaqil faoliyat yo'llarini tanlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зеер Э.Ф. Ключевые компетенций определяющие качество образование // Образование в Уральском регионе: Научны основы развития. Тез.докл. II Науч.- прак. Конф. Екатеринбург: Изд-во Рос.гос.проф. –пед ун-та. 2002. Ч.2.23-25 с
2. Хуторский А.З. Компетентность как дидактические понятие: Содержание, структура, и модели конструирования // Тула: И-во. Тул. гос пед. ун-та им А.Н.Толстого, 2008. -Вып. 1. 117-137 с.
3. М.Е.Пазилова. Аждодларимиз меросини ўрганиш жараёнида талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини ривожлантириш механизми. Пед.фан.докт.(DSc) диссертацияси. -Нукус: 2022. -289 б.



BO‘LAJAK ARHITEKTORLARNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI METODLAR

Alyaminov X.I.

*Qoraqalpoq Davlat universiteti, Arxitektura
kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

Tayanch soʻzlar: boʻlajak tadbirkor, arxitektor, SWOT- tahlil, dizayn- fikrlash, loyihalash, klaster, muammoli vaziyat, nazariya va amaliyot didaktik oʻyini, “qanday?” iyerarxik diagrammasi.

Ключевые слова: будущий предприниматель, архитектор, SWOT-анализ, дизайн-мышление, проект, кластер, проблемная ситуация, дидактическая игра теории и практики, иерархическая диаграмма «как?».

Key words: future entrepreneur, architect, SWOT analysis, design thinking, project, cluster, problem situation, didactic game of theory and practice, hierarchical diagram “how?”.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada arxitektura ta'limida o'quv jarayonini tashkil qilishda “arxitektor -pedagog, is'temolchi- bo'lajak tadbirkor” tizimi asosida ish olib borish talabalarni yanada mustaqil bo'lishga undashi, ularda innovatsion tadbirkorlik g'oyalari ustida ishlashda dizayn- fikrlash, loyihalash, klaster, muammoli vaziyat, nazariya va amaliyot didaktik oʻyini, “qanday?” iyerarxik diagrammasi metodlaridan foydalanish yoʻllari ochib beriladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье раскрывается, как работа по системе «архитектор-педагог, потребитель-будущий предприниматель» в организации образовательного процесса в архитектурном образовании побуждает студентов быть более самостоятельными, и как они могут использовать методы проектного мышления, проектирования, кластера, проблемной ситуации, теории и практики дидактической игры, а также иерархической диаграммы «как?» при работе над инновационными предпринимательскими идеями.

SUMMARY:

The article reveals how work on the system "architect-teacher, consumer-future entrepreneur" in the organization of the educational process in architectural education encourages students to be more independent, and how they can use the methods of project thinking, design, cluster, problem situation, theory and practice of didactic game, as well as the hierarchical diagram "how?" when working on innovative entrepreneurial ideas.

Ta'lim jarayoniga ta'sir etadigan samarali usullarni tanlash pedagogdan yuqori bilim talab etadi. Har bir ijodkor pedagogda o'quv jarayonini tashkil qilishda savol tug'iladi: qaysi usullar bugungi kunda samarali? Rus olimi L.N.Tolstoy



o'zi yashagan davrdagi ya'ni XIX asrda yangiliklarni tahlil qilib quyidagicha "Ta'limni samarali tashkil qilish uchun barcha usullar samarali, lekin samarali usullar ichida ijodiy fikrlashga yo'naltiruvchi usullar eng samarali" deb fikr bildirgan. Demak, bugingi kundagi samarali usullar talabalarda ijodiy fikrlash asosida innovatsion tadbirkorlikka yo'naltirish hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish kontekstidagi odatiy usullar, shaxsga yo'naltirilgan usullar, tadbirkorlik, insonparvarlik maqsadlarini va qadriyatlarini amalga oshirishda hamda ta'limning mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu usullar yordamida pedagogik jarayon ishtirokchilarining rollari o'zgartiriladi hamda pedagog talabalarining yordamchisiga aylanadi: uning maqsadi bilimni misollar bilan yetkazib berish emas, balki bulajak arxitektorlarning tadbirkorlik kamolatini shakllantiradi.

Arxitektura ta'limida o'quv jarayonini tashkil qilishda "arxitektor -pedagog, is'temolchi- bo'lajak tadbirkor" tizimi asosida ish olib borish talabalarni yanada mustaqil bo'lishga undaydi. Masalan: amaliyotchi arxitektor talabani yangi bir tadbirkorlik loyihasini ishlab chiqish uchun topshiriq beradi hamda talabaga loyiha tuzishning birlamchi yo'llarini o'rgatadi. Talabalar uchun muammoni o'rganish nafaqat tadbirkorlik loyiha tuzish yo'llarini aniqlash balki qanday natija olishini bashorat qila olish, yetarli darajada talqin qila olish, olinadigan daromadni hisoblay olishni ham o'rgatadi.

O'qitish usullari pedagogik jarayonnig maqsadi, vazifalari, mazmuni hamda natijalarini nazorat qilishning asosiy komponentlari sanaladi. Ta'limda o'qitish usullari quyidagilarga xizmat qiladi:

- Pedagog va talabaning o'zaro ma'lumot almashishi orqali amalga oshiriladi bular o'z ichiga: muloqat orqali ma'lumot almashishini, taqdimotlar orqali ma'lumotlar almashishlarni oladi.

- Belgilangan guruh liderlari yordamida, to'g'ridan- to'g'ri, yoki o'z-o'zini nazorat qilish orqali talabalarning bilim faoliyatini boshqarish;

- Pedagogning talabalar bilan frontal, jamoviy yoki individual tarzda muloqat qilishlari orqali;

- Rag'batlantirish, motivatsiya berish va deontologik tarbiya berish orqali;

- Ta'lim jarayonini samaradorligini monitoring qilish orqali.

Fikrimizcha, mamlakatimizda OTMlarda talabalarning tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsiyalarga maksimal darajada ta'sirchanligini ta'minlaydigan sharoitlarni yaratish;



- ilg'or texnologiyalarni tijoratlashtirish sohasidagi mavjud vaziyatni tubdan o'zgartirish zaruriyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi innovatsion infratuzilmalar faoliyatini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida talabalarni fanlarning amaliy mashg'ulotlarida Startap loyihalariga ishlanmalarni tayyorlashga jalb etish;

- talabalar tomonidan yaratilgan tadbirkorlikga oid yangi g'oya va mahsulotlarni bozor sharoitida realizatsiya etish uchun marketing yordamchi bo'limlarni tashkil etish.

Talabalar o'z bizneslarining kontseptsiyasini aniqlashtirganlaridan keyin, uni testdan o'tkazish kerak bo'ladi. Kuchli va kuchsiz tomonlarini, imkoniyat va xavflarini aniqlash maqsadida biz **SWOT- tahlilidan** foydalanishga harakat qilganmiz.

SWOT so'zi quyidagicha izohlanadi:

Streght(kuchli tomonlar)

Weakness (kuchsiz tomonlar)

Opportunitiez (imkoniyatlar)

Threats (Xavflar)

Vaziyatlar tahlili – kuchli (S), kuchli (W) tomonlarni, imkoniyatlar (O) va xavflar (T) ni o'rganish bo'lib kompaniyaning, uning tovar va xizmatlarining muvaffaqiyatli ildamlanishiga ta'sir ko'rsatadi. SWOT- tahlil innotsatsion g'oyalarning bozorda samarali yoki samarasiz ishlab sabablarini aniqlash imkonini beradi, u qisqa va lo'nda va qisqa axborot tahlili bo'lib, uning asosida tashkilot qaysi yo'nalishda biznesni rivojlantirish kerakligi haqida xulosa qilinadi.

Talabalarda innovatsion tadbirkorlik g'oyalar ustida ishlashda dizayn-fikrlash metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Dizayn fikrlash metodi qandayda bir g'oyaga uni butun amalga oshirish yo'lida hamrohlik qiladigan uzluksiz jarayon: miyaga kelgan fikr, uni test va aprobatsiyadan o'tkazishdan tortib, to prototipda mujassam etish va hayotga tatbiq qilishda qo'llaniladi.

Dizayn-fikrlash metodikasi innovatsiyalarni ijtimoiy muammolarni hal etishda joriy qilishni, g'oyalarning yashash qobiliyatini testdan o'tkazishni, ularning potentsial maqsadli auditoriyada dolzarbligi va talabga egaligini tekshirishni o'rgatadi. Dizayn-fikrlashning beshta asosiy tamoyili mavjud. Ular quyidagicha:

- *Empatiya; Radikal sheriklik; Ideatsiya; Prototiplash; Iteratsiya tamoyillari.*

Dizayn fikrlash ham jamiyatimizdagi odamlar olamini yaxshiroq va qulayroq qilishga yoki foydalanuvchilarning muammosini yechishga yordam beradi. Ularning ko'ngillarini topish uchun ularning o'rniga o'zini qo'yib, uning



pozitsiyasida turib uylash, olingan natijalarni hisobga olgan holda o'zining texnologik imkoniyatlarini joriy etish va undan o'z biznes- manfaatlarini aniq esda tutishi zarur. Chunki talabga mahsulotni yaratish- bu qo'lbola vositalardan foydalangan holda uning asosli ekanini bir necha marta tekshirib ko'rish kerak bo'ladi.

Loyihalash-oldindan faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobayinida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axborotini yetkazish vositasi va yo'llarini aniqlash usuli hisoblanadi. Loyihalash texnologiyasi bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o'qitish usulini amalga oshiradi.

Klaster metodining ta'limda qo'llanilishi fikrlarni tarmoqlashtirish hamda pedagogik strategiya bo'lib, u bo'lajak arxitektor tadbirkorlarda biron bir-mavzuni chiqur o'rganishga yordam berib, talabalarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda- ketma- ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashtirishni o'rgatadi.

Bu metod biron bir g'oyani chuqur o'rganishdan avval talabalar fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. O'tilgan mavzularni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini ijodiy yondashgan holda chizma shaklida ifodalashga undaydi. Bu esa talabalarda o'z bilimlarini tushunchalarini va tasavvurlari darjasini aniqlashga yordam beradi.

Muammoli vaziyat metodi- talabalarda qarama-qarshi fikrlar hosil bo'lishiga olib keladi, muammoli vaziyatlarni hal qilish usullarini topish malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Muammolarni har tomomnlama o'rganish, turli xil pozitsiyalarda ko'rib chiqish, taqqoslash, solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarishga undaydi.

Buni bilasizmi metodi- pedagog bir nechta o'xshash tushunchalarning tavsifnomasi berilgan kichik plakat tayyorlaydi. Topshiriqlar har bir guruhga alohida bo'lsa, topshiriq berilgan qog'oz davra bo'ylab aylanadi. Talabalar guruh bilan muhokama qilgan holda, ushbu tar'riflarning javobini topishi lozim. Masalan: tadbirkorlik turlari ta'rifi beriladi. Talabalar har birini o'qib chiqib qaysi biri qaysi tadbirkorlik turiga xos ekanligini aniqlashi kerak.

Nazariya va amaliyot didaktik o'yini. O'yin maqsadi: talabalar qiziqishlarini, fikrlarini aniq, to'la bayon etishga erishish va shu asosida mazmundor, turg'un qiziqishni shakllatirishni rejalashtirish.



Kutiladigan natija: Talabalarning o'quv faoliyatidagi ichki motivlari mantiqiylikini, aniq savollar bera olish va huddi shunday tarzda javoblar qaytarish malakasini rivojlantirish.

Talabalar ikki guruhga bo'linadi.

1- guruh-nazariyachilar- fanning asosini ishlab chiquvchi omillar.

2-guruh-amaliyotchilar- fanning amaliy qismini ishlab chiquvchi omillar.

Pedagog oldin ikki guruhdi tadbirkorlikni baholash uchun biznes-reja tuzish haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtiradi. Birinchi guruh biznes reja tuzishning nazariy asosini ishlab chiqadilar, ikkinchi guruhdagi amaliyotchilar, ya'ni nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etuvchilar turadi.

Har bir guruh o'zlari tanlagan biznes- reja bo'yicha savol-javob o'tkazadilar. Nazariyachilar amaliyotchilarga biznes-rejani amalda qo'llanilishi haqida, amaliyotchilar esa nazariyachilarga biznes-rejaning nazariy asosi bo'yicha savollar beradi. Bu jarayonda o'yinni olib buvchi hakamlar hay'ati sifatida ishtirok etadi. Talabalar tomonidan berilgan eng yaxshi savol va eng yaxshi javob munosib baholanadi. Olingan javoblar aniq, to'g'ri, shaxsiy fikr va asoslanganlik mezonlari asosida baholanadi.

“Qanday?” iyerarxik diagrammasi- bu diagramma asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari quyidagicha:

Tadbirkorlik faoliyatini olib borishda vujudga kelgan muammo sabablarini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. “Qanday” iyerarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

“Qanday?” iyerarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo'lishiga imkon beradigan savollarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ketma-ket ravishda “Qanday?” savolini qo'yish orqali talaba faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganadi.

1. Diagramma strategik darajadagi savol bilan boshlaydi. Muammoni hal etishning quyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos bo'ladi.

2. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.

3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agar savol sxemada bir qancha “shoxlar”da ko'tarilsa, demak u nisbatan muhim hisoblanadi. U muammoni hal qilishning muhim qadami bo'lishi kerak.



5. Yangi innovatsion g'oyani qanday grafik ko'rinishida qayd etilishini o'zi tanlaydi. Bu muammo yechimi ko'z oldida namoyon bo'ladi.

6. To'g'ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning yechimini topish yengil kechadi.

Yuqorida keltirilgan metodlarning tahlillari bo'lajak arxitektorlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni hamda kasbiy motivatsiyasini oshirishga imkon berishini ko'rsatmoqda Ushbu metodlarni arxitektura ta'lim jarayoni imkoniyatlaridan kelib chiqib qo'llash tajriba guruhlarida hamda nazorat guruhlarida faol ishlashga innovatsion tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish mezonlarini aniqlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.Hoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi: Darslik. – T.:Alisher Novoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.-304 b
2. Шумпетер Й. А. Теория экономического развития / Й. А. Шумпетер. – Москва : Директ-Медиа, 2007. – 400 с.
3. X.Alyaminov. Preparing students for innovative entrepreneurship in universities current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) VOLUME 04 issue 11 pages: 56-60



BO'LAJAK MUHANDISLARDA KASBIY-TEXNIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH USULI

Raxmatullayeva D.R.

Professional ta'limni rivojlantirish instituti, p.f.d. (DSc), dotsent

Karimov M.G.

Professional ta'limni rivojlantirish instituti, mustaqil izlanuvchi

Tayanch so'zlar: kasbiy-texnik, qobiliyat, muhandis, mutaxassis, kasbiy faoliyat, mehnat bozori, muammo, o'qitish, ta'lim.

Ключевые слова: профессионально-технический, способность, инженер, специалист, профессиональная деятельность, рынок труда, проблема, обучение, образование.

Key words: vocational and technical, ability, engineer, specialist, professional activity, labor market, problem, training, education.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada kasbiy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak muxandislarning kasbiy-texnik qobiliyatlarini rivojlantirish usullaridan biri 5 "W" metodi va uni ta'lim jarayonida qo'llash jihatlari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается метод 5 «W» — один из методов развития профессионально-технических навыков будущих инженеров в организациях профессионального образования, а также аспекты его применения в образовательном процессе.

SUMMARY:

This article discusses the 5 "W" method, one of the methods for developing the professional and technical skills of future engineers in vocational education institutions, and the aspects of its application in the educational process.

Hozirgi raqamli va pandemiya sharoitda moslashuvchan ta'lim sharoitlarini kengaytirish dolzarb hisoblanadi. XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan halqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu ta'lim tizimida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy o'qitish hamda muammoli-vaziyatli uslublar kabi zamonaviy ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish imkoniyatlarini kengaytirdi.



Elektr ta'minoti yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy-texnik qobiliyatlarini shakllantirishda qo'llanilgan keyingi metod 5 "W" metodi bo'lib, undan "Elektrotexnika asoslari" va "Kontakt tarmog'iga texnik xizmat ko'rsatish" fanlarini o'qitishda keng foydalanildi. 5 "W" metodi oddiy, ammo, o'qitishning samarali metod bo'lib, bir qator muammolar va ularni hal qilishdan manfaatdor bo'lgan insonlarni tavsiflash imkonini beradi. Bu metoddan vaziyatni oydinlashtirish yoki aniq masad sari harakat qilishda foydalanish mumkin.

O'quvchilarda kasbiy-texnik qobiliyatlarini namoyon qilishga xizmat qiladigan usullaridan biri Mark Sherrington 5 "W" usulidir. Bunda beshta savolga javob berish kerak, ular yordamida mijozlarning psixologik portreti tuziladi.

5 "W" metodining asoschisi Mark Sherrington bo'lib, u Added Value brendi konsalting kompaniyasiga asos solgan. "BrandLed Growth Alchemy" nomli kitobidan qanday qilib muvaffaqiyatli kasbiy-texnik qobiliyatlarini namoyon qilganini, qanday qilib o'z maqsadiga erishganini, bunda beshta savol bilan tavsiflab berib, ularni jadval ko'rinishida to'ldirish orqali kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli yuritish jihatlarini ko'rib chiqishi mumkinligini ta'kidlaydi.

What (nima) – qanday muammoni hal qilish kerak, qanday faktlar bor, bu muammoning sabablari nimada, muammoni hal qilish natijasi nima.

Who (kim) – kim ma'lumotga ega, kim qaror qabul qiladi, kim muammoni hal qilishga ta'sir qiladi, kim tushunishda, tahlil qilishda, hal qilishda yordam beradi va hokazo.

When (Qachon) – muammoni qachon hal qilish kerak, qaysi vaqt oralig'ida, qancha vaqt mavjud.


Where (qaerda) – hududiy muammo qaerda paydo bo'lgan, hududning xususiyatlari qanday.

Why (nima uchun) - nima uchun bu muammo kelib chiqanini aniqlash va uchun bu muammoni hozir hal qilish kerak.

Ushbu metod maqsadli auditoriyani aniqlash, mijozlarni segmentlash va iste'molchi portretlarini aniqlash uchun ishlatiladi. Ushbu beshta savol orqali ularning bozorga kirib borishi va kasbiy-texnik faoliyatining, aynan, qaysi shallarini tanlashga yordam beradi hamda o'zini o'zi band qilishga yordam beradi. Ushbu savollar orqali mahsulot, taklif, bozor bilan bog'liq holda o'z g'oyalarini amaliyotga joriy etishda beriladi. Ushbu usulning afzalliklari shundaki, ushbu metoddan foydalanishning qulayligi, aniqligi, norasmiyligi, samaradorligini o'z ichiga oladi.

5W usulining kelib chiqishi

Dastlab 5W metodologiyasi jurnalistikada batafsil hisobotlarni yaratish uchun ishlatilgan. Keyinchalik, marketologlar bu savollar auditoriyani tahlil qilish uchun juda yaxshi ishlashini tushunishdi va ulardan o'z amaliyotlarida



3.4.2-rasm. 5 “W” metodi tuzilmasi.

faol foydalanishni boshladilar. Bu katta rasmni ko'rish va maqsadli auditoriyangizga qanday va qayerda erishish mumkinligini tushunishning bir usuli.

5W dan foydalangan holda tomoshabinlarni tahlil qilish bosqichlari:

Who(Kim): Maqsadli auditoriyani aniqlash.

- Birinchi savol har doim "Kim?" Biz potentsial mijozlarimiz kimligini va ularni nima undayotganini tushunishimiz kerak.

- **Demografik xususiyatlar.** Bu

yosh, jins, daromad, ta'lim va oilaviy ahvol kabi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu parametrlardan foydalanib, biz marketing kampaniyalarimiz nishonga tushishini ta'minlash uchun umumiy mijozlar profillarini yoki personajlarini yaratamiz.

- **Psixografik xususiyatlar.** Bu erda biz tomoshabinlarimizning qadriyatlarini, qiziqishlari va turmush tarzi haqida gapiramiz. Ushbu jihatlarini tushunish bizga aniqroq va moslashtirilgan xabarlarini yaratish imkonini beradi.

Demografik va psixografik ma'lumotlarni qanday yig'ish mumkin?

Buning uchun juda ko'p vositalar mavjud: standart so'rovlar va anketalardan tortib ijtimoiy tarmoq tahlilining murakkab tizimlari va katta ma'lumotlarni tahlil qilishgacha.

Katta ma'lumotlar - endi marketologlar uchun oltin konidir. Qanchalik ko'p ma'lumotlarga ega bo'lsak, auditoriyani qanday ajratishni yaxshiroq tushunamiz

What (Nima): Tomoshabinlarning ehtiyojlari va umidlari.

- Endi siz potentsial xaridorlar nimani xohlashlarini tushunishingiz kerak.

Bu erda muhim narsa ularning dardi va ehtiyojlarini chuqurroq o'rganishdir.

Tomoshabinlarning muammolari va og'riqlari. Ularning muammolarini bilish bizga ular uchun hayot yo'li bo'ladigan yechim taklif qilish imkonini beradi. Misol uchun, agar mijoz tez va sifatli xizmatni qidirsas, bu bizning boshlang'ich nuqtamiz bo'ladi.

- **Mahsulot yoki xizmatdan umidlar.** Ular nimani kutmoqda? Tez yetkazib berish, ajoyib xizmat yoki innovatsion xususiyatlarmi? Buni bilib, biz mahsulotni ularning kutganidan oshib ketishi uchun yaxshilashimiz mumkin.



- **Qachon: Vaqtinchalik jihatlar.**
- Xaridor qachon xarid qilishga tayyorligini bilish auditoriyangiz bilan to'g'ri muloqotni o'rnatishga yordam beradi.
- **Mavsumiy tendentsiyalar.** Misol uchun, mahsulotimiz yozda mashhurligini bilsak, oldindan marketing kampaniyasini tayyorlab, zaxirani ko'paytirishimiz mumkin. Xarid qilish muddati. Ba'zi mahsulotlar yilning ma'lum vaqtlarida talabga ega. Masalan, dekabrda Rojdestvo bezaklari yoki yozda plyaj aksessuarlari.

Where (Qayerda): Aloqa kanallari.

- Tomoshabinlar bilan muvaffaqiyatli aloqa o'rnatish uchun ularni qaerdan topishni bilish muhimdir.

Geografik joylashuvi. Bu nafaqat jismoniy joylashuv, balki iste'molchi xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi madaniy va ijtimoiy omillarni tushunishdir.

- **Aloqa kanallari.** Sizning auditoriyangiz qaysi kanallarni afzal ko'rishini aniqlash muhim: ijtimoiy media, elektron pochta xabarnomalari yoki ehtimol oflayn tadbirlar. Ular bizni kutayotgan joyda biz bo'lishimiz kerak.

To'g'ri aloqa kanallarini qanday tanlash mumkin?

Hammasi sinov va tahlildan kelib chiqadi. Turli platformalarda A/B testidan boshlang va eng katta javob qayerda ekanligini ko'ring. Bu sizga maksimal konversiyani keltiradigan kanallarga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Why (Nima uchun): motivlar va sabablar.

Endi bizda to'liq rasm bor, biz nima uchun mijozlar bizning mahsulotimizni tanlashini yoki aksincha, uni rad etishini tushunishimiz kerak.

Motivlar. Nima uchun mijozlar bizni tanlaydilar? Bu narx, sifat, brend ishonchi yoki noyob takliflar bo'lishi mumkin.

To'siqlar. Qanday shubhalar ularni sotib olishga xalaqit bermoqda? Ba'zida bu yuqori narx, ba'zan esa sifatga shubha tug'diradi. Marketologning vazifasi bu to'siqlarni olib tashlashdir.

5W usulining afzalliklari va cheklovlari.

5W dan foydalanishning afzalliklari.

5W metodologiyasi sizning auditoriyangizni tushunishga chuqurroq kirishga imkon beradi va uning bir qancha asosiy afzalliklari bor:

Tomoshabinlarni chuqur tushunish. Biz nafaqat auditoriyangizni segmentlarga ajratamiz, balki uni chuqurroq tushunamiz, bu bizga haqiqatan ham samarali strategiyalarni yaratish imkonini beradi.

- **Foydalanish qulayligi.** Metodologiya turli sohalar va biznes modellariga osongina moslashtiriladi.
- **Ko'p qirralilik.** Bu yirik korporatsiyalar uchun ham, kichik biznes uchun ham javob beradi.



5 W usulining kamchiliklari

Har qanday vosita singari, 5W usuli ham o'z cheklovlariga ega:

- Cheklangan ma'lumot. Ba'zida ma'lumotlarni olish qiyin, ayniqsa yangi bozorlar yoki bo'shliqlar haqida gapirganda.
- Subyektivlik. Ba'zi topilmalar sub'ektiv bo'lishi mumkin va shaxsiy talqinga bog'liq.

Nima uchun auditoriyani segmentatsiya qilish kerak?

Hammaga bir xil mahsulotni taklif qilish qimmat va mutlaqo samarasiz, odamlar boshqacha fikrda, turli sharoitlarda mahsulotingizga e'tibor berishadi. 25 yoshli tomoshabin va 50 yoshli tomoshabinning motivatsiyasi butunlay boshqacha bo'ladi. Shuning uchun sizning noyob sotish taklifingiz (USP) har bir guruh (segment) uchun har xil bo'lishi kerak. Reklama kreativlari, matnlar, takliflar - bularning barchasi mahsulotingizni sotmoqchi bo'lgan auditoriya segmentiga qarab yaratiladi.

Segmentatsiya sizga nima berishi mumkinligi ro'yxati:

- to'g'ri mijozga mahsulotni taklif qilish qobiliyati;
- qiziqarli savdo kanallarini tushunish;
- qo'shimcha imtiyozlarni ko'ring
- muayyan segment uchun mahsulotni qanday yaxshilashni tushunish;
- va mahsulotingizning muvaffaqiyatli mavjudligiga hissa qo'shadigan boshqa jihatlar.

Auditoriyangizni qachon segmentlash kerak?

Umuman olganda, auditoriya segmentlarini tushunish har doim biznesni shakllantirish bosqichida ham, uning faol rivojlanish bosqichida ham zarurdir. Tomoshabinlar o'zgaradi (uning tajribasi, yoshi, odatlari), shuning uchun mijozlaringizni yaxshi tushunish uchun, ularga nima kerakligini, nima uchun kerakligini va qachon sotib olishga tayyorligini tushunish uchun ma'lumotlarni muntazam yangilab turish kerak.

Bozorda yoki mahsulotingizda har qanday o'zgarishlar yuz berganda, auditoriyangiz auditini o'tkazish juda muhimdir. Tomoshabinlar segmentatsiyasi - bu sizning to'g'ri yo'nalishda harakat qilayotganingizni ko'rsatadigan o'lchov turi.

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'z kasbiy faoliyatini boshlamoqchi va mahsulot ishlab chiqarishdan oldin qaysi kasbiy faoliyati bilan shug'ullanishini, bozorga kirish va uni egallash hamda o'z mijozlarini o'rganishi kerak. Chunki bugungi kunda mehnat bozori to'yingan, shuning uchun ham u o'z oldiga quyidagi beshta savolga javob izlashi orqali o'z kasbiy-texnik faoliyatining shakl va turlarini to'g'ri tanlashiga yordam beradi. Masalan:



1. Kim sotib oladi? Bunda biror mahsulot ishlab chiqarsa, ushbu mahsulotini kimlar sotib oladi. Bu yerda o'quvchilar auditoriya turlarini tanlashi mumkin - jins, yosh va yashash joyi, qiziqishlari va boshqa farqlar.

2. Nima sotib oladi? Qanday mahsulotni taklif qilasiz? Bu sizga auditoriyangizni ularni qiziqitiradigan mahsulotlar turiga qarab ajratishga yordam beradi.

3. U qaerdan sotib oladi? Insonlar sizdan qaerdan sotib olishga qaror qilishadi va qaerdan sotib olishadi? Har bir segment siz bilan o'z aloqa nuqtalariga ega, bu yerda siz sotib olish qaroriga ta'sir qilishingiz mumkin hamda hozirgi axborot asrida internet orqali sotib oladilarmi, ularni aniq tahlil qilish lozim.

4. U qachon sotib oladi? – bunda sizning mahsulotingiz xaridorlarga qachon kerak bo'ladi? Iste'molchilarni yuzaga keladigan ehtiyojlar va sharoitlarga qarab ajrating.

5. Nima uchun sotib olinadi? Bunda nima uchun iste'molchi va mijozlar sizdan xarid qilishlari kerak? Shunday qilib, siz mijozlaringiz qanday motivatsiyaga ega ekanligini va mahsulotingiz qanday muammoni hal qilishini bilib olasiz.

Shunday qilib, 5 "W" usulining afzalligi uning soddaligi bo'lib, bunda muammolarni oldindan aniqlashga yordam beradi. Ushbu usul o'quvchilar uchun hozirgi kunda dolzarb hisoblangan maqsadli auditoriya haqida mavjud bilimlarni yaxshi tashkil qilish va ularga nima taklif qilish mumkinligini tushunish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi: Monografiya. –T.: "Lesson press", 2023, – 118 bet.
2. Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasasi o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyasini takomillashtirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli // Uzluksiz ta'lim jurnali. –T.: 2022. – 6-son. –B. 34-40.
3. Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tizimli yondoshuv asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish // Xalq ta'limi. –T.: 2021, – 5-son. – B. 44-49.
4. Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning didaktik tamoyillari // Kasb-hunar ta'limi. –T.: 2021, – 4-son. – B. 18-21.



TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI SAMARADORLIGI VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

Muxamedova R.B.

Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so'zlar: raqamli texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, kelajak tendensiyalari, sun'iy intellekt, raqamli ta'lim.

Ключевые слова: цифровые технологии, эффективность образования, тенденции будущего, искусственный интеллект, цифровое обучение.

Key words: digital technologies, education effectiveness, future trends, artificial intelligence, digital learning.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning qo'llanilish usullari va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim tizimida raqamli vositalarning joriy etilishi orqali o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va axborotni qabul qilish qobiliyatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Kelajakda raqamli ta'limning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari, sun'iy intellekt, virtual va aralash haqiqat texnologiyalarining o'rni ham tahlil etiladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается роль цифровых технологий в образовательном процессе, способы их применения и эффективность. Анализируется влияние цифровых инструментов на активность учащихся, развитие их самостоятельного мышления и восприятие информации. Также обсуждаются перспективы развития цифрового образования, включая внедрение искусственного интеллекта, виртуальной и смешанной реальности.

SUMMARY:

This article explores the role of digital technologies in the educational process, methods of their application, and their effectiveness. It analyzes the impact of digital tools on student engagement, independent thinking, and information perception. The paper also discusses future prospects for digital education, including the integration of artificial intelligence, virtual reality, and mixed reality technologies.

XXI asr – raqamli transformatsiyalar asri sifatida tarixga kirmoqda va bu jarayon hayotimizning deyarli barcha jabhalarini, eng avvalo, ta'lim sohasini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelishi shunchaki yangi vositalarni qo'llash emas, balki o'qitish va o'rganishning fundamental paradigmasini, ta'limning maqsadlari, mazmuni, metodologiyasi va natijalariga bo'lgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ijtimoiy



sohada va ta'limda kuzatilayotgan yuqori sur'atdagi o'zgarishlar, bir tomondan, innovatsion yechimlar va misli ko'rilmagan imkoniyatlar eshigini ochsa, ikkinchi tomondan, yangi chaqiriqlar, murakkab muammolar va hatto raqamli tafovut kabi xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Bir paytlar iqtisodiy o'sish va taraqqiyotning asosiy tayanchi hisoblangan tabiiy resurslar va arzon ishchi kuchi bugungi globallashgan, bilimga asoslangan iqtisodiyotda o'zining yetakchi mavqeini yo'qotmoqda. Ularning o'rmini inson kapitali, innovatsiyalar, kreativlik va yuqori malakali, raqamli ko'nikmalarga ega mutaxassislar egallamoqda. Bu o'zgarishlar fonida an'anaviy ta'lim tizimi tomonidan shakllantiriladigan bilim va ko'nikmalar to'plami zamonaviy mehnat bozori va tez o'zgaruvchan dunyo talablariga to'liq javob bera olmayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga kirib kelishi so'zsiz ta'limning yangi sifatini talab qiladi. Ta'kidlash joizki ijtimoiy sohada va ta'limda ham yuqori darajadagi o'zgarishlar kuzatilmoqda. Mavjud ta'lim tizimi tomonidan shakllanadigan asosiy bilim darajasi yetarli emasligi ko'zga tashlanmoqda. Muvaffaqiyatli texnologik inqilob har doim o'zi yaratgan muammolarni hal qilish vositalarini olib keladi va axborot (raqamli) inqilobi ham bundan mustasno emas.

Tarixan, har bir yirik texnologik inqilob o'zi bilan birga yangi muammolarni keltirib chiqarganidek, ularni hal qilish uchun zarur vositalar va yondashuvlarni ham taqdim etgan. Axborot (raqamli) inqilobi ham bundan mustasno emas. Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, uning samaradorligi, qamrovi va hamma uchun ochiqqligini oshirish, o'qitish jarayonini individuallashtirish va pirovardida, jamiyatning intellektual salohiyatini yukseltirish, innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan kadrlar tayyorlash uchun noyob va kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ta'limda raqamlashtirish – bu shunchaki darsliklarni elektron formatga o'tkazish, kompyuter sinflarini jihozlash yoki onlayn ma'ruzalar o'tkazish bilan cheklanib qoladigan tor tushuncha emas. Bu – umrbod ta'lim olish (lifelong learning) konsepsiyasiga asoslangan, shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishga yo'naltirilgan, moslashuvchan, shaxsiylashtirilgan (personalized) va talabaga yo'naltirilgan (learner-centric) yondashuvlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli, ko'p qirrali va uzluksiz jarayondir. Ta'lim endilikda ma'lum bir yosh chegarasida yoki ta'lim muassasasi devorlari bilan chegaralanib qolmaydi; u hayot davomida davom etadigan, yangi bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni doimiy ravishda o'zlashtirishni taqozo etadigan faol va dinamik faoliyatga aylanmoqda. Bugungi kunda o'quv jarayonida yuzaga keladigan an'anaviy muammolar – masalan, axborotning tez eskirishi, o'quv materiallarining geografik va moliyaviy jihatdan cheklanganligi, o'qituvchilarning ortiqcha yuklamasi, barcha o'quvchilarga bir xil yondashuvning samarasizligi – raqamli vositalar va platformalar yordamida



samaraliroq hal etilmoqda. Biroq, bundan ham muhimi, raqamli transformatsiya davrida ta'limning turli shakllarini (formal – rasmiy, noformal – maktabdan tashqari, informal – kundalik hayotda o'rganish) rivojlantirish, ularni o'zaro uyg'unlashtirish va integratsiyalash hamda o'quv jarayonida raqamli texnologiyalarni shunchaki qo'llash emas, balki ulardan pedagogik jihatdan oqilona, maqsadli va samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu o'z navbatida, o'qituvchilardan yangi kompetensiyalar, jumladan, raqamli pedagogika, media savodxonlik va texnologik vositalardan mohirona foydalanish qobiliyatini talab etadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'limni raqamlashtirish va axborotlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va boshqa qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bu boradagi islohotlarga huquqiy asos yaratdi. Bu jarayon maktab o'quvchilariga informatika va dasturlash asoslarini chuqurlashtirilgan tarzda o'rgatish, ixtisoslashtirilgan IT-maktablar tarmog'ini kengaytirish kabi tashabbuslar bilan boshlanib, bugungi kunga kelib oliy ta'lim, professional ta'lim va hatto maktabgacha ta'lim tizimlarini ham qamrab olgan keng ko'lamli dasturlarga aylandi. Ta'limni axborotlashtirish nafaqat mamlakatning ilmiy-texnik taraqqiyotini jadallashtirish, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili, global raqobatbardoshlikni oshirish vositasi sifatida qaralmoqda. Shu maqsadda ta'lim tizimi oldiga aholining, ayniqsa, yoshlarning raqamli savodxonligini va madaniyatini yuksaltirish, tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonining barcha bosqichlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) va innovatsion pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish vazifasi qo'yildi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini nafaqat boyitadi, balki uni tubdan o'zgartirib, yanada interaktiv, qiziqarli, samarali va eng muhimi, har bir o'quvchi uchun shaxsiylashtirilgan qilish imkonini beradi. Elektron ta'lim resurslari (ETR) va raqamli kontent ko'p qirralidir

1. Interaktiv elektron darsliklar va qo'llanmalar: Statik matn va rasmlardan tashqari, video fragmentlar, audio materiallar, 3D modellar, interaktiv testlar, o'yinlashtirilgan topshiriqlar va giperhavolalar bilan boyitilgan bo'lib, o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi;

2. Multimedia taqdimotlari va infografikalar: Murakkab ma'lumotlarni vizual, ixcham va tushunarli tarzda taqdim etish (masalan, Canva, Visme kabi vositalar yordamida);

3. O'quv videolari va vebinarlar: Ekspertlarning ma'ruzalari, amaliy mashg'ulotlar yozuvlari, muammoli vaziyatlarni tahlil qiluvchi qisqa videolar, jonli efirda o'tkaziladigan interaktiv vebinarlar;

4. Virtual va kengaytirilgan reallik ilovalari: Tarixiy joylarga virtual sayohatlar, inson tanasi anatomiyasini 3D formatda o'rganish, murakkab mexanizmlarning



ishlash prinsipini ko'rgazmali namoyish etish (masalan, arxitekturada loyihalanayotgan binoning virtual modelida sayr qilish).

5. Ta'limiy o'yinlar va simulyatorlar: O'rganish jarayonini qiziqarli o'yinga aylantirish, amaliy ko'nikmalarni xavfsiz muhitda shakllantirish (masalan, til o'rganish uchun, biznes boshqaruvi simulyatorlari).

6. Ochiq ta'lim resurslari va ommaviy ochiq onlayn kurslar: Jahonning yetakchi universitetlari va tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan bepul va sifatli o'quv materiallari, kurslar.

Ta'limni boshqarish tizimlari va hamkorlik platformalari quyidagilar:

- markazlashtirilgan resurslar va nazorat, moodle, hemis kabi platformalar o'quv materiallarini tizimli joylashtirish, topshiriqlar berish, ularning bajarilishini kuzatish, avtomatik baholash, o'quvchilarning yutuqlari va muammolarini tahlil qilish imkonini beradi;

- onlayn munozaralar va guruh ishlari, forumlar, chatlar, videokonferensiyalar orqali o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida jonli muloqotni, guruhlarda loyihalar ustida ishlashni tashkil etish;

- shaxsiylashtirilgan o'rganish yo'nalishlari, ba'zi LMS tizimlari o'quvchining o'zlashtirish darajasiga qarab individual o'quv rejasini yoki qo'shimcha materiallarni taklif qilishi mumkin;

- o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish, raqamli platformalarda to'plangan ma'lumotlar (qaysi materiallarni o'rgandi, qancha vaqt sarfladi, qanday xatolarga yo'l qo'ydi) asosida har bir o'quvchining o'rganish jarayonini tahlil qilish, qiyinchilik tug'dirayotgan joylarni aniqlash va o'z vaqtida yordam ko'rsatish;

- adaptiv ta'lim tizimlari, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar o'quvchining bilim darajasi, o'rganish sur'ati va uslubiga moslashib, unga individual topshiriqlar, materiallar va qo'llab-quvvatlashni taqdim etadi;

- avtomatlashtirilgan baholash va fikr-mulohaza berish, oddiy testlar, insholar va hatto ba'zi ijodiy ishlarni avtomatik tekshirish va dastlabki fikr-mulohazalarni berish, o'qituvchining vaqtini tejash;

- chat-botlar va virtual yordamchilar, o'quvchilarga tez-tez so'raladigan savollarga javob berish, texnik yordam ko'rsatish yoki qo'shimcha ma'lumot manbalariga yo'naltirish;

- har qanday joyda va har qanday vaqtda o'rganish, smartfonlar va planshetlar orqali o'quv materiallariga kirish, topshiriqlarni bajarish va muloqot qilish imkoniyati;

- mikro-o'rganish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa, oson o'zlashtiriladigan segmentlarga (masalan, 5-10 daqiqalik videolar, kichik testlar, infografikalar) bo'lib taqdim etish.



- maxsus ta'limiy ilovalar, til o'rganish, matematik amallarni mashq qilish, fanga oid qiziqarli faktlarni bilib olish kabi maqsadlarga yo'naltirilgan ko'plab mobil ilovalar;

- an'anaviy va onlayn ta'limning optimal uyg'unligi, yuzma-yuz darslarning afzalliklari (jonli muloqot, amaliy mashg'ulotlar) bilan onlayn ta'limning imkoniyatlarini (moslashuvchanlik, resurslarning ko'pligi) birlashtirish. "Teskari sinf" (Flipped Classroom) modeli bunga yorqin misol bo'la oladi.

Raqamli texnologiyalarning mavjudligi o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirmaydi. Ulardan samarali foydalanish uchun quyidagi pedagogik shartlarga amal qilish muhim:

1-jadval

Ta'limda raqamli texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari

Pedagogik maqsadning ustuvorligi	O'qituvchi-ning yetakchi roli	Faol o'rganishga yo'naltirilganlik	Tanqidiy fikrlash va media savodxonlik	Inklyuzivlik va teng imkoniyatlar	Muntazam baholash va fikr-mulohaza
Texnologiya vosita, maqsad emas. Har bir raqamli vositani tanlash va qo'llash aniq bir pedagogik maqsadga (masalan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, hamkorlikni kuchaytirish, amaliy ko'nikmani shakllantirish) xizmat qilishi kerak.	Texnologiyalar o'qituvchining o'rnini egallamaydi, aksincha, uning imkoniyatlarini kengaytiradi. O'qituvchi o'quv jarayonining dizayneri, fasilitatori va yo'naltiruvchisi bo'lib qoladi.	Raqamli vositalar o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishi, ularni izlanishga, yaratishga va hamkorlik qilishga undashi kerak.	O'quvchilarda internetdagi axborotning ishonchligini baholash, axborotni tanqidiy tahlil qilish va uni mas'uliyat bilan ishlatish ko'nikmalarini shakllantirish.	Raqamli vositalar barcha o'quvchilar, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun ham o'rganish imkoniyatlarini kengaytirishi lozim.	Raqamli vositalar yordamida o'quvchilarning o'zlashtirishini muntazam kuzatib borish va ularga konstruktiv fikr-mulohazalar berish.

1-jadval

Ta'limda raqamli texnologiyalarning yangi yo'nalishlari

To'liq immersiv ta'lim muhitlari	Sun'iy intellektga asoslangan shaxsiy mentorlar	Neuro-texnologiyalar va ta'lim	Blokcheyn ta'lim hujjatlarini tasdiqlashda	Gamifikasi-ning chuqurlashuvi
----------------------------------	---	--------------------------------	--	-------------------------------



VR/ ARtexnologiyalarining yanada rivojlanishi bilan o'quvchilar to'liq immersiv, interaktiv va realistik virtual dunyolarda bilim olishlari mumkin bo'ladi.	Har bir o'quvchi uchun uning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va o'rganish uslubiga moslashgan, doimiy yordam va yo'nalish berib turuvchi AI- mentorlar paydo bo'lishi mumkin.	Miyaning o'rganish jarayonlarini yaxshiroq tushunish va optimallashtirish uchun neurotexno- logiyalardan (masalan, EEG) foydalanish.	Diplomlar, sertifikatlar va o'quv yutuqlarini blokcheyn texno- logiyasi yordamida xavfsiz, shaffof va qalbaki- lashtirishdan himoyalangan tarzda saqlash va tasdiqlash.	O'rganish jarayoni yanada o'yinlashtirilib, motivatsiya va jalb qilinganlik darajasi oshiriladi.
---	---	---	--	--

Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlar yasash uchun ulkan salohiyatga ega. Ular ta'limni yanada qulay, samarali, qiziqarli va eng muhimi, har bir shaxsning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan qilish imkonini beradi. Biroq, bu salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun shunchaki texnologiyalarni joriy etishning o'zi yetarli emas. Buning uchun chuqur o'ylangan strategiya, pedagogik innovatsiyalar, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga sarmoya kiritish, sifatli raqamli kontent yaratish va barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan inklyuziv yondashuv zarur. O'zbekistonning ta'lim tizimini raqamlashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlari to'g'ri yo'nalishda ekanligini ko'rsatmoqda, ammo oldinda hali qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'p. Raqamli texnologiyalarni pedagogik maqsadlarga muvofiq, oqilona va ijodiy qo'llash orqali biz nafaqat zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, balki tanqidiy fikrlaydigan, muammolarni mustaqil hal qila oladigan, umrbod o'rganishga intiladigan va raqamli dunyoning mas'uliyatli fuqarolari bo'lgan avlodni tarbiyalashimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning barqaror rivojlanishi va global miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mukhamedova R.B. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866 Vol.2 Issue 1.5 Pedagogical sciences.
2. Mukhamedova R.B. Watercolor painting as a means for forming plastic culture of future architects. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 27490866. Vol. 2 Issue 1.5 Pedagogical sciences. Part.2022. pp. 333-340. <http://berlinstudies.de>
3. Urinov U.A. Social psychological priorities of social cooperation. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 2, 2020 Part II. P.62-65.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. - T.: 2007. - 37 b.
5. Urinov U. A. Status and problems of cooperation with higher educational enterprise enterprises. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020. №8. P.5277-5282



TURLI SHAKLDAGI O'QUV MATERIALLARIDAN IXTISOSLIK FANLARINI O'QITISHDA FOYDALANISH METODIKASI

Xudoyberdiyeva S.N.

pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), Yengil sanoat muhandisligi va dizayni kafedrası dotsenti. Buxoro davlat texnika universiteti

Tayanch so'zlar: o'quv materiallari, ixtisoslik fanlari, o'qitish metodikasi, interaktiv ta'lim, raqamli resurslar, multimedia vositalari, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati.

Ключевые слова: учебно-методические материалы, профильные дисциплины, методы обучения, интерактивное образование, цифровые ресурсы, мультимедийные средства, педагогические технологии, качество образования.

Key words: teaching and methodological materials, specialized disciplines, teaching methods, interactive education, digital resources, multimedia tools, pedagogical technologies, quality of education.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada ixtisoslik fanlarini o'qitishda turli shakldagi o'quv materiallaridan foydalanishning samarali metodikasi yoritilgan. Xususan, an'anaviy matnli manbalar, multimedia vositalari, interaktiv texnologiyalar hamda raqamli platformalarning dars jarayonidagi o'rni va ularning talabalarning o'zlashtirish darajasiga ta'siri tahlil qilingan. Muallif o'qitish samaradorligini oshirishda o'quv materiallarining shakli va mazmuni o'rtasidagi muvofiqlik muhimligini asoslab beradi. Shuningdek, maqolada turli formatdagi materiallardan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar va metodik yondashuvlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari ixtisoslik fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается эффективная методика использования учебных материалов в различных форматах при преподавании профильных предметов. В частности, анализируется роль традиционных текстовых источников, мультимедийных средств, интерактивных технологий и цифровых платформ в процессе обучения и их влияние на уровень усвоения материала студентами. Автор обосновывает важность согласованности формы и содержания учебных материалов для повышения эффективности обучения. В статье также приводятся практические рекомендации и методические подходы по использованию материалов в различных форматах. Результаты исследования будут способствовать повышению качества преподавания профильных предметов на основе современных педагогических технологий.

SUMMARY:

The article discusses effective methods for using educational materials in various formats when teaching specialized subjects. In particular, the role of traditional text sources, multimedia, interactive technologies and digital platforms in the learning process and their impact on the level of material assimilation by students is analyzed. The author substantiates the importance




of consistency in the form and content of educational materials to improve the effectiveness of learning. The article also provides practical recommendations and methodological approaches to the use of materials in various formats. The results of the study will contribute to improving the quality of teaching specialized subjects based on modern pedagogical technologies.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar bilimini chuqurlashtirish va ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ixtisoslik fanlarini o'qitishda turli shakldagi o'quv materiallaridan foydalanish, nafaqat nazariy bilimlarni samarali o'zlashtirish, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. An'anaviy darsliklar, taqdimotlar, audio va video materiallar, interaktiv dasturlar hamda raqamli ta'lim platformalari o'quv jarayonini jonlantiradi va individual yondashuvni ta'minlaydi. Mazkur maqolada ixtisoslik fanlarini o'qitishda turli formatdagi o'quv materiallaridan foydalanishning metodik asoslari, ularning afzalliklari, tatbiq etish yo'llari hamda samaradorlikka ta'siri yoritiladi. Shuningdek, amaliy tajribalarga asoslangan tavsiyalar va ilg'or pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Bugungi kunda texnika va texnologiyalarning kun sayin o'zgarishida va bozor iqtisodiyoti sharoitida faqatgina mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs kelajakda muammolarni o'zining kasbiy muammolarini mustaqil hal qila oladi. Shaxsdagi mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish birinchidan zamonaviy o'quv-axborot ta'minot bilan ta'minlansa, uning o'z his tuyg'ulari, qiziqishi, intilishi, xohishi va ehtiyojini qondirish yo'lidagi hattiharakatlari orqali shakllanadi. Shuning uchun ham o'quv - tarbiya jarayonida talabalarning bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish o'qituvchi faoliyatining mahsuli hisoblanadi.

Biz tomondan "Tikuv buyumlari texnologiyasi" fanini modulli, keys stadi, namunaviy, tayanch ma'ruza, yo'naltiruvchi hamda raqamli o'quv materiallaridan foydalanib o'qitish metodikasi ishlab chiqildi va amalda joriy etildi. Bunda har bir mashg'ulotning ishlanmalari va didaktik ta'minoti ishlab chiqilib, o'qitish tashkil qilindi.

Birinchi bosqichda har bir modulning (faoliyatni) yo'naltiruvchi o'quv maqsadi hamda har bir mashg'ulotning aniq ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi o'quv maqsadi belgilanishi lozim. O'quv maqsadi aniq qo'yilgandan keyin nazariy va amaliy mashg'ulotlari xususiyatlaridan kelib chiqib o'quv materiallari shakllari tanlanadi.

Ikkinchi bosqichda modul (faoliyat) yoki mavzu mazmunidan kelib chiqib turli o'quv materillari ishlab chiqiladi. Nazariy mashg'ulotlar ko'proq namunaviy va tayanch ma'ruza shaklidagi, amaliy mashg'ulotlarda esa keys stadi, yo'naltiruvchi o'quv materiallarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Mustaqil ish mashg'ulotlarida esa raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan o'quv materiallari keng qo'llaniladi.



“Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanini turli shakldagi o‘quv materialini qo‘llab o‘qitish jarayoni.

Uchinchi bosqichda “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanidan ishlab chiqilgan o‘quv materiallari asosida mashg‘ulotlar ishlanmalari va ularni o‘tkazish metodikasi ishlab chiqiladi.

Biz quyida ikkinchi va uchinchi bosqichda amalga oshirilgan ishlardan namunalarni keltirdik.

1. Modulli o‘quv materiallari. Modulli o‘quv materiallarida jarayonni bajarish bo‘yicha texnologik xarita va bir qancha topshiriq yoki loyihalarni berilishi, talabalarda amaliy ko‘nikmalarni to‘laqonli o‘zlashtirish imkonini beradi. Ixtisoslik fanlarning modulli o‘quv materiallarining ta’lim jarayonida samarador qo‘llanilishi mutaxassislar tayyorlash sifatini oshiradi, talabalarda mustaqil o‘rganish va kasbiy faoliyatlarini o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi.


Biz tomondan quyidagi tuzilmada yaratilgan «Tikuv buyumlari texnologiyasi» ixtisoslik fanidan quyidagi tuzilma asosida modulli o‘quv materiali ishlab chiqildi.

Quyida “Tikuv buyumlari texnologiyasi” fanidan ishlab chiqilgan modulli o‘quv materiali berilgan.

Modul raqami 4.

Modul nomi: Belbog‘, xlyastik va boshqa mayda detallarni tikish.

Modulning o‘quv maqsadi: Talabalarda belbog‘, xlyastik va boshqa mayda detallarni tikish jarayoni bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.



2.4-rasm. «Tikuv buyumlari texnologiyasi» ixtisoslik fanidan modulli o'quv materiallari

O'quv mashg'uloti soatlari: 8 soat

Modulni o'rganish bo'yicha nazariy bilimlar:

Belbog', xlyastik va boshqa mayda detallarni tikish jarayonida har bir detallari vazifalari;

Belbog', xlyastik va boshqa mayda detallarni tikish jarayoniga oid tushunchalar;

Belbog', xlyastik va boshqa mayda detallarni tikishda qo'llaniladigan jihozlar haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Modulni o'rganish davomida shakllantiriladigan ko'nikmalar:

1. Belbog', xlyastik va boshqa mayda detallarni tikish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;

2. Belbog', xlyastik va boshqa mayda detallarni tikish jarayonida texnika xavfsizligiga rioya qilish.

Modul bo'yicha umumiy ma'lumotlar. Kiyimning mayda detallariga kamar tutgichlar, belbog'lar, xlyastiklar, pagonlar, cho'ntak qopqoqlar kiradi. Bezak detallar turli xil birlashtiruvchi, quyma, ag'darma, mag'iz choklar bilan tikiladi. Bu detallar qotirmali va qotirmasiz bo'lishi mumkin.

Kamar tutgichlar – keng va ensiz bo'lishi mumkin. Ular ochiq yoki yopiq qirqimli quyma chok, yelim yoki ip yordamida tutashtirma chok bilan tikilishi mumkin.

Belbog'lar yumshoq va qattiq, keng va ensiz, konstruktiviyasi bo'yicha astarli yoki yaxlit bichilgan bo'lishi mumkin. Belbog'ning o'ngi ichkariga qaratilib, uzunasiga ikki bukiladi, ag'darish uchun bir uchi qoldirilib, ikkinchi uchi va



yon qirqimlariga ag'darma chok solinadi. Keyin burchak joylarida 0,2-0,3 sm. kenglikda chok haqi qoldirib, qirqib tashlanada. Belbog' maxsus moslama yordamida o'ngiga ag'dariladi va dazmollanadi

Metodlar. Ushbu har bir o'quv materiali oldindan sinovdan o'tkazilishi va o'quvchilar yoshiga mosligi ta'minlanishi lozim. O'quvchilar bilan birgalikda materiallar ustida ishlash, savollar va muhokamalarni tashkil qilish. Texnologik vositalardan samarali foydalanish (prezentatsiyalar, interaktiv platformalar). O'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va materiallarni shunga moslash.

Tadqiqotda qo'llangan asosiy metodlar:

Ahliliy o'qish - matnni diqqat bilan o'qib, asosiy g'oyalar va tushunchalarni ajratib olish.

Muqobil o'qish - o'quvchilar matn bo'yicha savollar berib, javob topish orqali bilimni chuqurlashtirish.

Annotatsiya yozish - matn mazmunini qisqacha yozish orqali tushunishni mustahkamlash.

Muzokara va bahs-munozara - matn asosida o'quvchilar bilan fikr almashish.

Natijalar. Mulohaza.

Natijalar.

- **O'quv jarayonining samaradorligi oshdi:** Turli shakldagi o'quv materiallaridan foydalanish o'quvchilarni mavzu bilan yaxshiroq tanishtirdi, ularning bilim darajasi sezilarli darajada yaxshilandi.
- **O'quvchilarning faolligi ortdi:** Vizual va interaktiv materiallar yordamida darslarda o'quvchilar ko'proq ishtirok etishdi, savol-javob va muhokamalarda faol bo'ldilar.
- **Mustaqil o'rganish ko'nikmalari rivojlandi:** Audio va interaktiv materiallar o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini oshirdi.
- **Murakkab tushunchalarni tushunish osonlashdi:** Diagramma, grafik va video materiallar murakkab nazariy mavzularni aniq va tushunarli qilmoqda.
- **Nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unlashuvi:** Amaliy mashg'ulotlar va simulyatsiyalar o'quvchilarning ko'nikmalarini mustahkamladi hamda nazariy bilimlarni hayotga tatbiq etish imkonini berdi.

Mulohazalar.

- **O'quv materiallarini tanlash va tayyorlash muhimligi:** Har bir ixtisoslik fani uchun o'quv materiallari o'quvchilarning darajasiga va mavzuning murakkabligiga mos bo'lishi kerak.



- **Texnologiyalardan samarali foydalanish:** Zamonaviy texnologiyalar va interaktiv vositalar ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, lekin ularni o'qituvchilar yetarlicha o'zlashtirishi zarur.
- **Individual yondashuv zarurati:** Har bir o'quvchining o'rganish uslubi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda turli shakldagi materiallardan foydalanish ta'lim sifatini oshiradi.
- **O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi:** Turli materiallardan samarali foydalanish uchun o'qituvchilar doimiy ravishda malaka oshirishi va yangi metodikalarni o'rganishi kerak.
- **Materiallarning muntazam yangilanishi:** Ixtisoslik fanlarida o'zgarishlar va yangiliklar doimiy yuzaga kelgani sababli, o'quv materiallari muntazam yangilanib turilishi lozim.

Xulosa va takliflar. Ixtisoslik fanlarini o'qitishda turli shakldagi yaratilgan o'quv materiallaridan foydalanish jarayoni modeli yaratildi. Ishlab chiqilgan model to'rtta o'zaro bog'liq mazmunli-maqсадli, tashkiliy, jarayonli va natijaviy bloklar mazmuni ochib berildi..Biz tomondan o'tkazilgan izlanishlar va olingan natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga modulli, namunaviy, keys stadi, tayanch ma'ruza o'quv materitallarining ishlab chiqilishi va amalda qo'llash orqali talabalarining bilim imkoniyatlari, mustaqil ishlash qobiliyatlarini, ijodkorligini hamda amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz
2. Musurmanova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1996. – 192 b.
3. Muslimov N.A., Abdullayeva Q. Bo'lajak kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim masalalari. Oliy ta'lim muassasalari pedagog va boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish nazariyasi va oliy ta'lim. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Toshkent: TDPU, 2012. 26-28-b.
4. Semyonov I.N. Refleksiya turlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. ISSN 2181-1709 Education and innovative research 2021 y. Sp.I. - (P). 296.
5. Urazova M.B. Bo'lajak kasb ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish: Pedagogika fan.bo'yicha doktorlik (DSc) diss. avtoreferati. – T.:2015.-78 b.
6. Худойбердиева С. Н. К. (2022). Анализ системы образования некоторых развитых стран. Universum: психология и образование, (3 (93)), 8-10.
7. Nizomiddinova K. S. (2022, February). The importance of developing professional creativity of students. In Archive of Conferences (pp. 17-19).
8. Худойбердиева С. Н. К. (2022). Анализ системы образования некоторых развитых стран. Universum: психология и образование, (3 (93)), 8-10.
9. Худойбердиева С. Н. (2022). Подготовка педагогов профессионального обучения с учётом требований современной системы образования. Международный научно-практический электронный журнал «моя профессиональная карьера». Выпуск №, 33.



O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Gaipova S.Q.

*Pedagogika yo'nalishi 1- kurs magistranti
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

Tayanch so'zlar: kreativlik, ijodiy fikrlash, innovatsion pedagogika, muammoli ta'lim, kreativ pedagogik texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, kreativ pedagogika.

Ключевые слова: креативность, креативное мышление, инновационная педагогика, проблемное обучение, креативные педагогические технологии, критическое мышление, креативная педагогика.

Key words: creativity, creative thinking, innovative pedagogy, problem-based learning, creative pedagogical technologies, critical thinking, creative pedagogy.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi yoritiladi. Ta'lim jarayonida kreativlikni shakllantirish bo'yicha yondashuvlar, O'zbekistonda innovatsion pedagogika va kreativ ta'lim metodlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativ fikrlashni shakllantirish jarayonida o'qituvchining o'rni, kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, jumladan, muammoli ta'lim, beynstorming, ilmiy-tadqiqot faoliyati va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается вопрос развития творческих способностей учащихся. Анализируются подходы к формированию креативности в образовательном процессе, значение инновационной педагогики и креативных методов обучения в Узбекистане. Рассматривается роль учителя в процессе формирования креативного мышления, методы, служащие развитию креативного мышления, в том числе проблемное обучение, мозговой штурм, исследовательская деятельность, возможности использования современных технологий.

SUMMARY:

This article examines the issue of developing students' creative abilities. It analyzes approaches to developing creativity in the educational process, the importance of innovative pedagogy and creative teaching methods in Uzbekistan. It examines the role of the teacher in the process of developing creative thinking, methods that serve the development of creative thinking, including problem-based learning, brainstorming, research activities, and the possibilities of using modern technologies.



Kirish. Globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida insonning muvaffaqiyatga erishishi uning bilim va malakalari bilan bir qatorda kreativ tafakkur qobiliyatiga ham bog'liq bo'lib qoldi. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarda jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugungi va kelajakda bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. O'quvchilarda bu ko'nikmani shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal qilish imkonini beradi. Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta'lim-tarbiyaning uzviy bog'liqligini yanada kuchaytirish maqsadida "Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Bu borada kelgusi o'quv yilida boshlang'ich sinflarda davlat ta'lim standarti o'rniga, ilg'or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etiladi." [1.] - deb ta'kidladilar. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23-sentabrda qabul qilindi va ta'lim mazmuni va mohiyatini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilish, Xalqaro baholash dasturlaridan unumli foydalanish, kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bu esa o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlarni samarali joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Kreativlik tushunchasi va uning ta'limdagi ahamiyati. Amerikalik olim D.Veksler "Kreativlik - fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" deb ta'rif beradi [2.].

Shaxsda Kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, "yaratish" degan ma'noni bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi [3.].

Kreativlik ta'lim jarayonida kreativlikning ahamiyati quyidagicha namoyon bo'ladi:

- O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.
- Muammolarga yangicha yondashish va ularni yechish ko'nikmasini shakllantiradi.
- O'quv jarayonini qiziqarli va interaktiv holga keltiradi.



- Fanlararo integratsiyani ta'minlab, o'quvchilarning ko'p qirrali tafakkurini rivojlantiradi.

Kreativlik sifatleri quyidagilar sanaladi. Ijodiy yo'nalganlik, mantiqiy fikrlay olish, eruditsiya, boy tasavvur, ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik, refleksiya qobiliyati, hissiyotga boylik, o'z ijodkorlik va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi. Har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirilib boriladi. Bundan kelib chiqadiki, shaxs sifatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'la boshlaydi? degan savol tug'ilishi tabiiy. Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, bu holat bolalarda kelajakda ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishini kafolatlamaydi. Buning uchun albatta, ularda bu ijodiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari lozim bo'ladi. Bolalarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishda quyidagilarga rioya qilish zarur:

1. Ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab quvvatlash
2. Bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish
3. Bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish

Quyidagi omillar shaxsda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

1. O'zini tavakkaldan olib qochish
2. Fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yish
3. Shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi
4. Boshqalarga tobe bo'lish
5. Har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash[4.].

O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari. 1. Muammoli ta'lim metodi. Muammoli ta'limda o'quvchilarga aniq vaziyatlar berilib, ularga mustaqil tarzda yechim topish imkoniyati yaratiladi va mustaqil fikr yuritish qobiliyati shakllanadi. Ushbu metod tanqidiy tafakkur va kreativ yondashuvni rivojlantirish uchun samarali hisoblanadi. Masalan, adabiyot darslarida biror asarning muqobil yakunini yaratish yoki tarix darslarida muayyan voqealar bo'yicha yangi ssenariylar ishlab chiqish orqali o'quvchilar ijodiy fikrlashga yo'naltiriladi. Muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab – o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, o'quvchilarda qiziqish hosil



qiladigan bo'lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo'lmaydi. Hosil bo'lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o'zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish esa o'quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi. Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyligi, mustaqilligi, ijodiyligi, ilmiyligi, asosiligi, uzviyligi, tejamliligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyliigi, umumlashtirilganligi, xususiylashtirilganligi, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyligi darajasi bilan belgilanadi.

2. "Beynstorming" (Aqliy hujum) usuli. Aqliy hujum – bu guruh bo'lib erkin fikr almashish va yangi g'oyalar ishlab chiqish usuli. Ushbu metod ijodiy tafakkurni rivojlantirish bilan birga, jamoaviy muhokama va muloqot madaniyatini ham shakllantiradi. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin ijodiy fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi. Ta'lim oluvchilarda faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda fikrlarini bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi[2.].

3. Rolli o'yinlar va ijodiy mashg'ulotlar. Rolli o'yinlar orqali o'quvchilar real hayotga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda o'zlarini sinab ko'rishadi. Masalan, tarix darsida turli tarixiy shaxslarning roliga kirib, ularning qarorlarini tahlil qilish orqali muammolarni yechishga harakat qiladilar.

Rolli o'yinlar turli janrlar va sozlamalardan foydalansa-da, umumiy elementlarga quyidagilar kiradi:

Belgi yaratish: O'yinchilar o'ziga xos qobiliyatlari, kelib chiqishi va shaxsiyatiga ega noyob shaxslarni rivojlantiradilar. Bu rolga chuqur kirishga imkon beradi.

Birgalikda hikoya qilish: Hikoya o'yinchilar va o'yin ustasi o'rtasidagi interaktiv muloqotdan kelib chiqadi. Ijodkorlik rag'batlantiriladi.



Ssenariy muammolari: Belgilar, to'siqlarni yengib o'tish va maqsadlarga erishish uchun qaror qabul qilishlari va o'zlarining qobiliyatlari va jamoaviy ishlaridan foydalanishlari kerak.

Tajriba nuqtasining rivojlanishi: Qahramonlar yutuqlari orqali tajriba ballarini qo'lga kiritar ekan, ular yanada kuchliroq bo'lib, yangi qobiliyat va tarkibga kirishadi. Bu qiziqarli mukofot tizimini yaratadi.

Xayoliy dunyo qurish: Sozlama, bilim va estetik dizayn birgalikda xayoliy atmosferani yaratish uchun ishlaydi. O'yinchilar o'zlarini transportda his qilishadi.

Ushbu jozibali elementlar yordamida rolli o'yinlarning jozibadorligini ijodkorlik, muammolarni hal qilish va ijtimoiy o'zaro ta'sirni qondiradigan qiziqarli tajriba sifatida tushunish oson.

4. Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish. Ilmiy-tadqiqot ishlari o'quvchilarning mustaqil izlanishlariga asoslanadi. Ular o'zlari qiziqqan mavzularda tadqiqotlar olib borib, muammolarni chuqur o'rganadilar va o'z xulosalarini chiqaradilar.

5. Zamonaviy texnologiyalar va STEAM ta'limi. STEAM –yondashuv bolalarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi[5.]. Interaktiv ta'lim dasturlari, robototexnika, dasturlash va multimedia vositalari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Masalan, Scratch, Arduino, Python kabi platformalar orqali kreativ loyihalar yaratish o'quvchilarning analitik va ijodiy tafakkurini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish jarayonida o'qituvchining o'рни. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik hislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi[5.]. Shu boisdan kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish jarayonida o'qituvchining o'рни juda katta. U o'quvchilarni innovatsion fikrlashga undovchi sharoit yaratishi lozim. Bunda quyidagi tamoyillarga amal qilinishi tavsiya etiladi:

- O'quvchilarning barcha fikrlarini hurmat qilish va ularni rag'batlantirish.
- Noan'anaviy fikrlashga undovchi savollar berish.
- O'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli tashkil etish.



- Har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olish.

O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda. "Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

2) o'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish[6.].

Xulosa. O'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kreativlik shaxsiy rivojlanish va professional muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri bo'lib, ta'lim muassasalarida kreativ fikrlashni shakllantirish bo'yicha samarali metodlarni joriy etish zarur.

Pedagoglar muammoli ta'lim, aqliy hujum, rolli o'yinlar, ilmiy-tadqiqot faoliyatlari va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochib bera oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. <http://uza.uz>
2. Sh.Yuvashov, B.Akbarov "Kreativ fikrlash" Namangan-2024.
3. I.S.Xotamov, M.K.Olimov, G.R.Madrahimova, I.S.Foziljonov "Kreativ fikrlash" –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
4. N. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Sayfurov, A. To'rayev "Pedagogik komponentlik va kreativlik asoslari"- Toshkent-2015.
5. M.O.Karimova, D.K.Rafikova, B.X. Baydjanov "Pedagogik komponentlik va kreativlik asoslari"- Farg'ona-2021.
6. B.E. Karimova "Kreativ pedagogika" – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2023.
7. Rolli o'yin tushuntirildi | 2025- yilda talabalar imkoniyatlarini ochishning eng yaxshi usuli ta'lim (<https://ahaslides.com/uz/blog/category/education/>) Astrid Tran (<https://ahaslides.com/uz/author/astridtran/>) • 08 yanvar, 2025
8. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz August 2023 / Volume 4 Issue



XORIJIY MAMLAKATLARDA DUAL TA'LIM IMKONIYATLARI

Masharipova B.E.

Nukus innovatsion instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası assistenti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: dual ta'lim, kasb-hunar ta'limi, Germaniya modeli, mehnat bozori, ta'lim tizimi.

Ключевые слова: дуальное образование, профессиональное образование, германская модель, рынок труда, система образования.

Key words: dual education, vocational education, German model, labor market, education system.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada Germaniya, Shvetsariya va Avstriya davlatlarida dual ta'lim tizimining rivojlanish xususiyatlari, imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqotda dual ta'limning mehnat bozoriga ta'siri va kelajakdagi istiqbollari ko'rib chiqiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются особенности развития, возможности и проблемы дуального образования в Германии, Швейцарии и Австрии. Исследуется влияние дуального образования на рынок труда и перспективы его развития.

SUMMARY:

This article analyzes the development characteristics, opportunities, and challenges of the dual education system in Germany, Switzerland, and Austria. The study examines the impact of dual education on the labor market and its future prospects.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dual ta'lim tizimi zamonaviy ta'lim sohasida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish, talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash va iqtisodiyotning talablariga mos kadrlar tayyorlashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida bu tizim uzoq tarixga ega bo'lib, ayniqsa Germaniya, Shvetsariya, Avstriya kabi davlatlarda yuqori natijalarga erishilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dual ta'lim nafaqat talabalarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishda, balki yoshlar ishsizligini kamaytirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, dual ta'lim tizimi davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan bo'lib, bu usul nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Ushbu yondashuv mehnat bozorining ehtiyojlariga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda



asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Ko‘plab xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dual ta‘lim tizimi joriy etilgan davlatlarda yosh mutaxassislarining bandlik darajasi an‘anaviy ta‘lim tizimiga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi.

Maqolaning maqsadi xorijiy tajribalarni tahlil qilib, ularning dual ta‘lim tizimidagi imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqotda quyidagi savollarga javob berishga harakat qilinadi:

1. Dual ta‘limning global miqyosdagi ahamiyati qanday?
2. Qaysi mamlakatlar ushbu tizimni samarali joriy qilgan?
3. Tizimning iqtisodiy va ijtimoiy ta‘siri qanday?

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik ma‘lumotlarni o‘rganish, aniq empirik dalillar asosida tadqiqotlar olib borish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Germaniya, Shvetsariya va Avstriya kabi davlatlarning dual ta‘lim tizimiga oid rasmiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va amaliy tadqiqotlar asosida tahlillar o‘tkazildi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

- **Qiyosiy tahlil** – dual ta‘lim tizimining turli mamlakatlardagi o‘ziga xos jihatlarni solishtirish va ularning samaradorligini o‘rganish.
- **Statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish** – dual ta‘lim bo‘yicha mavjud rasmiy ma‘lumotlarni o‘rganish va ular asosida ilmiy xulosalar chiqarish.
- **Holat tadqiqoti (case study)** – Germaniya, Shvetsariya va Avstriya misolida dual ta‘limning muvaffaqiyat omillari va muammolari tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar yordamida dual ta‘lim tizimining samaradorligi, uning mehnat bozoriga ta‘siri va istiqbollari chuqur o‘rganildi. Natijalar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Bu yondashuv tadqiqotning aniqligi va dalillarga asoslanganligini ta‘minlaydi.

Tahlil va natijalar. Germaniyada dual ta‘lim tizimi Germaniya dual ta‘lim tizimining global modeli sifatida tan olinadi. Bu tizim XIX asr oxirida shakllangan bo‘lib, bugungi kunda mamlakatdagi kasb-hunar ta‘limining 60% dan ortig‘ini tashkil etadi [1, 23].

Germaniyada dual ta‘lim tizimi iqtisodiyotga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatib, malakali ishchi kuchini tayyorlashga yordam beradi. Germaniya modelining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu bitiruvchilarning darhol mehnat bozoriga moslashishiga imkon beradi.



Shvetsariyada dual ta'lim tizimi Shvetsariyada dual ta'lim tizimi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari, xususan, bank ishi va farmatsevtika sohalari bilan chambarchas bog'langan [5, 30].

Ushbu tizim mamlakat mehnat bozorining innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Shvetsariyada dual ta'lim nafaqat texnik kasblarda, balki ilmiy va muhandislik yo'nalishlarida ham keng tarqalgan bo'lib, bu tizim bitiruvchilarining ishga joylashish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, korxonalarining ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi Shvetsariyada malakali kadrlar yetishtirishga katta hissa qo'shadi.

Avstriyada dual ta'lim tizimi. Avstriyada dual ta'lim tizimi Germaniya modeliga asoslangan bo'lib, mamlakatdagi professional ta'limning muhim qismini tashkil qiladi [8, 34].

Ushbu model iqtisodiy rivojlanish va ta'limning samaradorligi o'rtasidagi mustahkam bog'liqlikni ko'rsatadi. Avstriyada dual ta'lim tizimi turli sohalarni qamrab olgan bo'lib, ayniqsa xizmat ko'rsatish va texnik muhandislik yo'nalishlarida keng qo'llaniladi. Shuningdek, dual ta'lim dasturlari bitiruvchilarni amaliyot bilan bog'lab, mehnat bozori talablariga javob beruvchi mutaxassislarni tayyorlashga imkon yaratadi.

Dual ta'lim tizimi yuqori samaradorlikka ega bo'lishiga qaramay, u bilan bog'liq qator muammolar ham mavjud:

Moliyaviy muammolar: Kichik va o'rta korxonalar uchun dual ta'lim dasturlarini moliyalashtirish qiyinchilik tug'diradi [10, 120].

Ushbu muammoni hal etish uchun davlat tomonidan qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Dual ta'lim tizimi barcha ishtirokchilar uchun barqaror va manfaatli bo'lishi uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish lozim.

Nazariy va amaliy ta'lim muvozanati: Ayrim sohalarda nazariy ta'lim yetarlicha rivojlanmagan [8, 99].

Dual ta'lim tizimida nazariy va amaliy o'quv soatlarini muvozanatlashtirish zarur. Amaliy mashg'ulotlar talabalarga real kasbiy muhitni tushunish imkonini beruvchi eng samarali usul hisoblanadi.

Mehnat bozoriga moslashish: Dual tizimning barcha kasblarga moslashtirilishi qiyinchilik tug'diradi [11, 45].

Xulosa va takliflar. Dual ta'lim tizimi bugungi globallashtirish iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Germaniya, Shvetsariya va Avstriya tajribasi shuni ko'rsatadiki, dual ta'lim bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ishga joylashish darajasini oshirish va iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashda juda samarali hisoblanadi.



Ushbu tizimning muvaffaqiyatli joriy etilishi davlat, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi mustahkam hamkorlikka bog'liq.

Shuningdek, dual ta'limni rivojlantirishda texnologik innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni kengroq joriy qilish talab etiladi. Masalan, axborot texnologiyalari, muhandislik va sun'iy intellekt sohalarida dual ta'lim dasturlarini takomillashtirish zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob beruvchi mutaxassislar yetishtirish imkonini beradi. O'zbekistonda dual ta'limni moslashtirib joriy qilish orqali mehnat bozoriga raqobatbardosh va yuqori malakali ishchi kuchini yetishtirish mumkin.

O'zbekistonda dual ta'limni joriy qilishda Germaniya modelidan moslashtirilgan yondashuvlardan foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Buning uchun "Professional ta'limni rivojlantirish instituti" kabi tashkilotlarning faolligini oshirish lozim. Xorijiy mamlakatlarda dual ta'lim imkoniyatlari haqida maqola o'qib, bir nechta takliflar berish mumkin.

Birinchidan, dual ta'lim tizimi o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan birlashtirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, ish beruvchilar uchun tayyorlangan mutaxassislar sonini oshiradi. Shuning uchun, o'z mamlakatimizda ham dual ta'lim tizimini joriy etish va rivojlantirish zarur.

Ikkinchidan, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni o'z sharoitlarimizga moslashtirish muhimdir. Masalan, Germaniya va Shveysariyada dual ta'lim tizimi juda muvaffaqiyatli ishlamoqda. Ularning tajribasidan foydalangan holda, o'zimizning ta'lim tizimimizni takomillashtirishimiz mumkin.

Uchinchidan, ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatish zarur. Bu, o'quvchilarning amaliyot o'tash jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Qo'shimcha fikrlarimga kelsak, dual ta'lim tizimini joriy etishda o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish muhimdir. Shuningdek, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlardagi dual ta'lim tizimidan o'rganish va uni o'z sharoitlarimizga moslashtirish, kelajak avlodni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Schuetze H. G., Sweet R. Integrating School and Workplace Learning. Cambridge University Press, 2018.
2. Euler D. Germany's Dual Vocational Training System: A Model for Other Countries?. Bertelsmann Stiftung, 2013.
3. Rauner F. Vocational Education and Training: Challenges and Solutions. Springer, 2020.



4. Wolter S. C., Ryan P. Apprenticeship. Handbook of the Economics of Education, 2011.
5. Hoeckel, K., Schwartz, R. Learning for Jobs: OECD Reviews of Vocational Education and Training. OECD Publishing, 2010.
6. Gonon P. The Swiss Apprenticeship Model. Journal of Vocational Education & Training, 2014.
7. Busemeyer M. R. Skills and Inequality: Partisan Politics and the Political Economy of Education. Cambridge University Press, 2015.
8. Mayer K. U., Solga H. Skill Formation: Interdisciplinary and Cross-National Perspectives. Cambridge University Press, 2008.
9. Deissinger T. The German Dual System of Vocational Education and Training. Springer, 2015.
10. Pilz, M. Vocational Education and Training in Times of Economic Crisis. Springer, 2016.
11. Smith E., Kemmis, R. B. Towards a Model of VET Development. Springer, 2013.
12. Baethge M., Wolter A. The Future of Vocational Education and Training. OECD Publishing, 2015.
13. Siddiqova S.G., Saidjonova P.Sh. Xorijiy mamlakatlarning dual ta'lim tizimiga oid tajribalari. Buxoro MTI, 2024.
14. Jo'raqulova G.R. Dual ta'lim tizimining ahamiyati. Slib.uz, 2024.
15. Ignatova I.B., Pokrovskaya E.A. Teoreticheskie osnovy organizatsii dualnogo obucheniya. 2016.
16. Kershenshtayner G. Evropa pedagogikasida islohotlar. 2024.
17. Alavutdinova N., Abdurahmonova M. Ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari. 2023.



ZAMONAVIY O‘QITUVCHILARNING AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYUATLARI

Saidov J. S.

*Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish instituti tadqiqotchisi*

Tayanch so‘zlar: axborot-kommunikatsion texnologiyalari, LMS, o‘qituvchi, talaba, Virtual darslar, ta’lim.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, LMS, преподаватель, студент, виртуальные занятия, образование.

Key words: information and communication technologies, LMS, teacher, student, virtual classes, education.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada o‘qituvchi tomonida dars jarayonlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishning yutuq va kamchiliklari o‘rganilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье исследованы достижения и недостатки организации учебного процесса преподавателем на основе современных подходов.

SUMMARY:

This article explores the advantages and drawbacks of organizing the educational process by the teacher based on modern approaches.

Bugungi kunda dunyoda raqamli texnologiyalar jahon taraqqiyoti va kelajagi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu texnologiyalarni o‘rganish va ulardan foydalanishga har kuni ko‘proq insonlar qo‘shilmoqda. Zamonaviy o‘qituvchilar ham axborot kommunikatsiya texnologiyalarilardan foydalanib, o‘qitish jarayonini osonlashtirish, talabalarning o‘zlashtirish va o‘rganishini yaxshilash, o‘qitishda qulaylik va effektivlikni oshirish mumkin.


Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari dolzarb va ahamiyatlidir. Shundan kelib chiqib yurtimiz va xorij olimlari bu muammoni chuqurtalqinetishmoqda. Jumladan yurtimiz olimlari U.Begimkulov, F.Zakirova, M.Fayziyeva, A.Obidov, T.Shoymardonov, E.Buriyev, H.Begimkulov kabi bir qator olimlar sohaga doir bir qator ishlar olib borganlar.



U.Begimqulov pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishning metodik, dasturiy-texnik ta'minoti, F.Zakirova pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, M.Fayziyeva o'quv jarayoniga moslashuvchi web tizim tarkibi, mazmuni va dasturiy ta'minotini yaratish, N.Haytullayeva bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida web texnologiyalardan foydalanish, T.Shoymardonov pedagog kadrlarning malakasini oshirish jarayonlarining monitoring mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarning ilmiy-nazariy jihatlarini o'rgangan.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan bu tushunchaning yangi o'lchovlari paydo bo'ldi. Mavjud manbalar bilan tanishish va ularda keltirilgan fikrlarni tahlil qilish natijasida raqamli texnologiyalar tushunchasining ikki xil ma'noda qo'llanishi aniqlandi. Birinchidan, bu tushuncha axborotni yig'ish, tahlil qilish va uzatishga imkon beruvchi zamonaviy usul va vositalar yig'indisini anglatadi. Ikkinchidan, axborot resurslari va ularni boshqarish usullari haqidagi bilimlar manbai sifatida ushbu tushuncha axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) o'z ichiga oladi. Bu esa AKT vositalaridan samarali foydalanish, axborotni qayta ishlash, uzatish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ta'lim mazmunini tahlil qilish ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlashga e'tiborni qaratishdan avval raqamli texnologiyalar evolutsiyasini keltirib o'tishni jiz deb bildik (1-rasm).



1-rasm. Axborot texnologiyalarini rivojlantirish bosqichlari

Raqamli texnologiyalar insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti jarayonida bosqichma-bosqich shakllangan va rivojlangan.

1. Mexanik hisoblash vositalari bosqichi (XVII-XIX asrlar)

Ushbu bosqichda axborotni qayta ishlash jarayoni mexanik qurilmalar asosida amalga oshirilgan bo'lib, bu vositalarning ilmiy asoslari matematika va mexanika fanlari taraqqiyoti bilan bog'liq. Blez



Paskal tomonidan ixtiro qilingan mexanik hisoblash mashinasi - “Paskalina” va G.V.Leybnits tomonidan ishlab chiqilgan hisoblash moslamasi ilk mexanik kompyuterlarning dastlabki namunalaridan hisoblanadi. XIX asrda Charlz Bebbij tomonidan taklif qilingan “Analitik mashina” konsepsiyasi algoritmik boshqaruv printsiplarini joriy etish imkonini yaratgan va zamonaviy hisoblash texnikasining nazariy asoslarini belgilagan.

2. Elektromexanik hisoblash tizimlari bosqichi (XIX asr oxiri - 1940-yillar)

Bu davrda hisoblash texnologiyalari elektromexanik qurilmalar bilan rivojlantirilib, ulardan statistik ma'lumotlarni qayta ishlashda foydalanilgan.

1890-yilda Xerman Xollerit tomonidan ishlab chiqilgan teshikli kartalar asosidagi elektromexanik hisoblash mashinasi ma'lumotlarni kodlash va avtomatlashtirilgan qayta ishlash tamoyillarini shakllantirishda muhim bosqich bo'ldi. Elektromexanik kalkulyatorlar esa raqamli hisob-kitoblarni yanada samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

3. Elektron hisoblash mashinalari (EHM) bosqichi (1940-1970-yillar)

Ushbu bosqich AKT rivojlanishida tub burilish davri bo'lib, birinchi elektron hisoblash mashinalari (EHM)ning yaratilishi bilan bog'liq. 1941-yilda Konrad Zuze tomonidan ishlab chiqilgan Z3 hisoblash mashinasi va 1946-yilda AQShda ishlab chiqarilgan ENIAC (Electronic Numerical Integrator and Computer) birinchi to'liq elektron kompyuter sifatida tarixga kirdi. Ushbu davrda:

birinchi avlod EHM (1950-yillar) - elektron lampalar asosida ishlovchi hisoblash tizimlari;

ikkinchi avlod EHM (1960-yillar) - tranzistorlar asosida ishlab chiqilgan, energiya samaradorligi yuqori bo'lgan qurilmalar joriy etildi.

4. Mikroprotessorlar va shaxsiy kompyuterlar bosqichi (1970-1990-yillar)

1971-yilda Intel tomonidan yaratilgan 4004 mikroprotessori kompyuter texnologiyalarining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu innovatsiya hisoblash texnikasining miniatyurizatsiyasi va samaradorligini oshirish imkonini yaratdi.

1980-yillarda IBM PC va Apple Macintosh kabi shaxsiy kompyuterlarning ommaviy ishlab chiqarilishi AKTning keng jamoatchilik uchun qulay bo'lishini ta'minladi. Shu bilan birga dasturiy ta'minot sohasi ham jadal rivojlandi, foydalanuvchi interfeyslariga ega operatsion tizimlar (MS-DOS, Windows, Mac OS) yaratildi.

5. Internet va mobil texnologiyalar bosqichi (1990-2000-yillar)

Bu davr AKT sohasida global tarmoq infratuzilmasining rivojlanishi bilan ajralib turadi. 1989-yilda Tim Berners-Li tomonidan Jahon Internet Tarmog'i (WWW) konsepsiyasi ishlab chiqildi, natijada global axborot almashinuvi imkoniyatlari kengaydi. 1990-yillardan boshlab:



internet texnologiyalarining keng tarqalishi;
elektron pochta, veb-brauzerlar va global axborot resurslarining rivojlanishi;
mobil telefon texnologiyalarining rivojlanishi (2G, 3G aloqa standartlari)
kuzatildi.

2000-yillarga kelib esa Internet tarmog‘i mobil aloqa bilan integratsiyalashdi, bu esa AKTning kundalik hayotga chuqur singib ketishiga sabab bo‘ldi.

Shu o‘rinda pedagogik texnologiyalarning aksariyati axborotlarni yig‘ish va uzatishga xizmat qilishi haqida ham ta’kidlab o‘tish lozim. O‘quv-tarbiya jarayoni pedagog va talaba o‘rtasida o‘zaro axborot almashinishi asosida tashkil etiladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida keng qo‘llanilayotgan raqamli texnologiyalar tushunchasi, asosan, ta’lim-tarbiya jarayonida axborotlar bilan ishlashni takomillashtirish maqsadida innovatsion usullar, dasturiy ta’minot va ilg‘or texnologiyalarning qo‘llanilishini anglatadi. Bunga, xususan, sun‘iy intellekt, o‘quv simulyatsiyalari, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari kiradi. Ushbu texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirish, individual yondashuvni kuchaytirish hamda interaktiv o‘qitish usullarini rivojlantirish imkonini beradi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘qituvchilar uchun foydali imkoniyatlaridan ba’zi qismlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

Virtual darslar: axborot kommunikatsiya texnologiyalarining bir qismi, masalan, Zoom, Microsoft Teams, Google Meet kabi virtual kommunikatsiya platformalari orqali onlayn darslarni tashkil etishga imkon beradi. Bu, o‘qituvchilar uchun o‘zlarining ko‘p talabalar bilan bir vaqtda bog‘liq bo‘lib, ularni o‘z vaqtlarida o‘qitishga imkon beradi.

Talabalarining ilgari: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, o‘qituvchilarga talabalar bilan aloqada bo‘lish va ularga qulaylik qilish imkonini beradi. Masalan, e-mail orqali yoki telegramm orqali savollarga javob berish, onlayn testlarni tashkil etish, dars dasturlarini va boshqa elektron resurslarni talabalar uchun osonlik bilan taqdim etish kabi imkoniyatlar.

Interaktivlik: axborot kommunikatsiya texnologiyalari, o‘qituvchilar uchun o‘quv jarayonida interaktivlik va kooperativlik yaratishga imkon beradi. Masalan, veb-saytlarda o‘qituvchilar talabalarga javoblar berish, online chat orqali talabalar bilan muloqot qilish, onlayn ijro materiallarini o‘zlashtirish kabi imkoniyatlar.

O‘qitish dasturi: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, o‘qituvchilar uchun bir qancha o‘qitish dasturlari tayyorlashga imkon beradi. Masalan, PowerPoint va Prezi kabi dasturlar orqali ochiq darslarni tashkil etish, videolarni o‘zlashtirish, o‘qitish kurslarini tayyorlash kabi imkoniyatlar.



О'qitishni baholash: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, o'qituvchilar uchun o'qitish jarayonida baholash va talabalar bilan monitoring qilishga imkon beradi. Masalan, LMS (Learning Management System) dasturlari orqali talabalarni baholash, savollarga javob berish.

Hozirgi kunda eng qimmatbaho manba bu ma'lumotdir, eng almashtirib bo'lmaydigan vaqt esa zamonaviy insonga juda yetishmayapti. Albatta, hayot sur'atlarining oshishi, vaqtning tezlashib borishi yosh avlodni tarbiyalash va o'qitishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy o'qituvchi o'zi o'qitmoqchi bo'lgan bolalar 21-asrda tug'ilib, o'qishga kelganligini aniq tushunishi kerak, demak, ular 80-90-yillardagi bolalar avlodlariga qaraganda butunlay boshqa axborot makonida o'sgan va shakllangan. Shubhasizki, kompyuter sevimli mashg'ulotga, o'quvchi hayotining ajralmas xususiyatiga, ba'zan esa, afsuski, eng yaxshi do'stga aylanadi.

Kompyuter texnologiyalari asri tobora kuchayib bormoqda va ehtimol, ular o'zlarining dasturlarini topa olmaydigan inson faoliyatining biron bir sohasi yo'q. Zamonaviy o'qituvchi o'z o'quvchilaridan orqada qolishi aqlga sig'maydi, shuning uchun doimo tinimsiz o'qish, zamon bilan hamnafas bo'lish, yangi texnologiyalar, o'qitish usullari va shakllarini o'zlashtirish kerak. Pedagogik texnologiyalar kompyuterlashtirishning umumiy jarayonidan chetda qolmadi.

Ta'limni modernizatsiyalash strategiyasida barcha darajalarda o'qitish uslublari va texnologiyalarini o'zgartirish, axborotni tahlil qilish, o'z-o'zini o'rganish, o'quvchilarning mustaqil ishlarini rag'batlantirish, mas'uliyatli tanlov va mas'uliyatli faoliyat tajribasini shakllantirishning amaliy ko'nikmalarini shakllantiradiganlarning og'irligini oshirish zarurligi ta'kidlangan. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida qurilgan talabalarga yo'naltirilgan ta'limga ehtiyoj bor edi.

Ushbu muammo o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. Uning paydo bo'lishi sharti o'quvchilarining axborot-kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishning past darajasi, talaba shaxsini shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan salbiy ma'lumotlarning katta oqimi, shuningdek, kerakli, foydali ma'lumotlarni topish, qayta ishlash va ulardan foydalana olmaslik edi. Shu munosabat bilan men o'z oldimga maqsad qo'ydim darslarda o'quvchilarning axborot-kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish.

Ushbu maqsadning dolzarbligi AKTning asosiy vakolatlarini shakllantirishga asoslangan kasbiy faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha eng keng talabga bog'liq. Albatta, ularning shakllanishi uchun javobgarlik yotadi, zamonaviy maktab.. Bu kelajakdagi bitiruvchilarimizning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining shartlaridan biridir. Ammo bu borada yana bir muammo



paydo bo'ladi - axloq va insonparvarlik muammosi, insonning o'ziga xosligini saqlash. O'quvchilarining yangi tafakkuri uchun eng yaxshi yo'lni shakllantiradi, bunda axloq, axloq va huquq muammolari kuchli salbiy oqimlar soyasida qolmaydi.

Zamonaviy o'qituvchining ish tizimi, mening fikrimcha, federal davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshirish shartlariga qo'yiladigan talablar bilan shartlangan bo'lishi kerak.

"Rossiya Federatsiyasida 2020 yilgacha ta'limni rivojlantirish strategiyasi" ta'limni rivojlantirishning asosiy strategik maqsadi - hayot sifatini saqlab qolish orqali barqaror yaxshilanishni ta'minlashga qodir shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish talabalarning bilim olish sifatini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatdir.

Yangi axborot texnologiyalari va dasturiy vositalar o'qituvchiga quyidagi vazifalarni yanada samarali hal qilishda yordam beradi:

- talabalarning mustaqilligi va samaradorligini rag'batlantirish, ularning shaxsiyatini rivojlantirishga yordam berish;
- o'quvchilari uchun individual mashg'ulotlarni tashkil etish;
- qobiliyatli va g'ayratli talabalar hamda etarli darajada tayyor bo'lmagan talabalarning ta'lim ehtiyojlarini to'liq qondirish.

Maqsad bunday ishlar AKT vositalaridan foydalanishning izchilligiga, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining to'liq to'plamiga va rus tili va adabiyotini o'qitish uchun mo'ljallangan o'quv vositalariga asosiy umumiy va o'rta (to'liq) umumiy ta'lim davlat ta'lim standartlarining federal qismiga muvofiq ravishda erishishdir.

Qanday vazifalar maqsadga erishishga qaror qilish:

- bilimlarni mustaqil ravishda egallash va uzatish, hamkorlik va aloqa, muammolarni echish va o'zini o'zi tashkil etish, mulohaza va qadriyat-semantik yo'nalishlarni shakllantirish jarayoni samaradorligini oshirish;
- talabalarning AKT vakolatlarini shakllantirish va baholash;
- o'qituvchilarning AKT vakolatlarini va uslubiy tayyorgarligini oshirish;
- ta'lim jarayonida AKT dan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish;
- internet-resurslarning dasturiy va uslubiy materiallarini tizimlashtirish va ularni rus tilining maktab boshlang'ich kursi bilan sinxronlashtirish;
- yangi kompyuter dasturiy mahsulotlarini yaratish;
- maktab tajribasini umumlashtirish va tarqatish orqali maktabni butun jaxon ta'lim muhitiga kiritish.



Men darslarimda har xillaridan foydalanaman. Darslik bola va o'qituvchi uchun eng tanish vosita va yordamchidir, uni varaqlash, his qilish va u bilan odam kabi muloqat qilish mumkin, ammo AKT texnologiyalari qo'shimcha ta'lim imkoniyatlari. Shuning uchun AKT va darslik - bir butun... AKT yordamida axborot-kommunikatsiya predmet muhiti o'rtasida axborotning o'zaro ta'siri kuchayadi, natijada o'qitishning samaraliroq modelini shakllantirishga erishiladi. Darsda AKT texnologiyalaridan foydalanish zarur - bu vaqt talabidir, bu darsni diversifikatsiya qiladi, uning zichligini oshirishga va o'quvchilarning ishini faollashtirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok... diss. avtoref. – T., 2007. – 42 b.
2. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовка будущих преподавателей информатика в педагогических вузах: Автореф. дисс. док. пед. наук. – Т., 2008 – 42 с
3. Fayziyeva M.R. O'quv jarayoniga moslashuvchi web tizimlarni yaratish: Ped. fan.fal. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 48 b.
4. Haytullayeva N.S. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida web-texnologiyalardan foydalanish: Ped. fan.fal. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017.
5. Shoymardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi: Ped. fan.fal. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 48 b.



KREATIV YONDASHUVNING DOLZARBLIGI

Yakubova M. Yu.

CHDPU, "Texnologik ta'lim"
kafedrasi, p.f.f.d. (PhD), dots. v.b.

Tayanch so'zlar: kreativlik, iqtidorlilik, modernizatsiya, texnologiya, pedagogik kreativlik, kreativ qobiliyat, kasbiy innovatsion kompetentlik, innovatsion ta'lim texnologiyalari.

Ключевые слова: творчество, талант, модернизация, технология, педагогическое творчество, творческие способности, профессиональная инновационная компетентность, инновационные образовательные технологии.

Key words: creativity, talent, modernization, technology, pedagogical creativity, creative abilities, professional innovative competence, innovative educational technologies.

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада таълим тарбия ишларига креатив ёндашувнинг аҳамияти тўғрисида сўз юритилади.

РЕЗЮМЕ:

В этой статье говорится о важности творческого подхода к образовательной работе.

SUMMARY:

This article discusses the importance of a creative approach to educational work.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishning muhim omili sifatida ta'lim oluvchilarning faolligi, ijodkorligi, tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirilgan pedagogik eksperimentlarni loyihalash, tashkil etish va o'tkazishning zamonaviy shakl va metodlaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi bugungi zamon talablari asosida ta'lim tizimini isloh qilish, pedagogika sohasida ilg'or innovatsiyalar, ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilishi va ularni keng joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga



muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu sababli bo'lajak mutaxassislarning pedagogik muammolarni qiyosiy taqqoslash, tanqidiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'qitish metodlarining optimal variantlarini tanlash asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish orqali pedagogning kreativlik potentsiali darajasini oshirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

Ta'lim sifatini ta'minlash - bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rinadi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov mazkur muammoning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy ahamiyatini “Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga katta zarurat sezila boshladi” deb asoslaydi [1].

Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-uslubiy faoliyat mazmunini takomillashtirish, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi.

Ta'limni modernizatsiyalashdan maqsad ta'limning taraqqiyotini ta'minlash, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari, har bir shaxsning va oilaning ehtiyojlari aks etishi lozim. Bunday taraqqiyot tizimini yaratish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- davlat tomonidan to'liq ta'lim olish huquqini ta'minlanishi;
- ta'lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy ta'lim sifatini ta'minlash;



- ta'limning xuquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni yangi resurslarini aniqlash va jalb etish;
- pedagog kadrlarning kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish va rag'batlantirish;
- ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy tajribalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini keng joriy etish;
- fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi konsorsiumni rivojlantirish;
- uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning kreativ ko'nikmalarini, intellektual sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish va boshqalar.

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik so'zi (inglizcha “kreare” – yaratuvchanlik, ijodkorlik) so'zidan olingan bo'lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo'lgan qobiliyati, ijodkorlik iste'dod darajasi, individning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo'lgan, prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir [2].

Kreativ shaxs bo'lish, bizning misolimizda esa, kreativ o'qituvchi bo'lish – bugungi ta'limiy faoliyatda fzalliklarga ega bo'lish, masalan, boshqa o'qituvchilar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo'lish, ta'limda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy tarzda chiqib ketish demakdir.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Kreativlik axborotni yodda saqlash va faktlarni yig'ishga asoslanganligi tufayli an'anaviy ta'lim sistemasi har doim ham o'qitishda kreativ yondoshuvga asos bo'la olmaydi. Bu holat shaxsga yo'naltirilgan ta'limning, xususan talabani kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga qodir emas. Kundalik hayot tarzi ko'pincha shaxsning kreativ xususiyatlarining pasayishiga sabab bo'ladi. Shu tufayli, kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi uchun faqat maxsus tashkil qilingan muhit bo'lishi lozim [3].

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati pedagogning




kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'lai. Ular quyidagilardir (1-rasm):



1-rasm. Pedagogik kreativlikning asosiy shakllari.

Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog'liq bo'ladi.



Pedagoglar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo'lishlari zarur:

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;
- 7) izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar;
- 8) texnik-texnologik malakalar

Pedagogning kreativlik potentsiali. Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, talabalar ham shunday bo'la oladi.

O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Mashg'ulotlarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi to'rtta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi:

- 1) ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
- 2) talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natija [2].

Kreativlik potentsialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari. Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.



Torrens bolalar kreativligini shakllantirish dasturini, “yosh bolalardan kattalargacha” kreativlikni aniqlash testlarini yaratdi.

Umuman olganda, kreativlik – bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Kreativ tafakkur esa revolyusion tafakkur bo'lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi.

E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik o'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilgan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. Muallifning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- 1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;
- 2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish [2]

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, o'qitishga kreativ yondashuv masalasi bu pedagogik jarayonni shaxs imkoniyatlariga yo'naltirilgan holda tashkil etish, ta'lim oluvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashiga imkon beruvchi zaruriy o'qitish texnologiyalarini tanlash va amalga oshirishda, shuningdek, o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligi bilan asoslanadigan o'qitishga nisbatan zamonaviy yondashuv shakllaridan sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011.-B.15-16
2. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. - Scholastic Testing Service, Inc., 2004.
- 3.David Watson. The Question of Conscience Higher education and personal responsibility. Oxford, Institute of Education Press. 2014.



TA'LIMDA EMPATIYANI SHAKLLANTIRISH

Matyakubov K.K.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Texnologik ta'lim kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchisi

Tayanch so'zlar: empatiya, ta'lim, neyropedagogika, ijtimoiy integratsiya, hissiyotlar, pedagogik usullar, axloqiy rivojlanish, rolli o'yinlar, ijtimoiy ta'lim, refleksiv mashqlar, psixologik muhit.

Ключевые слова: эмпатия, образование, нейрпедагогика, социальная интеграция, эмоции, педагогические методы, нравственное развитие, ролевые игры, социальное воспитание, рефлексивные упражнения, психологическая среда.

Key words: empathy, education, neuropedagogy, social integration, emotions, pedagogical methods, moral development, role-playing games, social education, reflexive exercises, psychological environment.

РЕЗЮМЕ:

Maqola ta'lim jarayonida o'quvchilarda empatiyani shakllantirishning ahamiyati, usullari va neyropedagogik asoslariga bag'ishlangan. Empatiya boshqalarning his-tuyg'ulari va nuqtai nazarlarini tushunish, ularga mos munosabatda bo'lish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. U o'quvchilarning ijtimoiy integratsiyasi, axloqiy va hissiy rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Maqolada empatiyani rivojlantirishning neyrobiologik asoslari, pedagogik usullari (tug'ri muloqot, rolli o'yinlar, hissiyotlar bilan ishlash, ijtimoiy ta'lim, refleksiv mashqlar) va bu jarayondagi muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lim tizimini yaxshilash va pedagoglar uchun maxsus treninglar tashkil qilish zarurligi ta'kidlanadi. Maqola ta'limda ijobiy psixologik muhit yaratish va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashda empatiyaning rolini ta'kidlaydi.

РЕЗЮМЕ:

Статья посвящена значению, методам и нейрпедагогическим основам развития эмпатии у студентов в образовательном процессе. Эмпатия определяется как способность понимать чувства и точки зрения других людей и адекватно на них реагировать. Это важно для социальной интеграции, морального и эмоционального развития учащихся. В статье рассматриваются нейробиологические основы развития эмпатии, педагогические методы (правильная коммуникация, ролевые игры, работа с эмоциями, социальное обучение, рефлексивные упражнения), а также проблемы в этом процессе. В нем также подчеркивается необходимость совершенствования системы образования и организации специальной подготовки учителей. В статье подчеркивается роль эмпатии в создании позитивной психологической среды в образовании и улучшении социальных отношений.

SUMMARY:

The article is devoted to the importance, methods and neuropedagogical foundations of the formation of empathy in students in the educational process. Empathy is defined as the ability to understand the feelings and points of view of others, to respond to them appropriately. It is



important for the social integration, moral and emotional development of students. The article considers the neurobiological foundations of the development of empathy, pedagogical methods (correct communication, role-playing games, working with emotions, social education, reflexive exercises) and problems in this process. It also emphasizes the need to improve the education system and organize special trainings for teachers. The article emphasizes the role of empathy in creating a positive psychological environment in education and improving social relations.

Kirish. Ta'limda empatiyaning shakllantirish. Ta'lim jarayonida empatiyaning shakllantirish, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi uchun muhimdir. Empatiya - bu boshqalarning hissiyotlari va nuqtai nazarlarini tushunish va ularga munosabatda bo'lish qobiliyatidir. Shuningdek, empatiya o'z-o'zini tushunish, boshqalarga xursandchilik va qayg'u hissining singdirishga yordam beradi. Empatiyaning shakllantirish ta'limda yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini, axloqiy va hissiy rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu tezisda ta'limda empatiyaning shakllantirishning ahamiyati, asosiy prinsiplari va metodlari ko'rib chiqiladi.

Empatiyaning ma'nosi va ahamiyati. Empatiya - bu boshqalarning ichki hissiyotlarini, ta'riflarini va holatlarini tushunish va ularga munosib munosabatda bo'lish qobiliyatidir. Psixologiyada empatiya, o'z navbatida, bir nechta darajada bo'ladi: ba'zida bu faqat boshqalarning boshiga kelgan voqealarni his qilish, ba'zida esa ularning ma'naviy va emotsional holatlarini to'liq tushunishni talab etadi. Bu qobiliyat jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va muloqotlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda muhimdir.

Materiallarni olish texnologiyasi va tadqiqot usuli. Ta'limda empatiyaning shakllantirishning asosiy maqsadi yoshlarning axloqiy qadriyatlarga, turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro hurmatga, bo'lgan mehr-muhabbatga va yoshlarning ijtimoiy hayotga integratsiyalanishiga yordam berishdir. Empatiyaning tarbiyalash, ta'lim jarayonida o'quvchilarga o'zaro tushunish va yordam berish imkonini yaratadi. Shuningdek, empatiya ta'limda ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga, konfliktlarni samarali hal qilishga va o'quvchilar o'rtasida yordamlashishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limda empatiyaning shakllantirish o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Empatiya – bu boshqalarning his-tuyg'ulari, nuqtai nazarlari va holatlarini tushunish hamda ularga mos munosabatda bo'lish qobiliyatidir. Bu jarayon o'quvchilarda o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Quyida ta'limda empatiyaning shakllantirish bo'yicha qisqacha ma'lumot keltiriladi.

Empatiya ta'limda o'quvchilar o'rtasida ijobiy psixologik muhit yaratish, konfliktlarni samarali hal qilish va hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol



o'ynaydi. U o'quvchilarni turli madaniyatlar va shaxslarga hurmat bilan yondashishga, boshqalarga yordam berishga va ijtimoiy hayotga moslashishga o'rgatadi. Masalan, empatiya orqali o'quvchilar sinfdoshlarining muammolarini tushunib, ularga ko'maklashishga intiladi.

Empatiyani shakllantirishning neyropedagogik asoslari miyaning hissiyotlarni boshqaruvchi sohalari, xususan, limbik tizim va prefrontall qobiq faoliyatiga bog'liq. Bu tizimlar his-tuyg'ularni idrok etish va boshqalarning holatiga mos javob qaytarishda ishtirok etadi. Ta'limda ushbu asoslardan foydalanib, o'quvchilarda hissiy xabardorlik va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Eksperimental natijalar va ularning muhokamasi. Empatiyani rivojlantirish uchun bir qator pedagogik usullar qo'llaniladi:

- **Tug'ri muloqot:** O'qituvchining ochiq va samimiy muloqoti o'quvchilarda ishonchli muhit yaratadi, ularning his-tuyg'ularini ifoda etishiga yordam beradi.
- **Rolli o'yinlar:** O'quvchilar boshqa shaxslarning o'rnida bo'lib, ularning his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini tushunishga o'rganadi.
- **Hissiyotlar bilan ishlash:** Psixologik mashqlar va muhokamalar orqali o'quvchilar o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini idrok etishni o'rganadi.
- **Ijtimoiy ta'lim:** Guruh ishlari va hamkorlik loyihalari orqali o'quvchilar bir-biriga yordam berish va empatiyani rivojlantiradi.
- **Refleksiv mashqlar:** Kundalik yozuvlar yoki o'z his-tuyg'ularini tahlil qilish o'quvchilarda hissiy xabardorlikni oshiradi.

Ammo empatiyani shakllantirishda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud. Masalan, standartlashtirilgan testlar va qattiq o'quv dasturlari o'quvchilarning shaxsiy his-tuyg'ulariga e'tibor berishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, o'qituvchilarning bu borada maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmasligi jarayonni qiyinlashtiradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilarga maxsus treninglar tashkil qilish va ta'lim dasturlarini moslashtirish zarur.

Natijada, empatiya ta'limda nafaqat o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni mehribon, mas'uliyatli va boshqalarga hurmat bilan yondashadigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Empatiyani shakllantirishning neyropedagogik asoslari. Neyropedagogika ta'lim jarayonida insonning neyrobiologik va psixologik jarayonlarini o'rganadi. Empatiya ham miyaning ko'plab hududlari, shu jumladan, limbik tizim va prefrontal qo'shalik tomonlaridan boshqariladi. Limbik tizim insonning emotsiyalari va hissiyotlari bilan bog'liq bo'lib, empatiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Miyada empatiya bilan bog'liq



bo'lgan yangilanish va o'quvchilarda turli hissiyotlar haqidagi tushunchalarning shakllanishi, ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Empatiyani rivojlantirishning neyrobiologik asoslari shundan iboratki, miyaning turli qismlari, masalan, prefrontal qo'shalik, o'z hissiyotlarimizni boshqarish va boshqalarga xursandchilik yoki qayg'u ko'rsatish kabi jarayonlarni nazorat qiladi. Ta'limda neyropedagogik yondoshuvlarni qo'llash orqali, o'quvchilarda empatiyaning shakllantirish va o'z hissiyotlarini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Empatiyani shakllantirish usullari. Ta'lim jarayonida empatiyaning shakllantirish uchun pedagoglar turli usullardan foydalanishlari mumkin. Bu usullar, birinchi navbatda, o'quvchilarga boshqalarning hissiyotlariga va ehtiyojlariga bo'lgan sezgirlikni rivojlantirishga qaratilgan. Quyidagi pedagogik usullar empatiyaning shakllantirishda muhim ahamiyatga ega:

1. **To'g'ri muloqot va ishonchli muhit yaratish.** Oquvchilar bilan to'g'ri, ochiq va samimiy muloqot olib borish empatiyaning shakllantirishga yordam beradi. Bunda o'qituvchining faol rolini o'ynashining ahamiyati katta. To'g'ri muloqot o'quvchilarga o'z hissiyotlarini yozib chiqishga va ularga samarali ishonchli munosabatda bo'lishga imkon beradi. Shuningdek, o'qituvchining yordami bilan o'quvchilarda o'zaro hurmat va ishonchli muhit shakllanadi.

2. **Rolling o'yinlar va dramatik tajribalar.** Rolling o'yinlar va dramatik tajribalar o'quvchilarga boshqalarning emotsiyalarini his qilishga va ularga empatik munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bu o'yinlar orqali o'quvchilar boshqalarning nuqtai nazarini tushunishga, ularning hissiyotlari va ehtiyojlariga diqqat bilan qarashga o'rganadilar.

3. **Hissiyotlar bilan ishlash.** Oquvchilarga o'zlarining va boshqalarning hissiyotlarini tushunish va qabul qilishni o'rgatish empatiyaning shakllantirishning muhim qismi hisoblanadi. Psixologik mashqlar, esseler yoki maxsus muhokamalar orqali o'quvchilar o'z hissiyotlarini tushunishga va ularni boshqalar bilan mo'jarosiz bo'lishga o'rganadilar.

4. **Ijtimoiy ta'lim.** Ijtimoiy ta'lim usullari orqali o'quvchilarga boshqalarga yordam berish, empatiyaning tushunish va ijtimoiy mas'uliyatni qabul qilishni o'rgatish mumkin. Bu usul, o'quvchilarga hamkorlikda ishlash va boshqalarga o'z hissiyotini bildirishda o'zaro o'rganishga yordam beradi.

5. **Kundalik refleksiv mashqlar.** Oquvchilarga kundalik refleksiv mashqlar olib borish va o'z hissiyotlarini yozib chiqish orqali empatiyaning shakllantirish imkonini yaratish mumkin. Bu mashqlar orqali o'quvchilar o'z emotsiyalarini tanishga va ularga hissiyotlarini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadilar.



Empatiyani shakllantirishdagi muammolar. Ta'limda empatiyani shakllantirish jarayonida ba'zi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Birinchi muammo, ta'limdagi katta miqdordagi testlar va standartlashtirish jarayonlari bo'lishi mumkin. Bunday o'qitish usullari ko'pincha o'quvchilarning shaxsiy hissiyotlarini aniqlash va boshqalarning ehtiyojlarini tushunishga to'sqinlik qiladi.

Ikkinchi muammo, o'qituvchilarning empatiyani shakllantirishga qaratilgan tajribasining yetishmasligi bo'lishi mumkin. Bunda pedagoglarga emotsional ta'lim va empatiyani rivojlantirishda maxsus treninglar va metodikalar bo'yicha ta'lim berish zarur.

Xulosa. Ta'limda empatiyani shakllantirish, o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhimdir. Empatiya, o'quvchilarga boshqalarning hissiyotlarini tushunish, o'zaro hurmat va muhabbatni shakllantirish, hamda ijtimoiy muhitga integratsiyalanishga yordam beradi. Neyropedagogik asoslar va pedagogik usullar orqali empatiyani tarbiyalash ta'limda ijobiy muhit yaratishga va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Bu jarayondagi muammolarni hal qilish uchun ta'lim tizimini yanada yaxshilash, pedagoglar uchun maxsus treninglar tashkil qilish va o'quvchilarga empatiyani shakllantirishda samarali metodlar ishlab chiqish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Golman D. (1995). Emotsional intellekt: Pochemu on mojet znachit bolshe, chem IQ. M.: Mif.
2. Goulman D. (2006). Emotsionalnaya gramotnost: Kak razvit emotsionalnyy intellekt i nauchitsya spravlyatsya s emotsiyami. - M.: AST.
3. Rozenblat A. M. (2010). Neyropedagogika: Teoriya i praktika. - SPb.: Piter.
4. Djekson P. (2014). Neyropedagogika v obrazovanii. - M.: Intellektualnaya literatura.
5. Lazarev A. V. (2007). Psixologiya emotsiy i chuvstva v obrazovatelnom protsesse. - M.: Akademicheskii projekt.
6. Zimbardo P. (2007). Psixologiya i lichnost.
7. Sheremet O. V. (2012). Neyropedagogika



BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA INTERFAOL O‘QITISH METODLARI VA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Yo‘ldoshev M.N.

tayanch doktorant

Buxoro davlat texnika universiteti

Tayanch so‘zlar: kasbiy kompetensiyalar, zamonaviy texnologiyalar, texnik ko‘nikmalar, faol o‘qitish metodlari, loyiha asosida o‘qitish, virtual laboratoriyalar.

Ключевые слова: профессиональные компетенции, современные технологии, технические навыки, активные методы обучения, обучение на основе проектов, виртуальные лаборатории.

Key words: professional competencies, modern technologies, technical skills, active teaching methods, project-based learning, virtual laboratories.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada interfaol o‘qitish metodlari, jumladan, loyiha asosida ta’lim, muammoli ta’lim, simulyatsiya va virtual laboratoriyalar, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarining muhandislik ta’limidagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, raqamli ta’lim platformalari, dasturiy ta’minotdan foydalangan holda muhandislik fanlarini o‘qitish va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется роль и эффективность интерактивных методов обучения, включая проектное обучение, проблемное обучение, симуляцию и виртуальные лаборатории, а также технологии совместного обучения в инженерном образовании. Рассматривается использование современных технологий, включая цифровые образовательные платформы и программное обеспечение, для преподавания инженерных дисциплин и организации практических занятий, а также даются рекомендации по их применению.

SUMMARY:

This article analyzes the role and effectiveness of interactive teaching methods, including project-based learning, problem-based learning, simulation, virtual laboratories, and collaborative learning technologies in engineering education. It also provides recommendations for teaching engineering disciplines and organizing practical training using modern technologies, such as digital learning platforms and software tools.



Zamonaviy texnologiyalar va global raqobat muhitida muhandislik sohasidagi talablar tobora murakkablashib, yangilanib bormoqda. Bugungi kunda muhandislik ta'limi nafaqat an'anaviy bilimlarni yetkazish, balki talabalarning kreativ fikrlash qobiliyati, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish, ko'p funksiyali texnologiyalar bilan ishlash kabi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni talab qiladi. Bunda muhim omil sifatida faol o'qitish metodlari va zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra mamlakatdagi oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda bo'lajak muhandis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

An'anaviy darslik-markazli yondashuvlar ko'p hollarda talabalarni amaliy muammolarni hal qilish, loyihalarni boshqarish yoki jamoaviy ishlashga tayyorlay olmaydi. Shu sababli, ta'lim jarayonida loyiha asosida o'qitish (PBL), flipped classroom- bu usulda talabalar yangi mavzuni mustaqil ravishda (videodarslar, maqolalar va boshqa resurslar orqali) o'rganadilar, dars vaqtida esa amaliy mashg'ulotlar, muhokamalar va muammolarni hal qilish bilan shug'ullanadilar, simulyatsion mashg'ulotlar kabi interfaol metodlarni qo'llash orqali talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyati va kasbiy tajribasi shakllantiriladi. Masalan, real sanoat loyihalarida ishtirok etish, virtual laboratoriyalarda eksperimentlar o'tkazish yoki sun'iy intellekt asosidagi tizimlar bilan ishlash talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy kontekstda qo'llash imkoniyatini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), ma'lumotlar tahlili (Big Data), robototexnika kabi sohalar muhandislik



ta'limini tubdan o'zgartirishga imkon yaratadi. Buning natijasida talabalar sanoat 4.0 talablariga mos keladigan raqamli kompetensiyalar (masalan, CAD/CAM dasturlari, IoT platformalari)ni egallaydi, shuningdek, global hamjamiyatlar bilan hamkorlik qilish qobiliyatini oshiradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda faol metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, ularni ta'lim tizimiga tatbiq etishning istiqbolli yo'nalishlarini taklif etishdir. Asosiy e'tibor nazariya bilan amaliyot integratsiyasi, talabalarning shaxsiy rivojlanishi va raqamli innovatsiyalarning pedagogik potentsialiga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda muhandislik ta'limida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini tahlil qilish va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilg'or usullardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik tadqiqot usullari, tajriba-sinov ishlari, empirik va nazariy tahlil usullari tashkil etdi.

Nazariy tahlil. Muhandislik ta'limining rivojlanish tendensiyalari, ilg'or pedagogik texnologiyalar va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha ilmiy-adabiy manbalar o'rganildi. Muhandislik sohasida faol o'qitish metodlarini qo'llash bo'yicha ilgari olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinib, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlab chiqildi.

Empirik tadqiqot. Tadqiqot jarayonida texnika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Ularning muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishda faol o'qitish metodlarining samaradorligi kuzatildi. Shu bilan birga, talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar va intervyular tashkil qilinib, o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha fikr-mulohazalar olindi.

Tajriba-sinov ishlari. Tadqiqot doirasida muhandislik fanlarini o'qitishda loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning), muammoli ta'lim (Problem-Based Learning), teskari sinf (Flipped Classroom) va virtual laboratoriyalar kabi ilg'or texnologiyalarni sinovdan o'tkazish amalga oshirildi. Eksperimental guruh va nazorat guruhi o'rtasidagi ta'lim natijalari taqqoslanib, faol o'qitish metodlarining samaradorligi tahlil qilindi.

Statistik tahlil. Olingan natijalar asosida statistik ishlov berish amalga oshirildi. Mazkur tahlil muhandislik fanlarini o'qitishda faol metodlarni qo'llashning ijobiy ta'sirini isbotlashga xizmat qildi. Natijalar grafik va jadvallar shaklida tasvirlanib, tadqiqotning ilmiy asoslanganligi ta'minlandi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida talabalar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o talabalarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish,



shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin amaliy mashg'ulotlar soni ko'pligi, talabalar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. Shu maqsadda quyidagi jadvalni keltiramiz:

An'anaviy hamda interfaol metod orasidagi ayrim farqlar

1-jadval

№	Asosiy tushunchalar	An'anaviy metod	Interfaol metod
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
2	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish.



3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	Talabalarining mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	Talabalar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	Talabalarining vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi talabalarining mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
9	Talabalardan talab qilinadigan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, talabalar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol. Muloqot shakllari: o'qituvchi-guruh; o'qituvchi-talaba; talaba-talaba; talaba-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi;	O'qituvchi ham, talabalar ham har tomonlama faol. Hamkorlik, ham ijodkorlik shakllari: o'qituvchi-talaba; talaba - talaba; talaba -kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; talaba -o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
10	Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar.	Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar.



11	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, davra suhbat, bahs, munozara, konsultatsiya va boshqalar.	Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar va boshqalar.
12	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha talabalarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

Hozirgi kunda muhandislik sohasida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlari murakkablashib borayotgani sababli bo'lajak muhandislar faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmasdan, amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari zarur. Shu sababli, ta'lim jarayonida turli zamonaviy texnologiyalarni qo'llash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda muhandislik ta'limi jarayonida raqamli texnologiyalar, simulyatsiya va avtomatlashtirilgan tizimlardan keng foydalanilmoqda. Ushbu texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Virtual va interaktiv laboratoriyalar: talabalar real sharoitga yaqin tajribalarni virtual muhitda o'tkazishlari mumkin. Bu esa xavfsizlikni ta'minlash va tajriba o'tkazish harajatlari kamaytirishga yordam beradi.

Loyiha asosida o'qitish: talabalar real loyihalar ustida ishlash orqali nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar: muhandislik jarayonlarida AI asosidagi dasturlar orqali avtomatlashtirilgan tahlil va modellashtirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Muammo asosida o'qitish: talabalarga real muammolarni hal qilish topshirig'i beriladi, bu esa ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Bo'lajak muhandislarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlash uchun nazariy bilimlar bilan birga ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'tash tizimini rivojlantirish zarur. Bu jarayon talabalarni sanoatning real muhitiga moslashtirishga xizmat qiladi. Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda interfaol o'qitish metodlari va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy muhandislik sohasi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajriba, kreativ fikrlash va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini ham talab qiladi. Shu sababli, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan, jumladan, loyiha asosida o'qitish, muammo asosida ta'lim, jamoaviy ishlash va simulyatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish zarur.



Zamonaviy texnologiyalar, xususan, virtual laboratoriyalar, raqamli modellashtirish tizimlari va avtomatlashtirilgan o'quv platformalari muhandislik ta'limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar talabalarni ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorlash, ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini real sharoitga moslashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol o'qitish metodlari va zamonaviy texnologiyalar muhandislik ta'limining ajralmas qismi bo'lib, bo'lajak mutaxassislarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish va ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu yondashuv samarali ta'lim tizimini shakllantirish va yuqori malakali muhandis kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. - T.: 2007. - 37 b.
2. Джураев Р.Х. Организационно - педагогические основы интенсификации системы профессионального подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс ... док.пед.наук.-Т.: 1995. - 43с.
3. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3. – B.24.
5. O'rinov U.A. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta'limning afzalliklari. "O'zMU xabarlari". Ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №1/2, 148-151 b.



ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA SIFATNI BOSHQARISH TAMOYILLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Gaffarov L.X.

PhD, dotsent

Buxoro davlat-texnika universiteti mustaqil tadqiqotchi (DSc)

Tayanch so'zlar: ta'lim sifati, boshqaruv tamoyillari, samaradorlik, raqamli muhit, monitoring, pedagogik yondashuvlar, xalqaro tajriba.

Ключевые слова: качество образования, принципы управления, эффективность, цифровая среда, мониторинг, педагогические подходы, международный опыт.

Key words: quality of education, management principles, efficiency, digital environment, monitoring, pedagogical approaches, international experience.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida sifatni boshqarish tamoyillari va ularning ta'lim jarayoni samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar asosida ta'lim sifatini boshqarishda qo'llanilayotgan asosiy yondashuvlar ko'rib chiqildi. Milliy ta'lim tizimida ushbu tamoyillarni joriy etishning afzalliklari va mavjud muammolar ilmiy asosda tahlil qilindi hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются принципы управления качеством в современной системе образования и их влияние на эффективность образовательного процесса. Рассмотрены основные подходы, используемые при управлении качеством образования на основе международного опыта. На научной основе проанализированы преимущества и существующие проблемы внедрения данных принципов в отечественную систему образования, разработаны предложения и рекомендации.

SUMMARY:

This article analyzes the principles of quality management in the modern education system and their impact on the effectiveness of the educational process. The main approaches used in quality management of education based on international experience are considered. The advantages and existing problems of implementing these principles in the domestic education system are analyzed on a scientific basis, proposals and recommendations are developed.

Ta'lim sifatini boshqarish - ta'lim tizimining samarali ishlashini ta'minlash, o'quvchilar va o'qituvchilarning faoliyatini yaxshilash, shuningdek, ta'lim muassasalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli jarayondir. Bu jarayon ta'lim muassasalarining o'zgarishlarga moslashish,



resurslardan samarali foydalanish va ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan. Ta'lim sifatini boshqarishning asosiy tamoyillari va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, zamonaviy ta'lim tizimini boshqarishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Respublikamiz ta'lim tizimida ko'plab islohatlar kadrlar tayyorlash sohasida ta'lim turlari o'rtasida aloqa va uzviylik ta'minlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosligi va talab hamda ehtiyojlarining to'liq hisobga olinmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklifning chuqur o'rganilmasligi natijasida kadrlarning hududlar kesimidagi taqsimotida muvozanatning buzilishi bilan bog'liq kamchiliklar kuzatildi. Bunga ayrim hududlarda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning yillar davomida qondirilmasligiga sabab bo'lmoqda. Tizimdagi bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida keyingi yillar mobaynida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohalariga oid bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Xususan:

2024-yil 2-fevralda qabul qilingan PQ-54-sonli qarorga muvofiq, O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tashkilotlarning faoliyat yuritish tartibi belgilandi. Ushbu qaror asosida: Xalqaro tashkilotlarga qo'yiladigan talablar va ularning O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tishi va faoliyat yuritishi tartibi ishlab chiqildi. Bu chora-ta'lim sifatini xalqaro standartlarga mos ravishda baholash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2024-yil 14-sentabrda 415-sonli buyruq qabul qilinib, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini monitoring qilish uchun 10 ta indikator belgilandi. Ular orasida: Talabalarning bitiruv darajasi, kursdan-kursga o'tish ko'rsatkichi, akademik o'zlashtirish darajasi, talabalarning ta'lim jarayonidan qoniqish darajasi kabi mezonlar mavjud.

Bu indikatorlar asosida har yili oliy ta'lim muassasalarining faoliyati baholanadi.

O'zbekiston Xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlar va pedagog xodimlar uchun "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi ishga tushirildi. Ushbu platforma orqali: Onlayn malaka oshirish imkoniyati yaratildi hamda masofaviy ta'lim orqali pedagoglarning kasbiy salohiyati oshirilmoqda. Bu tashabbus ta'lim sifatini boshqarishda innovatsion yondashuv hisoblanadi.

2024-yil 30-sentabrda qabul qilingan PF-152-sonli Farmon asosida, 2025-yil 1-martdan boshlab Respublikaning uzoq va chekka hududlarida joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish




xizmatlari joriy etildi. Bu choralar pedagoglarning malakasini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan.

2024-yil 8-avgustda Vazirlar Mahkamasining 489-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va javobgarligi belgilandi. Bu qaror: ta'lim tizimini boshqarish, innovatsion rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Sifatni boshqarish tamoyillari samarali joriy etilganda ta'lim tizimi barqaror, ochiq va raqobatbardosh bo'ladi. Raqamli vositalardan foydalanish – masalan, LMS, elektron jurnal, tahlil panellari – ushbu tamoyillarning amaliyotda qo'llanishini osonlashtiradi. Biroq, tizimni to'liq ishlatish uchun quyidagi muammolar mavjud:

- AKT savodxonlik darajasining pastligi;
- Tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning to'liq ishlamasligi;
- Moliyaviy va texnik resurslarning yetishmasligi.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sifatni boshqarishning tizimli tamoyillari davlat siyosati, ta'lim muassasasi menejmenti va o'qituvchining metodikasiga birdek ta'sir ko'rsatadi. Quyida ta'lim sifatini boshqarishning asosiy tamoyillari:



1-rasm. Ta'lim sifatini boshqarishning asosiy tamoyillari.

Integratsiyalashganlik tamoyili - Ta'lim sifatini boshqarishning asosiy tamoyillaridan biri, ta'lim tizimining barcha komponentlarining o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi bo'lishini ta'minlashdir. Bu tamoyil bo'yicha, ta'limning



barcha darajalari (boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim), o'qitish metodikasi, o'quv rejasi va o'quv jarayonining boshqaruvi bir-biriga moslashtirilishi kerak. Ta'lim sifatini boshqarishning samarali tizimi shu tarzda o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi elementlardan tashkil topadi.

Davomiylik tamoyili - Ta'lim jarayoni uzluksiz va muvozanatli bo'lishi kerak. Bu tamoyilga ko'ra, o'quvchilarning ta'lim olish jarayonida qadam-baqadam, tizimli va davriy o'qitish ko'nikmalari shakllantiriladi. Davomiylik tamoyili ta'lim sifatini boshqarishda o'qituvchilar, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda baholash, tekshirish va tahlil qilishni ta'minlash zaruratini anglatadi.

Ochiqlik va shaffoflik tamoyili-Ta'lim sifatini boshqarishning muhim tamoyillaridan biri o'quv jarayonining ochiq va shaffof bo'lishidir. Ta'lim muassasalari o'z faoliyatini, maqsadlari va rejalari bilan jamoatchilikka aniq tushunarli qilib taqdim etishi kerak. Shu tarzda o'quvchilar, o'qituvchilar va boshqa ishtirokchilar ta'lim sifatini baholash va yaxshilash jarayonlarida faol ishtirok etishlari mumkin. Ta'limda shaffoflik, o'qituvchilarning malaka oshirish, o'quv dasturlarining samaradorligini tekshirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Innovatsionlik tamoyili-Ta'lim sifatini boshqarishda innovatsiyalarni qo'llash muhim tamoyil hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar, yangi o'qitish metodlari va pedagogik yondashuvlar ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi. Innovatsion yondashuvlar, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, o'qituvchilarni yangi metodikalar bilan tanishtirish, shuningdek, ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

O'quvchi markazlilik tamoyili-Ta'lim sifatini boshqarishning eng muhim tamoyillaridan biri, ta'lim jarayonida o'quvchi ehtiyojlariga e'tibor qaratishdir. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, ularning qobiliyatlarini to'liq rivojlantirishga intilish zarur. Bu tamoyil ta'limda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, shuningdek, ularning bilimlarini baholash va rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Qarorlar qabul qilishda hamkorlik tamoyili-Ta'lim sifatini boshqarishda hamkorlik tamoyili, ta'lim muassasasida o'qituvchilar, o'quvchilar, rahbarlar va ota-onalar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlashni nazarda tutadi. Hamkorlikka asoslangan yondashuvlar orqali ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, yangi imkoniyatlar yaratish va ta'limni rivojlantirish mumkin. Qarorlar qabul qilishda ko'p tomonlama yondashuvni amalga oshirish zarurati bor.



Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar ko'p va turli xil bo'lishi mumkin. Ular ichki va tashqi omillarga bo'linadi. Ichki omillar ta'lim tizimining o'zida mavjud bo'lsa, tashqi omillar tashqi muhitdan kelib chiqadi. Quyidagi omillar ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillar sifatida keltirilishi mumkin:

O'qituvchilarning pedagogik malakasi, bilimga ega bo'lishi, o'quvchilarga ta'lim berish uslublarini mukammallashtirishlari ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Yaxshi malakali o'qituvchilar o'z o'quvchilarining bilimini samarali ravishda oshirishi, motivatsiyasini oshirishi va ularni faol o'rgatishi mumkin.

Ta'lim muassasasining moddolari, o'quv xonalari, o'quv texnologiyalari va laboratoriyalar ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy texnologiyalar, yaxshi jihozlangan laboratoriyalar va qulay o'quv muhit o'quvchilarni yanada samarali ta'lim olishga undaydi.

O'quv dasturining zamonaviyligi, o'quv metodikalarining samaradorligi ta'lim sifatiga ta'sir qiladi. Yangi pedagogik yondashuvlar va o'qitish metodikalarining qo'llanilishi o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali qiladi.

Ta'lim muassasalarida samarali boshqaruv tizimi ta'lim sifatini boshqarishga yordam beradi. Boshqaruvning samarali tizimi o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida maqsadli hamkorlikni ta'minlaydi, ta'lim sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni taqdim etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ota-onalar daromadi, jamiyatdagi madaniyat, o'quvchilarni ta'lim olish uchun imkoniyatlar ta'lim sifatiga ta'sir qiladi. O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun jamiyatning maqsadli va barqaror iqtisodiy rivojlanishi muhimdir.

Davlatning ta'lim sohasidagi siyosati, moliyaviy resurslar, ta'limga ajratilgan mablag'lar va ta'limning umumiy rivojlanish strategiyasi ham ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Ta'lim tizimini rivojlantirish uchun davlat tomonidan ko'rsatilgan yordam va yordamchilarning samarali ishlashiga e'tibor qaratish zarur.

Ta'lim sifatini baholashning asosiy metodlari ta'lim tizimining samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Baholash metodlari orasida statistik tahlillar, o'quvchilarga va o'qituvchilarga taqdim etilgan anketalar, intervyular va testlarni ajratish mumkin. Anketalar va intervyular orqali o'quvchilarning o'qishdagi qiyinchiliklari, o'qituvchilarning pedagogik malakalarini baholash mumkin. Statistik metodlar, o'quvchilarning test natijalarini tahlil qilish orqali o'qitish jarayonining samaradorligini ko'rsatadi. Bu metodlar ta'lim sifatini muntazam ravishda kuzatib borish va tahlil qilish imkonini yaratadi.



Xalqaro tajriba ta'lim sifatini boshqarishda muvaffaqiyatli bo'lgan turli davlatlarning amaliyotlarini o'rganishga imkon beradi. Masalan, Finlandiya ta'lim tizimi individual yondashuvga asoslanib, o'qituvchilarning malakasini oshirishga katta e'tibor qaratadi. Ta'lim sifatini boshqarishda pedagogik malakalarni muntazam yangilab borish va o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Singapur ta'lim tizimi esa qat'iy baholash tizimiga va o'qituvchilarning malaka oshirish jarayonlariga asoslanadi. Bu esa ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shvetsiya ta'lim tizimi inkluzivlikka asoslanadi va barcha o'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratishga intiladi, shu bilan birga, o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi.

Ta'lim sifatini boshqarishda tizimli yondashuv o'quvchilarning ta'lim jarayonida qanday rol o'ynashini va qanday resurslar ishlatilishini ko'rib chiqadi. O'quv dasturlarining samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilarning malakasini muntazam ravishda oshirish va ta'lim muassasasining resurslarini samarali taqsimlash zarur. Tizimli yondashuv o'qitish jarayonini uzluksiz va samarali boshqarishni ta'minlaydi. Shuningdek, o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish, ta'lim muassasasining har bir komponentini integratsiyalash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

Ta'lim sifatini boshqarishda ta'lim muassasasining infratuzilmasi muhim omil hisoblanadi. Bu yerda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'quv xonalarini, kutubxonalar va laboratoriyalarni ta'mirlash, o'quvchilar uchun eng yaxshi o'rganish muhiti yaratish zarur. Ta'lim muassasasining infratuzilmasi ta'lim sifatini boshqarishda resurslarni taqsimlash va ta'limning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar, masofaviy o'qitish va interaktiv ta'lim vositalari o'quvchilarga yanada qulayroq o'rganish imkoniyatlarini yaratadi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlar ta'lim sifatini boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, masofaviy ta'lim va onlayn kurslar ta'lim sifatini oshirish uchun samarali vositalardir. O'quvchilarga mustaqil o'rganish, o'qituvchilarga esa o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim usullarini taklif qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, simulyatsion texnologiyalar va o'yin asosida o'qitish metodlari o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni o'rgatish uchun samarali vositalardir. Bu texnologiyalar ta'lim sifatini boshqarishda o'quvchilarning interaktiv va mustaqil o'rganishiga turtki beradi.

Ta'lim sifatini boshqarishda metodik yondashuvlar ta'limning samaradorligini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Konstruktsion yondashuv



o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Differensial ta'lim esa o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvlarni qo'llashga imkon beradi. Ta'lim jarayonining har bir komponenti (o'quvchi, o'qituvchi, materiallar) o'zaro aloqada bo'lishi zarur. Bu metodik yondashuvlar ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi va o'quvchilarning ta'lim olishda muvaffaqiyatga erishishlarini ta'minlaydi.

O'quvchilarning ehtiyojlari va motivatsiyasi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladi. O'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni o'rganishga rag'batlantirish uchun sharoit yaratish zarur. O'quvchilarga maqsadlarni aniq belgilash va ularga muvaffaqiyatlarni qadrlash orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Motivatsiya o'quvchilarni o'rganishga jalb qilish, ularning o'zlarini rivojlantirishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish uchun muhimdir.

Xulosa. Zamonaviy kasbiy ta'lim tizimida sifatni boshqarish uchun an'anaviy yondashuvlar yetarli bo'lmay qoldi. Shu boisdan, innovatsion tamoyillarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Taklif etilgan tamoyillar – ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, shaxsiylashtirish, ochiqlik, integratsiya, fidbek, davomiy rivojlanish va inson markaziy yondashuvi – kasbiy ta'lim sifatini raqamli transformatsiya sharoitida tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

Ushbu tamoyillar asosida faoliyat yuritish o'quvchilarning ta'lim sifati, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari va muassasa samaradorligini kompleks ravishda oshiradi. Bundan tashqari, ta'lim tizimining ochiqligi, monitoringi va foydalanuvchi ishtirokini kuchaytirish orqali ta'lim jarayoni sifatini doimiy nazorat qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuv, kasbiy ta'lim tizimida raqamli muhitda sifatni boshqarishning barqaror modelini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-105-son qarori, 2022-yil 28-fevral – "Raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish to'g'risida".
2. UNESCO. (2021). Guidelines on Open and Distance Learning for Technical and Vocational Education and Training (TVET).
3. OECD. (2020). Digital Education Outlook: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots.
4. World Bank (2020). The Role of Digital Technologies in Modern TVET Systems.
5. Gafurov M.K. (2023). Raqamli transformatsiya va ta'lim tizimi: tahlil va istiqbollar. – Samarqand: SamDU nashriyoti.
6. European Commission. (2022). Digital Education Action Plan (2021–2027).



OLIY TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: KREDIT-MODUL TIZIMI DOIRASIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR SAMARADORLIGI

Ganiev S.T.

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch soʻzlar: mustaqil ta'lim, kredit-modul tizimi, oliy ta'lim, innovatsion metodlar, kollaborativ yondashuv, loyiha asosli ta'lim, baholash mezonlari.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, кредитно-модульная система, высшее образование, инновационные методы, коллаборативный подход, проектное обучение, критерии оценки

Key words: independent learning, credit-module system, higher education, innovative methods, collaborative approach, project-based learning, assessment criteria

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish, ularni baholash va samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Tajriba-sinov ishlarida innovatsion pedagogik metodlar – loyiha asosli ta'lim, kollaborativ o'qitish, case-study va raqamli resurslardan foydalanish natijadorlikka qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Natijalar, mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarining sezilarli oshishini ko'rsatdi.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируются пути разработки, оценки и повышения эффективности заданий по самостоятельному обучению в условиях кредитно-модульной системы в вузах. В экспериментальных исследованиях рассматривается влияние инновационных педагогических методов – проектного обучения, коллаборативного подхода, кейс-метода и использования цифровых ресурсов – на результативность учебного процесса. Результаты показали значительное развитие навыков самостоятельного мышления, научного поиска и решения проблемных ситуаций.

SUMMARY:

This article analyzes the development, assessment, and enhancement of independent learning tasks within the credit-module system in higher education institutions. The study explores how innovative pedagogical methods-such as project-based learning, collaborative teaching, case-study approaches, and the use of digital resources-impact educational outcomes. The results demonstrate a significant improvement in independent thinking, scientific inquiry, and problem-solving skills.

Kirish. Hozirgi zamon ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimining



tatbiq etilishi talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltirish va ularning ta'limiy faoliyatini samarali nazorat qilish masalasini kun tartibiga chiqardi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar faqat nazariy bilimlarga emas, balki tahliliy va tanqidiy fikrlash, ilmiy izlanish olib borish kabi muhim ko'nikmalarni ham egallaydilar.

Tadqiqot natijalari mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, uni baholash mezonlarini takomillashtirish va ta'limda zamonaviy texnologiyalarni yanada kengroq joriy etishga xizmat qiladi. Mazkur ishning nazariy va amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim tizimini rivojlantirishra samarali hissa qo'shadi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy adabiyotlar kognitiv rivojlanish, motivatsiya va innovatsion yondashuvlar asosida shakllangan. Anderson va Krathwohl (2001) hamda Forehand (2010) Bloom taksonomiyasi orqali mustaqil fikrlashni baholash usullarini yoritgan. Pintrich va De Groot (1990) motivatsiya va o'z-o'zini boshqarishning ahamiyatini asoslagan. Jonassen (1999), Thomas (2000) va Dillenbourg (1999) muammoli, loyiha asosli va kollaborativ metodlarning afzalligini ko'rsatgan. Yin (2014) case-study yondashuvini, Field (2018) esa statistik tahlil uchun SPSS dasturini ilgari surgan.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Tadqiqotda oliy ta'limda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlar samaradorligi o'rganildi. Eksperimental metod asosida, eksperimental va nazorat guruhleri taqqoslandi. Uch bosqichli tajriba jarayonida tayanch bosqichda diagnostika, test va intervyular orqali talabalar tayyorgarligi aniqlandi; eksperimental bosqichda loyiha asosli, case-study va kollaborativ metodlar sinovdan o'tkazildi. Yakuniy bosqichda testlar, loyihaviy ishlanmalar, intervyular asosida natijalar baholandi. SPSS dasturida statistik tahlil qilinib, samaradorlik ko'rsatkichlari grafik asosida solishtirildi.

Natijalar va muhokama. Talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda foydalaniladigan metodik yondashuvlar keng ko'lamda tahlil qilinadi. Ularning ilmiy faoliyatini samarali amalga oshirishiga imkon beruvchi yondashuv sifatida pedagogik va psixologik diagnostika asosidagi metodlardan foydalaniladi. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda interfaol o'qitish usullari va zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi orqali talabalar tarixiy voqealarni chuqur tahlil qilish, tanqidiy va analitik fikrlash, ilmiy mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bundan tashqari, loyiha ishlari, guruhviy muhokamalar va tahliliy yondashuvlar kabi



amaliy metodlar o'rganilgan nazariy bilimlarni real vaziyatlarga tatbiq etishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tajriba davomida eksperimental va nazorat guruhleri o'rtasida qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning natijalari solishtirilib, har bir guruhning o'quv faoliyati samaradorligi baholanadi. Eksperimental guruhda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq metodlar sinovdan o'tkaziladi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish uslublari asosida mashg'ulotlar olib boriladi. Talabalarning bilim darajasi, amaliy bilimlarni qo'llash qobiliyati hamda tanqidiy fikrlash salohiyati maxsus baholash mezonlari – testlar, loyiha ishlari va guruhli tahlillar orqali o'lchanadi.

Kredit-modul tizimi esa talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ushbu tizim doirasida talabalar o'z bilimlarini belgilangan muddatlarda baholab borish imkoniga ega bo'lishadi, shuningdek, o'quv jarayonini mustaqil ravishda boshqarish orqali o'z-o'zini baholash va ilmiy izlanish olib borish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Kredit-modul tizimi, ayniqsa, talabalarni mustaqil ishlashga rag'batlantiradi va ularning akademik faolligini sezilarli darajada oshiradi. Modul yakunida olingan natijalar asosida talabalarning muvaffaqiyat darajasi aniqlanib, tizimning samaradorligi baholanadi.

Yuqorida keltirilgan metodlar va tizim yondashuvlari, xususan, tarix fanini o'qitishda, talabalar bilimini mustahkamlash va ularni mustaqil izlanishga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim jarayonida har bir talabaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mos metodikalar tanlanishi va baholash mexanizmlarining aniq belgilanishi zarur. Bu orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, balki mustaqil ilmiy fikrlash, izlanish va tanqidiy yondashuv ko'nikmalarini chuqurlashtiradilar.

Ushbu tajriba-sinov ishlarining bosh maqsadi – talabalar mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali usullarni aniqlash va ularning ta'sirini baholashdir. Mustaqil ta'lim jarayoni esa nafaqat talabaning bilimini, balki uning faolligi, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, tadqiqot doirasidagi tajribalar quyidagi ustuvor vazifalarni o'z ichiga olgan:

1. Talabalarning dastlabki bilim va ko'nikmalarini aniqlash:

Talabalar bilim darajasini baholash maqsadida testlar va suhbat shaklidagi intervyular tashkil etildi;

Ularning mustaqil ta'limga tayyorgarlik darajasi so'rovnomalar va psixologik tahlillar orqali aniqlandi.



2. Mustaqil ta'limga qiziqishni kuchaytiruvchi metodlarni sinovdan o'tkazish:

Muammoli o'qitish, loyiha asosida ta'lim olish va interaktiv metodlar amalda qo'llanilib, ularning ta'siri baholandi;

Mustaqil ishlash uchun didaktik materiallar va raqamli manbalar ishlab chiqilib, ulardan foydalanish samaradorligi o'rganildi.

3. Individual va guruhliy topshiriqlarni loyihalash:

Talabalar uchun mustaqil ishlashga mo'ljallangan topshiriqlar ishlab chiqildi va ularning shaxsiy qobiliyatlariga moslashtirildi;

Kollaborativ o'qitish orqali talabalar o'rtasida fikr almashish va jamoaviy ishlash faollashtirildi.

4. Mustaqil ta'lim natijalarini baholash va statistik tahlil qilish:

Bajarilgan topshiriqlar tahlil qilinib, o'zlashtirish darajasining o'zgarish dinamikasi aniqlab borildi;

Eksperimental va nazorat guruhlarining natijalari statistik usullar bilan taqqoslandi [1].

5. Natijalar asosida metodologik takliflar ishlab chiqish:

Talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va keyingi tadqiqot yo'nalishlarini belgilash bo'yicha tavsiyalar berildi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar mustaqil ta'limga faolroq jalb etildi, ularning tanqidiy fikrlash darajasi oshdi hamda o'quv jarayonidagi ishtiroki ancha faollashdi.

Tajriba-sinov ishlari uch asosiy bosqichda amalga oshirildi: tayyorgarlik (tayanch), asosiy (eksperimental) va yakuniy baholash bosqichi. Har bir bosqichda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish va o'rganish jarayoni izchil tashkil etildi.

1. Tayanch bosqichi – dastlabki tayyorgarlik va diagnostika. Bu bosqichda talabalar bilim darajasi, psixologik tayyorgarligi hamda mustaqil ishlashga bo'lgan motivatsiyasi aniqlandi. Diagnostik jarayonlar doirasida testlar, so'rovnomalar, suhbatlar va intervyular o'tkazildi. Shu bilan birga, talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarib, ularning tezligi va sifati baholandi. Baholashda Bloom taksonomiyasi asosida tuzilgan kognitiv testlar, psixologik diagnostika hamda analitik baholash mezonlaridan foydalanildi. Bundan tashqari, kichik guruhlarda mustaqil mashg'ulotlar sinov tariqasida tashkil etilib, samarali o'qitish usullari aniqlab olindi. Motivatsion intervyular




esa talabalarining ichki ragʻbat va qiziqish darajasini aniqlashga yordam berdi. Natijada, keyingi bosqich uchun mos pedagogik yondashuvlar tanlab olindi.

2. Eksperimental bosqich – innovatsion metodlarni qoʻllash. Talabalar eksperimental va nazorat guruhlariga ajratildi. Eksperimental guruhda zamonaviy taʼlim texnologiyalari asosida oʻqitish tashkil etildi. Ular quyidagi yondashuvlarga asoslandi:

- **Muammoli taʼlim:** talabalar mavzular yuzasidan muammoni aniqlash va mustaqil yechim taklif qilishga jalb etildi;
- **Loyihaviy oʻqitish (Project-based learning):** talabalar kichik ilmiy loyihalar ustida ishladi;
- **Kollaborativ taʼlim:** jamoaviy fikrlash, muhokama va hamkorlik asosida bilimlarni mustahkamlash amalga oshirildi;
- **Case-study:** real tarixiy yoki ilmiy muammolarni tahlil qilish orqali mavzuni chuqur oʻzlashtirishga erishildi;
- **Raqamli resurslar:** talabalar Scopus, Web of Science, Google Scholar kabi maʼlumotlar bazalaridan foydalanishga oʻrgatildi.

Nazorat guruhi esa anʼanaviy taʼlim usullari asosida, yaʼni maʼruza va seminar mashgʻulotlari shaklida oʻqitildi.

Eksperiment yakunida talabalar bajarilgan topshiriqlar sifatiga koʻra baholandi. Mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ilmiy izlanish olib borish koʻnikmalari tahlil qilindi. Natijalar shuni koʻrsatdiki, eksperimental guruh anʼanaviy usulda oʻqitilgan nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori koʻrsatkichlarga ega boʻldi. Bu esa innovatsion metodlarning mustaqil taʼlim kompetensiyalarini shakllantirishdagi ustunligini yaqqol namoyon etdi.





Diagrammada eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasida turli kompetensiyalar bo'yicha erishilgan natijalar foiz ko'rinishida aks ettirilgan bo'lib, u bir qancha muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Mustaqil fikrlash qobiliyati:

Eksperimental guruhda 85% talaba mustaqil fikrlash ko'nikmasini egallagan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 70% ni tashkil qilgan. Bu esa innovatsion metodlar talabalarni erkin fikrlashga faolroq jalb qilganini ko'rsatadi.

2. Analitik yondashuv:

Eksperimental guruhdagi talabalar 90% darajada analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirgan, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 75% ni tashkil etgan. Bu loyiha asosli ta'lim va case-study yondashuvlarining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

3. Ilmiy izlanish ko'nikmalari:

Eksperimental guruhda 88% talaba ilmiy tadqiqot olib borish qobiliyatini shakllantirgan, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 72% bo'lgan. Bu, eksperimental guruhda ilmiy resurslardan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar natijasidir.

4. Muammoni hal qilish ko'nikmasi:

Eksperimental guruhdagi talabalar 86% hollarda muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qila olgan, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 71% bo'lgan. Kollaborativ yondashuv va muammoli o'qitishning ijobiy ta'siri shu yerda namoyon bo'lgan.

5. Umumiy o'zlashtirish darajasi:

Eksperimental guruhda umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi 89% ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu 74% ga teng. Bu farq innovatsion metodlarning ta'lim samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi.

Demak, eksperimental guruhda qo'llanilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar – loyihaviy yondashuv, muammoli o'qitish, kollaborativ ta'lim va ilmiy izlanish topshiriqlari – talabalarning o'quv faoliyati sifatini an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli darajada yaxshilagan. Bu natijalar innovatsion yondashuvlarning mustaqil ta'limni rivojlantirishdagi ustunligini isbotlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim topshiriqlarini to'g'ri ishlab chiqish va baholashda innovatsion yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Eksperimental guruhda qo'llanilgan metodlar talabalarning analitik fikrlash, mustaqil izlanish va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlarini samarali rivojlantirgan. Kredit-modul tizimi esa bu jarayonni tizimli boshqarishga imkon beradi. Maqolada taklif etilgan metodologik yondashuvlar oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish uchun amaliy



asos boʻlib xizmat qiladi. Bu usullar, ayniqsa tarix fanini oʻqitishda, talabalar bilimini chuqurlashtirish va ularni ilmiy faoliyatga yoʻnaltirishda yuqori natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Field A. Discovering statistics using IBM SPSS Statistics. Sage. 2018
2. Anderson L. W., & Krathwohl D. R.. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. Longman. 2001.
3. Forehand M. Bloom's taxonomy //Emerging perspectives on learning, teaching, and technology. – 2010. – T. 41. – №. 4.
4. Pintrich P. R., & De Groot, E. V.. Motivational and self-regulated learning components of classroom academic performance. Journal of Educational Psychology, 1990, 82(1)
5. Jonassen D. H. Designing constructivist learning environments. Instructional-design theories and models, 1999, 2.
6. Thomas J. W. A review of research on project-based learning. Autodesk Foundation. 2000.
7. Dillenbourg P. Collaborative learning: Cognitive and computational approaches. Elsevier. 1999.
8. Yin, R. K. Case study research: Design and methods. Sage publications. 2014.



PEDAGOGIKADA QO‘LLANILADIGAN ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALARNING TAHLILIIY TALQINI

Oqnozarov T.J.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi

Tayanch so'zlar: pedagogik kategoriya, ilmiy atama, tushuncha, talqin, metodologik yondashuv, didaktika, atamashunoslik, standartlashtirish, pedagogik tafakkur, o'quv adabiyotlari.

Ключевые слова: педагогическая категория, научный термин, понятие, интерпретация, методологический подход, дидактика, терминология, стандартизация, педагогическое мышление, учебная литература.

Key words: pedagogical category, scientific term, concept, interpretation, methodological approach, didactics, terminology, standardization, pedagogical thinking, educational literature.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada pedagogika fani doirasida qo'llaniladigan asosiy kategoriyalar va atamalarining ilmiy-ta'limiy talqinlari tizimli tahlil qilinadi. Kategoriyalarning mohiyati, ularning tarixiy shakllanish bosqichlari va zamonaviy yondashuvlar asosida talqin etilish muammolari yoritilgan. Muallif pedagogik atamalarni turlicha anglash holatlarini aniqlab, ularning standartlashtirilishi zarurligini asoslaydi. Shuningdek, o'quv adabiyotlarida mavjud bo'lgan atamaviy noaniqliklar kontent-analiz orqali ko'rib chiqilib, aniq va izchil pedagogik lug'at shakllantirishga oid takliflar ilgari suriladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье системно анализируются научно-педагогические интерпретации основных категорий и терминов, применяемых в педагогической науке. Раскрывается сущность категорий, этапы их исторического формирования и проблемы интерпретации с учетом современных подходов. Автор обосновывает необходимость стандартизации педагогических терминов, выявляя случаи их разного понимания в учебной и научной литературе. Также предлагаются рекомендации по формированию четкого и последовательного педагогического словаря на основе контент-анализа.

SUMMARY:

This article presents a systematic analysis of the scientific and educational interpretations of fundamental pedagogical categories and terms. The essence of these categories, their historical development, and challenges in their modern interpretation are explored. The author highlights discrepancies in the understanding of pedagogical terminology and substantiates the need for their standardization. Through content analysis of educational literature, the article proposes practical recommendations for the development of a clear and consistent pedagogical glossary.



Kirish. Pedagogika - ta'lim va tarbiya jarayonlarini o'rganadigan ilmiy soha sifatida, o'zining nazariy va amaliy asoslari orqali jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shadi. Ushbu ilmiy sohaning to'g'ri rivojlanishi va samarali amaliyotga tatbiq etilishi uchun asosiy pedagogik tushuncha va atamalarni aniq va izchil talqin etish muhim ahamiyatga ega.

Biroq amaliyotda ko'plab pedagogik tushunchalar turlicha talqin qilinib, chalkashlik va noaniqliklarga olib kelmoqda. Masalan, "ta'lim", "tarbiya", "kompetensiya", "shaxs" kabi kategoriyalar har xil manbalarda bir-biridan farq qiluvchi ma'noda qo'llanilishi o'quv jarayonida noto'g'ri tushuncha va natijada sifat pasayishiga sabab bo'ladi. Shu bois pedagogik atamalarni nazariy jihatdan chuqurroq o'rganish, ularning kelib chiqishi, mohiyati hamda amaliyotda to'g'ri qo'llanilish mexanizmlarini aniqlash zarur.

Maqolaning asosiy maqsadi - pedagogik kategoriyalar va atamalarning nazariy asoslarini tahlil qilish, ularning o'zaro farq va o'xshashliklarini o'rganib, ta'lim jarayonida yagona, standartlashtirilgan talqin shakllantirishga yordam beradigan ilmiy asoslarni yaratishdir. Shu maqsadda maqolada:

- Pedagogik kategoriyalarning mohiyati va tarixiy rivojlanish bosqichlari yoritiladi;
- Ilmiy va metodik adabiyotlarda mavjud talqin farqlari taqqoslanadi;
- Chalkashliklarni bartaraf etish yo'llari va standartlashtirish zarurati muhokama qilinadi.

Mazkur tadqiqot natijalari pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, o'qituvchilar, darslik mualliflari va metodistlarga aniq va izchil tushunchalarni qo'llash bo'yicha amaliy yordam beradi. Shuningdek, u pedagogik lug'at yaratish va terminologiyani bir xilda qo'llash yo'lida yangi qadam bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism.

4.1. Pedagogik kategoriyalar: tushuncha va mohiyat

Pedagogik kategoriyalar - pedagogika fanining nazariy va amaliy sohalarida muhim rol o'ynovchi tushuncha va atamalar to'plami bo'lib, ular ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli ravishda ifodalashga xizmat qiladi. Bu kategoriyalar orqali ta'lim jarayoni, uning maqsad va vazifalari, shuningdek, unda ishtirok etuvchi sub'ektlar o'zaro munosabatlari tushuniladi va boshqariladi.

Pedagogik kategoriya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ko'p qirrali talqin qilinadi. Odatda, kategoriya - bu fan sohasidagi asosiy, umumiy tushuncha yoki ilmiy fikr shakli sifatida qaraladi. U o'zida ko'plab xususiyat va munosabatlarni jamlagan, keng ma'noga ega tushunchani bildiradi. Pedagogik kategoriyalar



ta'lim jarayonining fundamental elementlarini ifodalaydi, masalan: *ta'lim*, *tarbiya*, *shaxs rivojlanishi*, *kompetensiya*, *didaktika* va boshqalar.

Pedagogik kategoriyalarning mohiyati ularning **ontologik** (borliq va mavjudlik) va **epistemologik** (bilim va bilish) jihatlari orqali tahlil qilinadi. Ontologik nuqtai nazardan, bu kategoriyalar ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan hodisalar va jarayonlarning asosiy qatlamlarini tashkil etadi. Epistemologik nuqtai nazardan esa ular ta'lim nazariyasi va metodikasining bilim bazasini yaratadi.

Misol uchun, "*ta'lim*" kategoriyasi o'z ichiga ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonlarini oladi. "*Tarbiya*" esa shaxsning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, "*shaxs*" kategoriyasi ta'lim jarayonining markazida turib, uning rivojlanishi va shakllanish jarayonlarini ifodalaydi.

Pedagogik kategoriyalar tizimida ularning o'zaro bog'liqligi va integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Masalan, *kompetensiya* tushunchasi bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarining majmuasini ifodalasa, bu kategoriya ta'lim va tarbiya jarayonlarining natijaviy tomonini ko'rsatadi.

Shuningdek, pedagogik kategoriyalar amaliyotda turlicha talqin qilinishi mumkin, chunki ularning ma'nosi vaqt o'tishi bilan, ilm-fan taraqqiyoti va ijtimoiy o'zgarishlarga qarab rivojlanadi. Shu sababli ularni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish, yangilash va standartlashtirish zarurati yuzaga keladi.

4.2. Ilmiy va metodik adabiyotlarda talqin farqlari. Pedagogik kategoriyalar va atamalarning ilmiy-ta'limiy sohada yagona va aniq talqin etilishi nazariy jihatdan muhim bo'lsa-da, amaliyotda turli mualliflar va tadqiqotchilar tomonidan ularning mazmuni va mohiyatiga oid farqli qarashlar mavjud. Bu holat, avvalo, pedagogika fanining dinamik rivojlanishi, uning ijtimoiy kontekstdagi o'zgarishlari hamda fanaroq sohalar bilan integratsiyasiga bog'liq.

Masalan, "*ta'lim*" kategoriyasi bir muallif tomonidan faqat bilim berish jarayoni sifatida talqin qilinsa, boshqasi uni shaxsning umumiy rivojlanishini ta'minlovchi kengroq jarayon sifatida ko'radi. Shu kabi, "*tarbiya*" tushunchasi ham ayrim tadqiqotchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan cheklanib qolsa, boshqalar uni ijtimoiy, madaniy va hissiy jihatlarni ham qamrab oluvchi jarayon sifatida ko'rsatadilar.

Quyida ushbu farqlarga misollar keltiriladi:

Kategoriya	Avdullaeva A.	Saidova N.	Turaqulov X.
Ta'lim	Bilim va ko'nikmalarni berish jarayoni	Shaxsning bilim, mahorat va qadriyatlarni egallashi	Umumiy shaxsiy rivojlanish jarayoni



Tarbiya	Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish	Ijtimoiy va madaniy tarbiya jarayoni	Rivojlanish jarayoni, jumladan hissiy va ijtimoiy jihatlar
Kompetensiya	Ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bilim va ko'nikmalar	Bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarining majmui	Amaliy ko'nikma va nazariy bilimlarning uyg'unligi

Bu misollar pedagogik kategoriyalarni talqin etishda mavjud bo'lgan farqlarni aniq ko'rsatadi. Bunday tafovutlar asosan:

- Ilmiy maktablar va pedagogik makonning o'ziga xosligi,
- Tadqiqotning maqsad va uslubi,
- Ijtimoiy madaniy muhitning ta'siri,
- Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

Shuningdek, metodik adabiyotlarda ham pedagogik atamalarining talqini har xil bo'lishi mumkin. Darsliklar, o'quv qo'llanmalari va metodik ko'rsatmalarda ba'zan atamalarining aniq, yagona ta'rifi berilmaganligi, chalkashliklar va noto'g'ri tushunishlarga sabab bo'ladi. Bu esa o'quv jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi va o'quvchilar hamda o'qituvchilar uchun noqulayliklar tug'diradi.

Bunday holatlarni bartaraf etish uchun pedagogik terminologiyada yagona lug'at va standartlashtirilgan ta'riflar tizimini yaratish zarurati tug'iladi. Bu, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish, pedagogik kommunikatsiyani soddalashtirish va ilmiy asosda faoliyat yuritishni ta'minlashga xizmat qiladi.

4.3. Pedagogik atamashunoslikdagi muammo va yechimlar. Pedagogik atamashunoslik — pedagogika fanida qo'llaniladigan atamalar va tushunchalarni o'rganish, ularni aniqlashtirish, tizimlashtirish va standartlashtirish bilan shug'ullanuvchi ilmiy yo'nalishdir. So'nggi yillarda ta'lim sohasida pedagogik atamalar soni ortib, ularning mazmuni va qo'llanilishidagi noaniqliklar muammolari ham kuchaymoqda. Bu holatlar nafaqat nazariy pedagogik tadqiqotlarda, balki amaliy faoliyatda ham ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Pedagogik atamashunoslikdagi asosiy muammolar.

1. Terminologiyaning noaniqligi va chalkashligi: Ko'plab pedagogik atamalar bir nechta turlicha mazmunlarda qo'llaniladi yoki o'zaro aralashib ketadi. Masalan, "kompetensiya" va "malaka" tushunchalari ba'zan bir-birining o'rnida ishlatiladi, bu esa pedagogik jarayonni tushunishda va uni boshqarishda chalkashliklarga olib keladi.



2. Atamalarning izchil standartizatsiyasining yo'qligi: Pedagogik terminlarning yagona me'yorlari mavjud emasligi tufayli, turli ilmiy maktablar va ta'lim muassasalari o'z talqinlarini qo'llaydi. Bu esa pedagogik ma'lumotlar almashinuvi va ilmiy kommunikatsiyalarda muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

3. Til va madaniyat farqlari: Pedagogik atamalar turli tillarda va madaniy muhitlarda turlicha tushunilishi pedagogik terminologiyada qo'llanilishning xalqaro standartlarga mos kelmasligiga olib keladi.

4. Amaliyot bilan nazariyaning uyg'unlashmasligi: Nazariy jihatdan ishlab chiqilgan atamalar amaliyotda yetarlicha tushunilmasligi yoki noto'g'ri qo'llanilishi ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Muammolarga yechimlar va takliflar.

1. Pedagogik lug'at va terminologik to'plam yaratish: Ilmiy hamjamiyatda pedagogik atamalarni aniq, ravshan va yagona tarzda belgilovchi milliy va xalqaro lug'atlarni ishlab chiqish lozim. Bu o'quvchilar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun bir xilda tushunishni ta'minlaydi.

2. Terminologiyaning doimiy yangilanishi va takomillashuvi: Ilm-fan taraqqiyoti va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga mos ravishda pedagogik atamalar muntazam qayta ko'rib chiqilishi va yangilanishi kerak.

3. Pedagogik atamalarni o'rganish va o'rgatish tizimini takomillashtirish: Oliy ta'lim muassasalarida va malaka oshirish kurslarida atamashunoslik fanining o'ziga xosligi va uning amaliy ahamiyati haqida kengroq bilim berish zarur.

4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish: Pedagogik terminologiyada xalqaro standartlarni qabul qilish va ularga mos keladigan milliy terminologiyani shakllantirish uchun ilmiy hamkorlikni kuchaytirish zarur.

5. Pedagogik terminlarning kontekstga mos qo'llanilishi: Har bir atamaning kontekstga muvofiq aniq ta'riflari berilishi, ularning nazariy va amaliy jihatlarining uyg'unligini ta'minlash kerak.

4.4. Atamaviy birxillikni ta'minlash bo'yicha takliflar.

Pedagogik faoliyatda ilmiy va amaliy birlikka erishish, birinchi navbatda, pedagogik atamalarning mazmunan izchil va bir xil tushunilishini talab qiladi. Bu esa "atamaviy birxillik"ni ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Atamaviy birxillik - bu pedagogik atamalarning yagona ilmiy-tarifiy asosda qo'llanilishi, ularning izchil, mos va standartlashtirilgan shaklda talqin qilinishi demakdir. Bu holat nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy takliflar:



1. Pedagogik atamalar bo'yicha milliy normativ-lug'aviy baza yaratish. Pedagogik terminlarni yagona asosda belgilab beruvchi maxsus normativ hujjatlar va izohli lug'atlar yaratilishi lozim. Ushbu lug'atlar:

- Har bir pedagogik kategoriya va atamaning aniq, qisqa, ilmiy asoslangan ta'rifini berishi,
- O'zbek tilining uslubiy xususiyatlariga mos bo'lishi,
- Tizimli tartibda tuzilgan va yangilanadigan bo'lishi zarur.

2. Ilmiy maqolalar va o'quv adabiyotlarida atamaviy uyg'unlikka rioya etish. O'zbekiston OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va darsliklar mualliflarining atamalardan foydalanishda belgilangan tavsiyalar asosida harakat qilishi lozim. Shu maqsadda:

- Tahririy hay'atlar tomonidan atamaviy uyg'unlik monitoringi olib borilishi,
- Har bir maqolada muallif ishlatgan asosiy kategoriyalar izohlangan bo'lishi talab etilishi mumkin.

3. Ilmiy-metodik seminarlar va treninglar tashkil etish. Pedagogik atamashunoslik bo'yicha muntazam ravishda ilmiy-amaliy seminarlar, davra suhbatlari va treninglar tashkil etish orqali:

- Amaliyotchilarning atamalarini to'g'ri qo'llay olishi ta'minlanadi,
- Yangi paydo bo'layotgan tushuncha va kategoriya atrofida yagona yondashuv shakllantiriladi.

4. Fanlararo terminologik muvofiqlikni ta'minlash. Pedagogik terminologiya ko'plab boshqa fanlar bilan (psixologiya, sotsiologiya, lingvistika) uzviy bog'langan. Shuning uchun:

- Fanlararo terminologik uyg'unlikni ta'minlovchi lug'atlar yaratilishi,
- Turli fan sohalaridagi olimlar ishtirokida terminologik kengashlar tashkil qilinishi taklif etiladi.

5. Elektron atamaviy platforma yaratish. Zamonaviy axborot texnologiyalarini hisobga olgan holda:

- Pedagogik atamalar bazasi elektron platforma shaklida joriy etilishi,
- Har bir atama bo'yicha tavsif, misollar, xalqaro ekvivalentlar, ishlatilish konteksti ko'rsatilishi,
- Ilmiy hamjamiyat tomonidan ushbu bazaning doimiy takomillashtirilishiga imkon yaratish maqsadga muvofiq.

6. Yosh tadqiqotchilarni atamaviy madaniyatga o'rgatish. Pedagogik tadqiqotchilar, ayniqsa, doktorantlar va ilmiy izlanuvchilar uchun:

- Pedagogik atamalar bilan ishlash madaniyati,



- Yagona talqinga asoslangan atamalardan foydalanish qoidalari alohida o'qitilishi lozim.

5. Xulosa va tavsiyalar.

Xulosa. Pedagogik fan taraqqiyoti bevosita uning nazariy poydevorini tashkil etuvchi kategoriyalar va atamalarning aniqligi, izchilligi hamda tizimlilikiga bog'liq. Tahlillardan ko'rinadiki, hozirgi vaqtda pedagogik kategoriyalar va amashunoslik sohasida bir qator muammolar mavjud: turli talqinlar, normativ izchillikning yetishmasligi, atamalarning chalkashligi, fanlararo tafovutlar va amaliyotda tushunmovchiliklarning vujudga kelishi shular jumlasidandir.

Pedagogik atamalar har bir ta'lim bosqichida ilmiylikka asoslangan, aniq va izchil mazmunga ega bo'lishi, ularning mohiyatini yoritishda tizimlilik va mantiqiylik yetakchi o'rin tutishi kerak. Kategoriya va amashunoslikdagi aniqlik — bu nafaqat nazariy-tadqiqotlar uchun, balki ta'lim-tarbiya jarayonining to'g'ri yo'lga qo'yilishi uchun ham muhim mezondir.

Shuningdek, pedagogik amashunoslikni o'rganishda fanlararo yondashuv, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, xalqaro tajriba va milliy an'analarni uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda olib borilgan tahlillar va ilgari surilgan takliflar, pedagogik tafakkurni chuqurlashtirishga, ta'lim sifatini oshirishga hamda ilmiy-nazariy izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tavsiyalar.

1. **Pedagogik atamalarni tizimlashtirish va standartlashtirish zarur.**

Pedagogik atamalar bo'yicha milliy lug'at, normativ izohli qo'llanmalar va ilmiy-tarifiy kartotekalar yaratilishi lozim. Ular respublika bo'yicha yagona tarzda tasdiqlanishi va muomalaga kiritilishi kerak.

2. Yagona ilmiy metodologik yondashuv ishlab chiqilishi lozim. Pedagogik kategoriyalar va atamalarni aniqlashda yagona ilmiy-nazariy asosga tayanilgan metodologik tamoyillar ishlab chiqilishi, bu esa barcha tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun yo'riqnoma bo'lib xizmat qilishi zarur.

3. Pedagogik amashunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish kerak. Oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va doktorantura yo'nalishlarida pedagogik terminologiyani chuqur o'rganishga oid maxsus tadqiqot loyihalari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim.

4. Elektron amashunoslik platformasi tashkil etilishi zarur. Har bir atama uchun izoh, misollar, fanlararo moslik, amaliy qo'llanish doiralari keltirilgan elektron baza yaratish orqali atamaviy birxillikni ta'minlashga erishish mumkin.



5. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimiga atamashunoslik bo'yicha modul kiritilishi kerak. Pedagog kadrlar va tadqiqotchilar uchun doimiy o'quv-modullarda atamalar bilan ishlash madaniyati, ularning kontekstual qo'llanilishi va xalqaro ekvivalentlari o'rgatilishi kerak.

6. Ilmiy jurnallarda atamalardan foydalanish bo'yicha tahririy standartlar ishlab chiqilishi lozim. OAK ro'yxatidagi jurnallarda maqola yozishda ishlatilayotgan atamalarning talqinida yagona yondashuv bo'lishi uchun tahririy siyosatda alohida ko'rsatmalar berilishi maqsadga muvofiq.

Yakuniy xulosa. Pedagogikada kategoriyal atamashunoslikni chuquro'rganish va takomillashtirish – bu nafaqat nazariy bir butunlikni ta'minlovchi vosita, balki ta'lim islohotlarining ilmiy asosini mustahkamlovchi mezondir. Taklif etilgan nazariy va amaliy yechimlar asosida pedagogik atamashunoslikning yangi bosqichga ko'tarilishi, zamonaviy talablarga javob beradigan ilmiy-pedagogik muhit shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А.А. Педагогик терминларнинг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 2021. - 284 б.
2. Жонбобоева З. Педагогик тушунчалар ва атамалар: назарий асослари ва таълимда қўлланилиши. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2020. - 192 б.
3. Soliyev I. Pedagogik texnologiya: atamalar tahlili va ularning amaliy talqini. - Toshkent: Iqbol, 2019. - 176 b.
4. Qodirov T.Q. Pedagogik tafakkur va kategoriyalar tizimi. - Buxoro: BDU, 2022. - 208 b.
5. Dewey J. Experience and Education. - New York: Macmillan, 1938. - 91 p.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
7. UNESCO Thesaurus. A Structured List of Descriptors for Indexing and Retrieving Education Documents. - Paris: UNESCO, 2023.
8. Hasanboyeva O. Pedagogik terminlarga metodologik yondashuvlar. // O'zbekiston pedagogik jurnali. - 2021. - №3. - B. 35–42.
9. Turdaliyev A., Yo'ldoshev B. Ilmiy nutq va pedagogik atamashunoslik. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. - 164 b.
10. Қодирова Ш. Педагогик илмий нутқда атамалардан фойдаланиш маданияти. // Ta'lim va innovatsiya. - 2022. - №2(17). - Б. 27–32.
11. Nazarov M. Pedagogik fikrlar tarixida atamalar shakllanishining bosqichlari. // Ilm-fan va ta'lim. - 2023. - №4. - B. 45–51.
12. Воронцов А.Д. Педагогика как наука: структура, категории, термины. - Москва: Академкнига, 2018. - 236 с.
13. Салихов Қ. Педагогик тадқиқот методологияси. - Тошкент: "Fan va texnologiya", 2019. - 312 б.
14. Қаҳҳоров Қ. Ўзбек тилидаги педагогик атамаларнинг семантик таҳлили. - Тошкент: Фан, 2020. - 178 б.
15. Murodov H. Oliy ta'limda fanlararo atamaviy uyg'unlik muammolari. // Ilmiy izlanishlar. - 2021. - №5. - B. 21-26.



OLIIY TA'LIM JARAYONIDA TURLI MODELLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Oripova N.X.

QarshiDU Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri, p.f.d.(DSc), professor

Sobirova M. Z.

Shahrisabz davlatpedagogika instituti magistranti

Tayanch so'zlar: kompetensiya, ijtimoiy kompetentsiya, pedagogik ta'lim, oliy ta'lim, shaxs, tomoyil, shakl, usul, metod, modifikatsiya, xilma-xillik, nomuvofiqlik.

Ключевые слова: компетенция, социальная компетенция, педагогическое образование, высшее образование, личность, содержание, форма, метод, метод, модификация, разнообразие, несоответствие.

Key words: competence, social competence, pedagogical education, higher education, personality, content, form, method, method, modification, diversity, inconsistency.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida turli modellardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada modellashirish muammosining dolzarbligi va modellashirish muammosi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili keltirib o'tilgan. Pedagogik modellashirish – umumiy tadqiqot usuli va mustaqil yo'nalish bo'lib, bu yo'nalish simulyasiya qilingan hodisalarning o'ziga xosligini aks ettiruvchi, ham shakl, ham mazmunan ochiq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega namuna.

РЕЗЮМЕ:

В этой статье обсуждаются теория и практика использования различных моделей в процессе высшего образования. В статье также приводится анализ научно - исследовательских работ по актуальности проблемы моделирования и проблемы моделирования. Педагогическое моделирование - это общий исследовательский метод и самостоятельное направление, отражающее уникальность моделируемых явлений.

SUMMARY:

This article discusses the theory and practice of using different models in the higher education process. The article also provides an analysis of research work on the relevance of the modeling problem and the modeling problem. Pedagogical modeling is a general research method and an independent direction that reflects the uniqueness of the simulated phenomena.

Mamlakatimizda ta'lim sohasi oldiga qo'yilayotgan eng muhim davlat talablaridan biri – bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni turli modellar asosida rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash tashkil etadi.



Buning uchun oliy ta'lim tizimida ham jadallik bilan islohotlar olib borilmoqdaki, bu kabi islohotlar o'z navbatida kelajakda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga va mamlakatimiz ta'lim tizimining zamonaviylashishiga olib keladi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida turli modellardan foydalanish hamda bu jarayonda variativlik, integrativlik, differensiallik tamoyillarining ustuvorligini qaror toptirish ham oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ta'lim jarayonida turli modellardan foydalanish asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish muammosi bo'yicha dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va ta'lim muassalarida, xususan, "Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions" pedagogik klaster (YuNESKO, 2009 yil dekabr oltinchi Xalqaro Konferensiyasi), Bonn deklaratsiyasi (YuNESKO bo'yicha Germaniya milliy komissiyasi), "Lifelong learning" 2030 yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasi (Germaniya, Bonn), Leybnis nomidagi hayot davomida ta'lim olish Markazi (DIE) va xalq universitetlari nemis assotsiatsiyasi xalqaro hamkorlik instituti (DVV), Curriculum globale variativ dasturi (Germaniya), Massachusetts ixtisoslashgan markazi (AQSh), Manchester ixtisoslashgan markazi (Buyuk Britaniya), Kaliforniya universiteti (Los-Anjelos), Kumon instituti (Yaponiya) da tadqiqotlar olib borilmoqda.

Modellashtirishga doir izlanishlar, yondashuvlarni o'rgangan holda, ushbu masala bo'yicha quyidagi kamchilik va muammolar mavjudligi kuzatildi:

mamlakatimizdagi OTMlarda o'qitish va tarbiyaviy jarayonning o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashmaganligi;

OTMlarda yetishib chiqayotgan kadrlarning mahalliy hududlar imkoniyatlariga mos kelmasligi;

o'quv-me'yoriy hujjatlarning mazmunan va shaklan bir xilligi;

kasbiy faoliyat uchun zarur bo'ladigan fanlarni bo'lajak mutaxassislariga tanlash imkoniyatining pastligi va boshqalar.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da model atamasi tilimizga lotincha modulus so'zidan kirib kelganligi va o'lchov, me'yor - degan ma'noni anglatishi aytib o'tiladi.

N.A.Kozirev va O.A.Kozirevalar pedagogik modellashtirishga ta'rif berar ekanlar, uni talabaga o'rganayotgan fanlarning mazmunini yaqqol tasavvur hosil qilish, didaktik material tarkibini tushunish, pedagogik vositani aniqlash, vizualizasiya qilish, tekshirib ko'rish, yangiliklar kiritish uchun namuna, deb izohlaydilar [12;392].

Ayrim tadqiqotchi olimlar pedagogik modellashtirishda, asosan, strukturaviy va funksional modellarga ko'proq e'tiborni qaratish kerakligini va ushbu




modellarni tuzishda ob'ekt uning tarkibiy qismlari, elementlari, quyi tizimlarini o'z ichiga olgan yaxlit tizim shakllanishini tushuntiradilar.

O.A.Subbotenko, I.V.Ilina kabi analitiklar izlanishlarida esa talabalarning axborot va tahliliy kompetensiyasini pedagogik modellashtirish asosida rivojlantirish muammosi o'rganiladi hamda tadqiq etilayotgan muammoning modeli, uning tarkibiy qismlari va elementlari ishlab chiqiladi. Ular modelni diagramma, tuzilma, belgi, shakllar yoki formulalar ko'rinishida sun'iy ravishda yaratilgan ob'ekt, deb hisoblaydilar [15;166-172-b.].

Pedagogik modellashtirish – umumiy tadqiqot usuli va mustaqil yo'nalish bo'lib, bu yo'nalish simulyasiya qilingan hodisalarning o'ziga xosligini aks ettiruvchi, ham shakl, ham mazmunan ochiq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega namuna. Pedagogik modellashtirish, umuman olganda, modellashtirish kabi universal qismga ega –aksiomatika, mavzu mazmunidan abstraksiya natijasida paydo bo'lgan va o'ziga xos va aniq hodisalarni tavsiflash uchun mos bo'lgan belgi shaklida tuzilgan [4; 21–26-b.].

Pedagogik modellashtirish – diagramma, jismoniy tuzilmalar, ramziy shakllar yoki formulalar ko'rinishida sun'iy ravishda yaratilgan ob'ekt. Ular o'rganilayotgan ob'ektga (yoki hodisaga) o'xshash va tuzilishini, xususiyatlarini soddaroq va umumlashtirilgan shaklda aks ettiradi va takrorlaydi.

Shunday qilib, ta'lim jarayonini pedagogik modellashtirishsiz amalga oshirib bo'lmaydi va bu jarayonda u quyidagi vazifalarni hal qilishda foydalaniladi:



1.1-rasm. Pedagogik modellashtirishning vazifalari.

Mahalliy tadqiqotchi olimlardan Sh.U.Nurullaevaning ilmiy izlanishlari talabalar pedagogik tayyorgarligini modellashtirish muammosini tadqiq etishga bag'ishlangan. U tadqiqoti jarayonida talabalarning o'quv va tarbiyaviy, pedagogik tayyorgarligining modelini ishlab chiqadi hamda pedagogik modellashtirishda adekvatlik, tugallik, oddiylik, to'liqlik, taxminiylilik, mobillik kabi bir qancha xususiyatlarga asoslanish kerakligini ta'kidlaydi.

Sh.Nurullaeva modellashtirishni quyidagicha tasnifga ajratadi:



masshtabiga ko‘ra: mikro modellar, adekvat modellar, makro modellar;
foydalanish maqsadiga ko‘ra: ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalaniladigan modellar, kompleks sinovlar uchun foydalaniladigan modellar, optimallashtirilgan modellar, ko‘rgazmalar uchun foydalaniladigan modellar;
qo‘llaniladigan sohalariga ko‘ra: o‘quv modellari, eksperimental modellar, ilmiy-texnik modellar, o‘yinchoq modellar [11;264].

An‘anaviy model–tarixiy tajribalar va hozirgi madaniyatning umuminsoniy va milliy xususiyatlarini yosh avlodga etkazish shakli sifatida tizimli akademik ta‘lim namunasi. Bunda talaba tayyor bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni qabul qiluvchi ob‘ekt sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, mazkur jarayonda birinchi o‘rinda uning fikrlashiga emas, balki xotira mexanizmlariga e‘tibor qaratiladi. Ayniqsa, ushbu jarayonda ta‘limning maqsadi standartlashgan fikrlashga ega shaxsni shakllantirishdan iborat bo‘lib qoladi.

Rasionalistik modelning asosini ta‘lim oluvchilar uchun bilimlarni o‘zlashtirishning samarali usullarini joriy etish tashkil etadi. Ushbu model mafkurasi xulq-atvor konsepsiyasini muhim deb hisoblaydi. Modelda ijodkorlik, kreativlik, mustaqillik, individuallik kabi sifatlarga e‘tibor berilmaydi, balki yosh avlodning jamiyat talablari va kelajak faoliyatga amaliy moslashuvchanligini tarbiyalash nazarda tutiladi.

Gumanistik (fenomenologik) modelda shaxs va uning individualligini yuksaltirish, qadrlash va ta‘limning asosiy sub‘ekti sifatida baholash oldingi qatorga qo‘yiladi. Uning maqsadi ta‘lim oluvchilarning ichki imkoniyatlarini namoyon etishga ko‘maklashish, qiziqishlari va ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishga yordamlashish. Ushbu modelda shaxsga yo‘naltirilgan, aksiologik, proektiv, pedagogik qo‘llab-quvvatlash kabi tushunchalar asosiy kategoriya sifatida qo‘llaniladi.

Noinstitutsonal modelning e‘tibori ijtimoiy institutlar doirasi, xususan, ta‘lim muassasalaridan tashqarida tashkil etishga qaratilgan. Bu parallel maktablar, Internet tizimi, masofaviy ta‘lim, ochiq maktablar, ochiq universitetlar va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Jahon pedagogikasida “parallel maktab”larga radio, televidenie, kino, matbuot kiritiladi va ular tizimli ravishda maxsus o‘quv dasturlarini tayyorlaydi hamda namoyish etadi. Biroq shuni e‘tiborga olish zarurki, ushbu model ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirish imkonini bersa-da, ammo ular jonli muloqotning o‘rnini bosa olmaydi.

Yuqoridagi tahlillarga ko‘ra, ta‘kidlash joizki, ta‘lim jarayonini modellashtirish uning samaradorligini oshirishga va sohada tizimli tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Demak, model – mavjud tizim haqida ma‘lumot



olish uchun mo'ljallangan namuna hisoblanadi. Model asosida haqiqiy jarayon, uning ichki tuzilishi haqida aniq ma'lumot olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 490 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021, – 464 b.
3. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования гос впо нового поколения. Методическое пособие.–Москва: 2006. – 158 с.
4. Дахин А.Н. Педагогическое моделирование: сущность, эффективность и ... неопределенность / А.Н. Дахин // Педагогика. – № 4. – 2003.– С. 21–26.
5. Karimova N.N. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish: ped. bo'y. fal. dok. (Phd) diss... . –Toshkent: 2017. – 135 b.
6. Kerkhoffa S. N., Cloudb M. E., Equipping teachers with globally competent practices: A mixed methods study on integrating global competence and teacher education, International Journal of Educational Research, (2020) y. 103 p.
7. Mirsolieva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ped. fan. dokt.... diss. –T.: 2008. – 235 b.
8. Modlo Ye.O., Semerikov S.O., Nechipurenko P.P., Bondarevskiy S.L., Bondarevskaya O.M., Tolmachev S.T.: The use of mobile Internet devices in the formation of ICT component of bachelors in electromechanics competency in modeling of technical objects. In: CEUR Workshop Proceedings (CEUR-WS.org) (2019, in press).
9. Muslimov N., Usmonboeva M., Sayfurov D., To'raev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. –T.: 2015. – 120 b.
10. Oripova N.X. Modellastirish asosida bo'lajak o'qituvchilar kasbiy e'tiqodining shakllanishi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2021.12-son.– B.125-130.
11. Нуруллаева Ш.Ў. Бўлажак бошлангич синф ўқитувчилари педагогик тайёргарлигини моделлаштириш назарияси ва методикаси. Пед. фанл. докт. дисс. ... – Қарши: 2021. – Б. 264.
12. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к образованию // Педагогика. – Москва: 2005. – № 3. 27-40 с.
13. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.–20 с.
14. Козырева В.А., Радионовой Н.Ф. Компетентностный подход в педагогическом образовании: Коллективная // Монография. – СПб.; Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2004. – 392 с.
15. Субботенко О.А., Ильина И.В. Педагогическая модель формирования информационно-аналитической компетентности у обучающихся в ведомственном вузе. Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. №2. - 2017. – С.166-172.
16. Татур Ю.Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стандартов высшего профессионального образования: Материалы ко второму заседанию методологического семинара. Авторская версия. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 19 с.



TA'LIM FAOLIYATIDA PEDAGOGIK TA'LIMIY RESURLARNI YARATISHDA INTERFAOL TA'LIM METODLARINING AFZALLIKLARI

Achilov O'.I.

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Maktabgacha
ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayonlari, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, ta'lim resurslari, vizual materiallar, bosma materiallar, elektron resurslar.

Ключевые слова: образовательные процессы, интерактивные методы, педагогические технологии, образовательные ресурсы, наглядные материалы, печатные материалы, электронные ресурсы.

Key words: educational processes, interactive methods, pedagogical technologies, educational resources, visual materials, printed materials, electronic resources.

РЕЗЮМЕ:

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik ta'limiy resurslarni yaratishda interfaol ta'lim metodlarining qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol ta'lim – bu o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida faol muloqotni ta'minlovchi, ta'lim jarayonida ularning bevosita ishtirokini oshiruvchi usullar majmuasidir. Ushbu metodlar ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarni faol fikrlashga undash va mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ:

Использование интерактивных методов обучения при создании педагогических образовательных ресурсов имеет большое значение в современном образовательном процессе. Интерактивное обучение - это совокупность методов, обеспечивающих активное общение учащихся и преподавателей, повышающих их непосредственное участие в образовательном процессе. Эти методы способствуют повышению эффективности обучения, побуждают учащихся активно мыслить и развивать навыки самостоятельного обучения.

SUMMARY:

The use of interactive teaching methods in the creation of pedagogical educational resources in the modern educational process is of great importance. Interactive teaching is a set of methods that ensure active communication between students and teachers, increasing their direct participation in the educational process. These methods serve to increase the effectiveness of education, encourage students to think actively and develop independent learning skills.

Ta'lim jarayonlarida interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari. Ta'lim mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida pedagog



- talabalar orasida pedagogik ta'limiy resurslar orqali ta'limiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari talim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh). Ta'lim jarayonlarida pedagogik ta'limiy resurslar ta'lim ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi. O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi. Ta'lim jarayonlarida pedagogik ta'limiy resurslardan foydalanishning afzalliklari talabalarning o'z-o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashlari, mantiqiy fikrlashlari rivojlanadi. Talabalar uchun dars jarayonlarini qiziqarli tashkil etish ta'limning asosiy mazmuniga aylanadi. Ta'lim jarayoniga ta'limiy resurslarning qo'llanilishi talabada ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi. Har bir talabaning o'zi mustaqil fikr yuritishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol ta'lim metodlarida tashkil etigan darslarda talabalar faqat talim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

Interfaol ta'limiy metodlarda darslarni tashkil etishda talabalarning shaxsini rivojlantirish o'z – o'ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Yani talabalarning:

- O'zi mustaqil mutoala qilishi, pedagogik ta'limiy resurslar asosida bilim olishi;

- O'zini -o'zi anglab etishga, anglab tarbiya topishga;
- O'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
- O'quv mehnatiga mas'uliyat xissi bilan qarashga;
- O'z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g'animat bilishga;
- O'quv mehnatiga o'zida hoxish, istak uyg'ota olishga;
- Har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga;

Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur. Shuning uchun ham hozirgi kunda talabalarning o'zini – o'zi rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fani oldida echimini kutayotgan dolzarb muammolardandir.

Jamiyat rivojlanib borishi natijasida darslik majmuaviy axborot modeli sifatida qarala boshlandi, masalan, ushbu modelga pedagogik tizimning to'rtta elementini kiritgan: ta'lim maqsadlari, mazmuni, didaktik tamoyillari asosida ta'limning ayrim shakllarini tanlash va ishlab chiqish, shu bilan birga o'quv matnlarini tahlil qilish metodlari, o'quv matnlarini taxlil qilish va tushunish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi ko'rsatib berilgan [120, 104-b.].



Taktik vazifalarni belgilab beruvchi o'quv jarayonining "strategik modeli" sifatida, keyinchalik fanni o'quv-tarbiya jarayonida darslik roli alohida ta'kidlanib, ta'lim jarayonida ta'lim-tarbiya konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

O'tgan asrning oxirida to'plangan bilimlarni darslik orqali pedagogik ta'limiy resurslar orqali yosh avlodga yetkazish emas, balki ijtimoiy tajribani yetkazish uchun ta'lim jarayonini pedagogik ta'limiy resurslar orqali tashkil etish zaruriyati paydo bo'ldi. O'tgan asrning saksoninchi yillarida ishlab chiqilgan ta'lim mazmunining madaniyatshunoslik g'oyasiga muvofiq ijtimoiy tajribada, ya'ni ta'lim mazmunida: atrof-olam haqidagi bilimlar, faoliyat usullarini amalga oshirish tajribasi, ijodiy faoliyat tajribasi, faoliyatga va uning ob'ektlariga hissiy-qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasi kabi to'rt komponentga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim jarayonlarining mazmunida anashu to'rtta komponentining mavjudligi - har bir o'quv jarayoni uchun majburiydir [7, 151-b.]. Lekin ularning nisbati turlicha bo'lgani holda, ulardan bittasi yetakchi deb ko'rsatilishi mumkin. Yetakchi komponent bo'yicha o'quv jarayoni sohasida - umumiy maqsadlarga, o'quv jarayonining mazmunini qurish va tashkil etish tamoyillariga ega bo'lib, tegishli pedagogik ta'limiy resurslarning funksionalligi ularning tarkibiga va tuzilishiga bevosita bog'liqdir [4]. Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek, darslik o'quv jarayonining loyihalashtirilishi sifatida tushuniladi. Pedagogik ta'limiy resurslardan ta'lim tizimida foydalanish, vaqt va makonda qo'llaniladigan, didaktik vositalar yordamida talabalarning bilish faoliyatini boshqarish va o'zlashtirish jarayonini tashkil etish, ta'lim jarayonining maqsadlarini amalga oshirishga izchil yaqinlashish sifatida qurilgan mazmunli o'quv faoliyati dasturi deb qaralgan [3].

Shuningdek, ko'p funksiyali didaktik tizim sifatida darsliklarni qamrab olingan pedagogik ta'limiy resurslar psixologik-didaktik yondashuv doirasida ko'rib chiqiladi. Ayni paytda ta'lim mazmuni, uslublari va shakllari psixologik, didaktik, metodik va fan bilimlarini birlashtirishga asoslanadi (V.I.Panov, A.Z.Rahimov, va boshqalar). Xususan, xozirgi kunda darsliklarning shakli, mazmuni, tuzilishi pedagogik ta'limiy resurslarga qaratgan holda, ta'lim faoliyatining psixik qonuniyatlari bilan belgilanadi [2]. Darsliklarni yaratishda pedagogik ta'limiy resurslarning mazmun mohiyati motivatsiyani, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, maxsus tuzilgan matnlar yordamida motivatsiya va aqliy qobiliyatlarni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish, konseptual hamda kognitiv tajriba, intensional, ya'ni hissiy-baholash tajribasini boyitishga yordam beradigan o'quv matnlarining tipologiyasini amalga oshirish kerak [2, 42-b.].



Mazmun va tarkibiy jihatlarining birligida darsliklar bir vaqtning o'zida muayyan pedagogik ta'limiy resurslarning didaktik tizimning belgisi bo'lib ijtimoiy tajribaning pedagogik modeli sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. U holda, darsliklar - mos pedagogik ta'limiy resurslar hamda, didaktik tizim doirasida ro'y beradigan va uni amalga oshirish uchun zarur shartlarni o'z ichiga oluvchi ta'limiy jarayonning majmuaviy axborot-faoliyat modelidir [6].

Hozirgi kunga kelib ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining har xil turlaridan foydalanishga bag'ishlangan tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari ko'zga tashlana boshlandi. Ularning tadqiqot ishlarida ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik ta'limiy resurslardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari[1], ularni qo'llash chegaralari va maqsadga muvofiqligi[5], ta'lim jarayonining dasturiy ta'minoti sifatini baholashga yondashuvlar, ta'lim tizimini axborotlashtirish zamonaviy pedagogika fanining alohida sohasi sifatida qaralib, bunda darsliklarning asoslari qonuniyatlarini o'rganish, tadqiq qilish va aniqlash jarayonlarini faollashtirish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi AKT pedagogik ta'limiy resurslarning didaktik imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilgan [5, 10-b.].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak pedagogik ta'limiy resurslarni yaratishda interfaol metodlardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, samarali va ta'sirchan qiladi. Bunday yondashuv talabalarning bilim olish jarayoniga faol ishtirok etishini ta'minlab, ularning mustaqil fikrlash, muloqot qilish va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababli, zamonaviy ta'limda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Achilov O'.I. Oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar talabalarining o'quv jarayonida elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanib baholashning funktsionallik didaktik tamoyili// Ta'lim, fan va innovatsiya ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274 2-son 2023-yil.
2. Босова Л. Л. Электронный учебник: особенности представления образовательного контента // Образовательная политика. - № 1(57) - 2012. - С. 105-114.
3. Гордон Л. Г. Современные требования к электронным изданиям образовательного характера. – М.: ИПИ РАН, 2008. - 73 с.
4. Коняхина И. В. Компетентностный подход в высшем профессиональном образовании (теоретический аспект). Вестник ТГПУ. - 2012. - № 11(126). - С.68-71.
5. Осмоловская И. М. Развитие дидактического знания в междисциплинарных исследованиях / И. М. Осмоловская // Гуманитарные науки и образование. - Т.9. - № 1. - 2018. - С. 89-96.
6. СДО МАИ CLASS.NET//Московский авиационный институт (национальный исследовательский университет). [Электронный ресурс]. - Режим доступа :<http://www.distance.mai.ru/demo>
7. Fayzullaev R.X. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligini modul-reyting ta'lim asosida takomillashtirish: ped. bo'y. fal. dok. (Phd) diss... –Toshkent, 2016. – 142 b.



8. Achilov O'.I. Pedagogik instituti talabalari uchun elektron darslik mazmunini tanlash va tuzishning didaktik prinsiplari // Journal of Advanced Research and Stability Volume: 02 Issue: 01 | 2022 ISSN: 2181-2608. www.sciencebox.uz/

9. Achilov O'.I. Processes of Organizing the Creation of Electronic Textbooks for Students of the Pedagogical Institute // American journal of social and humanitarian research ISSN: 2690-9626 (online), Published by "Global Research Network LLC" under Volume: 3 Issue: 1 in January-2022

10. F.M.Turakulova. "Storytelling texnologiyasining ijodiy fikrlash va qobiliyatlarni shakllantirishdagi ta'siri" "Maktabgacha ta'limda: sifat va samaradorlik, rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman December, 2024-yil 605-608.

11. F.M.Turakulova. Oliy ta'limda "storytelling" texnologiyasidan foydalanish usullari, "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 12

12. Achilov O'.I. Pedagogika institutlari talabalari uchun elektron axborot ta'lim resurslarini yaratishning didaktik tamoyillari // Mug'allim haem uzliksiz bilimlendiri Ilimiy-metodikalıy jurnal № 1/1 2022 yıl ISSN 2181-7138.

13. Achilov O'.I. Oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar talabalarning o'quv jarayonida elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanib baholashning funkcionallik didaktik tamoyili // Ta'lim, fan va innovatsiya ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274 2-son 2023-yil.

14. Achilov O'.I. Elektron axborot ta'lim resurslari mazmunini tanlash ularni yaratishda foydalaniladigan didaktik tamoyillar tavsifi // O'zMU xabarlari Mirzo ulug'bek nomidagi o'zbekiston milliy Universiteti ilmiy jurnali. 1/4/1 2023



TALABALARNI KONSTRUKTIV FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TA'LIM PARADIGMALARINING O'RNI

Muxammadiyeva N.Sh.

Qarshi davlat universiteti doktranti

Tayanch so'zlar: konseptual yondashuv, paradigma, konseptuallik, konstruktiv, kognitiv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ijtimoiy ma'suliyat, kreativlik.

Ключевые слова: концептуальный подход, парадигма концептуальность, конструктивный, когнитивный, личностно-ориентированное обучение, социальная ответственность, креативность.

Key words: conceptual approach, paradigm, conceptuality, constructive, cognitive, person-centered education, social responsibility, creativity.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayonining zamonaviy paradigmalari va konseptual yondashuvlarini tahlil qiladi. Unda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli, pedagog va talabalar o'rtasidagi hamkorlik, kognitiv va faoliyat paradigmalari haqida fikr yuritilgan. Muallif ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish zarurligini ta'kidlab, pedagogik yondashuvlarning asosiy tamoyillarini bayon etadi. Shuningdek, oliy ta'limda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati muhokama qilinadi.

РЕЗЮМЕ:

Данная статья анализирует современные парадигмы и концептуальные подходы к подготовке специалистов в высших учебных заведениях. Рассматривается модель личностно-ориентированного обучения, взаимодействие между преподавателями и студентами, а также когнитивные и деятельностные парадигмы. Автор подчеркивает необходимость гуманизации образовательного процесса и излагает основные принципы педагогического подхода. Кроме того, обсуждается важность внедрения современных технологий и инновационных методов в высшем образовании.

SUMMARY:

This article analyzes modern paradigms and conceptual approaches to training specialists in higher education institutions. It examines the student-centered learning model, interaction between teachers and students, as well as cognitive and activity-based paradigms. The author emphasizes the need for the humanization of the educational process and outlines the fundamental principles of the pedagogical approach. Additionally, the importance of integrating modern technologies and innovative methods in higher education is discussed.

Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) mutaxassislar tayyorlashning mazmuni va texnologiyasini rivojlantirish holati ta'limning zamonaviy paradigmasini



amalga oshiradigan konseptual yondashuvlarni batafsil ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Shaxsga yo‘naltirilganligi ta‘lim quyidagilar bilan bog‘liq: birinchidan, ta‘limning har bir darajasi uzluksiz ta‘lim tizimining ajralmas qismi sifatida tan olingan; ikkinchidan, ta‘lim jarayoni subyektlararo munosabatlari o‘zaro ta‘sirning ijobiy yo‘nalishiga ega bo‘ladi; uchinchidan, pedagoglar va talabalarning teng huquqli sheriklar sifatidagi hamkorligi OTMda insonparvarlik muhitini yaratish uchun asos bo‘ladi; to‘rtinchidan, oliy ta‘limning shaxsning o‘zligini namoyon etishiga yo‘naltirilganligi, har bir talabaning o‘z ta‘lim yo‘nalishini tanlash erkinligi tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi.

Oliy ta‘lim paradigmalari ustida to‘xtaladigan bo‘lsak, xususan, kognitiv va faollik paradigmalari mavjud. Kognitiv paradigmasiga ko‘ra, tarkibni va uning barcha tarkibiy elementlarini tanlash tadqiqot faoliyati sifatida qabul qilinadi va shaxsiy jihatlar kognitiv faollikni rivojlantirishga qaratilgan.

Faoliyat paradigmasi esa aniq funksional yo‘nalishga ega, chunki ta‘limning maqsadi mehnat faoliyatining muvaffaqiyatini ta‘minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarining barqaror tizimini shakllantirishdir.

Paradigmalarni tanlash ixtisoslik va mutaxassislikning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘quv fanining mazmuni va pedagogning talabalar bilan ishlash tajribasi bilan belgilanadi [3].

Barcha tadqiqotchilarning pozitsiyasini inobatga olgan holda, hozirgi ijtimoiy-madaniy va pedagogik vaziyat oliy ta‘limni shaxsga yo‘naltirilgan paradigmasiga yanada faolroq qayta yo‘naltirishni talab qiladi. Bu ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish holatlari bilan bog‘liq.

Pedagoglar talabaga yo‘naltirilgan paradigma zarurligini tushunadilar, ammo mavjud pedagogik stereotiplar tufayli uni amalga oshirmaydilar.

Shu bois talabalarga ta‘lim berish amaliyotiga tayyorgarlik jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan munosabatlar modelini his etish, uslubiy vositalarga ega bo‘lish, insonparvarlik pozitsiyasini tushunish, qabul qilish va amalga oshirish imkoniyatini berish talab etiladi.

Bunga pedagog kadrlarni, shu jumladan boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlashning maxsus ishlab chiqilgan texnologiyasi sharti va mazmuni orqali erishish mumkin. Bir qator tadqiqotchilarning ma‘lum bir konseptual yondashuv o‘quv jarayonini loyihalash va amalga oshirishni tartibga soluvchi rol o‘ynaydi degan fikriga qo‘shilish mumkin. Yondashuvlar yig‘indisi oliy ta‘limning asosi bo‘lib, pedagogik kategoriyalar sifatida mazmun va texnologiyani qurish xususiyatlarini aks ettiradi.



Kontseptual yondashuvlar har xil turdagi pedagogik muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Konseptuallik tamoyillarini asosini, pedagogika ixtisosliklari talabalari uchun to'liqlilik tamoyili; talabalarni pedagogik tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirish tamoyili; ilmiy nashrlarda va meyoriy hujjatlarda o'z aksini topgan oliy ta'limning zamonaviy talablariga muvofiqligi tamoyili; talabalarning metodik madaniyatini shakllantirishga asoslangan bilim olishning faol-konstruktiv usuli tamoyillari kabilar tashkil etadi.

Konseptual yondashuvlar qatoriga shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan, integrativ, tizimli faoliyat kabilar kiritamiz. Tadqiqotimiz muammosini hisobga olgan holda har biriga qisqacha tavsif beramiz.

“Yondashuv” murakkab pedagogik vosita sifatida uchta komponentni o'z ichiga olganligini inobatga olib, fikr yuritamiz:

- o'quv amaliyotini o'rganish va isloh qilish jarayonida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar;

- boshlang'ich nuqta sifatidagi tamoyillar, pedagog va talabalarning turli faoliyatlarini amalga oshirishning asosiy qoidalari;

- ta'lim jarayonini tashkil etish usullari, vositalari va shakllari.

Tahlilni shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan boshlaymiz. Uning mohiyatini ko'rib chiqishda mamlakatimizda ham, xorijda ham ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ilmiy-metodik adabiyotlarda “gumanistik yondashuv”, “shaxsiy-faoliyatli yondashuv”, “shaxsga yo'naltirilgan yondashuv” kabi atamalar aniqlangan.

Tadqiqotimizda oxirgi atamadan foydalanamiz. Ta'limning “shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi”ning zamonaviy konsepsiyasi o'tgan asrda faoliyatning gumanistik yo'nalishi uchun asosiy ma'lumot nuqtai nazaridan taqdim etilgan. Insonparvarlikni shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yetakchi pedagogik tamoyili deb xisoblashadi. Aynan insonparvarlik pedagogga shaxsning madaniy jihatdan mos keladigan o'zini o'zi rivojlantirish maqsadlari, vositalari, shartlari bilan bog'liq ish usullarini aniqlashtirishga imkon beradi. Belgilangan tamoyilni amalga oshirish uchun pedagog keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Erkinlik gumanistik dunyoqarashning yetakchi antropologik holati sifatida qaralib, uni uch darajaga ajratishadi:

- 1) makrodaraja davlatning fuqarolarga nisbatan muayyan siyosatini nazarda tutadi;

- 2) mezodaraja ijtimoiy institutlar, ta'lim muassasalari tomonidan yaratilgan gumanitar yo'naltirilgan dasturlarda namoyon bo'ladi;



3) mikrodaraja inson qadr-qimmatini saqlashga, shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarishga imkon beradigan insonlar o'rtasidagi bevosita aloqalar bilan tavsiflanadi.

Ta'limni shaxsga yo'naltirilganlik g'oyasi quyidagi qoidalar shaklida:

- shaxs o'ziga xos xususiyatlari bilan ta'limning loyihalashtirilgan, o'lchangan, aniq belgilangan maxsus maqsadi sifatida ifodalanadi;
- ma'lum bir tizimli mazmun mavjud bo'lgandagina, ta'lim oluvchining shaxsiga pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish imkoni bo'ladi;
- mazmun sifatida shaxs va shaxsning refleksiya, o'z-o'zini ixtiyoriy tartibga solish, ijtimoiy mas'uliyat, kreativlik kabi funksiyalari ifodalaniladi va tushuniladi;
- shaxsiy tajribani o'zlashtirish maxsus yaratilgan shaxsga yo'naltirilgan texnologiyani qo'llashda yuzaga keladi, uning asosiy maqsadi shaxsni rivojlantirish uchun vaziyatni yaratishdir. Vaziyat talabaning o'zini o'zi tashkil etish mexanizmlarini faollashtiradigan pedagogik shartlar to'plami bilan tavsiflanadi. Ta'limni insonparvarlashtirishni madaniyat, jamiyat, shaxs qadriyatlariga asoslangan shaxs va jamiyatning yaxlit o'zaro ta'siri sifatida: altruistik munosabatdan qo'yidagi ko'rinishda foydalanadi zo'ravonlik qilmaslik, adolat, ixtiyoriylik, erkinlik, o'ziga va boshqa insonlarga ijobiy munosabat, o'zaro munosabatlarda, ijtimoiy faollikda, konstruktiv birdamlikda, hamkorlikda va hamdardlikda qaraladi.

Insonparvarlashtirish shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishining sharti, shuningdek, shaxsni bilish, muloqot qilish, ijodkorlik hamda pedagog va talabalarining turmush tarzi subyekti sifatida shakllantirish jarayoni hamda pedagog va talabalarni hayot tarzining asosiy elementi hisoblanadi - yangi pedagogik tafakkur ta'lim jarayonining dialogik mohiyatidir. Pedagogik ta'limning insonparvarlik maqsadi, pedagog shaxsining uzluksiz umumiy va kasbiy rivojlanishi sifatida namoyon bo'lishi, bunda bo'lajak pedagogning shaxsiy pozitsiyasi, uning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalari mujassamlashgan. Pedagog madaniyatning shakllantirish funksiyasini tiklash va uning kasbiy tayyorgarligi mazmunini shakllantirishga madaniy yondashuvning reallik tamoyilini amalga oshirish talab etiladi.

Maqolaning xulosasida oliy ta'lim tizimini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. Muallif ta'lim jarayonida insonparvarlik, talabalarining erkin tanlov imkoniyati va kreativ fikrlashini rivojlantirish muhimligini qayd etadi. Pedagoglar tomonidan zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, shaxsiy va kasbiy rivojlanishni ta'minlovchi metodlarni joriy etish talab etiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion



texnologiyalar va metodikalar asosida talabalarning faolligini oshirish muhimligi xulosa qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanboyeva J., To'raqulov X. A., Alqarov I. Sh., Usmanov N. O'. «Pedagogika» darslik «Noshir»T.: 2020-yil 399 bet.
2. Azimova I., Mavlonova K., Qurbonov S., Tursun Sh., Ro'zmetova Z. "Ona-tili va o'qish savodxonligi" Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik "Respublika ta'lim markazi" T.:2022-yil 1-nashr 142 bet.
3. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Matnazarova K., Shirinova M., Hafizov S. «Umumiy pedagogika» darslik «Fan va texnologiya» T.: 2018-yil 530 bet.
4. Ismailova Z., Maxsudov P., Ergashev O. «Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi» darslik T.: 2020-yil 262 bet.



KELAJAK PEDAGOGI UCHUN INTERAKTIV O'QUV TEKNOLOGIYALARI

Berdiyeva O.Q.

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
"Pedagogika" kafedrasida assistenti*

Tayanch so'zlar: interaktiv texnologiyalar, «o'zaro ta'sir», o'yinli ta'lim, afzalliklari, davlatlarda olib borilishi, onlayn platformalar.

Ключевые слова: интерактивные технологии, «взаимодействие», игровой подход в обучении, преимущества, применение в разных странах, онлайн-платформы.

Key words: interactive technologies, interaction, game-based learning, advantages, implementation in different countries, online platforms.

РЕЗЮМЕ:

Global texnologik taraqqiyot va raqamlashtirish ta'lim sohasini tubdan o'zgartirmoqda. Bu jarayonda interaktiv o'quv texnologiyalari nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ijodkorlik va hamkorlikka yo'naltirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Kelajak pedagogi esa ushbu texnologiyalarni puxta egallab, o'z faoliyatida samarali qo'llashi ushbu maqolada yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

Глобальное технологическое развитие и цифровизация коренным образом меняют сферу образования. В этом процессе интерактивные учебные технологии служат не только для повышения эффективности учебного процесса, но и как средство стимулирования самостоятельного мышления, творческого подхода и сотрудничества учащихся. Будущий педагог должен глубоко освоить эти технологии и эффективно применять их в своей деятельности, что и освещается в данной статье.

SUMMARY:

Global technological advancement and digitalization are fundamentally transforming the field of education. In this process, interactive learning technologies serve not only to enhance the efficiency of the educational process but also as a tool to foster independent thinking, creativity, and collaboration among learners. The future educator must thoroughly master these technologies and effectively implement them in their work, which is discussed in this article.

XXI asrda ta'lim jarayoni jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. An'anaviy dars metodlari asta-sekin o'z o'rnini raqamli, zamonaviy va interaktiv texnologiyalarga bo'shatmoqda. Bu jarayonning markazida esa - pedagog, ya'ni o'qituvchi turadi. Kelajak pedagogi nafaqat bilim beruvchi, balki axborot



texnologiyalaridan foydalanib, o'quvchini faol ishtirokchiga aylantiruvchi zamonaviy mutaxassis bo'lishi kerak. «Interaktiv» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, «o'zaro ta'sir» degan ma'noni anglatadi. Interaktiv o'qitish usullari o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida faol muloqotni ta'minlaydi, bilim olish jarayonini bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama qiladigan yondashuvdir. Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda, ta'lim tizimining transformatsiyasi muhim zaruratga aylandi. An'anaviy ta'lim usullari o'z samarasini yo'qotib borayotgan bir davrda, o'quv jarayonining interaktiv, o'zaro muloqotga asoslangan va talabaning faol ishtirokini ta'minlaydigan texnologiyalar orqali boyitilishi pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda interaktiv o'quv texnologiyalarini joriy etish orqali nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning mustaqil fikrlash, axborotni izlab topish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Interaktiv texnologiyalarning asosiy turlari Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)-kompyuter, planshet, smartfon, interaktiv doska, onlayn platformalar (Zoom, Microsoft Teams, Google Meet, Moodle, Edmodo) yordamida darsni o'tkazish imkonini beradi. Multimedia texnologiyalari-video, audio, grafikalar, animatsiyalar orqali o'quv materiallarini tushuntirish osonlashadi. Bu o'quvchida mavzuga qiziqish uyg'otadi va materialni chuqurroq anglashga yordam beradi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR)-tabiat, tarixiy voqealar yoki ilmiy tajribalarni virtual olamda ko'rsatish orqali murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi. O'yinli ta'lim (Gamification)-o'yin elementlari asosida bilim berish – masalan, “Kahoot!”, “Quizizz”, “Classcraft” platformalari orqali testlar o'tkazish, ball yig'ish, mukofotlar berish orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning)-talabalar biror muammoni hal qilish uchun mustaqil yoki guruhda loyiha ishlab chiqadi. Bu usul ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi. Zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan interaktiv texnologiyalar turlicha bo'lishi mumkin[1].

Kelajakda ta'limning muvaffaqiyati zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda faoliyat yuritadigan pedagog shaxsiga bog'liq bo'ladi. Interaktiv texnologiyalar pedagog va o'quvchi o'rtasidagi masofani qisqartirib, bilim olish jarayonini erkin va ijodiy muhitda tashkil qilishga imkon beradi. Masalan, sun'iy intellekt, virtual reallik (VR) yoki kengaytirilgan reallik (AR) asosidagi interaktiv vositalar orqali o'quvchilar tarixiy voqealarni vizual tarzda ko'rishi, biologik jarayonlarni 3D formatda kuzatishi mumkin. Bu esa ularning tasavvur doirasini kengaytiradi, fanlarga bo'lgan qiziqishini orttiradi.



Shuningdek, interaktiv texnologiyalar orqali o'quvchilar masofaviy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lib, chekka hududlardagi bolalar ham sifatli ta'lim bilan ta'minlanmoqda. Bu esa ta'limdagi tenglik prinsipining hayotga tatbiq etilishiga xizmat qiladi. [2].

Interaktiv texnologiyalarning afzalliklari :o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi, dars jarayonini vizual va tinglov orqali boyitadi, individual yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi, talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantiradi, ko'p ma'lumotni qisqa va samarali tarzda yetkazishga yordam beradi. Interaktiv texnologiyalarning kamchiliklari: texnologik vositalarga to'liq ega bo'lmagan hududlarda bu yondashuv qiyinlashadi, dastlabki o'rganish bosqichida o'qituvchilardan ko'p tayyorgarlik talab etiladi, ba'zida o'quvchilar texnologiya bilan "o'ynab ketib", asosiy maqsaddan chalg'ib qolishi mumkin. [3]. Interaktiv o'quv texnologiyalari boshqa davlatlarda olib borilishi qanday ekanligini ko'rib chiqamiz.

AQSh ta'lim tizimi interaktiv o'quv texnologiyalarini faol ravishda qo'llaydi va rivojlantiradi. STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo'nalishidagi ta'limda interaktiv laboratoriyalar, 3D modellar, virtual simulyatsiyalar keng qo'llaniladi. "Flipped classroom" (teskari sinf) modeli juda ommabop bo'lib, bunda o'quvchilar mustaqil ravishda onlayn materiallarni o'rganib, sinfda muammolarni muhokama qilishadi. Interaktiv doskalar, ta'lim uchun maxsus ishlab chiqilgan ilovalar (Kahoot!, Quizlet), VR/AR texnologiyalari. Massachusettsdagi MIT universiteti dunyoda ilg'or interaktiv o'quv platformalarini yaratgan. Yaponiyada ta'lim jarayoni texnologiyalarga juda moslashgan va an'anaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan. O'quvchilarning hamkorlikda ishlashiga katta e'tibor beriladi. Interaktiv robotlar yordamida darslar olib boriladi, bu yosh bolalarda texnologiyaga qiziqishni oshiradi. Smart taxtalar, o'quvchilar uchun mo'ljallangan interaktiv o'yinlar, robototexnika vositalari. Yapon maktablarida o'quvchilar texnologiyalar yordamida jamoaviy loyihalar ustida faol ishlaydi. Finlyandiya ta'lim tizimi dunyoda eng innovatsion va samarali deb hisoblanadi. Interaktiv ta'lim shaxsiylashtirilgan bo'lib, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashtirilgan. Ta'lim jarayonida muammoli o'rganish va loyihaviy faoliyat ustuvor. Zamonaviy kompyuterlar, onlayn resurslar, ta'lim platformalari. O'quvchilar ko'p hollarda real hayot muammolarini hal qilish uchun guruh ishlari va taqdimotlar orqali bilim oladi. Janubiy Koreya ta'lim tizimi yuqori texnologiyalarga asoslangan. Raqamli ta'lim, interaktiv darslar va o'yinlashtirilgan o'quv jarayoni keng qo'llanadi. Onlayn testlar, mobil ilovalar orqali doimiy monitoring va baholash amalga oshiriladi. Smart taxtalar, o'quv ilovalari, virtual sinflar. Ta'lim jarayonida



sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida o'quvchilarning qobiliyatlari individual tarzda baholanadi. Buyuk Britaniya ta'lim tizimida interaktiv o'quv texnologiyalari keng tarqalgan. Ta'limda blended learning (aralash ta'lim) modeli keng qo'llanadi. Onlayn resurslar va virtual laboratoriyalar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlaydi. Moodle kabi o'quv boshqaruv tizimlari, interaktiv testlar, video darslar. Universitetlar va maktablarda keng ko'lamli onlayn kurslar (MOOCs) taqdim etiladi[7].

Har bir davlat o'z ta'lim tizimida interaktiv o'quv texnologiyalarini milliy an'analar, iqtisodiy va texnik imkoniyatlarga moslashtirib qo'llaydi. Axborot texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanish global tendensiyaga aylangan. Interaktiv o'quv texnologiyalarining eng samarali usullari hamkorlik, muammoli o'rganish, individual yondashuv, o'yinlashtirish va sun'iy intellektga asoslangan tizimlardir. O'zbekiston ta'lim tizimi ham ushbu yo'nalishda faol rivojlanmoqda. «Raqamli ta'lim» konsepsiyasi asosida interaktiv platformalar, masofaviy ta'lim vositalari, sun'iy intellekt asosidagi darslar joriy etilmoqda. Kelajak pedagogi sifatida muvaffaqiyat qozonish uchun quyidagilar muhim: Doimiy ta'lim va malaka oshirish, yangi texnologiyalarni o'rganish, texnologiyalarni integratsiya qilishni o'rganish, ya'ni darsni interaktiv vositalarsiz tasavvur qilmaslik, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va differensial ta'lim usullarini qo'llash, jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantirish uchun kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, axborot xavfsizligi va raqamli etikani o'rganish va o'rgatish, o'yinlashtirish va kreativ metodlardan foydalanish orqali motivatsiyani oshirish mumkin.

Zamonaviy va kelajak pedagogi uchun interaktiv o'quv texnologiyalari ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vositadir. Texnologiyalarni samarali qo'llash, individual yondashuvni ta'minlash va interaktiv metodlarni joriy etish pedagoglarning yangi avlod talabalari bilan muvaffaqiyatli ishlashiga imkon beradi. Shu tariqa, kelajak pedagogi - zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan, innovatsion yondashuvga ega bo'lgan, o'quvchilarni faol va ijodiy fikrlashga rag'batlantiruvchi mutaxassisdir.

Xulosa. Interaktiv o'quv texnologiyalari - bu nafaqat zamonaviylik talabi, balki samarali ta'limning ajralmas qismidir. Kelajak pedagoglari uchun bu texnologiyalarni bilish, ulardan unumli foydalanish, darsni ijodiy tashkil etish, va eng muhimi, har bir o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirish – kasbiy ustunliklaridan biri bo'ladi. Ta'lim jarayonining markazida har doim inson – ya'ni o'quvchi turganidek, bu inson bilan ishlovchi pedagog doimo o'z ustida ishlashi, yangilikka ochiq bo'lishi zarur. Interaktiv o'quv texnologiyalari kelajak



pedagogining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu texnologiyalar nafaqat bilim berishni samarali qiladi, balki o'quvchilarni faol va ijodiy fikrlashga undaydi. Kelajak pedagogi uchun esa texnologik savodxonlik, innovatsiyalarni qabul qilish va o'quvchilarga individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limda interaktivlikni oshirish orqali biz yanada mustahkam va zamonaviy bilimlar berish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A.A., Jo'rayev R.J. «Pedagogik texnologiyalar asoslari.» – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Sharipova D.U. «Innovatsion pedagogik texnologiyalar.» – Toshkent: Fan, 2021.
3. Qodirova N., Teshaboyeva G. «Interaktiv metodlar asosida o'qitish.» – Toshkent: Iste'dod, 2019.
4. Axmedova D.X. «Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish metodikasi.» – Samarqand: SamDU, 2020.
5. Jononov M.S. «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar.» – Qarshi: Nasaf, 2022.
6. Azizxo'jayeva N.N. «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.» – Toshkent: Fan, 2006.
7. Kahoot! Learning tools – <https://kahoot.com>



MASOFAVIY TA'LIM TIZIMINING MODELLARI VA TEKNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK O'RNI

Mannabov J.T.

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi*

Tayanch so'zlar: masofaviy ta'lim, pedagogik modellashirish, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv o'qitish, innovatsion metodlar, onlayn o'qitish, o'quv ta'lim samaradorligi, pedagogik yondashuvlar, sun'iy intellekt ta'limda, moslashuvchan ta'lim tizimi.

Ключевые слова: дистанционное обучение, педагогическое моделирование, современные технологии, интерактивное обучение, инновационные методы, онлайн-обучение, эффективность образовательного процесса, педагогические подходы, искусственный интеллект в образовании, гибкая система обучения.

Key words: distance learning, pedagogical modeling, modern technologies, interactive teaching, innovative methods, online education, learning efficiency, pedagogical approaches, artificial intelligence in education, flexible learning system.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada an'anaviy ta'lim jarayonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish masalalari chuqur yoritilgan. Xususan, ta'limning sifatini yaxshilash maqsadida interaktiv vositalar, onlayn platformalar, virtual sinflar va multimedia resurslaridan foydalanishning imkoniyatlari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ:

В статье глубоко освещены вопросы повышения эффективности учебного процесса путем интеграции традиционного образования с современными цифровыми технологиями. В частности, проанализированы возможности использования интерактивных средств, онлайн-платформ, виртуальных классов и мультимедийных ресурсов с целью повышения качества образования.

SUMMARY:

The article thoroughly addresses the issues of enhancing the effectiveness of the educational process by integrating traditional teaching methods with modern digital technologies. In particular, it analyzes the potential of using interactive tools, online platforms, virtual classrooms, and multimedia resources to improve the quality of education.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimini ham tubdan o'zgartirishga olib kelmoqda. An'anaviy ta'lim shakllari o'zining imkoniyatlari bilan cheklangan bo'lib, bugungi raqamli avlod



talablariga to'liq javob bera olmay qolmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash masalasi masofaviy o'qitish shakllariga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Shu bilan birga, masofaviy ta'limni samarali tashkil etish va uni pedagogik nuqtai nazardan asoslash, zamonaviy metodlar asosida modellashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylangan.

Pedagogik modellashtirish vositasida ta'lim jarayonini tizimli tahlil qilish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni belgilash mumkin. Masofaviy ta'limda bu yondashuvlar ayniqsa muhim bo'lib, interaktivlik, moslashuvchanlik, hamkorlik va differensial yondashuvlar asosida o'quvchi faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, masofaviy ta'lim tizimini takomillashtirishda pedagogik modellashtirish konsepsiyasi nazariy va amaliy jihatdan asoslangan yechimlar taklif etadi.

Ushbu maqolada an'anaviy va zamonaviy o'qitish shakllarining integratsiyasi orqali masofaviy ta'lim samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida shakllantirilgan pedagogik modellar, ularning afzalliklari, real ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilinadi va istiqbollari ko'rsatib beriladi.

Masofaviy ta'lim - bu o'quv jarayonini vaqt va makondan mustaqil tarzda tashkil qilish imkonini beruvchi ta'lim shaklidir. Hozirgi kunda bu model faqatgina muqobil shakl emas, balki asosiy ta'lim shakliga aylanib bormoqda. Bunday ta'lim turining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun pedagogik yondashuvlar, texnologik infratuzilma va metodik ta'minot uzviy uyg'unlikda bo'lishi lozim.

Bugungi raqamli avlod vakillari uchun axborot tezkorligi, vizual taqdimotlar, interaktivlik va moslashuvchan o'qitish eng muhim jihatlardan hisoblanadi. Shu bois masofaviy ta'limda zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlangan o'quv muhitini yaratish zaruriyati ortib bormoqda.

Pedagogik modellashtirish - bu ta'lim jarayonini tizimli tahlil qilish, uni tashkil etuvchi elementlar (maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va natija) o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash orqali samarador ta'lim modeli yaratish jarayonidir. Masofaviy ta'limda bu uslub, ayniqsa, quyidagi jihatlar bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi:

Individuallashtirish: Har bir talabaning qobiliyati, tayyorgarlik darajasi va qiziqishlariga mos o'quv yo'nalishini shakllantirish;

Moslashuvchanlik: O'qitish mazmuni va metodikasini doimiy yangilab borish imkoniyati;



Monitoring va tahlil: O'quv faoliyati natijalarini real vaqt rejimida baholash va takomillashtirish.

Modellashtirish natijasida yaratilgan elektron o'quv kurslari, LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom, Edmodo va boshqalar), adaptiv testlar va gamifikatsiya elementlari o'quvchini faol ishtirok etishga undaydi.

Masofaviy ta'lim modellarining turlari va ularning afzalliklari

Masofaviy ta'limni tashkil etishda turli pedagogik modellar qo'llaniladi. Eng ko'p tarqalgan modellar quyidagilardir:

Sinfxonaga asoslangan onlayn ta'lim modeli: An'anaviy darslar onlayn formatda olib boriladi, ayni dars vaqtlari saqlanadi.

Gibrid (aralash) model: Onlayn va an'anaviy darslar uyg'unlashtirilgan. Bu model masofaviy ta'limning eng samarali variantlaridan biridir.

To'liq asinxron model: Talaba o'z vaqtida mustaqil ravishda o'quv materiallarini o'zlashtiradi.

Bu modellar ichida ayniqsa gibrid model talaba va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotni saqlagan holda raqamli vositalarning afzalliklarini to'liq namoyon qiladi. Pedagogik modellashtirish orqali bu modellar yanada takomillashtirilib, o'quvchilarning ehtiyojlari va kontekstiga moslashtiriladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish bo'yicha bir qator ilg'or loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, ayrim universitetlarda "Moodle" tizimi orqali o'quv kurslari ishlab chiqilib, talabalar faoliyati avtomatlashtirilgan. Ba'zi muassasalarda sun'iy intellekt asosida bilim darajasini baholash tizimlari sinovdan o'tkazilmoqda.

Xorijiy amaliyotda esa Coursera, edX, Khan Academy kabi platformalarda modellashtirilgan kurslar orqali talabalarning mustaqil o'qish, fikrlash va ko'nikmalarni rivojlantirish salohiyati oshirilmoqda.

Masofaviy ta'lim va pedagogik modellashtirish sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'plab olimlar tomonidan turli nuqtai nazarlardan o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarning muhimligini tasdiqlaydi.

Pedagogik modellashtirish nazariyasi bo'yicha K.Dj. Piskunov va G.K. Selevko kabi olimlar ta'lim jarayonining strukturasini tizimli tahlil qilish orqali samarali o'quv muhitini yaratish zarurligini ta'kidlaydilar (Piskunov, 2018; Selevko, 2017). Ularning tadqiqotlarida modellashtirish ta'limning turli bosqichlari va elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi.



Masofaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha xorijiy mutaxassislar - M. Moore, M. Anderson, va R. Clark - masofaviy ta'limning turli modellari va metodlarini tizimli ravishda o'rganganlar. Ular ta'lim samaradorligini oshirishda interaktivlik, o'quvchi faolligi va axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanishning ahamiyatini ko'rsatib bergan (Moore & Anderson, 2020; Clark, 2019).

O'zbekistonlik olimlar, xususan, Sh. Pardayev va K. Ro'ziyeva, masofaviy ta'limni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish yo'llarini izlab, pedagogik modellashtirish asosida innovatsion ta'lim texnologiyalarining amaliyotga joriy etilishi muhimligini ta'kidlaydilar (Pardayev, 2022; Ro'ziyeva, 2023). Ularning ishlarida interaktiv platformalar va adaptiv o'quv tizimlari ta'lim jarayonining sifatini oshirishda asosiy vosita sifatida ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, ta'limda sun'iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi sohasida olib borilgan ilmiy ishlar ham o'sib bormoqda. Xalqaro tadqiqotlar sun'iy intellekt yordamida ta'limni individualizatsiyalash, o'quv jarayonini avtomatlashtirish va o'quvchilarni monitoring qilishda katta imkoniyatlar yaratishini ko'rsatmoqda (Woolf, 2019; Luckin et al., 2016).

Yuqorida keltirilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'lim tizimini takomillashtirishda pedagogik modellashtirish nafaqat nazariy asoslarni shakllantirish, balki amaliy jihatdan ham samarali yechimlar ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy etish orqali ta'lim jarayonini yanada boyitish va moslashuvchan qilish mumkinligi ta'kidlanadi.

Shu bilan bir qatorda masofaviy ta'lim tizimini takomillashtirish va pedagogik modellashtirish asosida uning samaradorligini oshirish imkoniyatlari o'rganilganligi sababli, metodologiya kompleks yondashuv asosida tanlandi. Tadqiqot nazariy va amaliy jihatdan asoslangan bo'lib, quyidagi metodlar majmuasi qo'llanildi:

1. Nazariy tahlil usuli. Bu usul orqali mavjud ilmiy adabiyotlar, ta'lim texnologiyalari bo'yicha zamonaviy yondashuvlar, xorijiy va mahalliy tajribalar, ilg'or pedagogik modellar o'rganildi. Ayniqsa, masofaviy o'qitishdagi zamonaviy interaktiv texnologiyalar va ularning modellashtirilishi bo'yicha tahliliy ishlar asos bo'ldi.

2. Pedagogik modellashtirish. Pedagogik modellashtirish usuli asosida masofaviy ta'lim jarayonining funksional modeli ishlab chiqildi. Bu modelda o'quv jarayonining maqsadlari, mazmuni, shakl va vositalari o'zaro uzviy bog'langan holda ko'rsatildi. Shuningdek, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi



interaktiv munosabatlar, ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi.

3. Empirik usullar. Tadqiqot doirasida quyidagi amaliy-uslubiy usullar qo'llanildi:

So'rovnoma — talabalar va o'qituvchilar o'rtasida masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha fikrlar yig'ildi.

Test va diagnostika - eksperimental guruhlar faoliyati orqali yangi model asosida darslar o'tkazildi va natijalar baholandi.

Tajriba-sinov ishlari - yaratilgan modelni real o'quv jarayoniga joriy etish va natijalarni solishtirish asosida samaradorlik darajasi aniqlashtirildi.

4. Statistik va taqqoslash usullari. Olingan ma'lumotlar asosida statistik tahlillar o'tkazildi. Yangi modellashtirilgan masofaviy ta'lim modeli natijalari an'anaviy usullar bilan taqqoslandi, o'zaro farqlar aniqlanib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

5. Vizualizatsiya va texnologik vositalar tahlili. Raqamli platformalarning imkoniyatlari (Google Classroom, Moodle, Zoom, MS Teams) tahlil qilinib, qaysi vositalar pedagogik modellashtirishga mos ekanligi aniqlandi. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalarining moslashuvchan o'quv tizimlaridagi o'rni ko'rib chiqildi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Masofaviy ta'lim hozirgi global raqamli muhitda dolzarb va zaruriy ta'lim shakli bo'lib, uning samaradorligini ta'minlash uchun tizimli yondashuv va metodologik yangilanishlar talab etiladi.

Pedagogik modellashtirish asosida ishlab chiqilgan masofaviy ta'lim modeli ta'lim jarayonini boshqarish, monitoring qilish va individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy interaktiv texnologiyalar, sun'iy intellekt vositalari, moslashuvchan ta'lim modullari ta'lim sifati va talaba faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tajriba-sinov asosida modellashtirilgan masofaviy ta'lim modeli o'quvchilar bilim darajasining sezilarli oshishiga, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Pedagogik modellashtirish metodikasini masofaviy ta'limni loyihalash va rejalashtirishda majburiy tarkibiy qism sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar uchun raqamli pedagogika, masofaviy o'qitish va texnologik vositalardan foydalanish bo'yicha muntazam seminar va treninglar tashkil etilishi lozim.



Interaktiv va gamifikatsiyalashgan dars modullarini yaratish orqali o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish va ularning motivatsiyasini oshirish kerak.

Masofaviy ta'lim platformalarida sun'iy intellekt asosida individual baholash va tahlil tizimlarini joriy etish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniq nazorat qilish mumkin.

Raqamli o'quv kontentlar (video darslar, multimedia materiallar, virtual laboratoriyalar) soni va sifatini oshirish, ularni davlat standartlariga moslashtirish maqsadga muvofiq.

Masofaviy ta'limni davlat ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish kerak.

Xulosa qilib aytganda tanlangan metodologik yondashuvlar tadqiqot mavzusiga to'liq mos keladi va masofaviy ta'limni ilmiy asosda modellashtirish imkonini beradi. Har bir metod o'zaro uyg'un holda qo'llanilib, nazariy bilimlar amaliy tajribalar bilan boyitildi, bu esa yakuniy xulosalarning ishonchligini ta'minladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anderson T., & Dron J. (2011). Three generations of distance education pedagogy. *International Review of Research in Open and Distance Learning*, 12(3), 80–97. <https://doi.org/10.19173/irrodl.v12i3.890>
2. Clark R. C., & Mayer, R. E. (2016). *E-learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning* (4th ed.). Wiley.
3. Moore M. G. (2013). *Handbook of Distance Education* (3rd ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203803738>
4. Woolf B. P. (2010). *Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning*. Morgan Kaufmann.
5. Luckin R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson Education.
6. Selevko G. K. (2006). *Pedagogicheskiye tekhnologii na osnove pedagogicheskogo modelirovaniya*. Moskva: Narodnoye obrazovaniye.
7. Pardayev Sh. (2022). Masofaviy ta'limni takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar. *O'zbekiston pedagogik jurnali*, 3(1), 45–51.
8. Ro'ziyeva K. (2023). Masofaviy o'quv muhitida ta'lim sifati va raqamli savodxonlik. *Pedagogik mahorat*, 2(4), 60–67.
9. Piskunov K. D. (2018). Pedagogik modellashtirish nazariyalari va amaliyoti. *Rossiya pedagogik tadqiqotlari jurnali*, 2(5), 23–29.
10. UNESCO. (2020). *Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action*. https://en.unesco.org/sites/default/files/education_in_a_post-covid_world-nine_ideas.pdf



NOBIOLOGIK IXTISOSLIK TALABALARIDA EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Maxammadiyeva M. A.

QarshiDU

“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasi doktranti

Tayanch so‘zlar: ekologiya, ekologik ta‘lim, ekologik tarbiya, nobiologik, ixtisoslik, oliy ta‘lim, atrof-muhit, muhofaza qilish, konsepsiya.

Ключевые слова: экология, экологическое образование, экологическое воспитание, небиеологический, специальность, высшее образование, окружающая среда, защита, концепция.

Key words: ecology, ecological education, ecological education, non-biological, specialty, higher education, environment.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada nobiologik ixtisoslik talabalarida ekologik bilimlarni shakllantirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri ekanligi bayon etilgan. Zero, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish haqida gap ketganda, qaysi ixtisoslik bo‘lishidan qat‘iy nazar barcha birdek mas‘ul ekanligi ta‘kidlangan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье говорится о том, что формирование экологических знаний у студентов небиеологических специальностей является одной из важнейших проблем современности. Потому что подчеркивается, что в вопросах охраны окружающей среды и рационального использования природных ресурсов каждый, независимо от специальности, несет равную ответственность.

SUMMARY:

This article states that the formation of environmental knowledge in students of non-biological specialties is one of the most important problems of our time. Because it is emphasized that in matters of environmental protection and rational use of natural resources, everyone, regardless of specialty, bears equal responsibility.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim sohasida muhim islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Barcha ta‘lim tizimi muassasalarida tuzilishi va mazmuni jihatdan katta o‘zgarishlar yuz berdi. Ularning soni ortdi, mutaxassislar tayyorlash sohalari kengaydi, jamiyatimiz talablaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlashning sifati va malakasini oshirishga jiddiy e‘tibor berila boshlandi.



Oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan asosiy vazifalarni, shu jumladan talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ekologik tarbiyani hisobga olish, "Ekologiya", "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" fanlarini o'qitilishini yo'lga qo'yish masalasini muhokama qiladi. Ushbu masala samarasi ko'p jihatdan zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va saviyasi baland barkamol inson shaxsini shakllantirishga bog'liq.

Oliy ta'lim muassasalari talabalariga ekologik bilimlarni berish masalalari ko'plab tadqiqotlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Ularning tadqiqotlarida ekologik bilimlar va turli ilmiy sohalar: kimyo, fizika, geografiya, falsafa, iqtisod, matematika, sotsiologiya, xorijiy tillar, pedagogika, psixologiya va boshqalar o'rtasidagi munosabat aks ettirilgan. Xususan, olim G.A.Ismoilovning, Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish metodlarini takomillashtirish (O'zbekiston tarixi fani misolida) mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida O'zbekiston tarixi ta'limini takomillashtirilgan usullarda tashkil etish orqali talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish mezonlari hamda pedagogik talablar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi olim, K.B.Muxammadiyevning "Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari jarayonida talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishni ilmiy-pedagogik asoslash" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari jarayonida talabalarda ekologik madaniyat va bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari jarayonida talabalarda ekologik bilimlarni rivojlantirishni ilmiy-pedagogik asoslashning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, o'quv mashg'ulotlarida yuklamalarni oqilona qo'llash uslubi ishlab chiqilgan.

Ilmiy izlanuvchi S.Xolnazarov "Tojikiston oliy o'quv yurtlarida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini kasbiy-ekologik tayyorlashning pedagogik tizimi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak kimyo o'qituvchilarini ekologik tayyorlashning nazariy va uslubiy, pedagogik asoslari hamda ularda ekologik ta'limni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

"Bo'lajak ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi o'qituvchilarning ekologik ta'lim mazmuni" to'g'risidagi N.N.Dadabayevning ilmiy tadqiqot ishida oliy o'quv yurtlari shartlaridan kelib chiqqan holda bo'lajak ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi o'qituvchilarni tayyorlashda ekologik bilimlarni oshirish, gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida ekologik tushunchalarni shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarda ekologik ta'lim mazmunini aniqlashning nazariy



asoslari, gumanitar va umumkasbiy fanlarni o'rganish jarayonida talabalarning ekologik bilimlarini shakllantirish masalalari ishlab chiqilgan.

Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda nobiologik ixtisoslik talabalarida ekologiya sohasidagi kasbiy tayyorgarlik darajasi yetarlicha yuqori emas. Asosiy muammo - aksariyat o'quv rejalarda ekologiya fani bo'yicha dars soatlarining yo'qligi. Shuningdek, ta'lim dasturlarida ekologik bilimlardan foydalanishning past darajada ekanligi. Bundan tashqari, ta'lim standartlari va malaka talablarining mintaqaviy jihatlarini, hududiy tarkibiy qismlarini hisobga olish va ekologik xabardorlikni har bir ixtisoslikning xususiyatidan kelib chiqib mazmunli bo'lishiga erishish lozim. Zero, oliy ta'limning barcha nobiologik yo'nalishlari bo'yicha kasbiy tayyorgarlikning umumiy tizimiga ekologiya fanining kiritilishini shart deb hisoblaymiz.

Shu nuqtai nazardan, ixtisoslikliklar xususiyatidan kelib chiqqan holda, ekologiya fanini o'qitishning mazmun, shakl va metodlarini aniqlashtirib olish va o'quv rejalarga kiritish yanada aniqlikni keltirib chiqaradi. Nobiologik ixtisosliklar xususiyatini e'tiborga olib, ekologiya fanining mavzularini to'g'ri tanlash ekologik bilimlar mazmunini chuqur va mukammal egallashga, talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ekologik tarbiyani shakllanish samaradorligi yuqori bo'lishiga imkon yaratadi.

Nobiologik ixtisosliklarda tahsil olayotgan talabalar ekologiya fanidan ta'lim olishlari barobarida, ekologik bilimlardan xabardorliklari, tabiat qonuniyatlarini tushunib yetganliklari, ekologik tushuncha va dunyoqarashning shakllanganligi ularning atrof-muhitga nisbatan munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ekologik bilimlarning asosiy ta'limda qo'llanilishi uning faoliyat ko'lamini kengaytiradi va ekologik omillarni hisobga olgan holda samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Qolaversa, nobiologik ixtisoslik talabalarining ekologiya fanini o'qitilishi ta'lim sifatini oshiradi va uni xalqaro ta'lim standartlariga moslashtiradi.

Biroq aytish joizki, uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos ekanligi ilmiy asoslanishiga qaramay, hanuzgacha oliy ta'lim tizimidagi aksariyat yo'nalishlarda "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" fanini mustaqil fan sifatida to'liq qamrab olinmaganligi, talaba yoshlar tarbiyasida ekologik ko'nikma va tarbiyaning talab darajasida emasligi ularni tabiatdan ajralib qolayotganliklariga sabab bo'lmoqda. Shu bois, quyidagilarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

Shularni e'tiborga olgan holda, Respublikamizda ekologik muammolarni bartaraf etish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, barcha aholida ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida ekologik ta'lim-tarbiyani uzluksiz



-oliy o'quv yurtining nobiologik ixtisoslik talabalarida ekologik bilimlar berish masalalari ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida qabul qilinishi;

- talabalarga ekologik bilim berishda ixtisoslik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish;

- nobiologik ixtisoslik talabalariga beriladigan ekologik bilimlar mazmunini boyitish va kengaytirish;

-talabalar ekologiya fanini o'zlashtirishlari jarayonida zamonaviy innovatsion metod va vositalaridan samarali foydalanish;

-ekologik bilimlar berishda tarixiy, milliy, ekologik qadriyatlar hamda hozirgi zamon mahalliy, hududiy, umumbashariy ekologik muammolar bilan uzviy va uzluksiz aloqada amalga oshirish.

ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qarash va ta'lim tizimi jarayoniga keng joriy etishning ya'ni barcha ta'lim turlarida o'qitishning vaqt-soati kelganligini ma'lum qilish va anglatish maqsadida **Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi** ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya 2019 yil 27 mayda 434-sonli qaror bilan tasdiqdan o'tdi. Konsepsiyaning 6-bobi Oliy ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan va muhim vazifalarga e'tibor qaratilgan [1].

Yuqoridagi masalalardan ham ko'rinib turiptiki ekologiya fanini uzluksiz ta'lim tizimining muhim bug'ini hisoblangan oliy ta'limda o'qitish davr talabidir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasida kadrlar tayyorlashni amaliyot bilan muvofiqlashtirish to'g'risida" 2024 yil 29-oktabrdagi 407-son buyrug'ining 5-bandida: "...2025-2026 o'quv yilidan boshlab bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatini inobatga olgan holda o'quv rejalari tanlov fanlari blokida sohaga yo'naltirilgan "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" fani o'qitilishini ta'minlash choralari ko'rish vazifalari belgilangan [2]. Zero, ekologik muammolar keskinlashib borayotgan bugungi kunda barchani ekologik bilimlardan xabardor qilish, ekologik vaziyatni tushuntirish, uni oldini olish yo'llarini o'rgatish muhim vazifa hisoblanadi.

Darhaqiqat, aholining keng ishtirokisiz atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal etib bo'lmaydi. Bunda aholining bilim darajasi alohida ahamiyatga ega ekanligi institutsional muammolar sifatida qabul qilingan. Atrof-



muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ularning amalga oshirilishi, kelajak avlodlarning manfaatleri yo‘lida davlatni barqaror rivojlantirishni ta‘minlash imkonini beradi [3].

Xulosa qilib aytganda, hozirgi ekologik muammolar keskinlashib borayotgan globallashuv sharoitida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, bu maqsadda ekologik qonunchilikni takomillashtirib borish uchun ekologik ta‘lim-tarbiyani yanada kuchaytirish va uning uzluksizligini ta‘minlash ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi. Bu esa mamlakatimizdagi mavjud tabiiy boyliklarni muhofaza qilish va kelajak avlod uchun bus-butun qoldirishga, ularni asrab-avaylashga, e‘zozlashga hamda ulardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ekologik ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” gi 2019 yil 27 may 434-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi sohasida kadrlar tayyorlashni amaliyot bilan muvofiqlashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 29 oktabrdagi 407-son buyrug‘i.
3. Bazarova N. Tabiat muhofazasida ekologik ta‘limning ahamiyati. // Ekologiya xabarnomasi. 2021 yil 2-son. 38-41-betlar.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI DIREKTORLARINING BOSHQARUV FAOLIYATIDA IJTIMOIIY MUHITNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIYASI

Saidqulov S.B.

*Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy insituti
tayanch doktoranti*

Tayanch so'zlar: ta'lim, pedagoglar, boshqaruv, faoliyat, ijtimoiy muhit, umumiy o'rta ta'lim maktabi.

Ключевые слова: образование, педагоги, управление, деятельность, социальная среда, общеобразовательная школа.

Key words: education, teachers, management, activities, social environment, comprehensive school.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning nazariy asoslari o'rganilgan. Nazariy asoslarga tayangan holatda boshqaruv, faoliyat va ijtimoiy muhit so'zlariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются теоретические основы развития социальной среды в управленческой деятельности директоров общеобразовательных школ. На основе теоретических основ разрабатываются авторские определения терминов «управление», «деятельность», «социальная среда».

SUMMARY:

The article examines the theoretical foundations of the development of the social environment in the management activities of directors of comprehensive schools. Based on the theoretical foundations, the author's definitions of the terms "management", "activity", "social environment" are developed.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi zamonaviy islohotlar, ijtimoiy rivojlanish hamda erkin bozor iqtisodiyoti chuqur ildiz otib borayotgan davrda, bir qator yangi talablar yuzaga keldi. Ular ichida eng muhimlari: ijtimoiy diagnostika, guruhlarda o'zaro shaxsiy hamda rahbarlik munosabatlarini tahlil qilish va tartibga solish, funksional va ijtimoiy ixtiloflarni hamda stresslarni boshqarish, ta'lim tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, pedagog xodimlarga ehtiyojlarni tahlil qilish,



pedagog xodimlarning kasbiy va ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim tizimini boshqaruv jarayoniga yangicha yondashuv kabi masalalardir. Bu nafaqat ta'lim tizimidagi boshqaruv muammolarini, balki maktab rahbarlari tomonidan boshqaruvni takomillashtirish hamda boshqaruvning ijtimoiy usullarini amaliyotga tadbiq etish, shuningdek, turli darajadagi rahbarlarning boshqaruv faoliyatida mavjud muammolarni oldindan ko'rish va ularni ijobiy hal etish qobiliyatlarini shakllantirishni olg'a surmoqda.

Ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimi ma'muriy vazifalarni soddalashtirish, samaradorlikni oshirish va uzluksiz ishlashni ta'minlash uchun zarurdir. Shunday ekan, maqolamizni tashkil etuvchi asosiy tushunchalar hamda atamalarga berilgan ilmiy va nazariy ta'riflarga to'xtalib o'tamiz.

Mavzuni hamda ilmiy tadqiqotimizning asosiy mazmunini boshqaruv jarayoni tashkil etadi. Boshqaruv tushunchasi insoniyat ibtidoiy jamoa bo'lib istiqomat qila boshlagandan buyon dolzarb hisoblanadi.

Manbaalarda umumiy o'rta ta'lim maktablariga rahbarlik qilish va uni boshqarish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [1], Ta'lim to'g'risidagi qonun [2] hamda O'zbekiston Respublikasining maktabgacha va maktab ta'limi to'g'risidagi qonunlariga muvofiq amalga oshirilishi, maktab boshqaruvi jarayonida pedagogik kengash tomonidan jamoani o'z-o'zini boshqarish hamda bevosita rahbar tomonidan tasdiqlangan maktab Nizomining muhim ahamiyatga egaligi, o'quv-tarbiya jarayonining mazkur Nizom talablariga muvofiq ta'lim muassasasining direktori boshqarishi, o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish va takomillashtirish, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasb mahorati va ijodkorligini o'stirish maqsadida maktab pedagoglar kengashi, pedagoglar hodimlarni birlashtiruvchi ijtimoiy muhitni yanada rivojlantirishga urg'u beriladi. [7]

Afinadagi ilk akademiya asoschisi bo'lgan Platon boshqaruvni ideal davlat g'oyasi bilan bog'lab, hukmdorlar donishmand bo'lishi lozimligini, boshqaruv adolat va axloqiy qadriyatlarga asoslanishi kerakligini ta'kidlab o'tadi.

Platonning boshqaruvga oid qarashlari uning "Davlat" (Politeia) asarida keng yoritilgan. U boshqaruvga falsafiy va axloqiy nuqtai nazardan yondashib, ideal davlat tuzumini tasvirlashga harakat qilgan. Platon donishmand hamda hukmdorlar tomonidan boshqarish, davlat boshqaruvining eng oliy shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, faqat haqiqiy donishmandlar adolatni anglab, xalqqa foyda keltiruvchi qarorlar qabul qila oladilar. Platon jamiyatni uch tabaqaga ajratgan holatda tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bular:



- Hukmdorlar - donishmandlar hamda faylasuflar, ular adolatni ta'minlaydi va davlatni boshqaradi.

- Jangchilar - davlat xavfsizligini va tinch-totuvligini ta'minlaydi hamda hokimiyatni himoya qiladi.

- Ishchilar va hunarmandlar - davlatning hamda fuqarolarning iqtisodiy ehtiyojlarni qondiradi va davlat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Boshqaruv jarayonlarini bu shaklda tashkil etish, davlat yoki muassasa boshqaruvini faqat kuchga yoki boylikgagina emas, balki aql-zakovat va donishmandlikga ham asoslangan holatda tashkil etish lozimligini anglatadi.

“Boshqaruv” fan sifatida shakllanganiga qadar o'tgan davrlarda ham ushbu jarayonning tub mohiyati va mazmunini tushungan hamda amaliyotga qo'llagan, turli murakkab insonlarning guruhlariga muvaffaqiyatli rahbarlik qilgan, o'z tajriba va nuqtayi nazarlarini kelajak avlodga meros sifatida qoldirgan buyuk shaxslar bo'lganki, ularning g'oyalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday sifatarga ega, o'rta asrlarning buyuk turkiy askarlaridan biri, Temuriylar imperiyasi asoschisi Sohibqiron Amir Temurdir. Uning “Temur tuzuklari” asarini o'qib, boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish mumkin [8].

Amir Temurning “xar bir voli o'zining qamchisi kabi ahamiyatga ega bo'lmasa, u to'ralik mansabiga loyiq emas”, iborasi uning rahbar shaxsiga, insonlar guruhini boshqarish faoliyatiga, boshqaruvda ijtimoiy muhitni rivojlantirishga, kasbiy va shaxsiy sifatlariga alohida ahamiyat berilganligini ko'rsatadi.

Amir Temur boshqaruvga oid bir qancha shaxsiy qarashlarga ham ega bo'lgan:

Adolat tamoyili: Amir Temur adolatni davlat barqarorligining asosiy tayanchi deb bilgan. “Adolat bilan ish yuritmoq - davlatning quvvati va qudratidir” deya ta'kidlab o'tgan.

Rahbarning mas'uliyati: U rahbar doimo xalqning ehtiyojlarini tushunishi, ularning fikrlarini eshitishi kerakligini ta'kidlaydi: “Podshohning qulog'i xalqning tiliga, ko'zi esa ularning hayotiga doim ochiq bo'lmog'i lozim”.

Kuch va tartib: Boshqaruv muvaffaqiyatli bo'lishi uchun temir intizom va qat'iyat zarurligini uqtirgan: “Tartib bo'lmagan joyda davlat yemirila boshlaydi”.

Maslahatchilar roli: Amir Temur rahbar yolg'iz qaror qilmasligi, balki bilimdon va sodiq maslahatchilar bilan maslahatlashib ish tutishi muhimligini aytgan: “Aql egalari bilan kengashmoq - islohotning kalitidir”.



Bu fikrlarni bugungi kunda maktab boshqaruvi bilan bog'lash mumkin. Maktab direktori adolatli qaror qabul qilishi, jamoa bilan maslahatlashishi, intizom o'rnatishi va ijtimoiy muhitni yanada rivojlantirishi uchun yuqoridagi tamoyillar ham juda ahamiyatli hisoblanadi.

Amerikalik injener, boshqaruvni ilmiy asosda tashkil etishning asoschisi bo'lmish F.Teylorga ko'ra boshqaruv - bu ish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Teylor ushbu ta'rifga tayangan holatda o'zining, Teylorizm nazariyasini yaratadi. Ushbu nazariyada 5 ta asosiy tamoyil mavjud:

-Ilmiy mehnat tahlili: Mehnatni tashkil etishda har bir ish jarayoni batafsil o'rganiladi va eng samarali usullar aniqlanadi. Bunga misol qilib, ish-harakatlarning optimalligi, vaqt taqsimotini ko'rsatish mumkin.

-Ishchi va rahbarlarning vazifalarini ajratish: Bu tamoyilga ko'ra rahbarlar ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish bilan shug'ullanishi, ishchilar esa faqat belgilangan vazifalarni bajarishini tushunish mumkin.

-Standartlashtirish: Boshqaruvda barcha ish jarayonlari bir xil usullar bilan ishlaydi, ya'ni mehnat faoliyati standartlashtiriladi.

-Ishchilarni tanlash va malakasini oshirish: Bu tamoyilning asosiy mazmuni tashkilot yoki muassasaga insonlar ular ega bo'lgan resurslariga qarab ishga qabul qilinadi va ular uzluksiz ravishda kasbiy rivojlanib boraveradi.

-Moddiy rag'batlantirish: Yuqori unumdorlikka erishgan ishchilar mukofotlanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan Teylorizm nazariyasining bugungi kunda ham dolzarb ekanligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun inson resurslarini boshqarishning samarali funksiyalariga, xodimlarni ishga qabul va ularni doimiy o'qitish hamda rivojlantirish ham kiradi. Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat olib rahbar kadrlar va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 231-sonli qarori [3], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 681-sonli qarori [4] va 2024-yil 7-avgustdagi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy



etish to'g'risida"gi 246-sonli buyruqlarini [5] pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun belgilangan me'yoriy hujjatlar sifatida ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 681-sonli qarorida aynan yuqori samaradorlikka erishgan rahbar kadrlarni moddiy rag'batlantirish bo'yicha aniq bandlar ham keltirib o'tilgan. Ya'ni qarorning 2-bandida menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan maktab direktorlariga - 50 foiz, maktab direktori o'rinbosarlariga - 30 foiz lavozim maoshiga har oylik qo'shimcha ustamalar to'lanishi belgilab qo'yilgan.

Fransuz muhandisi va nazariyachi, zamonaviy boshqaruv nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan Anri Fayol o'zining boshqaruv haqidagi fikrlarini "Umumiy boshqaruv nazariyasi" deb nomlaydi va tashkilotlarning yuqori darajali ma'muriy funksiyalariga e'tibor qaratadi. Fayol boshqaruvni universal jarayon deb hisoblagan va boshqaruvning quyidagi funksiyalarni ishlab chiqqan:

Rejalashtirish: Kelajakdagi harakatlarni oldindan belgilash va strategiyalar ishlab chiqish.

Tashkil etish: Resurslarni (odamlar, moliya, texnika) samarali taqsimlash.

Buyruq berish: Xodimlarni boshqarish hamda ularga ko'rsatmalar berish.

Muvofiqlashtirish: Turli bo'limlar va ularning faoliyatlarini uyg'unlashtirish.

Nazorat qilish: Rejalarga mosligini tekshirish va xatolarni tuzatish.

Fayol va Teylorning boshqaruv haqida tushunchalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, Teylor asosan mehnat jamoasidagi joyidagi ish samaradorligini oshirishga, jamoada ijtimoiy muhitni takomillashtirishga qaratgan bo'lsa, Fayol butun muassasasini boshqarish tamoyillarini ishlab chiqqan.

XX asrning eng nufuzli boshqaruv nazariyotchilaridan biri bo'lgan Piter Druker "boshqaruv bu tashkilot oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun inson resurslari, moliya, texnologiya hamda jarayonlarni samarali boshqarish san'atidir deb ta'rif bersa, nemis siyosatchisi Max Veber boshqaruv bu byurokratik tuzilma orqali tartib-intizom va aniq vakolatlar tizimi asosida boshqariladigan jarayondir deya mulohazalar bildirib o'tgan.

S.N.Tidor esa boshqaruvni quyidagicha tavsiflaydi: "Maqsad yo'nalishida obyektning muvofiqlashtirish; maqsadga erishish uchun obyektga ta'sir etish; maqsadga erishish yo'nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirish".



A.I.Kitovning talqiniga ko'ra: "Boshqaruv - bu insonlarni boshqarish, ular bilan ishlash.

D.Oldyord ta'limni boshqarish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan obyektiv rivojlantirish qonunlari, ijtimoiy ehtiyoj va talablariga bog'liq ekanligiga e'tibor qaratar ekan, ta'limni zamonaviy boshqarishning quyidagi sakkiz tamoyilini ilgari suradi. [9]

Topshiriqni bajarishga yo'naltirish	Ijrochilar faoliyatiga tayanib ish ko'rish
Muammoni yechishga ijodiy yondashish (o'zgarishlarga moslashish maqsadida fikrlashning barcha imkoniyatlarini qo'llash)	Jamoa a'zolarining hamkorligi va o'zaro aloqalari (sinergiya)
Sifatli natijalarga erishish uchun tizimli rejalashtirish (siyosatni ishlab chiqish-rejalashtirish-ro'yobga chiqarish-monitoring)	Buyurtmachiga yo'naltirilganlik (buyurtmachi yoki qiziquvchi tomonlarning talablari bo'yicha xizmat ko'rsatish)
Mavjud holatdan kelib chiqqan holda rahbarlik usulini qo'llash (holatga va bo'ysunuvchilarga moslashish imkoniyatlarini kuchaytirish)	Ijodiy fikrlash, qulay ijtimoiy muhit, o'zaro munosabatlar (hamkasblar faoliyatini baholay bilish va hurmat qilish)
O'zaro samarali munosabatlar va hamkasblarga bir xil munosabatda bo'lish (aniq natijalar, qayta aloqa)	Vakolatlar berish va hodimlar kasbiy mahoratini oshirishga imkoniyat yaratish

Pedagogik boshqaruv o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Jumladan: ta'limdagi boshqarish axloqiy o'lchovga ega bo'lib, u "maqbullik" so'zi bilan aniqlanadi; ta'limni boshqarish - ham san'at, ham fan, chunki unda odamlar bilan munosabat va fanni bilish katta rol o'ynaydi; shaxsiy, davlat va jamoat manfaatlarining diektik birligi boshqarish mazmunida o'z aksini topadi; ta'limni boshqarishda jamoatchilikning keng ishtiroki ta'minlanadi; ta'limni boshqarishda turli xil, jumladan iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-ma'muriy hamda axborotlar to'plash metodlaridan foydalanish imkonini beradigan shakl va uslublarni muntazam takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir. [10]

Mamlakatimizda menejment fanining rivojlanishiga salmoqli xissa qo'shgan olimlardan M.Sharifxo'jayev, Yo.Abdullayevlar boshqaruv o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish hamda uning bajarilishini nazorat qilish ekanligini ta'kidlab, quyidagicha ta'rif beradilar: "Boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir" [11]

U.Inoyatovning fikricha, ta'lim tizimini boshqarish darajasi va yo'nalishlariga ko'ra farqlanadi. Jumladan, darajasiga ko'ra-uumdavlat, tarmoqlararo, tarmoq, mahalliy va umumiy ta'lim maktablarining ichki boshqaruvi; yo'nalishlariga



ko'ra-tashkiliy, tizimli, mazmunli, kadrlar masalasi nuqtayi nazaridan va metodik [12]

R.X.Djurayev va S.T.Turg'unovlarga ko'ra, maktabni boshqarish bu rahbarlar bilan pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatidan iborat bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarish, mazkur jarayon ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirishda ijtimoiy muhitni rivojlantirish hamda o'quvchilarga fanlar bo'yicha chuqur bilim va axloqiy tarbiya berish ta'lim, kasb tanlashga yo'llash va har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan faoliyatdir. Ushbu faoliyat yani, ta'lim muassasalari boshqaruvida boshqaruv metodlari ham muhim ahamiyat kasb etib, ular boshqaruv jarayonida hodimlar faoliyatini tashkil etish hamda ularni muvofiqlashtirishda qo'llaniladigan ta'sir etish yo'llari va shakllarining yig'indisi hisoblanadi. [13]

Boshqarish metodi boshqarish faoliyatini amalga oshirish shakllari va yo'llari majmuidir, boshqarish tizimiga samarali, maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishdan, ya'ni boshqarish funksiyalarini amalga oshirish mexanizmidan iboratdir.

Yuqorida keltirib o'tilgan olimlarning fikrlariga tayangan holda boshqaruv tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifini taqdim etamiz: "Boshqaruv - har qanday jamiyatga xos bo'lgan, xayot va turmush zaruriyatidan kelib chiqadigan faoliyatdir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mehnat aqlining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishni va shu asnoda barcha ijtimoiy munosabatlarni taraqqiy ettirishdan iborat".

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv faoliyatini bevosita maktab direktorlari amalga oshiradi. Demak faoliyat o'zi nima, direktorlarning boshqaruv faoliyatiga nimalar kiradi degan savolga ham atroflicha javob izlash lozimligi kelib chiqmoqda.

Falsafa fanida faoliyat tushunchasi butun olamga nisbatan bo'lgan o'ziga xos insoniy munosabatlar usuli sifatida qaralsa, sotsiologiyada faoliyatni ijtimoiy voqelikni mavjudligi va rivojlanishi, ijtimoiy faollikni vujudga kelishi deb ta'riflanadi. Pedagogika va psixologiya fanlari doirasidagi tadqiqotlarda faoliyat tushunchasi alohida obyektlashtirilgan moddiy va ma'naviy mahsulotlarni ishlab chiqish va vujudga keltirishga yo'naltirilgan faollik, ya'ni subyektning faolligi sifatida tadqiq etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatini asoslash va tadqiq qilishning nazariy asoslari hisoblangan nazariy psixologik tahliliv faoliyati B.G.Ananaev, A.A.Leontev, B.F.Lomov, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteynlar tomonidan ishlab chiqilgan. Mashhur psixolog va faylasuf



S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra, har qanday faoliyat maqsadga erishish maqsadlarga erishish istaklari va sabablariga asoslangan qator harakatlardan iborat, chunki turli sharoitlarda maqsadga turli yo'llar hamda usullar bilan erishish mumkin, qoidaga ko'ra, bunda harakat qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratiladi. Faoliyat-bu faollikni alohida turi bo'lib, buning natijasida fikr, g'oya va tushunchalar tug'iladi va bular yordamida boshqariladi.

B.G.Ananaev inson faoliyatini obyekt va subyekt munosabatlari tizimida, yani ijtimoiy hamda tarixiy jarayonning subyekt sifatida shaxsning kamol topishida ijtimoiy aloqalar va o'zaro aloqalarni ko'rib chiqadi. Chunki, faoliyat subyekt – bu huquq va majburiyatlarga, funksional vazifalarga ega bo'lgan va ularni amalga oshiruvchi shaxs xisoblanadi.

V.A.Petrovskiy faoliyatni shaxsning kamol topishidagi qarshiliklarni yengish, shuningdek, ziddiyatlarni hal etishning yagona, asosiy va samarali uslublari bilan bog'laydi.

A.N.Leontev faoliyat tushunchasi turli sabablar bilan bog'laydi, yani faoliyat odatda, umumiy maqsadlardan kelib chiquvchi alohida maqsadlarga bo'ysunuvchi harakatlar orqali amalga oshiriladi, deb hisoblagan holda u subyektning asosiy (yetakchi) faoliyatini tavsiflovchi quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatadi:

- faoliyatning yangi turlari va xususiyatlarini vujudga kelishi va differensiyasi;
- xususiy psixologik jarayonlarning o'zgarib turishi yoki ifodalanishi;
- faoliyatning unumdorligini kasbiy mahorat sifatida namoyon bo'lishi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holatda aytishimiz mumkinki, faoliyat – bu ko'zlangan maqsadlarga erishishda, shaxsni shakllantirish va uning faolligini belgilash, fikr hamda g'oyalarning tug'ilishi va ularni boshqarishga yo'naltirilgan harakatlar majmuasidir.

N.V.Kuz'minaning fikricha, ixtiyoriy kasbiy faoliyat doimo belgilangan shaklda tashkil etiladi, ya'ni o'zaro aloqada bo'lgan yetakchi va ikkinchi darajali tashkil etuvchi qismlarga, strukturaga ega bo'ladi. Barcha kasbiy faoliyat shaxsdan bilish, diqqatni taqsimlash, mustahkam iroda, qiyinchiliklarni yengish kabi o'ziga xos psixologik qobiliyatlarni talab qiladi.

V.F.Afanasevning tasdiqlashicha, harakatlarning tartibga keltirish ehtiyoji qachon tug'ilsa, shunda boshqaruv vujudga keladi. Boshqaruv faoliyatini samarali amalga oshirish uchun direktorlar bilim, ko'nikma va malakalardan foydalana olishi hamda kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis bo'lishi zarur.

Faoliyat so'ziga psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot va menejment sohaslarida ham bir qancha ta'riflar berib o'tilgan. Psixologiya sohasida, faoliyat-bu insonning maqsadli, tashkilotli va ijtimoiy jihatdan muhim xatti-



harakatlari. U shaxsning ichki motivatsiyasi, ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog‘liq deya keltirilgan bo‘lsa, pedagogika sohasida, faoliyat - bu o‘quvchining bilim olish, ko‘nikmalar va malakalarni egallash jarayoni deya keltiriladi. Faoliyatga iqtisodiyot va menejment sohasida, resurslarni samarali boshqarish, rejalashtirish va natijalarga erishishni o‘z ichiga olgan jarayon sifatida ta’rif beriladi.

Rahbar faoliyatini, ya’ni umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktorining faoliyatini alohida ko‘rib chiqqan holda ta’kidlash mumkinki, bu tushuncha kasbiy tushunchalar tarkibiga kiradi. Bizning fikrimizcha, maktab direktorlarida amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilish hamda kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan tushunchalar bilan qurollantirish, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida tashkil etilayotgan “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish” kurslarida amalga oshirilmoqda. Menejerlik kurslarida aynan amaldagi maktab direktorlari hamda maktab direktorligiga nomzodlar uchun, umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktorining boshqaruv faoliyatida qo‘llaydigan bilim, ko‘nikma va malakalari yanada rivojlantirilmoqda.

N.K.Axmedova o‘zining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish” nomli dissertatsiyasida [14], umumiy o‘rta ta’lim maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatining asosiy yo‘nalishlari tizimini, loyiha sifatida quyidagicha taqdim etadi:

Maktab rahbarlari boshqaruv faoliyatining asosiy yo‘nalishlari		
Maktab faoliyatini re-jalashtirish va ilmiy asosda tashkil etish	Kadrlar tanlash, joy-joyiga qo‘yish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish	Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish
Jamoa a’zolarining yashash va mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash	Jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish	Innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish
Hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish	Ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish	O‘zini-o‘zi boshqarish va rivojlantirish
<i>Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish</i>		

3. Deardorff D. K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. *Journal of Studies in International Education*, 10(3), 241–266. <https://doi.org/10.1177/1028315306287002>
4. Fantini A. E. (2009). Assessing intercultural competence: Issues and tools. *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*, P.456–476.
5. Hall E. T. (1976). *Beyond culture*. Anchor Books, P.324-326.
6. Hymes D. H. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* P. 269–293.
7. Kramsch C. (1993). *Context and culture in language teaching*. Oxford University Press. P.289-392.
8. Risager K. (2007). *Language and culture pedagogy: From a national to a transnational paradigm*. *Multilingual Matters*. P.654-657.
9. Savignon S. J. (2002). *Interpreting communicative language teaching: Contexts and concerns in teacher education*. Yale University Press. P.987-989.
10. Sercu L. (Ed.). (2005). *Foreign language teachers and intercultural competence: An international investigation*. *Multilingual Matters*. P.256-258.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

TARIYXIY ESTELIKLER ARQALI STUDENTLERDI RUWXIY- ÁDEPIKRAMLÍQ TÁRBIYALAWDÍŇ HÁZIRGI JAǴDAYI

Primbetov K. T.

*Ajiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti «Milliy ideya,
ruwxıylıq tiykarları hám huqıq tálimi» kafedrası docenti w.w.a.,
Pedagogika ilimleriniñ filosofiya doktori (PhD)*

Turebaeva F. S.

Milliy ideya, ruwxıylıq tiykarlari h m huqıq t limi 3-a-kurs talabası.

Tayanch so'zlar: jamiyatni ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, talabalarni milliy meroslar vositasida tarbiyalash, tarixiy va madaniy meroslar, talabalarni arxitekturaliy yodgorliklar bilan tanishtirish.

Ключевые слова: совершенствование и развитие духовной жизни общества, воспитание студентов через национальное достояние, историко-культурное наследие, приобщение студентов к памятникам архитектуры.

Key words: improvement and development of the spiritual life of society, education of students through national heritage, historical and cultural heritage, introducing students to architectural monuments.

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада тарихий ёдгорликлар орқали талаба ёшларни маънавий ахлоқий тарбиялашнинг ҳозирги кундаги ҳолати ўрганилган.

PEZIOME:

В статье рассматривается современное состояние духовно-нравственного воспитания учащихся посредством исторических памятников.

SUMMARY:

The article examines the current state of spiritual and moral education of students through historical monuments.

Studentlerdi milliy miyraslar arqalı tárbiyalaw máselelerine baǵışlangan kóplegen ilimiy izleniwlerde áyne milliy miyraslar dúnyasına sayaxat etiw arqalı olarda milliy qádiriyatlarga bolǵan unamlı múnásibetti qalıplestiriw jumsları óz sheshimin tolıq tappaǵan. Oni bir pútın pedagogikalıq proceste qalıplestiriw zárúrliǵı bir qatar sebep hám tiykarlarga súyenedi.

Ğárezsizlik jıllarında bay tariyxıy hám mádeniy miyraslarımızǵa, ruwxıy mádeniyatımızǵa bolǵan itibar pútkilley ózgerip tiykarǵı iyesi bolǵan xalıqqa

qaytarıp berildi. Nátiyjede xalqımızdın bay mádeniy miyrasları búgingi kúnde óz tariyxın tereńirek úyreniwge, ózligin hám milliyligin ańlawǵa xızmet etip kelmekte[1].

Mádeniy miyraslar xalıqtın rawajlanıw jolında anıq basqıshlarının júzi bolıw menen birge keleshek áwladtın ruwxıy jaqtan ósiwine óziniń kúshli tásirin kórsetedi. Ózi tuwılıp ósken jerdi qádirley alatuǵın jaslarǵa tárbiyalawda mádeniy miyraslardın áhmieti ógada úlken.

Studentlik jılları jaslar ómiriniń eń áhmietli, rawajlanıw dáwiri. Bul dáwirde jaslar fizikalıq hám aktiv tárepten jetilisedi, ómir mánisin tereńirek túsinedi, jámiyette óz ornın tabıw jolında izlenedi. Áne usı dáwirde joqarı ideallar ushın belsendi gúressheńniń ózgeshelikleri qalıplesedi, tájiriybesi artadı. Demek, studentlik dáwiri arzu-nietler hám isenimler, keleshekke umtıluwlar, bolajaq rejelerdiń qalıplesiw dáwiri bolıp tabıladı. Áne usı dáwirde jaslar jámiyetlik miynetti durıs bahalay alatuǵın, mámleket aldındaǵı wazıypalardı, shaxs hám jámiyet mápleriniń únlesligin, jámiyet baylıqlarınıń bahasın, Mámleketimiz belgilep berip atırǵan wazıypalardı durıs túsiniwge umtılatuǵın barksamal shaxsqa aylanadı. Sol sebepli de sociallıq rawajlanıw student jaslardın sociallıq iskerliginiń barlıq tarawlarında belsendi bolıwın, ózine hám basqalarǵa talapshańlıqtı talap etedi.

Joqarı oqıw orınlarında bilim alıp atırǵan jaslar bul ózgesheliklerdi sociallıq turmista tolıq kórsetiw imkaniyatına iye.

Student jaslar degende, óndiristen ajıralǵan hám ajıralmaǵan halda joqarı oqıw orınlarında bilim alıp atırǵan 17-27 jaslardaǵı jigit hám qızlar túsiniledi. Mámleketimizde óndiristen ajıralmaǵan halda joqarı oqıw orınlarında bilim alıp atırǵan jaslardın ulıwma qatarı jıldan-jılǵa tez pátler menen ósip barmaqta.

Hár tárepleme jetik adamdı kamalǵa keltiriw óz-ózinen ámelge aspaydı, álbette. Bunıń ushın kóp jıllar dawamında tınımsız ideyalıq-siyasiy tárbiya procesin ámelge asırıw jaslarda, sonıń ishinde, studentlerde joqarı isenimdi, demokratiyalıq ideallarǵa sheksiz isenimdi, ideyalıq mártlikti, siyasiy sergeklikti, buzǵınshı ideya hám ideologiyalardıń zıyanlı tásirine qarsı gúresiw kónlikpesin qalıplestiriw kerek [2].

Búgingi student jaslar erteńgi kúnde mámleketimiz aldında turǵan ullı wazıypalardı ámelge asırıwǵa tayarlanıp atırǵan adamlar bolıp esaplanadı. Búgingi studentler ǵárezsizlik mashalın jaqqan adamlardıń áwladı, olar jaratıp atırǵan jańa jámiyetti keleshekke qaray alıp bariwshı jaslar bolıp tabıladı. Olar bul baǵdardaǵı juwapkershilikti barksulla este tutıwı kerek.

Búgingi jámiyet talapları, ilimiy-texnikaıq hám texnologiyalıq pátlerdiń ósip bariwı, student jaslar atqarıp atırǵan sociallıq funkciyalardı jáne de



qiyinlastirmoqta. Bul socialliq funkciyalar tóمندegilerden ibarat: dúnya xalıqları turmısın, mámleketimiz rawajlanıwı, rawajlanıwdıń ózbek modeliniń mazmunın hár tárepleme tereń úyreniw; ilim-texnika hám texnologiyalar tiykarların tereń iyelew; kásiپke baylanıslı bolgan kásiplik hám socialliq kónlikpelerdi miynet penen, siyasiy hám ádep-ikramlılıq mádeniyattı úzliksiz ósirip barıw joli menen payda etiw; jámiyetlik-siyasiy iskerlikte óz miyneti menen aktiv qatnasıw; keleshektegi ġárezsiz, dóretiwshilik iskerlik ushin zárúr bolgan arnawlı bilimlerde iyelew, jańasha dúnya qarastı qalıplestiriw hám tağı basqalar [3].

Bul ózgeshelikler student jaslardıń aktiv dóretiwshilik miynetinde óz kórinisin tabadı. Student-jaslar bul dáwirde óziniń miynet iskerligi túrin, óziniń ruwxıy iydealın belgilewi, belgili turmis tárizin qalıplestiriwi kerek. Demek, student miyneti óziniń ayırıqsha ózgesheliklerine iye bolgan aqılıy miynet eken, demek bul miynet ayırıqsha oqıwda, ilimiy xızmette hám pán tiykarların dóretiwshilik penen ózlestiriwde óz kórinisin tabadı.

Bul bolsa student-jaslardıń kásiplik iskerligi bolıp tabıladı. Ruwxıy tarawdağı belsendilikniń mánisi hám mazmunın anıqlar ekenbiz, dáslep: birinshiden, onıń ózi ne, ol insanniń ruwxıy kelbetindegi ózine tán ózgeshelik pe yamasa belgili bir tárizde kórinetuġın socialliq iskerlik pe? - degen máselege itibar beriw lazım.

Studentlerde ruwxıy-ádep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalaw máseleleri húkimetimizdiń bul baġdarda alıp barıp atırġan tóمندegi tiykarġı baġdarlarında óz kórinisin tapqan[4]:

- studentlerde ruwxıy-ádep-ikramlılıq jaqtan rawajlandırıw, olardı alıp barılıp atırġan reformalardıń belsendi qatnasıwshısına aylandırıw boyınsha islep shıġılıp atırġan ilajlardı keńnen sáwlendiriw;

- studentlerge tálim-tárbiya beriw hám olardı kamalġa keltiriw sapasın jaqsılaw;

bilimlendiriw mákemelerinde salamat ruwxıy-aġartıwshılıq ortalıqtı qalıplestiriw, oqıwshı-jaslarġa tálim-tárbiya beriw ushin múnásip sharayatlar jaratıw.

Bul baġdarlarda ámelge asırılıp atırġan jumıslar nátiyesiniń analizi sonnan derek beredi, onda studentlerde ruwxıy-ádep-ikramlılıq tárbiyalawdıń tóمندegi strukturalıq komponentleri áhmietli orın ileydi:

- studentlerdeń jámiyetlik-siyasiy belsendiligin texnogen civilizaciya talaplarına sáykes qalıplestiriw;

- ulıwma insaniyılıq hám milliy demokratiyalıq qádiriylarġa sadıqlıq tiykarında zamanagóy keń dúnyaqaras hám keńpeyillikti rawajlandırıw;

- mádeniy miyras arqalı studentlerde ruwxıy-ádep-ikramlılıq tárbiya hám ózligin anlawdı jetilistiriw.

Studentlerdiń ruwxıy mádeniyatın rawajlandırıwdıń bul strukturalıq tárepleri mexanizmi quramalı pedagogikalıq process bolıp, onı ámelge asırıwda didaktika, tárbiya teoriyası, bilimlendiriw menedjmentide alǵa súrilgen aldınǵı innovaciyalıq ideyalarga tayanıp islew talap etiledi. Bul processte shańaraq, bilimlendiriw mákemeleri, tiyisli ministrlıklar hám uyımlar, puqaralıq jámiyeti institutları da belsene qatnasıwı áhmiyetli.

Biraq tilekke qarsı, búgingi kúnde studentlerdi hár tárepleme ruwxıy jetik áwlad etip tárbiyalawǵa tosqınlıq etiwshi qáwıplı faktorlardan biri globallasıw hám onıń aqıbetinde júzege keletuǵın ruwxıy qáwıp-qáterler bolıp esaplanadı. Globallasıw processleriniń unamsız hám unamlı tárepleri, globallasıwdıń oqıwshı-jaslar mánawiyatına tásiiri kóplegen sırt el hám jergilikli ilimpazlardıń ilimiy miynetlerinde óz kórinisin tapqan. Sırt el hám jergilikli alımlardıń shıǵarmalarında ruwxıylıq, mádeniyat hám tárbiyaǵa bolǵan unamsız basımlardıń aldın alıw studentlerdiń ruwxıy mádeniyatın rawajlandırıw zárurlıǵı áhmiyetli ekenligin, watansúywshilik, hújждан, isenim, ar-namıs, abıroy, mártlik, joqarı mártebelilik, pidayılıq, adamgershilik sıyaqlı qádiriyatlardıń qalıplesiwine járdem beredi. Jaslarda bunday sıpat hám pazıyetlerdi tárbiyalaw bilimlendiriw sistemasında tiykarǵı áhmietke iye bolıwı kerek.

Joqarı bilimlendiriw mákemelerinde ruwxıy ilajlardı shólkemlestiriwde barlıq student-jaslardı Respublikamızdıń tariyxıy qalalarına, dıqqatqa ılayıq orınlarına turaqlı túrde sayaxatlar shólkemlestirip turiw, muzeylerge, kórgizbelerge, teatrlarga, koncertlerge arnawlı keste dúzip ǵalaba túrde alıp barıw, bilimlendiriw mákemelerinde olardıń miynet hám uris veteranları, zamanımız qaharmanları menen, kórkem óner ǵayratkerleri, shayır-jazıwshılar, shıpakerler, huqıq qorǵaw uyımlarınıń juwaplı xızmetkerleri, máhálle aqsaqalları, ata-analar menen dógerek sáwbetleri, ushırasıwlar shólkemlestiriw-bulardıń hámmesi studentlerde milliy maqtanış, watansúywshilik sezimlerin tárbiyalaw menen birge olardıń dúnya qarasın jáne de keńeytiwge, bayıtıwǵa ulıwma insanıylıq dárejesin arttırıwǵa járdem beredi [5].

Ruwxıy-aǵartıwshılıq jumislardıń mazmunı, baǵdarları dúnyada, mámlekette bolıp atırǵan ózgerislerge sáykes túrde turaqlı jańalanıp barıwı zárúr. Ayırım jaǵdaylarda úgit-násiyat jumıslarımız kóbinese tar sheńberde qalıp atırǵanı, turmıstıń keń qatlamlarına kire almay atırǵanı, tájiriyesiz ayırım jaslardıń sanasına jetip barmay atırǵanı qanshelli qáwıplı ekenine ayırıqsha toqtap ótiw múmkin. [6]



Juwmaqlaw ornında sonı aytıw múmkin, jámiyetimizdiń tez pátlerde informaciyalasıwı sharayatında jaslardıń ruwxıy kelbetin jetilistiriwdiń sociallıq-ruwxıy máseleleri sonshelli áhmiyetli, búgingi kúnde jaslar menen baylanıslı bolǵan máseleler tek ǵana mektep, licey, joqarı oqıw orınları emes, al shańaraq, máhálle, jaslar menen isleytuǵın jámiyetlik shólkemler arasında ornatılǵan bekkem baylanıslar tiykarında izbe-izlik penen ámelge asırılıp, olardıń dúnyaqarasında watansúyiwshilik sezimin tolıq qalıplestirgenimizde ǵana biz gózlegen maqsetimizge erisemiz.

PAYDALANILǵAN ÁDEBIYATLAR:

1. Axloq-odobga oid hadis namunalari. –Toshkent:Fan, 1990.
2. Ortiqov N. Ta’lim va islom: yoshlarni tarbiyalashdagi muammolar va ehimlar. – Toshkent:Fan, 1994.
3. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent: Mehnat, 2001. – 195 b.
4. Quranov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
5. Musurmonova O. O’quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish.– Toshkent:Fan , 1993
6. Primbetov Q. Qoraqalog’istondaagi madaniy meroslar vositasida talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyasi. Ped.fan.falsafa doktori (PHD)...dis. Chirchiq – 2023. -31 b

TAFAKKUR VA HISSIYOT HAMOHANGLIGI

Quramboyeva G.

*Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti
dotsenti, filologiya fanlari doktori*

Tayanch so'zlar: tafakkur va hissiyot mushtarakligi, shoir va yozuvchilar, haqiqiy she'r, kitobxonlar, ilmiy–adabiy muhit, tabiat obrazi.

Ключевые слова: общность мыслей и чувств, поэты и писатели, настоящая поэзия, читатели, научно-литературная среда, образ природы.

Key words: community of thoughts and feelings, poets and writers, real poetry, readers, scientific and literary environment, image of nature.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada she'rlar shoirning nafaqat tabiat kuychisi, balki peyzaj orqali lirik qahramon ruhiyatidagi turfa o'zgarishlarni yoritish bobida ham talantli ijodkor ekanligini ko'rsatadi.

РЕЗЮМЕ:

Стихи в этой статье показывают, что поэт является не только певцом природы, но и талантливым творцом, освещающим различные изменения в психике лирического героя через пейзаж.

SUMMARY:

The poems in this article show that the poet is not only a singer of nature, but also a talented creator, illuminating various changes in the psyche of the lyrical hero through the landscape.

Tafakkur va hissiyot mushtarakligi she'ring badiiyatini belgilaydigan asosiy qoidalardan biri. Shoir voqelik bilan inson ruhiyati o'rtasidagi turli-tuman hayot hodisalariga murojaat etganda, hissiyotlar fonida tafakkur qilishi, muhim g'oyani ko'tarishi shart. She'r qanchalik hayajon bilan yozilmasin, qanotli so'zlar, ramzli obrazlarga belanmasin, agar unda salmoqli fikr, dunyoqarashni boyitadigan muhim bir gap bo'lmasa, haqiqiy she'r sanalmasligi ilmda isbotlangan. Mutaxassislar orasida "Tafakkur - she'ring cho'g'i" degan gap yuradi. She'ring qoni va joni tafakkur hissiyotlar ruhiga qanchalik ko'p singdirilsa, talqin shunchalik mukammallashadi. Eng asosiysi, o'quvchi she'rdan ham estetik lazzat oladi, ham mushohadasi kengayadi.

Qoraqalpog'iston xalq shoiri, Berdaq nomidagi davlat mukofoti sovrindori Guliston Matyoqubova bu sohada ko'pgina yutuqlarga erishdi. Ayniqsa,



shoiraning mustaqillik yillarida yozgan she'rlari, nashr etilgan kitoblarida har xil mavzular yoritiladi. Istiqloq g'oyalari ko'tarinki kayfiyat, jo'shqin kechinmalarda, teran mushohadalar ila tarannum etiladi. She'rlarda hissiyotlar bir dunyo bo'lsa, fikrlar, ma'nolar ham bir dunyo.

Mustaqillik barcha shoir va yozuvchilar qatori Guliston Matyoqubova uchun ham ijod eshiklarini keng ochdi. Natijada, u yangi zamon, yangi adabiy muhitdan erkin nafas olib, adabiyotning bir necha janrlarida ijod qilishga kirishdi. Asardan asarga, kitobdan kitobga o'sib, qalami o'tkirlashib bordi. Kitobxonlar, ilmiy-adabiy muhit e'tiborini qozondi. Shoiraning istiqloq yillarida chop etilgan har bir kitobi muxlislar tomonidan iliq kutib olindi. "Men sen uchun yashayapman" she'riy to'plami shoiraning mustaqillikning dastlabki yillaridagi ijodiy mehnatlari samarasi edi. To'plam O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupovning "Ayol yuragining nozik tuyg'ulari" nomli so'zboshisi bilan ochiladi va unda shunday samimiy satrlar bor: "Guliston naqadar kamtarin, samimiy, xushmuomala, pokiza bo'lsa, she'rlari ham shunday. Uning she'rlarini o'qiganingizda, ayniqsa, lirikasidan shoiraning tabiati, jon-yuragi, ruhiy dunyosi, iztiroblari va quvonchlari, umidlari va armonlariga chin ko'ngildan ishonasiz, hammasi rost ekan deysiz. Nozik ayol tabiati, uning inson qayg'usi bilan qayg'udosh qalbi hayot tashvishlari bilan qaynab turgan toza buloqdek tip-tiniq. Gulistonning she'rlarini uyning derazasini sal ochib qo'yib o'qisangiz, shamol kirib sizga shivirlaydi. Bu Amu bo'ylarida tug'ilgan shoiraning yuragidan to'kilgan tuyg'ular ekanini bilib, beixtiyor uning xayollariga qo'shilib, suhbatlasha boshlaysiz. Bu Gulistonning she'rlari".

Bu fikrlarda G. Matyoqubovaning ham shaxs, ham ruhiy olami, turfa tuyg'ularga boy shoiraligi, bu fazilat uning lirikasida bosh leytmotiv ekanligi iqrar etilgan.

To'plam "O'quvchimga" she'ri bilan ochiladi. Muallif she'riyat muxlisi bilan dardlashadi. Yaxshilik bilan yomonlikning hayotiy falsafasi, bu axloqiy normaning foydasi-yu zarari haqida muloqotga kirishadi.

*Do'stim mening,
Men ko'rgan tonglarning,
Bir yanog'i oq,
Bir yanog'i qora yovuzliklardan
Munis bir onaning,
Farzand dog'idan,
Qon bo'lgan jigari,*

*Ming tilka pora
Yovuzliklardan.*

*Men ko‘rgan quyoshning,
Bir nuri yorqin,
Undan kimlarningdir,
Bag‘ri butundir;
Men ko‘rgan quyoshning,
Bir nuri tutun,
Undan kimlarningdir,
Bag‘ri butundir.*

She‘rning oxirrog‘ida yana o‘qiymiz:

*Yolg‘oni rostidan baland yurar
Xiyonati ustun iymon-vijdonidan
Ba‘zan bu illatni yashirmoq bo‘lib
Nuqson axtaramiz aybsiz zamondan.*

She‘rda lirik qahramonning ichki tug‘yoni, ezgulik bilan yovuzlikka, sadoqat bilan xiyonatga, yaxshilik bilan yomonlikka munosabati, ruhiy kurashi real hayot, odamlar qismati misolida ochiladi. Bu ziddiyat, ezgulikni ulug‘lash, jaholatga nafrat har bir misraning ichki mazmunini yoritib turadi.

To‘plamdagi she‘rlar shoirning hayot va odamlar haqidagi tasavvurlari yangilanib, fikrlari charxlanib borayotganini ko‘rsatadi. Hayotning balandini pastidan, odamlarning yaxshisini yomonidan, yolg‘onini rostidan farqlashda shoiraning tajribasi oshib boradi. Bir she‘rida:

*Bugun meni sergak, xushyor torttirdi,
Oq bilan qoraning o‘rgatdi farqin –*

deb yozishi muayyan mantiqqa asoslangan. Har bir inson, ayniqsa, ijodkor hayot sinovlarida toblanadi, chiniqadi. Bu hayotiy saboq keyinchalik uning ijodida turmush materiali vazifasini bajaradi. Demak, mazkur she‘rga singdirilgan lirik qahramonning kechinmalarini muallifning real turmushni kuzatish tufayli shakllangan taassurotlari, qalb tutunlari, orzu armonlari ma‘nosida tushunsak, xato bo‘lmas.



Shoiraning “Holat”, “Yomg‘ir”, “Umid”, “Men chiqqan yo‘l”, “Kurashlarda chiqsin jon”, “Dil shishasi”, “Tinchlan shamol”, “Xotiralar” va yana boshqa she‘rlari lirik qahramonning qalb ko‘zgusi, lirikaning original namunalari. Ularda quvonch-u qayg‘u, orzu-umidlar, insonlarga, tabiatga daxldorlik hissi betakror poetik obrazlarda yoritiladi.

*Tomirlaringdagi qirmiz qon ichra,
Quvonch ham, qayg‘u ham tinadi bir kun,
Ishonib yashading sodda quvonchingga,
Sevgi, mehr, ishonch, sadoqat butun.*

*Umr butun, orzu-maqсадlar to‘kis
Ne uchun ko‘zlaring hamisha g‘amgin,
Daryolarday toshsa tug‘yon to‘la his,
Shodon qarshilaysan orzular tongin.*

Bandlardagi “quvonch”, “qayg‘u”, “sevgi”, “sadoqat”, “tug‘yon” “orzu”, “mehr”, “tong” obrazlari she‘rning mazmunini ochish, ritmik ohangdorlikni ta‘minlashga, lirik qahramonning turli vaziyatdagi holatini, ruhiyatidagi bezovtalikni o‘quvchiga yetkazishda muhim vosita bo‘lgan. She‘rning ichki mazmunidagi ziddiyat orqali har bir shaxs qalbida abadiy mavjud, doimo o‘zaro to‘qnashib, insonda murakkab psixologik holatlarni sodir etadigan tuyg‘ular ustuvorligini his qilamiz.

Kitobdagi hamma she‘rlar mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab shoiraning hech ikkilanmasdan, ishonch bilan, milliy istiqlol g‘oyalari ruhida ijod qila boshlaganining isboti. Har bir she‘r, dostonlar ham muallifning yangi zamonga nisbatan mehrining aks sadosiday taassurot qoldiradi. Shoiraning ozod va obod yurt kamolidan olgan ilhomi galdagi kitoblarida yanada jo‘shqin, yanada badiiy mukammal, g‘oyatda ko‘tarinki pafosda kuylaganiga guvoh bo‘ldik.

Muallifning “Ayting menga To‘rtko‘l haqida” (1993), “Intizorlik” (1995), “Yo‘llaringga chiqdim” (1997), “Daryoga botayotgan quyosh” (1998), “Izlaganlarim” (2000), “Oybaldoq” (2001), “Vatan ruhi” (2011), “Ota uyim” (2014) kitoblari istiqlol yaratgan imkoniyat mevalaridir. Kitoblarda mustaqillik va yurt ozodligi, zamon va zamin ko‘rinishlari, millatning o‘tmishi va buguni, kelajagi, qadriyatlari, odamlarning ongu shuuridagi o‘zgarishlar, tabiatigacha, yangi mezonlar, yangi qarashlar yangicha tafakkur bilan idrok etiladi, talqin qilinadi. Kitoblar yana bir jihatdan ahamiyatli. Har birida muallifning badiiy mahorat bobida tadrijiy o‘sib borganini ko‘ramiz. She‘rlar mavzusining

muhimligi yoki xilma-xilligi bilangina emas, balki har bir she'r ifoda usulining yengilligi, fikrlarning salmog'i, obrazlilikka qurilgani, xulosalarning ibрати bilan ham ahamiyatli. Oddiylikka asoslangan teran ma'no, poetik ohang, samimiy tuyg'u o'quvchini sehrlaydi, fikrini charxlaydi.

*Ko'zlarimni berdim osmonga,
Yulduz bo'lib senga termulsin.
Yarqiragan to'lin oy bo'lib,
Derazadan senga intilsin.*

*Yuragimni berdim quyoshga,
Harorati senga yetsin, deb
Sovuq kunlar oramizdagi,
Shu mehrdan ilib ketsin deb...*

Bandlarning shakli, ifoda yo'sini, ramziylik, insoniy munosabatning go'zal xislatlari jozibali ohangda, nafis tuyg'ular fonida ifodalangani talantning olmos qirralaridan biri.

Ramziylikni o'rni-o'rnida ishlata bilish ham san'at. Agar ramzlar muallifning biror hodisaga munosabatini oydinlashtirmasa, ma'noni kuchaytirishga xizmat qilmasa, asarga ortiqcha "yuk". Guliston Matyoqubova bunday poetik talqinda olg'a ilgarilab ketdi. Har bir detal, ramziy obrazdan maqsadga muvofiq foydalanishda mahorati oshib bordi. Mana, fikrimizga bir misol:

*Hazonlar ko'chadi bog'dan yurakka,
Mungli xayollarni kuzlarga bog'lab,
Bu ne kulfatlardan kelgan darakmi,
Bu ne azoblarki ko'ngilni dog'lar?*

*Osmon ham yashirgan o'z oftobini,
Taqdir seni mendan qizg'angansimon,
Bilsayding sog'inchning o'y azobini,
Sevinchlarning rangi kuzday za'faron...*

Tabiat obrazi orqali biror fikr aytish, turli fasllarni odam o'y-xayollariga moslashtirib talqin etish adabiyotda yangilik emas. Bu an'ana azaldan bor. Hatto mumtoz adabiyot ham bu masalada yaxshigina tajribaga ega. Gapning ochig'i, tabiatga murojaat etmagan, inson kechinmalarini o'quvchiga yetkazishda bu



imkoniyatdan foydalanmagan shoir yoki yozuvchi yo‘q hisobi. Gap shundaki, tabiatning qaysi fasli yoki qay bir ko‘rinishi inson ruhiyatidagi ziddiyatni ifodalashga, asar g‘oyasini ochishga xizmat qila oladi? Muallif shuni to‘g‘ri tanlay olsa, maqsadga muvofiq foydalansa, nur ustiga a‘lo nur. Aks holda, o‘rinsiz ishlatilgan peyzaj qanchalik go‘zal bo‘lmasin, inson psixologiyasiga uyg‘unlashmasa, asarda ortiqchaligi ko‘rinib qoladi. Guliston Matyoqubova ko‘p she‘rlarida lirik qahramon qalbidagi tug‘yonni, tasdiq va inkorni oddiy so‘zlar bilan emas, balki tabiatning turg‘un va harakatdagi bo‘yoqlaridan foydalanib talqin etadi.

Mana, bir misol:

*Mayli yomg‘irlar yog‘sin, suron solsin shamollar,
Mayli, qora tumanlar to‘shalsin so‘qmoqlarga,
Bilaman, qora tuman, qora maqsad, xayollar,
Kezib yurar yonimda, goh yaqin-yiroqlarda...*

Shoira lirik qahramonning iztiroblari, hasratlarini ta‘sirli chizish uchun yana tabiat obraziga murojaat etadi.

*Yo‘llarning chetidan ma‘yus teraklar,
Sizni so‘roqlaydi to‘rt tomon boqib.
Pushti gullarini to‘kib o‘riklar,
Zor-giryon yig‘laydi ichlarim yoqib...*

*Yo‘llarning chetida qoratollar ham,
Marjonday barg yozib sizni yo‘qlaydi,
Menga faqat hijron, faqat g‘am hamdam,
Menga baxt yuqmaydi, quvonch yuqmaydi...*

Shoiraning tabiatga g‘oyat maftunligini, turli ko‘rinishlaridan mohirona foydalanib fikr ayta olish uslubini dalillaydigan yana bir xarakterli misolga diqqatingizni qaratmoqchimiz.

*Shamollar ruhimni uyg‘otar,
Goh zamin, goh osmon ustida,
Derazam ortida tong otar,
Uzaygan tunlarning qasdida.*

*Qizketgan chayqalar bir sovuq,
To'liqlar qirg'oqqa bosh qo'yar.
Qoratol mudraydi ko'z yumib,
Yomg'irga aylanar savollar...*

Muallifning ba'zi she'rlaridagi “Boshlarim ustida bulutlar, Beayov yog'moqqa shaylangan”, “Ko'kda yulduz tiziladi”, “Oyning iztirobidan”, “Majnuntol kokilin o'radi shamol”, “Kurtaklar bag'rida mudragan xayol”, “Uzun teraklarning dardini tingladim”, “Ular yaproqlarin to'kib yig'laydi...”, “Shamollar boshimni silar”, “Qoraygan barglarning bag'rida dog'lar” va yana o'nlab, yuzlab, undan ham ko'p tabiat mavzusiga murojaat etilgan betakror misralar, bandlar borki, ularda lirik qahramonning ruhiy dunyosi, fikr olami tabiat orqali ochiladi. Tabiat manzaralarini kuzatgan, zavqlangan, idrok etgan va eng muhimi, ularni insonda ro'y beradigan turli ma'naviy psixologik holatlarga – shodligi-yu qayg'usiga, o'tkinchi armonlariga payvandlab, fikr bilan tuyg'uni uyg'unlashtirib tasvirlay olgan ijodkor maqsadiga yetadi. Guliston Matyoqubovanning tabiatga bag'ishlangan she'rlari, aynan shu g'oyaga xizmat qiladi. Tabiat muallif uchun fikr aytish vositasi, xolos. Ilmiy-adabiy jamoatchilik orasida “Guliston Matyoqubova – tabiat kuychisi” degan gap bor. Bu bekorga aytilmagan, nazarimizda. Shoiraning turli yillarda bosilib chiqqan kitoblaridagi “Yomg'ir yog'di”, “Qizketgan bo'ylarida”, “Keksa gujum”, “Anorlar bag'rida armon so'tilar”, “Tiniq osmon”, “Keldingmi bahor”, “Yana yomg'ir yog'ar”, “Yo'qlasa bir shamol meni daraklar”, “Oyning iztirobi”, “Shamollar”... Sanoqning davomi bor. She'rlar shoirning nafaqat tabiat kuychisi, balki peyzaj orqali lirik qahramon ruhiyatidagi turfa o'zgarishlarni yoritish bobida ham talantli ijodkor ekanligini ko'rsatadi.

Xullas, tilga olingan she'rlarda fikr va tuyg'ular omuxtaligi ta'minlangan. Kechinma bilan fikrning o'zaro bog'liqligi she'r go'zalligini namoyish etganidek, badiiy ma'no salmog'ini ham oshiradi. Bu esa she'rning chinakam badiiyat unsuri, shoira poetik mahorati ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2018.
3. Tarbiya-chi kitobi G'iyosiddin Yunus 48-bet.
4. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy baxt-saodatdir. Toshkent – “O'zbekiston” – 2015.
5. www. Ziyonet.uz



MA'NAVIYATI KUSHLI XALIQ HAMMA JABHADA TIK KO'Z BILAN BOQA OLADI

Primbetov K.

*Ajiniyoz nomidagi NDPI filsofiya fanlari doktori
(pedagogika PhD) dotsent v.v.*

Turaboyeva F.

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Primbetova N.

*Qaraqolpaq davlat universiteti dizayn: libos va gazlamalar
1-kurs talabasi.*

Tayanch so'zlar: yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi, komil inson bo'lib ma'naviyatli shaxs bo'lib voyaga yetishi, har tomonlama yetuk barkamol inson bo'lishi, ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatni bunyod etish.

Ключевые слова: воспитывать молодежь, вырастить совершенным человеком и духовной личностью, стать зрелой и совершенной личностью во всех отношениях, построить сильную духовность, основанную на богатом наследии и национальных ценностях наших предков.

Key words: to educate young people, to grow up as a perfect human being and a spiritual person, to become a mature and perfect person in all respects, to build a strong spirituality based on the rich heritage and national values of our ancestors.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada ma'naviyati boy xalqning kejamagi buyuk ekanligi aytiladi. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq.

РЕЗЮМЕ:

В этой статье обсуждается величие нации с богатым чувством цели. Воспитание молодежи с высокой моралью и дисциплиной, предоставление ей качественного образования и воспитание в духе патриотизма является залогом экономического и политического развития страны. Это основа социальной стабильности и успеха. Сегодня проблемы образования молодежи являются общей проблемой практически для всех стран. Будущее и благополучие нашей планеты зависят от того, какими людьми вырастут наши дети.

SUMMARY:

This article discusses the greatness of a nation with a rich sense of purpose. Raising young people with high morals and discipline, providing them with quality education and raising them in the spirit of patriotism is the key to the economic and political development of a country. It is the foundation of social stability and success. Today, the problems of youth education are a common problem for almost all countries. The future and well-being of our planet depend on what kind of people our children grow up to be.

Bizning xalqimiz qadim-qadimdan uzoq boy tarixga ega. Ajdodlarimiz asrlar mobaynida ta'lim- tarbiya masalalariga jiddiy qaragan, shu bois ular o'z navbatida avlodlarga ta'lim-tarbiya masalalariga doir bir qancha asarlar qoldirgan. Bu kabi noyob asarlar insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odob-axloq kabi umuminsooniylar fazilatlarini shakllantirishning o'ziga xos usullarini jamlagan. Jamiyatda har tomonlama yetuk, barkamol inson o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, bunday komil insonlar ajdodlar qolgan umumbashariy an'analar, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalanadi.

Insoniyat dunyoga kelar ekan bu dunyoning oq-u qorasidan bexabar bo'ladi. Ulardan hayoti davomida ma'lumotlar olib boradi, sinaladi shu tariqa yuksaladi. Har qadamda turli xil chigalliklar, turli xil muammolar chiqib qolishi mumkin, bunday holatda ota-onalar maslahatlari, talim- tarbiya berib farzandini egri yo'lga kirishdan saqlab qoladi. Farzandini yoshligidan ta'lim-tarbiya berib yuksaltirib, ularni egri yo'ldan saqlab qoluvchi bu uning ota-onasidir. Shu sababdan ham tarbiya oiladan boshlanadi, farzandning yaxshi inson bo'lib ulg'ayishi ota-ona zimmasidagi katta mas'uliyatlardan biridir. Hikmatlarda: "Bolalaringizni tarbiyalamang, o'zingizni tarbiyalang. Ular baribir sizga o'xshagan bo'ladi" – deyilgan[1].

Farzand uyning ko'zgusidir, u uyda olgan tarbiyasini jamiyatda namoyon qiladi. Shu sababli ham ota-ona o'zini tarbiyalagan bo'lishi lozim. Qush uyasida ko'rganini qiladi deganidek, farzand ham ota-onasi tomon talpinadi, ularni ko'rganini takrorlaydi. Ota-ona farzandga o'zi namuna bo'la olsagina farzand tarbiyali, bilimli va ma'naviyatli bo'lib o'sadi.

Ana shunday ekan, hayotda ta'lim-tarbiyada ma'naviyat alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyatli insongina hayotda o'z o'rnini egallaydi, komil inson bo'lib shakllanadi, ravnaq topadi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ma'naviyat masalalariga, uning yoshlarda shakllanishi va rivojlanish muammosiga ulkan ahamiyat berib kelinmoqda. Ma'naviyatni yuksaltirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamiyat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish



masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishlarida shunday fikrlarni aytdilar: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatdir".

Mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati ma'naviy barkamol, ruhan yetuk shaxslar jamiyati bo'lishi ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadigan omillardan biridir. Mavzuning dolzarbligini belgilaydigan yana bir muhim jihat shundaki, bizning jamiyatimizga yot bo'lgan kuchlar: terroristlar, diniy aqidaparastlar, transmilliy, kiberjinoyatchilik va boshqa buzg'unchi g'oyalarni tashuvchilar asosiy e'tiborni o'smirlar va yoshlarni o'z tomonlariga ag'darib olishga harakat qilmoqdalar. Sababi ma'naviyatga qilingan tahdid mamlakatni inqirozga olib kelishini mumkinligini ular juda yaxshi anglashadi. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviyat va ma'naviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan asarlarida bu muammolar shaxs ruhiyati, psixologiyasi bilan bog'lab izohlanadi. Bunday yondashuv psixolog olimlar va tadqiqotchilar uchun metodologik tayanch vazifasini bajaradi. O'smirlar ma'naviyatini yuksaltirish masalalarining O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi shu yo'nalishda ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar kengayishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Bu sohada, ayniqsa, mamlakatimiz faylasuflari, siyosatshunoslari, pedagog-olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda mamlakatimiz psixologlari tomonidan shu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarni yetarli, deb bo'lmaydi. O'zbekistonda ma'naviyat va uning qadriyatlari bilan bog'liqligi, tarbiyada muhim omil ekanligi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, bu muammolarga davlat tomonidan, ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan katta e'tibor berilishi mazkur muammolarni atroflicha va barakali tadqiq uchun shart-sharoit yaratdi.

Ma'naviyati kuchli xalq hamma jabhada tik ko'z bilan boqa oladi. Nega deganda insoniyatning ko'p ming yillik tajrubasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni

o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalombor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni, eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatini judo qilishga urinadi [2]. Buning tasdig'ini uzoq va yaqin tarixdagi o'tmish bilan yaqqol ko'rishimiz mumkin. Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin. Kezi kelganda ilgari aytgan bir fikrimni takrorlamoqchiman: bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bolmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to'ldirishga harakat qiladi[3].

Ma'naviyat -insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquwat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda hartomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz. Mening nazarimda, «ma'naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi «ma'naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin. Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar, birinchi galda insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishi haqida gapirar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim[4].

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Hozirgi davrda yutimiz jadal rivojlanayotgan davrda yoshlarimiz G'arb mamlakatlari ma'naviyatiga taqlid qilmoqda. Bu juda achinarli holatdir. Negaki bizning o'zligimiz, an'analarimiz, qadriyatlarimizdan G'arb davlatlari ma'naviyati ustunlik qilmoqda.



Hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo'yish kerak, deb so'rasa, men avvolambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo'lardim. Ishonchim komilki, ana shunday noyob insoniy fazilatlariga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xalq hech kimga hech qachon qaram bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.

Muxtasar qilib aytganda, olis va yaqin tariximiz shuni ko'rsatadiki, xalqimiz doimo ma'naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug' tuyg'u uning hayotida yillar, asrlar o'tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalq ma'naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib, o'zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2018.
3. Tarbiya-chi kitobi G'iyosiddin Yunus 48-bet.
4. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy baxt-saodatdir. Toshkent – "O'zbekiston" – 2015.
5. Primbetov K. Qoraqalpog'istondagi madaniy meroslar vositasida talaba - yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyasi. Doktorlik dissertatsiyasi bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. Chirchiq – 2023
6. [www. Ziynet.uz](http://www.Ziynet.uz)

TARIX TA'LIMIDA GRAFIK-SXEMALAR ASOSIDA MUSTAQIL ISHLARNI BAHOLASH MEZONI: ILMIY-METODIK YONDASHUV

Ganiev S.T.

Qoraqalpog' davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: grafik-sxema, tarix ta'limi, mustaqil ish, baholash mezonlari, tahliliy yondashuv, metodik yondashuv, qidiruv faoliyati.

Ключевые слова: графическая схема, преподавание истории, самостоятельная работа, критерии оценки, аналитический подход, методический подход, поисковая деятельность

Key words: graphic diagram, history education, independent work, assessment criteria, analytical approach, methodological framework, research activity

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada tarix fanlarini "grafik-sxema"lar asosida tushuntirish orqali talabalar mustaqil ish faoliyatini baholash mezonlari yoritilgan. Grafik-sxemalarning tushuncha va sababiy bog'lanishlarni ochib berishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Baholash mezonlari metodik aniqlik, qidiruv faoliyati, tahlil va xulosalarning ilmiyligi asosida ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются критерии оценки самостоятельной работы студентов по истории на основе использования графических схем. Анализируется значение графических схем в раскрытии понятий и причинно-следственных связей. Оценка базируется на методической точности, поисковой деятельности и научной аргументации выводов.

SUMMARY:

This article examines the criteria for assessing students' independent work in history through the use of graphic diagrams. It analyzes the role of schematic representations in illustrating key concepts and causal relationships. Evaluation is based on methodological accuracy, research engagement, and scientific reasoning.

Kirish. Zamonaviy ta'limda fanlarni vizual asosda o'rgatish, ayniqsa, tarix fanini grafik-sxemalar orqali tushuntirish dolzarb yondashuv hisoblanadi. Bu usul talabalar bilimini mustahkamlash, tahliliy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mustaqil ishlar orqali talabalar nafaqat faktlarni o'zlashtiradi, balki ularni mantiqiy bog'laydi, sabab-oqibat munosabatlarini tushunadi. Ushbu maqolada tarixiy ta'limda grafik-sxemali yondashuvni baholash mezonlari, tahlil usullari va ularning ta'lim



samaradorligiga ta'siri o'rganiladi. Baholash jarayoni ilmiylik, metodik aniqlik va izchillik asosida tashkil etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda qo'llanilgan adabiyotlar ta'lim nazariyasi, psixologik rivojlanish va innovatsion pedagogik yondashuvlarga oid zamonaviy va klassik manbalarni qamrab olgan.

Piaget va Vygotskyning asarlari asosiy nazariy tayanch bo'lib xizmat qilgan. Piagetning intellektual rivojlanishga oid g'oyalari orqali talabalar mustaqil fikrlash bosqichlariga oid yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lsa [1], Vygotskyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi innovatsion metodlar samaradorligini tushunishda metodologik asos bo'lib xizmat qilgan [2].

John Deweyga oid tahlillar (Ansbacher orqali) tajriba asosida o'rganishning ahamiyatini ko'rsatgan [6]. Bu yondashuv loyiha asosli ta'lim va case-study metodlarining asoslanishini ta'minlagan.

Biggs, Tang va Kennedy tomonidan ishlab chiqilgan constructive alignment modeli ta'lim samaradorligini baholashda ilmiy asos vazifasini bajargan. Ayniqsa, Bloom taksonomiyasi va faol o'quvchi modeliga asoslangan baholash tizimlari ushbu nazariyaga tayanadi [7].

Rossiyalik olimlarning ishlari, jumladan, G. A. Belkina va A. A. Leontyev, innovatsion ta'lim standartlari va sog'lom pedagogik fikrlarni tahlil qilgan [3, 4]. Ularning fikrlari ta'lim tizimidagi zamonaviy tendensiyalarni aks ettirishda foydali bo'lgan.

Nurgaleev va hammualliflarining tadqiqoti kognitiv faoliyatning ong bilan bog'liqligi va uni rivojlantirishda psixologik omillarning roli haqida muhim xulosalarni beradi [5].

Umuman olganda, adabiyotlar tadqiqotning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda, metod tanlash va natijalarni izohlashda asosiy tayanch manbalar sifatida xizmat qilgan. Ular pedagogik jarayonni chuqurroq tahlil qilish, nazariy modelni asoslash va statistik tahlil uchun puxta metodik poydevor yaratgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola doirasida tarix fanini grafik-sxemalar asosida o'rgatish samaradorligini baholashda sifatli va miqdoriy metodlar uyg'unlashtirildi. Baholash mezonlari diagnostik tahlil, semantik bog'lanish, mustaqil fikrlash va ilmiy izlanish faoliyatiga asoslangan. Talabalar mustaqil ishlari – grafiklar, blok-sxemalar, sababiy zanjirlar shaklida tahlil qilindi. Har bir ish dars maqsadlariga muvofiq baholandi. Psixologik-pedagogik diagnostika asosida o'quvchilarning individual yondashuvlari ham hisobga olindi. Natijalar SPSS dasturida statistik jihatdan tahlil qilinib, samaradorlik darajalari foizda ifodalandi.

Natijalar va muhokama.

1. Asosiy tushunchalarni ta'kidlash:

- Asosiy tushunchalar to'liq va aniq yoritilgan, ularning mazmuni grafiklar bilan asoslangan;

- Asosiy tushunchalar qisman ta'kidlangan, izohlar bilan tushuntirilgan: 2 nomdan ko'p bo'lmagan;

- Asosiy tushunchalar qisman ta'kidlangan, izohlar va tushuntirishlar bilan to'ldirilgan: 3 yoki undan ortiq shartli izohlar;

- Asosiy tushunchalar ajratib ko'rsatilmagan yoki aniq tushuntirilmagan.

2. Semantik va sababiy munosabatlarning ta'rifi:

- Semantik va sababiy munosabatlar to'liq aniqlangan va grafiklar yordamida tushuntirilgan;

- Semantik va sababiy munosabatlar qisman aniqlangan, 2 izoh bilan tasvirlangan;

- Semantik va sababiy munosabatlar qisman aniqlangan, 3 yoki undan ortiq izohlar yordamida tushuntirilgan;

- Semantik va sababiy munosabatlar aniqlanmagan yoki aniq izohlar bilan taqdim etilmagan.

3. Tushunchalar bloklarining o'zaro bog'lanishlarini aniqlash:

- Tushunchalar bloklari o'zaro bog'langan va ularning aloqalari to'liq grafiklar bilan ifodalangan;

- Tushunchalar bloklari o'zaro bog'langan, lekin faqat ba'zi aloqalar aniqlangan (2 izoh bilan);

- Tushunchalar bloklari o'zaro bog'langan, lekin ko'plab aloqalar tushuntirilmagan (3 yoki undan ortiq izohlar bilan);

- Tushunchalar bloklarining o'zaro bog'lanishlari aniqlanmagan.

1. Mustaqil ish shaklini baholash “O'quv mashg'ulotining metodik ishlanmalari”.

Dars tuzilishining maqsad va turiga muvofiqligi:

- Dars tuzilishi maqsad va turiga mos va metodik jihatdan asoslangan;

- Dars tuzilishining maqsadi va turi qisman muvofiqligi: tegishli dars turining bitta majburiy bosqichini asossiz kiritish yoki chiqarib tashlash;

- Dars tuzilishining maqsadi va turi qisman muvofiqligi: tegishli dars turining ikkita majburiy bosqichini asossiz kiritish yoki chiqarib tashlash;

- Dars tuzilishining maqsadi va turiga qisman muvofiqligi: tegishli dars turining uchta majburiy bosqichini asossiz kiritish yoki chiqarib tashlash.

Maqsadni belgilashni baholash:



- Darsning maqsadlari va o'rgatish va rivojlantirish bosqichlari aniq va asosli tarzda shakllantirilgan, usullar va metodlar izohlanadi;
- Darsning maqsadlari va o'qitish bosqichlari aniq shakllantirilgan;
- Maqsad va vazifalar noaniq shakllantirilgan;
- Noaniqlik, amorf maqsadlar va vazifalar (maqsad va vazifalarning dars mavzusiga nomuvofiqligi).

3. Ta'lim mazmuni birliklarini ajratish va asoslashni baholash:

- Ta'lim mazmuni birliklari ajratilgan va metodik asoslanishga tayangan;
- Ta'lim mazmuni birliklari faqat ta'kidlangan;
- Ta'lim mazmuni birliklari va o'quv materiallari bir-biridan farq qilmaydi;
- Ta'lim mazmunining birliklari ajratilmagan (o'quv materialini taqdim etishda primitivizm, fragmentatsiya, mantiqning buzilishi).

Tarix fani bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish shakllaridan foydalanishni baholash:

- **Psixologik-pedagogik diagnostikaga asoslangan yondashuv:** Tarix o'qitishda mustaqil ishlarni tashkil etishda psixologik va pedagogik diagnostikaga asoslangan metodlar qo'llanilishi lozim. Bu, o'quvchilarning individual xususiyatlari, bilim olish usullari va ta'limga bo'lgan motivatsiyalarini hisobga olishni ta'minlaydi.

- **Tarixiy ta'limni tashkil etishda metodik aniqlik:** Tarixiy fanlarni o'rgatishda qo'llaniladigan pedagogik metodlar, o'quvchilarni bilim olish jarayonida samarali tarzda yo'naltirish va ularga kerakli ma'lumotlarni aniq va ravshan tushuntirishga imkon yaratishi kerak.

2. Tarix fani bo'yicha qidiruv ishlarining baho mezonlari:

- **Qidiruv ma'lumotlarining to'liqligi va sifatiga baho berish:** O'quvchilarning qidiruv ishlarini baholashda ma'lumotlarning to'liq va mazmunli tanlanishi muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ishlar talabalar tomonidan belgilangan mavzuga muvofiq ravishda to'liq tahlil qilinishi va ularning ilmiy nuqtai nazardan tasdiqlangan manbalardan foydalanilishi lozim.

- **Qidiruv aniqligi:** Qidiruv jarayonida aniqlikning yuqori darajada bo'lishi talab qilinadi. Axborotning aniq, ishonchli va ilmiy asoslangan bo'lishi, ishlatilgan manbalarining ilmiy tahlili va shubhasiz isbotlar bilan ta'minlanishi zarur.

3. Tarixiy ta'limdagi baholash mezonlarining ilmiy asoslari:

- **Ma'lumotlar tanlashning ilmiyligi:** Tarixiy ma'lumotlar va resurslar tanlashda ilmiy izlanishlar va metodologik yondashuvlar asosida ish ko'rish kerak. Bunda, faqatgina dasturga muvofiq bo'lgan manbalar tanlanishi lozim.



- **Metodologik tahlil:** O'quvchilar tomonidan tanlangan manbalar va resurslar orqali qilingan tahlilning ilmiy yondashuvga muvofiqligi ta'minlanadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Tarix fanini o'qitishdagi metodlar va uning tizimli baholashini tashkil etish:

- **O'quvchilarning metodik ko'nikmalarini rivojlantirish:** Tarixiy materiallar asosida o'quvchilarni qayta ishlash, mustaqil fikrlash va tahlil qilish metodlari bilan tanishtirish. Bu metodik jarayonlar o'quvchilarni mustaqil ilmiy faoliyatga yo'naltiradi.

- **Bosqichma-bosqich baholash tizimi:** Tarix fani bo'yicha o'quvchilarni baholashda har bir bosqichni aniq belgilash va uning amalga oshirilishida mantiqiy uzviylikka ega bo'lishi kerak. Har bir bosqich orasida aniqlik va mantiqiy bog'lanishlar bo'lishi talab qilinadi.

5. Mustaqil ishni baholashda kriteriyalarning ilmiy yondashuvi:

- **Axborot qidiruvining ilmiy asosda amalga oshirilishi:** Mustaqil ishlar baholanayotganda, axborot qidiruvi barcha talablarga javob berishi, qidiruv jarayonida ilmiy tahlil va izlanishlarga asoslanishi kerak. Bu qidiruv natijalarini aniq va to'liq aks ettirishga imkon beradi.

- **Tahlil va xulosalarning ilmiy tahriri:** O'quvchilarning tahlil natijalari ilmiy va mantiqiy xulosalar bilan mustahkamlanishi lozim. Har bir qidiruv natijasi aniq va izchil ravishda ma'lum bir ilmiy me'yorlarga asoslanishi kerak.

6. O'quvchilarning mustaqil ishlarini baholashda ta'lim metodikasining ahammiyati:

- **Pedagogik usullar va metodologik yondashuvlar:** Tarix fani o'qitishning metodikasi o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunda tarixiy materiallarga tahliliy yondashuv, ilmiy tahlil va fikrlarni taqdim etish muhim ahamiyatga ega.

Kredit-modul tizimi: Oliy ta'lim tizimida kredit-modul usuli yordamida o'quvchilarni baholash tizimi muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizimning ilmiy asoslangan baholash mezonlari, o'quvchilarning mustaqil ishlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Grafik-sxemalarga asoslangan ta'lim yondashuvi tarix fanida mustaqil fikrlash, tahliliy ko'nikmalar va izchil izlanish madaniyatini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil ishlarni baholashda aniq mezonlar qo'llanilishi ta'lim jarayonining shaffofligi va adolatligini ta'minlaydi. Grafik ifodalar orqali tushunchalar va sabab-oqibat munosabatlar osonroq anglashiladi, bu esa tarixiy tafakkurni chuqurlashtiradi. Natijalar shuni



ko'rsatadiki, grafik-sxemali metodika talabalar faolligini oshiradi va ularni mustaqil izlanishga undaydi. Mazkur yondashuv kelgusida boshqa fanlarda ham qo'llanishi mumkin bo'lgan samarali usuldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Пиаже Ж. Психология интеллекта. – М.: Routledge & Kegan Paul, 1970. – 184 с.
2. Выготский Л. С. Взаимодействие между обучением и развитием // В кн.: Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Harvard University Press, 1978. – С. 78–91.
3. Белкина Г. А. Современные тенденции совершенствования стандартов и учебных программ высшего образования в России и за рубежом // Шамовские чтения. – 2023. – С. 638–641.
4. Леонтьев А. А. Педагогика здравого смысла. – М.: ЛитРес, 2022. – 208 с.
5. Нургалеев В. С., Беловолов В. А., Беловолова С. П. Освоение сознания как вид когнитивной деятельности субъекта образовательного процесса в вузе // Гуманитарные науки и образование в Сибири. – 2014. – № 2. – С. 73–76.
6. Ansbacher T. John Dewey's Experience and Education: Lessons for Museums // Curator: The Museum Journal. – 1998. – Vol. 41. – No. 1. – P. 36–50.
7. Biggs J., Tang C., Kennedy G. Teaching for Quality Learning at University. – 5th ed. – London: McGraw-Hill Education (UK), 2022. – 420 p.



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

MAKTAB TA'LIMIDA FIZIKANI O'QITISH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH UCHUN STORITELLINGNI QO'LLASH

Erlepesova I.B.

*Ajiniyoz nomidagi NDPI fizikani o'qitish metodikasi kafedrası
tayanch doktranti*

Tayanch so'zlar: hikoya qilish, fizika, ta'lim, maktab ta'limi, motivatsiya, o'qitish metodlari, ilmiy tushunchalar, pedagogik usullar.

Ключевые слова: рассказ, физика, обучение, школьное образование, мотивация, методы преподавания, научные концепции, педагогические методы.

Key words: story, physics, education, school teaching, motivation, teaching methods, scientific concepts, pedagogical methods.

РЕЗЮМЕ:

Мақола мактабда физика фанини ўқитишда сторителлингдан фойдаланишга бағишланган. Унда ҳикоялар орқали мураккаб тушунчаларни тушунарли қилиш, ўқувчиларнинг қизиқиши ва мотивациясини ошириш мумкинлиги таҳлил қилинади. Физик қонунларни сторителлинг ёрдамида тушунтириш бўйича мисоллар келтирилган ва ўқитувчилар учун амалий тавсиялар берилган.

РЕЗЮМЕ:

Статья посвящена использованию сторителлинга в преподавании физики в школе. Рассматривается, как рассказывание историй помогает сделать абстрактные понятия более понятными, повысить интерес и мотивацию учеников. Приводятся примеры объяснения физических законов с помощью сторителлинга и даются практические рекомендации для учителей.

SUMMARY:

The article focuses on the use of storytelling in teaching physics at school. It explores how storytelling helps make abstract concepts more understandable, increases students' interest and motivation. Examples of explaining physical laws through storytelling are provided, along with practical recommendations for teachers.

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda ta'lim texnologiyalari sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda. Dunyodagi maktablar o'quvchilar uchun ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, qulay va samarali qiladigan innovatsion yondashuvlarni joriy etishga harakat qilmoqda. Shunday yondashuvlardan biri storitelling - hikoyalar yaratish va ularni yetkazishga asoslangan uslubdir.



Storitellingning mohiyati va uni ta'limda qo'llash masalalari A.V. Kozyulyayev, M.M. Stepanova, E.N. Didenko kabi tadqiqotchilar, shuningdek, xorijiy olimlar - Maks Shleser, Syaoge Syu, Meloni va Ester kabilarning ishlarida o'z aksini topgan. Shunday bo'lsa-da, ma'lum ilmiy asosga ega bo'lishiga qaramay, storitelling uslubi hamon innovatsion yo'nalish sifatida qolmoqda. Storitelling nafaqat tinglovchilarni xursand qilish, balki bilim va madaniyatni yetkazish uchun ham qo'llaniladi. Bu yondashuv ta'limning turli sohalariga, jumladan, fizika fanini o'qitishga ham faol tatbiq etilmoqda [1-4].

Fizika fani an'anaviy tarzda murakkab va mavhum deb qabul qilinib, ko'pincha maktab o'quvchilarida tushinishda qiyinchiliklar tug'diradi. Ma'ruza o'qish, tajribalarni namoyish etish va masalalar yechish kabi fizika o'qitishning an'anaviy usullari o'quv jarayonining asosini tashkil etsa-da, ular doim ham o'quvchilarda chuqur qiziqish va tushunishni uyg'ota olmaydi. Bu qiyinchiliklarni yengishning bir usuli fizika o'qitishga hikoya qilish usulini kiritishdir. Bu nafaqat darslarni yanada qiziqarli qilishga, balki fizikani jonli va dinamik fan sifatida anglash darajasini oshirishga ham yordam beradi.

Fizika o'qitishda hikoya qilish usuli fizik hodisalar, qonunlar yoki olimlarning hayoti bilan bog'liq voqeiy yoki tasavvurdagi hikoyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu usul o'quvchilarga nafaqat mavhum formula va nazariyalarni o'zlashtirishga, balki bu tushunchalarning kundalik hayotda qanday qo'llanilishini ko'rishga imkon beradi. Bu esa ularning fanga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi mumkin [5, 6].

Ushbu maqolaning maqsadi maktabda fizika o'qitishda hikoya qilish usulini qo'llash metodikasini tadqiq etish, uning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, fizika o'qituvchilari uchun aniq misollar va uslubiy tavsiyalar taqdim etishdan iborat. Biz storitellingdan darsning turli bosqichlarida qanday foydalanish mumkinligini, u qanday shakllarda namoyon bo'lishini va qanday natijalar berishini ko'rib chiqamiz. Bundan tashqari, hikoyalardan foydalanish o'quvchilarga nafaqat ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishda, balki tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam berishini tahlil qilamiz.

Asosiy qism. Storitelling (inglizcha "storytelling" - "hikoya aytish") ma'lumot yoki bilimlarni hikoya orqali yetkazish jarayonidir. Ta'lim amaliyotida storitelling o'quv materialini o'zlashtirish maqsadida qiziqarli va esda qolarli hikoyalar yaratish uchun badiiy usullardan foydalanishni o'z ichiga olgan usul hisoblanadi. Bu haqiqiy voqea ham, o'quvchilar nazariy bilimlarning hayotda qo'llanilishini ko'rishlari mumkin bo'lgan xayoliy vaziyat ham bo'lishi mumkin [7, 8]. Storitellingning asosiy tamoyili o'quvchilar uchun materialni bog'liq hikoya yaratish orqali qiziqarli va tushunarli qilishdan iborat. Hikoya oddiy yoki murakkab, ilmiy yoki fantastik bo'lishi mumkin, biroq u albatta qiziqarli va mazmunli bo'lishi lozim.



Ilmiy tushunchalar atrofida qurilgan hikoya o'quvchilarga nafaqat nazariyani eslab qolishga, balki uning amaliy ahamiyatini tushunishga ham yordam beradi.

Bilim va ma'lumotni uzatish usuli sifatida storytelling hikoyani qiziqarli, esda qolarli va o'rganish uchun foydali qiladigan bir nechta asosiy elementlarni o'z ichiga oladi. Quyida ta'lim maqsadlarida, jumladan, fizika fanini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan hikoya aytishning asosiy tarkibiy qismlari keltirilgan:

1. Syujet - hikoyaning asosiy voqealar yo'nalishi. Ta'limiy hikoya aytish (storytelling)da syujet ma'lum bir mavzu yoki ilmiy tushuncha atrofida quriladi va hikoyaning rivoji hamda harakati orqali ochib beriladi. Syujetning o'quv materiali bilan mantiqan bog'lanishi va o'quvchilarni asta-sekin asosiy g'oyaga yetaklashi muhimdir.

Misol: Olimlarning tortishish kuchini tushuntirish yo'lidagi izlanishlari va Nyutonning boshiga tasodifan olma tushishi uning buyuk kashfiyotlariga turtki bo'lgani haqidagi hikoya.

2. Personajlar - hikoyada ishtirok etuvchi va syujet rivojida muhim rol o'ynovchi shaxslar. Ta'lim doirasida personajlar fizik hodisalarga duch kelib, muammolarni yechayotgan olimlar, tarixiy shaxslar yoki xayoliy qahramonlar bo'lishi mumkin.

Misol: Olma tushishini kuzatayotgan Nyuton yoki yangi texnologiyani yaratish uchun fizika qonunlaridan foydalanayotgan zamonaviy tadqiqotchi haqidagi hikoya.

3. Konflikt - bu qahramonlar yechishga urinadigan asosiy muammo. Ilmiy hikoya qilishda konflikt olimlar oldida turgan biror muammo yoki hal qilinmagan masala bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu konflikt syujet rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi va bilimlardan foydalangan holda yechim izlashga olib keladi.

Misol: Ziddiyat harakatdagi tezlanish yoki sekinlanish muammosini qanday hal qilish yoki jismlar nima uchun yon tomonga emas, balki Yerga tushishini tushunish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

4. Yechim - bu konflikt hal bo'ladigan va qahramonlar muammoga javob topadigan payt. Fizika nuqtai nazaridan, yechim odatda qo'yilgan masalani hal qilishga yordam beradigan ilmiy hodisa, nazariya yoki qonunni tushuntirish bilan bog'liq bo'ladi.

Misol: Nyutonning butun olam tortishish qonunlarini o'rganish natijasi va olmalar nima uchun doimo pastga tushishini tushuntirib beradigan qonunning ta'riflanishi.

5. Kontekst - voqea sodir bo'layotgan fon. Ta'limiy hikoya qilishda kontekst u yoki bu voqealar nima uchun va qanday sodir bo'lishini tushunish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bu tarixiy kontekst (masalan, u yoki bu ilmiy qadam qo'yilgan davr) yoki eksperiment sharoitlarining tavsifi bo'lishi mumkin.



Misol: Rentgen nurlari haqidagi hikoyaning konteksti o'sha davrdagi ilmiy izlanishlar, Rentgen o'z tajribalarini o'tkazgan sharoitlar va tasodifiy kashfiyot qanday qilib tibbiy inqilobga olib kelishi mumkinligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Bu elementlar qiziqarli va chuqur hikoya yaratishga yordam berib, nafaqat ilmiy tushunchalarni tushuntiradi, balki ta'lim jarayonini yanada jonli va qiziqarli qiladi. Storitelling fizika fanlarini o'qitishda kuchli vosita bo'lishi mumkin, chunki u nazariyani tushuntiribgina qolmay, o'quvchilarga bu nazariya real hayotda qanday ishlashini anglashga yordam beradi.

Fizika darsining turli bosqichlarida storitellingdan foydalanish mumkin. O'qituvchi hikoyalarni dars tuzilmasiga mohirona singdirib, ulardan darsni yanada qiziqarli va ma'noli qilish uchun foydalanishi muhimdir.

- Mavzuga kirish. Darsning dastlabki bosqichida storitelling o'quvchilarni o'quv jarayoniga "jalb etishga" yordam beradi. Masalan, darsni mashg'ulotda o'rganiladigan mavzuning qanday kashf etilganligi haqidagi hikoya bilan boshlash mumkin. Olimlarning o'z kashfiyotlariga qanday erishganliklari haqida so'zlash o'quvchilarga o'rganilayotgan muammoning ahamiyatini tushunishga yordam beradi va dars mavzusiga qiziqish uyg'otadi. Masalan, agar dars mavzusi Nyuton qonunlari bo'lsa, o'qituvchi Isaak Nyutonning hayoti va ishlari, uning mashhur qonunlarini qanday ishlab chiqqani va ular nima uchun muhimligi haqida hikoya qilishdan boshlashi mumkin.

- Darsning asosiy qismi. Yangi tushunchalarni tushuntirish jarayonida nazariy materialni hayotiy misollar bilan bog'lash uchun storitellingdan foydalanish mumkin. Masalan, saqlanish qonunlarini tushuntirishda impulsning saqlanish qonuni qo'llaniladigan rolikda uchish yoki velosiped haydashni misol qilib keltirish mumkin. Bu qonunlar real hayotda qanday amal qilishi haqida hikoya qilish ularni yanada tushunarli va aniq qiladi.

- Darsni yakunlash. Dars yakunida o'tilgan mavzuni mustahkamlashga yordam beradigan hikoya aytib berish mumkin. Bu aviatsiya, kosmik tadqiqotlar yoki texnologiyalar kabi turli sohalarida fizikaning zamonaviy qo'llanilishi haqidagi hikoya bo'lishi mumkin. Talabalar va olimlar yangi texnologiyalarni yaratish uchun fizikadan qanday foydalanishlari haqidagi hikoya o'quvchilarga hozirgina o'rganganlarini va bu bilimlarni real hayotda qanday qo'llash mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Quyida fizika o'qitishda storitellingdan foydalanishning aniq misollari keltirilgan.

1-misol: Energiyaning saqlanish qonuni - Skeytbordchi haqidagi hikoya. Energiyaning saqlanish qonuni fizikadagi eng muhim tamoyillardan biri bo'lib, u yopiq tizimda energiya yo'q bo'lib ketmasligini, faqat bir shakldan boshqasiga



o'tishini ta'kidlaydi. Bu qonuniyatni skeytbordchi ishtirokidagi oddiy va tushunarli misol orqali yaqqol tushuntirish mumkin.

Tasavvur qiling, skeytbordchi tepalik ustida pastga tushishga tayyorlanmoqda. U yer sathidan ma'lum balandlikda turibdi va bu balandlikda uning tanasi potensial energiyaga ega bo'lib, bu energiya uning massasi va u turgan balandlikka bog'liq. Bu fizik xususiyat - potensial energiya ma'lum balandlikda turgan jism yerga qaytib ish bajarishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Skeytbordchi pastga tusha boshlaganda potensial energiya kinetik, ya'ni harakat energiyasiga aylana boshlaydi. U qanchalik pastga tushsa, skeytbordning tezligi shunchalik katta bo'ladi, binobarin, kinetik energiyasi ham ortadi. Bu vaqtda o'quvchilar potensial energiyaning kinetik energiyaga aylanishini kuzatishlari mumkin.

Tushish davomida uning tezligi ortadi, balandligi esa kamayadi, bu esa energiyaning saqlanish qonunini yaqqol ko'rsatadi: tizimning umumiy energiyasi (potensial + kinetik) ishqalanish kabi tashqi kuchlarni hisobga olmaganida o'zgarmas bo'lib qoladi.

Energiyaning saqlanish qonunini bir necha asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

1. Skeytbordchi tepalik cho'qqisida turganida, uning barcha energiyasi massasi (m) va balandligiga (h) bog'liq bo'lgan potensial energiya (E_p) shaklida to'planadi:

$$E_p = mgh$$

bu yerda g - erkin tushish tezlanishi (taxminan $9,8 \text{ m/s}^2$).

2. Skeytbordchi pastga tushayotganda uning balandligi (h) kamayadi va potensial energiya skeytbordchining massasi va tezligiga bog'liq bo'lgan kinetik energiyaga (E_k) aylanadi:

$$E_k = 1/2mv^2$$

bu yerda v - skeytbordchining tezligi.

3. Skeytbordchi tepalikning eng quyi nuqtasiga yetganda uning tezligi eng yuqori bo'ladi va potensial energiyasi nolga teng bo'ladi. Bu bosqichda barcha energiya kinetik energiyaga aylanadi.

4. Butun tushish davomida tizimning umumiy energiyasi o'zgarmay qoladi, ya'ni potensial va kinetik energiyalar yig'indisi o'zgarmaydi (agar havo qarshiligi va ishqalanish hisobga olinmasa):

$$E_p + E_k = \text{const}$$

Skeytbordchi pastga tushgandan so'ng, u tepalikning boshqa qismi yoki qiyalik bo'ylab ko'tarila boshlashi mumkin. Bu holda kinetik energiya yana potensial energiyaga aylanadi. U qancha yuqoriga ko'tarilsa, uning potensial energiyasi shuncha katta bo'ladi, tezligi esa kamayadi, chunki barcha energiya yana potensial shaklga o'tadi.



Ushbu misoldan o'quvchilarga energiyaning saqlanish qonuni real hayotda qanday ishlashini ko'rsatish uchun foydalanish mumkin. Ular kundalik harakatlarida, masalan, skeytbordda, velosipedda yurish yoki hatto kichik balandlikdan sakrashda energiya bir shakldan boshqasiga qanday o'tishini kuzatishlari mumkin.

Hikoya usulini qo'llash orqali o'qituvchi darsni yanada qiziqarli qilishi, o'quvchilarga nafaqat energiya nima ekanligini va u qanday saqlanishini tushunish, balki nazariy qonunlar kundalik hayotda qanday amal qilishini misolda ko'rish imkoniyatini berishi mumkin. Bu o'quvchilarga nafaqat materialni eslab qolishga, balki fizik qonunlar dunyomizni qanday boshqarishini chuqurroq anglashga yordam beradi.

2-misol: Gravitatsiya va og'irlik kuchi - Olmaning tushishi haqidagi hikoya.

Isaak Nyuton tomonidan ta'riflangan butun olam tortishish qonuni fizikadagi eng mashhur va muhim tamoyillardan biridir. U dunyodagi barcha jismlar bir-biriga ularning massalariga to'g'ri proporsional va ular orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsional bo'lgan kuch bilan tortilishini ta'kidlaydi. Bu shuni anglatadiki, jismning massasi qanchalik katta bo'lsa, uning tortishish kuchi shunchalik kuchli bo'ladi va ikki jism bir-biriga qanchalik yaqin bo'lsa, ular orasidagi tortishish kuchi shunchalik katta bo'ladi.

Bu qonunni maktab o'quvchilariga tushuntirish uchun Nyuton va olma haqidagi mashhur hikoyadan foydalanish mumkin, ammo hikoyani yanada qiziqarli va tushunarli qilish uchun unga qo'shimcha tafsilotlar kiritiladi.

Isaak Nyuton bog'da olma daraxti tagida o'tirganida, olmalardan biri daraxtdan uzilib tushayotganini kuzatgan. Bu oddiy va kundalik hodisa uning olmani yerga tushiradigan kuchning mohiyati haqidagi mulohazalariga turtki bo'ldi. Qiziq joyi shundaki, Nyuton nafaqat olmaning pastga tushayotganini payqadi, balki nima uchun u har doim yonga yoki yuqoriga emas, balki pastga tushishi haqida ham o'yladi. Aslida, nima uchun Yerdagi barcha jismlar qandaydir kuch ta'sirida uning markaziga intiladi?

Dono olim olmani tushiradigan kuch tortishish kuchi ekanligini angladi. Lekin faqat olma Yerga tortilmaydi. Butun olam tortishish kuchi barcha jismlarga, ularning o'lchamidan qat'i nazar, ta'sir qiladi va Yer ham o'z navbatida olma tomonidan tortiladi. Ammo Yer olmaga qaraganda ancha katta bo'lgani uchun uning kuch ta'siridagi harakati ancha kam seziladi.

Shunday qilib, Nyuton butun koinot tortishish qonunlariga bo'ysunadi, degan xulosaga keldi. Barcha massali jismlar bir-birini tortadi va bu tortishish ularning massalariga to'g'ri proporsional va ular orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsionaldir.

Butun olam tortishish qonunini bir nechta asosiy tushunchalar orqali tushuntirish mumkin:



1. Gravitatsiya kuchi: Bu ikki jismning bir-biriga tortishish kuchidir. Jismning massasi qancha katta bo'lsa, bu kuch shuncha kuchli bo'ladi. Masalan, Yer juda katta massaga ega, shuning uchun uning tortishish kuchi juda kuchli.

2. Kuchning yo'nalishi: Boshqa kuchlardan, masalan, elastiklik kuchidan farqli o'laroq, tortishish kuchi har doim Yerning markaziga yo'nalgan. Shuning uchun olma har doim yon tomonga emas, pastga tushadi.

3. Masofaga bog'liqlik: Gravitatsiya kuchi jismlar orasidagi masofaga ham bog'liq. Ikki jism bir-biridan qanchalik uzoq bo'lsa, ular orasidagi tortishish kuchi shunchalik zaif bo'ladi. Bu gravitatsiya kuchining jismlar orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsionalligi bilan izohlanadi.

Olmaga qaytaylik. U daraxtdan tushganda, uni pastga tortadigan og'irlik kuchiga duch keladi. Bu kuch Yerning tortish kuchi tufayli yuzaga keladi. Shunday qilib, olmaning butun massasi Yer markaziga "tortiladi" va aynan shu tortish kuchi uni pastga harakatlanishga majbur qiladi.

Lekin nima uchun olma har doim pastga tushadi? Axir u yon tomonga yoki yuqoriga uchib ketishi mumkin edi-ku. Javob shundaki, tortishish kuchi har doim va faqat bir yo'nalishda - pastga, Yerning markaziga tomon ta'sir qiladi. Bu xususiyatni Yer sayyorasining butun massasi ulkan massali nuqtaviy jism sifatida harakat qiladi, degan tamoyil bilan izohlash mumkin. Bu esa jismlarni o'z yo'nalishida harakatlanishga majbur qiladigan tortishish maydonini hosil qiladi.

Hikoyani yanada ko'rgazmali qilish uchun tortishish kuchining ta'sirini ko'rsatuvchi boshqa misollar keltirish mumkin. Masalan, kosmosdagi odamlar va jismlar ham gravitatsiya ta'siriga uchrashi haqida gapirish mumkin. Kosmosda Yerdagidek og'irlikni his qilmasak-da, tortishish kuchi tufayli kosmik kemalar sayyora atrofidagi orbitada qoladi.

Chuqurroq tushunish uchun havo qarshiligi bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish mumkin. O'quvchilar olma havoda qarshilikka uchrashiga qaramay, nima uchun har doim pastga tushishiga qiziqishlari mumkin. Haqiqatan ham, havoning qarshiligi jismlarning tushishini sekinlashtiradi, ammo bu ta'sir olma kabi katta va og'ir jismlar uchun ahamiyatsizdir.

Yengilroq narsalar, masalan, pat yoki qog'oz varag'ini misol qilib keltirish mumkin. Bu holda havoning qarshiligi ancha kuchli bo'ladi va bu jismlar sekinroq tushadi. Bu nuqta, shuningdek, turli sharoitlar (masalan, atmosfera bosimi, havo zichligi) jismlarning og'irlik kuchi ta'siridagi harakatiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini muhokama qilish imkonini beradi.

Gravitatsiya qonunlari hamma joyda amal qiladi va bu hikoya orqali ularning kundalik qo'llanilishini ko'rsatish mumkin. Masalan, binolar, ko'priklarni loyihalashda yoki hatto raketalarni uchirishda ham tortishish kuchini hisobga olish muhim. Arxitektorlar va muhandislar obyektlarning og'irligi konstruksiyaga



qanday ta'sir qilishini va ular barqaror hamda xavfsiz inshootlarni yaratish uchun tortishish kuchidan qanday foydalanishlari mumkinligini tushunishlari kerak.

Bunday yondashuv nafaqat fizikaning nazariy jihatlarini tushunishga, balki ularning hayotda amaliy qo'llanilishini anglashga yordam beradi. Bu esa materialni chuqurroq o'zlashtirishga va o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Maktabda fizika o'qitishda voqeaband usuli (storitelling) kuchli vosita hisoblanadi. Hikoyalardan foydalanish o'quvchilarga nafaqat nazariy tushunchalarni chuqurroq anglashga, balki ularning amaliy hayotda qo'llanilishini ko'rishga ham yordam beradi. Bu usul fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi, o'quvchilarning ishtiyoqi va faolligini kuchaytiradi, hamda ularning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Biroq, har qanday usul kabi, voqeaband usulidan ham ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim. Hikoyalar nafaqat qiziqarli, balki ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi muhimdir. Fizika o'qitishda voqeaband usulini samarali qo'llash uchun o'qituvchilar bu usulni boshqa pedagogik yondashuvlar va metodlar bilan uyg'unlashtirishi zarur. Bu esa yanada jo'shqin va qiziqarli ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, voqeaband usuli fizika o'qituvchisining vositalar arsenalidagi muhim va istiqbolli qurol hisoblanadi. U o'quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilashi, uni yanada qiziqarli va samarali qilishi, shuningdek, o'quvchilarga fizika nafaqat fan, balki ularning kundalik hayotining ajralmas qismi ekanligini anglatishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Грошева Н. Б., Купчинская Ю. А. Сторителлинг в образовании //Синтез науки и общества в решении глобальных проблем современности. – 2017. – С. 36-37.
2. Харунжева Е. В., Грылёв И. В.. "Теоретические основы использования сторителлинга в образовательном процессе" Педагогическое искусство, no. 2, 2021, pp. 28-32.
3. Пяткова, О. Б. Метод сторителлинга в обучении // Школьные технологии. – 2018. – № 6. – С. 41–45.
4. Е. А. Челнокова, С. Н. Казначеева, К. В. Калинкина и др. Сторителлинг как технология эффективных коммуникаций. // Перспективы науки и образования. – 2017. – № 5(29). – С. 7–12.
5. Ерлесоева И. Б. Использование сторителлинга для повышения интереса школьников к физике //Hamkor konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 13. – С. 662-665.
6. Максимкина Е. Ю. Сторителлинг в образовательном процессе //Молодой учёный. – 2022. – С. 158-162.
7. Подорожная А.В., Сулейков А.В. Сторителлинг – преимущества и возможности в школьном образовании // Педагогический журнал. 2022. Т. 12. № 2А. С. 365-370.
8. Satriani I. Storytelling in teaching literacy: Benefits and challenges //English Review: Journal of English Education. – 2019. – T. 8. – №. 1. – С. 113-120.



KIBERHUJUMLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI

Boymanov J.I.

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi
"Iqtisodiyot va muhandislik fanlari" kafedrası assistenti*

Tayanch so'zlar: kiberxavfsizlik, ta'lim tizimi, axborot texnologiyalari, kiberhujum, axborot tahdidi, masofaviy ta'lim.

Ключевые слова: кибербезопасность, система образования, информационные технологии, кибератака, информационная угроза, дистанционное обучение

Key words: cybersecurity, education system, information technology, cyberattack, information threat, distance learning

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimidagi ahamiyati va shu bilan birga yuzaga kelayotgan kiberxavfsizlik muammolari yoritiladi. Xususan, kiberhujumlarning ta'lim jarayoniga ta'siri, ularning oqibatlari, himoyalash usullari, ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalar tahlil qilinadi. Mavzu doirasida real hayotiy misollar va statistik ma'lumotlar asosida asosli xulosalar chiqarilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье освещается значение современных информационных технологий в системе образования, а также возникающие в связи с этим проблемы кибербезопасности. В частности, рассматривается влияние кибератак на образовательный процесс, их последствия, способы защиты и задачи, стоящие перед образовательными учреждениями. В рамках темы приведены реальные примеры и статистические данные, на основе которых сделаны обоснованные выводы.

SUMMARY:

This article highlights the significance of modern information technologies in the education system and the accompanying cybersecurity challenges. Specifically, it analyzes the impact of cyberattacks on the educational process, their consequences, protection methods, and the responsibilities faced by educational institutions. The topic is supported by real-life examples and statistical data, leading to well-founded conclusions.


Kirish. So'nggi yillarda global miqyosda raqamlashtirish jarayoni jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Xususan, elektron platformalar, masofaviy o'qitish tizimlari, raqamli testlar, elektron kundaliklar keng joriy qilindi. Ammo bu qulayliklar bilan




birga, axborot xavfsizligi muammosi ham dolzarb masalaga aylandi. Ta'lim muassasalari kiberhujumlar uchun oson nishonga aylanishi mumkin, chunki ko'pchilik o'quvchilar, o'qituvchilar yoki texnik xodimlar kiberxavfsizlik bo'yicha yetarli bilimga ega emas.

Kiberhujumlar tushunchasi va ularning turlari: Kiberhujum – bu kompyuter tizimlariga, tarmoqlarga, ma'lumotlar bazasiga yoki axborot texnologiyalari infratuzilmasiga noqonuniy aralashuv yoki zarar yetkazishga qaratilgan harakatdir. Ta'lim sohasida uchrashi mumkin bo'lgan kiberhujum turlariga quyidagilar kiradi. Phishing (soxta xabarlar yordamida ma'lumot yig'ish) Odatda elektron pochta yoki messendjerlar orqali yuboriladigan xabarlar orqali foydalanuvchilarni o'z login-parollarini ochishga majburlovchi soxta havolalar yuboriladi. Ko'pincha bu tarzda foydalanuvchilarning elektron kundaliklariga yoki test tizimlariga kirish maqsad qilinadi. Ransomware (garov dasturlari) Tizimga maxfiy dastur kiritilib, barcha fayllar shifrlanadi so'ngra ularni tiklash uchun to'lov talab qilinadi masalan 2021 yilda AQSH dagi bir necha universitetga bunday hujum qilingan va ulardan biri \$1 milliondan ortiq to'lov qilgan. Bir vaqtning o'zida minglab so'rovlar yuborilib, muassasaning serverini ishdan chiqarish orqali darslar, testlar yoki platformalarning faoliyatiga putur yetkaziladi. O'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari (ism, familiya, telefon, natijalar) yoki o'qituvchilarning ish rejasi, baholash tizimlari noqonuniy tarzda tarqalishi mumkin. Bu holat nafaqat axloqiy, balki huquqiy jihatdan ham muammo tug'diradi.

Kiberhujumlarning ta'lim jarayoniga ta'siri: Kiberhujumlar faqat texnik muammo emas. Ular ta'lim sifati, samaradorligi, ishonchlilik darajasi va hatto milliy xavfsizlikka ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masofaviy darslar vaqtida platformaning ishdan chiqishi yoki serverning ishlamasligi o'quv jarayonini izdan chiqaradi. Bu holat COVID-19 pandemiyasi davrida ko'p kuzatildi. O'quvchilarning baholari, test natijalari, dars materiallari yo'qolib ketishi yoki o'zgartirilishi muassasaning ishonchlilikiga putur yetkazadi. O'quvchilar, ota-





onalar va pedagoglarning axborot tizimlariga ishonchi kamayadi. Bu esa raqamli transformatsiyaga nisbatan salbiy munosabat uygʻotadi. Moliyaviy tomonlama ham jiddiy zarar keltiradi tizimlarni tiklash, yangi xavfsizlik choralari, texnik xodimlar jalb qilish katta xarajatlarga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bunday zarar millionlab dollarga yetishi mumkin real hayotdan misollar keltiradigan boʻlsak oʻzbekistonda 2023-yilda ayrim universitetlarning elektron platformalariga hujum

qilingan va talabalarning baholari oʻzgartirilgani haqida xabarlar tarqalgan edi Aqshda 2020-yilda “Clark County School District” tizimiga hujum qilinib, 320 mingdan ortiq oʻquvchining shaxsiy maʼlumotlari sizib chiqqan Yevropa Ittifoqida 2022-yilda Yevropa maktablarining 15 foizi kamida bir marta kiberhujumga uchraganligi maʼlum qilingan (EU ybersecurity Agency hisobotiga koʻra).

Taʼlim ishtirokchilarini xabardor qilish: Oʻqituvchilar va oʻquvchilarga muntazam ravishda kiberxavfsizlik boʻyicha treninglar oʻtkazish. Masalan, shubhali havolalarni tanimaslik, kuchli parol yaratish va xavfsiz internetdan foydalanish. Texnik himoya vositalari:Antivirus, firewall, ikki bosqichli autentifikatsiya kabi texnologik vositalar joriy qilinishi lozim. Zaxira (backup) tizimi: Har qanday muammo boʻlganda maʼlumotlarni tiklash imkonini beruvchi avtomatik zaxira tizimlari kerak. Huquqiy va tashkiliy choralar: Kiberxavfsizlikka oid qonunlar va normativ hujjatlar ishlab chiqilishi, taʼlim muassasalarida kiberxavfsizlik boʻyicha masʼul xodimlar tayinlanishi kerak. Bu holatni nafaqat texnik, balki psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlardan ham koʻrib chiqish muhim. Zamonaviy dunyoda taʼlim sohasi raqamlashtirilgani sari, bu tizimlar kiberxavfsizlik tahdidlariga nisbatan zaiflashmoqda. Kiberhujumlar faqat texnik muammo emas - ular oʻquv jarayonining barqarorligi, ishonchliligi va rivojlanishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Oʻquv faoliyatining izdan chiqishi: Sinovlar, testlar yoki masofaviy darslar bekor boʻladi. Oʻquvchilarning baholash tizimi buziladi. Onlayn platformadagi topshiriqlar yoʻqolishi mumkin.



Psixologik ta'siri: Talabalar va o'qituvchilarda xavotir, stress paydo bo'ladi. Darsga ishtiyoq pasayadi O'zini himoyasiz his qilish hissi ortadi. Akademik halollikka putur yetadi huquqiy va axloqiy me'yorlar buziladi (masalan, noto'g'ri baholar, dars materiallari o'g'irlanishi) Diplom, sertifikat yoki ilmiy maqolalarning haqiqiyliги so'roq ostida qoladi.

Moliyaviy zararlar: Serverlarni tiklash, xavfsizlik devorlarini yangilash, mutaxassislar yollash - bularning barchasi katta mablag' talab qiladi Ko'plab universitetlar sug'urta to'lovlariga yoki shartnomalarni bekor qilishga majbur bo'lmoqda.

Kiberhujumlardan himoyalaniшning ehtiyot choralari va yechimlar:

Texnik choralar: Ikki bosqichli autentifikatsiya (2FA) Ma'lumotlarni shifrlash (end-to-end encryption) Zaxira nusxalar (backup)

Ta'limiy yondashuv: Kiberxavfsizlik bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazish IT-kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish

Huquqiy asoslar: Ta'lim muassasalarida kiberxavfsizlik siyosatini ishlab chiqish talabalar va o'qituvchilar uchun axborot xavfsizligi kodeksini yaratish axborot madaniyati shakllantirish o'quvchilarni ijtimoiy tarmoqlarda va onlayn makonda ongli harakat qilishga o'rgatish Shaxsiy ma'lumotlar bilan ehtiyotkor munosabatda bo'lishni targ'ib qilishdan iborat.

Xulosa va takliflar. Kiberhujumlar zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb muammolaridan biridir. Ular nafaqat texnik, balki pedagogik va ijtimoiy jihatdan ham katta tahdid soladi. Kiberxavfsizlik masalasi faqat IT mutaxassislarining emas, balki har bir o'qituvchi, talaba va ma'muriyatning kundalik mas'uliyatiga aylanishi zarur. Ta'lim muassasalarida "Kiberxavfsizlik saboqlari" fani joriy etilishi; Maxsus IT xavfsizlik markazlarini tashkil etish, Davlat miqyosida yagona elektron ta'lim xavfsizligi strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Andress J. (2019). The Basics of Information Security: Understanding the Fundamentals of InfoSec in Theory and Practice. Syngress.
2. Jumaniyozova T. A. (2024). Oliy ta'lim muassasalarida kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish: o'qituvchilar, xodimlar va talabalar kompetensiyalarini rivojlantirish. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences.
3. Mustaffaqulov M. A., Eshturdiyeva Z. S., & Abduraximova R. B. (2024). Ta'lim jarayonida kiberxavfsizlikni ta'minlash. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences.
4. Normo'minov A., Kendjaeva D., & Primbetov A. (2024). Kiberxavfsizlikning ta'lim jarayonidagi roli. Евразийский журнал академических исследований.
5. Qosimova G. I. (2024). Kiberxavfsizlik: Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi.



БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

O'QUVCHILARNING MULOQOT MADANIYATINI AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH USULLARI

Ibodullayeva I.

Nukus davlat pedagogika instituti doktranti

Tayanch so'zlar: aksiologik yondashuv, rolli o'yinlar, axloqiy va estetik qadriyatlar, grammatik struktura, individual ehtiyoj, kommunikativ mashg'ulot, ijtimoiy vaziyat, axloqiy me'yor.

Ключевые слова: аксиологический подход, ролевые игры, моральные и эстетические ценности, грамматическая структура, индивидуальная потребность, коммуникативное занятие, социальная ситуация, моральная норма.

Key words: axiological approach, role-playing games, moral and aesthetic values, grammatical structure, individual need, communicative activity, social situation, moral norm.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada o'quvchilarning muloqot madaniyatini aksiologik yondashuvlar asosida shakllantirish usullari haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются методы формирования культуры общения студентов на основе аксиологических подходов.

SUMMARY:

The article examines methods for forming a culture of student communication based on axiological approaches.

O'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishda aksiologik yondashuvlar, ularning til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday qilib samarali muloqot qilishni o'rganadilar, bu esa ularning empatiya, hurmat va mas'uliyat kabi axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, darslarda guruhli muhokama yoki rolli o'yinlar orqali o'quvchilar bir-birlariga fikr bildirish, argumentlar keltirish va turli nuqtai nazarlarni inobatga olish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu jarayon, o'z navbatida, ularning muloqot madaniyatini boyitadi va shaxs sifatida o'sishlariga yordam beradi.



Adabiyot darslarida o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni, aksiologik yondashuvlar asosida amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Aksiologik yondashuv, asosan, qadriyatlarni, axloqiy me'yorlarni va madaniy kontekstni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Ona tili ta'limida bu yondashuv, o'quvchilarda nafaqat til ko'nikmalarini, balki muloqot madaniyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyot darslarida muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida o'quvchilarga muloqotning turli jihatlari, masalan, tinglash, tushunish, ifoda etish va bahs-munozara qilish ko'nikmalari o'rgatiladi. Bu ko'nikmalar, o'z navbatida, o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini yaxshilashga, ularning fikrlarini aniq va ravon ifoda etishiga yordam beradi. "Aksiologik yondashuv esa, o'quvchilarga muloqotda axloqiy va estetik qadriyatlar, shuningdek, madaniy merosni hurmat qilishni o'rgatadi. Bu jarayon, o'quvchilarni nafaqat yaxshi nutqiy ko'nikmalarga ega bo'lishga, balki ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashga ham qaratilgan."

Shuningdek, adabiy asarlarni o'rganish jarayonida aksiologik yondashuvlar yordamida o'quvchilarni badiiy tafakkur va estetik sezgilarini rivojlantirish mumkin. Adabiy asarlar orqali o'quvchilar insoniy qadriyatlar, axloqiy dilemmalar va ijtimoiy muammolar haqida fikr yuritishni o'rganadi. Bu esa ularning muloqot madaniyatini yanada shakllantiradi. O'quvchilar adabiyot orqali turli xarakterlar va ularning muammolari bilan tanishib, empatiya qobiliyatini rivojlantiradilar. Shunday qilib, aksiologik yondashuvlar yordamida o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Bundan tashqari, ona tili darslarida guruhli va juftlikda ishlash metodlari orqali o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni yanada samarali bo'ladi. O'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashish, bahs-munozara qilish va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon ularga turli fikrlarni hurmat qilishni va boshqalar bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnatishni o'rgatadi. Aksiologik yondashuvlar asosida olib boriladigan bunday faoliyat, o'quvchilarning muloqot madaniyatini yanada kuchaytiradi va ularni kelajakda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

Adabiyot darslarida aksiologik yondashuvlar asosida muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni, o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarini ham shakllantiradi. Bu



esa ularni kelajakda faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyot darslarida o'quchilarning muloqot madaniyatini aksiologik yondashuvlar asosida shakllantirish jarayoni, til ta'limining zamonaviy yondashuvlari bilan birga amalga oshirilishi muhimdir. Grammatik strukturalarga asoslangan yondashuvda til ta'limi ko'proq grammatik qonuniyatlar va shakllarni o'rganishga qaratilgan bo'lsa, aksiologik yondashuv esa o'quvchilarga muloqotda axloqiy va estetik qadriyatlarni, shuningdek, insoniy qadriyatlarni rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu ikki yondashuvni birlashtirish, o'quvchilarning til ko'nikmalarini yaxshilash bilan birga, ularning muloqot madaniyatini ham shakllantirishga yordam beradi.

“Grammatik strukturalarga asoslangan yondashuvda o'quvchilar grammatik qonuniyatlarni mukammal bilishga, tahlil qilishga va ularni amaliyotda qo'llashga o'rgatiladi.” Bu jarayon, o'quvchilarga tilning asosiy mexanizmlarini tushunishga yordam beradi. Biroq, faqat grammatik ko'nikmalarga e'tibor berish muloqot madaniyatini shakllantirish uchun yetarli emas. Aksiologik yondashuvlar yordamida o'quvchilar muloqotda ijtimoiy mas'uliyatni, empatiyani va boshqalar bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnatishni o'rganadilar. O'quvchilar adabiy asarlar orqali turli xarakterlar va ularning muammolari bilan tanishib, muloqotda insoniy qadriyatlarni hurmat qilishni o'rganadilar.

Ehtiyojlarga asoslangan yondashuv esa o'quvchilarning individual ehtiyojlarini va qiziqishlarini inobatga oladi. Bu yondashuvda o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan mavzular bo'yicha fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aksiologik yondashuvlar yordamida bu jarayon yanada boyitiladi, chunki o'quvchilar o'z fikrlarini ifoda etishda axloqiy me'yorlarni va madaniy kontekstni hisobga olishni o'rganadilar. Shunday qilib, ehtiyojlarga asoslangan yondashuv va aksiologik yondashuvlarni birlashtirish, o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishda samarali natijalarga olib keladi.

Kommunikativ mashg'ulotlarga asoslangan yondashuv esa muloqot jarayonini faol ravishda qo'llab-quvvatlaydi. Bunday mashg'ulotlar davomida o'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashish, bahs-munozara qilish va muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aksiologik yondashuvlar yordamida bu jarayon yanada chuqurlashadi, chunki o'quvchilar muloqotda axloqiy qadriyatlarni, mas'uliyatni va hurmatni hisobga olishni o'rganadilar. Bu esa ularning muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.



Natijada, adabiyot darslarida muloqot madaniyatini aksiologik yondashuvlar asosida shakllantirish jarayoni, grammatik strukturalarga, ehtiyojlarga va kommunikativ mashg'ulotlarga asoslangan yondashuvlar bilan birgalikda amalga oshirilishi zarur. Bu jarayon o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. O'quvchilar nafaqat yaxshi nutqiy ko'nikmalarga ega bo'lishadi, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlanadilar. "Aksiologik yondashuvlar asosida muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni nafaqat til ta'limining samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi."

Aksiologik yondashuvlar o'quvchilarga muloqotda axloqiy va estetik qadriyatlarni o'rgatadi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki insoniy munosabatlarni ham o'rganadilar. Muloqot jarayonida empatiya, hurmat va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlarni rivojlantirish, o'quvchilarning shaxs sifatida o'sishiga yordam beradi. Aksiologik yondashuvlar asosida olib borilgan darslarda o'quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday qilib muloqot qilishni, fikr almashishni va muammolarni hal qilishni o'rganadilar. Bu jarayon, ehtiyojlarga asoslangan yondashuv bilan birgalikda, o'quvchilarning muloqot madaniyatini yanada boyitadi.

Kommunikativ mashg'ulotlarga asoslangan yondashuv o'quvchilarga tilni amaliyotda qo'llash imkoniyatini berishi, ularning til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, rol o'yinlari orqali o'quvchilar do'konda xarid qilish yoki restoran menyusidan buyurtma berish kabi vaziyatlarni simulyatsiya qilib, real hayotdagi kommunikativ vaziyatlarga tayyorlanadilar. Bu jarayonda ular o'zaro muloqot qilib, tilni amaliyotda qo'llashadi va shuningdek, muammolarni hal qilishga harakat qilishadi. Guruhli muhokamalar o'quvchilarga biror mavzu bo'yicha fikr almashish imkonini beradi, masalan, "Ekologik muammolar" mavzusida o'z fikrlarini ifodalash va muammolarni hal qilish yo'llarini muhokama qilish. Bu jarayonda har bir o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu ularning til ko'nikmalarini rivojlantiradi. Loyiha ishlari esa o'quvchilar jamoa bo'lib biror loyiha ustida ishlashga undaydi, masalan, "Mening sevimli mahallam" mavzusida taqdimot tayyorlash. Bunda ular tadqiqot olib borishadi, ma'lumot to'playdilar va natijalarni taqdim etish jarayonida o'zaro muloqot qilishadi. Bu esa ularning tilni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Vaziyatga asoslangan mashqlar o'quvchilarga turli kommunikativ vazifalar berilishi mumkin, masalan, biror muammo haqida



xabar berish yoki takliflar kiritish. Bu jarayonda ular o'z fikrlarini aniq va lo'nda ifodalashni o'rganadilar, bu esa til ko'nikmalarini rivojlantiradi. Debat darslar va munozaralar ham o'quvchilarning fikrlari baholanadigan va ularni muloqotda ishtirok etishga undaydigan muhim vositalardir. Ushbu misollar orqali ko'rish mumkinki, kommunikativ mashg'ulotlar o'quvchilarning til ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga, ularni real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlaydi va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv o'quvchilarning o'zaro muloqot qilish qobiliyatini oshirishga va ijtimoiy muhitda faol ishtirok etishga tayyorlashga yordam beradi. "Aksiologik yondashuvlar yordamida o'quvchilar nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradilar, balki muloqotda axloqiy me'yorlarni ham hisobga olishni o'rganadilar." Bu esa ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlariga imkon yaratadi. Ona tili va adabiyot darslarida ehtiyojlarga asoslangan yondashuv va aksiologik yondashuvlarni birlashtirish, o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishda samarali natijalarga olib keladi. O'quvchilar nafaqat til ko'nikmalarini mukammal egallaydilar, balki ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalanadilar. Bu jarayon, o'z navbatida, ularning shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Adabiyot darslarida o'quvchilarning muloqot madaniyatini aksiologik yondashuvlar asosida shakllantirish jarayoni, albatta, grammatizmga asoslangan o'qitish usulidan farq qiladi. M.Abduraimova ta'kidlaganidek, "grammatizmga asoslangan yondashuv o'quvchilarning ijodiy fikrlash va mustaqil fikr ifodalash ko'nikmalarini pasaytiradi. Bu holat, ona tili ta'limining maqsadi va mazmuni bilan bog'liq bo'lib, uni yangilash zaruriyatini keltirib chiqaradi." Aksiologik yondashuvlar esa o'quvchilarga muloqotda axloqiy va estetik qadriyatlarni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon orqali ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy mas'uliyatli bo'lishlari ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. Pedagogik aksiologiya (o'quv qo'llanma) -T.: «Fan va texnologiya», 2013, b-184
2. Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyev R.A. Pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya. -T . Iqtisod-Moliya. 2010-y.
3. Sh.Mardonov Pedagogik aksiologiya. (o'quv qo'llanma) -T.: «Fan va texnologiya», 2013, b-27
4. Ходжаев Б., Бекмуродова М. Педагогик ходисаларни ўрганишда аксиологик ёндашув: мазмун ва моҳияти. – «Личностно-ориентированное обучение и воспитание на современном этапе (содержание, формы, методы)». Сб.науч-метод. статей, ч.5. – Т.: 2007.
5. Abduraimova M., Ona tili ta'limi takomili. "Ta'lim taraqqiyoti". O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi axborotnomasi. – Toshkent, 2001. № 3-4. – B. 66-69.



FRIDRIX FREBELNING DIDAKTIK O'YINCHOQLARINING YOSHGA DOIR XUSUSIYATLARI

Adilbayeva D.A.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Tayanch so'zlar: Fridrix Frebel, didaktik o'yinchoqlar, maktabgacha ta'lim, bolalar rivojlanishi, ta'lim metodikasi.

Ключевые слова: Фридрих Фребель, дидактические игрушки, дошкольное образование, развитие детей, методика обучения.

Key words: Friedrich Fröbel, didactic toys, preschool education, child development, teaching methodology.

PEZIOME:

Ushbu maqolada Fridrix Frebel tomonidan ishlab chiqilgan didaktik o'yinchoqlarning yoshga mos xususiyatlari, bolalarning intellektual va psixologik rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot Frebel konsepsiyasining zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ham ko'rib chiqadi.

PEZIOME:

В данной статье анализируются возрастные особенности дидактических игрушек, разработанных Фридрихом Фребелем, и их влияние на интеллектуальное и психологическое развитие детей. Исследование также рассматривает значимость концепции Фребеля в современной образовательной системе.

SUMMARY:

This article analyzes the age-related characteristics of didactic toys developed by Friedrich Fröbel and their impact on children's intellectual and psychological development. The study also examines the significance of Fröbel's concept in modern education.

Kirish. Fridrix Frebel maktabgacha ta'lim tizimiga asos solgan mashhur nemis pedagoglaridan biridir. U bolalarning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, o'yin orqali o'rganish konsepsiyasini ilgari surgan. Frebel 1837-yilda dunyoda birinchi marta "Bolalar bog'chasi" (Kindergarten) tushunchasini yaratgan va maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limini rivojlantirishga bag'ishlangan pedagogik tizimini ishlab chiqqan. Uning metodikasi o'yinlar, kuzatuvlar, qurish va san'at orqali bolalarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga asoslangan edi [1].



Frebelning asosiy yutuqlaridan biri – u tomonidan ishlab chiqilgan **didaktik o‘yinchoqlar tizimi** bo‘lib, bu tizim orqali bolalar dunyoni bilish va tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu o‘yinchoqlar bolalarga geometriya, rang, shakl va hajm tushunchalarini amaliy o‘rganish imkonini beradi. Frebel o‘yinchoqlari bolalarning yoshiga qarab maxsus ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning sensor-motor rivojlanishidan tortib, murakkab mantiqiy tafakkur qobiliyatlarini shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi [2].

Tadqiqotchilar Frebelning didaktik o‘yinchoqlaridan foydalanish bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydilar. Masalan, Brosterman (1997) o‘z tadqiqotida Frebel o‘yinchoqlarining bolalarning tasavvur va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishini qayd etgan [3].

Shuningdek, Montessori (1912) ham Frebel metodikasining bolalarga mustaqil fikrlashni o‘rgatishdagi rolini yuqori baholagan [4].

Ushbu maqolada Frebelning didaktik o‘yinchoqlari qanday ishlab chiqilganligi, ularning yoshga doir xususiyatlari va bugungi kunda maktabgacha ta‘limda qanday qo‘llanilishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Bundan tashqari, didaktik o‘yinchoqlarning bolalar rivojlanishiga ta‘siri ham tadqiq qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fridrix Frebelning didaktik o‘yinchoqlar haqidagi g‘oyalari ta‘lim metodikasi tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning didaktik yondashuvi dunyodagi ko‘plab ta‘lim tizimlariga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Boshqa metodikalarga nisbatan Frebel tizimi o‘yin orqali o‘rganishning asosiy vositasi sifatida didaktik o‘yinchoqlarga e‘tibor qaratadi.

Frebel metodikasining asosiy o‘ziga xosligi – bu bolalarning o‘rganish jarayonida mustaqil tadqiqotchiga aylanishidir. Bu jihatdan uning yondashuvi boshqa maktabgacha ta‘lim metodlari bilan taqqoslanganda aniq farqlanadi:

Montessori metodikasi bilan o‘xshashlik va farqlar: Montessori ta‘lim tizimi ham bolalarning mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan, ammo u Frebel tizimidan farqli o‘laroq, didaktik o‘yinchoqlarga emas, balki manipulyativ materiallarga ko‘proq urg‘u beradi. Montessori metodikasi Frebel tizimidagi qat‘iy struktura o‘rniga bolaga erkinlik berishga qaratilgan.

Piaget ta‘lim nazariyasi bilan taqqoslash: Piage bolalarning rivojlanishini kognitiv bosqichlarga ajratgan bo‘lsa, Frebel esa o‘yin orqali o‘rganish nazariyasiga asoslanib, bolalarning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e‘tibor qaratgan. Piage ta‘lim jarayonini passiv bilim qabul qilish jarayoni deb hisoblagan bo‘lsa, Frebel bolalarni faol ishtirokchi sifatida ko‘rgan.

Reggio Emilia yondashuvi bilan o‘xshashlik: Reggio Emilia metodikasi ham Frebel didaktik yondashuvi kabi bolalar qiziqishlariga asoslangan. Biroq,



Reggio Emilia tizimi o'yinchoqlar o'rniga real hayot voqealarini ko'proq ta'lim jarayoniga kiritishga urg'u beradi.

Frebel o'yinchoqlari ilmiy jihatdan ham keng o'rganilgan. Masalan, Smith (2013) bolalar tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinchoqlarning samaradorligini tadqiq qilgan va Frebel tizimi orqali bolalar muhit bilan faol aloqa o'rnatishini ko'rsatgan [3].

Shunday qilib, Frebelning didaktik o'yinchoqlari maktabgacha ta'limda asosiy ta'lim metodikalaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ularni zamonaviy ta'lim jarayoniga moslashtirish orqali bolalar rivojlanishiga katta hissa qo'shish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda bir nechta ilmiy tadqiqot usullari qo'llanildi. Tadqiqotning maqsadi Frebel didaktik o'yinchoqlarining yoshga oid xususiyatlarini chuqur o'rganish va ularning bolalar rivojlanishiga ta'sirini baholashdan iborat.

Qiyosiy tahlil. Frebel o'yinchoqlari va zamonaviy didaktik o'yinchoqlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida Montessori va Reggio Emilia metodikalarida qo'llaniladigan o'yinchoqlar bilan taqqoslash amalga oshirildi. Bu usul yordamida Frebel didaktik o'yinchoqlarining ta'lim jarayonidagi afzalliklari va cheklovlari aniqlashtirildi.

Empirik tadqiqot. Tajribalar maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borildi. 3-7 yosh oralig'idagi bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazilib, Frebel o'yinchoqlarining kognitiv, motorik va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri baholandi. Pedagoglar va ota-onalar bilan suhbatlar orqali o'yinchoqlarning foydaliligi haqida fikrlar yig'ildi.

Pedagogik kuzatuv. Bolalar faoliyati kuzatilib, ularning Frebel o'yinchoqlari bilan o'ynash jarayoni tahlil qilindi. Kuzatuv natijalari bolalarning qiziqishlari, diqqatini jamlash qobiliyati va mustaqil o'rganish jarayoniga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam berdi.

Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish. O'yinchoqlarning bolalar rivojlanishiga ta'siri bo'yicha mavjud ilmiy maqolalar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Ilmiy nashrlardan olingan ma'lumotlar asosida Frebel o'yinchoqlarining samaradorligi bo'yicha statistik xulosalar chiqarildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, Frebel didaktik o'yinchoqlaridan foydalanish bolalarning mantiqiy fikrlash, e'tibor jamlash va mustaqil muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshiradi [2].

Metodologik yondashuvlar. Tadqiqotda turli xil ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Quyida asosiy metodologik yondashuvlar batafsil yoritiladi:



1. Qiyosiy tahlil. Qiyosiy tahlil metodidan foydalanib, Frebel o'yinchoqlari va zamonaviy didaktik o'yinchoqlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar o'rganildi. Montessori va Reggio Emilia metodikalarida qo'llaniladigan o'yinchoqlar bilan taqqoslash amalga oshirildi. Qiyosiy tahlil yordamida quyidagi asosiy farqlar va o'xshashliklar aniqlandi:

Frebel va Montessori metodlari: Frebel metodikasi didaktik o'yinchoqlar orqali bolalarni muhitni tushunishga o'rgatishga asoslangan, Montessori metodikasi esa real hayot tajribalariga ko'proq e'tibor qaratadi.

Frebel va Reggio Emilia tizimi: Ikkala tizim ham o'yin orqali o'rganishga asoslangan bo'lsa-da, Reggio Emilia bolalarning qiziqishlari va ijodiy tafakkuriga ko'proq urg'u beradi.

2. Empirik tadqiqot. Empirik tadqiqotlar maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borildi. 3-7 yosh oralig'idagi bolalar bilan mashg'ulotlar tashkil qilinib, Frebel o'yinchoqlarining bolalarning kognitiv, motorik va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri baholandi. Tajribalarda quyidagilar o'rganildi:

- Bolalarning o'yinchoqlar bilan ishlash jarayoni va ular orqali o'rganish samaradorligi.
- O'yinchoqlarning bolalar tafakkuriga ta'siri.
- Pedagog va ota-onalarning fikr-mulohazalari.

3. Pedagogik kuzatuv. Pedagogik kuzatuv metodidan foydalanib, bolalarning Frebel o'yinchoqlari bilan o'ynash jarayonlari tahlil qilindi. Ushbu metod yordamida:

- Bolalarning diqqatni jamlash qobiliyati o'rganildi.
- O'yinchoqlar bolalarning muloqot ko'nikmalariga qanday ta'sir qilishi tahlil qilindi.
- Mustaqil va jamoaviy o'yinlar o'rtasidagi farqlar aniqlandi.

4. Statistik tahlil. Tadqiqot davomida mavjud ilmiy maqolalar, ta'lim bo'yicha hisobotlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Ilmiy nashrlardan olingan ma'lumotlar asosida Frebel o'yinchoqlarining samaradorligi bo'yicha quyidagi xulosalar chiqarildi:

Frebel o'yinchoqlari bilan shug'ullangan bolalarning muammolarni hal qilish qobiliyati 20-30% ga yaxshilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida ijodiy tafakkur ko'rsatkichlari oshgani kuzatildi.

Didaktik o'yinchoqlarning yoshga mosligi. Frebelning didaktik o'yinchoqlari turli yoshdagi bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, ular bolalarning rivojlanish bosqichlariga mos keladi:



0-3 yosh: Sensor va motorik ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yumshoq materiallar va oddiy shakllar asosida qurilgan o'yinchoqlar qo'llaniladi. Bu bosqichda bolalar dunyoni sezgi orqali o'rganadilar.

3-6 yosh: Mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun mozaikalar, konstruktorlar, geometrik shakllar ishlatiladi. Ushbu yoshda bolalar muhitni chuqurroq anglay boshlaydi.

6 yosh va undan katta: Murakkab dizayn va muhandislik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi qurish materiallari bilan ishlashga urg'u beriladi. Bu yoshda bolalar tafakkurining rivojlanishi yanada jadallashadi.

Didaktik o'yinchoqlarning bolalar rivojlanishiga ta'siri. Frebel o'yinchoqlari bolalarning har tomonlama rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ularning ta'siri quyidagi yo'nalishlarda kuzatiladi:

Aqliy rivojlanish – geometrik shakllarni solishtirish, ranglarni ajratish, shakl va fazoviy tushunchalarni anglash kabi muhim ko'nikmalar rivojlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Frebel o'yinchoqlari bilan shug'ullangan bolalar mantiqiy tafakkur jihatidan sezilarli darajada yuqori natijalarni ko'rsatadi.

Jismoniy rivojlanish – didaktik o'yinchoqlar yordamida bolalar mayda motorika va harakatlarni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Qurish va mozaikalar bilan ishlash bola qo'l mushaklarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish – o'yin jarayonida bolalar muloqot qilishni, jamoadagi muhitga moslashishni va o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar. Bu esa ijtimoiy moslashuv darajasini oshiradi.

Zamonaviy ta'limda Frebel didaktik o'yinchoqlarining ahamiyati. Bugungi kunda Frebel didaktik o'yinchoqlari zamonaviy ta'lim tizimlarida, xususan, Montessori, Reggio Emilia kabi pedagogik yondashuvlarda ham keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy o'quv dasturlarida interfaol o'yinchoqlar va STEAM texnologiyalari bilan integratsiya qilish orqali Frebel g'oyalarining ahamiyati yanada ortmoqda. Xususan:

STEAM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San'at va Matematika) ta'limida didaktik o'yinchoqlar bolalarning muhandislik va matematik tafakkurini shakllantirish uchun qo'llaniladi.

Raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan o'yinchoqlar orqali bolalar an'anaviy va innovatsion ta'lim usullarini birgalikda o'rganish imkoniga ega bo'ladilar.

Xulosa va takliflar. Frebelning didaktik o'yinchoqlari bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun samarali ta'lim vositasi ekanligi aniqlandi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu o'yinchoqlar bolalarning aqliy, jismoniy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Frebel metodikasi asosida yaratilgan o'yinchoqlar bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishga, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga va muammolarni mustaqil hal qilishga o'rgatishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida ushbu didaktik o'yinchoqlarning qo'llanilishi STEAM yondashuvi, Montessori metodikasi va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda yanada samarali natijalar berishi mumkin.

Takliflar.

-Maktabgacha ta'lim muassasalarida Frebel didaktik o'yinchoqlaridan keng foydalanish: O'yinchoqlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali bolalarning qiziqishlari va o'rganish jarayoni yanada samarali bo'lishi mumkin.

-Innovatsion texnologiyalar bilan integratsiya qilish: Frebel g'oyalariga asoslangan didaktik o'yinchoqlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish bolalarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

-O'qituvchilar malakasini oshirish: Pedagoglarni Frebel didaktik o'yinchoqlari asosida ta'lim berishga o'rgatish, metodik kurslar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

-Oilaviy ta'limda qo'llash: Ota-onalarni ushbu o'yinchoqlardan samarali foydalanishga o'rgatish bolalarning mustaqil rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

-Akademik tadqiqotlarni davom ettirish: Frebel metodikasining zamonaviy ta'limdagi ahamiyatini yanada chuqur o'rganish va amaliy tadqiqotlar olib borish muhim.

Frebelning didaktik o'yinchoqlari maktabgacha ta'limda bebaho resurs bo'lib, ularning keng qo'llanilishi bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashgan holda ushbu o'yinchoqlar kelajak avlodning ijodiy va intellektual rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Frebel F. The Education of Man. D. Appleton & Company. 1887.
2. Smith D. Play and Learning in Early Childhood Education. Cambridge University Press. 2013
3. Brosterman N. Inventing Kindergarten. Harry N. Abrams. 1997.
4. Montessori M. The Montessori Method. Frederick A. Stokes Company. 1912.
5. Resnick M. Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play. MIT Press. 2018.
6. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. W. W. Norton & Company. 1952.
7. Malaguzzi L. History, Ideas, and Basic Philosophy: An Interview with Lella Gandini. ERIC Publications. 1993.
8. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press. 1978.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Kadirova M. Z.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi I bosqich talabasi

Tayanch so'zlar: kreativ tafakkur, ijodiy rivojlanish, maktabgacha ta'lim, pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar.

Ключевые слова: креативное мышление, творческое развитие, дошкольное образование, педагогические подходы, инновационные методы.

Key words: creative thinking, creative development, preschool education, pedagogical approaches, innovative methods.

PEZIOME:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Tadqiqot davomida kreativ fikrlashning ahamiyati, uning rivojlanish bosqichlari va pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim metodlari va kreativ yondashuvlarning samaradorligi ilmiy manbalarga asoslangan holda baholanadi.

PEZIOME:

В данной статье освещаются теоретические и практические основы развития креативного мышления у детей дошкольного возраста. В ходе исследования анализируется значение креативного мышления, его этапы развития и педагогические подходы. Оценивается эффективность современных образовательных методов и креативных подходов на основе научных источников.

SUMMARY:

This article highlights the theoretical and practical foundations of developing creative thinking in preschool children. The study analyzes the importance of creative thinking, its stages of development, and pedagogical approaches. The effectiveness of modern educational methods and creative approaches is evaluated based on scientific sources.

Kirish. O'zbekistonning mustaqillikka erishgani, har tomonlama jadallik bilan rivojlanib borayotgani, Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilish boshlab berdi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ko'plab ko'zga ko'rinarli tub burilishlar, innovatsion faoliyat jarayonlari bilan uyg'unlashtirildi.



Respublikamizda “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” tasdiqlandi, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo’shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o’z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o’rta ta’limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda fan o’quv dasturlari ishlab chiqildi, ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me’yoriy asoslari yaratildi. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasida o’quvchi yoshlarning har tomonlama ijodiy salohiyatini rivojlantirish, o’zlarining bor qobiliyatlarini ishga solib ta’limning barcha sohalarida sifatni tubdan oshirishlari talab etiladi.

Bugungi kunda kreativ tafakkur insonning hayotiy ko’nikmalari orasida muhim o’rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijodiy fikrlashni rivojlantirish kelajakdagi ta’lim jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Psixolog va pedagoglar kreativ tafakkurni shakllantirish yosh bolalarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlaydilar [1].

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo’ladi. Kreativlikni rivojlantirishda, ta’lim jarayonida boladagi o’ziga xos salohiyat, noyob iqtidorni yuzaga chiqarishda bir qancha usul va metodlardan foydalanish, ta’limda samaradorlikni oshiribgina qolmasdan, bolaning ayniqsa, boshlang’ich sinf o’quvchilarining zehnini, dunyoqarashini oshirib, o’ziga uni o’rab turgan borliqdagi kelajagiga nisbatan ishonch ruhini uyg’ota oladi. Kreativlikni ta’lim jarayoniga olib kirishda bir qancha metodlar, jumladan, aqliy hujum, puzzle, bumerang, assessment, sinkveyn, tushunchalar xaritasi, muammoli vaziyat kabilardan foydalanish samarali, shu bilan birgalikda, ijodiy keng fikrlash imkoniyatini ham yuzaga chiqaradi va bolada qaysidir qobiliyatni borligini namoyon etishga xizmat qiladi. Pedagog tomonidan tashkillashtiriladigan har bir dars noodatiy, bir qolipdan yiroqlashilgan holda tashkillashtirilsa, o’quvchilarda turli g’oyalarni izlab topishga, hal qilishga, muammo bilan yuzlashganda uni samarali yo’llar bilan bartaraf etishga nisbatan ijodkorlik shakllanib, bir zaylda tafakkur qilishdan yiroqda bo’ladi hamda, o’z qobiliyatidagi ichki uyg’unlikni aniqlab oladi.

Talabalar orasida esa kreativlikni rivojlantirishning bir qancha shakllari mavjud. Ma’lumotlarni izlash, ularni tahlil etish, tezkor qarorlarda noodatiy yondashuv uslubi, ijodiylikni rivojlantirishdagi kritik, ijodiy kreativ fikrlash ko’nikmalarini tarkib toptirishda treninglarning tashkil etilishi, tafakkur va



dunyoqarashni obrazli ifodalashga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, muammoli vaziyat yaratish va uni bartaraf erishga qaratilgan keyslar bilan ishlash, jamoaviy yoki individual ish shakllari, debat, o'quv loyihalari, tadbirlar, mashhur o'z sohasida yetakchi, sport, yozuvchi, shoir, pedagoglar bilan uchrashuvlar tashkil etish, zakovat, topqirlikni oshiruvchi yutuqli o'yinlar tayyorlash, portfoliolarni shakllantirish, ta'limning barcha sohalarida to'garaklar faoliyatini tashkillashtirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda yetarli shart-sharoitlar yaratib berish, shuningdek, trening, videotreninglar, taqdimotlar, viktorinalar, ijodiy loyihalash mashg'ulotlari, ekskursiyalar, ma'ruzalar, vebinar, davra suhbatlarini o'tkazish maqsadga muvofiq sanaladi.

Natijalar. Kreativlik - bu vazifa yoki muammo haqida yangi yoki boshqacha fikr yuritish qobiliyati yoki yangi g'oyalarni yaratish uchun tasavvurdan foydalanish qobiliyati. Kreativlik bizga murakkab muammolarni hal qilish yoki vazifalarni hal qilishning qiziqarli usullarini topish imkonini beradi. Kreativlik va ijodkorlik ma'lum ma'noda bir xil tasavvurni shakllantiradigan qobiliyatni ifodalaydi. Ijodkorlik o'z-o'zidan paydo bo'ladigan aqliy jarayon bo'lsa-da, u doimiy izlanishni, muayyan sohada tajriba va o'ziga xos rivojlangan sezgini talab qiladi. Ijodkorlik ongni o'zgartiradi va ijodkor odamlar ijod davrida o'zlarini o'zgartiradilar. Ijodiy davrlarda odamni oddiy dunyodan ancha yuqoriga ko'taradigan energiya shoshiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari gapirganda, yurganda, fikr yuritganda, dars jarayonlaridagi faoliyat jarayonlarida, shu bilan birga muloqotga kirishganda yoki yozishda faol ijodkor bo'lishi mumkin, chunki ijodkorlik ishga olib keladigan sezgi sifati bilan bog'liq. Biroq, ijodiy bo'lish har doim ham tashqi harakatlarni talab qilmaydi.

Ijodkor bo'lish - jasoratli bo'lish, tajriba o'tkazish, tavakkal qilish va yangi narsa yaratish demakdir. Ijodkorlik ongning o'tkir qiziqish tuyg'usiga ega bo'lish qobiliyatidir va shuning uchun biron bir soha bilan chegaralanmaydi. Idrok, muammoni hal qilish, his-tuyg'u, xotira va boshqalar kabi ko'plab psixologik jarayonlar ishtirok etadi. Ijodkor odamlar ko'p qirrali bo'lishga moyil bo'lib, o'z borlig'ining turli tomonlarini uyg'unlashtirish orqali ular hayratlanarli xarakterga ega bo'lishlari mumkin. Ularda hech kimga o'xshamagan xislatlar: ijodiy, mantiqiy, mustaqil, tanqidiy fikr yuritish, har sohani ilg'ay olishga qaratilgan boy tasavvur olami, o'z tuyg'ularini nazorat qilgan holda hissiy barqarorlik, har bir ishni bajarishga nisbatan, qa'iy intizom va tartib, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ko'plab izlanish olib borish, g'oyalar yaratish ularni sinab ko'rish hamda, muqobilini tanlash borasida bilim va tajriba shuningdek, o'zini boshqalardan ustun tutmagan holda kamtarlik namoyon bo'ladi. Kreativ insonlarda quyidagi qobiliyatlar tarkib topgan bo'ladi.



Olimlarning nazariy qarashlariga asosan, kreativ inson ikkita komponentni o'z ichiga olgan motivatsiya va harakat sifatida bog'langan xulq-atvor blan bog'liq. Motivatsiya kasbiy xulq-atvorni shaxsning ichki harakatini anglatadi. Kasbiy xulq-atvorning ushbu asosiy manbasiga e'tibor qaratish har xil kasbiy rivojlanishni talab etadi. Shuning uchun, motivatsiya insonlarning hatti-harakatlariga nisbatan dinamikdir.[5.]

Ijodiy qobiliyat keng imkoniyatlar va toifalarni o'zida mujassamlashtiradi, shuning uchun ko'pchilik tadqiqotlar shu qobiliyatga ko'proq yo'naltirilgan bo'ladi. Ijodiy fikrlash bo'yicha tadqiqotlar juda ko'p bo'lib, shaxslarning aniq bir yutuqqa erishishlariga yo'l ochib berishga, imkoniyatlar doirasini kengaytirishga, shaxsni murakkab va muammoli vaziyatlarga tushib qolishdan, hayotda insonni o'z imkoniyatlarini samarali baholashga yordam beradi.

Kreativlik asosan mavjud muammoni hal qilish, samarali yechimlar izlash, ijobiy va salbiy imkoniyatlarni baholash, har qanday sharoitda yangi g'oyalar tizimini ishlab chiqish va muammoga yechim bo'la oladigan yangi usullarni topa olish kabi yondashuvlarni o'z ichiga oladigan salohiyat va tafakkur ko'rinishi hisoblanadi. Shunga asosan kreativ insonlar muammoga nisbatan quyidagi vaziyatlarni samarali tashkillashtira oladi.

Bolaning kreativligi – bu uning asl harakatlarida mehnat jarayonida mustaqil egallangan bilim, ko'nikma, kuch, ijodkorlik, individuallik, san'at hayot bilan uyg'unlashgan minimal darajadagi qobiliyatlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik-ta'lim jarayonlarini to'laqonli tashkillashtirishda bolaning ijodiy faoliyat jarayonida fikrlashini rivojlantirish, o'z ichki imkoniyatlarini baholashga, ularni ko'rsata olishga, o'zidagi bor qobiliyatlar potensialidan imkoniyat darajasida yuqori foydalanishga, hamda, hayotda bolaga o'z maqsadlari sari intilishga yuksak kuch bo'lib xizmat qiladi. Ijodiy ta'limda o'qitish asosini «maqsad - vosita - nazorat» kabi model asosida tashkillashtirish yuqoridagi fikrlarning asosiy bo'g'ini sifatida - mustaqil hayotiy ko'nikmalarni, ta'lim olish jarayonida o'z harakatlarini tartibga solish vositasi bo'lib xizmat qiladi. (3-rasm) Bu bolaning xulq-atvorida yuzaga keladigan ob'ektiv hodisalarning maqsad sari yo'nalishiga bir hodisa sifatida ijobiy xizmat qiladi. Bolalarda kreativlikni belgilashda, har bir vaziyatga yondashuv jihatidan maqsadni aniq va to'g'ri qo'ya olishi, berilayotgan yoki duch kelingan har qanday muammoli vaziyatlarni ko'ra olish, bartaraf etishda asosiy xizmat qiladigan vosita sanaladi. Vosita esa har qanday kreativlikni amalga oshirishda foydalaniladigan istalgan turdagi zamonaviy texnologiyalar, turli xom-ashyo, buyum-anjomlar, ijodiy salohiyatimizni ko'rsatib berishda qo'l keladigan, ijtimoiy hayot bilan



bog'langan barcha turdagi narsalar nazarda tutiladi. Nazorat har jihatdan maqsadga qo'yilgan ildam yo'lni ko'rsatib beradi.

Mulohazalar. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, "kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi"[18.]

Kreativlik tushunchasini G'arbda ko'pgina olimlar o'rgangan bu muammo bugungi kunga qadar turlicha tahlil etilgan. Bulardan N.N. Nechayev, Y.A. Ponomarev, D.V. Ushakov singari olimlar kreativlik masalasini umumiy tarzda shaxsning individual psixologik xususiyati sifatida o'rgangan bo'lsalar, Agababayan A.R., Arutyunyan N. D., Aleynikov A.G., Andreyev V.I., Vishnyakova, N.F., Drapeau Pattilar kreativlikning ma'naviy, psixologik jihatlarini tahlil etgan [6,7,8,9]. Shuningdek, A.X.Maslou kreativlikni 2 turini ajratib ko'rsatadi: Iste'dodning kreativligi shaxsning o'z - o'zini aktuallashtirish kreativligi.

"Kreativlik" tushunchasini aniqlashga keng miqyosada o'rgangan olimlardan biri mashhur Pol Torrans o'zining kreativlikka bag'ishlangan asarlarida to'rtta kreativlik konikmasini ajratib ko'rsatadi. Uning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, bu kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish, baholash mumkin hisoblanadi.

1. Ravonlik- ko'plab g'oyalarni idrok etish ya'ni ularni o'ylab topish ko'nikmasi bo'lib, ko'p so'ziga asoslanilgan bo'ladi.

2. Moslashuvchanlik-noodatiy g'oyalarni o'ylab topgan holda, ularni o'zgartirish, yangilik kiritish ko'nikmasini ifodalab keladi.

3. O'ziga xoslik- boshqalarni g'oyasini takrorlamaydigan, o'ziga xos, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasiga asoslanilib, noyob so'zini o'zida mujassamlashtiradi.

4. Yaratuvchanlik - ma'lum bir g'oyalarni kengaytirish imkoniyatini asoslovchi ko'nikma sanalib, qo'shish so'ziga asoslanadi.

Kreativlik darslarini tashkil etgan pedagoglar o'quvchilar bilan birgalikda ajoyib g'oyalarni o'ylab topgan jarayonlarida (o'ziga xoslik); ularni yanada kengaytirganlarida (ishlab chiqish); boshqa izlanishlar, fikrlar orqali solishtirish taqqoslash jarayoniga ular orasidagi bog'liqlikni aniqlaganlarida (moslashuvchanlik) ko'nikmalari bilan bevosita yuzlashadilar va bu ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.



Kreativlik dunyoqarashni kengaytirish, yangi va hayajonli narsalar qilish va o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solishimizga bir qadam yaqinlashtiradigan tarzda o'zimizni jalb qilishimizga imkon beradi. Xo'sh, aynan nima insonni ijodkor yoki kreativ qiladi? Ba'zi odamlar hayotda shunchaki istedod egasi bo'lib tug'ilishadimi yoki bu biz faoliyat jarayonida rivojlantira oladigan qobiliyatmi? Kreativ shaxs bo'lish uchun bir qator qobiliyatlarga ega bo'lishlari zarur. Ba'zi odamlar, albatta, ushbu qobiliyatlar bilan tug'ilishgan bo'lishsada, ushbu ijodiy amaliyotlardan bir nechtasini kundalik hayotingizga qo'shib qo'yish sizning to'liq ijodiy salohiyatingizga erishishda yordam berishi mumkin.

Ko'pgina fikrlarga asosan, odamlar turli xil ijodiy fikrlash uslublari uchun o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lishlari mumkin, ammo bu imtiyozlar topshiriqdagi ichki motivatsiyaning boshlang'ich darajalariga qanchalik ta'sir qilishi hali ham aniq emas (Amabile, 1983). Shuning uchun biz har bir ijodiy fikrlash uslubi odamlarning ma'lumotni qayta ishlash va g'oyalarni yaratish uchun zarur bo'lgan kognitiv jarayonlarga qanchalik mos kelishiga qarab, kreativ topshiriq ustida ishlashdan qanchalik zavqlanishlarini taxmin qila olish mumkin. (Grigorenko va Sternberg, 1995; Sternberg, 1997). Jahonda bu kabi kreativlik tushunchasining tahlil etilishi va uni rivojlantirishdagi ko'plab izlanishlar, ko'pgina insonlar hayotida ulkan o'zgarish keltirib chiqarish omili bo'ladi.

Xulosa va tavsiyalar. Kreativlik- "yaratish", "yaratuvchanlik" bo'lib har bir shaxsning o'ziga xos qobiliyatini, hayotiy izchil vaziyatlarda tashabbuskorligini, o'zini boshqara olish, noodatiy vaziyatlardan qat'iy nazar, muammoni bartaraf etish yoki unga samarali yechim topa olish, izlanuvchanlik, o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solish, ijodiy fikrlash orqali yangi g'oyalar yaratish, yangi g'oyalar ustida ishlash ularni takomillashtirish kabi hayotiy zarur vazifalarni o'zida qamrab oladi. Ta'lim jarayonlarini tashkil etish, rejalashtirishda esa avvalo bugungi kun o'qituvchisi o'quv mashg'ulotlarini bir qolipda o'tishdan cheklanib, o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy, ijodiy, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib, o'quvchilar orasida yangi g'oyalarni izlab topishlariga, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirgan holda kelajakka nisbatan, o'zida ishonch, yutuqlarga erishishda haqiqiy motivatsiya omili bo'lishi kerak. Bu omilni rivojlantirishda eng kuchli jihat kreativlik sanalib, yangi g'oyalarni sinab ko'rishda turtki bo'lib xizmat qiladi. Har bir insonda o'ziga xos kreativ jihatlar rivojlangan bo'lib, ba'zi insonlarda u tug'ma hisoblanib, ba'zilarida esa hayotiy tashqi omillar zahirida shakllanadi va muayyan qiyinchiliklarda tarkib topib boradi. Ko'pgina izlanishlarga asosan kreativlik inson tafakkur doirasini



kengaytirishga, ijodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi ta'lim tizimini rivojlantirish, xalqaro tatqiqotlarda munosib o'rinni egallashda kritik, kreativ, mustaqil fikrlashga e'tibor qaratish, ta'limda shu tafakkur usullaridan izchil foydalana olish, zamon bilan hamnafas kadrlarni tayyorlashda eng mustahkam tayanch vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori. Qonun xujjatlari to'plami milliy bazasi. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947- son Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y. 6-son, 70-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni. Qonun xujjatlari to'plami milliy bazasi. <https://lex.uz/>.
4. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. -285 с.
5. De Witt P. Creative Ability- a model for psychiatric occupational therapy. In Crouch, 2005
6. R. & Alers V.(eds). Occupational Therapy in Psychiatry and Mental Health. 4 th Edition. London and Philadelphia: Whurr Publishers.
7. Drapeau Patti. (2014) Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD., – p. 260
8. Агабабян А. Р., Арутюнян Н. Д. (2007) К вопросу взаимосвязи креативности с личностными характеристиками // Ананьевские чтения, 2007: Материалы научно- практической конференции. СПб., . С. 598–599.
9. Алейников А.Г. (2009).О креативной педагогике / А.Г. Алейников // Вестник высшей школы. -. - №12. - С. 29-34.
10. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. Инновационный курс.–Казань: Изд–во КГУ, 1996. – 566 с.
11. Вишнякова, Н.Ф. (2007) Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. - Мн.: Народная асвета. - 300 с.
12. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and
13. problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
14. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". –T.: "Fan", 2005.
15. Sayidahmedov N."Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003
16. Karimova M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 8547-8555.
17. Muslimov N., Usmonboeva M., Sayfurov D., Turaev A. (2015) Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T.: Sano standart,



BOSHLANG'ISH SINIF O'QUVCHILARINING 4K MODELİ ASOSIDA KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (TARBIYA FANI MISOLIDA)

Aytmuratova T.N.

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim)*

Tayanch so'zlar: 4k modeli, o'quvchi, o'qituvchi, kompetensiya, metodik yondashuv, pedagogika, o'qish.

Ключевые слова: модель 4К, ученик, учитель, компетенция, методический подход, педагогика, обучение.

Key words: 4K model, student, teacher, competence, methodological approach, pedagogy, learning.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K modeli asosida kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari hamda tarbiya darslari misolida amaliy usullari ko'rib chiqiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются теоретические основы, методические подходы и практические методы развития компетенций у учащихся начальных классов на основе модели 4К на примере уроков воспитания.

SUMMARY:

This article examines the theoretical foundations, methodological approaches, and practical methods of developing competencies based on the 4K model in primary school students using educational lessons as examples.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan islohotlar maktabgacha va maktab ta'limining sifatini tubdan oshirish, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, hamkorlikda ishlash va samarali muloqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinfda o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xalqaro tajriba va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan 4K modeli [G'ofurova, 2019] (kritik fikrlash, kommunikatsiya,



hamkorlikda ishlash va kreativlik) bugungi kun ta'limining zamonaviy talablari bilan hamohang bo'lib, o'quvchilarni hayotga tayyorlashda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, tarbiya fani asosida bu modelning komponentlarini integratsiya qilish orqali o'quvchilarda zaruriy hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish [Jumaniyozova, 2021] mumkin. 4K modeli – bu zamonaviy ta'limda o'quvchilarda 21-asr ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuv bo'lib, to'rt asosiy komponentdan iborat:

Kreativlik (Creative thinking) Yangi g'oyalarni ilgari surish, noodatiy yechimlarni topish, ijodiy fikrlay olish qobiliyati. Misol: o'quvchi o'z fikrini rasm, she'r yoki hikoya orqali ifodalay oladi.

Tanqidiy fikrlash (Critical thinking) Voqealarga chuqur baho bera olish, sabab-oqibatni tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish. Misol: bir muammoni turli nuqtayi nazardan ko'rib, eng maqbul yechimni topa oladi.

Kommunikatsiya (Communication) Fikrni aniq, ravon va tushunarli ifodalash, faol tinglay olish, samarali muloqotga kirisha olish. Misol: darsda o'z fikrini ochiq ayta oladi, guruhdagi suhbatda ishtirok etadi.

Kooperatsiya (Collaboration) Jamoada ishlay olish, hamkorlikda qaror qabul qilish, boshqalarni tinglab, kelishuvga erisha olish. Misol: guruh topshiriqlarini birga bajarish, sheriklariga yordam berish.

Tahlil va solishtirish usullari. 4K modelining maqsadi-bu model o'quvchining bilimi emas, balki amaliy hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, bosqichma-bosqich rivojlanayotgan jamiyatda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda 4K modeli [G'ofurova, 2019] muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi – bu o'quvchilarning asosiy shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalari shakllana boshlaydigan eng muhim davr hisoblanadi. Shu bosqichda ta'lim berish nafaqat bilim o'rgatish, balki bolalarda amaliy ko'nikmalar, mustaqil fikrlash, muloqot va ijtimoiy muomala kabi hayotiy malakalarni ham shakllantirishga qaratilishi lozim. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga diqqatimizni qaratish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi:

Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish: “Aqliy hujum”, “Blits-so'rov”, “Savol-javob”, “Rol o'ynash” kabi usullar o'quvchilarning faolligini oshiradi va fikr almashishga undaydi. Ijodiy topshiriqlar berish: Rasm chizish, hikoya tuzish, voqeani rolli sahnalashtirish orqali o'quvchilarda kreativlik va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmasi rivojlanadi. Jamoaviy ishlashga yo'naltirish: Guruhli ishlarda qatnashish orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlik qilish, bir-birini tinglash va mas'uliyatni bo'lishish kabi ijtimoiy kompetensiyalarni



egallaydi. Hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar: Oila, maktab, do'stlik, odob-axloq, madaniyat mavzularida muhokamalar, muammoli vaziyatlar ustida fikrlash orqali tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish malakasi shakllanadi. Refleksiya orqali o'z-o'zini tahlil qilish: Har bir darsdan so'ng o'quvchilarning "Bugun nimani o'rgandim?", "Menga nima yoqdi?", "Qanday qiyinchilik bo'ldi?" kabi savollarga javob berishlari, o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi.

Bundan tashqari, tarbiya fani orqali o'quvchilarning axloqiy, estetik, ijtimoiy, fuqarolik, shaxsiy o'sish kompetensiyalari yo'naltirilgan tarzda shakllantiriladi. Har bir mavzuda o'quvchining fikrlash, his qilish va ijtimoiy munosabatda bo'lish malakalarini rivojlantirishga imkon yaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirishda tarbiya fani alohida o'rin tutadi. Ushbu fandagi mavzular bolalarning shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan kamol topishiga xizmat qiladi. 4K modeli ga asoslangan holda, tarbiya darslarini olib borishda turli metodik yondashuvlar [Kamilov, 2018] dan foydalanish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Quyida tarbiya fanida samarali qo'llaniladigan asosiy metodik usullar keltirilgan:

1. Interfaol o'qitish metodlari:

Aqliy hujum (brainstorming): O'quvchilarga ochiq savollar berilib, ularning fikrlari erkin ravishda yig'iladi. Bu usul kreativ fikrlash va erkin ifoda qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Blits-so'rov: Tezkor savol-javoblar orqali tanqidiy fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish malakasi mustahkamlanadi.

Rol o'ynash (rolli o'yinlar): Tarbiyaviy voqealarni sahnalashtirish orqali o'quvchilar o'zini boshqa odam o'rniga qo'yib ko'rishadi, bu esa kommunikatsiya va kooperatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. Muammoli vaziyatlar asosida dars tuzish:

O'quvchilarga real hayotdagi axloqiy-ijtimoiy muammolar (do'stlik, halollik, yordam, hurmat) beriladi va ularni hal qilish yo'llari muhokama qilinadi. Bu tanqidiy fikrlashni shakllantiradi.

3. Guruhlarda ishlash va jamoaviy topshiriqlar: O'quvchilar kichik guruhlarda ish olib borib, umumiy qarorga kelishadi. Har bir ishtirokchi o'z rolini bajaradi, bu esa hamkorlik qilish (kooperatsiya) va fikr almashish (kommunikatsiya) ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

4. Refleksiv yondashuv: Dars so'ngida o'quvchilardan quyidagi savollarga javob berish so'raladi: Men bugun nima o'rgandim? Menga nima qiyin bo'ldi?



Eng qiziqarli daqiqa qaysi edi? Bu yondashuv o'quvchining o'z ustida ishlash, o'z fikrini tahlil qilish va baholash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Ikki xil voqeani yoki xatti-harakatni solishtirish, xulosa chiqarish orqali tanqidiy fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi. Ushbu metodik yondashuvlar [Kamilov, 2018] orqali tarbiya fanining har bir darsi o'quvchilarning 4K modeli asosidagi kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularni nafaqat bilimli, balki ijtimoiy jihatdan faol va ongli shaxs sifatida shakllantirishga zamin yaratadi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K modeli [G'ofurova, 2019] asosida kompetensiyalarni rivojlantirish – bu zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kooperatsiya kabi ko'nikmalarni o'quvchilarda erta bosqichda shakllantirish, ularning nafaqat bilim darajasini, balki hayotiy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiya fanida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun turli metodik yondashuvlar va interfaol o'qitish usullari samarali qo'llanilishi kerak. Aqliy hujumlar, rol o'ynash, guruhli ishlash, muammoli vaziyatlar asosida fikrlash va refleksiya kabi metodlar o'quvchilarning ijodiy, tanqidiy fikrlash, muloqot qilish [Mustafaev, 2020] va hamkorlik qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu tariqa, boshlang'ich ta'limda 4K modeli [G'ofurova, 2019]ga asoslangan kompetensiyalarni rivojlantirish, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga, ularning kelajakda muvaffaqiyatli, ongli va ijtimoiy faol shaxslar bo'lib shakllanishiga katta hissa qo'shadi. Bu esa o'z navbatida zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan yuqori darajadagi inson resurslarini yaratishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iskandarov A. (2020). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi nashriyoti.
2. G'ofurova M. (2019). Ta'limda kreativ fikrlash va tanqidiy yondashuvlar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
3. Jumaniyozova N. (2021). Boshlang'ich ta'limda kompetensiya asosida o'qitish. Toshkent: Moliya nashriyoti.
4. Akhmedov Sh. (2022). Pedagogik yondashuvlar va metodik usullar. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.
5. Kamilov F. (2018). Tarbiya fanining metodik asoslari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
6. Mustafaev R. (2020). O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish. Toshkent: O'zbekiston Ta'lim Akademiyasi nashriyoti.
7. G'ulomov Z. (2021). Zamonaviy pedagogika va tarbiya metodlari. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.



БОШЛАНҒИЧ СИНФ ҰҚИШ САВОДХОНЛИГИ ДАРСЛАРИДА ФОЛКЛОР АСАРЛАРНИ ҰҚИТИШ

Жамолова Г.Ж.

Ангрен университети 1-курс магистранти

Таянч сўзлар: бошланғич синф, ўқиш саводхонлиги, халқ эртақлари, мақоллар, тез айтишлар, ўқитиш усуллари, педагогик технологиялар, интерактив усуллар.

Ключевые слова: начальная школа, грамотность чтения, народные сказки, пословицы, поговорки, методика обучения, педагогические технологии, интерактивные методы.

Key words: primary school, reading literacy, folk tales, proverbs, sayings, teaching methods, pedagogical technologies, interactive methods.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада бошланғич синф ўқиш саводхонлиги дарсларида фолклор асарларни ўргатишнинг самарали усуллари таҳлил қилинади. Ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини инобатга олган ҳолда, асарларни ўқитиш орқали уларнинг нутқий маданиятини, дунёқарабини ва ахлокий фазилатларини ривожлантириш масалаларига эътибор қаратилади. Шунингдек, фолклор асарларни ўргатишда замонавий педагогик технологиялар ва интерактив усуллардан фойдаланишнинг аҳамияти очиб берилди.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируются эффективные методы обучения фольклорным произведениям на уроках начальной грамотности чтения. С учетом возрастных особенностей учащихся уделяется внимание развитию их речевой культуры, мировоззрения и нравственных качеств посредством обучения произведениям. Также раскрывается важность использования современных педагогических технологий и интерактивных методов в обучении фольклорным произведениям.

SUMMARY:

The article analyzes effective methods of teaching folklore works in basic reading literacy lessons. Taking into account the age characteristics of students, attention is paid to the development of their speech culture, worldview and moral qualities through teaching works. The importance of using modern pedagogical technologies and interactive methods in teaching folklore works is also revealed.

Бошланғич синф ўқиш саводхонлиги дарсларида фолклор асарларини хусусан, халқ эртақлари, мақоллар, топишмоқлар ва бошқаларни ўқитишдан асосий мақсад ва вазифалари қуйидагилардан иборат:

1. Ўқиш саводхонлигини ошириш:



- Ўқувчиларнинг сўзларни тўғри таниш, ўқиш тезлиги ва равоқлигини ошириш.
- Матн мазмунини тушуниш, асосий ғояни, воқеалар ривожини, қаҳрамонларнинг характериани аниқлаш кўникмаларини шакллантириш.
- Матнни таҳлил қилишнинг дастлабки кўникмаларини бериш.
- Ифодали ўқиш малакасини ривожлантириш.

2. Нутқни ривожлантириш:

- Ўқувчиларнинг луғат бойлигини ошириш (янги сўзлар, иборалар билан таништириш).
- Оғзаки нутқни ривожлантириш (эшитган эртакни қайта ҳикоялаш, саволларга жавоб бериш, фикр алмашиш).

3-синфнинг Ўқиш саводхонлиги дарслиги IV-қисми(77;4) Жўра Раҳимнинг фольклор адабиёти эртак жанрини шеърӣ тарзда ёзган “Бир бутун ой, ўн икки юлдуз” асарида ўқувчиларнинг оғзаки нутқини ривожлантириш билан бирга уларни фикрлашга, дунёқарашини кенгайтиришга замин яратади.

- Ёзма нутққа замин яратиш (эртак асосида расм чизиш, кичик жумлалар тузиш).

3-синфнинг Ўқиш саводхонлиги дарслиги IV-қисмида “Меҳр уруғи” ривояти (77;15) қаҳрамонларининг тимсолини яратиш учун ўқувчилар дафтарларида ижод қиладилар. Бу вазифа ўқувчиларнинг ёзма нутқини ривожлантириш учун замин яратилади.

3. Ахлоқий-эстетик тарбия:

- Эзгулик ва ёвузлик, яхшилик ва ёмонлик каби умуминсоний қадриятларни фарқлашни ўргатиш.

3-синфнинг Ўқиш саводхонлиги дарслиги IV-қисми (77;41) “Ақл ва Давлат” эртагини аудио орқали тинглаб, умуминсоний қадриятларни фарқлашга, эзгулик ҳамиша ғолиб бўлишини фикр қилишга ўргатади.

- Меҳр-оқибат, ростгўйлик, адолат, меҳнатсеварлик, ватанпарварлик каби ижобий хислатларни сингдириш.
- Салбий қаҳрамонлар орқали ёмон иллатлардан сақланишга ўргатиш.
- Халқ оғзаки ижодининг бадий гўзаллигини ҳис этиш, эстетик дидни ривожлантириш.

4. Маданий ва миллий ўзига хосликни шакллантириш:

- Ўзбек халқининг бой маданияти, тарихи, урф-одатлари, анъаналари ва қадриятлари билан таништириш.
- Миллий ўзига хосликни англаш, ўз халқининг меросига ҳурмат билан қараш ҳиссини уйғотиш.



5. Тафаккур ва тасаввурни ривожлантириш:

- Болаларнинг фантазияси, ижодий тасаввурини кенгайтириш.
- Мантикий фикрлашни, сабаб-оқибат алоқаларини тушунишни ривожлантириш.

3-синфнинг Ўқиш саводхонлиги дарслиги IV-қисми(68) “Орол” ривоятида ўқувчиларнинг айнан ушбу ривожлантириш амалга оширилади.

- Символик фикрлаш (эртақлардаги образлар орқали) қобилиятини шакллантириш.

3-синфнинг Ўқиш саводхонлиги дарслиги III –қисми(5) “Табиат занжири” ривоятини ўқувчилар ўқиш орқали ушбу натижага эришиш мумкин.

6. Китобхонликка меҳр уйғотиш:

- Ўқиш жараёнини қизиқарли ва мароқли қилиш.
- Китоб ўқишга, адабиётга бўлган қизиқишни ошириш, мустақил китоб мутолаасига ундаш.

Умумлаштириб айтганда, бошланғич синфларда фольклор асарларини ўқитиш нафақат ўқиш ва ёзиш кўникмаларини ривожлантиришга хизмат қилади, балки бола шахсини ҳар томонлама, маънавий, ахлоқий ва маданий жиҳатдан камол топтиришда ҳам муҳим рол ўйнайди.

Бошланғич синф ўқиш саводхонлиги дарсларида халқ эртақларини ўргатиш усулларига оид айрим олимларнинг фикрларини қуйидагича келтириш мумкин

Қ. Ҳикматнинг қуйидаги мисраларида кишнинг охири – қаттиқ совуқ кунлари (“айём ажуз”) кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар қизиқишига монанд халқ эртақларидаги Ялмоғиз кампир тимсолида гавдалантирилган. Унинг тўғри келган нарсани ямлаб кетувчи – ютоқишини ёхуд тутоқиб изғишини болалар дарров тушунадилар.

Аямажиз изғийди,

Кўчаларда тутоқиб.

Шох-шаббани тортқилар,

Ялмоғиздек ютоқиб...

Шоир бу ўринда фольклордаги анъанавий мифологик образларга мурожат қилиб, мифологизация қилган.

В.А. Сухомлинский: Ўқувчилар тарбиясида халқ эртақларининг ўрни беқиёс. Эртақлар ўқувчи қалбини эзгуликка, гўзалликка ўргатади, унда ватанпарварлик, меҳр-оқибат, адолатпарварлик каби хислатларни шакллантиради. Эртақларни ўқитишда ўқувчининг ёш хусусиятларини инобатга олиш, унда қизиқиш уйғотиш, тасаввурини ривожлантириш муҳим.



3-синф ўқиш саводхонлиги 4-қисмида таниқли болалар шоири Жўра Раҳим “Бир бутун ой, ўн икки юлдуз” эртагида айнан шу ҳислатлар ўз аксини топади. Бир бутун ой –патир нон , ўн икки юлдуз чучвараларга ишора қилиниб, ўқувчиларнинг ривожланишида , когнитив қарашларни ўстиради.

К.Д. Ушинский: Халқ эртаклари ўқувчининг она тилини ўрганишида, луғатини бойитишида муҳим восита ҳисобланади. Эртақлар тили содда, лўнда ва образли бўлиб, ўқувчининг онгига осон ўрнашади. Шунингдек, эртақлар орқали ўқувчилар халқнинг урф-одатлари, анъаналари ва маданияти билан танишадилар. 4-синф ўқиш саводхонлиги дарслигида “Сумалак” эртаги халқ оғзаки ижодида миллийлигимиз, урф-одатларимиз, маданиятимиз ўз ифодасини топган.

Л.С. Выготский: Эртақлар ўқувчининг фантазиясини, ижодий тафаккурини ривожлантиришга ёрдам беради. Ўқувчи эртақ қаҳрамонлари билан бирга кечинади, уларнинг ҳис-туйғуларини тушунишга ҳаракат қилади. Бу эса унинг эмоционал интеллектини ривожлантиради. Атоқли ўзбек шоири Ҳамид Олимжоннинг 3-синф ўқиш саводхонлиги дарслигидаги “Ойгул билан Бахтиёр” асарида ўқувчи эртақлар оламидаги тимсоллар ҳис туйғули билан тўқнашадилар.

Ж. Пиаже: Эртақлар ўқувчининг когнитив ривожланишига ҳисса қўшади. Ўқувчи эртақ воқеаларини таҳлил қилиш, сабаб-оқибат алоқаларини тушуниш, муаммоларни ечиш каби малакаларни ҳосил қилади. 3-синф ўқиш саводхонлиги дарслигидаги “Она қарзи” номли хинд халқ эртагида ўқувчиларни мулоҳаза қилишга чорлайди. Онанинг нақадар буюк зот эканлиги ва унинг олдидаги қарзни уза олмаслигини тушуниб етадилар.

Дания ёзувчиси Х.К.Андерсен жаҳон болалар адабиётида ҳақли равишда “Эртақ қироли” сифатида улуғланади. Адиб эртақларнинг жозибаси ғайриоддий оҳанги, сеҳрли соддалиги , ҳаётга чексиз меҳр билан муносабатда бўлиши , энг оддий нарсалар ва ҳодисалардан эстетик тарбиявий жиҳатдан теран мазмунли эртақ ярата олиши билан белгиланади.(1)

Замонавий таълим назариялари: Бугунги кунда халқ эртақларини ўқитишда интерфаол методлар, ахборот технологияларидан фойдаланишга катта эътибор қаратилмоқда. Мультимедиа воситалари, ўйин технологиялари, лойиҳа методлари кабилар эртақларни ўқитишни янада қизиқарли ва самарали қилади. 1-синф ўқиш саводхонлиги дарслиги таркибида бир қатор мультимедияли дарслар ўрин олган.



Шунингдек, халқ педагогикаси, бошланғич таълим методикасига оид адабиётларда ҳам халқ эртакларининг аҳамияти ва уларни ўқитиш усуллари ҳақида кўплаб фикрлар билдирилган.

Халқ эртакларини ўргатиш усуллари:

Халқ эртакларини ўргатишда куйидаги усуллардан фойдаланиш самарали натижа беради:

- Ифодали ўқиш: Ўқитувчи эртакни ифодали ўқиб, қаҳрамонларнинг ҳиссиётларини, мимика ва жестларини етказиши керак. Бу ўқувчиларни эртак воқеаларига жалб қилади.
- Савол-жавоб: Эртак мазмуни бўйича саволлар бериш орқали ўқувчиларнинг эртакни тушуниши ва таҳлил қилиш қобилиятини ривожлантириш мумкин.
- Ролли ўйинлар: Ўқувчилар эртак қаҳрамонлари ролини ўйнаб, воқеаларни саҳналаштиришлари мумкин. Бу уларнинг ижодий қобилиятини ва коммуникатив кўникмаларини ривожлантиради.
- Расм чизиш ва бошқа ижодий ишлар: Ўқувчилар эртак мазмунига оид расмлар чизишлари, аппликациялар ясашлари, эртак қаҳрамонларини лойдан ясашлари мумкин.
- Муҳокама: Ўқувчилар билан эртак мазмуни, қаҳрамонларнинг характери ва хулқ-атворини муҳокама қилиш муҳим.
- Замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш: Эртакка оид видеороликлар, аудиоёзувлар, интерактив ўйинлар ва бошқа мультимедиа материалларидан фойдаланиш дарснинг самарадорлигини оширади.

Бошланғич синф ўқиш саводхонлиги дарсларида халқ эртакларини ўргатиш ўқувчиларнинг дунёқарашини кенгайтириш, нутқини бойитиш, ахлоқий фазилатларни шакллантириш ва китобга меҳр уйғотишда муҳим аҳамият касб этади. Халқ эртакларини ўргатишда куйидаги усуллардан фойдаланиш тавсия этилади:

1. Эртакни ифодали ўқиб бериш: Ўқитувчи эртакни ифодали оҳангда ўқиб бериши, қаҳрамонларнинг овозини ўзгартириб, воқеаларни жонлантириши керак. Бу усул ўқувчиларнинг қизиқишини уйғотиб, эртакка жалб қилади.

2. Савол-жавоб усули: Эртакни ўқиб бўлгандан сўнг, ўқитувчи ўқувчиларга эртак мазмуни бўйича саволлар бериши керак. Бу усул ўқувчиларнинг эртакни тушунишини ва асосий ғояни англашини таъминлайди. Мисол учун: “Эртакдаги асосий қаҳрамон ким?”, “Қаҳрамон қандай қий-



инчиликларга дуч келди?”, “Эртақдан қандай хулоса чиқариш мумкин?” каби саволлар бериш мумкин.

3. Ролли ўйинлар: Ўқувчилар эртақ қаҳрамонлари ролини ўйнаб, воқеаларни саҳналаштиришлари мумкин. Бу усул ўқувчиларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиради ва эртақни яхшироқ тушунишларига ёрдам беради.

4. Расм чизиш: Ўқувчилар эртақ мазмунига оид расмлар чизишлари мумкин. Бу усул ўқувчиларнинг тасаввурини ривожлантиради ва эртақни визуал тарзда англашларига ёрдам беради.

5. Эртақни давом эттириш: Ўқитувчи эртақни маълум бир жойигача ўқиб, ўқувчиларга уни давом эттиришни таклиф қилиши мумкин. Бу усул ўқувчиларнинг ижодий фикрлашини ва фантазиясини ривожлантиради.

6. Эртақ асосида матн тузиш: Ўқувчилар эртақ асосида кичик ҳикоялар ёки шеърлар ёзишлари мумкин. Бу усул уларнинг ёзма нутқини ривожлантиради ва эртақ мазмунини чуқурроқ англашларига ёрдам беради.

7. Ахборот технологияларидан фойдаланиш: Эртақка оид видеороликлар, аудиоёзувлар ва бошқа мультимедиа материалларидан фойдаланиш дарснинг самарадорлигини оширади ва ўқувчиларнинг қизиқишини уйғотади.

8. Гуруҳларда ишлаш: Ўқувчиларни кичик гуруҳларга бўлиб, ҳар бир гуруҳга эртақнинг маълум бир қисмини таҳлил қилиш вазифасини бериш мумкин. Бу усул ўқувчиларнинг ҳамкорликда ишлаш кўникмаларини ривожлантиради ва эртақни турли нуқтаи назардан таҳлил қилишга ёрдам беради.

Халқ эртақларини ўргатишда ушбу усулларни қўллаш орқали ўқувчиларнинг ўқиш саводхонлигини ошириш, дунёқарашини кенгайтириш ва ахлоқий фазилатларни шакллантириш мумкин.

Профессор Н. Маллаев зикр этилган китобида қуйидаги кузатишларига асосланиб иш қўради. "Алишер Навоий халқ ижодиётидан бевосита ва бавосита фойдаланади. У халқ ижодчиларини эшитиш билан бирга, фольклор материаллари ёки анъаналари ўрин олган ёзма манбалардан кенг бақраманд бўлди. Фольклор асарлари (ёки элементлари) тарих китоблари, турли тазкиралар, илмий асарлар ва ёзма адабиётдан ҳам ўрин олган эди. Улар айнан ёки қайта ишланиб ёзма асарларга киритилар эди" Бундай қараш бутун тадқиқот давомида ўзини тўла оқлайди.

Бошланғич синф ўқиш саводхонлиги дарсларида фольклор асарларини ўқитиш мавзусидаги мулоҳазаларга асосланиб, қуйидагича хулоса қилиш мумкин:



Хулоса:

Бошланғич синф ўқиш саводхонлиги дарсларида фольклор асарларини ўқитиш жараёнининг аҳамияти бекиёсдир. Бу нафақат ўқувчиларнинг техник ўқиш кўникмаларини (сўзларни таниш, ўқиш тезлиги, равонлик) ривожлантиришга хизмат қилади, балки уларнинг матн мазмунини чуқур англаш, таҳлил қилиш ва ифодали ўқиш қобилиятини шакллантиради.

Фольклор асарлари ўқувчиларнинг нутқини бойитишда, сўз бойлигини оширишда, оғзаки ва ёзма нутқ маданиятини юксалтиришда муҳим восита бўлиб хизмат қилади. Энг асосийси, фольклор болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбиясида, уларда эзгулик, меҳр-оқибат, адолат, ватанпарварлик каби умуминсоний ва миллий қадриятларни шакллантиришда фундаментал рол ўйнайди.

Фольклор асарларини ўқитиш орқали ўқувчилар ўз халқининг бой маданияти, тарихи, урф-одатлари ва анъаналари билан танишадилар, миллий ўзига хосликни англайдилар ва ўз меросига ҳурмат билан қарашни ўрганадилар. Бу жараён уларнинг тафаккурини, фантазияси ва ижодий қобилиятларини ривожлантиришга ҳам катта ҳисса қўшади.

Шундай қилиб, бошланғич синф ўқиш саводхонлиги дарсларида фольклор асарларини ўқитишни замонавий педагогик технологиялар ва интерактив усуллар асосида самарали ташкил этиш, келажак авлодни нафақат саводли, балки юксак маънавиятли, миллий қадриятларга содиқ ва кенг дунёқарашли шахслар этиб тарбиялашнинг муҳим шартидир. Бу ўзбек халқининг бебаҳо маданий меросини асраб-авайлаш ва уни ёш авлодга етказишда ҳам муҳим қадамдир.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Маматкул Жўраев. Фольклоршунослик асослари.Фан.Тошкент:
2. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Наука, 1979. – С.200
3. Сафаров О. Болалар адабиёти ва фольклор. – Бухоро, 2007. – Б.75. 150
4. Сафо Матжон.Болалар адабиёти. Дарслик – хрестоматия. Тошкент: 2023. 367
5. Ўқиш саводхонлиги 1-синф дарслиги , 2-қисм. У.Б.Айдарова . умумий ўрта таълим мактаблари учун дарслик.Т.:2024.
6. Ўқиш саводхонлиги 3-синф дарслиги , 3-қисм. У.Б.Айдарова, Н.К.Азизова. Умумий ўрта таълим мактаблари учун дарслик.Т.:2023.
7. Сафо Матжон. Бошланғич синфларда она тили ўқитиш методикаси.Тошкент- 2021.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATIV MODULLI O'QITISHNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Nurmanova N. K.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Matematika o'qitish metodikasi kafedrasi assistenti

Tayanch so'zlar: integrativ modulli o'qitish, boshlang'ich ta'lim, pedagogika, innovatsion texnologiyalar, metodik tayyorgarlik.

Ключевые слова: интегративное модульное образование, начальное образование, педагогика, инновационные технологии, методическая подготовка.

Key words: integrative modular education, primary education, pedagogy, innovative technologies, methodological training.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda integrativ modulli o'qitish usulining pedagogik ahamiyati, zamonaviy ta'lim tizimidagi dolzarbligi va metodik jihatlar tahlil qilinadi. Integrativ modulli o'qitish o'quvchilarda fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada innovatsion texnologiyalar yordamida integrativ modulli o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari va o'qituvchilar malakasini takomillashtirish masalalari ham ko'rib chiqiladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируется педагогическое значение интегративно-модульного метода обучения в начальном образовании, его актуальность в современной системе образования, методические аспекты. Интегративно-модульное обучение служит укреплению межпредметных связей учащихся, развитию самостоятельного мышления и навыков решения проблем. В статье также рассматриваются пути повышения эффективности интегративно-модульного обучения с использованием инновационных технологий и вопросы повышения квалификации учителей.

SUMMARY:

The article analyzes the pedagogical significance of the integrative-modular teaching method in primary education, its relevance in the modern education system, and methodological aspects. Integrative-modular teaching serves to strengthen students' interdisciplinary connections, develop independent thinking and problem-solving skills. The article also considers ways to improve the effectiveness of integrative-modular teaching using innovative technologies and issues of teacher training.

Kirish. XXI asrda ta'lim sohasida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy qilinishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi



va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini puxta shakllantirish, ularni hayotga tayyorlashda zamonaviy va innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, integrativ modulli o'qitish usuli o'zining yuqori samaradorligi, moslashuvchanligi va zamonaviy ta'lim talablariga javob bera olishi bilan ajralib turadi.

Maqolaning maqsadi – boshlang'ich ta'limda integrativ modulli o'qitishning nazariy asoslari, pedagogik ahamiyati, zamonaviy ta'lim tizimidagi dolzarbligi, metodik jihatlarini va amaliy qo'llanilishini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

1. Integrativ modulli o'qitishning nazariy asoslari.

1.1. Integrativ o'qitish tushunchasi va mohiyati. Integrativ o'qitish – bu o'quv jarayonida bir nechta fanlarning mazmunini o'zaro bog'liq holda, yagona didaktik tizim asosida o'rgatish usulidir. Bu yondashuv o'quvchilarda bilimlarni hayotiy vaziyatlarda kompleks qo'llash, fanlararo aloqadorlikni anglash va umumiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi 1.

1.2. Modulli o'qitishning asosiy tamoyillari. Modulli o'qitish – bu o'quv jarayonini alohida mavzular yoki ko'nikmalar asosida tuzilgan mustaqil modullarga ajratish orqali tashkil etiladi. Har bir modul o'zining maqsadi, mazmuni, natijalari va baholash mezoniga ega bo'ladi. Bu yondashuv o'quvchilarning individual rivojlanish sur'atini hisobga olish, mustaqil ishlash va o'z-o'zini baholash imkoniyatini beradi .

1.3. Integrativ modulli o'qitishning zarurati. Zamonaviy ta'limda fanlararo integratsiya va modulli o'qitishning birgalikda qo'llanilishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu usul orqali o'quvchilar turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirib, real hayotiy muammolarni hal qilishga o'rganadilar .

2. Boshlang'ich ta'limda integrativ modulli o'qitishning pedagogik ahamiyati.

2.1. Fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish. An'anaviy ta'limda fanlar alohida o'rganiladi va bu o'quvchilarning bilimlarini birlashtirishda muammolar keltirib chiqaradi. Integrativ modulli o'qitish orqali esa, masalan, matematika va tabiatshunoslik, ona tili va tarix fanlari o'zaro bog'liq holda o'rgatiladi. Natijada, o'quvchilar bilimlarni yaxlit holda o'zlashtiradi va amaliyotda qo'llashga o'rganadilar .

2.2. Mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Integrativ modulli o'qitish o'quvchilarni faol o'rganish jarayoniga jalb qiladi, ularni mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlashga undaydi. O'quvchilar turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirib, yangi yechimlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar .



2.3. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish. Har bir o‘quvchining qiziqishi, bilim darajasi va o‘zlashtirish sur‘ati turlicha. Modulli o‘qitish orqali har bir o‘quvchiga moslashtirilgan ta‘lim yo‘nalishlari ishlab chiqiladi. Bu esa, o‘quvchilarning motivatsiyasi va o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi 1.

2.4. Ijodkorlik va innovatsion salohiyatni rivojlantirish. Integrativ modulli o‘qitish o‘quvchilarda yangi g‘oyalar yaratish, o‘z fikrini mustaqil ifodalash, innovatsion loyihalarda ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa, ularning kelajakda zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi .

3. Zamonaviy ta‘lim tizimida integrativ modulli o‘qitishning dolzarbligi.

3.1. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Integrativ modulli o‘qitish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta‘lim platformalari, virtual laboratoriyalar va multimedia materiallari yordamida amalga oshiriladi. Bu o‘quvchilarning ta‘lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi .

3.2. Ta‘lim sifatini oshirish. Modulli o‘qitish orqali o‘quv jarayonining samaradorligi oshadi, o‘quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bu usul o‘qituvchilarning ham metodik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi .

3.3. Ta‘lim jarayonini individuallashtirish. O‘quvchilar o‘z qobiliyatiga mos ravishda ta‘lim oladilar, har birining ehtiyojlari va imkoniyatlari inobatga olinadi. Bu esa, ta‘lim jarayonida har xil o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratadi 1.

3.4. O‘qituvchilar malakasini oshirish. Integrativ modulli o‘qitishni samarali joriy etish uchun o‘qituvchilar doimiy ravishda yangi pedagogik texnologiyalar, baholash va modulli o‘qitish usullarini o‘zlashtirib borishlari lozim .

4. Integrativ modulli o‘qitishning metodik jihatlari va amaliy qo‘llanilishi.

4.1. Ta‘lim modullarini tuzish. Har bir modul aniq mavzu yoki ko‘nikmani o‘z ichiga oladi va fanlararo bog‘liqlik asosida tuziladi. Modullar bosqichma-bosqich o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi .

4.2. Elektron vositalar va interaktiv texnologiyalar. Veb-platformalar, virtual laboratoriyalar, multimedia materiallari va mobil ilovalar yordamida ta‘lim jarayoni interaktiv va qiziqarli bo‘ladi. Bu o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi .

4.3. Individual ta‘lim yo‘nalishlari. Har bir o‘quvchining qiziqishi va imkoniyatiga mos ta‘lim yo‘nalishlari ishlab chiqiladi. Bu esa, o‘quvchilarning



motivatsiyasini oshiradi va ularning bilim olish jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi[1].

4.4. Modulli baholash tizimi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalari har bir modul bo'yicha aniq va adolatli baholanadi. Bu baholash natijalari asosida ta'lim jarayoniga zarur o'zgartirishlar kiritish mumkin .

4.5. O'qituvchilarni malaka oshirish. O'qituvchilarni modulli ta'lim texnologiyalari bo'yicha muntazam ravishda tayyorlash, yangi metodik usullarni o'zlashtirish va zamonaviy vositalardan foydalanishni o'rgatish muhim ahamiyatga ega .

5. Integrativ modulli o'qitishning amaliy natijalari.

5.1. O'quvchilar bilim va ko'nikmalarining rivojlanishi. Integrativ modulli o'qitish natijasida o'quvchilar fanlarni yaxlit holda o'zlashtiradi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ular o'z bilimlarini real hayotda qo'llashga o'rganadilar.

5.2. O'qituvchilarning metodik salohiyati oshadi. Modulli o'qitish o'qituvchilardan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Bu esa, ularning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi .

5.3. Ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi. Integrativ modulli o'qitish orqali ta'lim jarayoni samarali, qiziqarli va natijador bo'ladi. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida samarali hamkorlik vujudga keladi .

Xulosa. Boshlang'ich ta'limda integrativ modulli o'qitish usuli zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini puxta shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlash, fanlararo bog'liqlikni anglash, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va o'qituvchilarning metodik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ modulli o'qitishning samaradorligini oshirish uchun doimiy ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi, o'qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Bu esa, boshlang'ich ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shaxlo N., Nodira O., Fazilat M. (2022). Boshlang'ich ta'limda integratsion-innovatsion yondashuv. Toshkent: TDPU nashri.
2. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti. (2023). Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. PDF fayl.
3. Kenesbaeva, E.J. (2021). Modulli o'qitish texnologiyalari vositasida o'quvchilarni intellektual rivojlantirish. Nukus davlat pedagogika instituti.
4. CyberLeninka. (n.d.). Boshlang'ich ta'limda integratsiya – intellektual taraqqiyot omili sifatida.
5. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. (2020). Boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirish tamoyillari.



БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ИНТЕЛЕКТУАЛЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИНИ ЛОЙИХАЛАШ

Farmonov O‘.N.

CHDPU Maktabgacha ta’lim pedagogikasi v.b.dots., (PhD)

Nazarov O.U.

assistant ZARMED universiteti

Таянч сўзлар: рақамли таълим, интеллектуал фаолият, фикрлашнинг мослашувчанлиги, танқидийлик, ривожланиш, лойиҳалаш.

Ключевые слова: креативность, творческая деятельность, активность, гибкость мышления, критичность, развитие, проектирование.

Key words: creativity, creative activity, activity, flexibility of thinking, criticality, development, design.

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларни ижодий фаолиятга тайёрлаш маъмуни, ижодий фаолият турлари ва ижодий фаолиятни ривожлантириш босқичлари, моделлаштириш, лойиҳалаш кўникмаларини такомиллаштириш масалалари илмий назарий баён этилган.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассмотрено содержание подготовки будущих учителей начальных классов к творческой деятельности, виды творческой деятельности и этапы развития творческой активности, вопросы совершенствования навыков моделирования, проектирования.

SUMMARY:

This article describes the content of the preparation of future primary school teachers for creative activities, the types of creative activities and stages of development of creative activity, the issues of improving modeling, design skills.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifatini hamda samaradorligini oshirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlarini tashkil etishning meyoriy asoslari yaratilmoqda.



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini intellektual faoliyatini takomillashtirish, bo'lajak pedagogik kasbida samarali ravishda qo'llash yo'llarini o'rganishi, buning uchun talabalarga bunday maqsad va vazifalarni tushunishi hamda maxsus bilim va ko'nikmalar tizimi o'rgatilishi lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot ta'lim muhitini loyihalashga odatlanishi masalasi psixologik jihatdan turli qirralardan, turli yo'nalishlarda ko'rib chiqilmoqda. Ushbu yo'nalishlar ichida bizning uslubimiz - talabaning shaxsiyligi va uning axborot ta'lim muhitini loyihalashga odatlanish masalasi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot-ta'lim muhitini loyihalash – bu alohida metodologiya hisoblanib, aniq nazariy asoslar va amaliy-uslubiy tizimi shakllangan jarayon bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berishga yo'naltirilgan. Bu jarayon ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Axborot oqimi va AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) rivojining yuqori sur'ati, ta'lim jarayoniga AKTning jadal joriy etilishi jamiyatning ham asta-sekin o'zgarib, "axborot jamiyati"ga aylanishiga olib keldi. Olimlarning fikricha, **"ta'limni axborotlashtirish, uni amalga oshirish yo'nalishidan qat'i nazar, butun ta'lim tizimi va jamiyat hayotiga butunlay ta'sir etuvchi, inson faoliyatining keng va ko'p qirrali sohasi hisoblanadi"**.

D.N.Mamatov doktorlik ilmiy tadqiqot ishida, shunday deb yozadi: "Jamiyatimizni ommaviy axborotlashtirish, jahon axborot maydoniga chiqish jarayoni rivojlangan sari, uning foydasi bilan birga, salbiy tomonlari ham ko'payishi tabiiy. Shuning uchun ham hozirgi jamiyatga o'zini doimiy ravishda rivojlantirishga qodir, demokratiya, gumanizm, madaniyat kabi umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirgan, xalqining tarixi va an'alarini biladigan, milliy va xorijiy tillarini o'zlashtirgan, o'z fikri va harakatlariga javob bera oladigan, siyosiy-huquqiy madaniyat va bozor munosabatlarini tushunadigan, har tomonlama malakali mutaxassis kerak".

- Olimlar axborot jamiyati a'zolarining axborot madaniyati tarkibiy qismlarini va ularning mazmunini quyidagicha belgilaydilar:
- **Aksiologik** (qadriyatli) element – shaxs darajasida axborot faoliyatining qadriyatlarini qabul qilish;
- **Hamkorlik etikasi** – AKTda muloqot va hamkorlik madaniyati, axborot munosabatlaridagi odobli xulq;
- **Tanqidiy-intellektual** element – texnologik bilim, axborotni erkin qabul qilish, fikrlash qobiliyati;
- **Bashoratlash elementi** – axborot faoliyati oqibatlarini oldindan bilish va axborot oqimiga moslashish;



- **Ilmiy metodik element** – kasbiy vazifalarni samarali hal qilish uchun AKT imkoniyatlaridan foydalanish;
- **Huquqiy element** – axborot muomalasi qoidalarini bilish va mas’uliyatni his etish;

Ergonomik element – ish jarayonini samarali tashkil qilish va sog’liq uchun xavfsizlik qoidalari.

Boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashning barcha ta’lim bosqichlarida (bakalavriat, magistratura, doktorantura) talabaning tayyorgarlik darajasi ustuvor ahamiyatga ega. Shu sababli, talabalarning bo’lajak o’qituvchi sifatida axborotli ta’lim muhitini loyihalashga tayyor bo’lishi oliy ta’lim tizimida muhim shart hisoblanadi.

Axborot jamiyatining jadal rivojlanishi, texnologiyalar tez o’zgarishi, bolalarning AKTga bo’lgan qiziqishi va qobiliyati, intellektual-sensor rivojlanishi – bu zamonaviy hayotning realiyati bo’lib, ularni o’qitishdagi yangi talablar hisoblanishi kerak.

Yangi ta’lim mazmunining joriy etilishi va uning maqsadi bolani hayotga moslashtiruvchi faoliyatlarga o’rgatish bo’lgani sababli, o’qituvchi o’z o’quvchisining rivojlanish darajasidan orqada qolmasligi va uni boshqara olishi uchun axborotli ta’lim muhitini loyihalashni bilishi zarur.

Onlayn-ta’lim, masofaviy o’qitish, axborot manbalarini saralash va ularni o’quvchiga mustaqil izlanish vositasi sifatida taqdim etish – bugungi kunda axborotli ta’lim muhitini loyihalashning har kunlik pedagogik amaliyotiga aylanganligini ko’rsatadi.

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi bo’lishi talabalar uchun maxsus kurslar o’tkazish – ularning shaxsiy ta’limga bo’lgan munosabatini, kasbiy motivatsiyasini oshiradi, mustaqil izlanish, didaktik va metodik rejalashtirish, boshqarish va natijalarni tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli ta’lim muhitini loyihalashning didaktik imkoniyatlari talabalarga o’z bo’lajak o’qituvchilik faoliyatini haqiqiy jarayon sifatida his qilish imkonini beradi. Ular passiv tinglovchidan ijodiy fikrlovchi shaxsga aylanadi.

Bu jarayondagi ijodiy yutuqlar talabaning o’zini tanishiga, o’z-o’ziga ishonchiga, ijodkor usullarni ishonch bilan qo’llash istagiga turtki beradi.

Ta’limning ijtimoiy asoslarini o’rgangan olimlarning xulosalariga ko’ra, zamonaviy jamiyatda axborotlashtirish – bu faqat texnik taraqqiyot emas, balki ta’limni axborotlashtirish – bu faqatgina o’quv jarayoniga texnik vositalarni joriy etish emas, balki uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tushunishdir.

Chunki axborotli ta’lim muhitini yaratish orqali ta’lim jarayonini o’zgartirish imkoniyati paydo bo’ladi.



Ta'limni axborotlashtirish jarayoni, o'z navbatida, butun jamiyatning o'zgarishiga olib keladi.

Shu tariqa, pedagogik yangicha izlanishlar, yangi tadqiqotlarning ijtimoiyligi ta'lim muhitini loyihalashning sotsiologik asoslari va falsafiy ahamiyatini yangi talablar asosida qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Ijtimoiy falsafa ma'lumotlariga ko'ra, insoniyat sivilizatsiyasi faqat bilimli sivilizatsiya sifatida o'zini saqlab qolishi mumkin.

Har bir davlat esa faqat bilimli jamiyat sifatida mavjud bo'lib qolishi mumkin.

Bilim – jamiyatning intellektual taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy ijtimoiy element sifatida falsafiy nuqtai nazardan davlat maqsadlari ichida eng ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatiladi.

Bilim, o'z-o'zidan emas, balki hayot bilan uzviy bog'langan paytdagina o'z qadr-qimmatini namoyon etadi. Buni har bir qazaqstanlik his qilmoqda.

Chunki bilim – maktabni tugatib, katta hayotga qadam qo'yganda kerak bo'ladigan boylik emas, balki har kunlik, har daqiqada zarur qadriyatga aylangan.

Bunday o'zgarishga sabab – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atda rivojlanishi va ularning hayotimizga doimiy ravishda aralashib borishi.

Ta'limning ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini o'rganayotgan tadqiqotchilar bilim olishning ahamiyati har kuni oshib borayotganini turli jihatdan o'rganmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bilimning sotsiomorf usuli haqida to'xtalib o'tish mumkin.

Bu usulni joriy qilgan A.I.Subetoning ta'kidlashicha, sotsiomorf yondashuv mohiyati – dunyodagi har bir davlatda berilgan ta'lim o'ziga xos, mustaqil va u davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, milliy-etnik, demografik va madaniy munosabatlariga mos kelishi kerakligini tan olish hisoblanadi.

V.D. Shadrikov ta'lim va tarbiya tizimini milliy, ma'naviy qadriyatlar asosida mustahkamlash hamda uni jahon ta'lim xazinalari bilan bog'lash yo'llarini asoslab bergan.

Ular ta'kidlaganidek, ijtimoiy ta'lim yondashuvi davlatning ta'lim vektorining boshqa mamlakatlar yo'liga asossiz ravishda tushib ketmasligini kafolatlaydi.

Axborotlashtirish bilan bog'liq jarayonlar ijtimoiy hodisa sifatida chuqur tahlilni, yangidan-yangi ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

Бошланғич синф ўқитувчиси ўқувчиларнинг ахборотли таълим муҳитини (АТМ) лойиҳалашга тайёрлаш билан боғлиқ таҳлиллар шу



yo'nalishdagi ilmiy muammolar ko'lamini keng va mazmuni chuqur ekanini ko'rsatdi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'quvchilarning axborotli ta'lim muhitini loyihalashga ijtimoiy -falsafiy asoslarda tayyorlash, hamda ijtimoiy va falsafiy mezonlarga tayangan holda mavzuning muhim yo'nalishi – didaktik asoslarini tahlil qilish talab etiladi.

Didaktika – bu pedagogikaning ta'lim berish va o'qitish nazariyasini o'rganuvchi sohasi. Axborotli ta'lim muhiti – bu pedagogik tizimning o'zi va uni ta'minlovchi kichik tizimlar jamlanmasidir.

YA'ni, axborotli ta'lim muhiti deb, axborot, texnik, o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlangan, o'qituvchi va talabalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqasi mavjud bo'lgan tizimli tashkil etilgan majmuani aytamiz.

Agar axborotli ta'lim muhitini tizim deb qabul qilsak, u holda uni tashkil etuvchi ichki tizimlar: moddiy-texnik ta'minot, moliyaviy-iqtisodiy tizim, normativ-huquqiy tizim, boshqaruv va marketing tizimlari kabi kichik tizimlardan iborat ekanini tushunamiz.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'quvchilarning ta'lim muhitini pedagogik tizim sifatida loyihalash xususiyatlari haqida so'z yuritganda, uni pedagogik tizim sifatida qarash kerakligi ma'lum.

Pedagogik tizim degan tushuncha, o'rganilayotgan ATMni pedagogik hodisa sifatida qarashni anglatadi.

ATM tizimi pedagogik tizim sifatida turli pedagogik komponentlardan tashkil topadi: o'qitish maqsadi, vazifalari, mazmuni, usullari, uskunalari, tashkil etish shakllari, pedagoglar va talabalar.

ATMni pedagogik tizim sifatida loyihalashning didaktik xususiyatlari:

- **Moslashuvchanlik xususiyati** – bu bo'lajak o'qituvchining axborot muhitini moslashuvchan shaklda yarata olishi, pedagogik texnologiyalar o'zgarishi bilan, axborot muhiti ham shu o'zgarishlarga moslasha olishi bilan belgilanadi;
- **Bir butun tizim sifatidagi xususiyat** – ATMning ichki komponentlari o'zaro bog'liq holda harakat qiladi, bu bog'liqlik o'quv jarayonining ishtirokchilari – o'qituvchi va talabaning ongli harakatidan kelib chiqadi, o'quv materialining o'zgarmas mazmunini, maqsadga erishishni ta'minlovchi oqilona o'qitish usullarini hisobga olgan holda shakllantiriladi;
- **Butunlik xususiyati** – bu orqali dars jarayoni rejalashtirilgan maqsadga muvofiq amalga oshiriladi, ya'ni rejalashtirilgan natijalar va unga



yetishish uchun talab va o'qituvchi tomonidan bajariladigan harakatlar belgilanadi;

- **Ochiq tizim sifatidagi xususiyat** – bu tizim jamiyatning axborot makoni bilan bog'liq bo'ladi; axborot makonining cheksiz imkoniyatlari o'zgaruvchan ta'limni tashkil etishga yo'l ochadi;
- **Ko'p funksiyali tizim** – axborotli ta'lim muhiti bir tomondan talabalar uchun bilim manbai, ikkinchi tomondan – bo'lajak o'qituvchining o'zi yaratadigan o'quv-uslubiy muhitni shakllantirish uchun «mustaqil ish maydoni» sifatida xizmat qiladi;
- **Variativlik** – har bir talabani o'z bilim trayektoriyasini tanlash imkoniyatini taqdim etadi;
- **Vizuallik** – o'quv jarayonida voqea va jarayonlarni ko'rib qabul qilishga mos shaklda taqdim etiladi;
- **Interaktivlik** – bu ATMning didaktik xususiyatlaridan biri, u orqali darhol baholash, turli bilim manbalariga kirish, mustaqil ishni tashkil etish, axborotni izlash, tahrirlash, saqlash, yuborish va qayta ishlash imkoniyatlari yaratiladi.

Hozirgi kunda internetda jamlangan ilmiy bilimlar manbalari — bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning ta'lim muhitini loyihalashda samarali faoliyat olib borishi uchun maxsus ko'nikmalar shakllantirishni talab etadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining zamon talablariga mos, shaxs sifatida shakllanishi, universitetda olgan bilimlarini to'g'ri va maqsadli qo'llay olishi, o'z faoliyatini yaxshi tashkil qila olishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

Ko'plab fanlarni "qanday bo'lsa ham o'qish kerak" degan majburiy motivatsiya o'rniga, talabani o'zining bo'lajakdagi kasbiy va shaxsiy hayoti uchun zarur bo'lgan kurslarni mustaqil tanlashga o'rgatish lozim.

Axborotli ta'lim muhiti bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun ta'lim jarayoni samaradorligini oshiruvchi maxsus tizim hisoblanadi. Bu tizim ma'lum bir tartibda tuzilgan axborotlar, uni o'zlashtirish texnologiyalari va axborotni turli ko'rinishda qayta ishlash usullari majmuasidan tashkil topadi.

Axborotli ta'lim muhitining pedagogik nuqtai nazardan samarali bo'lishi – bu tizimning mazmuni va tuzilishidagi komponentlargagina bog'liq emas. Eng muhimi – o'qituvchi va talabani ushbu tizim komponentlari bilan qanday aloqa o'rnatishi, qay darajada faollik ko'rsatishiga bog'liq bo'ladi.

Agar axborotli ta'lim muhitining komponentlari faqat statik holatda qolsa, ularning talabalarga foydasi oddiy kitobdan foydalanishdek darajada bo'ladi.



Ammo agar bu komponentlar turli kombinatsiyalar orqali, yangi usullar bilan o'zlashtirilsa, va axborotni qayta ishlash imkoniyatlari yaratib bersa - shundagina asl maqsadga erishish mumkin.

Faqatgina o'qituvchi va talabaning faolligi ATMdand foydalanish orqali samarali, sifatli ta'limga olib keladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'quvchi ta'lim muhitini loyihalashga o'rgatishdagi didaktik yondashuv quyidagi yo'nalishlarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz:

1. **Birinchi yo'nalish** – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'quvchi ta'lim muhitini loyihalashning ijtimoiy-falsafiy asoslarini qamrab oladi. Buning mohiyati – bo'lajak o'qituvchi o'zi axborot muhitining ham subyekti, ham obyekt ekanini anglashi kerak.

2. **Ikkinchi yo'nalish** – axborotli ta'lim muhitining talabani mustaqil bilim izlash va shaxsiy ravishda bilim olishga o'rgatishdagi ilmiy-metodologik asoslarini qamrab oladi. Ochiq resurslardan bilim izlab topish, uni o'z nuqtai nazaridan saralash, o'quv vazifalarida undan maqsadli foydalanish - talabaning shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi.

3. **Uchinchi yo'nalish** – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini axborotli ta'lim muhitini loyihalashga o'rgatishning metodik asoslarini qamrab oladi.

1. To'rtinchi yo'nalish – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi talabani yuqorida aytilganlar asosida kasbiy mahoratiga olib borish jarayonini ma'lum darajada tayyorlangan axborotli ta'lim muhiti orqali amalga oshirish mazmunini o'z ichiga oladi. YA'ni, aniq konsepsiyasi ishlab chiqilgan, maxsus kurs dasturi va uni o'qitish uchun tayyorlangan ATM shakllantiriladi. Uchinchi va to'rtinchi yo'nalishlar talabaning ham subyekt, ham obyekt ekanini namoyon etadi.

2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'quvchi ta'lim muhitini loyihalashga o'rgatish - bu didaktik jarayonni ta'minlaydigan o'quv-uslubiy majmua ishlab chiqilishini talab etadi. Bu majmuada:

3. Axborotning tizimli va variantli taqdim etilishi;

4. Kasbiy vazifalarni bajarishga o'rgatish;

5. Axborot resurslaridan to'g'ri va samarali foydalanish ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

6. Faqat shunday shartlar bajarilgandagina axborotli ta'lim muhiti – talabalar uchun qulay va samarali o'quv muhiti deb hisoblanadi.

7. Albatta, pedagogik tizimning asosiy tizim tuzuvchi elementi - **o'qitish maqsadlari** ekani ma'lum. ATM tizimining maqsadlari o'zaro bog'langan **maqsadlar iyerarxiyasini** tashkil etadi.

8. Bu iyerarxiya quyidagicha tartibda ko'zda tutiladi:



9. **Umumiy maqsad** - bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini axborotli bilim muhitini yaratish va undan samarali foydalanishga o'rgatish. Bu maqsad - butun o'qitish jarayonining bosh yo'naltiruvchi maqsadi hisoblanadi.

10. **Mazmunli maqsadlar** - ma'lum bilim sohaları bo'yicha axborot resurslari bilan ishlash, ularni tahlil qilish, tizimlashtirish, taqdim etishga oid o'qitish maqsadlari. Masalan: elektron ta'lim resurslari yaratish, vizual axborotni tahlil qilish, ma'lumotlar bazasi bilan ishlash.

Funksional maqsadlar - talabalarni ma'lum ko'nikmalar va amaliy mahoratlarga o'rgatishga qaratilgan maqsadlar. Masalan:

- axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- pedagogik resurslarni tanlash va tuzish;
- multimedia elementlari orqali dars o'tkazish.

Shaxsiy rivojlantiruvchi maqsadlar - talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan maqsadlar. Bu maqsadlar - shaxsiy faollik, mustaqillik, tanqidiy fikrlash, innovatsion yondashuvni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Shu maqsadlar iyerarxiyasi orqali axborotli ta'lim muhitini yaratish va unda samarali faoliyat yuritish uchun kompleks yondashuv amalga oshiriladi. Bu iyerarxiya talabalarining ta'lim jarayonidagi ishtirokini maqsadli va tizimli tashkil etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти.: Пед.фан.докт. ... дисс. автореф. - Т.: 2007. - 37 б.
2. Mamatov D. va boshq. Elektron platforma tizimi va undan foydalanishni o'rganish. "Ilm ziyo zakovat" nashriyoti, Toshkent 2020 5 b.t. 5 b.t.
3. Farmonov O'N., Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining optimal yo'llari. // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – Toshkent, 2009. № 4. – B. 57-60.
4. Vagnoni E., Cavicchi C, (2015),"An exploratory study of sustainable development at Italian universities", International Journal of Sustainability in Higher Education, Vol. 16 Iss 2 pp. 217 - 236
5. Lozano R. (2006), "A tool for a Graphical Assessment of Sustainability in Universities (GASU)", Journal of Cleaner Production, Vol. 14 Nos 9/11, pp. 963-972.
6. Pardabaev J.E. "“STEAM” - Education as an innovative approach to the development of vocational training for students" // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852
7. Абрамова М.А., Кошеутова О.Л. Довузовская подготовка как компонент непрерывной системы образования // Вестник Нижневартовского государственного университета. 2016. №1. С.3–9.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Azatbaeva A.A.

Ajiniyoz nomidagi NDPI stajyor oqituvchisi

Tayanch so‘zlar: ijod, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, intellektual faoliyat, kognitiv motivatsiya, shaxsiy xususiyatlar, psixologik komponentlar.

Ключевые слова: творчество, креативность, творческая деятельность, интеллектуальная активность, когнитивная мотивация, личностные качества, психологические компоненты.

Key words: creativity, creative thinking, creative activity, intellectual activity, cognitive motivation, personal traits, psychological components.

РЕЗИОМЕ:

Ushbu maqolada falsafa, pedagogika va psixologiya sohasidagi turli olimlarning bolalarda, xususan, boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish muammosiga bo‘lgan qarashlari tahlil qilingan. “Ijodkorlik”, “ijodiy qobiliyat” tushunchalarini aniqlashga turlicha yondashuvlar berilgan, “ijodiy jarayon” tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, bolalar qobiliyatining rivojlanish darajasi, bolalar ijodining xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

РЕЗИОМЕ:

В данной статье проанализированы взгляды различных учёных в области философии, педагогики и психологии на проблему развития творческой деятельности у детей, в частности у младших школьников. Приведены различные подходы к определению понятий «творчество» и «творческие способности», раскрыта сущность понятия «творческий процесс». Также рассматриваются уровни развития способностей детей и особенности детского творчества.

SUMMARY:

This article analyzes the views of various scholars in the fields of philosophy, pedagogy, and psychology on the issue of developing creative activity in children, especially in primary school students. It presents different approaches to defining the concepts of “creativity” and “creative ability,” and explores the essence of the “creative process.” The article also discusses the levels of children’s ability development and the characteristics of children’s creativity.

Ijod muammosi uzoq vaqtdan buyon yetakchi fan arboblari o‘rtasida katta qiziqish uyg‘otib kelgan va shu paytgacha qizg‘in bahs va tortishuvlar mavzusi bo‘lib kelgan. Qadimgi falsafa davrida ijodkorlik Xudoga xos bo‘lgan faoliyat – koinotni yaratish harakati, insonga esa amaliy-bezak san‘ati, hunarmandchiligi sifatida qaralgan.



Qadimgi faylasuf Platon, “amaliy-bezak san’atning insonga nisbatan alohida harakatini, uning ichki dunyosiga bostirib kirish va faqat uning ta’siriga vaqtincha bo’ysunish, balki uning fe’l-atvori, ruhiy holatini o’zgartirish qobiliyatini ochib beradi” deb aytib o’tgan.

Aristotelning fikricha, “ijodning kelib chiqishi tabiiy uyg’unlik, ritm va taqlid qilish qobiliyatidir”. Faylasuf o’zining “Poetika” estetik qo’llanmasida “odamlar boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi, chunki ular hamma uchun yoqimli bo’lgan taqlidga juda moyil. Buning natijasi sifatida, biz buni amaliy-bezak san’ati yaratilishidan oldin boshdan kechirganimizdir [1]. Aristotel ijod deganda “amaliy-bezak san’ati asarini yaratish jarayoni”ni tushungan, shu bilan birga u taqlidni amaliy-bezak san’atining alohida belgisi deb hisoblagan.

Shunday qilib, qadimgi davr faylasuflarining mashhur asarlarini o’rganib chiqib, shuni ta’kidlash joizki, bu davr ijodda insonning yetuk namunalarini qayta yaratishga bo’lgan intilishini, ijodiy qobiliyat esa ilohiy xavotirga tushishi sifatida tushunilgan.

XIX–XX asrlarda psixologiyada yangi yo’nalish — ijod psixologiyasi shakllandi. A. Shopengauer va Z. Freyd ijodning manbaini ongsiz faoliyat bilan bog’lagan. A. Bergson ijodiy evolyutsiya g’oyasini ilgari surib, ijodni hayotning uzluksiz davom etuvchi ma’naviy rivojlanishi deb baholagan. Z. Freyd san’atni ruhiy kuchlarning erkin o’yini sifatida ko’rgan [2].

Mashhur nemis faylasufi I.Kant “ijodkorning donishmandi va uning tug’ma xislatlari” ijod konsepsiyasiga asos solgan. Uning fikricha, “donishmand-bu amaliy-bezak san’atiga qoida beradigan va o’z bilim qobiliyatlarini qo’llay olish qobiliyatiga ega bo’lgan odamning tabiiy qobiliyatining namunaviy xususiyatida aks etadigan qobiliyatdir” [3].

I.Kantdan farqli ravishda A.Shopengauer intellektual qobiliyatlarni ijodkor inson donishmandligining belgisi deb hisoblanadi. Mashhur fransuz yozuvchisi, publitsist va faylasuf L.Kamyu ijodni sabr va aniqlikning eng samarali maktabi sifatida ta’riflaydi. U ijodni rivojlantirish zarurligini ta’kidladi va ijodiy jarayon, uning fikricha, “kundalik mehnat, o’zini tuta bilish, haqiqat, o’lchov va kuch chegaralarini aniq baholashni talab qiladi” [4].

Ijod muammosi va uning protsessual jihati mahalliy va xorijiy psixologlarning ilmiy ishlarida ko’rib chiqilgan. V.M.Bexterev ijodkorlik deganda “oldingi kombinatsiyalar asosida yangi kombinatsion jarayonlar paydo bo’ladigan nerv markazlari faoliyati”ni tushungan [5]: “Ijodkorlik, obyektiv psixologiya nuqtayi nazaridan, birgalikdagi faoliyat natijasidir va ba’zi hollarda mavjud kombinatsiyalarga yangi, g’ayrioddiy kombinatsiyalar qo’shiladi; boshqa hollarda, oraliq bo’g’inlar birlashuvi natijasida tarbiyalangan yoki shakllangan



kombinatsiyalangan reflekslar zanjiridan chiqib ketadi-buning natijasida ikki ekstremal a'zo eng yaqin kombinatsiyada qoladi".

X.Gutmanning yozishicha: "Ijodiy faoliyatni tushunish uchun nafaqat fikrlash jarayonlarini, balki bu jarayonlarni yangi narsalarni ishlab chiqarish uchun harakatga keltiradigan dinamik kuchlarni ham hisobga olish kerak". U ijodni stimul-reaktiv usullar bilan o'z-o'zidan paydo bo'ladigan jarayon sifatida o'rganish masalalari bilan shug'ullangan [6].

Ilmiy adabiyotlarda, kundalik ongda bo'lgani kabi, ijod tushunchasi protsessual jihatdan (mexanizm) emas, balki uning natijasi (yangi mahsulotni yaratish) dan keng tarqalgan. Psixologlar bunday "ijodning yangisini yaratish mezoni bo'yicha aniqlash" ijodni faqat uning aks etishi bilan belgilash ekanligini tan oladilar, shu bilan birga uning tabiati va amalga oshirish mexanizmlari yo'qoladi. Ijod fenomenologiyasi juda keng va bir tekis bo'lib, ko'rib chiqilayotgan konsepsiyaning ilmiy farqi yo'qligi "ijod" ta'rifi inson faoliyatining deyarli har qanday jarayoniga qo'llanilishiga olib keladi. Hisobdan tashqari – bu juda avtomatlashtirilgan harakatlarning tor doirasi hisoblanadi.

S.I.Ojegovning lug'atida keltirilishicha, "ijod-yangi moddiy va madaniy qadriyatlarni yaratish". Rossiya pedagogik ensiklopediyasida o'quv jarayoniga nisbatan ijodkorlik "uning uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sifat jihatidan yangi qadriyatlarni yaratishga qaratilgan inson faoliyatining shakli" deb ta'riflanadi.

A.K.Spirkin yangilik va o'ziga xoslikdan tashqari, "ijod" tushunchasida subyektiv va obyektiv ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tgan. S.S.Goldentrisht ijodning insoniylik jihatini aytib o'tgan. Uning fikricha, ijodiy faoliyatning tabiati shaxsni ham, umuman jamiyatni ham rivojlantirishga hissa qo'shadigan yangi, progressiv bir narsani yaratishda namoyon bo'ladi.

Ijodiy jarayonning asosini shaxsiy boshlanish tashkil etadi va ijodiy shaxs shakllanishining muayyan bosqichi belgisidir. Ijodda inson o'zgaradi, o'zini yaratadi. Bunda ijodning asl mohiyati – shaxsning rivojlanishi va tarbiyasini rag'batlantirish qobiliyati namoyon bo'ladi.

Amerikalik psixologlar P.Torrens, D.Gilford ijodning ahamiyatini ijodiy jarayonning turli intellektual xususiyatlari majmui sifatida belgilaganlar. D.Gilfordning fikricha, insonning intellektual faoliyati ijodiy jarayon davomida faollashadi va "6 ta qobiliyatning paydo bo'lishiga to'g'ri keladi: analogiya va qarama-qarshiliklarning aniqligi, fikrlashning tiniqligi, bir obyektдан ikkinchisiga tez o'tish qobiliyati, og'zaki yoki vizual shaklga mo'ljallangan konturni berish qobiliyati, so'z birikmalarini tez tuza olish qobiliyati, moslashuvchanlik yoki o'ziga xoslik".



Shuni ham ta'kidlash joizki, D.Gilford badiiy va ilmiy ijodni bir-biridan ajratmaydi. Olimlar intellekt tuzilishining uch bosqichli modelini ishlab chiqdilar: birinchi daraja tafakkur operatsiyalarini o'z ichiga oladi – bilish, yodlash, fikr yuritish, baholash; ikkinchi daraja og'zaki va vizual xarakterdagi ishlatiladigan materialni o'z ichiga oladi; uchinchi daraja samarali tafakkur jarayonlaridan iborat.

J.Reznulli uch xususiyatga asoslangan ijodiy jarayonning eng mashhur modelini ishlab chiqdi-intellektual qobiliyat, ijodkorlik va qat'iylik (muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan motivatsiya). P.Torrens shu bilan birga, shunga o'xshash konsepsiyaga ijodiy qobiliyatlar, ijodiy layoqatlar va ijodiy motivatsiyani kiritishni taklif qiladi. Uch parametrning mavjudligi asos bo'lib hisoblanadi va yuqori natijalarga erishish shartini belgilaydi. Ijod, uning fikricha, “noaniq yoki to'liq bo'lmagan holda yuzaga keladigan qiyinchilikni bartaraf etish uchun insonning o'ta kuchli ehtiyojidan paydo bo'ladigan tabiiy jarayon”.

L.M.Matyushkin ijod konsepsiyasini motivatsion, intellektual va ijodiy omillar majmui sifatida ilgari surdi. Olim bu holda beshta strukturaviy qismni aniqladi:

1. Kognitiv motivatsiya (dominant rol);
2. Ijodiy va tadqiqotchilik faoliyati (yangilikni aniqlash, muammolarni shakllantirish va hal etish);
3. Yechimlarning xossalarini topish va unga erishish imkoniyati;
4. Kutish, bashorat qilish imkoniyatlari;
5. Yuksak intellektual, estetik, axloqiy qadriyatlarni ta'minlaydigan “ideal standartlar”ni yaratish qobiliyati.

Shuning uchun, ijodiy jarayonda mahalliy va xorijiy psixologlar ijodning asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatgan edilar, ularning o'zaro bog'liqligi muayyan faoliyatda o'quvchi bolaning ijodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Bu tarkibiy qismlarning komponentlari sifatida ijodiy qobiliyatlar, motivatsiya, ijodiy faoliyat ko'nikmalari, layoqatlar, intellektual, aqliy qobiliyatlar, shu bilan birga o'quvchining muayyan bir shaxsiga xos bo'lgan shaxsiy xususiyatlarini namoyon etadi.

L.F.Lazurskiy o'z tadqiqotlarida “ilhom o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki uzoq muddatli ijodiy mehnat jarayonida tug'iladi, shu mehnat tomonidan tayyorlanadi va mehnatga bog'liq bo'ladi” deb ta'kidlab o'tgan.

V.I.Andreev ta'kidlaganidek, so'nggi 50 yil ichida XXI asrda insonning ta'lim sifatini oshirish muammolariga qiziqish darajasi ortdi. Ijod nazariyasi va amaliyotini, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda inson taraqqiyoti va ijodiy o'z-



o‘zini rivojlantirishning tobora murakkab falsafiy, psixologik va pedagogik masalalarini hal etish uchun an‘anadan “post-klassik” paradigmalar, metodikalar va texnologiyalarga sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Pedagogikaning fan sifatida rivojlanish dinamikasi inson ongiga kiradigan boshqa fanlar bilan ko‘proq integratsiyalashuvida ko‘rinadigan bo‘ladi, bu esa uning rivojlanishining tubdan yangi darajasiga chiqishiga imkoniyat beradi [7].

V.I.Andreev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, uning fikricha, ko‘pchilik savodli odamlar orasida paydo bo‘ladigan ijodning soxta hodisasini tasvirlaydi. Ular uchun ijodkorlik-bu qobiliyatlarni rivojlantirishning eng yuqori darajasi, “tanlanganlarning taqdiri” bo‘lgan inson faoliyatining yetarlicha mashhur bo‘lmagan turidir. Chiziqli bir o‘lchovli determinizm nuqtayi nazaridan-ijodiylikka asoslangan intuitiv fikrlash, baxtli tasodif, vaqtinchalik tushuncha (Evrika) ga tushadi.

Ijod va ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish muammosini ko‘p o‘lchamli va shu bilan birga tizimli-subyektiv yondashuv metodologiyasi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishda bu hodisaning barcha yangi bilim va tushunchalari tasavvuf haqidagi tasavvurlarni oz-ozdan yo‘q qiladi.

V.I.Andreevning fikricha, “ijod-bu qarama-qarshilikni hal qilishga qaratilgan (ijodiy muammoni hal qilish) inson faoliyatining turlaridan biri bo‘lib, u obyektiv (moddiy, ijtimoiy) va subyektiv shaxsiy sharoitlarni (ko‘nikmalar, ijodiy qobiliyatlar, bilimlar) talab qiladi, uning natijasi o‘ziga xoslik va yangilik, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega, progressiv hisoblanadi” [7].

Shu bilan birga, ijodning ikki vektori mavjud: biri obyektiv faoliyatga, ikkinchisi esa shaxsning o‘ziga (o‘zini o‘zi anglash) qaratilgan.

V.I.Andreev ijodning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni belgilab o‘tgan:

- amaldagi ziddiyatlar, ijodiy vazifa, muammoli vaziyat;
- shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilik, progressivlik (shaxs va jamiyat taraqqiyotiga mablag‘ kiritish);
- ijod uchun obyektiv (moddiy, ijtimoiy) shart-sharoitlar, sharoitlarning mavjudligi;
- shaxsning subyektiv fazilatlari mavjudligi-insonning qobiliyatlari, bilimlari va ijobiy motivatsiyasi, ijodiy qobiliyatlari;
- jarayonlar, natijalarning originalligi va yangiligi.

“Ijodiy faollik” tushunchasining mohiyatini ochib berish uchun dastlab “faollik”ka ta‘rif berish, uning turlarini ko‘rib chiqish lozim.

Ko‘pgina tadqiqotchilar o‘zlarining ilmiy ishlarida ijodiy harakatlarning belgilari sifatida ongsizlik, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolish, iroda va ongning



bo'ysunmasligi, shu bilan birga, ong holatining o'zgarishi deb ko'rsatib o'tganlar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich maktab o'quvchilari ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar tizimli va ilmiy asosga ega bo'lishi zarur. Bu borada kognitiv motivatsiyani oshirish, interfaol metodlar qo'llash, ijodiy muhit yaratish hamda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Isaqova, R.Hasanov, B. Haydarov, A. Sulaymanov, S. Jumaniyazova, A. Roziqov. Su'wretlew o'neri Uliwma orta bilim beriw mektepleri 2-klasi ushin sabaqlıq. Qayta islangen ham toliqtirilgan besinshi basilimi / – T.: «Sholpan atındagi baspaxana-koncern doretiwshilik u'yı», 2018. – 124 b.
2. Бергсон А. Творческая эволюция. Перевод с французского Р. Осадчука. - М.: Издательство Жупанского, 2010. - С. 292-294
3. Шопенгауэр А. Мир как воля и представление. – Минск: Литература, 1998. – 1408 с.
4. Кант И. Сочинения: В 6 т. - М.: Мысль, 1966. - Т. 5. – 564 с.
5. Камю А. Творчество и свобода. - М.: Радуга, 1990. – 608 с
6. Бехтерев В.М. Объективная психология. - М.: Наука, 1991. – 475 с.
7. Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития / В.И. Андреев. – 2-е изд. — Казань: Центр инновационных технологий, 2000. – 567 с.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK METODLARIDAN FOYDALANISH

Kalendarova Z.K.

Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, ta'lim tizimi, qobiliyat, pedagogika, didaktik metodlar, natija.

Ключевые слова: воспитание молодого поколения, система образования, способности, педагогика, дидактические методы, результат.

Key words: education of the younger generation, education system, abilities, pedagogy, didactic methods, results.

РЕЗИЮМЕ:

O'qitishni tashkil qilishda o'quvchilarga bilim berish jarayonida didaktik metodlardan foydalanishning eng ahamiyatli jihatlarni o'rganish, tahlil qilish va samarali yo'llarini amaliyotga joriy etish. O'quvchi shaxsining axloqiy sifatлари, xususiyati va ularning qobiliyatlari, o'quvchi shaxsining individual xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish.

РЕЗИЮМЕ:

Изучить, проанализировать и применить на практике наиболее важные аспекты использования дидактических методов в процессе передачи знаний учащимся в организации образования. Изучить и проанализировать нравственные качества личности учащегося, особенности и их способности, индивидуальные особенности личности учащегося.

SUMMARY:

To study, analyze and put into practice the most important aspects of using didactic methods in the process of imparting knowledge to students in the organization of education. To study and analyze the moral qualities of the student's personality, characteristics and their abilities, individual characteristics of the student's personality.

Kirish. O'zbekistondagi strategik rivojlanish jarayonlari hozirgi kunda yuqori bilim, malaka va ko'nikmaga ega o'quvchilarni tayyorlashni taqozo qilmoqda. Ta'lim sifatini ko'tarishda o'quvchilarni ilm-fan taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shiddat bilan ro'y berayotgan barcha o'zgarishlar, xususan, O'zbekiston ta'lim tizimining butun jahon bilan integratsiyalashuvi fanlarni nazriy va amaliy asoslarining



takomillashishiga va o'z navbatida yangi atamalar va tushunchalar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar esa o'quvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan engil, chuqur va mustahkam egallashi uchun qulay sharoit yaratishi shubhasiz. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev **“Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”**, - deya haqqoniy ravishda ta'kidlaydilar. Ayniqsa, o'quvchilarning nazariy bilimlar bilan bir vaqtda, metodikaga xos fanlarni chuqur o'rganishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat metodik ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalarni aniqlashtirish va metodik ta'minotni ishlab chiqishni jadallashtirishni taqozo qilmoqda.

Albatta, pedagog olimlar va uslubchilar, ilg'or o'qituvchilar tomonidan o'quv-uslubiy tavsiyalar, adabiyotlar tayyorlanishi va chop ettirilishi borasida yutuqlarimiz mavjud. Jumladan, Respublika ta'lim markazi tomonidan bir qator qo'llanmalar yaratilib ta'lim muassasalariga yetkazilib berilmoqda. Ta'kidlash o'rinliki, boshlang'ich ta'lim uchun mutaxassislar yetkazib beruvchi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi umumkasbiy fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha kun tartibida turgan masalalar bisyor.

Umum ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirish uchun o'quvchilarda maktab ta'limidagi stereotiplarni qayta shakllantirish, ularni maktab ta'limiga moslashtirish, kognitiv faoliyatda yangi ko'nikmalarni talab qiladigan ta'limining xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Bunga erishish uchun deyarli barcha pedagoglarga ancha tanish va “o'rtoq” bo'lib qolgan pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga tatbiq etishni yanada jadallashtirish taqozo qilinadi. Jarayonning jadallashishiga to'siq bo'layotgan bir jihat mavjudki, bu pedagog-xodimlarda fanni o'qitishni metodik ta'minlashga e'tiborning sustligi, umum maktab ta'limida qo'llash uchun mo'ljallangan zamonaviy metodlar tasnifi va ularning mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratishga yetarli darajada ahamiyat berilmayotganligida ko'rinadi. Bundan boshlang'ich ta'lim fanlarini metodik ta'minlash masalasi ham mustasno emas.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada didaktika metodologiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga (Yu.K.Babanskiy, V.G.Kostomarov, V.V.Kraevskiy, I.YA. Lerner, I.T.Ogorodnikov, **A.V.Tekuchev**, **L.A.Murina** va b.), o'quv jarayonini modellashtirish va uni faollashtirishning didaktikasiga bag'ishlangan



ishlarga (A.M.Matyushkin, T.V. Kudryavsev, M.I. Maxmutov, I.YA. Lerner, M.M.Levi, B.P.Bespalko, T.I.Shamova va b.), individual o'qitishni takomillashtirishga doir nazariy qarashlarga (A.A.Verbitskiy, E.M.Vereshagin, M.N.Vyatyutnev, A.A.Leontev, M.M.Levina va b.), xususiy mualliflik metodikalarga (A.G'ulomov, Sh.Yusupova, T.Ziyodova) tayanildi. Shuningdek, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha qator xorijiy tadqiqotchilarning ishlaridan (U.Gordon, Ya.A.Komenskiy, D.Ozbel) foydalanildi.

O'zbekistonda ta'lim jarayoniga tatbiq qilinayotgan zamonaviy metod va usullarning ilmiy-metodik asoslari bir qancha metodist olimlar – A.G'ulomov, A.Ne'matov, M.Saidov, M.Mahmudov, Sh.Yusupova, T.Ziyodovalar tomonidan tadqiq qilindi va ularning tavsiyalari asosida yaratilgan darslik va qo'llanmalar, ilmiy-metodik maqolalar Respublika miqyosida ommalashtirilmoqda, o'qituvchilar tomonidan foydalanilmoqda.

Ma'lumki, o'quvchilarni faollashtirishga yo'naltirish maktablarda kasbiy ta'limni qayta qurish strategiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanmog'i zarur. Faol o'rganish, birinchi navbatda, faol deb ataladigan zamonaviy shakllar, o'qitish usullari va vositalaridir. O'quv jarayonlarini faollashtirishda asosan texnik vositalardan integrallashgan va maqsadli foydalanish katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy usullar barcha turdagi sinf mashg'ulotlarini qamrab olsagina o'quvchilarning faol o'rganilishini shakllantirish – bilim faolligini rivojlantirish vositalaridan biriga aylanadi. Bu borada A.M.Matyushkin, T.V. Kudryavsev, M.I. Maxmutov, I.YA. Lerner, M.M.Levi kabi olimlarning muammoli o'qitish, faol o'qitish metodlarini rivojlantirishga doir tadqiqotlari muhim hissa bo'lib qo'shildi. Ma'lumki, zamonaviy metodlar bo'yicha ilmiy izlanishlar asosan maktab ta'limi asosida olib borilgan va bu jarayon jadal olib borilmoqda. Aksariyat hollarda faol metodlarni ta'limda tatbiq qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelar edi. Chunki zamonaviy metodlar nazariyasining ta'lim jarayoniga muvofiqlashishi talab qilinar edi. Ta'kidlash o'rinliki, A.M. Matyushkin o'z ishlarida zamonaviy metodlarni o'quvchilar bilan olib boriladigan barcha turdagi o'quv faoliyatida qo'llash zaruriyatini dalillabgina qolmasdan, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatida dialogik muammoli o'qitish tushunchasi mohiyatini yoritib berdi. Zamonaviy metodlar dasturlashtirilgan ta'lim, muammoli ta'lim, interaktiv (kommunikativ) ta'limda yaqqol namoyon bo'ladi. Alohida ta'kidlash o'rinliki, dars jarayonida o'qituvchining mavzuni o'zi gapirib berishi yoki allaqachon ma'lum bo'lgan haqiqatni kitobdan o'qib berishiga taqqoslaganda yuqorida sanalgan ta'lim turlarida o'qituvchining juda faolligi va ijodkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.



Metodologiya. Bir guruh olimlar (S.I.Petrovskiy, E.YA.Golant) ta'lim metodlarini bilim olish manbasiga qarab, og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metodlarga bo'lsalar, ikkinchi guruhdagi olimlar (M.A.Danilov, B.P.Esipov) ma'lum tipdagi darslarda bajaraladigan o'quv vazifasidan kelib chiqib, bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, egallangan bilimlarni mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni tekshirish va baholash kabi metodlarga bo'ladilar.

yu.Babanskiy esa ta'lim metodlarini uch katta guruhga ajratadi:

1. O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish metodlari.
2. O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rag'batlantirish metodlari.
3. O'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini nazorat qilish metodlari.

To'rtinchi guruh olimlar (M.N.Skatkin, I.YA.Lerner) bilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim metodlarini:

- tushuntirish-namoyish etish metodi;
- qayta xotirlash metodi;
- muammoli bayon metodi;
- qisman izlanuvchanlik metodi;
- tadqiqot (izlanuvchalik, ijodiylik) metodi kabilarga ajratadi.

Ta'lim meodlarining M.N.Skatkin, I.YA.Lerner tomonidan taklif etilgan ushbu tasnifi o'quvchilarning fikrlash faoliyatida tadqiqotchilik va muammoli vaziyat borligi bilan ajralib turadi. Mazkur tasnif o'qitishning tabiatiga ham ancha mos tushadi. Shu sababli M.N.Skatkin, I.YA.Lerner tasnifiga kengroq to'xtalamiz.

1. Tushuntirish-namoyish etish metodi. O'qituvchi tomonidan bilimlar tayyor holda beriladi. Pedagogikaning qonun-qoidalari o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi va uni mustahkamlash maqsadida misollar keltiriladi. O'quvchilar bayon qilinayotgan bilimlarni tinglaydilar va xotirada saqlashga harakat qiladilar.

2. Muammoli bayon qilish metodi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi va ularning mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash orqali bu muammoni hal qilishga kirishadi. Ta'limning bu metodi o'quvchilar tomonidan o'quv materialining o'qituvchi rahbarligida mustaqil tahlil etilishi, kuzatilishi, guruhlanishi, umumlashtirilishi bilan ajralib turadi.

3. Qayta xotirlash metodi. Bu metodning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi o'quv topshirig'ini egallangan bilimlarga asoslangan holda yoki berilgan namunaga qarab bajaradi. O'quvchi muayyan andaza asosida harakat qiladi.



4. Qisman izlanuvchanlik metodi. Ta'limning bu metodi shu bilan ajralib turadiki, o'quvchi dars jarayonida ma'lum o'quv muammosini qo'yadi, ammo uni mustaqil hal qilish yo'llarini ko'rsatmaydi. Har bir o'quvchi muammoni mustaqil hal qilish uchun o'zicha izlanadi. Ammo qiyinchilik tug'ilganda unga yordam ko'rsatiladi. O'quvchi bu yordamni o'qituvchining tushuntirishidan, o'quvchilarning o'zaro suhbatidan yoki darslikdan olishlari mumkin. Topshiriqni bajarish jarayonida olinadigan yordam metodni qisman ijodiy qilib qo'yadi.

5. Tadqiqot (ijodiylik metodi.) Bu metod o'quvchidan to'la ijodiylikni talab qiladi. YAngi bilimlar olish maqsadida o'qituvchi o'zi masala tuzish va uni to'la ravishda hal qilish yo'llarini izlaydi. O'qituvchi tomonidan beriladigan ijodiy-amaliy topshiriqlar ham hech qanday yordamsiz yoki namunaga asoslanmagan holda bajariladi.

Mazkur tasnifning ustunligi shundaki, o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich faollashtirish nazarda tutilgan hamda unda o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'quv faoliyati tarkibida tadqiqotchilik unsurlari bo'lishi zarurligiga e'tibor berilgan.

Yuqorida berilgan tasniflar ta'limning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqib, barcha fanlarni o'qitishga bevosita aloqador metodlar sanaladi.

Xususiylar, shu jumladan, pedagogik mahorat fani ham o'qitishning barcha masalalari qatori ta'lim metodlarini tanlashda umumdidaktik sistemaga asoslansa-da, ammo uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan metodlari ham mavjud.

Ta'lim metodlari kam o'rganilgan masalalardan biridir. Metodist H.Rustamov bilimlarni olish manbaidan kelib chiqib, o'qitish metodlarini quyidagicha tasniflaydi:

- o'qituvchining bayoni;
- suhbat;
- til hodisalarini kuzatish va tahlil qilish;
- grammatik tahlil;
- darslik ustida ishlash;
- ko'rgazmali qurollardan foydalanish;
- sayohat.

Bu metodlar, birinchidan, qayta xotirlashga asoslangan metodlar bo'lib, ular o'qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarni o'stirishga to'la muvofiq kelmaydi. Bu metodlarda, asosan, o'qituvchi faoliyati nazarda tutilgan; ta'lim jarayonining sub'ekti sanalgan o'quvchi e'tibordan chetda qolgan. Mazkur tasnifda o'quvchilarda izlanuvchanlikni shakllantirishga xizmat qiladigan muammoli



bayon, qisman izlanuvchanlik, tadqiqot (izlanuvchanlik) metodlari tamoman o'z echimini topmay qolgan.

Ma'lumki, dars ikki tomonlama jarayon bo'lib, unda o'qituvchi ham o'quvchi ham faol ishtirok etadi. SHuning uchun o'qitish metodlarini tasnif qilishda nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchi faoliyati ham asos bo'lib xizmat qilmog'i lozim.

Natijalar. O'qitishni tashkil qilishda didaktik metodlaridan foydalanish jarayonida o'quvchilarning bilish qobiliyatini shakillantirish o'quv muassasalarida o'quvchilar uchun maxsus bilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o'quv darslari joriy qilindi. Mazkur model 9 bo'limdan iborat bo'lib har bir bo'limni izohlab berildi, video darsliklar orqali o'quvchilarga yangi inovatsion texnologiyalar orqali o'qitish metodikalari rivojlangan davrda, butun-jahon bilimlarini OAV shu bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalmoqda, shuningdek o'quvchilarga ijtimoiy tarmoqlar odobi va undan qanday qilib to'g'ri foydalanish mumkin ekanligi haqida bir qator o'quv ishlari olib borildi.

Loyiha darslarida o'quvchilarga ijodkorlik sa'natidan sir sinoatlar o'rgatilib, ulardagi kreativlik va mustaqillikni kuchaytiradi. Sayohat darslarining ham o'ziga yarasha bir qancha avzalliklari mavjud bo'lib, o'quvchilar ekskursiya vaqtida nafaqat nazariy balki amaliy bilim ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi. Ushbu darsliklar o'quvchilarda olamni bilishga va umuman qiziqish qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Hozirgi kunda keng joriy qilinayotgan o'quv darsliklarini ham bir qator yangilagan holda, innovatsion yo'ndashuv asosida va fantaziyani ishga slogan holda bir qator yangilanishi, shuningdek yangi texnologiyalar yordamida yangi bilimlarga boy audio maruzalar, ertak va logic topishmoqlar bilan boyitish maqsadga muvofiq bo'ladi. Keyingi bo'limlarimiz turnir va dumaloq stol atrofidagi yig'ilishlar, nafaqat bilish qobiliyati balki ularda tanqid qilish qobiliyatini ham shakillantiradi. Har qanday ilm tafakkurdan boshlanadi deb bejizga aytishmaganidek, bolalarda tafakkur darslari mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishiga ishongan holda tadqiqot ishimizning modeliga ushbu bo'lim joriy etildi.

Boshlang'ichsinflardata'limsamaradorliginiyanadaoshirish o'quvchilarning o'quv fanlarining boshlang'ich asoslarini puxta o'zlashtirishi bilan belgilanadi. Uzluksiz ta'lim tizimining ushbu bosqichida o'quvchilarga fan va uning asoslari haqidagi bilimlarning muayyan tizim asosida berilishi, o'quv faoliyatining o'quvchilar faolligi, mustaqilligiga asoslanishi o'quvchilarda fanni bilishga bo'lgan qiziqishni yanada shakllantiradi. Ta'lim jarayoni sharoitlarida ma'lum ob'ekt, hodisa va jarayonni kuzatish, kichik amaliy tajribalarni tashkil etish



kabi metodlar bilan boyitilishi o'quvchilarda shakllangan qiziqish qobiliyatini oshiradi va uning barqaror xususiyat kasb etishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida bilimlarning o'qitilish holatini o'rganish va tahlil etish bu jarayonda bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Muammolarning sabablari quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining aksariyati o'quv jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, texnologik va kompetentsiyali yondashuv ko'nikmalariga, pedagogik texnologiyalar va didaktik metodlar o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish to'g'risidagi metodik majmualarga ega emasliklari;

- zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'quvchilarni tayyorlashga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarning to'liq yaratilmaganligi;

- o'qituvchilar uchun mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha yangi avlod o'quv-metodik materiallarining, xususan, interfaol o'quv majmualarining yetarli emasligi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini mustaqil ishlarni tashkil etish asosida shakllantirishga hamda ijodiy faolligini oshirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi;

- o'quv materialining mazmuni rivojlantiruvchi o'qitish tamoyilini amalga oshirishni to'liq ta'minlanmaganligi hamda muammoli topshiriqlar soni yetarli emasligi;

- o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muassasalarda o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun texnik vositalarining yetarli emasligi;

- o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda mustaqil ishlarni tashkil etish asosida shakllantirishning ilmiy-uslubiy ishlarning ishlab chiqilmaganligi va boshqalar.

Chet el tajribasini o'rganar ekanmiz, o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining emotsiyalar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan ekanligi ma'lum bo'lgan. Yaponiya o'zining "Sudzuki" metodi bilan mashxur bo'lib uning asosi o'quvchi bilan shug'ullanish qancha vaqtli boshlansa natijasi ham shuncha samarali bo'lganligi ko'rsatib berilgan. Yaponiyaning tarbiyadagi asosiy maqsadi butun bir kollektiv ichida erkin ishlay oladigan o'quvchini shakllantira olishdir. Undan tashqari ilmiy salohiyati bor o'quvchilar uchun maxsus "Tokyo Children's Academy" akademiyasining yaratilishi o'quvchilarga kuchli motiv bo'lib xizmat qilyabdi.



Muhokama va xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga oid davlat talablari asosida har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, o'quvchilarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish, ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash hamda ularga bilim berishda kompetentsiyaviy yondashuv bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

O'quvchilarga ta'lim berishda mazkur yondashuv o'sib borayotgan shaxsni hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni mustaqil hal qilish uchun zarur bo'lgan, ahloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, faoliyat metodlarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish qobiliyatlarini mustaqil ishlarni tashkil etishda zamonaviy ta'lim metodikasi va metodik imkoniyatlaridan unumli foydalanishning nazariy-amaliy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida aytib o'tilgan muammolarni hal etishda, xususan, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, mustaqil ishlarni tashkil etish asosida shakllantirish uchun mashg'ulotlarni zamonaviy tashkil etish va o'tkazishning metodik asoslarini chuqur o'rganib, tahlil etgan holda tegishli uslubiy tavsiyalar, interfaol ishlanmalar ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy etish vazifasi aniqlandi.

Bilish jarayonlari va uning bosqichlari sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkurdan iborat ekanligini hisobga olib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ishlarni samarali tashkil etish metodikasi, shakllari, metodlari zaruriy darajada qo'llanilmaydi hamda o'quv jarayonining o'quv-uslubiy ta'minotini yaratishga oid ilmiy-uslubiy tadqiqot ishlari juda kam degan xulosaga kelindi.

Xulosa qilib aytganimizda chuqur izlanishlar natijasida ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirish boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda didaktik metodlardan foydalanish, o'z ustida muntazam ishlashni, zamonaviy o'qitish metodlaridan xabardor bo'lish kabi vazifalarni talab etish aniqlandi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish qobiliyatlarini mustaqil va amaliy ishlarni tashkil etish asosida shakllantirishda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712 Фармони.



2. Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълими тизими-га бошқаришнинг янги принципларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-3931-сон қарори.

3. Вази́рлар Маҳкамаси томонидан 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ху-на́р таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сон қарори.

4. А.В.Хуторской. Ключевые компетенции как компонент личностно-образовательной парадигмы образования [Текст] / А.В. Хуторской// Народное образование. - 2003. - № 5.- С. 58-64.

5. М.Б.Гурьянованинг «Развитие познавательных способностей у обучающихся младшего школьного возраста.», 09.05.2017 МБОУ «СОШ №1 г. Петровска Саратовской области»

6. И.А.Зимняя. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. - М: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. - 2004.в

7. К.Азизова. Бошлангич синфда интерфаол методлардан фойдаланиш. Замонавий ўзлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар. Халқаро илмий конференция. - Тошкент: - 2018. - Б.76.

8. Наука и реальность / Science & reality no 4(8)•2021 94 удк 373.31., формирование познавательных способностей младших школьников., Кукубаева А.Х., Садуақасова А.Б. Кокшетауский университет им. Абая Мырзахметова (г. Кокшетау, Республика Казахстан)

9. О.А.Қўйсинов. Мустақил таълим олиш жараёнида ўқувчиларнинг ижодий тафаккурларини шакллантириш. / Таълим жараёнида мустақил тафаккур ривожланиши: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2005. - Б.98- 99.

10. С.И.Константинова. Формирование учебно-познавательной компетентности у учащихся старшей профильной школы: автореф. дис. канд. пед. наук / С.И. Константинова. - СПб., 2006. - 22 с.

11. Ю.В.Пестерева. Реализация компетентностного подхода в процессе построения содержания образования в начальной школе: дис. канд. пед. наук: 13.00.01/ Пестерева Юлия Владимировна. - Майкоп, 2001. 198 с.

12. Kalendarova Z.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi kompetentsiyalarini shakllantirish.“Maktabgacha ta’lim: xalkaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar”. – Toshkent, 2021. 27-may. B. – 104 -106 b.

13. Z.K.Kalendarova. Boshlang’ich ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o’quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. International scientific journal “Interpretation and researches” Volume 2 issue 22 (44) | ISSN: 2181-4163 | Impact Factor: 8.2

15. Z.K.Kalendarova. Integratsiya negizida boshlang’ich sinf o’quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. // European science international conference: Analysis of modern science and innovation. international scientific journal. ISSN:2181-4163. Impact factor:8.2. European science international conference:189-195 bet, 2024.

16. Baxtiyarova Nafisa. (2024). Boshlang’ich ta’limda matematik bilimlar berish va o’quvchilar tarbiyasini uzviy ravishda tashkil etish. University Research Base, 152–155. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/61>. More Citation Formats. Baxtiyarova Nafisa. “Boshlang’ich ta’limda matematik bilimlar berish va o’quvchilar tarbiyasini uzviy ravishda tashkil etish”. University Research Base, Apr. 2024, pp. 152-5, <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/61>.



XALQ PEDAGOGIKASI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KREATIV QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH

Fayzullaeva O.M.

Nukus DPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Tayanch so'zlar: xalq pedagogikasi, maktabgacha ta'lim, kreativ qobiliyat, ijodiy fikrlash, rivojlantirish, usullar, vositalar, tamoyillar.

Ключевые слова: народная педагогика, дошкольное образование, творческие способности, творческое мышление, развитие, методы, средства, принципы.

Key words: folk pedagogy, preschool education, creative abilities, creative thinking, development, methods, means, principles.

PEZIOME:

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning xalq pedagogikasi asosida kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari, shuningdek, xalq pedagogikasidagi bolalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish oid usullar, vositalar va tamoyillar talqin etilgan.

PEZIOME:

V данной статье рассматриваются вопросы развития творческих способностей детей дошкольного возраста на основе народной педагогики, а также методы, средства и принципы развития творческих способностей детей в народной педагогике.

SUMMARY:

This article examines the development of creative abilities of preschool children based on folk pedagogy, as well as methods, means and principles of developing creative abilities of children in folk pedagogy.

Kirish. Jahon tsivilizatsiyasi darajasiga intilayotgan har qanday davlat yoki xalqning asosiy quroli yosh avlodning milliy ma'naviy qadriyatlar asosida har tomonloma tarbiyalanishini ta'minlashdan iborat. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan eng muhim maqsad ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmunida yosh avlodning kreativ qobiliyatini rivojlantirish, shu asosda ularda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishdan iborat. Shuning uchun bugungi kunda davlatimizda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya tizimiga yangi islohotlar kiritishda xalq pedagogikasi manbalaridan foydalanish juda muhimdir.



Xalq pedagogikasi – xalq ijodiyotining ajralmas qismi bo‘lib, u xalqning fikr va intilishlarini o‘zida mujassam etgan va ularning dunyoqarashi, shaxs, oila, yoshlar tarbiyasi haqidagi g‘oyalarini o‘zida aks ettiradi. Xalq pedagogikasi namunalaridan foydalanib, bolalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini har tomonloma ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga bog‘liq yondashuvlar xalq pedagogikasida ko‘plab namunalar mavjud. Shu bois xalq pedagogikasida jamlangan xalqimizning ko‘p asrlar davomida to‘plagan pedagogik bilimlari, hikmatlari va hayotiy tajribalarini maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida olib boriladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar talqini. Ko‘pgina psixologlar, pedagoglar V.G. Belinskiy, M.K. Bogolyubskaya, E.N. Vodovozova, L.S. Vygotskiy, A.Avloniy va hokozalar hamda folklorshunos olimlar V.F.Anikin, A.F. Afanasyev, M.A. Bulatov va boshqalar xalq pedagogikasi keng turda tadqiq etib, uning bolalar har tomonloma rivojlanishida katta ahamiyatga ega deb hisoblagan. Shuningdek, zamonaviy pedagogikada xalq pedagogikasi namunalari foydalanish bolalarning kreativ tafakkuri va tasavvurlarini rivojlantirish vositasi sifatida e‘tirof etadi hamda xalq pedagogikasi asosida tarbiyalangan bolalarning kreativ qobiliyatlari yuqori darajada shakllanganligi ta‘kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirish muammosi ko‘pgina pedagog va tadqiqotchilarni qiziqtirgan muammo sifatida uzoq yillardan buyon o‘rganilib kelinmoqda. Boshqa qobiliyatlar singari kreativlik ham birdaniga rivojlanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil va ketma-ketlikda shakllanib boradi. Bolaning kreativ qobiliyati uning tafakkurida, layohatligida, muloqotida, his-tuyg‘ularida va muayyan faoliyat turlarini bajarishida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishi uchun eng samarali davr bo‘lib, psixik jarayonlar progressiv o‘zgarishlar kechadi va shaxsiy fazilatlar tez rivojlanadi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida ijodni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, kommunikativ, amaliy o‘yinlar yordamida amalga oshadi [1].

Aynan xalq pedagogikasi manbalarida aks etgan topishmoqlar, ertaklar, maqollar, tez aytishlar, o‘yinlar va bolalar qo‘shiqlari aynan maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan. Jumladan, topishmoqlarni oladigan bo‘lsak, topishmoqlar noyob hodisa sifatida yaratilishi nuqtayi nazardan xalq pedagogikasining qadimgi davrlariga borib taqaladi. Topishmoqlar bolaning ongi, tafakkuri, mantiqiy fikirlashini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini tadqiq qilgan olimlarning kuzatuvlarida kreaativ fikirlash qobiliyatlarini ta‘lim-



tarbiya bilan bog'liq holda o'rgangan. Ayniqsa psixolog olim D.B.Elkoninning [2] ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida tahlil qilish, refleksiya, rejalashtirish, mehnat faolyati nazaryasi va subekti masalalari asosida bolalarning kreativ qobilyatini rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Demak, xalq pedagogikasi namunalaridagi ta'lim-tarbiyaviy qarashlar bolaning psixik rivojlanish jarayonlarini harakatga keltiradi, hayotiy tajribalarini oshiradi, kreativ qobilyatini shakllantiradi va turli mashg'ulotlarni bajarishda har tomonlama taxlil qilish, izlanish ko'nikmasini takomillashtiradi. Jumladan, *“Dengizi bor, suvi yo'q, Yo'llari bor, izi yo'q. (xarita), “ Oqdir dalasi, Qoradir urug'i, Qo'l bilan ekiladi, Til bilan o'riladi. (kitob), “Qo'lga olib tutulmas, Do'konlarda sotilmas. Ba'zilar juda ko'p, Ba'zilar topilmas” (aqil)* kabi topishmoqlar bolalarda mantiqiy fikirlash orqali kreativ qobilyatni rivojlantiradi.

Aynan xalq pedagogikasi asosida berilgan ta'lim-tarbiya bolaning xulq-atvorining poydevorini mustakkamlaydi va uning atrofdagi dunyoga yangicha munosabatini shakllantiradi. Bola o'z harakatlarini kattalarga qarab amalga oshiradi. Ularning harakatlarini syujetli o'yinlar orqali takrorlaydi. Bola o'yin faoliyati orqali muhit, oilaviy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarni hamda jamiyatgi ijtimoiy voqealiklar haqidagi tasavvurlarni o'zlarida shakllantiradi

Xalq pedagogikasi namunalari jamlangan manbalar beba xazinadir. Xalq pedagogikasida bolaning kreativ, kognitiv faolligi, shaxsiy individualligini uyg'otish, nutq qobiliyatlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

O'z navbatida, ota-onalar maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ qobiliyatlarning rivojlantirish uchun qanday shart-sharoitlarni shakllantirish kerakligi haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Oila davrasida suhbatlar, xalq og'zaki ijodiyoti, oilaviy bayramlar va an'analar bolalarning kreativ qiziqishni kuchayttiradi.

Turli ko'rinishlarga ega bo'lgan xalq pedagogikasi orqali bola atrof-muhit haqida tasavvurga ega bo'ladi va o'z harakatlarini rivojlantiradi, ongi, tafakkuri, aqliy, jismoniy va axloqiy fazilatlarini takomillashadi. . Kelajak hayoti uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallashida imkon beradi. Bolalarning hayotni chuqur anglashlari kattalar tomonidan tashkil etilgan faoliyat orqali osonlashadi.

b

Ammo bugungi zamonaviy davrda ta'lim-tarbiya o'zining avvalgi ahamiyatini yo'qotmoqda. Axloqiy munosabatlar, kattalarga hurmat, bolalarga g'amxo'rlik, kreativ rivojlantirish sust darajada. Mazkur muammo echimini xalq pedagogikasi manbalari asosida yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Chunki yosh avlod bilimining teranligi, serqirra iqtidori xalqimizning kelajagi, binobarin, kelajak avlodni har tomonloma kreativlikka tarbiyalash asosiy vazifalardan bo'lishi zarur.



Bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, agar u maqsadli jarayon bo'lsa, u yakuniy maqsadga erishishga qaratilgan bir qator aniq pedagogik vazifalar hal etilganda samarali bo'ladi.

N.A. Vetlugina bolalarning kreativligini asoslab, o'z asarlarida nazariy va eksperimental ravishda bu jarayonlar qarama-qarshi emas, balki bir-biriga chambarchas ta'sir qilishini va bir-biriga boyitishini isbotladi.

Xalq pedagogikasi bolalarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda bir qancha zarurliklarni amalga oshiradi. Jumladan,

- bolaga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatish;
- bolani majoziy fikrlashga o'rgatish;
- axloqiy fazilatlarni shakllantirish;
- ajdodlar tajribasi asosida mehnat faoliyatida kreativ qobiliyatini rivojlantirish.

Haqiqatan ham xalq pedagogikasi mazmuni jihatidan bolaning ma'naviy kamoloti, axloqiy tuyg'ularini shakllantirishga faol hissa qo'shadi. Uning manbalari bolaning kreativ qobiliyati bilan birga Vatanga muhabbat, tevarakatrofni ko'ra bilish, anglash qobiliyatini ham tarkib toptiradi. Aksariyat xalq pedagogikasining mazmunini tabiatdan - yerdan, o'rmondan, o'tdan, suvdan va quyoshdan, odamlar sevadigan va qadrlaydigan barcha tirik mavjudotlardan olingan manbalar tashkil etadi.

Xalq pedagogikasi bolalarning badiiy tarbiyasiga hissa qo'shadi, chunki u bezak san'atining barcha maxsus qonunlari - simmetriya va ritmga asoslanadi. U bolalarning idrok etishi uchun tushunarli bo'lgan tarkibni o'z ichiga oladi, bolaga atrofda dunyoning go'zalligi va jozibasini aniq, sodda, qisqacha ochib beradi.

Bundan tashqari xalq pedagogikasi maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda bir qancha vazifalarni bajaradi.

- har bir bolaning tabiiy qobiliyatini rivojlantirishlash;
- ota-onalar va tarbiyachilarga bolaning kreativ salohiyatini oshirishda hamkorlik qilish;
- bolaning innovatsion innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maxsus mashqlar tashkil etish;

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning innovatsion jamoalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday jamoalarni shakllantirish asosida ta'lim usullari yangilanadi hamda har bir bolaning faolligi va kreativligini oshirishda xalq pedagogikasi namunalariidan foydalanish yo'liga qo'yiladi.

- turli xil aqliy o'yinlar;
- aqliy hujum;
- tez aytishlar aytish;
- boshqotirmalarni yechish;
- ertaklarni tahlil qilish;



- tafakkurni chorlash va hakoza.

Xalq pedagogikasiga tayangan holda ko'rsatilgan pedagogik ta'sir shaxsiy sifatlarga va ijtimoiy xarakterga ta'sir qiladi. Bu bolalarning qobiliyatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Ularning muloqoti va nutqini tahlil qilganda, kreativ qobiliyatning ilk shakllarini kuzatish mumkin. Ayniqsa, o'yinlar, ertaklar, qo'shiqlar, topishmoqlar va hakoza xalq pedagogikasi namunalaridan bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'yinlar: Xalq o'yinlari bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki ular kreativ tafakkur va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi. "Qoraqul", "Beshqozon", "Kichik usta" kabi o'yinlar bolalarga muammoni yechish, guruhda ishlash va yangi g'oyalarni yaratish imkoniyatini yaratadi. O'yinlar bolalarga vaqtni samarali o'tkazish, aqlni chayxlash imkonini yaratadi.

Ertaklar: Xalq ertaklari bolalarning tasavvurini kengaytirishga va ularning ijodiy fikrlashiga yordam beradi. Bolalar turli xil ertaklarini tinglab, ular asosidagi tasvirlarni yaratishga harakat qiladi. Bu jarayon bolalarning tasavvurini yanada kehgayttiradi, tasavvur qilish va ijodiy muammolarni hal qilishda samarali metodlarni o'rganishlariga yordam beradi. Ertaklar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shu bois, rus pedagogi K.D. Ushinskiy, birinchi tarbiyachi – bu xalq, xalq ertaklari esa xalq pedagogikasini yaratishning ilik harakatidir. deb ta'kidlagan edi.

Xalq pedagogikasi usullari bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo'llanilishi kerak Xalq o'yinlari va ertaklari bolalarga muammoni yechishda yangi yondashuvlarni topishga yordam berdi, bu esa ularga ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish imkoniyatini yaratdi.

Xulosa. Xalq pedagogikasi asosidagi ta'lim usullari maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv ularning ijodiy tafakkurini, muloqot ko'nikmalarini va tasavvur doirasini kengaytirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'limda xalq pedagogikasidan keng foydalanish orqali bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini yanada yuqori darajaga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshpo'latova I.U. "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kreativ kompetensiyasini rivojlantirish usullari va metodikasi" // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. file:///C:/Users/User/Downloads/Ilm-fan+3302%20(1).pdf

2. Эльконин. Д. Б. Детская психология: учеб. пособие. М.: 2007. - 384 с.



DASTURLASHNING SODDA ELEMENTLARINI KIRITISH ORQALI ALGEBRAIK MATERIALLARNI O'RGATISH METODIKASI

Davlatova M.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Boshlang'ich ta'limda matematika va tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: boshlang'ich, matematika, algebra elementlari, dasturlash elementlari, algaritm, jadvallar, sxemalar.

Ключевые слова: начальное образование, математика, элементы алгебры, элементы программирования, алгоритмы, таблицы, схемы.

Key words: primary education, mathematics, elements of algebra, elements of programming, algorithms, tables, diagrams.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada dasturlashning sodda elementlarini kiritish orqali algebraik materiallarni o'rgatish metodikasi yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье описывается методика преподавания алгебраических материалов путем введения простых элементов программирования.

SUMMARY:

This article describes a method for teaching algebraic materials by introducing simple programming elements.

Boshlang'ich sinflarda algebra elementlarini o'rganish samarasi yuqori bo'lishi uchun pedagogik mahoratga va chuqur bilimga ega boshlang'ich ta'lim mutaxassisi jarayonning qaysi qismida ta'lim texnologiyalariga murojaat etish zarurligini yaxshi biladi. Hamda ta'lim texnologiyalarining har xil turlaridan unumli foydalanadi. Bu esa matematika darslarida o'quvchilarning algebra elementlari haqida bilimlarini puxta egallashda mustahkam poydevori bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlangan so'zlarning qisqa xulosasi sifatida aytish kerakki, umumta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inida matematika darslarida ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish o'quvchilarning bilimi mustahkam bo'lishida katta yordam beradi. Bundan tashqari matematika darslarida o'quvchilarda algebra elementlari borasidagi bilimlarni chuqurroq gallash, yanada takomillashtirishda juda samaradordir. Faqatgina fan yuzasidan bilim berayotgan o'qituvchi dars mashg'ulotlarini qaysi qismida qaysi ta'lim texnologiyasini qo'llash o'rinli bo'lishi, qo'llash natijada qanday samaraga erishish mumkinligini oldindan ko'ra olishi juda muhimdir.



Algebraik materiallarni o'rgatish jarayonida dasturlashning elementi bo'lgan algoritmlardan foydalanish o'quvchini mantiqan fikrlashga undaydi. Oddiy arifmetik amallarni bajarishdan ko'ra grafiklar, jadvallar, sxemalar, algoritmlar bilan ishlash o'quvchi uchun qiziqarliroqdir. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi 4-sinf matematika darsligida berilgan algoritm ko'rinishidagi topshiriqlarni ko'rib chiqamiz(1- rasm) [3].

1-misol. 1- rasmdagi jadvalni algoritm yordamida to'ldiring.


Yechish: x ning berilgan qiymatlarini algoritmga qo'yib, arifmetik amallarni bajaramiz.

1. Tanlangan songa 32 443 sonini qo'shamiz.

2. Agar yig'indi 9 ga karrali bo'lsa, "Ha" bandiga o'tiladi. Agar karrali bo'lmasa,

7. Jadvalni algoritm yordamida to'ldiring.

x	y
45 672	
37 604	
92 594	
61 099	



1-rasm

“Yo‘q” bandiga o‘tiladi.

3a. Agar, yig'indi 9 ga karrali bo'lmasa, hosil bo'lgan yig'indidan 17 827 sonini ayiramiz. Hosil bo'lgan ayirmaga 2 sonini ko'paytiramiz va ko'paytmani y ning qiymatiga yozib qo'yamiz.

3b. Agar, yig'indi 9 ga karrali bo'lsa, hosil bo'lgan yig'indini 3 soniga bo'lamiz. Hosil bo'lgan bo'linmaga 2 sonini ko'paytiramiz va ko'paytmani y ning qiymatiga yozib qo'yamiz. Misollar shu tariqa bajariladi. x ning qiymatlari qo'yilib, y ning qiymatlari aniqlanadi.

Masalan. Tanlangan son $x = 45\,672$.

Bu sonni 32 443 soniga qo'shamiz: $45\,672 + 32\,443 = 78\,115$.

Yig'indi 9 ga karrali bo'lmagani uchun “Yo‘q” bandidagi shartni bajaramiz:

$78\,115 - 17\,827 = 60\,288$.

Hosil bo'lgan sonni 2 ga ko'paytiramiz: $60\,288 \cdot 2 = 120\,576$.


Demak, noma'lum $y = 120\,576$.

Endi 4-sinf matematika darsligidagi tenglamalarni sxema usulda yechishga doir bo'lgan misollarni ko'rib chiqamiz. Bu turdagi topshiriqlarni bajarish, tenglamalarni yechish jarayonida o'quvchi fikrini mavhumlikdan reallikka olib boradi. Noma'lum qiymatni sxema yordamida aniq tasavvur qila oladi.

2-misol. Sxemalardan foydalanib, tenglamalar yozing va ularni yeching [3].



9. Sxemalardan foydalanib, tenglamalar yozing va ularni yeching



2-rasm

Sxemalardan foydalanib, tenglamalarni yozing va ularni yechamiz. 2- rasmning 1-sxemasida jami qiymat berilgan: 10 408. Biz sxemadagi jami qiymatdan uzunlikning ma'lum qismi (8 293) ni ayirsak, 3 ta x ning qiymatini aniqlaymiz. Biz aniqlashimiz kerak bitta xning qiymatini. (2- rasm)

Yechish: Datlab chizma asosida tenglamani ifodasini tuzamiz:

$$3 \cdot x + 8\,293 = 10\,408$$

Tuzilgan tenglamani amal komponentlari bo'yicha dastlab qo'shish amaliga nisbatan, keyin ko'paytirish amaliga nisbatan yechamiz.

Ya'ni $3 \cdot x$ ni birinchi qo'shiluvchi tarzida qaraymiz. Qo'shiluvchilardan birini topish uchun yig'indidan ma'lum qo'shiluvchini ayiramiz.

$$3 \cdot x = 10\,408 - 8\,293$$

$$3 \cdot x = 2\,115$$

Endi nomalum son ko'paytirish amalini hadi. Noma'lum ko'paytuvchini topish uchun ko'paytmani ma'lum ko'paytuvchiga bo'lamiz.

$$x = 2\,115 : 3$$

$$x = 705$$

Tekshirish: $3 \cdot 705 + 8\,293 = 10\,408$

$$10\,408 = 10\,408$$

Javob: 705

Sxemalardan foydalanib, tenglamalarni va ularni yeching. 2-sxemada ikkita qiymat berilgan 11 334 va 1 956. Bu qiymatlarning kattasidan kichigini ayirsak, y noma'lum sonimizning uchdan bir qismiga teng. Biz y ning qiymatini aniqlashimiz kerak: $y = ?$ (2-rasm)

Yechish:

$$y : 3 + 1\,956 = 11\,334$$


$$y : 3 = 11\,334 - 1\,956$$

$$y : 3 = 9\,378$$

$$y = 28\,134$$

$$28\,134 : 3 + 1\,956 = 11\,334$$

3-misol. Sxemalardan foydalanib, tenglamalar yozing va ularni yeching[3].



3- rasm



Sxemalardan foydalanib, tenglamalarni yozing va ularni yeching. 1-sxemada ikkita qiymat berilgan 432 va 717. Bu qiymatlarning kattasidan kichigini ayirsak, x noma'lum sonimizning uchdan bir qismini bilib olamiz. Aniqlashimiz kerak: $x=?$

Yechish:

$$\begin{aligned}x:3+432 &= 717 \\x:3 &= 717-432 \\x:3 &= 285 \\x &= 855 \\855:3+432 &= 717 \\717 &= 717\end{aligned}$$

Sxemalardan foydalanib, tenglamalarni yozing va ularni yeching. 2-sxemada jami qiymat berilgan 597. Biz sxemadagi jami qiymatdan uzunlikning berilgan qismi 123 ni ayirsak, 3 ta x ning qiymatini aniqlaymiz. Aniqlashimiz kerak: $x=?$


Yechish:

$$\begin{aligned}3x+123 &= 597 \\3x &= 597-123 \\3x &= 474 \\x &= 474:3 \\x &= 158 \\3*158+123 &= 597\end{aligned}$$

4-misol. Schema bo'yicha ifoda tuzing. Ularni ildizlarini toping.



6. Schema bo'yicha ifoda tuzing. Ularning ildizlarini toping.



4-rasm

Schema bo'yicha ifoda tuzing. Ularning ildizlarini toping.

1-sxema. Yechish:

$$\begin{aligned}x*9+219 &= 7\ 195+1\ 412 \\x*9+219 &= 8\ 607 \\9x &= 8\ 607-219 \\9x &= 8\ 388 \\x &= 8\ 388:9 \\x &= 932 \\932*9+219 &= 7\ 195+1\ 412\end{aligned}$$

2-sxema. Yechish:

$$\begin{aligned}y:8+738 &= 6\ 959+4\ 037 \\y:8+738 &= 10\ 996 \\y:8 &= 10\ 996-738 \\y:8 &= 10\ 258 \\y &= 10\ 258:8 \\y &= 82\ 064 \\82\ 064:8+738 &= 6\ 959+4\ 037\end{aligned}$$

Bugungi kundagi yangi matematika darsliklarimizda quyidagicha kasrli tenglamalar 4-sinf matematika darsligida ham berilgan va quyidagicha yechiladi. [3].

6-misol



Biz kasrlar qatnashgan tenglamalarni yecha olamiz.



6. Tenglamalarni yeching.

$$(7\frac{5}{9} + x) - 2\frac{2}{9} = 6\frac{8}{9}$$

$$11\frac{3}{8} - (y - 1\frac{7}{8}) = 2\frac{5}{8}$$

1) $(7\frac{5}{9} + x) - 2\frac{2}{9} = 6\frac{8}{9}$

Yechish:

$$(7\frac{5}{9} + x) - 2\frac{2}{9} = 6\frac{8}{9}$$

$$7\frac{5}{9} + x = 6\frac{8}{9} + 2\frac{2}{9}$$

$$7\frac{5}{9} + x = 9\frac{1}{9}$$

$$x = 9\frac{1}{9} - 7\frac{5}{9}$$

$$x = 1\frac{6}{9}$$

$$(7\frac{5}{9} + 1\frac{6}{9}) - 2\frac{2}{9} = 6\frac{8}{9}$$

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, algebraik materiallarni o'rgatish jarayonida dasturlashning elementi bo'lgan algoritmlardan foydalanish, sxemalardan foydalanib o'quvchini mantiqan fikrlashga undaydi. Oddiy arifmetik amallarni bajarishdan ko'ra grafiklar, jadvallar, sxemalar, algoritmlar bilan ishlash o'quvchi mavzuni o'zlashtirishiga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik). Toshkent. "Turon iqbol" 2016. – B. 426.
2. Djumayev Mamanazar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: Bayoz, 2023.- 296 bet.
3. Matematika. 4-sinf darsligi. – I.V.Repyova. Toshkent – 2023.
4. Matematika. 4-sinf darsligi. – N.U.Bikbayeva. Toshkent – 2015.
5. Davlatova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fazoviy tasavvurlarini shakllantirishda geometriya elementlarining o'rni. // Muғallim ҳәм ўзликсиз билимленидриў. – 2024. – № 5. – B. 348-352.



BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARIDA SOG‘LOM TURMUSH MADANIYATI HAYOTIY KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Atabayeva D.T.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya kafedrasida
katta o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, salomatlik, shaxsiy gigiyena, fiziologiya, kun tartibi, ratsional ovqatlanish, immunitet, jismoniy faollik, tabiiy uyqu, oila psixologiyasi.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, здоровье, личная гигиена, физиология, режим дня, рациональное питание, иммунитет, физическая активность, естественный сон, семейная психология.

Key words: healthy lifestyle, health, personal hygiene, physiology, daily routine, balanced nutrition, immunity, physical activity, natural sleep, family psychology.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilarida sog‘lom turmush tarziga oid madaniyat va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi yoritilgan. Sog‘lom turmush madaniyati – jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish, psixologik barqarorlik va gigiyena kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Maqolada pedagogik ta‘lim jarayonida talabalarda ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali usullari, amaliy mashg‘ulotlar, interfaol metodlar va tarbiyaviy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishda o‘qituvchining shaxsiy namunasi va sog‘lom turmushga oid bilimlarni boshlang‘ich ta‘limga integratsiyalash muhim omil sifatida ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari, bu boradagi metodik yondashuvlar ta‘lim sifatini oshirishga va kelajak avlodning sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается методика формирования культуры здорового образа жизни и жизненных навыков у будущих учителей начальных классов. Культура здорового образа жизни включает в себя такие факторы, как физическая активность, правильное питание, психологическая устойчивость и гигиена. В статье анализируются эффективные методы формирования этих навыков у учащихся в процессе педагогического образования, основанные на практических занятиях, интерактивных методах и образовательных подходах. Также личный пример учителя и интеграция знаний о здоровом образе жизни в начальное образование показаны как важные факторы формирования культуры здорового образа жизни. Результаты исследования подтверждают, что методические подходы в этом плане служат повышению качества образования и формированию здорового образа жизни будущего поколения.

SUMMARY:



This article examines the methodology for developing a healthy lifestyle culture and life skills in future primary school teachers. A healthy lifestyle culture includes factors such as physical activity, proper nutrition, psychological stability, and hygiene. The article analyzes effective methods for developing these skills in students in the process of pedagogical education, based on practical classes, interactive methods, and educational approaches. Also, the personal example of the teacher and the integration of knowledge about a healthy lifestyle into primary education are shown as important factors in developing a healthy lifestyle culture. The results of the study confirm that methodological approaches in this regard serve to improve the quality of education and the formation of a healthy lifestyle for the future generation.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish jamiyat salomatligi, taʼlim sifatini oshirish va kelajak avlodni sogʻlom voyaga yetkazishda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlangʻich taʼlim bosqichida ishlaydigan oʻqituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki sogʻlom hayot tarzining targʻibotchisi sifatida ham namuna boʻlishi kerak. Boʻlajak oʻqituvchilarda sogʻlom turmush madaniyatiga oid hayotiy koʻnikmalarni shakllantirish – ularning shaxsiy rivoji bilan birga oʻquvchilarga sogʻlom odatlarni singdirish imkonini beradi. Mazkur mavzu dolzarbligi bilan shundaki, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy taʼlim muassasalarida ushbu yoʻnalish boʻyicha metodik yondashuvlar takomillashtirilmoqda va zamonaviy sogʻlom turmush tamoyillariga mos taʼlim mazmuni yaratishga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bois bu mavzu nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Sogʻlom turmush tarzi - insonning hayoti, salomatligi xavfsizligini taʼminlashga xizmat qiluvchi koʻnikmalarga ega boʻlish asosida hayotiy faoliyatni yoʻlga qoʻyish, hamda salomatligining yuqori darajada boʻlishiga erishishni taʼminlovchi ijtimoiy hodisadir [2].

Sogʻlom turmush tarzi - inson salomatligini saqlash va mustahkamlashga, kasallikning oldini olishga qaratilgan chora tadbir yigʻindisi.


Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, yuqumli boʻlmagan kasalliklar 70% hollarda erta oʻlimga sabab boʻlmoqda. Shu bois, sogʻlom turmush tarzini oʻz ichiga olgan salomatlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. JSST insonlarga yoʻnaltirilgan birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatlarini rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi. Bu xizmatlar tibbiy yordam koʻrsatishdan tashqari, birinchi navbatda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish va yuqumli boʻlmagan kasalliklarning oldini olishga qaratilgan [5].

Insonning hayot tarziga ijobiy taʼsir etuvchi omillar:

- faol hayot tarzi;
- ishdagi muhitning sogʻlomligi;
- jismoniy va ruhiy holatning beqarorligi;
- organizmning uyquga qoniqishi;



- ovqatlanish me'yori;
- oilada psixologik va fiziologik qoniqish;
- jismoniy faollikning tizimliliği;
- oiladagi moddiy mustahkamlik;
- yuqori tibbiy faollik (1-rasm).



1-rasm. Sog'lom turmush tarzining tarkibiy qismlari

Ushbu omillarga amal qilish insonning uzoq umir ko'rishiga yordam beradi. Sababi salomatligi mustahkam bo'lib, organizmdagi fiziologik jarayonlar me'yorda faoliyat yuritadi.

Sog'lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismini kun tartibi tashkil etadi. Kun tartibining muhim komponentlaridan biri jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish, tabiiy fiziologik uyqu me'yoriga amal qilish salomatlikning mustahkam bo'lishiga olib keladi [1]. Sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik, tartibning yo'qligi salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi va uni quyidagicha ta'riflash mumkin.

Insonning hayot tarziga salbiy ta'sir etuvchi omillar:

- hayot tarzining sustligi;
- ish faoliyatida o'ta charchash holati;
- organizmning uyquga qoniqmasligi;
- tartibsiz ovqatlanish;
- past tibbiy faollik;




- oilaviy hayotning notinchligi;
- zararli odatlardan foydalanish.

Demak insonlar hayotida sogʻlom turmush tarziga ijobiy va salbiy taʼsir etar ekan. Sogʻlom hayot tarziga nosogʻlom turmush tarzi va salbiy emotsiyalar, ishdagi va oiladagi psixologik salbiy holatlar, aqliy yuklamaning meʼyordan koʻpligi, iqtisodiy etishmovchilik, kun tartibi komponentlari (ovqatlanish, uyqu, jismoniy faollik, ochiq havoda sayr va boshqala) ning tartibsizliligi taʼsir koʻrsatadi.

Bolalarning hayotida sogʻlom turmush hayotiy koʻnikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buni amalga oshirishda boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining oʻrni beqiyos ahamiyatga ega.

Boʻlajak oʻqituvchilarga sogʻlom turmush tarzining bolalar hayotidagi oʻrni toʻgʻrisida kompetensiyani yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fani doirasida shakllantirish ularda hayotiy koʻnikmalarining namoyon boʻlishiga olib keladi (2-rasm).

Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fani bolalar organizmining yoshga bogʻliq rivojlanish bosqichlari toʻgʻrisida maʼlumot beradi.




2-rasm. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida sogʻlom turmush tarzi hayotiy koʻnikmalarini shakllantirish tartibi

Boʻlajak oʻqituvchilar fan doirasida bola organizmining rivojlanish bosqichlari va ularga tashqi omillarning taʼsirini oʻrganadi. Oʻzlashtirgan bilimlari asosida boʻlajak oʻqituvchilarda quyidagi tushunchalar hosil boʻladi, yaʼni bolalarda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish: bola sogʻlom oʻsib, rivojlanadi; bola jismonan baquvvat, aqlan tetik boʻladi; bolaning immuniteti mustahkamlanadi; bola kasalliklarga kam chalinadi; zararli odatlar kuzatilmaydi; bola madaniyatli, odobli boʻladi; taʼlim-tarbiya jarayoniga ijobiy taʼsir qiladi; sinfdoshlarining orasida ijobiy xislatlari bilan ajralib turadi; bolaning sogʻlom kun tartibi shakllanadi.

Sogʻlom turmush tarzi hayotiy koʻnikmalarini boʻlajak oʻqituvchilarda shakllantirishda quyidagi interfaol metodlardan “Nima uchun?”, “Aqliy hujim”,



“Idrok xaritasi” kabilardan foydalanish samaradorlikka ijobiy ta’sir ko’rsatadi (3-rasm).



3-rasm. Nima uchun? metodi

Sogʻlom turmush tarzini barcha ta’lim muassasalarida shakllantirish va unga amal qilishning salomatlikka, bolaning jismoniy va aqliy sogʻlom rivojlanishiga ta’siri to’g’risida kompetensiyani shakllantirish, jamiyatda, oilada sogʻlom muhitning namoyon bo’lishiga olib keladi.

Xulosa. Demak, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida sogʻlom turmush madaniyatiga oid hayotiy ko’nikmalarni shakllantirish ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Sogʻlom turmush madaniyati faqatgina jismoniy sogʻlomlikni emas, balki psixologik barqarorlik, ijtimoiy faollik va ongli hayot tarzini ham o’z ichiga oladi. Tadqiqot davomida ushbu ko’nikmalarni rivojlantirishda amaliy mashg’ulotlar, interfaol metodlar, shaxsiy namuna va tarbiyaviy yondashuvlarning samarali ekanligi aniqlangan. Metodik yondashuvlar asosida shakllangan sogʻlom turmush madaniyati nafaqat o’qituvchining o’z salomatligini saqlash, balki kelajak avlodga to’g’ri hayot tarzini o’rgatishda ham muhim rol o’ynaydi. Shu sababli, pedagogik ta’lim jarayonida sogʻlom turmushga oid bilim va ko’nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Atabayeva D. T. (2022). Methods of determination of types of higher nerve activity in primary school students. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 1239-1243.
2. Atabayeva D.T. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda kun tartibini shakllantirish kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent.: "Fan va texnologiyalar nashriyot- manbaa uyi".- 2022. 136 b.
3. Atabayeva D.T. Mening kun tartibim. (1-4 sinflar ushuni). Tavsiyanoma. Toshkent.: "Malik print so" nashriyoti. 2021. 24 b.
4. Atabayeva D.T., Fayziyev V.B. "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" o'quv qoldanba. Toshkent.: "Ishonchli hamkor" nashriyoti. 2023. 216 b. 224 b.
5. Azamatov R. Sog'lom turmush tarzi asoslari. Toshkent.: Kniga nashriyoti. - 2009. 241 b.
6. Azamatov R. Sog'lom turmush tarzi tarbiya vositasi. Darslik. Toshkent.: Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2012. 48 b.
7. Sharipova D.D., Mannapova N. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish (maxsus kurs dastur). Toshkent.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2004. 18 b.
8. Ziyomuxammadov B. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma- T: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2006. - 159 b.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISH MUSTAQILLIGINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH SHARTLARINING MEXANIZMLARI

Moyliyeva X.T.

Turon universiteti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: mustaqil o'zlashtirish, ijtimoiy obyekt, fazoviy shakllar, taqqoslash, qobiliyat, yangi bilim, belgilash qobiliyati, amalga oshirish qobiliyati, natijani tekshirish qobiliyati.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, социальный объект, пространственные формы, сравнение, умение, новые знания, умение определять, умение применять, умение проверять результат.

Key words: independent learning, social object, spatial forms, comparison, ability, new knowledge, ability to determine, ability to implement, ability to verify the result.

РЕЗЮМЕ:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil bilim o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoji, uni turli manbalardan egallash va amaliyotda ijodiy foydalanish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim o'zlashtirish mustaqilligini rivojlantirish bilim va mahoratni shakllantirish jarayonini yakunlamaydi. Bu – bilish bosqichlaridan biriligi, ularning mustaqil o'zlashtirishlari ushbu bosqichda yetakchi o'rinda turishi haqida maqolada ochib berishga harakat qilingan.

РЕЗЮМЕ:

Характеризуется как внутренняя потребность учащихся младших классов в самостоятельном приобретении знаний, умение приобретать их из различных источников и творчески использовать на практике. Развитие самостоятельного обучения у учащихся начальной школы не завершает процесс формирования знаний и навыков. В данной статье делается попытка объяснить, что это один из этапов познания, и что на данном этапе на первый план выходит его самостоятельное овладение.

SUMMARY:

The internal need for independent knowledge acquisition in primary school students is described as the ability to acquire it from various sources and use it creatively in practice. The development of independence in the acquisition of knowledge in primary school students does not complete the process of forming knowledge and skills. The article attempts to reveal that this is one of the stages of cognition, and their independent acquisition is at the forefront at this stage.

Sivilizatsiya shaxsning qobiliyati va fazilatlarini rivojlantirishning eng samarali usul, vositalarini taklif etish imkonini berayotgan bir vaqtda ta'lim jarayonini shunday tashkil etish zarurki, har bir o'quvchi bilim olishda faol,



mustaqil, ijodiy bo'lishi, o'ziga xos o'quv faoliyati uslubini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan insonda ilmiy bilimlarni egallash, olingan bilimlarni amaliyotga moslash qobiliyatini shakllantirish vazifasi ta'lim-tarbiyada birinchi o'ringa chiqmoqda. Shaxsda yangi bilimlarni egallash zarurati, yangi tushunchalarning mohiyatini mustaqil ochib bera olish, bilish faoliyati usullarini o'zlashtirish, bilimlarni turli masalalarni hal etishda ijodiy qo'llash kabi fazilatlar shakllantirilishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida o'quvchilar quyidagi bilish jarayonlari majmuasini o'zlashtirishlari kerak:

- a) mustaqil o'zlashtirish faoliyatini rejalashtirish;
- b) javobi ochiq qolgan vazifalarga javob izlash;
- v) samarali mustaqil o'zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;
- d) muayyan qoidalarni isbotlash uchun materiallarni topish;
- e) o'zlashtirgan o'quv materialini tizimlashtirishni amalga oshirish va boshqalar. (32).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil bilim o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoji, uni turli manbalardan egallash va amaliyotda ijodiy foydalanish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Ammo, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim o'zlashtirish mustaqilligini rivojlantirish bilim va mahoratni shakllantirish jarayonini yakunlamaydi. Bu – bilish bosqichlaridan biri, xolos. O'quvchilar olgan yangi bilimni aniqlashtirish hamda ijodiy rivojlantirishga muhtoj. Albatta, ularning mustaqil o'zlashtirishlari ushbu bosqichda yetakchi o'rinda turadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlashtirish mustaqilligini rivojlantirish uchun o'quv jarayoni alohida tarzda tashkil etilishi kerak. Zamonaviy maktab ta'limi tizimi yagona printsip asosida qurilgan: yangi bilimlar o'qituvchi tomonidan turli xil vositalar, shu jumladan darslikdan foydalangan holda, sifat jihatidan yangi bilimlar namunasini ishlab chiqish sifatida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda yuqoridagi o'quv jarayonining elementi sifatida har qanday dars yoki darslar tizimi quyidagi taxminiy sxema bo'yicha qurilgan:

1) o'qituvchi maqsadni belgilaydi va ko'pincha natijani baholash mezonlari aniq shakllantirilmaydi:

2) o'qituvchi vazifalarni belgilangan maqsadning elementlari sifatida shakllantiradi.

3) o'qituvchining o'zi ishlab chiqilgan maqsadga erishish uchun vositalar va yo'llarni tanlaydi, ko'p holatda u maqsadga erishishning bir necha usullarini taklif qiladi

4) o'quvchilar ushbu yangi bilimlarni mustahkamlash uchun o'qituvchi tomonidan taklif qilingan mashqlarni mustaqil ravishda bajaradilar:



5) o'qituvchi bajarilgan ishni baholaydi, bunda berilgan yangi bilim namunasini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini tekshiradi, so'ngra bu sikl takrorlanadi.

Bizning fikrimizcha, rivojlantiruvchi ta'lim tizimi "idrok etish modeli sifatida o'quv jarayoni sharoitida taklif etilayotgan bilim, ko'nikmalarni to'plash jarayonidir. Bunday ta'lim tizimining natijasi, agar kerak bo'lsa, o'quv jarayoni sharoitida olingan ana shu bilimlarni qayta ishlab chiqishga qodir bo'lgan shaxsdir".

Biroq, insoniyat tomonidan fanning turli sohalarida to'plangan bilimlar shunchalik keng va chuqurki, uni bugungi kunda oddiy ta'lim sharoitida o'quvchilarga yetkazish tobora imkonsiz vazifaga aylanib bormoqda. O'quv jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish mustaqilligini faol va maqsadli rivojlantirish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlashtirish mustaqilligini rivojlantirish faoliyati o'z tarkibida uchta bog'liq elementni ajratib ko'rsatadi:

- 1) maqsadni belgilash qobiliyati (maqsadni belgilash);
- 2) maqsadni amalga oshirish qobiliyati (ijro etuvchi qism);
- 3) natijani baholash qobiliyati (nazorat, baholash).

Bugungi kunda maktab amaliyotida faqat ikkinchi bo'g'in, ijro etuvchi qism eng sodda tarzda amalga oshiriladi. Maqsad qo'yish qobiliyatiga kelsak, agar o'quv jarayonining maqsadi faqat ichki mantiqiy aloqaga ega bo'lmagan alohida, tarqoq bilim bo'lsa, unga kerakli darajada erishish qiyin. Bunday o'quv jarayoni o'quvchilarda o'z faoliyati natijalarini nazorat qilish va baholash qobiliyatini rivojlantira olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilarda o'zlashtirish mustaqilligining talab darajasida rivojlanishi haqida gapirish qiyin.

Ko'rinadiki, faoliyat strukturasiidagi har uchala elementni ham amalga oshirish uchun fanni uning ichki mantiqini, xususan, uning tarixiy rivojlanish mantiqini hisobga olgan holda o'qitish kerak. Ta'lim jarayoni mazmuniga bunday yondashish bilan predmet uning dialektik rivojlanishida idrok qilinadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, predmetli bilimlar tizimi boshlang'ich dialektik ziddiyatga asoslanadi, u printsip sifatida ma'lum bir bilim tizimining predmetini belgilaydi va harakatlantiruvchi kuch sifatida bilimlar tizimining o'zini mustaqil rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Xususan, matematikaning integral tizim sifatida rivojlanishini mantiqiy-uslubiy tahlil qilish natijasida rivojlanishning asosiy dialektik ziddiyatini – miqdoriy munosabatlar va fazoviy shakllar o'rtasidagi ziddiyatni aniqlash mumkin. Shunga ko'ra, matematik bilimlarni mustaqil rivojlantirishning quyidagi asosiy darajalari ko'rinadi:



1-darajali - to'g'ridan-to'g'ri yoki sensorli-to'g'ridan-to'g'ri;

2-daraja - obrazli, ikki kichik darajaga bo'linadi: to'g'ridan-to'g'ri - ko'chma va to'g'ri obrazli;

3-daraja - ramziy, uchta kichik darajaga bo'linadi: to'g'ridan-to'g'ri - ramziy, obrazli ramziy va to'g'ri ramziy;

4-daraja - belgi (to'rtta pastki daraja).

Rivojlanayotgan tizim sifatida matematikaning bir rivojlanish darajasidan boshqasiga o'tishning sababi faoliyat strukturasining o'zgarishi. Demak, rivojlanayotgan miqdoriy munosabatlarni sifat jihatidan yangi fazoviy shakllarda belgilash usulidir. Har bir yangi bosqichda harakatning yangi shakli o'rganiladi, bu yangi fazoviy shakllarni va natijada ushbu shakllarda mavjud bo'lgan yangi miqdoriy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu yangi tarkibni tuzatishning yangi usuli (yangi shakl) kerak. eski shakl (eski usul) bu yangi tarkibga mos kelmaydi. Matematika rivojlanishining har bir yangi darajasida "yangi matematik til" (yangi matematik abstraktsiyalar) zarur.

1-darajada o'zlashtirish fiksatsiyasi, ya'ni kattalik bo'yicha bir xil-teng bo'lmagan nisbatni belgilash obyektlarning o'zlarini bevosita qo'yish tartibidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

2-darajada o'zlashtirish eski usul va yangi tarkib o'rtasida nomuvofiqlik mavjud, chunki yangi PF materiya harakatining sifat jihatidan yangi shakli – "harakatning fizik shakli" bilan paydo bo'ladi. Umuman olganda, obyektlarning tasvirlarini to'g'ridan-to'g'ri joylashtirish mumkin emas. Faoliyat tuzilmasini o'zgartirish kerak - yangi operatsiya qo'shiladi - harakat: chiziqlar uchun (cheklangan: ochiq yoki yopiq - ya'ni bu shaklda ushbu darajada yangi PFlar taqdim etiladi) - ularni ba'zi vositalar yordamida to'g'rilash tartibi. "ekvivalent" - tasvirning o'rnini bosuvchi va qo'shimcha bilan qoplama Ushbu ekvivalent yordamida chiziqlarning o'zi qandaydir "ekvivalent" yordamida taqqoslanadigan bo'ladi.

Samolyot raqamlari uchun 3-darajada to'g'rilash tartibi, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri o'rnatish tartibi har doim ham mumkin emas, chunki maqsadga erishishga olib kelmaydi. Binobarin, faoliyatning tuzilishi yana o'zgarishi kerak: obyektни qismlarga bo'lish va bu qismlarni umumlashtirish operatsiyasi, ya'ni, ularni bir-biri bilan solishtiradigan shakllarga keltirish. Agar bunday harakat maqsadga olib kelmasa, u holda cheksiz kichik va cheksiz kattalikka o'tish amalga oshiriladi (umumiylashtirish tartibi - cheksiz kichik qismlarning cheksiz katta yig'indisiga bo'linish - o'tish joyining ishlashi orqali amalga oshiriladigan atamalar). Yani. chegaraga o'tishning yangi operatsiyasi yordamida taqqoslash mumkin bo'ladi.



4-darajada - COni o'zgartirish jarayonini boshqarish va rivojlanayotgan PFda ushbu o'zgarishlarni tuzatish. (KO - PF kompleks integral tizimlari).

Matematik bilimlarni rivojlantirish mantig'ini yanada aniqroq rivojlantirish bilan har bir rivojlanish darajasi tobora murakkablashib borayotgan mavzular ketma-ketligi sifatida tuziladi, har bir mavzu tobora murakkablashib borayotgan kognitiv vazifalar ketma-ketligi sifatida ishlab chiqiladi.

Tabiiyki, tegishli qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan o'ziga xos mantiqiy-tarixiy yo'nalishni o'quv siklining boshqa subyektlarini tahlil qilishda ham kuzatish mumkin va tegishli bilimlarni rivojlantirishning ma'lum darajalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, bilim o'zlashtirish mustaqilligini muvaffaqiyatli rivojlantirishning navbatdagi sharti o'quv fanining mazmunini yoki rivojlanayotgan bilim tizimi sifatida o'quv fanlari siklini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mavzu bo'yicha bilimlar sikli rivojlanishining barcha darajalarini qamrab oladigan o'quv vazifalari tizimini yaratish muhim vazifa bo'lib, uni bizning tadqiqotimiz doirasida hal qilib bo'lmaydi, chunki boshlang'ich maktabda bunday integral tizimning faqat dastlabki bo'g'inlarini amalga oshirish mumkin. Shu sababli, biz boshlang'ich sinf o'quvchilari tobora murakkab bo'lgan mustaqil o'zlashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan bosqichma-bosqich amalga oshirish tizimini taklif etish vazifasini hal etishga harakat qildik.

Keling, buni boshlang'ich sinf tabiiy fanlarni o'rganish misolida ko'rsatamiz. Vazifaning murakkabligi vositachilik darajasi bilan belgilanadi.

1. Hajmi (uzunligi) bo'yicha solishtiring, ikkita o'xshash predmetni hajmi bo'yicha (masalan, qir va adir);

2. O'lchamlari bo'yicha solishtiring; ikkita ixtiyoriy predmetni bir-birining ustiga to'g'ridan-to'g'ri qo'yish orqali solishtirishingiz mumkin. Muammoni hal qilish uchun o'quvchi tasavvur, tasvir bilan ishlaydi, ularni o'zgartiradi (to'g'rilaydi). bunda ular o'zlashtirilgan oldingi bilimlari bilan yangi bilimlarini qo'llaydi.

3. Kattaligi bo'yicha solishtiring. Muammoni hal qilish uchun o'quvchi predmetlarni yetarlicha kichik qismlarga ajratadi hamda har bir qismni ikkinchi predmetni qismlari bilan almashtiradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchi obyektlarni taqqoslash uchun transformatsiya qiladi.

Borgan sari murakkab bo'lgan vazifalar tizimining mazkur bosqichi o'quvchining bilim o'zlashtirish mustaqilligini o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, bunda ko'nikma, tajriba, faoliyatda ijodiy qo'llash harakatlari namoyon bo'ladi.



Bizning tushunchamizda o'quvchilarda bilim o'zlashtirish mustaqilligini rivojlantirishni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun har bir darsda ikkita vazifani amalga oshirishga erishish kerak deb taxmin qildik:

1) faollikni oshirish; 2) bilimni oshirish.

Bundan tashqari, biz o'quvchi obyekt bo'lib, o'quv faoliyatining sub'ektiga aylanmagan ekan, bizda bu qo'yilgan vazifalar yo'q deb hisobladik. Boshqacha aytganda, o'quv jarayonida boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarda tobora murakkab bilimlar tizimini mustaqil o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish zarur. O'quv jarayoniga nisbatan bunday nuqtai nazar (maktab ta'limi mazmuniga faol yondashuv) ta'lim jarayonini tobora murakkablashib borayotgan bilim vazifalari - o'quv ijodiy vazifalari ketma-ketligi sifatida loyihalash zarurligiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish mustaqilligini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun, bizning fikrimizcha, o'quv jarayoniga "evristik qidiruv kursi"ni joriy qilish lozim. mazkur kurs o'quvchi uchun muammoli vaziyatni ifodalovchi, ular tomonidan mustaqil hal qilinadigan topshiriqlarni o'z mazmuniga olishi ko'zda tutiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bugungi kunda maktab amaliyotida bolaning o'zini o'zi mustaqil rivojlantirishning ijro etuvchi elementi asosan amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Архангельский С.И. Вопросы измерения, анализа и оценки результатов в практике педагогических исследований. - М.: Знание, 1975. - 43 с.
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989. - 192 с.
3. Государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования: Специальность 030500.06 - Профессиональное обучение (информатика, вычислительная техника и компьютерные технологии) / Мин. образования РФ. - М.: 2000. - 20 с.
4. Люблинская А.А. Детская психология. Уч. пособие для ст-тов пед. институтов. - М.: Просвещение, 1971. - 415 с.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QIB TUSHUNISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

Abdijamilova M. M.

*Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Nukus davlat pedagogika instituti*

Tayanch so'zlar: bilim, ko'nikma va malaka, matnni o'qish, o'qib tushunish, fikrlash assotsiatsiyasi, innovatsion texnologiyalar.

Ключевые слова: навыки и умения, чтение текста, понимание прочитанного, ассоциация.

Key words: skill and experience, text reading, reading comprehension, association.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish malakasini shakllantirishda didaktik topshiriqlardan foydalanish orqali shakllantirishning ahamiyati haqida bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ:

В этой статье описывается важность формирования дидактическими заданиями в развитии понимания учеников.

SUMMARY:

This article describes the importance of formation by didactic assignments in the development of understanding students.

Kirish. Bugungi kunda dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida til ta'limini to'rt asosiy ko'nikma (o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozma va og'zaki nutq) asosida tashkil etish, lingvistik bilimlarni nutqiy kompetensiyani egallash maqsadida bilim berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Amerika, Germaniya, Koreya, Finlandiya, Turkiya, Rossiya va Ya poniyadagi ta'lim muassasalarida matnni o'qib tushunish, ushbu ko'nikma orqali o'quvchilarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlash til ta'limi oldiga qo'yilgan eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini Xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda o'quvchilarning o'qib tushunish malakalarini shakllantirish ta'limdagi ustuvor vazifalardan biridir. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" gi 997-son qarori[1]



hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish unda aks etgan vazifalarni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq masalalar zahirida ham hayotiy-zaruriy ko'nikma hisoblanuvchi o'qish savodxonligini shakllantirish bilan bog'liq bir qancha umumiy talablar kiritilgan. Shuningdek o'quvchilarning xalqaro baholash dasturida muvaffaqiyatli o'rinlarni egallashida maktab ta'limi oldiga bir qator vazifalarni qo'ydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 2019 yilda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" mavzusidagi metodik qo'llanma nashrdan chiqdi. Ushbu qo'llanma ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assosiasiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievement – IEA) tomonidan o'tkaziladigan PIRLS (Progress in international reading literacy study) tadqiqoti doirasida foydalanilgan materiallar asosida tuzilgan bo'lib, unda PIRLS xalqaro tadqiqotining mazmun-mohiyati, o'qish savodxonligini baholash yo'nalishiga oid asosiy tushunchalarning ta'rifi, topshiriqlar, ularning tavsifi va yechish yo'llari bo'yicha tavsiyalar keltirilgan[3: 76-b].

Yuqoridagi fikrlarimizni davom ettirgan holda mazkur qo'llanmada o'qish savodxonligiga berilgan ta'rifga e'tiboringizni qaratmoqchimiz: "O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir". Ko'rib turganimizdek, endilikda o'qish savodxonligi shunchaki boshlang'ich ta'lim jarayonida savodxonlik jarayoni (alifboni o'rganish) bilan bog'liq bo'lgan tor doiradagi tushuncha emas. PIRLS xalqaro baholash dasturining asosiy maqsadi o'qish savodxonligini shakllantirish orqali o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining keng qamrovli vazifasi asosida, ya'ni badiiy tajriba orttirish, muallifning nuqtayi nazari, matnda qo'llangan badiiy tasvir vositalarini aniqlash, ularning vazifasini tushunish, matnda berilgan voqea-hodisalarga nisbatan munosabatini ifodalay olish, undagi ma'lumotlarni kelajak hayotning qaysidir jabhasida qo'llay olish bilan bog'liq juda zarur hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Tahlillar va natijalar. Na'muna sifatida biz o'quvchilarning o'qib tushunish malakalarini shakllantirishda bir qator didaktik topshiriqlarni keltirib o'tamiz.

Matn.

Siz iqlimni o'zgartirishni, go'zal tabiatdan, uning noyob nabotot va hayvonot olamidan bahramand bo'lib, zilol ko'llar va shovqinli daryolar sohilida quyosh nuridan zavqlanib, sayyoramizning eng yuqori nuqtasiga chiqishni



hoxlaysizmi? Endi buning imkoni bor. O‘zbekistonga keling! Ushbu qadimiy mamlakatning betakror tabiati siz uchun tabiiy va go‘zal ranglarning butun majmuini ochib beradi.

O‘zbekiston dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmasa-da, biroq dunyodagi eng go‘zal ko‘llari, tabiiy va sun‘iy suv havzalari va butun Markaziy Osiyoni qamrab olgan yirik daryolarning anchayin mavjudligi bilan jozibalidir.

Ko‘plab boyliklarning katta qismini past tekisliklar egallagan. Eng kattalaridan biri – bu Turon past tekisligidir. Ikki katta Qizilqum va Qoraqum cho‘llari butun mamlakat bo‘ylab bir necha yuz kilometr ga Tyan-Shan etagigacha cho‘zilgan. Cho‘l, ayniqsa, bahorda go‘zal. Kuchli shamollar qumli barxanlarni saksovul novdalari uzra haydab, bahorda cho‘lni betakror go‘zalikka burkaydi.

Kontinental iqlim pirovardida bu yerda hamma narsa tabiat bilan hamohang. O‘zbekistonda qish yumshoq, bahor serquyosh va seryomg‘ir; yozi issiq va quruq, kuz esa nihoyatda go‘zaldir. Bu eng serhosil mavsum, tabiat qish mavsumida kuch to‘plab bahorda qayta uyg‘onishi uchun aynan kuzda barcha ne‘matlarni taqdim etadi.

Matn.

O‘zbekiston okean va dengizlardan uzoqda, Yevroosiyo materigining ichida joylashganligi tufayli kontinental iqlimga ega. Kontinental iqlimning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: osmon ochiq va quyoshli, harorat nihoyatda yuqori, yillik yog‘in miqdori kam, aksincha, mumkin bo‘lgan bug‘lanish katta.

O‘zbekiston iqlimining vujudga kelishiga uning geografik o‘rni va u bilan bog‘liq atmosfera va relefi ta’sir etadi. O‘zbekiston hududi shimoldan janubga 925km cho‘zilganligi tufayli quyoshning nuri uning hamma qismiga bir xil tushmaydi. Agar shimoliy qismiga yozda (22-iyunda) quyosh 71-72 gradus burchak hosil qilib tushsa, janubida 76 gradusni tashkil etadi. Binobarin, shimolda quyosh yiliga 2500-2800 soat nur sochib tursa, janubda 3000-3100 soat nur sochib turadi. Shu sababli O‘zbekiston “serquyosh o‘lka” deb ataladi.

1. Ikkala matnni birlashtirib turuvchi mavzuni aniqlang va ushbu katakni bo‘yang.

O‘zbekistonning iqlim sharoiti	O‘zbekistonning go‘zal tabiati	O‘zbekiston mening vatanim
--------------------------------	--------------------------------	----------------------------

2. Har ikkala matnda berilgan ma'lumotlarni bir ustunga, alohida ma'lumotlarni boshqa ustunga ajratib yozing.

- O‘zbekiston serquyosh o‘lka.
- O‘zbekistonning asosiy hududini pasttekisliklar egallagan.



- O'zbekiston dunyodagi eng go'zal ko'llar, tabiiy va sun'iy suv havzalariga boy o'lka.

- O'zbekistonda dengizga to'g'ridan to'g'ri chiqish yo'li mavjud emas.

- O'zbekistonda yillik yog'in miqdori kam, bug'lanish miqdori katta.

- O'zbekistonda yoz oylarida issiq harorat hukmronlik qiladi.

3. 2-matnda uchraydigan ma'lumotlarni quyidagi manbalardan qaysi birida uchratish mumkin?

A. "O'zbekistonga xush kelibsiz!" ko'rsatuvi

B. "O'zbekiston ob-havosi" gazetasi

S. "O'zbekistonning tabiiy boyliklari" ensiklopediyasi

4. Yurtimizga sayyohlarning tashrifini ko'paytirish uchun ularga O'zbekiston va uning tabiati haqida so'zlab berish kerak. Buning uchun qaysi matndan foydalangan ma'qul?

1-matn

2-matn

O'qib tushunish malakasini shakllantirishda yaxlit va yaxlit bo'lmagan matnlar asosida tuzilgan topshiriqlarning o'rni ham beqiyos hisoblanadi. Bunday matnlar ustida ish olib borilganda asosan turli shakl va mazmundagi testlarni bajarish orqali tahlil olib borilishi barchamizga ma'lum. Bugungi kunda zamonaviy test topshiriqlarning quyidagi shakllari mavjud bo'lib, ularni integrativ, adaptiv va kriterial baholovchi testlar ko'rinishida tasniflash mumkin.

1. Integrativ (yaxlitlashtirilgan, yiriklashtirilgan) testlar. Bu test orqali ta'lim oluvchilarning ikki yoki undan ortiq o'quv predmeti bo'yicha bilimi aniqlanadi.

2. Adaptiv (moslashuvchan) testlar. Berilayotgan javoblarning aniqligiga ko'ra o'z darajasini o'zgartirish xususiyatiga ega bo'lgan testlar.

3. Kriterial-baholovchi testlar. O'quv predmetidagi qaysi elementlar o'zlashtirilgani, qaysilari o'zlashtirilmaganligini sinash uchun mo'ljallangan[2:23-b].

Shuningdek testlar quyidagi shaklga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

1. Bir yoki bir necha to'g'ri javoblarni tanlash orqali beriladigan topshiriqlar:

a) tamoyilga ko'ra bir to'g'ri javobni tanlash: bittasi – to'g'ri, qolganlari (ikki, uch va hokazolar) – noto'g'ri.

b) bir nechta to'g'ri javoblarni tanlash;

v) javoblari ichidan eng to'g'ri bitta javobni tanlash.

2. Ochiq shakldagi topshiriqlar. Topshiriq shunday tuzilganki, tayyor javob yo'q. O'rganuvchi javobni ajratilgan joyga o'zi yozishi kerak.



3. Moslikni o'rnatish topshiriqlari, bunda bir to'plamdagi elementlarni boshqa bir to'plamdagi elementlarga mos holda qo'yish talab qilinadi.

4. To'g'ri ketma-ketlikda o'rnatish topshiriqlari (hisoblash, harakatlar, qadamlar, atamalar) Bunday shakldagi topshiriqlardan asosan muayyan matn ustida alohida o'qib tushunish malakasini shakllantirish jarayonida foydalaniladi. Biz tomondan tavsiya etilayotgan ta'lim mazmunining aynan o'qib tushunish qismidagi malakalarni shakllantirishda quyida berilgan shakldagi topshiriqlardan foydalanish yaxshi natija berishi mumkinligini inobatga olgan holda ulardan ayrimlariga misollar keltiramiz.

1. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda sarlavhada berilgan savolga javob bering. O'z javobingizni izohlang.

1. Ha

2. Yo'q _____

2. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ularga tegishli bo'lgan izohlar bilan moslashtiring.

A) Adadi	B) Na'ra	D) Arg'umoq	E) Reptilyalar
larzali, vahimali ovoz	Miqdor soni	Hayvon nomi	Zotli chopqir ot

3. Matndan olingan quyidagi gapda ajratib ko'rsatilgan bo'lakning ma'nosini izohlab, yozing.

Rus xalq ertaklarida ajdarho qiyofasida bizga besh qo'lday ayon bo'lgan Ajdarho Gorinch gavdalanadi.

Muallifning "Odamlar nima uchun ajdarholarning borligiga ishonishgan?" savoliga bergan javobiga e'tiboringizni qarating. Nima deb o'ylaysiz, muallif ajdarholarning yer yuzida yashamaganligiga ishonchi komilmi?

A. Yo'q, muallif o'zining taxminiy fikrlarini keltirdi.

B. Yo'q, muallifning fikrlari mutlaqo to'g'ri emas.

S. Ha, muallif o'zi ta'kidlayotgan ma'lumotlarga ishonadi.

D. Ha, muallif o'z fikrlarini bir nechta ma'lumotlar bilan asoslab bergan.

5. Matn mazmunini yordamida chiqarilgan xulosalarning qaysilari to'g'ri ekanligini aniqlang.

Yo'q, muallif o'zining taxminiy fikrlarini keltirdi.

B. Yo'q, muallifning fikrlari mutlaqo to'g'ri emas.

S. Ha, muallif o'zi ta'kidlayotgan ma'lumotlarga ishonadi.

D. Ha, muallif o'z fikrlarini bir nechta ma'lumotlar bilan asoslab bergan.

5. Matn mazmunini yordamida chiqarilgan xulosalarning qaysilari to'g'ri ekanligini aniqlang.



Ushbu ma'lumotlar "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" ekanligini aniqlang	To'g'ri	Noto'g'ri
Ulkan, ilonsimon, odamlarga dahshat solib turuvchi mahluqlar qadim zamonlardan ertak va afsonalarning qahramoni sifatida uchrab keladi.		
Ajdarho Gorinich yunon afsonalarida uchraydigan to'qqizbosh ajdarho.		
Dinozavrlar yerda yashagan eng qo'rqinchli mahluqlardan biri sanaladi.		
Ajdarholarning asosiy vazifasi odamlarni himoya qilish bo'lgan.		
Qadim davrda jangchilar ajdarholarning suratlaridan dushmanlarni qo'rqitish uchun foydalanганlar.		

6. Matndan olingan ushbu jumlada ifodalangan mazmunga mos keluvchi ikkinchi jumalani aniqlang.

Shuni aytish lozimki, odamlar ba'zi paytlarda ajdarholar chindan ham borligiga ishonishgan.

A. Odamlar doimo ajdarlardan qo'rqib kelishgan.

B. Ajdarholar aslida tabiatda mavjud emas, lekin qadimda odamlar ularni mavjud deb o'ylashgan.

D. Bugungi kunda odamlar ularning borligiga ishonmay qo'yishgan.

E. Qadimda ajdarholar mavjud bo'lgan, lekin bugunga kelib ular qirilib ketgan.

Shu kabi ko'rinishdagi test va topshiriqlardan foydalanishdan maqsad badiiy matnlarni o'qish orqali badiiy tajriba orttirish Shakllantiriladigan ko'nikma hikoyada keltirilgan aniq dalillarga asoslangan holda qahramonning xulq-atvori, xarakteri, vaziyat va xuloslarni chiqara oladi

Xulosalar. Yuqorida tavsiya etilgan topshiriqlar tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, ulardagi matnlar topshiriqning maqsadlariga bo'ysundirilgan holda o'zgartirilishi, almashtirilishi mumkin. Bunda o'sha sinfning psixologik holati, undagi ijtimoiy muhit, o'zlashtirishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar inobatga olinishi muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori. Toshkent – 2019.

2. С.И.Мирхайитова. Педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. Т.: 2020. 23-6.

3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2019. – 76 b.



O'QUVCHILAR JAMOASI BILAN ISHLASHNING INTERAKTIV IJTIMOY SHAKLLARI (BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARI MISOLIDA)

Nurmanova D. J.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so'zlar: o'quvchilar jamoasi, interaktiv metodlar, ijtimoiy faoliyat, hamkorlikda o'qitish, rolli o'yinlar, unozara va bahs, guruhli ishlar, ijtimoiy ko'nikmalar, kommunikativ kompetensiya, demokratik muhit, o'zaro hurmat, faol ishtirok, psixologik iqlim, mas'uliyatli yondashuv, rivojlantiruvchi ta'lim, o'quvchi subyekti.

Ключевые слова: студенческое сообщество, интерактивные методы, социальная деятельность, совместное обучение, ролевые игры, дискуссии и дебаты, групповая работа, социальные навыки, коммуникативная компетентность, демократическая среда, взаимное уважение, активное участие, психологический климат, ответственный подход, развивающее обучение, студенческий предмет.

Key words: student community, interactive methods, social activity, cooperative learning, role-playing, discussion and debate, group work, social skills, communicative competence, democratic environment, mutual respect, active participation, psychological climate, responsible approach, developmental education, student subject.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada o'quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida qo'llaniladigan interaktiv ijtimoiy shakllarning mazmun-mohiyati yoritiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni jamoa bilan ishlashga jalb etish, ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda guruhli ishlar, rolli o'yinlar, munozaralar, loyihaviy metodlar kabi interaktiv yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bu shakllar orqali o'quvchilarda hamkorlik, o'zaro hurmat, mas'uliyat, liderlik va tanqidiy fikrlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada interaktiv metodlarning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining roli va psixologik iqlimni shakllantirishdagi jihatlari ham muhim o'rin egallagan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье описана сущность интерактивных социальных форм, используемых в процессе работы с группой обучающихся. Анализируется значение интерактивных подходов, таких как групповая работа, ролевые игры, дискуссии, проектные методы, в формировании социальных навыков в образовательном процессе. Также посредством этих форм были рассмотрены возможности развития у студентов таких компетенций, как сотрудничество, взаимное уважение, ответственность, лидерство и критическое мышление. В статье также важное место занимают роль педагога в обеспечении эффективности интерактивных методов и аспекты формирования психологического климата.



SUMMARY:

This article describes the essence of interactive social forms used in the process of working with a group of students. The importance of interactive approaches such as group work, role-playing games, discussions, and project methods in the formation of social skills is analyzed in the process of education. Also, through these forms, opportunities to develop competencies such as cooperation, mutual respect, responsibility, leadership and critical thinking among students were considered. In the article, the role of the teacher in ensuring the effectiveness of interactive methods and the aspects of forming the psychological climate are also important.


Ta'lim-tarbiya jarayoni davr talabiga javob berishi uchun o'zida doimiy o'zgarishlarni amalga oshirishi tabiiy. Jumladan, o'tgan asrning 60-yillariga qadar Yevropa va Amerika ta'limida darsdan kutilgan maqsadga yetaklovchi asosiy vosita sifatida u yoki bu metod qaralgani, 1970-yillardan o'rganuvchi (bog'cha tarbiyalanuvchisi, o'quvchi, talaba va b.) aspektiga, shuningdek, dars jarayoniga ta'sir etuvchi qator omillarga e'tibor qaratila boshlandi. Shundan kelib chiqqan holda, ayniqsa, umumiy o'rta ta'limda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratila boshlandi:

- sinf o'quvchilarining motivatsiyasi hamda ularning o'rganilayotgan fanga nisbatan motivatsiyasini oshirishning imkoniyatlari;
- sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga asoslanish, o'ziga xosliklar, farqli jihatlarni ta'lim jarayoniga ta'sirini inobatga olish;
- ta'lim oluvchilarning biologik, fiziologik xususiyatlariga e'tibor qaratish;
- dars jarayonidagi muvaffaqiyatga o'quvchilarning emotsiyasi, his-tuyg'ularining ta'siri;
- individual omillari va turli ustuvor o'rganish shakllarini o'quv jarayoniga ta'siri va boshqalar.

Umumiy o'rta ta'lim jarayonining asosiy ob'ekti hisoblanmish o'quvchilar xususiyatlari, qiziqishlari va shu kabi jihatlarga bo'lgan e'tibor tegishli omillarni o'rganishni taqozo etadi.

Shu asnoda K.Riemer o'quvchining endogen, ya'ni ichki (masalan, yoshi, ustuvor o'rganish shakli va shu kabi.) va ekzogen, ya'ni tashqi (masalan, ijtimoiy kelib chiqishi, dars jarayoni va boshqa) omillarini alohida ajratib, tahlil etadi. Materiallar, metodlar, o'qituvchi kabi tarkibiy qismlardan iborat darsning ekzogen omili sifatida mumtoz didaktik muhokamalar predmeti sanalgan bir vaqtda intelligentsiya, motivatsiya va emotsiya kabi yana boshqa tashqi ekzogen omillar boshqa fan sohalarida an'anaviy predmet sifatida o'rganilmoqda. Bu esa dars mashg'ulotining bir nechta ijtimoiy sohalar kesishgan nuqtada sodir bo'ladigan murakkab jarayon ekanligini ko'rsatadi. (2.1-rasm).

Dars jarayoni ishtirokchilarining o'zaro bir-birini tushunishi, qabul qilishi va bir-biridan o'rganishi (hamkorlikdagi ta'lim)ga asoslangan ta'lim muhiti



1-rasm. Ta'lim jarayonidagi individual ta'sirlar (K.Riemer)

butun dars jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hamkorlikka asoslangan ta'lim barcha o'quvchilar uchun, ya'ni sinf o'quvchilari jamoasi uchun mafaatlidir: kuchsizroq o'quvchilar qo'llab-quvvatlanadi, kuchliroqlari esa o'z o'rgangan o'quv materiallarini boshqalar bilan bo'lishadi va takrorlash orqali o'z bilimlarini mustahqamlaydilar. Mazkur shakl sohaviy adabiyolarda "yordam beruvchi-tamoyil" nomi ostida yuritiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu bobda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash kompetentsiyasining metodik-didaktik xususiyatlariga diqqat-e'tibor qaratilib, o'quvchilar jamoasi bilan ishlashda ijtimoiy shakllar va usullarga alohida to'xtalishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Xususan, o'qituvchi va sinf o'quvchilarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati va dars jarayoniga ijtimoiy shakllarning ijobiy ta'sirini o'rganish masalasiga mazkur faslda alohida to'xtalamiz.

O'qituvchi va sinf o'quvchilari jamoasi o'rtasidagi hamda o'quvchilarning o'zaro harakatlari, faoliyati ingliz tilida „Interaction“, nemis tilida esa „Interaktion“ terminlari bilan ifodalanadi. Ushbu termin lotin tilidan olingan inter „agere“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "ikki tomonlama, o'zaro, bir-biri bilan bog'liq tarzda harakatlanish" degan ma'noni anglatadi. Dars davomida quyidagi harakatlar farqlanadi (1.4-rasmga qarang).

Ushbu aspekt ustida izlanishlar olib borgan T.Shtayn bu kabi o'zaro harakatlarni darsdagi ikki yoki undan ko'proq shaxslar o'rtasidagi "ijtimoiy aloqalarning vujudga kelish jarayoni" sifatida tushuntiradi. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar bir-biri bilan (A), shuningdek, sinf o'quvchilari o'zaro bir-birlari bilan (D) harakatga kirishishlar kuzatiladi. So'nngi shakl orqali darsda



o'quvchilar bir-birlaridan o'rganishlari imkoniyati tug'iladi. O'zaro harakat deganda dars davomida o'quvchilarning matnlar bilan ishlashi yoki biror topshiriq, vazifani bajarishda yuzaga keladigan faoliyatni ham nazarda tutadi. Shuningdek, raqamli doskalar, kompyuterlar kabi interaktiv vositalar bilan ishlash ham shular jumlasidandir (S).

O'qituvchi dars davomida vazifalar beradi, ijtimoiy shakl va metodlardan, shuningdek, dars materiallari va texnik vositalardan foydalanadi (V) (1.4-rasmga qarang).

Demak, o'zaro faoliyat darsdagi barcha muloqot jarayonlarini ifodalaydi. Bunda guruh bo'lib, juft bo'lib ishlash kabi kooperativ ijtimoiy shakllar orqali o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanadi. Faol ishtirok, o'z navbatida, bilimlarni musahkamroq egallashga sabab bo'ladi va natijada o'zlashtirilgan bilimlar yodga muhrlanadi. Bundan tashqari o'zgaruvchan ijtimoiy shakllar orqali o'quvchilarning nafaqat muloqot olib borish qobiliyati oshadi, balki sinf o'quvchilari jamoasi ichida ijtimoiy aloqalar ham rivojlantiriladi. Bu hamkorlikda o'rganish uchun motivatsiyaning oshishiga sabab bo'lib, sinf o'quvchilari jamoasi e'tiborini to'liq darsga qaratadi. Demakki, ijtimoiy o'zaro faoliyat darsga, o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning oshishiga o'z hissasini qo'shadi va o'zlashtirilgan bilimlarni yodda saqlash uchun yordam beradi.

Amerika Qo'shma Shtatlari va Germaniya Federativ Respublikasi da olib borilgan qator tadqiqotlar natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning dars davomidagi og'zaki nutqi miqdori orqaligina darsning o'zaro harakat va faollik darajasini belgilash imkoni juda past. Bu ayniqsa, xorijiy til darslarida kuzatiladi. Chunki darsda eng ko'p nutq o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi: mashq va topshiriqlarni tushuntiradi, grammatika va yangi leksikani bayon qiladi yoki natijalarni tekshiradi, shuningdek, xulosalar beradi. Butun dars davomida har bir o'quvchi uchun bir necha daqiqagina "so'zga chiqish" imkoni beriladi. Qolaversa, ushbu vaqtning muayyan qismi o'quvchilar uchun ahamiyatli va ayni paytda dars mazmuniga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin.

Ijtimoiy shakllar va metodlarni to'g'ri tanlash o'quvchilarning darsdagi faol ishtirokini yuqori darajaga olib chiqishga sabab bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi esa, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, mustaqil bilim olishiga turtki bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'quv jarayoni uchun "javobgarlik" o'qituvchidan sinf o'quvchilari jamoasiga o'tadi. Bunda kooperativ metodlar va ijtimoiy shakllarning o'rni beqiyosdir.

Dars jarayoni uchun ta'sirchan struktura sifatida qaraladigan hamkorlikka yo'naltirilgan ta'lim (kooperativ ta'lim)da sinf o'quvchilari jamoasi o'z burchlarini his etgan holda va faol tarzda dars materialini o'zlashtiradilar.



Masalan, boshida yakka holda, keyin kichik guruhlarda birgalikda va oxirida butun sinf jamoasida ishlaydilar.


Mavjud tadqiqotarni ko‘zdan kechirganimizda, hamkorlikka yo‘naltirilgan ta‘lim metodik aspektida uch bosqichdan iborat ekanligiga guvoh bo‘lamiz: fikrlash – almashinuv – namoyish bosqichlari (2.3-rasm).

Bu orqali nafaqat individual, balki hamkorlikdagi ta‘limni amalga oshirish imkonini mavjuddir. Buni to‘liq anglash har bir bosqichga to‘xtalishni taqozo etadi:

- **fikrlash bosqichi:** dastlab har bir o‘quvchi berilgan vazifani yakka tartibda bajaradi. Bu undan o‘quv materialini ustida faol va burch hissi bilan ishlashni talab etadi;

- **almashinuv bosqichi:** guruhning barcha a‘zolari birgalikda ishlashadi va kutilgan maqsad uchun birgalikda javobgar bo‘lishadi. Ushbu ijobiy “bog‘liqlik” uchun o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va ko‘maklashish xos xususiyatidir;

- **namoyish qilish bosqichi:** “ish” natijalari jamoada namoyish qilinadi, taqqoslanadi va imkon qadar takomillashtiriladi.



2-rasm. Hamkorlikka yo‘naltirilgan ta‘limning metodik bosqichlari

Hamkorlikka yo‘naltirilgan ta‘limning boshqa tamoyillarga qaraganda samaraliroq ekanligini sohaga oid boshqa tadqiqotlar tahlili ham ko‘rsatadi. Kooperativ ta‘limni amalga oshirishda ijtimoiy shakllarning ahamiyati juda katta. Xorijiy manbalarni ko‘zdan kechirganimizda, mazkur tushuncha nemis tilida „Sozial formen“, ingliz tilida esa “social forms” terminlar qo‘llanishiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur termin o‘zbek tilimizda

muqobil tarjima variatiga ega bo‘lmaganligi sababli tadqiqotimiz davomida uni kalkalash usuli orqali “ijtimoiy shakllar” deb qo‘llashni maqsadga muvofiq deb topdik.


Ijtimoiy shakllar darsda muloqot uchun sharoit yaratadi; o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamda sinf o‘quvchilari o‘zaro muloqoti, munosabati uchun ish shakllari sanaladi. Shu tarzda ijtimoiy shakllar orqali darsdagi aloqalar, munosabatlar, harakatlar tashkil etiladi va tartibga solinadi. Shuningdek, bir



tomondan, ijtimoiy jarayonlar tashkil etiladi, boshqa tomondan esa kognitiv o'quv jarayoni boshqariladi. Sinf xonasida o'qituvchi va sinf o'quvchilari jamoasi o'rtasidagi „hamkorlik“ yoki juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, butun sinf jamoasi bilan (frontal dars) ishlash shakllida yoki yakka holda ishlash tarzda amalga oshiriladi. Mazkur shakllar bir tushunchada umumlashtirilib, ijtimoiy shakllar termini bilan ataladi.

Turli ijtimoiy shakllarni maqsadli qo'llash hamda dars jarayonida ularni ongli tarzda almashtirish darsda ishtirok etayotgan barcha o'qituvchi va sinf o'quvchilari jamoasini ushbu jarayonga integratsiya qilish uchun muhim vosita hisoblanadi va darsdan kutilgan samaradorlikni kafolatlaydi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi va uning sinf o'quvchilari jamoasi orasidagi o'zaro harakat, faoliyat va faollik sinf xonasining jihozlanishi, stol-stullar joylashuvi orqali ham ta'minlanadi. Buning ko'plab imkoniyatlar (2.4-rasm) amalda mavjud bo'lib, ulardan o'qituvchi darsning maqsadidan



3-rasm. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi va uning sinf o'quvchilari jamoasi o'rtasidagi o'zaro harakat va faollik imkoniyatlari



kelib chiqqan holda samarali foydalanishi butun dars jarayoniga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Interaktivlik ya'ni o'zaro harakat, ishtirokchilararo faoliyat deganda o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi, o'zaro o'quvchilararo hamda o'quvchilar va o'quv materiallari orasidagi ijtimoiy aloqa, munosabatlar nazarda tutiladi. Ushbu tushuncha o'quvchilar va o'qituvchi yoki o'quvchilar o'zaro bir-birlari bilan qay tarzda harakatlanishlari, munosabatga kirishishlari va bu orqali bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlarini ifodalaydi. Dars ishtirokchilariaro faoliyat noverbal kommunikatsiya va muloqotni rad etish kabi holatlarni ham o'z ichiga oladi. Ishtimoiy shakllar va metodlar, mashq va topshiriqlar sinf jamoasining o'zaro/ ishtirokchilararo faoliyatini boshqaradi”.

Dars jarayonidan kelib chiqib parta-stullarning turli joylashuv tartibidan maqsadli foydalanish o'qituvchi mahoratidan dalolat beradi. Jumladan, 1-holat (2.4-rasmga qarang) asosan frontal dars yoki yakka tartibda ishlash mashqlari uchun qo'llanilsa-da, o'rni kelganda, juft bo'lib ishlash mashqlarini ham bajarishda qo'l keladi; ammo doim bir qo'shni o'quvchi bilan juftlikda ishlashga to'g'ri keladi. Ammo ushbu joylashuv holatida guruh bo'lib ishlash deyarli imkonsiz. Xulq-atvor psixologiyasiga oid tadqiqotlar natijasi tahlilidan ayonki, nigohlar orqali aloqa qilish imkoniyati shaxslar o'rtasidagi o'zaro harakat, faoliyatni yengillashtiradi. Shu sababli o'quvchilar bir-birlarini ko'ra oladigan va aksincha bir-birlariga “orqa o'girib” o'tirmaydigan holatda parta-stullarning joylashuvi dars jarayonidagi muloqotni rag'batlantiradi. Shunga tayanib aytish mumkinki, 1-holatdagi joylashuv o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni qiyinlashtirgan bir vaqtda “П” yoki “U” shakllardagi (masalan, 2 yoki 5-holatlar) joylashuvlar dars ishtirokchilariaro harakatni qo'llab-quvvatlaydi.

Dars davomida ijtimoiy shakllardan imkon qadar istalgan dars ishtirokchilariaro harakatlarni qo'llay olish uchun sinf xonasidagi parta-stullarni shunga mos tarzda o'zgartira olish imkoni mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun moslashuvshan mebel (oson harakatlanuvchi parta va stullar)ning mavjudligi dars xonasining optimal jihozlash uchun asosiy mezonlardan biri sanaladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy fikr va xulosalardan ma'lum bo'ladiki, dars jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisi va uning sinf o'quvchilari jamoasi o'rtasida hamda o'quvchilararo o'zaro harakatlar, ta'limiy aloqalarni amalga oshirish ijtimoiy shakllar orqali belgilanadi. Bu o'qituvchining sinf o'quvchilari jamoasi bilan ishlashida muhim didaktik aspekt sanalsa, dars davomida mashq, vazifa va topshiriqlarni bajarishning usul va tarzi, ya'ni metodikasi uning metodik xususiyati hisoblanadi.



2. O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi Qonuni. Rasmiy nashr. O'zbek (kirill, lotin alifbosi) va rus tillarida. – Toshkent: Adolat, 2016. – 80b.
3. «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyun, PQ-3775-sonli Qarori // www.lex.uz.
4. «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5106 sonli Farmoni // www.lex.uz.
5. «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2017 yil 18 aprel, PQ-2896-son
6. «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // «Xalq so'zi» gazetasi. 2017 yil 28 iyul.
7. Болингброк. Писма об изучении и ползе истории. /Пер.с.англ. А.Т.Парфенова. М.: 1978.
8. Хайруллин Г.Т. О понятийном аппарате педагогики /Педагогика, № 5, 1991. С. 58.
9. Маковелский А.О. Авеста. –Баку, Изд-во АН АзССР. - 1960. С. 18.



IJTIMOIIY MOBILLIK MEXANIZMLARINI TARTIBGA SOLISH

Karimova L.M.

*Buxoro davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası
dotsenti, PhD*

Tayanch soʻzlar: ijtimoiy mobillik, tartibga solish mexanizmlari, taʼlim, mehnat bozori, davlat siyosati, ijtimoiy tenglik, raqamli texnologiyalar, fuqarolik jamiyati, inklyuziv rivojlanish.

Ключевые слова: социальная мобильность, механизмы регулирования, образование, рынок труда, государственная политика, социальное равенство, цифровые технологии, гражданское общество, инклюзивное развитие.

Key words: social mobility, regulation mechanisms, education, labor market, state policy, social equality, digital technologies, civil society, inclusive development

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada ijtimoiy mobillik tushunchasi, uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va harakat mexanizmlari keng tahlil qilinadi. Xususan, taʼlim, mehnat bozori, davlat siyosati va raqamli texnologiyalar orqali ijtimoiy holatni oʻzgartirish imkoniyatlari yoritilgan. Ijtimoiy tenglikni taʼminlashda davlat dasturlari va strategiyalarining oʻrni, huquqiy-meʼyoriy asoslar, fuqarolik jamiyati institutlari va monitoring mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yoʻllari koʻrsatilgan. Maqola ijtimoiy adolat, barqarorlik va inklyuziv rivojlanishni taʼminlashda mobillikni tartibga solishning dolzarbligini asoslab beradi.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается понятие социальной мобильности, её значение в современном обществе и основные механизмы движения индивидов по социальной лестнице. Особое внимание уделено роли образования, рынка труда, государственной политики и цифровых технологий в обеспечении социальной мобильности. Анализируются нормативно-правовые основы, государственные программы, институты гражданского общества и механизмы мониторинга, направленные на упорядочивание социальной мобильности. Также обозначены проблемы и предложены пути их решения. Работа подчёркивает актуальность регулирования мобильности для достижения социальной справедливости, устойчивости и инклюзивного развития.

SUMMARY:

This article explores the concept of social mobility, its importance in modern society, and the key mechanisms that allow individuals to change their social status. Particular emphasis is placed on the roles of education, the labor market, state policy, and digital technologies in facilitating upward mobility. The study examines legal frameworks, national development programs, civil society institutions, and monitoring systems aimed at regulating social mobility. Challenges and



potential solutions are discussed. The article substantiates the relevance of regulating mobility as a means to achieve social justice, stability, and inclusive development.

Kirish. Zamonaviy jamiyatning barqaror taraqqiyoti ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi adolatli harakatlilik imkoniyatlarini yaratishga bevosita bog'liq. Har qanday demokratik jamiyatning rivojlanish mezonlaridan biri – bu undagi ijtimoiy mobillik darajasidir. Ijtimoiy mobillik – bu shaxslar va guruhlarining jamiyat ierarxiyasida yuqoriga yoki pastga harakatlanishidir. Bu harakatlanish jarayoni jamiyatdagi ijtimoiy struktura va institutlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, u fuqarolarning ta'lim, kasb, daromad, siyosiy maqom yoki ma'naviy obro' orqali o'z ijtimoiy pozitsiyasini o'zgartirish imkoniyatlarini belgilaydi. Ijtimoiy mobillik gorizontal (ya'ni kasbni yoki yashash joyini o'zgartirish, bir muassasadan boshqasiga o'tish) va vertikal (ya'ni ijtimoiy maqomning ko'tarilishi yoki tushishi – masalan, lavozim o'sishi yoki iqtisodiy inqiroz tufayli pasayishi) shakllarda namoyon bo'ladi.

Mazkur jarayonni adolatli tartibga solish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, teng imkoniyatlar va fuqarolik faolligini kuchaytirish mumkin. Ayniqsa, aholining turli qatlamlari – yoshlar, ayollar, nogironlar va chekka hududdagi fuqarolar uchun teng ijtimoiy harakatlilik imkoniyatlarining yaratilishi jamiyatdagi inklyuzivlik darajasini oshiradi. Ijtimoiy mobillik, keng ma'noda, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish, jamiyatda o'z o'rnini topish va ijtimoiy farovonlikka erishish uchun zarur bo'lgan asosiy vositadir.

Shuningdek, bu jarayonning tartibga solinishi – ya'ni uni qonuniy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlar orqali boshqarish – barqaror ijtimoiy tizimni saqlash, teng imkoniyatlarni ta'minlash va ijtimoiy adolatni amalga oshirish uchun muhim omildir. Agar ijtimoiy harakatlanuvchanlik imkoniyatlari faqat tor doira vakillari bilan cheklanib qolsa, bu jamiyatda ijtimoiy norozilik, ijtimoiy qatlamlar o'rtasida ziddiyatlar va adolatsizlik hissining kuchayishiga olib keladi. Shu boisdan, har qanday davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ijtimoiy mobillikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy mobillik va xotin-qizlar faolligi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli nazariy va amaliy yondashuvlar mavjud. Karimova (2024) O'zbekistonda ayollar ijtimoiy mobilligini kuchaytirish mexanizmlarini tahlil qilgan. Mukhlisa va Amanovna (2023) esa yoshlar bilan ishlashda psixologik omillarga urg'u beradi. Shuningdek, Sharipov (2022) tomonidan gender tengligi va innovatsion muhitga oid ijtimoiy-falsafiy qarashlar ilgari surilgan. Bu manbalar orqali ijtimoiy mobillikning ta'lim, mehnat bozori va huquqiy institutsiyalar bilan bog'liqligi, shuningdek, genderga oid muammolar kompleks



yoritilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy harakatlanuvchanlikka erishish uchun ko'p omilli, integratsiyalashgan yondashuv talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy mobillik va xotin-qizlar faolligini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar (Konstitutsiya, qonunlar, strategiyalar) kontent tahlili asosida o'rganildi. Ikkinchidan, ilgari o'rganilgan nazariy manbalar asosida kontseptual asoslar ishlab chiqildi. Uchinchidan, sifatli tahlil usuli yordamida davlat dasturlari (masalan, "Yoshlar – kelajagimiz", "Har bir oila – tadbirkor")ning ijtimoiy mobillikka ta'siri baholandi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlardan ko'ra, huquqiy-siyosiy mexanizmlar va ularning natijalariga sotsiologik yondashuv ustuvor bo'ldi. Bu metodologiya mavzuni chuqurroq va tizimli o'rganishga imkon yaratdi.

Natijalar va muhokama. Ijtimoiy mobillik tushunchasi XX asrda Pitirim Sorokin tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan. Unga ko'ra, har qanday jamiyatda ijtimoiy zinalar mavjud bo'lib, fuqarolar ulardan yuqoriga yoki pastga harakat qiladi. Ushbu harakat erkin bo'lishi uchun institutlar va mexanizmlar tartibga solingan bo'lishi kerak.

Asosiy mexanizmlar:

Ta'lim – bilim orqali kasb va maqom o'zgarishiga yo'l ochadi.

Mehnat bozori – kasbiy malaka va mehnat faoliyati orqali yuksalish imkoniyati.

Huquqiy institutlar – fuqarolarning imkoniyatlarini himoya qilish va tenglikni ta'minlash.

Oilaviy va meros tizimi – ijtimoiy pozitsiyaning avloddan avlodga o'tishiga ta'sir qiladi.

Axborot va raqamli texnologiyalar – ijtimoiy integratsiyaning yangi ko'rinishlarini shakllantiradi. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi - bu ularning jamiyatdagi faol ishtirokini, tashabbuskorligini, o'z hayoti va atrofda muhitga ongli ta'sir ko'rsatish qobiliyatini aks ettiruvchi tushunchadir. Ijtimoiy faollik orqali ayollar nafaqat oilaviy hayotda, balki siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy sohalarda ham faol rol o'ynashadi.

Sotsiologik adabiyotlarda "ijtimoiy faollik" atamasi fuqarolarning ijtimoiy hayotda ongli, ixtiyoriy va barqaror ishtirokini ifodalaydi. Bu ishtirok turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: jamoat faoliyatida qatnashish, fuqarolik tashabbuslari, siyosiy ovoz berish, volontyorlik, nodavlat tashkilotlarda faoliyat yuritish va boshqalar [2, 1448-bet].

Ijtimoiy mobillikni tartibga solish – bu fuqarolarning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlash, ularning salohiyatidan to'liq foydalanish va ijtimoiy



tenglikka erishish yo'lidagi murakkab, ammo muhim jarayondir. Bu jarayon bir nechta o'zaro bog'liq vositalar va mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

Ijtimoiy mobillikni tartibga solishning asosiy mexanizmlaridan biri bu qonuniy asoslarni mustahkamlashdir. Asosiy hujjatlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – har bir fuqaroning ta'lim olish, mehnat qilish va ijtimoiy himoya huquqini kafolatlaydi.
- “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun – bilim olish orqali shaxsiy o'sish imkoniyatini yaratadi.
- Mehnat Kodeksi – mehnatga adolatli yondashuvni tartibga soladi.
- Gender tengligi, nogironlar huquqlari to'g'risidagi qonunlar – himoyasiz guruhlar uchun ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytiradi.
- Xalqaro konvensiyalar (ILO, CEDAW va boshqalar) – ijtimoiy tenglikka oid xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlaydi.

Ijtimoiy mobillikni ta'minlashda davlat siyosati va strategik yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda ijtimoiy tenglik, imkoniyatlar barobarligi va aholining faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish davlat dasturlari orqali tizimli ravishda yo'lga qo'yiladi. Bu dasturlar bevosita iqtisodiy, ta'limiy, gender va hududiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan [1, 86-bet].

“Yoshlar – kelajagimiz” dasturi - yoshlarga ta'lim, ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ijtimoiy faollikka chiqish imkonini beradi. U quyidagi jihatlarni qamrab oladi: Kredit va grantlar orqali biznes loyihalarni moliyalashtirish; Kasb-hunarga yo'naltirish markazlari tashkil etish; Ishsiz yoshlarga kasbiy tayyorgarlik kurslarini tashkil qilish; Ijtimoiy himoya ehtiyojlariga ega yoshlarga ko'mak. Bu dasturning asosiy maqsadi – yoshlarda o'zini o'zi band qilish ko'nikmasini shakllantirish orqali ularning iqtisodiy va ijtimoiy maqomini yuksaltirishdir.

“Har bir oila – tadbirkor” loyihasi - aholi bandligini oshirish orqali ijtimoiy stratifikatsiyani yumshatishga qaratilgan. Loyihada: Qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi oilaviy biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar beriladi; O'quv-seminarlar orqali moliyaviy savodxonlik oshiriladi; Ayniqsa, chekka hududlardagi oilalarning iqtisodiy faolligi kuchaytiriladi. Bu dastur orqali oilaviy mehnat bandligi orqali ijtimoiy ko'tarilish uchun qulay muhit yaratilmoqda.

“Ayollar daftari” va “Temir daftar” - ehtiyojmand, nogironligi bo'lgan, yakka tartibda farzand tarbiyalayotgan, ishsiz yoki jinoyat sodir qilgan oilalardagi ayollar va fuqarolar aniqlanadi hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqiladi: Ustuvor ravishda ta'lim va kasbiy qayta tayyorlash kurslari, Davlat ishlariga jalb qilishda imtiyozlar, Uy-joy va subsidiya dasturlarida



qatnashish huquqi. Bu strategiya ayollar va ishsiz fuqarolarni jamiyat hayotiga integratsiya qilish orqali ijtimoiy inklyuziyani kuchaytiradi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi - milliy strategiya barqaror taraqqiyot maqsadlariga uyg‘un holda ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ijtimoiy tenglik va mobillikni ta‘minlash asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan: Ta‘lim sifatini oshirish va raqamlashtirish; Yangi ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish; Innovatsion va texnologik startaplarni qo‘llab-quvvatlash; Hududlararo iqtisodiy tenglikni ta‘minlash. Bu strategiya fuqarolarning ijtimoiy o‘rishini to‘laqonli ta‘minlaydigan siyosiy va iqtisodiy zamin yaratishga qaratilgan.

Raqamli O‘zbekiston – 2030 - Raqamli transformatsiya strategiyasi orqali har bir fuqaro uchun ochiq imkoniyatlar maydoni yaratilmoqda: Onlayn ta‘lim imkoniyatlari, Masofaviy ish faoliyati, Elektron xizmatlar orqali fuqarolarning davlat bilan aloqasi shaffof va tezkor bo‘lishi. Ushbu yondashuv orqali shahar-qishloq tafovutlarini qisqartirish, ijtimoiy harakatlilikni kuchaytirish va adolatli resurs taqsimotini yo‘lga qo‘yish maqsad qilingan [4, 142-bet].

Davlat dasturlari va strategiyalari – bu ijtimoiy mobillikni davlat siyosati darajasida tartibga solishning eng muhim vositalaridir. Ular aholining turli qatlamlariga moslashtirilgan, ehtiyojga asoslangan, zamonaviy mexanizmlarga tayanadi. Kelgusida ushbu dasturlarni barqaror moliyalashtirish, monitoring qilish va samaradorligini oshirish orqali ularning ijtimoiy mobillikka qo‘shayotgan hissasini yanada kuchaytirish mumkin.

Xulosa. Ijtimoiy mobillik mexanizmlarini tartibga solish – bu nafaqat ijtimoiy adolat va tenglikni ta‘minlash yo‘li, balki inson kapitalining to‘laqonli rivojlanishini, jamiyatning iqtisodiy va madaniy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan asosiy omildir. Bu mexanizmlar orqali fuqarolarning bilim olish, mehnat qilish, huquqiy himoya va iqtisodiy imkoniyatlardan teng darajada foydalanishlari ta‘minlanadi. Ayniqsa, ijtimoiy noxolislik va tafovutlarni kamaytirish, himoyasiz qatlamlarni jamiyat hayotiga faol integratsiya qilishda ta‘lim, mehnat bozorining ochiqligi, raqamli texnologiyalar va gender tengligi siyosatining o‘rni beqiyosdir.

O‘zbekiston sharoitida ushbu mexanizmlar davlat siyosati, huquqiy normalar, ta‘lim tizimi va raqamli infratuzilma asosida shakllanmoqda. Xususan, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Ayollar daftari” kabi dasturlar va “O‘zbekiston–2030” strategiyasi orqali aholining barcha qatlamlari uchun ijtimoiy ko‘tarilish yo‘llari ochilmoqda. Bu jarayonlarda fuqarolarning salohiyati, tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligidan to‘laqonli foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.



Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy mobillikni tartibga solish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga, balki fuqarolarning o'z hayoti ustidan ongli nazoratini kuchaytirishga, jamiyatda ishonch, birdamlik va barqarorlik muhitini yaratishga olib keladi. Kelgusida bu yo'nalishdagi islohotlarni moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, monitoring va tahlil tizimlarini kuchaytirish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Demak, ijtimoiy mobillik – bu shunchaki ijtimoiy o'zgarish emas, balki adolatli va inklyuziv jamiyat qurilishining strategik asosi, barqaror kelajakni ta'minlovchi vosita sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova L. M. Optimal ways to improve women's social mobility mechanisms //Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 87-90.
2. Mukhlisa A., Amanovna H. A. Social psychological mechanisms of working with disordered youth //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 4. – C. 1448-1452.
3. Шарипов А., Мухаммадиева Г. И. Some theoretical aspects moral and legal education of schoolchildren //Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Гуманитарные науки. – 2019. – №. 3 (60). – C. 141-144.
4. Sharipov A. A. Philosophical aspect of the new innovation and investment environment: philosophical aspect of the new innovation and investment environment //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
5. Sharipov A. A. Social and philosophical analysis of gender potential: social and philosophical analysis of gender potential //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
6. Sharipov A. A Actual Tasks of Ensuring Harmony of Uzbek Philosophy and Development Strategy: Actual Tasks of Ensuring Harmony of Uzbek Philosophy and Development Strategy //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.



ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТАЪЛИМИ УСТАЛАРИНИНГ АТТЕСТАЦИЯСИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА ЎТКАЗИШНИНГ МЕЪЁРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Уралов С.А.

Ангрен университети ўқитувчиси, p.f.f.d. (PhD)

Таянч сўзлар: ишлаб чиқариш таълими усталари, касбий таълим тизими, аттестация, малака, дуал таълим, семинар-тренинг.

Ключевые слова: мастера производственного обучения, система профессионального образования, сертификация, квалификация, дуальное образование, семинар-обучение.

Key words: masters of industrial training, vocational education system, certification, qualification, dual education, seminar-training.

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада касбий таълим тизимида фаолият юритаётган ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестация жараёнини ташкил қилиш ва ўтказишнинг мамлакатимизда қабул қилинган меъёрий – ҳуқуқий ҳужжатларга асосланганлиги ва хорижий давлатларда ушбу жараёнларни ташкил этишдаги тажрибалари батафсил ёритилган.

РЕЗЮМЕ:

В статье подробно изложены вопросы организации и проведения процесса аттестации мастеров производственного обучения, работающих в системе профессионального образования, на основе нормативно-правовых документов, принятых в нашей стране, и опыта организации данных процессов в зарубежных странах.

SUMMARY:

The article presents in detail the issues of organizing and conducting the certification process for industrial training masters working in the vocational education system, based on regulatory documents adopted in our country and the experience of organizing these processes in foreign countries.

Мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти жамият ҳаётидаги ўзгаришлар сингари, нафақат таълим соҳасида, балки касбий таълим соҳасида ҳам зарурий ислохотларни амалга оширишни тақозо этди. Шунуктаи назардан мамлакатимиз раҳбари Ш.Мирзиёевнинг “Касбий таълимда малакали кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва халқаро таълим дастурларини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2024 йил 16 октябрдаги ПФ-158-сон Фармони хорижий тажрибалар асо-



сида касбий таълим соҳасини такомиллаштиришга қаратилди. Фармонга кўра, касбий таълим тизими ишлаб чиқариш таълими усталарига ҳам ўқитувчилар сингари бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан 200 фоизгача устамалар бериш белгиланди [1].

“Профессионал таълим муассасалари ишлаб чиқариш таълими усталарининг намунавий йиллик иш режаси ҳамда уларнинг асосий фаолият турларига сарфланадиган вақт меъёрлари” Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳамда Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг 2024-йил 29-февралдаги 3-қ/қ ва 3-2024/ққ-сон қарорига илова сифатида тасдиқдан ўтказилди.

Ушбу меъёрий ҳужжат орқали ишлаб чиқариш таълими усталарининг вақт меъёрлари белгилаб олинди ва уларнинг педагогик фаолияти тартибга солинди. Бу орқали ишлаб чиқариш таълими усталари томонидан бажариладиган ишлар (педагогик юкламалар) оптималлаштирилиб, уларнинг сони 54 тадан 14 тага қисқартирилди ҳамда ишлаб чиқариш таълими усталарининг фаолиятига боғлиқ бўлмаган иш турлари бекор қилинди ва мазмунан бир-бирига яқин бўлган иш турлари оптималлаштирилди.

Ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестациядан ўтказиш масаласи Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мақтабгача, умумий ўрта, ўрта махсус, профессионал ва мактабдан ташқари таълим ташкилотлари педагог кадрларини аттестациядан ўтказиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2021-йил 17-сентябрдаги 572-сон қарорида келтирилган эди. Унга кўра, Таълим ташкилотларининг олий маълумотга эга бўлмаган педагог кадрлари, шунингдек, ишлаб чиқариш таълими усталари касбий стандартлар ҳамда ходимларнинг ҳар бир лавозим ва касб бўйича малака даражасига қўйиладиган талаблар асосида тизимида мактабгача, умумий ўрта, ўрта махсус, профессионал ва мактабдан ташқари таълим ташкилотлари бўлган вазирликлар ва идоралар (кейинги ўринларда - манфаатдор вазирликлар ва идоралар) томонидан аттестациядан ўтказилиши белгиланган. Таълим ташкилотларининг олий маълумотга эга бўлмаган педагог кадрлари ва ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестациядан ўтказиш тартиби манфаатдор вазирликлар ва идоралар томонидан белгиланиши” таъкидлаб ўтилган [2].

Жорий йилда Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан “Касбий таълим ташкилотларининг ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестациядан ўтказиш тартиби тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Ҳукумат қарори лойиҳаси муҳокамага қўйилган эди. Унга кўра, ишлаб чиқариш таълими усталари олий ёки



ўрта махсус (касбий таълим) маълумот олганлиги, норасмий ва информал орттирилган кўникма ва малакаларни тан олиш (“Recognition of Prior Learning”) диплом ёки сертификатлар шунингдек қайта тайёрлаш курсидан ўтганлиги ҳақидаги дипломида кўрсатилган мутахассислиги ёки ихтисослиги бўйича аттестациядан ўтади.

Аттестациядан ўтиш учун таълим усталари қоидага кўра 1-августдан 1-октябрга қадар бевосита Вазирликнинг расмий веб-сайтида pedagog.edu.uz электрон ахборот тизимидан рўйхатдан ўтган ҳолда мурожаат қиладилар.

55 баллдан кам кўрсаткичга эга бўлса - аттестациядан ўтмаган, малака тоифасиз таълим устаси лавозимига мувофиқ эмас деб (навбатдан ташқари аттестацияга жалб этилган педагог кадрлар бундан мустасно) ҳисобланади.

Малака тоифасиз таълим устаси навбатдаги мажбурий аттестациядан ўта олмаган тақдирда, иш берувчи ходимнинг малакаси етарли бўлмаганлиги сабабли у билан тузилган меҳнат шартномасини меҳнат тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда бекор қилиш ҳукукига эга.

Шунингдек, ишлаб чиқариш таълими усталарининг педагогик маҳорати ва психологик тайёргарлигига 15 балл ажратилади, ушбу баллар таълим муассасаси томонидан қўйилади. Жумладан,

- Очиқ дарслар ўтганлиги учун (мунтазам равишда) – 3 балл;
- Ўқувчиларнинг ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётларидан рейтинг кўрсаткичлари учун (синф журналлари асосида) – 3 балл;
- Таълим бериш воситалари, касбга доир жиҳозлардан амалий машғулотларда фойдаланганлиги учун – 3 балл;
- Ўқув қўлланмаси, наъмунавий дастур ёзишда қатнашганлик, илмий мақолалар ва бошқа илмий ютуқлар учун – 3 балл;
- Педагог кадрларнинг турли касбий кўрик-танловлар ва мусобақаларда эришган ютуқлари учун – 3 балл.

Ушбу қўйиладиган баллар максимал даражаси кўрсатилган бўлиб, бажарилган ишнинг сифатига қараб 1 ёки 2 балл ҳам қўйилиши мумкин.

Иш берувчи меҳнат шартномасини бекор қилмаган тақдирда, навбатдаги мажбурий аттестациядан ўта олмаган малака тоифасиз таълим устасини навбатдан ташқари аттестацияга кўпи билан икки марта жалб этади. Бунда икки мартадан бирортасида ҳам навбатдан ташқари аттестациядан ўта олмаган таълим устаси билан тузилган меҳнат шартномаси ходимнинг малакаси етарли бўлмаганлиги сабабли бекор қилинади.



Ишлаб чиқариш таълими усталари, иқтисодиёт ва ижтимоий ривожланиш учун муҳим аҳамиятга эга. Улар бўлажак касб эгаларининг касбий билим ва кўникмаларини шакллантиришда муҳим роль ўйнайдилар. Усталарни аттестациядан ўтказиш, уларнинг малака ва билим даражасини баҳолаш, таълим сифатини ошириш учун асосий механизм ҳисобланади. Шу ўринда айрим хорижий давлатларнинг ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестациядан ўтказиш жараёнига турли ёндашувларини кўриш мумкин.

Масалан, Германияда касбий таълим тизими дуал таълим моделига асосланган. Ушбу модельнинг асосий мақсади, талабаларни ишлашга тайёрлаш ва иш ўринларида амалий кўникмаларни шакллантиришдир. Ушбу модельда усталарни аттестациялаш жараёнида амалий ва назарий билимларни интеграциялаштиришга алоҳида эътибор қаратилган. Муаммо ва натижаларга асосланган аттестация, усталарнинг касбий кўникмаларини реал вақтда баҳолаш имконини беради. Германиядаги аттестация жараёнининг асосий жиҳатлари назарий ва амалий имтиҳонларнинг ташкил этилишидадир. Назарий имтиҳонлар - назарий билимлар, яъни фан, технология ва ишлаб чиқариш жараёни билан боғлиқ билимлари баҳоланади. Амалиёт имтиҳонларида реал иш муҳитида ўз кўникмаларини намойиш қилишлари талаб этилади. Бу босқичда ишлаб чиқариш жараёнларидаги муаммоларни ҳал қилиш, техник кўникмаларни бажариш ва иш жадвалини сақлаш каби кўникмалар баҳоланади. Аттестациянинг мазмуни ишлаб чиқариш соҳасидаги янги технологиялар, стандартлар ва методологияларга асосланади. Усталарнинг малака даражаси, уларнинг ишлаб чиқариш жараёнидаги фаолияти ва инновацион ечимлар таклиф этиш қobiliяти баҳоланади. Германияда аттестация жараёни халқаро стандартларга мослашган. Ушбу стандартлар, мос равишда, Европа Иттифоқи ва бошқа халқаро ташкилотлар томонидан қабул қилинган. Усталарнинг сертификатлари дунё бўйлаб тан олинади, бу эса уларнинг касбий имкониятларини кенгайтиришга ёрдам беради. Иш берувчилар, яъни ишлаб чиқариш корхоналари, аттестация жараёнида муҳим роль ўйнайдилар. Улар ўқув дастурларини шакллантириш, ўқувчилар учун амалий тажриба ташкил этиш ва аттестация имтиҳонларини ўтказишда иштирок этадилар [3].

Германиянинг ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестациялаш тизими, дуал таълим моделини ва амалий кўникмаларни интеграциялашни ўз ичига олади. Ушбу тизим, ўқувчиларни ишлашга тайёрлаш ва уларнинг касбий ривожланишини таъминлаш учун самарали механизм ҳисоблана-



ди. Германия тажрибаси бошқа мамлакатлар учун ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестациялашда намуна бўлиши мумкин.

Швецияда усталарни аттестациялаш жараёни давлат ва хусусий секторларнинг ҳамкорлигида амалга оширилади. Усталарнинг малака даражаси семинар-тренинглар орқали мунтазам равишда баҳолаб борилади. Ушбу жараённинг афзаллиги шундаки, усталарнинг касбий ривожланишини давом эттириш учун шарт-шароитлар яратилади [4].

Жанубий Кореяда усталарнинг аттестацияси давлат томонидан тасдиқланган стандартларга асосланади. Усталар қуйидаги мезонлар асосида баҳоланади:

- Амалий машғулоти ўтказиш қобилияти;
- Инновацион технологиялардан фойдаланиш;
- Таълим муассасаси ва ишлаб чиқариш корхоналари ўртасидаги ҳамкорлик даражаси;
- Олиб борган машғулотлар самарадорлиги.

Баҳолаш жараёнида иш берувчилар ва мустақил экспертлар иштирок этади, бу эса объективликни таъминлайди.

Финляндияда ишлаб чиқариш таълими усталари касбий педагогик тайёргарликдан ўтган бўлиши шарт. Уларнинг аттестациясида асосий эътибор қуйидагиларга қаратилади:

- Ўқувчига йўналтирилган ёндашув;
- Мустақил ўқитиш ва баҳолаш усуллари;
- Таълим жараёнида рақамли технологиялардан фойдаланиш қобилияти.

Ишлаб чиқариш таълими усталарининг ривожланишини рағбатлантириш учун махсус грантлар ва моддий қўллаб-қувватлаш тизими мавжуд.

АҚШда аттестация жараёни кўпинча стандартлаштирилган тестлар ва амалий имтиҳонлар орқали амалга оширилади. Ушбу тизим усталарнинг билимларини тизимли равишда баҳолаш имконини беради. Шунингдек, ишлаб чиқариш соҳасида сертификатлаштириш дастурлари кенг тарқалган [5].

Ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестациялаш жараёнида амалий ва назарий билимларни интеграциялаш муҳим. Ушбу интеграция усталарнинг реал иш юритиш муҳитида самарали фаолият юритишини таъминлайди.

Ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестациялаш жараёнида доимий ўзгартириш ва янгиланиш талаб этилади. Бугунги кунда технологи-



ялар ва ишлаб чиқариш усуллари тез ўзгаради, шунга кўра, усталарнинг билимлари ҳам доимий равишда янгиланиб бориши керак.

Иш берувчилар билан яқин ҳамкорлик уста аттестациясининг самарадорлигини ошириш учун муҳим. Улар усталарнинг талабларини аниқлаш ва таълим дастурларини такомиллаштиришда иштирок этишлари керак.

Хорижий тажрибалардан келиб чиқиб, ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестациялаш жараёнида назарий ва амалий билимларни интеграциялаш, доимий ўзгартириш ва иш берувчилар билан ҳамкорлик қилиш муҳим аҳамиятга эга. Ушбу ёндашувлар, ўқув жараёнини самарали ташкил этиш ва усталарнинг малака даражасини оширишда муҳим роль ўйнайди.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ишлаб чиқариш таълими усталарини аттестациядан ўтказишда ишлаб чиқариш соҳасидаги замонавий талабларга мослашиш учун аттестация жараёнларини доимий равишда такомиллаштириш, усталар учун семинар ва тренингларни ташкил этиш орқали билимларни ошириш ҳамда иш берувчилар билан яқин ҳамкорликни таъминлаш муҳим ўрин тутати. Хорижий тажрибалардан келиб чиқиб, ишлаб чиқариш таълими усталарини сертификатлаш компетенциялар ва билимларни баҳолашни, шунингдек уларнинг аниқ ишлаб чиқариш соҳалари талабларига мувофиқлигини тасдиқлашни ўз ичига олади. У стандартлаштирилган ўқитиш усуллари, муайян касблар учун сертификатлашни, шунингдек узлуксиз касбий ривожланиш имкониятларини ўз ичига олади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Касбий таълимда малакали кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва халқаро таълим дастурларини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2024 йил 16 октябрдаги ПФ-158-сон Фармони;
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мақтабгача, умумий ўрта, ўрта махсус, профессионал ва мактабдан ташқари таълим ташкилотлари педагог кадрларини аттестациядан ўтказиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2021-йил 17-сентябрдаги 572-сон қарори;
3. Müller J. (2019). Vocational Yeducation and Training in Germany. Berlin: Springer.
4. Svensson L. (2020). The Swedish Dual System: A Model for Competence Development. Stockholm: Nordic Council of Ministers.
5. Johnson R. (2018). Certification in the American Workforce. New York: Routledge.



MALAKA OSHIRISH TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING ILMIY ASPEKTLARI

Abdiraxmonov A.I.
Mustaqil tadqiqotchi

Tayanch so'zlar: malaka oshirish tizimi transformatsiyasi, kasbiy kreativlik, Innovatsion ta'lim texnologiyalari va mexanizmlari, pedagogik kompetensiya, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, malaka oshirish tizimi.

Ключевые слова: трансформация системы повышения квалификации, профессиональное творчество, инновационные образовательные технологии и механизмы, педагогическая компетентность, подготовка конкурентоспособных кадров, система повышения квалификации.

Key words: transformation of the advanced training system, professional creativity, innovative educational technologies and mechanisms, pedagogical competence, training of competitive personnel, advanced training system.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqola malaka oshirish tizimi transformatsiyasining ilmiy aspektlarini, ya'ni, pedagog xodimlarning malakasini oshirish tizimidagi o'zgarishlar, ushbu jarayonlarda pedagoglarning zamonaviy ta'lim talablariga moslashishi, ularning kasbiy kreativligini rivojlantirishga yo'naltirilgan malaka oshirish mexanizmlarining samaradorligi va kasbiy mahoratiga ta'siri bo'yicha atroflicha fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье дается комплексный анализ научных аспектов трансформации системы профессионального развития, а именно изменений в системе профессионального развития педагогических кадров, адаптации педагогов к современным образовательным требованиям в этих процессах, эффективности механизмов профессионального развития, направленных на развитие их профессиональной креативности, и их влияния на профессиональные навыки.

SUMMARY:

The article provides a comprehensive analysis of the scientific aspects of the transformation of the professional development system, namely changes in the system of professional development of teaching staff, adaptation of teachers to modern educational requirements in these processes, the effectiveness of professional development mechanisms aimed at developing their professional creativity, and their impact on professional skills.

Kirish. O'zbekistonda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tup islohotlar zamonaviy talablarga mos ta'lim muhitini yaratish, pedagogik xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va o'quv jarayonlarini innovatsion ta'lim



texnologiyalari bilan ta'minlash orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

Muhtaram Prezidentimiz boshchiligida ta'lim sifatini yanada yaxshilash, ta'lim oluvchilarning shaxsiy va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagogik xodimlarning kasbiy kreativligini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish, ta'lim dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida modernizatsiya qilish va o'quv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali tizimni transformatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar O'zbekistonning global ta'lim bozorida raqobatbardosh o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiya sharoitlarida ta'limni asosiy tashkil etuvchilari bo'lgan pedagog xodimlarga ta'lim oluvchilarni real iqtisodiyot tarmoqlari talablariga javob beradigan, raqobatbardosh zamonaviy texnologiya va innovatsiyalardan xabardor qilib tayyorlashdek yuksak vazifa qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 4623-son qarorida ta'lim samaradorligini yanada oshirish uchun pedagoglarni tayyorlash tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar sifatida, pedagog xodimlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, yuqori madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya va o'qitish metodlari, baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog xodimlarni shakllantirish jarayonlarining samaradorligini oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Pedagog xodimlar imijiga qo'yilayotgan ushbu talablar, ularning faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish jarayonida albatta malaka oshirish jarayonlarini sifat va samaradorlik jihatdan transformatsiya qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot ishi dolzarbligidan kelib chiqib yurtimiz va xorijiy olimlar tomonidan ta'lim tizimini transformatsiyasi sharoitida uning sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarning tahlilini ko'rib chiqamiz.

N.M.Pavlov – o'zining ilmiy tadqiqot ishida, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasini aniqlashtiradi, bunda, ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida funksional imkoniyatlarning kengayishi va samaradorlikning oshishi natijasini baholaydi hamda ta'lim transformatsiyasi sharoitida, kasbiy faoliyatda raqamli texnologiyalar va resurslardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishini ta'kidlaydi.



A. Yu. Slepuxin – globallashuvning ijtimoiy qarama-qarshiliklari sharoitida ta'lim transformatsiyasi bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishida, ta'lim transformatsiyasi ta'lim siyosati, oliy ta'lim sifatini ta'minlash va global integratsiyalashuv strategiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tahlil qiladi hamda ta'lim sifatini oshirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan. Ta'lim transformatsiyasi, ta'lim sohasidagi globalizatsiya sharoitida yuzaga keladigan o'zgarishlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam berishini ta'kidlaydi.

Maykl Fullan o'z tadqiqotlarida ta'limni transformatsiya qilishni faqat o'qituvchilar darajasida emas, kadrlar buyurtmachilari, davlat va jamiyatning boshqa qatlamlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlanish zarurligini ta'kidlaydi hamda o'zgarishlarni real iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tizimli ravishda amalga oshirish kerakligini, ta'limning samarali bo'lishi uchun dasturlarni, pedagogik metodlarni va baholash tizimlarining o'zaro uyg'un bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim tizimidagi islohotlarning barqaror bo'lishi uchun pedagog xodimlarning kreativ fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish zarur.

Andreas Shleyxler tadqiqotlarida XXI-asrda ta'limni transformatsiya qilishda asosiy muammo sifatida pedagog xodimlarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishni ko'radi. Ta'limni transformatsiya qilishda pedagog xodimlarning faqat kasbiy bilimlarini emas, balki innovatsion madaniyatini ham rivojlantirish zarur deb hisoblaydi. U ta'limda ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlarni qo'llash, mas'uliyatni oshirish va ta'lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirishda pedagog xodimlarning kompetensiyasining rivojlanganligini muhim element sifatida ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi olim Devid Hargrevesning ta'kidlashicha, ta'lim tizimida sifat samaradorligini oshirish uchun transformatsiya qilishda nafaqat pedagog xodimlarni rag'batlantirish emas, balki, ularning o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashishini ta'minlash uchun ijtimoiy va tashkiliy muhitni yaxshilash zarur.

Linda Darling-Hammond pedagog xodimlarni tayyorlash va rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha keng miqyosda ilmiy-tadqiqotlar olib borgan dunyoga mashhur olimlardan biridir. U ta'limda pedagog xodimlarni murakkab ta'lim muammolariga tayyorlash uchun uzluksiz malaka oshirish tizimlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi hamda ta'lim tizimining transformatsiyasi sharoitida adolat va ijtimoiy tenglikni ta'minlash pedagoglarning samarali faoliyat olib borishiga va ta'lim oluvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi deb hisoblaydi.



Asosiy qism. Ta'lim transformatsiyasi – globallashuv jarayonlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishi va ma'naviy yuksak inson bo'lib ulg'ayishi uchun ularga berilayotgan ta'limning sifati hamda samaradorligini yanada yaxshilash, zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish, yoshlarni kelajakka samarali tayyorlashga qaratilgan ta'limdagi keng qamrovli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Ta'limni transformatsiya qilish orqali uning sifat samaradorligini oshirishdagi eng katta va keng qamrovli ishlar XX asirning 2-yarmidan boshlandi va ushbu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich: 1960 – 1980-yillardagi iqtisodiy o'zgarishlar natijasida ta'limda innovatsion yondashuvlar, yangi pedagogik texnologiyalar, amaliyot bilan uyg'unlashgan ta'lim texnologiyalari kirib keldi va buning natijasida ta'limda “ko'p yo'nalishli” yondashuvlar qo'llanila boshlandi.

Ikkinchi bosqich: 1980 – 1990-yilllarda rivojlangan davlat tomonidan ta'lim tizimini transformatsiyasi qilish orqali uning samaradorligini yanada oshirishda “kompetensiyaviy” yondashuvga (competency-based education) o'tishga e'tibor qaratildi.

Uchinchi bosqich: 1990 – 2000-yillarni o'z ichiga oladi va bu bosqichda ta'limning texnologiyalar bilan integratsiyasi, interaktiv o'qitish metodlari orqali global transformatsiyasi qilish jarayonlari amalga oshirildi. UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar ta'limni global miqyosda rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirdi.

To'rtinchi bosqich: 2000 – 2010-yillarda raqamli texnologiyalar asosida ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyalari ishlab chiqildi, ta'limning samaradorligini oshirish va uning sifatini yaxshilashga qaratilgan xalqaro tashabbuslar ko'lamini kengaytdi.

Beshinchi bosqich: 2010 – 2020-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashish kengaytdi. UNESCO tashkiloti tomonidan ta'limda innovatsiyalarni va global me'yorlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan “ta'limda “20/20” strategiyasi” ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Oltinchi bosqich: 2020-yildan boshlandi, ushbu davrda COVID-19 pandemiyasi ta'limni onlayn va raqamli formatlarga ko'chirishni zarur qilib qo'ydi, bu esa ta'limning transformatsiya jarayonini yanada tezlashtirdi.

Yuqoridagi qayd etilgan ta'lim tizimini transformatsiyasi qilishning qonuniyatlarini tahlil qilgan holda, malaka oshirish tizimini transformatsiyasi qilishning maqsadi va sabablarini atroflicha keltirib o'tish mumkin.

Malaka oshirish tizimi transformatsiyasining asosiy jihatlari:



1. O'zgaruvchan ta'lim muhitida pedagog kadrlarning kreativ jihatlarini yangi bosqichga olib chiqish hisoblanadi, bunda raqamli ta'lim muhitidan foydalanish orqali yuqori sifat samaradorligiga erishishga ustuvorlik beriladi.

2. Malaka oshirish jarayonlariga ta'limning sifat jihatdan mazmun va metodologiyasini o'zgarishiga xizmat qiladigan innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali pedagog xodimlarning kasbiy kreativligini rivojlantirish hamda raqobatbardoshligini oshirishga, ularning yangi zamonaviy kompetensiyalarni o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Malaka oshirish kurslarining umumiy maqsad va vazifalariga nazar solsak pedagog kadrlarning kompetentlik darajalarini yangi bosqichga olib chiqish bilan bog'lasak mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizda pedagog xodimlarning malakasini oshirish tizimini transformatsiya qilish 2017 – yildan boshlangan ta'lim tizimidagi tup islohotlar natijasida amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 27 – avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF – 5789-son Farmoni bilan oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining malakasini oshirish tizimi, pedagoglarning kasbiy bilim, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish zarurati asosida transformatsiya qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 – yil 26 – fevraldagi “Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 106-son qarori bilan kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish tizimi zamonaviy talablarga muvofiq professional ta'lim sifatini yanada yaxshilash zaruratidan transformatsiya qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 – yil 1 – iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi 293-son qarori bilan ushbu tizim “Hayot davomida ta'lim olish” tamoyili asosida transformatsiya qilindi.

Pedagog xodimlarning malakasini oshirish tizimini ehtiyojga asosan tashkil etilishi, ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish salmog'ini oshirish, ta'lim sifatini ta'minlash strategiyasining asosiy omillaridan biridir.

Sh.H.Pozilova, J.Kusharbayev, A.E.Obidov, A.J.Turekeeva, Sh.M.Adashboyev, M.Britkevich, N.Valyushina kabi bir qator olimlar tomonidan pedagog xodimlarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish



va uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha bir qator salmoqli ishlar olib borilgan.

Sh.X.Pozilova oliy ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish jarayonlarida pedagog xodimlarning kreativ yondashuvini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion-metodik loyiha, kreativ usullar va dizayn-fikrlash texnologiyalarini qo'llash orqali malaka oshirish kurslarining tashkiliy-pedagogik shartlarini hamda tinglovchilarning kreativligini rivojlantirishga qaratilgan "SCAMPER", "Kyubing", "KWHL" kabi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashtirgan.

J.Kusharbayev malaka oshirish kurslari davomida pedagoglarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishida pedagog xodimlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning asosiy komponentlari sifatida maqsadga yo'naltirilgan, mazmunli, faoliyatga doir va natijaviy tarkibiy asoslarni tanlab olib, mazkur modelnito'rtbosqichgabo'lganhamdauniamalga oshirishning asosiy bosqichlari sifatida propedevtik, motivatsion-modellashtirish va rivojlantirishni belgilagan hamda pedagog xodimlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning asosiy shakllari sifatida metodik ishlarning individual shakllarini belgilagan.

A.E.Obidov malaka oshirish jarayoniga vebinar texnologiyalarini qo'llash orqali oliy ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy jihatlarini asoslab bergan, unga ko'ra rahbar va pedagog kadrlarning raqamli texnologiyalaridan foydalanish kompetentligini rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etgan.

H.Sh.Begimqulov malaka oshirish tizimida raqamli texnologiyalarni maqsadli qo'llash orqali pedagog kadrlarning mediakompetentligini rivojlantirish muammosini tadqiq etib mediakompetentlikka quyidagicha izoh keltirgan. Professional ta'lim pedagogining mediakompetentligi – kasbiy faoliyati davomida ma'lumotlar bilan maqsadli ishlash (izlash, topish, ajratish, saqlash), ta'lim oluvchilarga ma'lumotlar yetkazishda multimedia texnologiyalarini qo'llash qobiliyati ekanligini keltirib o'tgan

Tadqiqotchi Sh.M.Adashboyev uzluksiz malaka oshirish tizimida pedagog xodimlarning raqamli kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari yuzasidan olib borgan ilmiy ishida, oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishda pedagogik muammolar, uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning davriy bosqichlari va mazmunini ochib bergan.



M.Britkevich malaka oshirish jarayonlarida pedagog xodimlarning innovatsion kasbiy faoliyatining xususiyatlarini tahlil qilish asosida innovatsion pedagogik tajribani obyektiv ravishda ta'limda eng yaxshi natija beradigan, uning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ilmiy asoslangan innovatsion amaliyot sifatida tavsiflagan hamda ta'limning asosiy tarkibiy qismi sifatida aniqlashtirgan.

N.Valyushina ilmiy ishi natijasida pedagog xodimlarning uzluksiz masofaviy malakasini oshirishning tashkiliy-pedagogik shartlarini takomillashtirish asosida malaka oshirish samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida subyektlarning o'z o'quv va kasbiy faoliyatini o'rganishning uslubini nazariy jihatdan asoslantirgan.

T.Isayeva pedagog xodimlarning malakasini oshirish jarayonlarida akademik jamoaning turli guruhlarini o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish malaka oshirish tizimining eng samarali usullaridan ekanligini misollar asosida keltirib o'tgan.

Xulosa va takliflar. Olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlillari asosida pedagog xodimlarning malakasini oshirish tizimining transformatsiyasi qilish mohiyatiga pedagog xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga moslashtirish deb tarif berish mumkin.

Ushbu jarayonlar, pedagog xodimlarning kasbiy kreativligini rivojlantirish, yangi kompetensiyalarni egallashga yo'naltirish va ularning zamonaviy pedagogik talablar asosida malakasini oshirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ushbu transformatsiya jarayonlarida o'quv reja va dasturlarni ilg'or xorijiy tajribalar asosida uyg'unlashtirish, malaka oshirish tizimiga innovatsion shakllar va yangi pedagogik metodikalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu yondashuv, ta'lim sifatini oshirish va pedagogik xodimlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 4623-son qarori.
2. Павлов Н.М. Развитие профессиональной деятельности сельского учителя в условиях цифровой трансформации образования. П.ф.н... дис автореф. – Я.: 2023. – 8 б.
3. Слепухин А.Ю. Трансформация высшего образования в контексте социальных противоречий глобализации. П.ф.н.,... дис автореф. – Н.: 2005. – 13-14 б.
4. Fullan, M. "Leading in a Culture of Change" N.:Jossey-Bass. 2001. – 15 b, "The New Meaning of Educational Change" N.: Teachers College Press. 2007. 297 b.



5. A.Schleicher “The OECD Education Working Paper” N.: Organisation for Economic Co-operation and Development. 2018. 66 b.
6. D.Hargreaves “The Learning Country”. N.: Educational Development Agency. 2000. 160 b.
7. L.Darling-Hammond. “The Right to Learn: A Blueprint for Creating Schools that Work”.N.: Jossey-Bass. 1997. 320 b.
8. Bates A. W. Technology, e-learning and distance education. N.: Routledge. 2005. 248 b.
9. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2015: Education for all 2000-2015. UNESCO Publishing. 2015.
10. Fullan M. The New Pedagogy: Students and Teachers as Learning Partners. N.: Pearson. 2013. 120 b.
11. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2013: The Education for All Global Monitoring Report. UNESCO Publishing. 2013.
12. Hargreaves A., & Shirley D. The Fourth Way: The Inspiring Future for Educational Change. N.: Corwin Press. 2009. 63 b.
13. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2013: The Education for All Global Monitoring Report. UNESCO Publishing. 2013.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 27 – avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF – 5789-son Faromni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 – yil 26 – fevraldagi “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 – yil 1 – iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 293-son qarori.
17. Позилова Ш.Х. Олий таълим муассасалари тингловчиларини қайта тайёрлаш ва малака ошириш курсларида креатив ўқитиш методикаси. Пед. Фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дис автореф. – Т.: 2019. – 10-12 б.
18. Кушарбаев Ж.У. Малака ошириш жараёнида педагог кадрларнинг инновацион салоҳиятини ривожлантириш механизмини такомиллаштириш Пед. Фан. Бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дис автореф. – Т.: 2020. – 15-16 б.
19. Обидов А.Э. Педагог кадрларни малакасини ошириш жараёнларини вебинар технологияси асосида такомиллаштириш. Пед. Фан. Бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дис автореф. – Т.: 2020. – 8 б.
20. Begimqulov H.Sh. Malaka oshirish tizimida rprofessional ta’lim redagog kadrlarining mediakomretentligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish. Ped. Fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... dis avtoref.. – Т.: 2023. – 21 б.
21. Adashboyev Sh.M. Uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Ped. Fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... dis avtoref.. – Т.: 2024. – 10 б.
22. Бриткевич М. “Инновационный педагогический опыт как фактор профессионального совершенствования учителя в условиях системы повышения квалификации”. Пед. Фан. доктори. дисс. – К.: 2009. – 11 б.
23. Валушина Н. “Педагогические условия повышения квалификации учителей на основе использования дистанционных образовательных технологий”. Пед. Фан. доктори. дисс. – К.: 2009. – 11 б.
24. Цедринский А.Д. Ишюационно-креативная подготовка педагога в динамике его профессионального становления. Пед. Фан. доктори. дисс. – К.: 2009. – 11 б.



ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИДА АҲОЛИГА ТИББИЙ ВА ИЖТИМОИЙ ТИББИЙ ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ ҲОЛАТИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Гадоева Л.Э.

*Бухоро давлат тиббиёт институтини
Ижтимоий фанлар кафедраси PhD доценти*

Таянч сўзлар: интеллектуал салоҳият, аҳолига тиббий хизмат, жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган, фармацевтика соҳаси, врачлик пунктлари, “Ақлли тиббиёт” ва “Ягона тиббий ахборот маркази” концепцияси.

Ключевые слова: интеллектуальный потенциал, медицинское обслуживание населения, физически здоровые, умственно и духовно развитые, фармацевтическая промышленность, медицинские центры, концепции «Умной медицины» и «Единого медицинского информационного центра».

Key words: intellectual potential, health care for the population, physically healthy, mentally and spiritually developed, pharmaceutical industry, medical centers, concepts of “Smart Medicine” and “Unified Medical Information Center”.

РЕЗЮМЕ:

Ушбу мақолада 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси, бутун соҳаларни янги давр нуқтаи назаридан танқидий таҳлил қилиб, мавжуд муаммоларни очик ойдин айтиш, уларни бартараф этишнинг замонавий йўллари излаш, бу борада халқ билан бевосита мулоқот ўрнатиш, давлат органларини халқга хизмат қилишини таъминлаш билан боғлиқ ҳолатлари очиқ берилган.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье представлена Стратегия действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в 2017-2021 годах, критический анализ всех отраслей с позиции новой эпохи, выявление существующих проблем, поиск современных путей их устранения, установление прямого диалога с народом по этому вопросу, обеспечение служения государственных органов народу.

SUMMARY:

This article presents the Strategy of Actions for the further development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021, a critical analysis of all sectors from the perspective of the new era, identifying existing problems, searching for modern ways to eliminate them, establishing a direct dialogue with the people on this issue, ensuring that government bodies serve the people.



2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси, бутун соҳаларни янги давр нуқтаи назаридан танқидий таҳлил қилиб, мавжуд муаммоларни очиқ ойдин айтиш, уларни бартараф этишнинг замонавий йўлларини излаш, бу борада халқ билан бевосита мулоқот ўрнатиш, давлат органларини халқга хизмат қилишини таъминлаш билан боғлиқдир. Ҳаракатлар стратегиясида ёшларга оид давлат сиёсати қилиб қуйидагилар белгиланган:

- жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган, мустақил фикрлайдиган, Ватанга содиқ, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга ёшларни тарбиялаш, демократик ислохотларни чуқурлаштириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш;

- ёш авлоднинг ижодий ва интеллектуал салоҳиятини қўллаб-қувватлаш ва рўёбга чиқариш, болалар ва ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, уларни жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш;

- ёшларни ижтимоий ҳимоя қилиш, ёш оилалар учун муносиб уй-жой ва ижтимоий-маиший шароитларни яратиш;

- ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари, ёшлар ва бошқа ташкилотларнинг самарали фаолиятини ташкил этиш”. Худди шунингдек, Ҳаракатлар стратегиясида аҳолига тиббий ва ижтимоий тиббий хизматлар кўрсатиш сифатини ошириш, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, оила ва аёллар саломатлигини ошириш, кекса авлоднинг тўлақонли ҳаёт кечиришини таъминлаш, фармацевтика соҳасини ривожлантириш кабилар ҳам вазифа қилиб қўйилган. Аҳолига тиббий хизмат кўрсатишга оид Президентимиз томонидан икки йил ичида 30 га яқин фармон ва қарорлар қабул қилинди. Улар тиббий хизматга оид барча йўналишларни қамраб олади. Энг муҳими шундаки, Президент аҳоли саломатлигини таъминлаш, ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш борасида йўл қўйиб келинаётган камчиликларни аниқлашга ва очиқ айтишга интиляпти. Илгари бизда бирор шифохона қурилса бутун республикага жар солинарди. Ҳали ишлаб, аҳоли ўртасида эътибор қозонишга улгурмаган тиббиёт марказлари жаҳон андозалари сифатида мақталарди. Оммавий ахборот воситалари, илмий адабиётлар мавжуд муаммоларни аниқлаш ва уларнинг ечимларини излаш ўрнига ташқи сурагга, тиббий иншоотлар рангига қараб мадҳлар тўқиларди. Тиббиёт муассасаларидаги таъмагирлик, эски ускуналардан фойдаланиш, сон-саноксиз навбатчилар, иш юритиш ва ишга қабул қилишдаги таниш билишчилик каби иллатлар “ўтиш даврига хос айрим камчиликлар ҳам бор” тарзида хас пўшланарди. Мустақиллик берган неъматларга



мадҳлар тўқиш, танқидчиларни “мустақилликни кўролмайдиган”, ичиқоралар деб аташгача бориб етгандик. Илдиз отган саноҳонлик, мадҳиябозликни бартараф этиш учун эса софдил, пок ниятли ва халқ манфаатларига чин дилдан хизмат қиладиган сиёсий раҳбар, ташаббуси ва етакчи керак эди. Ш.М.Мирзиёев ана шундай довюрак, дадил фикрловчи, танқидий қарашларни ўзининг иш усулига айлантирган лидер эканини намоён этди. Унинг дастурий ва чуқур илмий аҳамиятга эга “Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишлари”га бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузасидаги тиббиёт соҳасига оид танқидий мулоҳазаларини келтириш ўринлидир. Президент савол қўяди: “нима сабабдан ўтган шунча йил мобайнида соғлиқни сақлаш тизимининг бирламчи бўғини, энг аввало, қишлоқ врачлик пунктларини ислоҳ қилиш самарадорлиги таъминланмади? Бугунги кунда уларда 2 минг 500 нафар врач етишмайди. Бу масканларни замонавий ускуналар билан жиҳозлаш ва дори воситалари билан таъминлаш даражаси жуда паст”. Ислоҳотларнинг иккинчи босқичида қишлоқ врачлик пунктларини ташкил этишга киришилгани ҳақида кўп гапирилди, улар сонининг йилдан-йилга ошиб бораётгани далил қилиб келтирилди. Олти, етти йил ўтгач манзара мутлақ бошқача экани эътироф этилди. Барпо этилган қишлоқ врачлик пунктларининг деярли 40%га яқинида малакали врач йўқлиги ташвишли ҳол эмасмиди? Бундай пунктларда асосан коллежларни битирган қизлар ишлайди. Коллежлардаги таълим-тарбия, айниқса касбий маҳорат масаласи ўта пастлигини эсласак қишлоқларда тиббий хизмат қандай аҳволда қолиб келаётганини англаймиз. Президентимиз аҳволни яхшилаш учун қишлоқ врачлик пунктларига бориб ишловчи ёш врач кадрларга турар жой, рағбатлантирувчи маошлар тайинлаш, масофадан туриб профилактика қилиш тажрибасини жорий этишни кун тартибига қўйди. Унинг ташаббуси билан “Ақлли тиббиёт” ва “Ягона тиббий ахборот маркази” концепциялари ишлаб чиқилди. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати аъзоси А.Қудратовнинг фикрича, “Ақлли тиббиёт”нинг жорий этилиши, яъни масофадан туриб юртдошларимизнинг саломатлигини сақлаш, профилактика қилиш, керак бўлса, муолажаларни олиб бориш соҳада туб бурилиш ясашига ишонаман”. Кўп йиллик врачлик тажрибасига эга Сенат аъзоси дейди: “Тўғри, бу юқори малакали мутахассисларсиз, юқори технологияли тиббиёт асбоб-ускуналарисиз рўёбга чиқиши қийин. Аслида, ушбу масала кўпдан бери бизни ҳам ўйлантирарди. Яъни энг малакали, қўли енгил, тажрибаси



катта ҳамкасларимиздан айримлари дурустроқ даромад топиш илинжида кўпроқ ҳақ тўланадиган давлатларга кетиб қолаётганини эшитиб, ачинардик. Айниқса, шифокорларнинг аксарияти пойтахтда ишлашга интилар, шу боисдан ҳудудларда юқори малакали мутахассисларга эҳтиёж тобора ошиб бораётган эди”.

Германиядаги клиникалар дунёдаги энг қиммат даволаш даргоҳлари ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан замонавий тиббиёт технологияларини киритиш ва янги тиббий методлардан фойдаланишнинг ҳуқуқий норматив базаси ҳам яратилмоқда. Жумладан, “Мамлакатимизда инсон аъзоларини трансплантация қилиш бўйича қонуний асосларни ишлаб чиқа бошладик...Кўпчилик фуқароларимиз бундай тиббий операцияларни чет элда ўтказар, хорижга боришга қурби етмаганлар эса чорасиз аҳволда қолар эди”.

Айниқса қишлоқ аҳолиси тиббий хизматлар кўрсатишдан қониқмаётганини ҳисобга олган ҳолда “Жумладан, бирламчи бўғинда умумий амалиёт шифокори штат бирлиги ўрнига оилавий шифокор ва унга ёрдамчи сифатида 5 нафар ўрта тиббиёт ходимидан иборат тиббий бригадалар ташкил этилмоқда”.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. - Тошкент: Адолат, 2017. –Б. 26.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 жилд. - Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. –Б. 250.
3. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 2021. - Б.28.
4. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 2021. -Б.29.
5. Қудратов А. Тиббий хизмат сифатини янада оширишда янгича ёндашувлар // Халқ сўзи, 2018, 16-январь
6. Қудратов А. Тиббий хизмат сифатини янада оширишда янгича ёндашувлар // Халқ сўзи, 2018, 16-январь



ЕКОЛОГИК ФАЛОКАТДАН БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШГА: ОРОЛБО‘ЎИ О‘РМОНЛАСHTIRISH SIYOSATI VA IJTIMOIIY AHAMIYATI

Sherniyazova G.U.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti

Tayanch so‘zlar: saksovul, tanazzul, dengiz, ekologik ofat, tashabbus, yoshil iqtisodiyot, o‘rmonlashtirish.

Ключевые слова: саксаул, деградация, море, экологическая катастрофа, инициатива, зеленая экономика, лесоразведение.

Key words: saxaul, decline, sea, ecological disaster, initiative, green economy, afforestation.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada Orol dengizining qurishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik va ijtimoiy inqirozlar hamda ularni yumshatish maqsadida amalga oshirilayotgan o‘rmonlashtirish tashabbuslari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida xalqaro va mahalliy nashrlar, UNDP, GIZ va IFAS kabi tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, shuningdek, hukumat bayonotlari asosida siyosiy va ijtimoiy omillar o‘rganilgan. Olingan natijalarga ko‘ra, o‘rmonlashtirish loyihalari mintaqada ekologik muvozanatni tiklash, ishsizlikni kamaytirish, aholining sog‘lig‘ini yaxshilash va fuqarolik faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tashabbuslar siyosiy jihatdan mintaqaviy hamkorlik va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqola Orolbo‘yi hududida barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida amalga oshirilayotgan choralarni har tomonlama yoritadi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются экологические и социальные кризисы, вызванные высыханием Аральского моря, а также инициативы по лесоразведению, предпринимаемые для их смягчения. В рамках исследования были изучены политические и социальные факторы на основе международных и местных публикаций, официальных отчетов таких организаций, как UNDP, GIZ и МФСА, а также правительственных заявлений. Согласно полученным результатам, проекты лесоразведения играют важную роль в восстановлении экологического баланса в регионе, снижении безработицы, улучшении здоровья населения и повышении гражданской активности. Эти инициативы с политической точки зрения способствуют укреплению регионального сотрудничества и экологической безопасности. В статье всесторонне освещаются меры, предпринимаемые для достижения устойчивого развития в регионе Приаралья.

SUMMARY:

This article analyzes the ecological and social crises caused by the drying up of the Aral Sea, as well as the afforestation initiatives being implemented to mitigate them. The study examines political and social factors based on international and local publications, official reports from organizations such as UNDP, GIZ and IFAS, as well as government statements. According to the



results obtained, afforestation projects play an important role in restoring ecological balance in the region, reducing unemployment, improving public health, and increasing civic engagement. From a political perspective, these initiatives serve to strengthen regional cooperation and environmental security. The article comprehensively covers the measures being implemented to achieve sustainable development in the Aral Sea region.

Kirish. Orol dengizi - ilgari maydoni bo'yicha jahondagi to'rtinchi yirik ko'l bo'lgan transchegaraviy suv havzasi - 1960-yillardan boshlab Amudaryo va Sirdaryo daryolarining suvlari keng ko'lamli irrigatsiya tizimlariga yo'naltirilishi natijasida keskin qisqara boshladi. Bu jarayon, asosan, sovet davrida amalga oshirilgan agrar siyosat va gidromeliorativ loyihalarning bevosita oqibati bo'lib, mintaqada ekologik sistemaning izdan chiqishiga sabab bo'ldi. Orol fojiasi bugungi kunda XX asrning eng yirik texnogen-ekologik inqirozlaridan biri sifatida e'tirof etiladi [1].

Dengizning sath va hajm jihatidan qisqarishi natijasida iqlim sharoitlarida salmoqli o'zgarishlar kuzatildi: yoz fasli yanada issiqroq va quruqroq, qish esa sovuqroq va uzoq muddatli bo'lib bormoqda. Biogeotsenozning buzilishi, ya'ni shorlanishning keskin ortishi Orolbo'yi hududidagi fitotsenoz (o'simliklar dunyosi) va zootsenoz (hayvonot dunyosi)ning keskin qisqarishiga olib keldi. Shu bilan birga, dengiz tubining qurishi natijasida yuzaga kelgan aeolyar (shamol bilan ko'chuvchi) chang bo'ronlari orqali havoga ko'tarilgan tuz, pestitsid va boshqa toksik moddalar uzoq masofalarga tarqalib, aholi salomatligiga jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Tibbiy-statistik ma'lumotlarga ko'ra, bu hududda nafas yo'llari, oftalmologik va onkologik kasalliklar darajasi sezilarli darajada ortgan [2].

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan olib qaralganda, dengizning qurishi baliqchilik va kemasozlik kabi an'anaviy xo'jalik tarmoqlarining inqiroziga, ichki migratsiyaning kuchayishiga va aholi o'rtasida ishsizlikning o'sishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, mintaqadagi yerlarning degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv resurslari tanqisligi va yashash sharoitining yomonlashuvi kabi salbiy omillar kuzatildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati va xalqaro tashkilotlar tomonidan Orolbo'yi hududida ekologik muvozanatni tiklash, xususan, qurigan dengiz tubini fitomeliorativ (o'rmonlashtirish) yo'l bilan barqarorlashtirish bo'yicha keng ko'lamli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar ekologik restavratsiya, landshaft rekultivatsiyasi va yashil infratuzilmani rivojlantirish orqali mintaqada yashash uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan [3].

Mazkur maqola Orol dengizi muammosining siyosiy va ijtimoiy kontekstini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, xususan, o'rmonlashtirish tashabbuslarining



regionlararo suv resurslarini boshqarishdagi ahamiyati hamda mahalliy aholining turmush sifatini oshirishdagi roli ochib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tayyorlashda quyidagi manbalar tahlil qilindi:

Orol dengizi hududida amalga oshirilayotgan oʻrmonlashtirish loyihalari haqida xalqaro va mahalliy nashrlar.

UNDP, GIZ, IFAS kabi xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari.

Mintaqaviy hukumatlar va nodavlat tashkilotlarining rasmiy bayonotlari.

Natijalar. Orol dengizining qurib borishi Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasida suv resurslarini boshqarishdagi institutsional muvofiqlikning yetishmasligi va transchegaraviy suv resurslari boshqaruvi boʻyicha yagona siyosatning mavjud emasligi natijasidir. Ushbu ekologik inqiroz mintaqada kompleks ekologik xavfsizlikni taʼminlash va barqaror rivojlanish uchun mintaqaviy kooperatsiyaning muhimligini yaqqol namoyon etdi. Oʻzbekiston Respublikasi mazkur falokatning salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida Orolboʻyi hududlarida ekologik reabilitatsiya jarayonini yoʻlga qoʻydi, xususan, Orol dengizining qurigan tubida oʻrmonlashtirish (fitomeliyatsiya) ishlari boshlab yuborildi. Mazkur tashabbus atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashga ham qaratilgan boʻlib, ekotizimlarni tiklash orqali yashash sharoitlarini yaxshilashni nazarda tutadi [4].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli “2030-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni mazkur ekologik tashabbusning huquqiy-meʼyoriy asosini belgilab berdi. Shu bilan birga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda Orolboʻyi mintaqasi uchun maxsus Trust jamgʻarmasi (Trust Fund for the Aral Sea Region) tashkil etilib, u orqali sogʻliqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda bandlik darajasini oshirish yoʻnalishlarida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [5].

Orol dengizining qurigan tubini oʻrmonlashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ekotizim tiklash tashabbuslari nafaqat mintaqaning ekologik holatini yaxshilashga, balki mahalliy aholi hayot sifatini oshirishga, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashga ham xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonlar natijasida quyidagi ijtimoiy-maʼnaviy va iqtisodiy koʻrsatkichlarda sezilarli oʻzgarishlar roʻy bermoqda:

Ish oʻrinlari yaratish va iqtisodiy diversifikatsiya

Oʻrmonlashtirish faoliyatlari doirasida minglab mahalliy aholi bandligi taʼminlandi. Masalan, 2022-yilda Orol dengizining qurigan tubida 107 ming gektar maydonda saksovul va boshqa choʻl oʻsimliklari ekildi, bunda 635 nafar



ishchi-xodim, 250 ta yuqori unumdorlikka ega traktor va 2 ta kichik aviatsiya vositasi jalb qilindi. Bu ko‘lamli ishlar nafaqat vaqtinchalik bandlikni oshirdi, balki mahalliy iqtisodiyotda diversifikatsiya va barqaror o‘shishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Aholi salomatligini yaxshilashga ijtimoiy tibbiyotning ijobiy ta’siri

O‘rmonlashtirish natijasida chang-to‘zon va tuz bo‘ronlarining intensivligi sezilarli darajada kamayib, natijada havodagi aeroxollar miqdori pasaydi. Bu jarayon nafas yo‘llari kasalliklari, allergiyalar va boshqa salomatlik muammolarining kamayishiga yordam berdi, bu esa sog‘liqni saqlash sohasida ijobiy ijtimoiy natijalar keltirdi [7].

Ekologik madaniyat va fuqarolik faolligining oshishi

Mahalliy jamoalar, xususan yoshlar va ekologik faollar o‘rmonlashtirish tashabbuslarida faol ishtirok etish orqali ekologik ongning oshishiga va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ijtimoiy faollikning kuchayishiga hissa qo‘shmoqda. Bu esa fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy monitoring va ehtiyojlar tahlili

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va O‘zbekiston Respublikasi hukumatining hamkorligida Orolbo‘yi mintaqasida o‘tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar natijasida aholi ehtiyojlari batafsil o‘rganilmoqda. Ushbu monitoring orqali sog‘liqni saqlash, ta’lim, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sohasida aniq va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda [8].

Barqaror rivojlanish tamoyillari va kelajak avlodlar uchun sharoit yaratish

O‘rmonlashtirish tashabbuslari atrof-muhitni tiklash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolish asosida barqaror rivojlanish konsepsiyasini ilgari suradi. Yashil hududlarning ko‘payishi kelajak avlodlarga sog‘lom, ekologik toza va barqaror yashash muhitini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, Orol dengizining qurigan tubida amalga oshirilayotgan o‘rmonlashtirish loyihalari nafaqat ekologik tiklanishga, balki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi va barqaror rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Munozara. Orol dengizining qurigan tubini o‘rmonlashtirish tashabbuslari ekologik, siyosiy va ijtimoiy omillar nuqtai nazaridan muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu tashabbuslar mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash, siyosiy barqarorlikni ta’minlash hamda mahalliy aholi turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan barqaror rivojlanish modelining muhim komponenti hisoblanadi.

Orol dengizining qurishi Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi suv resurslarini boshqarish sohasida muvofiqlashtirilmagan siyosiy qarorlar va koordinatsiyalashtirilmagan boshqaruv mexanizmlarining natijasidir. Bu



jarayon mintaqaviy ekologik inqirozning siyosiy va ijtimoiy oqibatlarini yuzaga chiqardi. Shu munosabat bilan, oʻrmonlashtirish loyihalari davlatlararo ekologik hamkorlikni rivojlantirish va resurslarni barqaror boshqarish zaruratini taʼkidlaydi. Misol uchun, 1993-yilda tashkil etilgan Orolni Qutqarish Xalqaro Jamgʻarmasi (IFAS) mintaqaviy ekologik siyosatlarini muvofiqlashtirish va hamkorlikni kengaytirish uchun asosiy platforma sifatida faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, oʻrmonlashtirish tashabbuslari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar mintaqaviy ekologik boshqaruvni mustahkamlash va ekologik barqarorlikni taʼminlashga qaratilgan siyosiy strategiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon xalqaro ekologik hamjamiyat tomonidan ham qoʻllab-quvvatlanib, Orolboʻyi mintaqasida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasining muhim elementiga aylangan.

Oʻrmonlashtirish loyihalari mahalliy darajada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda, xususan, yangi bandlik imkoniyatlari yaratilib, aholi orasida ekologik ongni oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, Qoraqalpogʻistonda Moʻynoq tumanida, Qozogʻistonning Qizilorda viloyatida saksovul daraxtlarini ekish orqali nafaqat landshaftni barqarorlashtirish, balki mahalliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga ham hissa qoʻshilmoqda [9].

Shuningdek, oʻrmonlashtirishning ekologik salomatlikka taʼsiri ham ijobiy koʻrinmoqda. Orol dengizining qurigan tubidan koʻtarilgan tuz va chang boʻronlari avvallari aholining respirator kasalliklari va boshqa sogʻliq muammolariga sabab boʻlgan boʻlsa, endilikda oʻrmonlar bu ekologik xavflarning oldini olishda muhim tabiiy toʻsiq vazifasini bajaradi.

Natijada, oʻrmonlashtirish loyihalari nafaqat mintaqaviy ekologik muvozanatni tiklash, balki aholi orasida ekologik madaniyat va ongni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanish hamda ijtimoiy-ekologik tizimning barqarorligini taʼminlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Orol dengizining qurigan tubini oʻrmonlashtirish tashabbuslari ekologik falokatning oqibatlarini yumshatishda muhim rol oʻynaydi. Bu tashabbuslar siyosiy barqarorlikni taʼminlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Oʻrmonlashtirish, ayniqsa, choʻlga chidamli oʻsimliklar, masalan, saksovul (Haloxylon ammodendron) ekish orqali, Orol dengizining qurigan tubida yuzaga kelgan ekologik muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Bu oʻsimliklar tuproqni mustahkamlab, eroziyani kamaytiradi, namlikni saqlab qoladi va yer osti suvlari darajasini oshiradi. Natijada, bu hududlarda iqlim sharoitlari yumshab, yashash uchun qulayroq boʻladi.

Oʻrmonlashtirish loyihalari Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasida suv resurslarini boshqarishdagi muvofiqlashtirilgan siyosatning zarurligini koʻrsatadi.



Bu tashabbuslar orqali davlatlar o‘zaro hamkorlikni mustahkamlab, mintaqaviy barqarorlikka erishishlari mumkin. Masalan, Qozog‘iston va O‘zbekiston hukumatlari o‘rmonlashtirish loyihalarida birgalikda ishlashmoqda, bu esa siyosiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

O‘rmonlashtirish loyiholari mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratadi va ularning ekologik ongini oshiradi. Bu tashabbuslar orqali aholi o‘z hududlarini tiklashda faol ishtirok etib, ijtimoiy farovonlikka erishishlari mumkin. Masalan, O‘zbekistonning Muynoq shahri atrofida o‘rmonlashtirish ishlari olib borilmoqda, bu esa mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Orol dengizining qurigan tubini o‘rmonlashtirish tashabbuslari nafaqat hozirgi ekologik va ijtimoiy muammolarni hal qilishga, balki kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanish asoslarini yaratishga xizmat qiladi. Bu tashabbuslar orqali mintaqada yashash sharoitlari yaxshilanadi, iqtisodiy imkoniyatlar kengayadi va ekologik barqarorlik ta‘minlanadi.

Shunday qilib, Orol dengizining qurigan tubini o‘rmonlashtirish tashabbuslari ekologik, siyosiy va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mintaqada barqaror rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аладин Н. В. и др. Современные проблемы и возможное будущее Аральского моря // «Учёные записки Российского государственного гидрометеорологического университета». — 2017. — Вып. 48.
2. Курбанбаев Е., Артыков О., Курбанбаев С. Интегрированное управление водными ресурсами в дельте реки Амударьи // Global Water Partnership. — Ташкент, 2010. — С. 19.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (O‘zbekiston)ning Orol dengizi mintaqasida aholi ehtiyojlarini ijtimoiy-iqtisodiy o‘rganish bo‘yicha loyiha haqida qisqacha hisobot. URL: <https://uzbekistan.un.org/uz/49740-orol-dengizi-mintaqasida-aholi-ehtiyojlarini-ijtimoiy-iqtisodiy-organish-boyicha-loyiha>
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (O‘zbekiston). Orol dengizi mintaqasining imkoniyatlarini kengaytirish: barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish. URL: <https://uzbekistan.un.org/uz/246135-orol-dengizi-mintaqasining-imkoniyatlarini-kengaytirish-barqaror-rivojlanish-maqsadlariga>
5. Asqarova M.T., Jamolov J.J., Xadjayev X.S.. Yashil iqtisodiyot. (Darslik). — Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022. — 312 b.
6. Orolbo‘yi mintaqasida yirik loyihaning 2023-yilgi mavsumiga start berildi. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI axborot xizmati xabari. <https://eco.gov.uz/yz/site/news?id=3032&>
7. Rahimova F. Orol dengizi va u bilan bog‘liq ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar // Worldlyknowledgedenashriyot, 9-son, Dekabr, 2024. URL: www.worldlyjournals.com.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5836850>
9. Lake Aral Afforestation Project, Kazakhstan. https://www.green.earth/projects/lake-aral-afforestation-project-kazakhstan?utm_source=chatgpt.com



BIOLOGIYANI O'QITISHDA STEM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Mirzayeva Z.Sh.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: biologiya, STEM, ijodiy fikrlash, integratsiya, ta'lim texnologiyalari.

Ключевые слова: биология, STEM, творческое мышление, интеграция, образовательные технологии.

Key words: biology, STEM, creative thinking, integration, educational technologies.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada biologiya fanini o'qitishda zamonaviy STEM texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. STEM yondashuvi orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari, dars jarayoniga integratsiyalashgan loyihalar va uslublar misolida tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ:

В статье освещены теоретические и практические основы использования современных STEM-технологий в преподавании биологии. Проанализированы способы формирования навыков креативного мышления у учащихся посредством STEM-подхода на примере интегрированных в учебный процесс проектов и методик.

SUMMARY:

The article highlights the theoretical and practical foundations of using modern STEM technologies in biology education. It analyzes ways to develop students' creative thinking skills through the STEM approach, using examples of integrated projects and methods within the teaching process.

Kirish. XXI asrda jamiyatning barcha sohalarida innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va muammoli fikrlash talab etiladi. Shu boisdan ta'lim jarayonida, xususan, biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim masalaga aylanmoqda. Bunda STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) texnologiyasidan foydalanish yuqori samaradorlik kasb etadi. Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda STEM yondashuvining o'rni va uning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.



1. STEM texnologiyasining mohiyati va o'rne. STEM texnologiyasi - fan, texnologiya, muhandislik va matematikani yagona tizimda integratsiya qilgan holda o'quvchilarning kompleks fikrlash va real hayotdagi muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

- O'quvchilarda amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;
- Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish;
- Innovatsion g'oyalarni ilgari surish va hayotga tatbiq qilish.

Biologiya fani esa o'zining tabiiy-ilmiy mohiyatiga ko'ra, STEM yondashuviga juda mos tushadi.

2. Biologiya darslarida STEM elementlarining qo'llanilishi. STEM yondashuvi biologiya faniga quyidagi shakllarda integratsiyalanadi:

- **Ilmiy tadqiqot loyihalari:** Masalan, "Yerda yashovchi organizmlarning moslashuv mexanizmlari" mavzusida eksperimentlar o'tkazish va natijalar asosida xulosalar chiqarish.
- **Muhandislik yondashuvi asosida model yasash:** DNK, hujayra tuzilmasi, yurak yoki boshqa a'zolarining uch o'lchamli modellarini yasash orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki ijodiy fikrlashga ham rag'batlantiriladi.
- **Ekologik muammolarni yechish bo'yicha loyihalar:** Masalan, maktab hududidagi chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha ekologik loyiha ishlab chiqish.
- **Axborot texnologiyalaridan foydalanish:** Sensorlar, mikrokontrollerlar (masalan, Arduino) yordamida o'simlik o'sishini kuzatish va monitoring qilish.

3. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullari. Ijodiy fikrlash - bu yangicha fikr yuritish, mavjud bilimlardan yangi g'oyalarni yaratish, muammolarga noodatiy yechimlar topish qobiliyatidir. Uni rivojlantirish uchun biologiya darslarida quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- **Muammoli vaziyatlarni hal qilish:** O'quvchilarga real hayotdagi ekologik yoki biologik muammolarni taqdim etish va ularni mustaqil hal qilishga yo'naltirish.
- **"Fikrlar portlashi" (Brainstorming) usuli:** Guruhlar bilan yangi g'oyalarni ishlab chiqish.
- **SCAMPER texnikasi:** Yangi mahsulot yoki g'oya yaratishda mavjud fikrni modifikatsiyalash.



- **“Agar...” texnikasi:** Masalan, “Agar insonlarda fotosintez bo‘lsa-chi?” kabi savollar orqali ijodiy tafakkurni faollashtirish.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim olishi jarayoni endilikda faqat tayyor ma’lumotlarni yodlashdan iborat bo‘lmay, balki olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish, muammolarni hal eta olish, mustaqil fikrlash va yangilik yaratish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Ayniqsa, biologiya fanida bu yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu fan tiriklik olami qonuniyatlarini, tabiiy jarayonlar va inson hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim masalalarni o‘rgatadi.

STEM texnologiyasidan biologiya darslarida foydalanish orqali:

- o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish,
- fanlararo integratsiyani ta’minlash,
- ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvlarni shakllantirish,
- jamoada ishlash va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, STEM yondashuvi orqali o‘quvchilar:

- nazariy bilimlarni hayotiy muammolar bilan bog‘lashni o‘rganadi,
- real tadqiqotlar va loyihalarda qatnashish orqali analitik fikrlashni o‘zlashtiradi,
- o‘z g‘oya va ishlanmalarini yaratish orqali ijodiy salohiyatini ochadi.

O‘qituvchi uchun esa STEM texnologiyasini o‘zlashtirish:

- ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi,
- darsni innovatsion shaklda tashkil etish imkonini beradi,
- o‘quvchilarning individual va guruhiiy faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi.

Shunday qilib, biologiyani STEM asosida o‘qitish nafaqat o‘quvchining fan bo‘yicha bilimini mustahkamlashga, balki uni ijodkor, tashabbuskor va zamonaviy kasb egaligiga tayyorlashga xizmat qiluvchi kuchli pedagogik vosita sifatida e’tirof etilishi lozim. Bu yondashuv orqali biologiya fani hayotiylik kasb etadi, o‘quvchi esa uni passiv eslab qoluvchi emas, balki faol yaratuvchi subyekt sifatida o‘zini namoyon eta boshlaydi.

Biologiya darslarida STEM texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning fan bo‘yicha bilimini chuqurlashtiradi, balki ularning zamonaviy jamiyatda zarur bo‘lgan ijodiy, tanqidiy va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat biologiyani o‘rganadi, balki uni hayotga tatbiq qilish, ekologik muammolarga yechim topish va kelajak kasblariga tayyorlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuning



uchun biologiya o'qituvchilari STEM yondashuvini dars jarayoniga faol tatbiq etishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni.
2. Biologiya fanini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma / B.A. Abdurkarimov, M.M. Maxmudov. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019. – 264 b.
3. Ken Robinson. The Element: How Finding Your Passion Changes Everything. – New York: Penguin Books, 2009.
4. Yakovleva N.N. STEM-obrazovanie v sovremennom mire: metodologicheskie osnovy. – Moskva: Prosveshchenie, 2018.
5. Honey M., Pearson G., & Schweingruber H. (2014). STEM Integration in K-12 Education: Status, Prospects, and an Agenda for Research. – Washington, DC: National Academies Press.
6. Bybee R.W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. – NSTA Press.
7. Isroilova D.S. Biologiyani o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. // "Ilm-fan va innovatsiyalar" ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2022. – №1(9). – B. 45–48.
8. Sayfullayeva G. Ta'limda integratsiyalashgan yondashuv: zamonaviy talablari va amaliy yo'nalishlari. // "Pedagogik izlanishlar" jurnali. – 2023. – №2. – B. 61–66.
9. UNESCO. (2020). Education for Sustainable Development: A Roadmap. – <https://unesdoc.unesco.org>



MAKTAB O'QITUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH KURSLARINING IMKONIYATLARI

Yuldasheva S.M.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti I-kurs tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: tadqiqotchilik ko'nikmalari, o'qituvchi, malaka oshirish, kasbiy rivojlanish, innovatsion ta'lim, metodika.

Ключевые слова: исследовательские навыки, учитель, повышение квалификации, профессиональное развитие, инновационное образование, методика.

Key words: research skills, teacher, professional development, qualification improvement, innovative education, methodology.

РЕЗЮМЕ:

Maktab o'qituvchilari pedagogik faoliyatda nafaqat bilim beruvchi, balki tadqiqotchi sifatida ham shakllanishi zamonaviy ta'limning muhim talablari qatoriga kiradi. Tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni amaliyotga tatbiq etish hamda o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda malaka oshirish kurslarining o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada malaka oshirish kurslari orqali o'qituvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari, samarali metodlar, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ:

Современное образование требует от школьных учителей быть не только носителями знаний, но и исследователями. Развитие исследовательских навыков и их внедрение в педагогическую практику играет важную роль в повышении профессиональной компетентности педагогов. В данной статье рассматриваются возможности курсов повышения квалификации в развитии исследовательских умений учителей, эффективные методы, существующие проблемы и пути их решения.

SUMMARY:

In modern education, school teachers are expected not only to deliver knowledge but also to act as researchers. Developing research skills and applying them in teaching practices plays a crucial role in enhancing teachers' professional competence. This article explores the potential of professional development courses in fostering teachers' research skills, effective methods, current challenges, and possible solutions.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi jadal rivojlanib borayotgan global jarayonlar ta'sirida tubdan o'zgarishlarga duch kelmoqda. Raqamli texnologiyalar, yangi pedagogik yondashuvlar va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga



olish talab qilinayotgan sharoitda maktab o'qituvchilarining professional salohiyati va malakasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sifati bevosita o'qituvchilarning bilim darajasi, pedagogik mahorati va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bog'liq ekanligi ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlangan. Shu bois, o'qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish va ularning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Tadqiqotchilik ko'nikmalari o'qituvchilarga ta'lim jarayonida yuzaga keladigan murakkab pedagogik masalalarni chuqur tahlil qilish, yangi metodlarni sinab ko'rish, o'quv jarayonini takomillashtirish uchun asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. O'qituvchilar tadqiqot olib borish orqali o'z pedagogik tajribalarini yanada boyitadi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yaxshilashga xizmat qiladigan yangi pedagogik yechimlarni ishlab chiqadi. Shu sababli, o'qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyatga tayyorligini oshirish – ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'llaridan biridir. Malaka oshirish kurslari esa o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, zamonaviy tadqiqot metodologiyasini o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun qulay platforma hisoblanadi. Mazkur kurslar nazariy bilimlarni berish bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va muqobil yechimlarni izlashga qaratilgan bo'lib, o'qituvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, malaka oshirish kurslari o'qituvchilar o'rtasida bilim va tajriba almashinuvini ta'minlab, pedagoglarning professional hamjamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish va ularni zamonaviy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan, malaka oshirish kurslarining imkoniyatlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri yanada chuqur o'rganilishi lozim. Ushbu tadqiqot maktab o'qituvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda malaka oshirish kurslarining samaradorligini baholash, ularning afzalliklari va mavjud qiyinchiliklarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari maktab o'qituvchilarining professional rivojlanishi va ta'lim sifatini oshirishga doir muhim tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, malaka oshirish kurslari orqali o'qituvchilarning mustaqil ilmiy faoliyatga tayyorligini oshirish maktab ta'limining yanada zamonaviy, interaktiv va natijaviy bo'lishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda maktab o'qituvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi malaka oshirish kurslarining imkoniyatlari nazariy va empirik yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqot



doirasida malaka oshirishning ta'lim jarayonidagi o'rni, o'qituvchilarning professional rivojlanishiga ta'siri va zamonaviy pedagogik talablar bilan mosligi tahlil qilindi. Shuningdek, ta'lim jarayonida o'qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun malaka oshirish kurslarining mazmuni va metodlari o'rganildi. Tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar, metodologik yondashuvlar va ta'lim sohasidagi yangi tendensiyalar asosiy manba sifatida qabul qilindi.

Tahlil va natijalar. Maktab o'qituvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda malaka oshirish kurslarining imkoniyatlarini o'rganish natijalari ularning professional faoliyatida sezilarli o'zgarishlar yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Ushbu o'quv jarayoni o'qituvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlash, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular o'z faoliyatlarida mustaqil tadqiqot olib borishga tayyorlik darajasini oshirdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, malaka oshirish kurslari o'qituvchilarda tadqiqot metodologiyasi, ilmiy izlanishlarni tashkil etish, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni taqdim etish borasida bilimlarning kuchayishiga xizmat qilmoqda. O'qituvchilar malaka oshirish jarayonida pedagogik tadqiqotning asosiy tamoyillarini va usullarini chuqur o'rganib, amaliy mashg'ulotlarda erkin qo'llay boshladilar. Bu ularning o'quv jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni yechish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanish imkonini berdi. Natijada, dars jarayonida yangicha pedagogik texnologiyalarni joriy etishda muvaffaqiyatga erishildi, o'quvchilarning faolligi va bilim darajasi oshdi. Malaka oshirish kurslari o'qituvchilarni o'z faoliyatini doimiy tahlil qilishga, natijalarini baholashga hamda o'z ish uslublarini yangilashga rag'batlantirdi. Kurslarda olingan bilimlar asosida o'qituvchilar o'z sohalarida ilmiy maqolalar, metodik tavsiyalar va o'quv materiallarini yaratishda faol ishtirok etishdi. Bu esa ularning professional obro'-e'tiborining oshishiga va ta'lim sifatining yaxshilanishiga olib keldi. Shuningdek, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilar o'zaro tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning ilmiy hamjamiyatga integratsiyasini kuchaytirdi. Olingan natijalar ko'rsatdiki, o'qituvchilarning tadqiqotchilik faoliyati bilan shug'ullanishi nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ba'zi o'qituvchilar uchun nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda qiyinchiliklar mavjudligi aniqlangan. Bu, asosan, zamonaviy tadqiqot usullariga yetarlicha ega bo'lmaslik yoki vaqt yetishmasligi bilan bog'liq. Shu sababli, malaka oshirish kurslari davomida qo'shimcha konsultatsiyalar, amaliy seminarlar va onlayn resurslar orqali qo'llab-quvvatlash zarurati yuzaga keladi. Bunday qo'shimcha



imkoniyatlar o'qituvchilarga o'z tadqiqotlarini yanada sifatli bajarish, dolzarb pedagogik masalalarni hal etishda yanada mustaqil va samarali bo'lishlariga yordam beradi.

